O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ASQAR NIGMATOV

EKOLOGIYA HUQUQI

5630100- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish (tarmoqlar bo‘yicha) bakalavr yo‘nalishlari hamda 5A630102- Ekologiya (tarmoqlar bo‘yicha) magistratura mutaxassisligidagi talabalar uchun

D A R S L I K

«NOSHIR»
Toshkent – 2012

Bilimlar xazinaboni
Kitobxon.uz

N 65
UDK 577.4(575.1)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi qoshidagi birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisligidagi oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etildi.

Mas’ul muharrir: *Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Huquqshunoslik fakulteti Davlat va huquq asoslari, ekologiya huquqi kafedrasi mudiri yuridik fanlari doktori, professor* **Y.O.Jo‘rayev**

Taqrizchilar: *Toshkent Davlat Yuridik instituti Ekologiya va qishloq xo‘jaligi huquqi kafedrasi mudiri, yuridik fanlari doktori, professor* **J. T. Xolmo‘minov;**
TIMI Gidromelioratsiya fakulteti Ekologiya va suv resurslarini boshqarish kafedrasi professori, b.f.d. **B.Sh. Ismoilxo‘jayev;**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Huquqshunoslik fakulteti Davlat va huquq asoslari, ekologiya huquqi kafedrasi dotsenti, yu.f.n. **R.A.Ikramov**

F-1-121 raqamli fundamental loyiha asosida chop etilayotgan ushbu darslikda ekotizimlarni muhofaza qilish va ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish hamda buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashda yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy jihatlari yoritib berilgan.

Mazkur darslikni OTM uchun chop etilishiga sabab: birinchidan, 2011-yil 16-sentabrda O‘zR OO‘MTVning 387-sonli buyrug‘i bilan ekologiya (tarmoqlar bo‘yicha) magistrlari uchun «Ekologiya huquqi» fanining o‘quv rejada aks etishi, ikkinchidan, milliy huquq sohasining juda tez sur’atlarda takomillashib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga chuqurroq kirib borishi; uchinchidan, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning uchinchi bosqichi yakunida turgan vazifalardan bo‘lmish o‘quv-tarbiya jarayonini zamon talabiga javob beruvchi o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashdan iboratdir.

Darslik, huquqshunoslar uchun chop etilgan Ekologiya huquqiga doir o‘quv adabiyotlardan farqli ravishda, mavzularni bayon etishda urg‘u yurisprudensiyaning oddiy, lekin bo‘lg‘usi ekologlar uchun yetarli ravishda ma’lum bo‘lmagan jihatlariga e’tibor qaratilgan. U tahliliy va qiyosiy materiallarga boyligi, sohaning kelajak istiqbollari, takomillashayotgan qonunchilik manbalariga sharhlar va takliflar, matndagi glossariylar, qaytarish uchun savollar va topshiriqlar hamda rasm-chizmalar bilan boyitilgani, tavsiya etiladigan me’yoriy hujjat va adabiyotlarni tabaqalashgan ravishda berilganligi, ya’ni ta’limning zamonaviy talablarini keng ko‘lamda qo‘llanilganligi bilan ajralib turadi.

***Huquqshunos jiyanim* Nigmatov Jahongir Sadriddin**
o‘g‘lining yorqin xotirasiga bag‘ishlanadi

ISBN 978-9943-

© «NOSHIR» nashriyoti, 2012.
© A.N. NIGMATOV, 2012.

В данном учебнике, которая выполнена на основе реализации фундаментального гранта Ф-1-121, освещены основные аспекты правового регулирования общественных отношений в области охраны экосистем, рационального использования их ресурсов, а также восстановления нарушенных экосистем.

Поводом подготовки данного учебника послужила: во первых – внедрение в магистратуру по специальности экология (по отраслям) учебного курса «Экологическое право» на основе приказа № 387 МВССПО РУз от 16 сентября 2011 года; во вторых – широкое развитие юриспруденции и ее всестороннее внедрение во все сферы человеческой деятельности; в третьих – необходимость оперативного обеспечения учебно-воспитательного процесса качественными учебными материалами, отвечающих современным требованиям Национальной программы подготовки кадров.

Учебник, в отличие от ранее изданных учебных материалов по данному предмету для студентов высшего юридического и средне специального образования, учитывает специфические особенности деятельности экологов. Он обогащен в текстовой части глоссарием, вопросами и заданиями по каждой теме, рекомендуемая литература и источники экологического законодательства дифференцированы, т.е. отвечает всем требованием образования.

In this tutorial, which is made based on the realization of the fundamental grant F-1-121, highlights the key aspects of the legal regulation of social relations in the field of the protection of ecosystems, sustainable use of their resources, as well as restoration of damaged ecosystems.

The reason for the preparation of the textbook was: at first - the introduction of the training course “Environmental Law” in Master’s degree on ecology (by industry) by an order of the Republic of Uzbekistan № 387 MVSSPO of September 16, 2011, and at the second - the broad development of law and its full implementation in all spheres of human activity, in the third - the need for operational support of the educational process quality learning materials that meet the modern requirements of the National Training Programme.

Textbook, in contrast to previously published educational materials on the subject for students of higher legal and secondary special education, takes into account specific features of the environmentalists. It is enriched in the text of the glossary, questions and tasks for each topic, further reading and sources of environmental law are differentiated, that is, meets all the requirements of education.

Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir.

Islom Karimov

MUQADDIMA

XXI asrga kelib dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim masalalardan biri global miqyosda inson xavfsizligi, xususan uning bir elementi bo'lmish ekologik xavfsizlikni ta'minlashdir. Shuning uchun ham ekologiya – tabiatda organizmlar, jumladan, kishilar va ularning atrof-muhiti bilan munosabatlariga doir tushuncha, voqelik, hodisa va jarayonlarni tadqiq qiluvchi fan tarmog'i, ularga oid bilimlarni beruvchi ta'lim yo'nalish hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni optimallashtiruvchi amaliyot sohasiga aylangan.

Ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning asosiy bo'g'ini sifatida qaralar ekan, u kundalik hayotimizning barcha jabhalarini o'z ta'sir doirasiga qamrab olmoqda. Zero, kishilik jamiyati rivojlanar ekan, uning faoliyati muqarrar ravishda atrof tabiat bilan bevosita yoinki bilvosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham Yurtboshimizning ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga qarata aytilgan har bir so'zlari ekotizimlar xavfsizligiga qaratilgandir.

Bozor iqtisodiyoti talablari keng xalq ommasiga singdirilayotgan bir davrda ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish huquq rolini so'zsiz oshirmoqda. Chunki insoniyatning barqaror rivojlanishi barcha davlatlarning ichki va tashqi ekologik funksiyalarini tinch yo'l bilan hal qilinadigan huquqiy tartibga solish metodlarini qo'llashga chorlaydi. Bu usulning qay darajada afzal ekanligi va insonlarning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun nechoqlik ahamiyat kasb etishini Siz ushbu darslik bilan tanishish davomida anglab olasiz.

Mazkur darslik muallifning oliy o'quv yurtlari uchun chop etilgan «Ekologiya huquqi»ga oid barcha o'quv adabiyotlaridan farqli ravishda, u huquqshunoslarga emas, balki kelgusida ekologiya va

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislar uchun mo'ljallangandir. Darslik nafaqat faktik ma'lumotlarni keltirish, balki milliy yuridik adabiyotlar, internet global axborot tizimi, chet el olimlarining mazkur sohada erishgan yutuqlarini va yo'l qo'ygan kamchiliklarini atroflicha tahlil qilish orqali yozilgan. Fan va ta'lim doimo rivojlanishda, uning yutuqlaridan foydalanib, kelajakda yangi o'quv adabiyotlarini yaratish nuqtayi nazaridan Sizning taklif va mulohazalaringiz foydadan holi emas, albatta.

Bilimlar xazinaboni
bxon.uz

Huquqiy demokratik davlatning asosiy ko'rsatkichlaridan biri – ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solinganligidadir.

UMUMIY QISM

I bob. DAVLAT, HUQUQ VA TABIAT. TABIATNI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH ZARURATI

1. Davlat, huquq va tabiat nima?

Har qanday ijtimoiy munosabat, ya'ni kishilik jamiyati o'rtasida yuzaga keladigan aloqalar turli shakl va ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ushbu munosabatlarning hududiylik, davriylik, majmualilik, tizimlilik xususiyatlari mavjud. Bu son-sanoqsiz samo jismlari ichida insonlar istiqomat qilayotgan yagona sayyora – Yer kurrasida ijtimoiy munosabatlar turli joylarda har xil turda namoyon bo'ladi (hududiylik), vaqt o'tishi bilan ular o'zgarib boradi (davriylik), iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ekologik, ma'naviy-ma'rifiy kabi turlari o'zaro uzviy bog'langan (majmualilik) va albatta, shu davr uchun dolzarbligiga qarab ular zinapoyasimon qilib iyerarxik pog'onaga joylashtiriladi (tizimlilik). Ijtimoiy munosabatlar mana shu to'rtta xususiyatiga qarab ajratiladi. Ajratish yoki fan tilida – *ijtimoiy munosabatlarni tasniflash, asosan davlatlar miqyosida amalga oshiriladi.*

Davlat so'zi juda keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, unga nisbatan huquqshunoslikda uch xil yondoshuv mavjud: ijtimoiy, sinfiy va siyosiy- huquqiy. Ijtimoiy yondoshuvga ko'ra, davlat – umumiy munosabatlarni hal etish vositasi, ya'ni hokimiyat va xalq o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro aloqalarni tartibga soladigan apparat. Ikkinchisi, davlat – turli sinflar o'rtasidagi aloqalarni tartibga solishga qaratilgan apparat. Siyosiy-huquqiy yondoshuvga ko'ra esa davlat – jamiyat hayotini tashkil eituvchi huquqiy manba. Lekin ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda ushbu uch yondoshuv juda umumiy tarzda ifoda etilgan bo'lib, davlatning asl mohiyatini ochib bermaydi. Har bir hududiy birlik davlat deb atalishi uchun unda quyidagi asosiy belgilar aks etishi lozim:

- hokimiyat, ya'ni boshqaruv va majburlov apparatining mavjudligi;

- aholini muayyan, xalqaro miqyosda umume'tirof etilgan hududda uyushganligi;
- suverenitentligi, ya'ni ichki va tashqi siyosatni olib borishda mustaqilligi;
- huquq ijodkorligi, ya'ni ushbu hududda barcha uchun majburiy kuchga ega bo'lgan me'yoriy hujjatlarni qabul qila olishi;
- soliq, bojxona va shu kabi zaruriy to'lovlarni uyushtirish imkoniyatiga egaligi;
- o'z hududini siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, jumladan, ekologik jihatdan muhofaza eta olishi va h.k.

Ushbu belgilarni o'zida aks ettirmagan hokimiyat mustaqil davlat sifatida namoyon bo'la olmaydi. Masalan, Falastin davlati bunga, yaqqol misoldir. Shunday qilib, keng ma'noda davlat muayyan hududda oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va kelishtirib turadigan siyosiy tashkilot.

> Davlat – *umumiy munosabatlarni hal etish vositasi, ya'ni hokimiyat va xalq o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro aloqalarni tartibga soladigan apparat.*

Davlat har qanday ichki va tashqi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun boshqaruv funksiyasini amalga oshiradi. U davlat organlarining ish faoliyatini tashkillashtiradi, ijro etadi va farmoyish beradi. Bir qator huquqiy adabiyotlardan[1] ma'lumki, *davlat hokimiyati va uning boshqaruv* funksiyasiga ko'ra uch *shakl*da namoyon bo'ladi: monarxiya (yakka hokimlik), respublika (muddatli saylanish), aralash. *Tuzilishiga* ko'ra davlatlar unitar (yaxlit), federativ (ittifoqdosh) va konfederativ (maslakdosh) ko'rinishda bo'ladi. Siyosiy *rejimi*, ya'ni boshqaruvni amalga oshrish metodlari va yo'llariga ko'ra davlatlar – demokratik, aksildemokratik, totalitar, fashistik kabi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Davlat shakli, tuzilishi va rejimi ham o'z navbatida turli qismlarga ajratiladi va tasniflanadi.

[1] *Саидов А., Тажихонов У.* Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Т.: ИИВ академияси, 2001; *Саидов А., Таджиханов У., Одилқориев Х.* Давлат ва ҳуқуқ асослари: Дарслик. – Т.: «Шарқ», 2002; Odilqoriev X. Davlat va huquq nazariyasi: Elektron darslik. –T., 2010.

Bilimlar xazinaboni

Davlat boshqaruvini amalga oshrish biron bir *mexanizm*, ya'ni hokimiyat tizimi va ularning xatti-harakatlar tartibi asosida olib boriladi. Unga boshqaruv tarkibi, tarkibiy munosabat, funksional bo'linish, kafolat va muhofazalash kabi elementlar kiritiladi.

Davlat boshlig'i oliy davlat lavozimi bo'lib, u ijro hokimiyati sohibi va tashqi munosabatlar sohasida davlatning oliy vakili hisoblanadigan shaxs. Yuqorida keltirib o'tilgan talablarni amalda qo'llash uchun, albatta, huquq bo'lishi talab etiladi. Ta'limda o'quv va tarbiya, fanda ilm va ta'lim qanday «qo'l ushlashib» yurishsa, davlatchilikda esa davlat va huquq shunday o'zaro uzviy bog'langandir. Chunki hokimiyat va xalq o'rtasidagi ijtimoiy munosabat kelishuvlarining yozma ifodasi aynan huquqda aks ettiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi davlatining qanday shakl, tuzilish va rejimga ega ekanligi, hokimiyati va ularning boshqaruv funksiyalari mamlakatimizning asosiy yozma huquqiy mezoni – 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida to'liq aks etgan. Mustaqillik Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekistonda davlat shakli – respublika, tuzilishi – unitar, rejimi – demokratik ko'rinishda. Uning 11-moddasida davlat hokimiyat tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatidan iborat, deb bitilgan. O'zbekiston Prezidenti esa hokimiyat boshlig'idir.

Huquq – davlat hokimiyati tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan yozma ko'rinishda ifoda etiladigan umummajburiy ijtimoiy munosabat qoidalari tizimi. Ushbu huquq obyektiv (hamma uchun tegishli) yoki subyektiv (shaxsga tegishli) ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Davlatda bo'lgani kabi huquqda ham uning asosiy belgilari mavjud:

- davlat hokimiyati tomonidan o'rnatilishi;
- majburiy kuchga ega egaligi;
- huquq normalarida yozma ifoda etilishi;
- subyektiv huquqlar orqali harakatlanishi;
- davlat tomonidan himoyalanishi va h.k.

Huquq – *davlat hokimiyati tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan yozma ko'rinishda ifoda etiladigan umummajburiy ijtimoiy munosabat qoidalari tizimi.*

Huquqning davriyligi, hududiyligi, tizimliligi, mazmuni va mohiyatiga doir minglab adabiyotlar turli ko'rinish va shakllarda chop

etilgan. Shuning uchun ham biz ushbu darslikda unga atroflicha to'xtalib o'tmaymiz. Lekin ***huquq nafaqat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, balki ushbu munosabatlarni muhofazalash va uning qatnashchilarini (subyektlarini) tarbiyalash funksiyasini ham bajarishini*** eslatib o'tmoq darkor. Zero, barcha munosabat turlarida bo'lgani kabi, ekologik ijtimoiy munosabatlarda ham atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklashga oid barcha huquqiy munosabatlarda muhofazalash va tarbiyalash funksiyasi ekologik ongli va madaniyatli shaxsni shakllantirishda birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Esdan chiqarib qo'ymaslik kerakki, ijtimoiy munosabatlar nafaqat huquqiy normalarda *(«norma» – lotinchada «qoida», «namuna», me'yor» degan ma'nolarni anglatadi*), balki boshqa nohuquqiy normalar: axloqiy, jamoaviy, odatiy, an'anaviy, marosimiy, diniy, siyosiy ko'rinishda ham aks etishi mumkin. Masalan, o'zidan yoshi kattalarga salom berish yoki kichiklarga izzatda bo'lish – axloqiy; nodavlat jamoat birlashmalari (o'zbek mahallasidagi fuqarolar) o'rtasidagi o'zaro munosabatlar – jamoaviy; qadimdan shakllanib kelgan (Navro'zda sumalak tayyorlash va uni tarqatish kabi) munosabat qoidalari – an-an'aviy; kishilarning qoununda ko'rsatilmagan marosimlari va ularni (kelin-salomni) olib borish tartibi – marosimiy; diniy birlashmalarni tashkil qilish va uning aqidalariga rioya etish – diniy; shaxs yoki siyosiy uyushmalarning («grinps» yoki «yashillar» oqimi harakatlarining) xulq-atvor qoidalari – siyosiy tarzda tartibga solinishi. Shuning uchun ham *ekologik munosabatlar nafaqat huquqiy, balki nohuquqiy normalar orqali ham tartibga solinadi*[1]. Ekologiya huquqida asosan ijtimoiy munosabatlarning huquqiy normalar orqali tartibga solish qoidalari va me'yorlari ko'rib chiqiladi.

Shunday qilib, huquqiy normalar davlat tomonidan o'rnatiladi, uning bajarilishi kafolatlanadi va muhofazalanadi. *Huquq normalari umumiy xulq-atvor qoidasi sifatida:*

- makon va zamon doirasida majburiy kuchga ega bo'ladi;
- zamon talabi asosida rivojlanadi va shakllanadi;
- shaxsi aniqlanmagan va ko'p marotaba qo'llashga mo'ljallanadi;

[1] *З.М.Исломов.* Ҳуқуқ тушунчаси, моҳияти, ижтимоий вазифаси // Ўқув қўлланма. – ТДЮИ, 2004. – 138 б.

- muayyan kasbiy yo‘nalishga qaratiladi;
- davlat va u orqali xalqning irodasi aks etadi;
- davlat hokimiyati tomonidan shakllantiriladi;
- davlatning tegishli organlari tomonidan muhofazalanadi;
- ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi va h.k.

Huquq normalari o‘z tuzilishiga ko‘ra uch tarkibiy qismdan iborat:

1. ***Gipoteza*** – kimlarga tegishli ekanligini ko‘rsatuvchi qoidalar;
2. ***Dispozitsiya*** – subyektlarning (ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining) huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi qoidalar;
3. ***Sanksiya*** – gipoteza va dispozitsiya normalarini bajarmaganlar uchun belgilanadigan jazo (majburlov) choralari.

Huquq normalarining mazmunidagi qoidalar xarakteriga ko‘ra: vakolatlovchi, majburiyatlovchi, taqiqlovchi, buyruqlovchi (imperativ) va to‘ldiruvchi (dispozitiv) turlarga ajratiladi.

Vakolatlovchi normalar ijtimoiy munosabat subyektlarining o‘z vakolatidan kelib chiqadigan vazifalarni, ya’ni funksiyalarini aniqlaydi. Majburlovchi normalar esa ular nimalarni qilishlari shart ekanligini ko‘rsatadi. Aksincha, taqiqlovchi normalarda ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining nimalarni qilishlari mumkin emasligini ko‘rsatadi. Imperativ normalarda ishtirokchilarning qat’iy harakat yoki harakatsizliklarini cheklashni o‘rnatadi. Dispozitiv normalar ijtimoiy munosabat qatnashchilariga real sharoitdan kelib chiqqan tarzda alternativ ko‘rinishdagi xulq-atvor variantlarini tanlash imkoniyatini beradi.

Huquq normalari tizimi – huquq normalarini mazmun va mohiyatga ko‘ra turli qismlarga ajratish va ularni iyerarxik pog‘onalashtirish. Masalan, O‘zbekistonda huquq normalarini tizimlashda konstitutsiyaviy normalar (birlamchi) → qonun normalari (ikkilamchi) → qonun osti normalari (uchlamchi) ahamiyat kasb etadi. Lekin turli davlatlarning shakli, tuzilishi, rejimi va boshqaruv mexanizmiga qarab huquq normalari turlicha tizimlashtiriladi. Islom respublikalarida Qur’oni Karim, totalitar mamlakatlarda esa davlat hokimiyati boshlig‘i farmonlari birlamchi ahamiyat kasb etishi mumkin.

Huquq manbalari – ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy odat, huquqiy presedent va normativ-huquqiy hujjatlar. Tarixan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ishlatilib kelingan, ya’ni ko‘p marotaba takrorlangan, so‘ngra huquq normasi sifatida davlat tomonidan qabul qilingan qoida huquqiy odatga kiradi. Huquqiy presedent esa muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda sud hokimiyati yoki ma’muriy organlar qaroriga umummajburiy kuch berilishi. Huquqiy odat va huquqiy presedent O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimida qo‘llanilmaydi (Saidov, Tadjixanov, Odilqoriyev, 2002).

Normativ-huquqiy hujjatlar – vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilgan, umummajburiy kuchga ega bo‘lgan va yozma tarzda ifoda etilgan yuridik hujjati. Ularda huquqiy normalar belgilanadi, o‘zgartiriladi yoki bekor qilinadi, qoidalarning mazmun va mohiyati bayon etiladi.

Huquqiy munosabatlar – huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar. Huquqiy munosabat tuzilishiga ko‘ra obyekt, subyekt va mazmun kabi elmentlardan iborat bo‘ladi. Ushbu munosabat ishtirokchilarning harakati nimaga qaratilgan bo‘lsa – obyekt, uning ishtirokchilari – subyekt, ularning huquq va muajburiyatlarini amalga oshrish yo‘llarini ko‘rsatuvchi normalar – mazmuniga kiradi.

Huquqiy munosabat subyektlari bo‘lishi uchun ijtimoiy munosabat ishtirokchilari, albatta, huquqiy va muomala layoqatlariga ega bo‘lishlari kerak. *Huquqiy layoqat* – huquqiy munosabat ishtirokchilarining muayyan huquqlarga ega bo‘lish va yuridik majburiyatlarni zimmasiga olish qobiliyati. *Muomala layoqati* esa o‘z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajara olish qobiliyati.

Huquqiy munosabat qatnashchilari o‘z huquq va majburiyatlarini bajarmaganda huquqbuzarliklar kelib chiqadi. Huquqbuzarlik – huquqiy va muomala layoqatiga ega subyekt tomonidan harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishida sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish. Bunday qilmish qonun bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazish xavfini tug‘dirishi mumkin. Huquqbuzarlikning quyidagi belgilari mavjud: jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy xavfli; huquqqa zid; ayb; zararli oqibat; qilmish bilan zararli oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish; yuridik javobgarlik va h. Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra, huquqbuzarlikning jinoyat (odam o‘ldirish, o‘g‘rilik, firibgarlik va h.) va nojo‘ya ish ko‘rinishidagi turlari mavjud. Nojo‘ya ish ko‘rinishidagi huquqbuzarlik o‘z navbatida *fuqarolik-huquqiy* (mod-

diy zarar yetkazish, majburiyatni bajarmaslik va h.k.); *ma'muriy* (mayda bezorilik, yo'l harakati qoidalarini buzish va h.k); *intizomiy* (ishga kelmaslik, kech qolish va h.k.)larga bo'linadi.

Huquqbuzarlik – *huquq normalarida belgilangan va jamiyat uchun xavfli bo'lgan qilmish.*

Huquqbuzarlik huquqiy normalar orqali muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi yoki yetkazish xavfini tug'dirishi mumkin. Uning belgilari – ijtimoiy xavflilik, huquqqa zidlik, ayblilik, jazolanish.

Huquqbuzarlik quyidagi turlarga ajratiladi – fuqaroviy (mulkiy va shaxsiy nomulkiy zarar yetkazish), intizomiy (mehnat, ta'lim, xizmat kabi ichki tartib-qoidalarni buzish), ma'muriy (boshqaruv qoidalarini buzish), jinoiy (ijtimoiy xavfli bo'lgan aybli harakatlar yoki harakatsizliklar).

Asrlar davomida buyuk allomalar «Inson va tabiat nima?» degan savolga javob qidirib kelganlar. Inson tirik organizm sifatida boshqa tabiiy obyektlardan tubdan farq qilishi hamda uning buyuk kuch-qudrati, uni alohida bir mavjudot sifatida qarashga da'vat etib keldi. Ayniqsa, bunday dunyoqarash XX–XXI asrlar, ya'ni ilmiy-texnika yutuqlari davriga kelib avjiga chiqdi. «tabiat ustidan g'alaba»ga erishgan inson hamma ilm-fan tarmoqlarida alohida bir omil sifatida qaraladigan bo'ldi. Lekin inson aslida alohida bir «individ» yoki hech kimga bo'ysunmaydigan «yakka hokim» emas, u tabiatning bir bo'lagi, «tabiat oshxonasining bir anjomidir». Insonni tabiatdan va uni o'rab turuvchi atrof-muhitdan ajratish o'limga mahkum etish demakdir.

Falsafada tabiat deb obyektiv borliq, ya'ni bizni o'rab turuvchi olam va uning xilma-xil shakllari tushuniladi. Amaliyotda yoki tabiiy fanlarda uni kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbayi bo'lgan atrof tabiiy muhit deb qaraladi. Falsafiy yoki astronomik nuqtayi nazardan qaraganda, birinchi keng ma'no to'g'ridir. Zero yulduzlar, sayyoralar, osmon va uning cheksiz kengliklari, albatta, inson ishtirokisiz kelib chiqqan va tabiiydir. Lekin inson kundalik hayot faoliyatida ulardan foydalanmaydi va ulardagi jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Balki u o'zini o'rab turuvchi atmosfera havosi, suv, yer, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiat

ne'matlaridan «oldi-orqasi»ga qaramasdan foydalanadi va ularga ta'sir etadi. Nafaqat inson, balki butun jonzodlar ham bundan istisno emas.

Tabiat – *obyektiv borliq, ya'ni bizni o'rab turuvchi olam va uning xilma-xil shakllari.*

Inson Yer kurrasining jonli qobig'i – biosferada yashovchi va tirik organizmlar (to'g'rirog'i, organizmlar) turkumiga kiruvchi, lekin u murakkab hayotiy faoliyat yurituvchi individdir. U ongining yuqoriligi, nutqining rivojlanganligi, ijodiy faolligi, takomillashgan mehnat qurollarini yarata olishi, axloqiy, ma'naviy hamda ruhiy o'z-o'zini anglay olishi bilan boshqa organizmlardan tubdan ajralib turadi. Insonlarning muayyan bir hududda tarixan qaror topgan uyushgan guruhi – jamiyatdir. Xuddi ana shu insonlar guruhi bilan tabiat juda uzviy munosabatdadir.

Barcha fanlarda bo'lgani kabi ijtimoiy fanlarda ham jamiyat so'ziga turli tushunchalar beriladi. Lekin biz yuristlar A.A.Dadasheva va Sh.U.Yakubovlarning (2011) fikrlariga qo'shilgan holda jamiyatni ongli kishilar, ya'ni insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar tizimi deya olamiz. Inson doimo jamiyat bilan aloqada va uni jamiyatsiz tasavvur etish qiyin. Jamiyat – ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilarning ma'lum tarzda tashkil etgan tizimi. Kishilar, ularning tashkilotlari, jamoalari turli iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy, diniy va boshqa munosabatlar orqali jamiyatga birlashadilar. Jamiyatda tabiiy qonunlar emas, balki ijtimoiy qonuniyatlarga amal qilinadi. Lekin ijtimoiy qonuniyatlar tabiiy qonuniyatlar bilan qay darajada uyg'unlashganligini bilish uchun jamiyatga *tarixiy nuqtayi nazardan yondashmoq lozim.*

Jamiyat – *insonlarning muayyan bir hududda tarixan qaror topgan uyushgan guruhi.*

Insonning yakka o'zi uncha katta kuch emas, lekin uning ongli ravishda, biron-bir maqsadni ko'zlab, takomillashtirilgan mehnat qurollaridan foydalangan tarzda tabiatga nisbatan munosabati ekologik munosabatlarda juda ko'p narsani belgilab beradi. Agarda ushbu maqsad faqatgina jamiyat ehtiyojini qondirishga qaratilsa, atrof-muhit holatida juda sezilarli darajadagi salbiy o'zgarishlar yuz beradi. Ak-

sincha, ushbu jamiyat kuchi tabiatni muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish yoki uni qayta tiklashga qaratilsa, atrof-muhitda juda katta ijobiy ko‘rsatkichlarga olib kelishi muqarrar.

Insonlarning muayyan hududda uyushgan qismi – davlat orqali salbiy yoki ijobiy jarayonlarga huquq orqali ta’sir etishi esa tabiatni, xususan, atrof- muhitni keskin o‘zgartirib yuborishi mumkin. Tabiatning muayyan hududda, salbiy yoki ijobiy o‘zgarishi, albatta, o‘zga ma’muriy birlik va undagi inson, jamiyat va davlatga salbiy yoki ijobiy ta’sir etishi isbot talab etmaydigan aksiomadir.

Xulosa qilib aytganda, davlat, huquq va tabiat o‘zaro uzviy bog‘langan va ajralmasdir. Shuning uchun ham inson yashaydigan atrof-muhit holati ular o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni nechoqlik uyg‘unlashganligiga bevosita bog‘liq.

2. Jamiyatning tabiatga nisbatan munosabat shakllari

Ekologik yo‘nalishdagi har qanday ijtimoiy munosabatlarda, avvalambor, muayyan hududda uyushgan jamiyatning, ya’ni davlatning tabiatga nisbatan qarashlar tizimi (konsepsiyasi) aniqlaniladi va unga monand ravishda ekologik siyosat shakllantiriladi. Davlatning ekologik siyosati esa uning ekologik qonunchilik tizimini yaratishga zamin bo‘ladi. Shuning uchun ham biz tarixan jamiyatni tabiatga nisbatan qanday munosabatda bo‘lganligi, hozirda qandayligi va kelajakda qanday bo‘lishi lozimligi haqida so‘z yuritamiz.

Ekologiya – *muayyan makonda organizmlar o‘zaro va ularni atrof-muhiti o‘rtasidagi aloqadorlikni tadqiq qiluvchi fan sohasi, unga oid bilimlarni beruvchi va tarbiyalovchi ta’lim yo‘nalishi, ushbu aloqadorlikni optimallashtiruvchi amaliyot sohasi.*

Mutaxassislarning ma’lumotlariga ko‘ra, Yer yuzida sodir bo‘layotgan tabiiy jarayonlarning 9/10 qismida inson faoliyatining mahsuli aks etmoqda[1]. Bu jarayonlarni doimo ham ijobiy deb bo‘lmaydi. Chunki ekologik xavfsiz muhit, ya’ni insonlarning muhim hayotiy manfaatlari va avvalambor toza, sog‘lom va qulay tabiiy sharoitga ega

[1] Центр координации и информации социально-экологического союза (ЦКИ СоЭС) http://cci.glasnet.ru

bo‘lish huquqini to‘la qondirishga qodir bo‘la oladigan atrof tabiiy va ijtimoiy muhit holati inqiroz va falokat tomon intilib bormoqda (1.2.1-rasm). Uning oldini olmaslik o‘zini o‘zi o‘limga mahkum etish bilan barobardir.



1.2.1-rasm. **Ekologik xavfsiz muhit: kecha, bugun, ertaga.**

Jamiyatning tabiatga nisbatan munosabat shakli – *muayyan davrdagi kishilarning atrof tabiiy muhitga uzviy bog‘langan hayot tarzi*. Agar jamiyatning tabiatga nisbatan munosabatlarini insoniyatning tarixi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, uni quyidagi shakllarga ajratish mumkin: *oddiy, oddiy-iqtisodiy, iqtisodiy, iqtisodiy-ekologik, ekologik.*

Jamiyatning tabiatga nisbatan oddiy munosabat shakli – *ekologik tizimni buzmaydigan kishilarning soddalashtirilgan hayot tarzi*. Garchand ibtidoiy kishilik jamiyati formatsiyasida ekologiya va ekologik tizim haqida hech qanday dunyoqarash bo‘lmasa-da, le-

Bilimlar xazinasi

kin u holat amalda bo‘lgan. Ekologik tizim (ekotizim) – organizmlar, jumladan kishilarning yashash makoni (nishasi, joyi). Organizm (lot.-uyushtiraman, qomadining ko‘rinishidan xabar beraman) – jonsiz materiyadan bir qator xususiyatlari bilan farq qiluvchi tirik mavjudot[1]. XXI asrga kelib organizmlar nafaqat o‘simlik va hayvonot dunyosi, balki mikro va nanoorganizmlar darajasida tadqiq qilina boshladi. Shuning uchun ham organizmlar yashash muhiti Yer planetasi biosfera qatlamidan to bir tomchi suvgacha bo‘lgan makonni tashkil qilmoqda. Hozirgacha organizmlarning yashash makoni aniq bir darajada ilmiy tasniflanmagan yoki klassifikatsiyalanmagan.

Ekologik tizim *(ekotizim) – organizmlar, jumladan insonlarning yashash makoni (nishasi, joyi)*

Ushbu makon bo‘lib organizmlar o‘zaro va atrof tabiiy muhit bilan uzviy aloqadorlik qonuniyati asosidagi holatidir. Mazkur munosabat shakli insonlarning, to‘g‘rirog‘i, kishilarning ibtidoiy jamoa tuzumidagi hayot tarziga, ya’ni insoniyat tarixining ilk ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasi qaror topgan davriga xosdir. Bu davrda odamlarning Yer kurrasida paydo bo‘lishidan (5–6 mln. yil avval) to sinfiy jamiyat yuzaga kelguniga qadar bo‘lgan ijtimoiy tarixni o‘z ichiga oladi. Ibtidoiy jamoada ishlab chiqarish kuchlari va qurollari takomillashmaganligi tufayli, ularning hayot tarzi tabiatning ajralmas bir oddiy bo‘lagi sifatida kechgan. Atrof tabiiy muhit holati esa organizmlar, xususan, odamlar uchun nisbatan qulay – ekologik xavfsiz darajada bo‘lgan (1-rasmga qarang).

Kishilarning ibtidoiy jamoa bo‘lib yashashi davrida ham odamlar o‘zlarining faoliyatini tabiatga qanday ta’sir etayotganligi haqida o‘ylab ko‘rganlar va ularning hayotiy zarur ehtiyojlari bo‘lgan tabiiy obyektlarni saqlab qolishga uringanlar. Mevali o‘simliklarni saqlash va hayvonlarni ov qilish me’yorlarini yozma ravishda emas, balki og‘zaki ravishda kelishib olganlar. Bunday og‘zaki qoidalarni buzganlar jamoa boshlig‘i tomonidan hatto o‘lim jazosiga ham mahkum etilgan.

Ekolog-huquqshunos olimlar[2] jamiyatning tabiatga bo‘lgan munosabati shakllarini uch ko‘rinishda ifoda etadilar – oddiy, iqtisodiy va

[1] *Организм.* СЭС. – М.: Изд.СЭ. – С. 946.

[2] *В.В.Петров.* Экологическое право России. – М.: «Бек», 1997. – С.8.

ekologik. Lekin jamiyatda, ayniqsa, tabiatdagi qonuniyatlarning vaqt mobaynida o‘zgarib borishi revolyutsion tarzda emas, balki evolyutsion tarzda kechadi[1]. Shuning uchun ham biz *jamiyatning tabiatga nisbatan munosabatlari sekin-astalik bilan shakllana borgan va u bir shakldan ikkinchi bir shaklga bosqichma-bosqich o‘tgan, ya’ni oraliq ko‘rinishdagi shakllar ham bo‘lgan*, deya e’tirof eta olamiz.

Jamiyatning tabiatga nisbatan oddiy-iqtisodiy munosabat shakli *– ekologik tizimlarning kam va kichik hududlarda buzilishiga olib keladigan kishilarning hayot tarzi.* Sinfiy jamiyat shakllana borgani sari, kishilar soni va ishlab chiqarish qurollarining mukammallanishi, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi oddiy-iqtisodiy shaklini yuzaga keltirgan. Natijada, kishilarning hayot tarzi kichik bir tabiiy hudud – geomajmualarda ekologik xavfsizlik darajasining keskinlashuviga olib kelgan. Bunday mahalliy (lokal) ko‘rinishdagi ekologik o‘zgarishlar kishilarning jamoa bo‘lib to‘plangan yerlariga xos bo‘lgan. Lekin ular atrof-muhitning ekologik xavfsizlik darajasiga keskin ravishda ta’sir eta olmaganlar.

Geomajmua – *Yer yuzasining o‘ziga xos tabiat komponentlari (unsurlari) yig‘indisiga ega hudud.*

Hozirgi O‘zbekiston hududida oddiy-iqtisodiy shakl ibtidoiy jamoa tuzumining so‘nggi va quldorlik tuzumi davriga to‘g‘ri keladi. Yeramizdan avvalgi 12–15-Mingyilliklardan boshlab (mezolit davri) mahalliy aholining ishlab chiqarish quroli sifatida nayza, kamon, aylanma yoylarning paydo bo‘lishi hayvonot dunyosining kamaya borishiga, metall omoch va belkuraklarning yaratilishi yerlarni o‘zlashtirish va dehqonchilikning paydo bo‘lishiga olib keldi. Oqibatda, ular geotizimlar holatiga birmuncha ta’sir eta boshladi. Sug‘orish sxohobchalarining oddiy ko‘rinishdagi «to‘g‘on» usuli obikor (sug‘orma) dehqonchilikning yuzaga kelishiga, daryo o‘zanlari – «liman» usulining paydo bo‘lishi esa daryolarning tabiiy suv rejimi o‘zgarishiga olib keldi. Uy hayvonlarining ko‘payishi Chirchiq, Zarafshon, Quyi Amudaryo, Sirdaryo vodiylarida o‘simlik dunyosining siyraklashishiga olib keldi.

[1] *В.И.Вернадский.* Химическое строение биосферы Земли и её окружение. – М.: «Наука», 1995. – С. 260-261.

Bilimlar xazinaboni

Jamiyatning tabiatga nisbatan oddiy-iqtisodiy munosabat shakli tabiiy muhitning eng asosiy komponentlari – yer va suvning ekologik tizimdagi kichik aylanishiga ta'sir etdi. Lekin ijtimoiy muhitning bunday holati ekologik tizimlarning buferlik (tashqi ta'sirga qarshi turish qobiliyati) xususiyatini yo'qotib qo'ymadi.

Jamiyatda ishlab chiqaruvchilar va amaldorlar sinfining shakllana borishi hamda ish qurollarining takomillashib, davlatlar o'rtasidagi nizolarning kengayishi natijasida feodalizm va ilk bor bozor munosabatlari yuzaga kelgan kapitalizm davrida iqtisodiy munosabat shakli yuzaga keldi va rivojlandi. *Jamiyatning tabiatga nisbatan* ***iqtisodiy munosabat shakli*** *– faqatgina iqtisodiy jihatdan madaniylashgan kishilarning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchungina, atrof tabiatni iste'molchilik psixologiyasi pozitsiyasidan turib foydalanishi natijasida, atrof-muhitning ifloslanishi, resurslarning kamayishi va ekotizimlarning o'zgarishiga olib kelgan hayot tarzi.* Insonlarning bunday hayot tarzi ekologik tizimlarni katta maydonlarda va keng (global) miqyosda buzdi. Bu davrda, garchand insoniyat tarixida ilk bor huquqiy-ekologik elementlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga qaramasdan, insonlarning ekologik ongi, bilimi va madaniyati uning iqtisodiy ko'rsatkichiga nisbatan past edi. Tavrotda ham, Injilda ham, Qur'oni Karimda ham, odamzodning qiyomat kunlarini tabiat holatining salbiy ko'rinishlari bilan bog'lashi bejiz bo'lmagandir.

Uzoq tarixiy muddatni o'z ichiga olgan, hanuzgacha rivojlanayotgan va bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarda o'z asoratini saqlab kelayotgan ushbu munosabat shakli iqtisodiyotning har qanday atrof-muhit muhofazasidan ustuvor va ekologik siyosatdan mutlaqo xoliligini namoyon etmoqda. Garchand bunday o'lka va mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish borasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar yetarli darajada bo'lsa-da, lekin ularning amaliy tatbiq mexanizmi ishlab chiqilmagan yoki ekologik talablar davlat miqyosida targ'ib qilinmagandir. Aks holda huquqiy demokratiya va adolat mezonining o'chog'i bo'lmish AQSh pryeriy(dasht)larida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida son-sanoqsiz o'tlab yurgan bizonlar yoppasiga qirib tashlanganini, o'rmonlar maydoni ikki barobargacha qisqarganini, yemirilgan va yuvilgan yerlar 40 mln *ga* ga etganini, qishloq xo'jaligi oborotidan 58% unumdor yerlar chiqib ketganligini qanday tushunish

mumkin?! Ilmiy texnika yutuqlari u davrda ekologik xavfsiz muhitni saqlab qolishga emas, balki global miqyosda qurolli to'qnashuvlar va sovuq urushlarda g'olib chiqishga, ma'lum bir qatlamdagi aholini boyitishga xizmat qilgan. Shuning uchun ham J.B.Lamark 1820–1960-yillarni «inqilobiy sanoat yuksalishi», ekologik xavfsizlikning esa inqirozga tomon «sudralish» davri, deb bejiz aytmagan.

Shunday qilib, ekologik xavfsiz muhit inqirozi kishilar faoliyatining atrof-muhitga antropogen ta'sirining uch oqibatining majmuyi – tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi va ekologik tizimlarning buzilishi mahsulidir.

Tabiiy resurslarning kamayib va yo'qolib borishi hamda geomajmualarning ifloslanishi ekologik tizimlarning buzilishiga va ekologik inqirozlarning kelib chiqishiga olib keldi. Ekologik inqiroz paytida jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabat muvozanatining barqaror buzilishi natijasida atrof-muhit holati yomonlashib boradi, davlat boshqaruv va huquqni muhofaza qiluvchi organlar yuzaga kelgan holatdan chiqa olmaydilar hamda ekotizimlarni tiklash imkoniyatlari yo'qoladi, tabiat inqirozga, ijtimoiy muhit esa falokatga uchraydi. Chunki ekologik tizimlarda modda va energiyaning aylanish zanjirida turgan biron-bir tabiiy obyektning yo'qolishi yoki ifloslanishi natijasida kamayib ketishi tabiatning o'z-o'zini asrash, tashqi kuchlarga qarshi turish (buferligi) va qayta tiklash xususiyatlarini yo'qotib qo'yadi.

Ekologik inqiroz – *ekotizimlarda modda va energiya almashuvining tubdan buzilishi natijasida tabiiy muhitning inqirozga, ijtimoiy muhitning esa falokatga olib kelinishi.*

Ekologik inqirozga misol tariqasida Orol dengizi, to'g'rirog'i ko'lining atrofidagi holatni olish mumkin. Qachonlardir dunyoda eng katta ko'llar toifasiga kirgan Orol dengizi tarixan juda qisqa muddat ichida, ya'ni 40–50 yil ichida eng sho'r, ifloslangan va xalq xo'jaligi ahamiyatiga deyarli ega bo'lmagan o'rtacha ko'llar toifasiga kirib qoldi. Buning asosiy sabablaridan biri – Amudaryo va Sirdaryo suv rejimining keskin o'zgarishidir. 1982–1983-yillarga kelib ikki sersuv daryolarning Orolga quyilishi 13–14 barobarga kamayib ketdi. Natijada, Orol dengizining suv sathi 18 metrga, suv yuzasi 2,5 barobarga, suv hajmi 6 barobarga kamayib ketdi. Suvdan qurigan yuza 4,3 mln.

gektarni tashkil qilgani holda, deflyatsiya (shamol eroziyasi) natijasida tuzlar minglab kilometr doirada atrof-muhitni ifloslantirmoqda. Amudaryo va Sirdaryo suvlarining og‘ir metallar, pestitsid, gerbitsid kabi kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va sho‘rlanishi natijasida ularning suvi ichimlik suvi sifatida foydalanib bo‘lmasligini mutaxassislar isbot qilib berishdi. Qachonlardir baliqchilik va ov qilish maskani bo‘lgan Quyi Amudaryo qurigan qoldiq ko‘llar va sho‘rlangan tuproqlar maskaniga aylanib qoldi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari tufayli 1995–1997 yillarga kelib, Orol dengiziga suv quyilishi 15–17 km^3 gacha ko‘paytirildi. Yopiq havzaning suv taqsimoti xalqaro shartnoma va kelishuvlar orqali tartibga solinmoqda.

Savol tug‘iladi: iqtisodiy munosabat shaklida ekologik qonunlar bo‘lganmi? Bo‘lsa, nima uchun kishilik jamiyati bunday ekologik inqirozlarning oldini olmaganlar? Biz aytib o‘tdikki, jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy munosabat shakli insoniyat tarixining juda katta davrini o‘z ichiga oladi. Qadimgi diniy va mistik kitoblar, bizlarga, tabiat insonning yashash makoni ekanligi haqidagi fikr va mulohazalar, hattoki majburiy me’yoriy ko‘rsatmalar bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bor. Insonlarning iqtisodiy tafakkurlari yoki siyosiy talablari har qanday ekologik talablardan yuqori bo‘lgan. Shuning uchun ham ushbu davrda ekologik qonunlar o‘z yo‘lida, insonlarning yoki davlatlarning raqobat, bosqinchilik, boyish va qo‘shimcha bozorlarni egallash siyosati o‘z yo‘sinida ketmoqda.

Iqtisodiy munosabat shakli davriga xos ekologik qonunlardan bo‘lmish Mazovlarning XIII–XIV asrlarda «O‘rmon, tur, zubr va tarpanlar muhofazasi», Litva knyazi Sigizmund II ning «Volok nizomi»da baliqlarni urchish davrida ov qilish man etilgan. XIV asrda Fransiyada «Suvlar va o‘rmonlar» maxsus boshqarmasi tuzilgan bo‘lib, o‘rmonlarni muhofaza qilish ularning vazifasiga kiritilgan. Qadimgi Vilgelm podshohligi davrida kiyik, yovvoyi cho‘chqa va hattoki, quyonlarni o‘ldirganlari uchun kishilar o‘lim jazosiga duchor etilgan. *Ammo bu qonunlar ko‘proq tabiiy muhitni emas, balki feodal mulkni saqlab qolish va muhofaza qilishga qaratilgan edi, xolos.*

Yer kurrasida ekologik inqirozli obyekt va hududlarning kengayishi, ommaviy kasalliklarning ko‘payishi XX asrning ikkinchi pallasiga kelib kishilar e’tiborini tabiatga tomon yuz tutishga majbur etdi. Yevropa, ayrim Osiyo va Shimoliy Amerika mamlakatlarida nafaqat tabiiy resurslardan samarali foydalanish, balki uni asrashga qaratilgan bir qator ekologik qonunlar qabul qilindi va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, jamiyatning tabiatga yangi nisbatan munosabati – iqtisodiy-ekologik shakli yuzaga keldi.

Jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy-ekologik munosabat shakli *– mavjud ekologik tizimlarni saqlab qolish darajasidagi kishilarning hayot tarzi.*

Norvegiya, Kanada, Yaponiya, Shveytsariya, Germaniya, Shvetsiya kabi mamlakatlarning ekologik qonunchilik tizimi ekologik munosabat shakliga moslashtirilgan bo‘lib, kishilarning har qanday shakldagi ekologik harakatlari davlat tomonidan to‘laligicha qo‘llab-quvvatlanadi. Tabiiy resurslarni kamaytirish va atrof-muhitni ifloslantirish nafaqat fuqarolarga, hattoki davlat idoralari xodimlariga na moddiy va na ma’naviy foyda keltiradi. Masalan, AQSh ««Atrof tabiatni muhofaza qilish milliy siyosati» (NEPA) qonuniga binoan, hamma jismoniy, yuridik shaxslar va hattoki davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ham biron-bir tabiiy obyektdan foydalanishlaridan avval turli ko‘rinish va shakldagi ekologik test sinovlaridan o‘tadilar va tabiatga ta’sir etishi «ariza»sini topshiradilar. Test sinovlari natijasining birinchi bosqichidanoq 10% «ariza»lar sudlarga kelib tushadi. AQSh Prezidentining ijroiya qo‘mitasi qoshidagi Tabiatni muhofaza qilish Kengashiga kelib tushgan «ariza»lar ro‘yxati va sudlarning qabul qilgan qarorlari to‘g‘risida ochiq ma’lumotlar e’lon qilinadi. Undan tashqari, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha har bir AQSh shtati o‘ziga yarasha qonun qabul qilish imkoniga ega. Chunki shtatdagi ekologik holat, avvalambor, mahalliy aholiga ta’sir qiladi-da.

Tabiiy muhitni inqirozga, ijtimoiy muhitni falokatga olib kelmaslik uchun biz yaqin kelajakda bosqichma-bosqich ekologik munosabat shakliga o‘tib olishimiz zarur.

Jamiyatning tabiatga nisbatan ekologik munosabat shakli *– atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik tizimlarni qayta tiklash hamda sog‘lomlashtirishga qaratilgan kishilarning hayot tarzi.* Ekologik munosabat shaklida davlat boshqaruv tizimi, avvalambor, ekologik nobop hudud va obyektlarni tiklashga qaratiladi. Bunda ishlab chiqarish texnologiyasi, bi-

rinchi navbatda, kam chiqitli yoki yopiq – chiqitsiz siklni talab etadi. Ekologik ong va madaniyat kishilarning jamiyatda tutgan o‘rni va obro‘sini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo‘lib qoladi. Ekologik qonunlar va normativ hujjatlar nafaqat bevosita, balki bilvosita ham ekologiyalashtirilgan, amaliy tatbiqi esa ekologik-huquqiy mexanizmga to‘liq asoslanishni taqozo etadi. Tabiiy resurslardan foydalanishni cheklash va tabiiy obyektlarni qayta tiklash bir mamlakat miqyosida emas, balki ekologik xavfli hududlar bo‘yicha amalga oshiriladi va davlatlarning alohida muhofaza qilish obyektiga kiritiladi. Ekologik muammolar davlatlarning yangi barqaror rivojlanish konsepsiyasi nuqtayi nazaridan hal etiladi.

Jamiyatning tabiatga nisbatan beshta munosabat shakli ekologik qonunchilikni rivojlanish bosqichlarini ajratishda zamin bo‘la oladi.

3. Davlat va va huquqni belgilovchi ekologik qarashlar

Tabiatning jamiyatga nisbatan turlicha munosabat shakllari o‘sha davr kishilik jamiyatining, to‘g‘rirog‘i davlat va huquqning qanday ekologik qarashga ega ekanligini ko‘rsatadi. «Insonlarning dunyoqarashlari, – degan edi Abu Nasr Forobiy, – ularning tashqi ko‘rinishiga o‘xshab turlicha bo‘ladi va fazilat ularning ilmiga, hayot tarziga, yashash muhitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir». Biz ham o‘rta asrning ulug‘ faylasufi Forobiyning fikriga qo‘shilgan holda ekologik qarash va ularni davlat-huquq bilan bog‘lashga harakat qilamiz. N.F.Reymers: «Ekologiya – keng ma’noda insonlarning yashab ketishi haqidagi ta’limot», deb bejiz aytmagan[1]. Chunki insonlarning Yer kurrasida yashash muddati ularning ekologik qarashlarini amalda tatbiq eta olish imkoniyati bilan belgilanadi. Uni fanda ekologik konsepsiya, ya’ni qarashlar tizimi deb ataladi.

Ekologik konsepsiya – *jamiyatning tabiatga nisbatan munosabati to‘g‘risidagi qarashlar tizimi.*

Hammamizga ma’lumki tabiatda kechayotgan barcha jarayon, hodisa, voqea va holatlar muayyan bir qonuniyatga bo‘ysinadi. U

[1] *Н.Ф.Реймерс.* Надежды на выживание человечество. Концептуальная экология. – М.: «Россия молодая», 1992. – С.9

nafaqat tabiatda, balki ijtimoiy hayotda ham hukm suradi. Lekin ushbu tabiat va jamiyat qonunlari doimo ham uyg‘unlashgan bo‘lavermaydi.

Jamiyat qonunlari – *kishilarning xatti-harakatlari yoki biron-bir obyektga nisbatan munosabatini belgilaydigan ijtimoiy me’yorlar*.

Tabiat qonunlari – *butun borliqda, jumladan kishilarni o‘rab turuvchi atrof tabiiy muhitda kechayotgan hodisa, voqea, holat va jarayonlarning jamiyat qonunlariga bo‘ysunmaydigan va kishilar faoliyatisiz ham namoyon bo‘la oladigan kechinmasi*. Tabiat qonunlariga: tabiiy omillarning birgalikda harakat qilishi, tabiiy modda (suv, kislorod, uglerod...) va energiyaning katta va kichik aylanishi, ularning almashinuvi, organizmlarning evolyutsion tarzda rivojlanishi va shu kabilar kiradi.

Taniqli ekolog-huquqshunos olim V.V.Petrov[1] shu kungacha bo‘lgan ekologik qarashlarning mohiyati va mazmuni bo‘yicha ularni quyidagi ko‘rinishlarini ajratadi: *naturalistik, iste’molchilik, alarmizm, ekologik inqiroz sabablari, harakatlar strategiyasi, o‘sish va organik rivojlanish, global boshqarish, ekologik revolyutsiyalar nazariyasi, muhofaza qilish va rivojlanish, sotsialistik.* XXI asrga kelib BMTning yangi – *barqaror rivojlanish* (ayrim o‘zbek normativ hujjatlarida va o‘quv adabiyotlarida *«barqaror taraqqiyot»* nomi bilan ham ishlatiladi) konsepsiyasi yuzaga keldi[2] (1.3.1-rasm).

Naturalistik konsepsiya – *jamiyatdan ustun turuvchi tabiatni ilohiy kuch, dono yaratuvchi, ideal borliq deb qaraydigan falsafiy oqimlar va maktablar.* Bunday qarashlar tizimi jamiyatni tabiatga nisbatan munosabatlarining oddiy va oddiy-iqtisodiy shakllari davridagi kishilarga mos keladi.

Naturalistik konsepsiyaga qarama-qarshi bo‘lgan qarash ***iste’molchilik konsepsiyasi*** – *jamiyat qonunlarining tabiat qonunlari ustidan yoki kishilarning tabiat ustidan hukmronlik g‘oyasini ilgari surish.* Bunday g‘oya namoyandalari jamiyatning tabiatga nisbatan munosabatini iqtisodiy munosabat shakliga olib kelganlar. Ular bozor

[1] *В.В.Петров.* Экологическое право России. – М.: «Бек», 1997. – С. 28-33.

[2] *А.Н.Нигматов.* Экологические аспекты устойчивого развития. Матер. междун.конф. «Геог. проблемы устойчивого развития: теория и практика». Алматы, 2008. – С. 799-805.

1.3.1-rasm. **Jamiyatni tabiatga nisbatan qarashlarini belgilovchi ekologik konsepsiyalar.**

munosabatlarini shakllantirgan va kapitalizmning boshlang‘ich davrida turgan «yangi biznes» sohiblaridir. «Iste’molchilar» haqida buyuk amerikalik yozuvchi Jek Londonning o‘lmas asarlarida aks ettirilgan oltin qidiruvchilar mo‘may boylik orqasidan quvib, butun borliq tabiatni faqatgina ularning iqtisodiy talablarini qondirish manbayi deb qaraganlar. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida yuzaga kelgan Rossiya Federatsiyasidagi «neft va gaz baronlari» bularga yaqqol misol bo‘la oladi. Ular uchun boylik birlamchi, tabiat va insonlar hayoti ikkilamchidir.

Alarmizmchilar *(«alarpm» – talafot degan ma’noni anglatadi*) ma’lum bir partiyaga birlashmagan va aniq bir dasturga ega bo‘lmagan, lekin *ekologik inqirozning oldini olish uchun bor kuch, g‘ayrat va bilimlarini sarf qilayotgan olimlar, ishchilar, maishiy xizmat va sport kabi sohalarda ishlaydigan turli kasb sohiblari*. Yevropadagi «Grinpis», «Yashillar partiyasi», «Kedr» kabi oqimlar shular jumlasidan bo‘lib, ular o‘ndan ziyod uyushmalardan tashkil topgan va saflarida 30 mln. dan ortiq kishilarni birlashtirgan.

Alarmizmchilarga yaqin bo‘lgan qarash ***ekologik inqiroz sabablari konsepsiyasi*** *– ekologik inqirozning kelib chiqish sabablari ilmiy-texnik taraqqiyot va aholi sonining tez sur’atlarda o‘sib ketishi deb qaraydiganlar.* Sivilizatsiya va «demografik portlash» ekologik xavfsizlik darajasiga teskari proporsional ravishda hamda ekologik inqiroz holatidan chiqib ketish uchun demografik holatni boshqarish va tabiiy resurslarga qarab, aholi sonini rejalashtirish fikrini olg‘a suruvchilar. Ular oilani rejalashtirish har bir mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar imkoniyatiga monand ravishda olib borilishi kerakligini e’tirof etuvchilar.

Ilmiy-texnik revolyutsiyasi va «demografik portlash» oqibatlaridan chiqib ketishni tavsiya qiluvchi G‘arb sotsiologlarining ***harakatlar strategiyasi*** namoyandalari uch yo‘lni ma’qul ko‘radilar: *tabiatga aralashmaslik; muammosi bor tabiat qonunlariga hujum qilish yoki aralashish; atrof tabiiy muhitga kishilarni moslashtirish orqali jamiyatni boshqarish.*

Tabiatga aralashmaslik *konsepsiyasi namoyandalarini «harakatsizlar» strategiyasi deyish mumkin.* Chunki ular ekologik tizimlarning ayrim hudud va mintaqalarda buzilganligiga befarq bo‘lishni va Yer kurrasida yashayotgan 7 mlrd. dan ortiq aholining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirmaslikni tavsiya etadilar. Tabiatga aralashmaslik prinsipini alohida bir muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – biosfera qo‘riqxonasi yoki qo‘riqxonalarda amalga oshirish mumkin, lekin ommaviy tarzda, ya’ni tabiatdan ajralgan insonlarning hayotini ko‘z o‘ngimizga keltirish qiyin.

Muammosi bor tabiat qonunlariga hujum qilishni yoqlab chiquvchilar fikri aralashmaslik konsepsiyasidagi fikrlarga qarama-qarshi bo‘lib, ular *tabiat qonunlarini, ilmiy-texnik revolyutsiya yutuqlaridan foydalanilgan holda, inson hayoti uchun xizmat qiladigan darajada o‘zgartirishni taklif qilmoqdalar*. Afsuski, bu oqim namoyandalari tabiat qonunlari jamiyat qonunlaridan avval shakllanganligi, organizmlar esa ana shunday tabiat jarayonlari orqali paydo bo‘lgani va rivojlanganlarini inkor etishlari hozirgi ko‘rinishdagi tirik mavjudotni (shular qatorida, odamlarni) genetik o‘zgartirib yuborishdir.

Bunday holat kinoko‘rsatuvlarda keng namoyish etilayotgan «mutant» odamlarni va hayvonlarni yuzaga keltirdi hamda tabiiy tizimlarni ishdan chiqardi.

Atrof tabiiy muhitga kishilarni moslashtirish orqali ekologik inqirozdan chiqib ketish*ni tavsiya etayotganlar.* Ular bir tomondan, ekologik tizimlarni tashqi kuchlarga nisbatan qarshi turish (buferlik) va o‘z-o‘zini tiklash qonuniyatlariga ishongan holda insonlarning harakatlarini moslashtirishni tavsiya etsalar, ikkinchi tomondan, kishilarning evolyutsion jarayonlarini jadallashtirishni yoqlab chiqadilar. Bunday konsepsiya namoyandalari tabiat qonunlarini ko‘chirishga urinayotganlar, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘sish chegarasi va organik rivojlanish *konsepsiyasi namoyandalari Yer kurrasi resurslarining imkoniyatlariga mos ravishda, ilmiy-texnik va insonlarning o‘sish chegarasini belgilash yoki bunday ilmiy asoslangan o‘sishni chegaralash ma’lum bir region (mintaqa), hudud yoki ma’muriy chegarada amalga oshirishni tavsiya etadilar*.

Afsuski, ilmiy-texnik jihatdan rivojlanmasdan turib, tez sur’atlarda o‘sib borayotgan aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirib bo‘lmaydi. Ilm-fanni «konservatsiya» qilish va insonlarning o‘sishini «nol» variantga tushirish 5-10 yillik tadbir emas. Bu jarayon uzoq va katta kuch talab etadigan tadbirlardandir. Chunki aholisi tez o‘sib borayotgan va islom diniga e’tiqod qiladigan davlatlarda mazkur g‘oyani, avvalambor, amalda tatbiq qilish kerak bo‘ladi. Bu esa juda mushkuldir. Lekin «Rim klubi» a’zolari o‘z modellari orqali jahon iqtisodiyotining ma’lum bir tipidagi mintaqalarda ilmiy-texnik yutuqlarni hayotga keng tatbiq qilish va oilani rejalashtirishni, mahalliy iqtisodiy, madaniy, tarixiy, ma’naviy holatga qarab o‘sish va organik rivojlanishni cheklashni tavsiya etganlar.

Global boshqaruv konsepsiyasi *– atrof tabiiy muhit komponent(unsur)lari yagona bir ekotizimda harakat qiladi va ular ajralmasdir, degan g‘oyani olg‘a suruvchilar*. Shuning uchun ham ular atrof tabiiy muhitni saqlab qolish ma’lum bir hudud yoki mamlakat doirasida emas, balki xalqaro miqyosda, butun dunyo hamjamiyatining birgalikdagi tadbiri orqali amalga oshirilishini yoqlab chiqmoqdalar. Globalistlar tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun davlatlar ustida turuvchi yagona bir tashkilotni tuzishni va bu tashkilot boshqaruv va nazorat vakolatiga ega

bo‘lishini ta’kidlamoqdalar. Ular BMTning YuNEP, YuNESKO, VOZ, MOP degan tashkilotlari hozirgi kunda ekologiya borasida faqatgina davlatlarning faoliyatini kuzatadilar va ayrim faktlarni keltiradilar, xolos, deydilar. Afsuski, bunday oqim namoyandalari Yer kurrasidagi barcha davlatlarning suveren huquqi bo‘lmish tabiiy resurslardan o‘z milliy qonunchiligiga binoan foydalanish imkoniyatlarini osonlikcha berib qo‘ymasliklarini inobatga olishmayapti. Lekin bizning fikrimizcha, ekologik global boshqaruv tizimiga insoniyat ertami yoki kechmi albatta yetib boradi. Chunki muayyan joydagi ekologik inqiroz (Fukusimo inqirozi, Orol dengizi muammosi, Chernobil AES falokati, Oxota dengizining radioaktiv moddalar bilan zaharlanishi) mahalliy ekologik inqiroz emas, balki global miqyosdagi ta’sir kuchiga ega bo‘lgan inqiroz ekanligi hammamizga ayondir.

Muhofaza qilish va rivojlanish *konsepsiyasi namoyandalari jamiyatning ekologik talablarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish talablariga moslashtirishni taklif qiladilar.* Bunday dunyoqarashlar rivojlangan «katta sakkizlik» davlatlarida keng targ‘ib qilinmoqda. Haqiqatan ham, bizning fikrimizcha,[1] ekologik tadbirlar iqtisodlashgandir. Misol tariqasida yana bir bor Orol dengizi muammosiga to‘xtalamiz. Paxta yakkahokimligidan O‘zbekistonda olingan daromad (1960–1987 yy.) Orol dengizi va uning atrofidagi ekologik inqirozni tugatishga ketadigan sarf-xarajatdan ko‘ra 7–10 barobar kamdir. «Ekologik inqirozning oldini olish, – deydi nemis ekolog olimi B. Grjimek, – unga qarshi kurashdan ko‘ra, doimo bir necha chandon arzonroqdir»[2].

Ekologik inqiloblar *konsepsiyasi – siyosiy tuzum va kishilarning ekologik qarashlari keskin ravishda, revolyutsion yo‘l bilan iste’molchilik psixologiyasidan ekologik talablar doirasiga o‘tkazishni talab qiladiganlar.* Ammo bu taklif qanchalik to‘g‘ri bo‘lmasin, baribir, bir qoidani esdan chiqarmaslikka undaydi – kishilik jamiyatida (tabiatdagidek) inqilobiy (revolyutsion) yo‘l bilan biron-bir tadbirni amalga oshirish atrof-muhitda keskin ravishdagi salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Lekin hozirgi ekologik inqiroz holati ekologik ong, madaniyat, o‘quv va tarbiyani keng miqyosda va jadal sur’atlarda moslashtirishni taqozo etadi. Chunki ekologik tizimlarning evolyut-

[1] *A.N.Nigmatov, G.N.Nigmatova.* Atrof-muhit muhofazasida iqtisodiy mexanizm. // j. «Iqtisod va hisobot», 10-son, 1997. – 76-77-b.

[2] Экологические очерки о природе и человеке. – М.: «Прогресс», 1998. – С. 640

sion rivojlanish qonuniyati orqaga qaytarib bo‘lmas jarayondir, undagi salbiy holatlarni saqlab qolish va eski ijobiy ekotizimni tiklash imkoniyati yaratilmasligi mumkin.

Sotsialistik *konsepsiya,* uning asoschilari proletariat diktaturasini keng targ‘ib qiluvchi K.Marks va F.Engels tomonidan keng ta’riflangan qarash bo‘lib, ular *atrof tabiiy muhit holatini inobatga olgan holda jamiyat kuchlarini bir me’yorda rejali rivojlantirishni yoqlab chiqadiganlar.* Albatta, bu qarash amalda (70 yil sovet tuzumi hukm surganda) o‘z ifodasini topa olmadi. Tabiatni biron-bir mamlakatda rejali muhofaza qilish yoki undan foydalanish nafaqat ekologik holatga, balki iqtisodiy-ijtimoiy-siyosiy holatlarga qarab ham olib borilishi kerakligini zamon isbot qildi. Tabiiy resurslarning aniq hisobini olish va ulardan rejali foydalanish biron-bir hudud yoki mamlakatda emas, balki butun bir mintaqa yoki Yer kurrasi bo‘yicha global holda amalga oshirilishi mumkin.

Barqaror rivojlanish *(taraqqiyot) konsepsiyasi ekologik muammolarni ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-institutsional-siyosiy muammolar bilan birga olib borish orqali, ya’ni kompleks ijtimoiy munosabat muammolarini mahalliy, milliy, mintaqaviy va global miqyosda uyushgan tarzda hal etish mumkin, deya e’tirof etadi.* Ushbu qarash asoschisi sobiq Norvegiya Bosh vaziri Gro Xorlem Brundtland bo‘lib, u 1987-yilda BMT qoshida tuzilgan maxsus atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha komissiya tayyorlagan «Bizning umumiy kelajagimiz» degan hisobotida to‘liq aks ettirilgan.[1] Mazkur konsepsiyani amalga oshirish masalasi 1992-yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan «Atrof-muhit va rivojlanish» xalqaro konferensiyada hamda 2002-yil Yoxannesburg shahrida bo‘lib o‘tgan «Barqaror rivojlanish» xalqaro Sammitida (2012-yil uning 20 yilligi nishonlanishi rejalashtirilgan) to‘liq ko‘rib chiqilgan va ular bo‘yicha tegishli xalqaro huquq me’yorlari qabul qilingan.

Yuqorida sanab o‘tilgan ekologik konsepsiyalardan tashqari, dunyoning turli joylarida turlicha qarashlar tizimidagi partiyalar, oqimlar, harakatlar, kengashlar, jamg‘armalar mavjud. Lekin ***ekologik konsepsiya*** *tabiat qonunlari bilan jamiyat qonunlari o‘zaro uyg‘unlashgan va ilmiy asoslangan holda barqaror rivojlanishni yoqlab chiqadigan qarashlar tizimidir. Bunga zid bo‘lgan qarashlar tizimi esa* ***noekologik*** *konsepsiyalarga kiradi, deb o‘ylaymiz.*

[1] Наше общее будущее. – М.: «Прогресс», 1989. – С. 348.

4. Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning ekologik prinsiplari

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda tabiatga nisbatan munosabat shakllari va ekologik konsepsiyalarni aniqlab olishdan keyingi uchinchi qadam – ekologik tamoyillar, ya’ni atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklashda amal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy yo‘naltiruvchi qoidalarni belgilab olish.

Ekologik prinsip – *atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklashda amal qilinishi lozim bo‘lgan yo‘naltiruvchi qoidalar.*

Ekologik tamoyillar tabiat va jamiyat qonunlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy hodisa va jarayonlar ko‘pqirrali. Shuning uchun ham ular har tomonlama obyektiv baholanishi lozim. Bu degan so‘z – har bir tabiiy hodisa yoki jarayonga xalq xo‘jaligining sohaviy zaruriyatiga qarab yondashish kerak. Lekin sohaviy yondashuv, avvalambor, ekologik tizimlarni muhofaza qilish va ularni qayta tiklash nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyoning tabiiy sharoitida o‘rmonlar qurilish yoki kimyo-selyulozaxomashyo manbayi emas, balki ekotizimlarning barqarorligini ta’minlash elementi sifatida qaralishi kerak. Ushbu mintaqaning bor-yo‘g‘i 3-4 foiz maydonni egallaydigan siyrak daraxtzor va butazorlarga nisbatan qonunchilik manbalari suv va tuproq muhofazasida «yashil qalqon», iqlimni mo‘tadillashtiruvchi «konditsioner», aholining madaniy dam olishini ta’minlaydigan «oromgoh» sifatida qarashni taqozo etadi.

Huquq normalaridagi prioritet (birlamchi) qoidalar Markaziy Osiyo sharoitida davlat suv fondidagi daryolar agromelioratsiya va aholining ichimlik suvi hamda maishiy xizmatlarini ta’minlashga qaratilishi lozim. Chunki issiq iqlim (arid) sharoitida yer osti va ucti suv-

lari aholi uchun hayot manbayidir. Sibir, Uzoq Sharq kabi sovuq yoki nam iqlimli mintaqalar uchun daryolar, avvalambor, aholining transport xizmati va arzon energetika manbayi sifatida qaraladi. Daryolar inson hayotida bilvosita – qishloq xo‘jaligi, metallurgiya, tog‘-kon, kimyo sanoati kabi suvni ko‘p talab qiluvchi iqtisodiyot tarmoqlariga xizmat qiladi. Tabiiy pastqam yoki jarliklar kabi relyef shakllari turli chiqindilar yoki maishiy axlatlar tashlaydigan «tabiiy o‘ra» bo‘lib qolmasligi lozim.

2. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mintaqaviydir, ya’ni mahalliy va regional (tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy) sharoitlarni inobatga olgan holda ekologik qonunchilikni olib borish qoidasi demakdir. Mamlakatimiz barqaror rivojlanish tayanchi bo‘lgan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni har tomonlama baholash, istiqbolli yo‘nalishlar aniqlash, mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda amalga oshirishni talab etadi. Chunki O‘zbekiston Respublikasida (umuman, Yer kurrasida) tabiiy obyektlarning son va sifat ko‘rsatkichlari maydon va makon bo‘yicha bir tekisda joylashmagan. Biron bir mintaqada ma’lum bir tabiiy obyekt yoki resursning mo‘lligi ikkinchi bir mintaqada uning yetishmasligini qoplab bera olmaydi yoki biron bir mintaqada ekologik xavfsiz muhit sharoiti ikkinchi bir mintaqaning ekologik inqirozini bartaraf etishga asos bo‘la olmaydi.

3. Tabiiy hodisalar va jarayonlar o‘zaro uzviy bog‘langan. Yuqoridagi ekologik prinsiplarning davomi sifatida shuni aytish kerakki, tabiatning ma’lum bir obyektini muhofazalash yoki uni buzish, qolgan tabiiy obyektlarga o‘z ijobiy yoki salbiy ta’sirini o‘tkazishi muqarrar, ya’ni «*zanjir reaksiyasi»* usulida ishlaydi. Masalan, tabiatda daryo va ko‘llarni muhofazalash o‘z-o‘zidan undagi baliqlarni va suv o‘tlarini muhofazalashga olib keladi. O‘rmonlarni asrash esa avvalambor, ulardagi hayvonot dunyosini saqlashga, so‘ngra atmosfera havosining va suvlarning tozaligini ushlab turishga, tuproqning unumdorlik xususiyatini saqlab qolishga imkon beradi. Aksincha, o‘rmonlarda tuproq unumdorligini yo‘qotish, o‘simlik dunyosining siyraklashuviga va ularda yashovchi va oziqlanuvchi hayvonot dunyosining kamayishiga yoki qirilib ketishiga olib keladi. Ekologik qonunchilik tizimida biron bir obyekt muhofazasini ikkinchisi orqali amalga oshirish qonuniyatini shakllantiradi.

4. «Zanjir reaksiyasi» qonuniyatining davomi sifatida, ***biron-bir tabiiy obyekt muhofazasi ikkinchi bir tabiiy obyektning zarari bo‘lishi ham mumkin***. Masalan, Afrika qit’asidagi milliy bog‘larda tashkil etilgan qo‘riqxonalarda fillar sonining ko‘payib ketishi u yerdagi o‘simlik dunyosining siyraklashuviga va tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelgan. Shuning uchun ham, ma’lum bir obyektning huquqiy muhofazasiga qaratilgan ekologik qonunchilikni, qolgan tabiiy obyektlar imkoniyatlariga mos ravishda va ilmiy asoslangan tarzda amalga oshiriladi.

5. Yuqorida zikr etilgan to‘rt ekologik prinsip ekologik qonunchilikda tabiat muhofazasiga ***kompleks yondashuv*** prinsipini tatbiq qilishni taqozo etadi. Tabiatni muhofaza qilish va shu bilan bir qatorda, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni biron-bir soha yoki yo‘nalish bo‘yicha to‘liq amalga oshirmay, balki unga kompleks ravishda – sohalararo boshqaruv va nazorat asosida amalga oshirishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining faoliyati xuddi ana shu komplekslilik prinsipiga asoslangandir.

Umuman olganda, tabiatni muhofaza qilish, bir qaraganda, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qarama-qarshi yo‘nalishga o‘xshaydi. Lekin ekologik tizimdagi katta yoki kichik doiradagi modda va energiya almashinuvi ham tabiiy obyektlarning birining ikkinchisiga ta’sir qilishi, ya’ni foydalanish va muhofaza qilish asosida bo‘ladi. Hech qaysi bir tirik mavjudot (xoh u hayvonot yoki o‘simliklar dunyosi, xoh u inson bo‘lsin) atrof tabiatdan foydalanmasdan turib hayot kechira olmaydi.

Muayyan ekologik me’yordagi bu harakatlar ekologik tizimlar xavfsizligini ta’minlab turuvchi zaruriy hodisa va jarayonlar turkumiga kiradi. Bundan, bir vaqtning o‘zida ham tabiatni muhofaza qilish ham foydalanishning ijtimoiy munosabat qoidalari kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ekologik munosabatlarni tartibga solishda jamiyatning tabiatga nisbatan yo‘naltirilgan harakatlari ekologik prinsiplarga yondashgan va chuqur ilmiy asoslangan bo‘lishni talab etadi. Chunki inson tabiatning bir bo‘lagi, lekin uning aksi emas.

5. O‘zbekistonning ekologik siyosati va ekologik ta’limning tashkiliy-huquqiy muammolari

Global miqyosdagi ekologik muammolarning yuzaga kelishida ozmi-ko‘pmi O‘zbekistonning ham ishtiroki bor. Mamlakatimizda yashayotgan 30 milliondan ziyod aholining yarmidan ko‘pi ekologik xavfli muhitda istiqomat qilmoqda. Orol dengizi va uning atrofida ro‘y berayotgan ekologik inqiroz holati sovet davrining noekologik agrar va iqtisodiy siyosatining natijasidir. Shuning uchun ham davlatimiz, shaxsan Prezident I.A.Karimov ekologik masalalarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uyg‘unlashtirgan holda olib borishni lozim deb topmoqda.[1] Xususan 2010-yil Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasining qo‘shma yig‘ilishida «atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid qonunchilikni yanada rivojlantirish,... insonni va mamlakat aholisini ekologiyaning xavfli va tajovuzkor o‘zgarishlaridan himoya qilish» bugungi kunda respublikamiz uchun eng dolzarb masalalardan biri ekanligi, shuning uchun ham ekologik harakat vakillariga Qonunchilik palatasidan 15 ta joy ajratilganligi haqida ta’kidlagan edi.

Siyosat – bu davlatning boshqaruv san’ati[2] va shuning uchun ham u o‘z doirasiga barcha turdagi ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Uning mazmunini davlat hokimiyati tuzilishi, uning muayyan bir munosabatlarni tartibga solishdagi vakolatlari, harakat vositalari bo‘lsa, ushbu faoliyat natijasida yuzaga kelgan real sharoit uning mohiyatini belgilaydi.

O‘zbekistonning ekologik siyosati – *davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash borasida olib borayotgan ichki va tashqi faoliyat majmuyi va natijalari.*

Mustaqillik sharofati tufayli O‘zbekistonda quyidagi taktik va strategik ekologik yo‘nalishlar ishlab chiqilgan: «1999–2005-yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi», «O‘zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ekologik ta’minlashning milliy harakatlar rejasi», «O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit gigiyenasi bo‘yicha milliy harakatlar dasturi», «Biologik rang-baranglikni saqlash bo‘yicha milliy strategiya va harakatlar rejasi». Ushbu ekologik dastur va rejalarda hozirgi kunda va kelajakda mamlakatimizda jamiyatning tabiatga nisbatan munosabat shakli qanday bo‘lishi, uning ekologik konsepsiyasi, maqsadi va prinsiplari belgilab berilgan. Ekologik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning taktik va strategik harakatlar dasturi va yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2008–2012-yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to‘g‘risida»gi 212-sonli qarori asosida bir qator ibratli ekologik tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan ekologik ta’lim va barqaror rivojlanish uchun ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyalari qabul qilindi.[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim va Xalq ta’limi vazirliklari tomonidan BMTning Barqaror rivojlanish uchun ta’lim bo‘yicha Dekadasi hamda BMT Yevropa iqtisodiyot komissiyasining Strategiyasining O‘zbekiston Respublikasida bajarilishiga ko‘maklashish va amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 2010-yil dekabrida qabul qilindi. Ushbu dasturga 2011–2012 o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalarida tegishli ixtisosliklar bo‘yicha ekologiya, tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish sohasiga oid o‘quv-uslubiy majmualarni takomillashtirish va joriy etish vazifalari kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining maqsadi – *fuqarolarning hayotiy zarur ehtiyoji bo‘lgan ekologik xavfsiz muhitni ta’minlash uchun tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash.*

Bizningcha, O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy maqsadi nafaqat fuqarolar, balki barcha organizmlarning hayo-

[1] *Tabiat, jamiyat, ma’naviyat* / Prezident Islom Karimov asarlarida ekologiya masalalarining yoritilishi // Ekologik ta’lim va tarbiya uchun qo‘llanma. – T.: «O‘zbekiston», 2009. – 152-b.

[2] *Сиёсат.* Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ ДИН., 2004. – 606-б.

[1] *Миллий касбий таълимда узлуксиз экологик таълим тизимининг илмий асослари: муаммолари ва истиқболлари //* Илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: ЎзМУ, 17-18 май 2012. – 152 б.

tiy zarur ehtiyoji bo‘lgan ekologik xavfsiz muhitni ta’minlash uchun tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash, ya’ni jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy-ekologik munosabat shaklini qo‘llashdan iborat bo‘lmog‘i darkor. Zero, ekologik xavfsizlik, avvalambor, biologik xilma-xillikni, u esa o‘z navbatida tabiat-jamiyat munosabatlarining barqarorligini ta’minlashda zamin bo‘la oladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan tayyorlangan Milliy ma’ruzada «barqaror rivojlanishni ta’minlash»so‘zlari kiritilgandir[1].

Ma’lumki, mustaqillik davrigacha Turkiston, keyinchalik O‘zbekiston chor Rossiyasiga va so‘ngra sobiq ittifoqqa xomashyo yetkazib beruvchi chekka o‘lka hisoblangan. Shuning uchun ham ular tabiiy va mineral xomashyo zaxiralaridan maksimal holda ekstensiv ravishda foydalanganlar, ya’ni jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy munosabat shaklini qo‘llaganlar. Totalitar tuzumdagi iqtisodiy munosabat shaklidan birdaniga (sakrab) ekologik munosabat shakliga o‘tishning na nazariy va na amaliy iloji bor. O‘zbekiston Respublikasining tanlagan yo‘li jamiyatning tabiatga nisbatan munosabatlar iqtisodiy-ekologik shaklidan bosqichma-bosqich ekologik munosabat shakliga o‘tkazishdan iboratdir.

Ekologik xavfsizlik – *atrof-muhit holatini organizmlarning hayotiy zarur ehtiyojlariga javob bera oladigan darajasi.*

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to‘g‘risida»gi qonunida mamlakatimizning ekologik dunyoqarashida quyidagilarga e’tibor berilgan:[2]

– shaxsning hayotiy zarur ehtiyoji bo‘lgan kishilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish va insonlarning turmushi uchun optimal holatdagi ekologik sharoitlarni yaratib berish;

[1] *Национальный доклад* «О состоянии окружающей природной среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистан». – Т.: «Chinor ENK», 2008.- С.3.

[2] *Национальный доклад* «О состоянии окружающей природной среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистан. – Т.: «Chinor ENK», 1998 – 2008 йй.

– jamiyatning hayotiy zarur ehtiyoji bo‘lgan oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, mo‘tadil ekologik vaziyatni tashkil etish, aholining sog‘lig‘ini ta’minlash, jismoniy baquvvat avlodni shakllantirish;

– davlatning hayotiy zarur ehtiyojlari bo‘lgan barqaror rivojlanishni ta’minlash, mintaqaviy-iqtisodiy holatni mo‘tadillashtirish, sog‘lom hayot tarzini shakllantirish.

Shunday qilib, O‘zbekiston uchun yagona shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy zarur ehtiyojlaridan biri bo‘lgan ekologik xavfsiz muhit milliy xavfsizlikning ajralmas bir bo‘lagidir. Respublikamiz ekologik siyosatining asosiy maqsadini bajarish uchun, davlatimiz organik rivojlanish bilan bir qatorda, muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasini amalda qo‘llashni ma’qul deb topdi. Bu degan so‘z – shaxs, jamiyat va davlatning ekologik talablarini mintaqalar bo‘yicha iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlantirish talablariga moslashtirish kerak, demakdir.

Prezidentimiz Islom Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asari hamda «1999–2005-yilgacha bo‘lgan davrda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning davlat dasturi»da yuqorida aytilgan maqsad va konsepsiyalarni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat, deb topildi:

- ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Xalq xo‘jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo‘llash ustidan qattiq nazorat o‘rnatish. Atmosfera havosi va suvlarni insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta’sir etadigan moddalar bilan ifloslantirishni to‘xtatish;
- qishloq xo‘jalik ekinlarini, eng avvalo, g‘o‘zani sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish. Kollektor-zovur suvlarini daryolar va suv omborlariga tashlashni tartibga solish va oqova suvlarni chiqarib yuborishni batamom to‘xtatish;
- sanoat korxonalarida atmosfera havosiga, suv havzalariga va tuproqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalanilgan holda mas’uliyatni oshirish. Ularda zamonaviy, samarali tozalash qurilmalar tizimini joriy etish. Boshlang‘ich xomashyodan tayyor, pirovard mahsulot olgunga qadar kompleks foyda-

lanishga imkon beradigan yangi, zamonaviy, ekologik jihatdan samarali uskunalarni o‘rnatish;

- qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqishning tabiiy ravishda kengayishini ta’minlaydigan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat’iy mezon asosida iste’mol qilingan holda hamma turlaridan oqilona foydalanish;
- foydali qazilmalardan oqilona foydalanish. Boshlang‘ich xomashyodan to‘liq foydalanishni ta’minlash va buning uchun eskirgan uskunalarni almashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ayrim sexlar, uchastkalar va korxonalarni rekonstruksiya qilish asosida foydali qazilmalarni sanoat usulida yanada to‘liq va oqilona qazib olish. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun tog‘-kon sanoatining chiqindilarini o‘zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish (rekultivatsiya qilish);
- keng maydonlardagi tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta’minlaydigan darajada aniq maqsadli, ilmiy asoslangan tarzda o‘zgartirish (daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir havzadan ikkinchisiga tashlash, yerning suv-fizik xususiyatlarini yaxshilash, suv chiqarish va shunga o‘xshash tadbirlarni amalga oshirish);
- jonli tabiatning xilma-xilligini saqlash, tabiiy genofondni madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko‘paytirish hisobiga boshlang‘ich baza sifatida saqlab qolish;
- qurilish va obodonlashtirish rejalarining ilmiy asoslangan, hozirgi zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimni joriy etish yo‘li bilan shaharlarda va aholi punktlarida ekologik xavfsiz muhitni tarkib toptirish;
- jahon jamoatchiligi e’tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish. Orol muammosi bugungi kunda chinakam keng ko‘lamli, butun sayyoramizga daxldor muammo bo‘lib qolganligini, uning ta’siri hozirning o‘zidayoq biologik muvozanatni, bepoyon hududlarda aholining genofondlarga halokatli ta’sir ko‘rsatayotganligini nazarda tutish;
- xalqaro tuzilmalarning zaxiralari, imkoniyatlari va investitsiyalarini yuqorida zikr etilgan muammolarni hal qilishga jalb etish.

Tabiatni muhofaza qilishning milliy dasturida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va yuqorida aytib o‘tilgan tadbirlarni quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirish tavsiya etilgan:

- davlat ekologik islohotlarning yo‘lboshlovchisi;
- ekologik xarajatlarni moliyalash va ularning yangi sxemalarini jalb qilish;
- makroiqtisodiy va sohaviy ekologik siyosatni takomillashtirish;
- qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini ekologiyalashtirish;
- atrof tabiiy muhit sifatini yaxshilash maqsadini qo‘yish va standartlashtirish;
- ishlab chiqarishning ekologik talablarini chuqurlashtirish va h.k.

O‘zbekiston Respublikasining yuqorida aytib o‘tilgan ekologik siyosatini amalga oshiruvchi jamiyatning tabiatga nisbatan munosabat shakli, tabiat va jamiyat qonunlarini uyg‘unlashtirish, ekologik chora-tadbirlar va asosiy tanlangan tamoyillarning hayotga tatbiq qilish mexanizmini ishlab chiqish va amalda qo‘llash, O‘zbekistonda jamiyatning tabiatga nisbatan ekologik munosabat shakliga o‘tib olish imkonini beradi. Bunday ekologik siyosat shaxs → jamiyat → davlatimizning milliy xavfsizligini ta’minlashda katta xizmat qilishiga hech shubha yo‘q.

Taniqli ekolog-huquqshunos olim Sh.X.Fayziyev[1] davlatimizning ekologik siyosati atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta’minlash kabi o‘zaro uzviy bog‘langan yo‘nalishlar O‘zbekistonning ekologik siyosati negizi, deya e’tirof etgan. U ushbu siyosatni ekologiyalashtirishda qonunuchilikka oid bir qator aniq takliflarni kiritgan. Lekin bu o‘rinda muallif milliy ekologik siyosat bilan milliy ekologik maqsadni birday qilib yuborganga o‘xshaydi. Chunki siyosat ham mazmunan, ham mohiyatan yagona bir tizimda turmoqni talab etadi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab O‘zbekistonda atrof-muhit muhofazasi, ekologik ta’lim, tarbiya va madaniyatga juda katta e’tibor berildi. Zero, sobiq Ittifoq mamlakatlari ichida birinchi bo‘lib qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128 ta

[1] Ш.Х.Файзиев. Теоретические проблемы правового обеспечения экологической политики Республики Узбекистан. – Т., 2004. – С.180.

moddasidan 4 tasi bevosita (50, 54, 55, 100-moddalar), qolgan 124 tasi va muqaddimasi esa bilvosita tarzda ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan edi.[1] Konstitutsiyamiz bilan bir paytda, ya'ni 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida aks ettirilgan milliy ekologik prinsiplarning ikkinchisida ***«...barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya o'quvining majburiyligi»*** aks ettirilgan. Afsuski, ushbu majburiy huquqiy norma 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunida» o'z aksini topmagan. Shuning uchun ham barcha turdagi ta'lim bilan bog'liq qonunlarni muvofiqlashtirish va zamon talabiga moslashtirish o'ta muhim huquqiy ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'rinda, bundan 10 yil avval Toshkent Davlat yuridik instituti olimlari tomonidan taklif etilgan, keyingi paytda Oliy Majlisning Ekoharakat deputatlar guruhi tomonidan ilgari surilayotgan «Ekologik kodeksda»atroflicha me'yorlash zarur.

Ekologik ta'lim – *ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid bilim berish, malaka orttirish va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, insonni ekologik xavfsiz muhitda yashashga o'rgatish va bu yo'lda mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.*

Bog'cha, maktab, maktabdan tashqari ta'lim, akademik litseylarda maxsus o'qitiladigan «Ekologiya» o'quv predmeti keyingi 5-6 yil ichida o'quv rejadan tushib qolmoqda. Bu haqda 2012-yilning 24-aprelida Toshkent viloyatning o'g'ituvchilar malakasini oshirish Institutida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkil etilgan «Geoekologiya: muammolar va istiqbollar» mavzusidagi anjumanda ham alohida ta'kidlanib o'tildi. Ekologiya fani kichik ekolog kasb egalarini tayyorlaydigan juda kam sonli kasb-hunar kollejlarida 2011-yildan buyon maxsus predmet sifatida tiklandi, xolos.

Birmuncha ijobiy holat oliy ta'limning bakalavr yo'nalishlarida «Ekologiya» fani turli nomlar va soatlar hajmida o'tilmoqda. Bu

[1] *A.N.Nigmatov.* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bevosita va bilvosita tarzda aks ettirilgan ekologik normalar / Konstitutsiya – davlat va jamiyat qurilishi islohotlarining asosi // Ilmiy-nazariy konf. materiallari. – T.:TDYuI, 2006. 72–77-b.

o'rinda namuna sifatida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMUni olish mumkin. Chunki Milliy universitetning barcha tayanch maqomiga ega bo'lgan noekologik ta'lim yo'nalishlarida u bir xil – «Ekologiya» nomi bilan 76 soatlik yuklama asosida 2011-2012-o'quv yilidan boshlab 1-kurslarga o'tilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: «...ta'lim-tarbiya sohasida ham belgilanayotgan islohotlarni hayotga tatbiq qilishda...2005 va keyingi yillarda ungacha to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarur»[1], – deb bejiz aytmagan. Zero, bugungi kunda yashirin tarzda kechayotgan ekologik muammolarning insonlar hayotiga tajovuz solayotganligi hech kimga sir emas.

2005-yil 7-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining qo'shma qaroriga asosan «Respublikada ekologik ta'limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbollari» Dasturi va Konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu me'yoriy hujjatlarda uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya tizimini tashkil etish va uni rivojlantirish tadbirlarini amaliyotga joriy etishni ta'minlash uchun ishchi guruh tuzilib, unga «Respublikada ekologik ta'limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbollari dasturi» asosida tegishli tadbirlarni 2005–2010-yillar davomida ijrosini ta'minlash yuklatilgan. Uning orasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 18-sentabrdagi 212-sonli qarori bilan tasdiqlangan «2008–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi»ning I bandida uzluksiz ekologik va barqaror rivojlanish uchun ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ekologik bilimlarni keng targ'ib qilish vazifalari kiritilgan.

Ekologik qonunlar va ushbu muhim milliy dastur va qarorlarning amalga joriy etilishini monitoringlash maqsadida 2010 yil 2-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining «Ekoharakat» deputatlar guruhi hamda fan, ta'lim, madaniyat

[1] *Ислом Каримов.* Баркамол авлод орзуси. – Т.: «Шарқ», 1999. 22-б.

va sport masalalari qo‘mitasining «O‘zbekiston Respublikasi Xalq hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi rahbarlarining respublikada uzluksiz ekologik ta’lim tizimini joriy etish to‘g‘risidagi axborotlari eshitildi. 2005-yildan buyon uch bosqichda tegishli davlat organlari tomonidan amalga oshirilgan bir qator ijobiy ishlar qilingan bo‘lsa-da, lekin ular yagona bir uzluksiz ta’lim tizimiga mos keladi, deyish qiyin. Ushbu davr ichida ekologik ta’limga oid rejalashtirilgan ishlar faqatgina 15–20% atrofida bajarilayotganligi Ekoharakat deputatlari tomonidan e’tirof etildi. Bunga Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi «Bioekosan» maktabdan tashqari ta’lim muassasini «Turizm va o‘lkashunoslik» muassassi bilan qo‘shilib ketganligi, maktablarda ekologiyaga oid 2 soatlik ma’ruzalarni ma’rifiy soatlarga berib yuborilganligi, o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ekologiya fanining majburiy bloklardan chiqarib yuborilganligi, Oliy ta’lim tasarrufidagi bilim yurtlarida ekologiyani «Hayot xavfsizligi», «Iqtisodiy geografiya», «Iqtisodiyot», «Atrof muhit muhofazasi» kabi fanlar bilan qo‘shib yuborilganligi yaqqol misol bo‘la oladi.

Ekologik ta’limning zamon talablaridan chetda qolib ketmasligi, O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hamda Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturida ko‘rsatilgan uzluksizlik tamoyillariga moslashishi qanday bo‘lmog‘i kerak, degan savolga javob topishdadir. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning maqsadida ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir, deyilgan.

Mustaqillik tufayligina milliy ta’lim turlari o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan xalos etildi. Unda o‘ziga xos va mahalliy sharoitga mos ravishda yangi milliy ta’lim va tarbiya tizimi shakllanmoqda. Rivojlangan davlatlarning ta’lim va tarbiya tizimi tajribasi respublikamiz sharoitiga moslashtirilgan tarzda amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Mazkur jarayondan ekologik bilim va tarbiya ham chetda turmayapti. Zero, ekologiya tarix, ona tili va adabiyot, milliy g‘oya va g‘urur fanlari kabi yoshlarimizni yukasak ma’naviyatli shaxs qilib tarbiyalash, tabiat bilan jamiyat qonunlarini uyg‘unlashtira oladigan kadrlar qilib yetishtirishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ekologik tarbiya – *shaxsda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim, jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy pedagogik jarayon.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 21-maydagi «Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroridan kelib chiqqan holda 2011-yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan va 2011–2012-o‘quv yili uchun tatbiq qilingan ***«Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori»***da *yuqori malakali kasbiy ekologik ta’lim* faqatgina 600 000 – Xizmatlar sohasining 630 000 – Atrof-muhitni muhofaza qilish tarmog‘ida turibdi. Vaholanki:

1. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi 600 000 – Xizmatlar sohasida turishi mantiqan to‘g‘ri emas. Chunki u boshqa xizmat sohasidagi «Mehmonxona ishini tashkil etish va boshqarish», «Turizm», «Ijtimoiy-madaniy faoliyat», «Sport faoliyati», «Yuklarni tashish va transport logistikasi», «Pochta ishini tashkil etish va texnologiyasi» kabi iqtisodiyot tarmoqlaridan farqli undan foydalanuvchilar uchun *ixtiyoriy tarzda* amalga oshirilmaydi. Balki ekologik talablarni bajarish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50,54,55-moddalariga binoan, barcha davlat, nodavlat va jamoat birlashmalari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy kuchga ega. Bunda idora rahbari, fuqaro yoki guruh xohlasa mehmonxonada yashaydi, sayohatga chiqadi, sport bilan shug‘ullanadi, sochini oldiradi, xohlamasa yo‘q emas, ular xohlaydimi yoki yo‘qmi, baribir, barcha jismoniy va yuridik shaxsalar *ekologik talablarni bajarishlari va atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar.* Aks holda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 181-moddasi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning maxsus VIII bobidagi 65–96-moddalari, Fuqarolik kodeksining 116 kabi moddalari, Jinoyat Kodeksi IV bo‘lim XIV bobining 193–204-moddalariga binoan turli javobgarliklarga tortilishlari mumkin.

2. Ekologiya mustaqil fanlar tizimi, ta’lim yo‘nalishi va amaliyot sohasi, uning aynan amaliy qismi atrof-muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlangan. Zero ekologiya organizmlar o‘zaro va ularning yashash makoni bo‘lgan atrof-muhit, to‘g‘rirog‘i, atrof tabiiy muhitni

muhofaza qilishga qaratilgandir. Shuning uchun ham klassifikatordagi tarmoqning nomini *«630 000 – Ekologiya»* yoinki, *«630 000 – Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish»*, deb nomlash maqsadga muvofiqdir.

3. Klassifikatorda bakalavr ta'lim yo'nalishi 5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi *(tarmoqlar bo'yicha)* deb kiritilgan. Lekin qaysi tarmoqlar bo'yicha ekanligi unda aniq ko'rsatilmagan. Chunki, xizmatlar tarmog'i yuqorida sanab o'tilgan mehmonxona, sport, ijtimoiy ta'minot kabilardan iboratdir. Ekologik talablar ularda ham bor, lekin sanoat, ta'lim, fan, qishloq xo'jaligi kabi sohalardagidek o'ta xavfli harakat yoki harakatsizliklardan iborat emas-ku. Shuning uchun ekologiya ham gumanitar, ham sanoat, ham fan, ham qishloq xo'jaligi sohalarining ichida bo'lishi kerak.

4. Magistratura Klassifikatorda 4 ta mutaxassislik bo'yicha berilgan. Unda ham ekologik va atrof-muhit muhofazasiga oid kasbiy ta'lim faqatgina xizmat ko'rsatish tarmoqlari bo'yicha deyilgan, xolos. Ajablanarligi shundaki, 5A630103 – Sanoat chiqindilarini tozalash *(rekuperatsiya)* mutaxassisligi amalda mavjdud emas. Chunki «*recuperatio»* lotin tilida «qayta olish» (Краткий словарь иностранниых язиков, М.: «Гос изд. Иностранных и нас. словарей, 1952.-С.340), ya'ni sanoat chiqindilarining foydali xususiyatlarini ushlab qolish va qayta ishlatish – reutilizatsiya (Реймерс Н.Ф. Природоползование, М.: «Мысл», 1990. – 449 с.), degan ma'noni anglatadi. Zero oqova suvlarni tozalash mumkin, lekin sanoat chiqindilarini hozircha amalda tozalashning iloji yo'q. Bu mutaxassislik xizmatlarda emas, balki 300 000 – Sanoat-texnik sohaning bir tarmog'i sifatida kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki sanoat chiqindilarini qayta ishlash va ularning foydali xususiyatlarini qayta foydalanish juda katta texnologik va innovatsion sanoat ishlab chiqarish jarayoni, ammo xizmatlar emas. Shuning uchun ham SSSR paytida to'liq ishlanmagan Navoiy tog'-kon sanoti chiqindilarini davlatimiz Angliya bilan qo'shma korxona tuzish orqali qayta ishlab chiqarishga jalb qilganini misol qilib olish kifoyadir.

5. Xizmatlar sohasida turgan 5A630104 – Suv resurslarini muhofaza qilish va oqova suvlarni tozalash mutaxassisligini 400 000 – Qishloq va suv xo'jaligi sohasining mustaqil tarmog'i sifatida kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Zero suvlarni muhofaza qilish tashkiliy

boshqaruv, oqova suvlarni tozalash esa yuqori darajadagi texnologik jarayondir.

6. *Ekologik ta'lim yo'nalishini* 100 000 – Gumanitar (to'g'rirog'i, ijtimoiy-gumanitar) sohasi 110 000 – Pedagogika tarmog'ining 5112200 – Ekologiya o'g'itish metodikasiga, *Ekologik ilmni* esa 120 000 – Gumanitar ilm sohasining mustaqil ta'lim yo'nalishi sifatida olish mumkin edi.

7. Atrof-muhit muhofazasi, ekologiyaning amaliy ta'lim va fan yo'nalishi hamda mutaxassisiligi sifatida, barcha iqtisodiyot sohalarining bir qismi sifatida qarash mustaqillik nishonasi sifatida qaralgan va Konstitutsiyamiz bilan bir qatorda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonunining 4-moddasidagi ekologik o'quv majburiylik prinsipiga juda mos tushgan bo'lur edi.

Hammamizga ma'lumki, Oliy ta'lim muassasalarining «5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar bo'yicha)» bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirishda abituriyentlarni qaysi fanlardan test topshirishlari va ularni baholashda ushbu fanlarning qaysi bir blokda turishini to'g'ri belgilash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda 2011–2012-o'quv yilida «Ekologiya» yo'nalishining birinchi blokida «Matematika», ikkinchisida – «Kimyo» fanlarining turishi mantiqan to'g'ri, deb bo'lmaydi. Zero ekologiya – muayyan tabiat tizimida (ekotizimda) organizmlar o'zaro va ularni yashash muhiti o'rtasidagi munosabatlarning turli jihatlarini tadqiq qiluvchi fan tarmog'i, ularga oid bilimlarni beruvchi ta'lim yo'nalishi, ularni optimallashtiruvchi amaliyot sohasidir. Bu tushuncha uning grekcha atamasidan kelib chiqqan tarzda ifoda etilgan. Chunki grekchada «oikos» uy, yashash joyi, yashash muhiti, «logos»-ta'limot degan ma'noni anglatadi. Ekologiyaning amaliy qismi, odatda, atrof-muhit muhofazasi deb yuritiladi va unda ham organizmlar va tabiiy muhit holati birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, ekologiya organizmlar (jumladan, insonlar)ning yashash muhiti (makoni), ya'ni ekotizimlarda (gidrosfera, atmosfera, litosfera, pedosferada) hayot kechirishi haqidagi ta'limotdir. Bu o'rinda, ayniqsa «Ekologiya (fan va ta'lim)» sohasida, barcha quyi ta'lim bosqichlarida o'tiladigan organizmlarga oid fan – «Biologiya» (1-blok) va ekotizimlarga oid fan «Geografiya» (2-blok) kiritilishi ham

mantiqan, ham ilmiy nuqtayi nazardan to‘g‘ridir. Texnika va texnologiya kabi yo‘nalishlarda qabul ekologiyadan emas, balki «Atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar bo‘yicha)» ta’limi nuqtayi nazaridan qaralib, unga «Matematika» yoki «Kimyo» fanlarining qo‘yilishi lozim.

Prezidentimiz Islom Karimovning «O‘zbekiston XX1 asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asaridagi ushbu jumlalarga e’tibor qaratishimiz ham juda zarur, – «Ochiq e’tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski-ma’muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug‘ullanilmagan. Aniqrog‘i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbayi, o‘z mamlakatining kelajagiga, tabiiy boyliklarini saqlab qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa «qalb nidosi» bo‘lib kelgan». Vaholanki, ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas bir qismi va u boshqa oltita xavfsizlik omillaridan o‘zining yashirin tarzda kechishi bilan ajaralib turadi. Shuning uchun ham yuqori malakali ekologik kadrlar tayyorlash siyosatini to‘g‘ri olib borish zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Ekologik ong – *har bir insonning hayotiy faoliyatida atrof-muhit uning yashash makoni ekanligini anglash darajasi.*

Uzluksiz kasbiy ekologik ta’lim – *milliy ta’lim tizimining kasb beruvchi barcha bosqichlarini o‘zida qamrab oluvchi va uni iyerarxik pog‘onada joylashtiruvchi, bilim berishni oddiydan murakkab hamda ixtisoslikka tomon olib boruvchi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhiti.* Shuning uchun ham kasbiy ekologik ta’lim va tarbiyani milliy uzluksiz kasbiy ta’limning barcha turlarida qo‘llashni quyidagicha olib borish tavsiya etiladi (1.5.1-jadval).

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limda ekologiyani tabaqalashgan tarzda amalga oshirish zarur. Kasb-hunar kollejlarining yo‘nalishlariga mos ravishda «Kasbiy ekologiya» o‘tilishi mantiqan to‘g‘ridir. Masalan, pedagogika kollejlarida – «Ekologiyani o‘g‘itish metodikasi», iqtisodiyotda - «Iqtisodiy ekologiya», turizm va servisda - «Ekoturizm asoslari» yoki «Ekoturistik xizmatlar»ni o‘tish foydadan holi bo‘lmaydi. Natijada bitiruvchilarning amaliy ekologik bilim va ko‘nikmalari shakllantiriladi, ularni ishga joylashtirish osonlashadi,

1.5.1-jadval. **Milliy uzluksiz ta’lim tizimida qonunchilik bazasini shakllantirish uchun tavsiya etilayotgan ekologik ta’lim va tarbiya tavsiyalari**

Ta’lim bosqichlari	Ekologik ong	Ekologik madaniyat	Asosiy ta’lim	Qo‘shimcha ta’lim
Maktabgacha ta’lim	*Ona tabiat haqidagi umumiy tasavvurlar* (yer, suv, osmon, quyosh, o‘simlik va hayvonot dunyosi...)	Suvni asrash tajribalari «Toza havo – tanga davo» mashqlari Quyoshdan foydalanish yo‘llari Velosiped afzalliklari Oyoq ostidagi xazina (yer haqida)....	Ona tabiat Hayot va quyosh Birinchi qadam....	Tabiat va o‘yinchoqlar Buni bilishni istayman Bu nima, bu kim? (topishmoqlar) Onalarga ona tabiat haqida...
Umumiy o‘rta (maktab) ta’limi	***Boshlang‘ich ta’lim*** *1-4 sinf. Men va atrof-muhit* (tirik va notirik tabiat, inson qo‘li bilan yaratilgan boyliklar, yil fasllari va undagi tabiat ajoyibotlari)	Tabait va jamiyat yaratgan narsalarni ajrata olish va ularga nisbatan mehr ko‘zi bilan qarashni o‘rgatish; fasllarni ajrata olish va ularni har biriga xos bo‘lgan jozibadorligidan hayratga tushish	Ekologiya alifbosi: 1-sinfda - «Men va atrof tabiat» (o‘quv qo‘llanma va ishchi daftar) 2-sinfda «Tabiat ohangida atrof-muhit» (o‘quv qo‘llanma va ishchi daftar) 3-sinfda «Yerda yashash sharoiti» (o‘quv qo‘llanma va ishchi daftar) 4-sinfda «Inson tabiatni o‘zgartirmoqda» (o‘quv qo‘llanma va ishchi daftar)	Tabitga oid she’rlar to‘plami Tabiatga oid rasmlar majmuasi Ekologik o‘yinlar va ko‘riklar...

	Umumiy o‘rta ta’lim *5-9 sinf. Atrof tabiiy muhit haqida yetti saboq:* 1-saboq. Suv va uning ekologik vazifasi 2-saboq. Atmosfera havosi va uning ekologik vazifasi 3-saboq. Tuproq va uning ekologik vazifasi 4-saboq. O‘simlik dunyosi va uning ekologik vazifasi 5-saboq. Hayvonot dunyosi va uning ekologik vazifasi 6-saboq. Tog‘ jinsi va uning ekologik vazifasi 7-saboq. Mikro va nanoorganizmalarning ekologik vazifalari	Yer kurrasida va ayniqsa, issiq va tog‘li o‘lkalarda suv, havo, yer va barcha tirik tabiat har birimizning hayot manbayimiz ekanligini his etish.	*Ekologiya haqida yetti saboq:* 5-sinf. Tomchi suvda hayot jilvasi 6-sinf. Toza havo tanga davo 7-sinf. Jonli tuproq 8-sinf. Organizmalar hayotidan satrlar 9-sinf. Nanoorganizmlar tabiatda.	Yosh ekologlarga maslahatlar Ekologik lug‘at Ekologik ensiklopediya Din va tabiat Donolar ekologik ong va tarbiya haqida.
	Maktabdan tashqari ta’lim *1-4 sinf.* Akvariumchilar, «jajji naturalistlar, jonzotlar bizning do‘stilarmiz» to‘garaklari *5-9-sinf.* Yosh o‘lkashunoslar, yosh sayohatchilar, yosh tabiatshgunoslar, naturalistlarning foto va kino klublari	Amaliyot orqali tabiat va uning unsurlariga bo‘lgan mehr muhabbatni tabiat xilma-xilligi va insonlarning oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirish, insoniyatning yashash uchun kurash yo‘li ekanligini anglatish	Akvarium haqida ilk saboqlar Naturalist kim va uning vazifalari nimalardan iborat? Turizm va ma’naviyat	Yosh naturalistlar lug‘ati Sayohatchilar kundaligi Gerbariy namunasi «Vatan tabiati» daftari Ekologik xaritalar

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi	***Akademik litsey ta’limi***	Kishilik jamiyatini atrof-tabiiy muhitga bo‘lgan talabini qondirish uchun tabiatdan samarali foydalanishning lokal muammolarini xal eta olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish	Umumiy ekologiya	Atrof muhitni muhofaza qilish lug‘ati Ekologik atlas Ekologik madaniyat nima?
	Kasb-hunar ta’limi Kasbiy ekologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha)	Yengil sanoatda ekologik talablar Avtomobilsozlikda ekologik madaniyat qoidalari Maishiy xizmat ko‘rsatishning ekologik qoidalari Ekoturizmni tabiiy turizmdan farqi Agroturizmda ekologik talablar Ekologiyalashtirilgan iqtisodiyot Ijtimoiy sohadagi ekologik talablar Tabiat va jamiyat uyg‘unligi zarurati	Kasbiy mahorat talablaridan kelib chiqadigan ekologik talablar. Masalan: • ishdan keyin suvni muhofaza qilish uchun qo‘llaniladigan ekologik talablar; • ish joyida sigareta chekish oqibatlari; • jamoa joylarida tozalikni saqlash qoidalarini bilish; • chiqindilardan birlamchi va ikkilamchi foydalanish qoidalari.	Ekologik boshqotirmalar Ekologiyalashtirilgan tadbirlar iqtisodlashtirilgandir (mutaxassis xulosasi) Ekologik konkurslar Ekologik olimpiada
	Bakalavriat Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishida:	Ushbu maxsus yo‘nalishning 1-2-semestrlarida talabalar ekologiya va atrof-muhit muhofazasi-	Ekologiya nazariyasi va tarixi Atrof-muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslari	

Oliy ta'lim	Noekologik yo'nalishlar bo'yicha:	ning nazariy asoslari va uning rivojlanish tarixini o'zlashtirishlari orqali ularda ekologik madaniyatni shakllantirish talab etiladi. Har bir yo'nalishda mutaxissis o'zkasbi bo'yicha ekologik madaniyat namunasi ko'rsatishga oid takliflarni ishlab chiqish va ularni amalda qo'llashni namoyon etish. Shaxsiy harakat jurnalini tuzish va uning monitoringini olib borish.	Bioekologiya asoslari Geoekologiya va geografiya Ekologiya huquqi Ijtimoiy ekologiya Iqtisodiy ekologiya Muhandislik ekologiyasi Kosmos va ekologiya Pedoekologiya Nanoekologiya asoslari	Internet sahifalaridan yangiliklar. O'zgaruvchan ekologik yangiliklar stendlari. Yo'nalishlar bo'yicha lug'atlar va ensiklopediyalar. Yo'nalishlar bo'yicha ekologik innovatsiyalar. Ekologiyadan bitiruv malakaviy ish.
	Magistratura Barcha mutaxassisliklarning ekologik jihatlari	O'z mutaxassisliklarida amalga oshirish imkoniyati bor ilmiy-amaliy innovatsion takliflar	Xirurgiyaning ekologik talablari. Nanotexnologiyalar va tabiatni muhofaza qilish. Ekoturizmda atrof-muhit muhofazasi.	Ekologik treninglar Ekologik seminarlar Ekologik anjumanlar
Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim	***Katta ilmiy xodim, izlanuvchi (doktorantura)*** Attestasiyadan o'tkazishda ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga	Doktorlik dissertatsiyalariga qo'yiladigan mezonlardan biri – unda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish	Zamonaviy ekologik tadqiqot metodlari. Ekologik ong va madaniyat qoidalariga oid yangi g'oyalar ta'limi.	Tadqiqotlar, tajribalar, sinovlar va aprobatsiyalar. Majmuali tadqiqot, tajriba, sinov va aprobatsiyalar.

	oid savollarning bo'lishi. Doktorlik dissertatsiyasini milliy yoki global miqyosda aholining ekologik ongini ko'tarishga qo'shgan hissasini aks ettirish.	madaniyatini ko'tarishga qo'shilgan hissa. Ta'lim, tarbiya, ishlab chiqarish xizmat ko'rsatish yoki boshqaruvda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ekologik madaniyat qoidalari.		
Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash	***Malaka oshirish*** Zamonaviy ekologiya	Hozirgi zamon ekologik madaniyati	Barqaror rivojlanish ta'limi	Ekologiyaga oid yangiliklardan elektron tarqatma materiallar.
	Qayta tayyorlash Mutaxassisliklarga oid ekolgiya nazariyasi va amaliyoti.	Mutaxassisiliklarda ekologik madaniyat qoidalari.	Mutaxassisisliklar ekologiyasi.	Kasbiy ekologiyadan adabiyotlar tahlili va bitiruv malakaviy ishlari.

deb o‘ylaymiz. Bu esa majburiy ta’lim tizimida saboq olayotgan barcha yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’limning noekologik bakalavr yo‘nalishlarida, xuddi kasb-hunar kollejlaridek, ekologik ta’lim talabalarini tanlagan kasblariga qarab o‘g‘itilishini tashkillashtirish BMTning barqaror rivojlanish talablariga mos tushadi. Bunday holatda ekolog olimlarning hamma e’tibori jadvalda keltirilgan o‘quv kurslari bo‘yicha tuziladigan Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va ish rejalarini yuqori saviyada tayyorlashni talab etadi.

Ekologik yo‘nalishdagi bakalavriaturada ekologik ta’lim maktab yoki akademik litseydagi ekologiya va tabiatdan foydalanishga oid o‘quv kurslarining nomi va mazmunini zinhor qaytarishi kerak emas. Bu esa o‘ta mas’uliyatli, ekologiyaning ijtimoiy nufuziga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi holatdir.

Barcha mutaxassisliklardagi ekologik ta’lim *magistratura*sida o‘qish «Ekologik ilm texnologiyasi va ta’lim metodika»sidan boshlangani ma’qul. Chunki magistrantlar asosan ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradilar. Bu bilan ular ikki yillik o‘quv jarayoni davomida bir paytning o‘zida mehnat + ta’lim + ilmni muvofiqlashtirishlari hamda o‘quv kurslariga oid namunaviy va ishchi DTSlari, o‘quv rejalari, dasturlari, o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlarini yaratishlari talab etiladi. Bu o‘rinda O‘zMU professori A.S.Soliyevning «Ilmiy tadqiqot asoslari. Magistr va aspirantlar uchun qo‘llanma» (Toshkent, 2003), Rossiyalik olimlar V.S. Preobrajenskiy va L.I.Muxinalarning «Aspirantura va dissertatsiya» (Moskva, 1983) kabi qo‘llanmalari ibratli misol bo‘la oladi.

Ekologik madaniyat – *atrof-muhit hozirgi va kelajak avlodlarning yashash makoni ekanligini anglash va shu asosda faoliyat yuritish.*

Magistraturaning 1-bosqichida ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy ta’lim bevosita tarzda emas, balki jadvalda ko‘rsatilgan ixtisoslik fanlariga tatbiq qilinib, bilvosita tarzda o‘tilishi maqsadga muvofiq. Unda mamlakatimiz tarixini ham, milliy g‘oya va g‘urur omillarini ham ekologik ta’limga tatbiq qilingan tarzda o‘tilishi yuqori malakali magistrlarni tayyorlashda ta’lim-tarbiya birligini ko‘rsatadi. Magistrlik dissertatsiyasi nomzodlik dissertatsiyasining juda bo‘lmaganda 1/3 qismini tashkil etishi ekologik ta’lim uzluksizligi va uzviyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham magistrlik dissertatsiya mavzulari chuqur o‘ylangan, mutaxssislar orasida keng muhokama etilgan va aprobatsiyadan o‘tgan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-iyuldagi «Oliy malakali va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoniga[1] ko‘ra, mamlakatimizda 2013-yil 1-yanvardan boshlab «Stajor-tadqiqotchi-izlanuvchi (aspirantura)» instituti bekor qilindi va yagona «Katta ilmiy xodim-izlanuvchi (doktorantura)» saqlanib qolindi. Agarda doktoranturada ekologik ta’lim nomzodlik minimumlari saqlanib qolinsa, uning talablari ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid savollardan boshlanadi. Doktorlik dissertatsiyalariga qo‘yiladigan mezonlardan biri – ularda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo‘shganligini ko‘rsatish talablari bilan tugallanishi lozim. Buning uchun mutaxassis ekolog olimlar tomonidan «Doktorlik dissertatsiyalarida ekologik va atrof-muhit muhofazasiga doir talablarni aks ettirish» mavzusida metodik tavsiyalarni tayyorlash, ularni http://www.vak.uzsci.net, http://www.dad.idmnet.ru, http://www.commission-junction.com kabi vebsaytlarda joylashtirish hamda O‘zR OAK talablariga kiritish kerak. Katta ilmiy xodim-izlanuvchida ekologik ta’lim mustaqil holda amalga oshiriladi. Lekin dissertatsiyalarda milliy yoki global miqyosda aholining ekologik ongini ko‘tarishga qo‘shgan hissasini aks ettirish talab etiladi.

Ekologlar *malaka oshirayotgan*larida ekologik ta’lim → ilm → tarbiya → amaliyot uyg‘unligining zamonaviy talablarini masofadan turib o‘qitish, sinov natijalarini esa mintaqaviy miqyosda amalga oshirishni yo‘lga qo‘yishlari zarur.

XXI asrda *qayta tayyorlash* ekologlar uchun emas, balki ekologiyani o‘zlashtirmoqchi bo‘lganlar uchun tashkil etiladi. Ular mutaxassisliklarga oid ekolgiya nazariyasi va amaliyotini o‘zlashtirishlari, ekologik madaniyat qoidalarini bilishlari, kasbiy ekologiyadan adabiyotlarni tahlil qilishlari va bitiruv malakaviy ishni yozishlari kerak.

[1] «*Oliy malakali va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestasiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida*»gi O‘zR Prezidenti farmoni // Xalq so‘zi. 24.07.2012-y.

Yuqorida taklif etilayotgan ekologik uzluksiz ta'lim mazmuni va mohiyati real sharoitdan kelib chiqqan tarzda aks ettirilgan subyektiv dunyoqarashdir. Lekin u ekologik ta'lim va tarbiyaga oid turli shakl va ko'rinishdagi ilmiy-amaliy anjumanlarning asosiy mavzusi sifatida joy olsa ajab emas.

6. Atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish zarurati

Davlatlarning barqaror rivojlanishida kishilik jamiyati tomonidan e'tirof etilishi mumkin bo'lgan yagona yo'l nimadan iborat, degan o'rinli savol tug'iladi. Mazkur yo'l, bizning fikrimizcha, umuminsoniyat qadriyatlarini ifoda etuvchi, xalqaro huquq prinsiplaridan kelib chiquvchi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi huquqiy-demokratik yo'ldir. Chunki turli toifadagi kishilar, davlatlar, millatlar, xalqaro uyushmalarning fikrlarini umumlashtiruvchi masala barqarorlikdadir. Har bir inson, avvalambor, o'z tinchligi, sixat-salomatligi, baxtli hayoti uchun qayg'uradi, albatta. Ushbu ezgu niyatlarining amalga oshishi uchun insonlar butun kuch-qudratini ishga soladilar, jamoa➤ uyushma ➤ oqim ➤ davlatga birlashadilar. Insoniyatning hozirgi rivojlanish bosqichida bunday xatti-harakat kishilarning yurish-turish qoida va me'yorlarining yozma ifodasi orqaligina amalga oshiriladi. Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, ijtimoiy munosabatlarning ana shunday yozma ifodasi fanda huquq deb ataladi.

Atrof-muhit muhofazasi, ya'ni tabiatni muhofaza qilish, uning buzilgan ekotizimlarini qayta tiklash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish jarayonida kishilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar *ijtimoiy ekologik munosabatlar* turkumiga kiradi. Ularni esa fanda umumlashtirilgan tarzda ekologik munosabat, deb ham ataydilar.

Barqaror rivojlanish yo'lida turgan har qanday davlat uchun huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish pirovard maqsad hisoblanadi. Unda xalq irodasi qonunlarda aks etadi, fuqarolar esa davlat boshqaruvida faol ishtirok etishlari qonun ustuvorligini ta'minlashda va adolatni yuzaga chiqarishda so'zsiz xizmat qiladi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2002-yil avgustda bo'lib o'tgan Oliy Majlisning II chaqiriq 9-sessiyasida qilgan ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasida demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini o'rnatishning asosiy sohalarini ko'rsatib berdi. Unda hamma ijtimoiy

munosabatlar faqatgina huquqiy yo'llar orqali tartibga solinishi kerakligi, ana o'shandagina ijtimoiy muhofazalangan bozor iqtisodiyotiga yetib borishimiz mumkinligi ta'kidlangan edi.

Ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun milliy va xalqaro huquqda ekologik me'yorlar hamda qoidalarni tabiat qonuniyatlariga mos ravishda ishlab chiqish, ularni vakolatli organ, tashkilot yoki hamjamiyatlar tomonidan qabul qilish, uning ishtirokchilari o'rtasida ushbu me'yorlarni umummajburiy kuchga ega qilish va albatta, huquqbuzarlarga nisbatan yuridik oqibatlarni keltirib chiqarish mexanizmini yaratish zarur. Aks holda, atrof-muhitni muhofaza qilishni huquqiy jihatdan tartibga solish imkoniyatini yuzaga chiqarish aslo mumkin emas.

2012-yilga kelib O'zbekistonda ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan 30 dan ziyod milliy qonunlar va 360 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2007-yilga kelib mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid 245 ta normativ hujjat qabul qilingan bo'lsa, shulardan:

48 tasi – davlatlararo standartlar;
20 tasi – milliy davlat standartlari;
91 tasi – boshqaruv hujjatlari;
5 tasi – sanitar va gigienik normalar;
81 tasi – tavsiyanoma, nizom, metodik ko'rsatma, isntruksiya va shu kabi hujjatlardir.

Respublikamizda 1996-yilda «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi va shu asosida tegishli huquqiy-normativ hujjatlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish orqali atmosfera havosiga chiqazilayotgan chiqindilarning umumiy miqdori 2 mln. tonnaga, statsionar obyektlardan esa 0,7 mln. tonnaga kamaydi.

«Lex.Uz» veb-saytida atrof-muhit muhofazasiga oid qonunchilik bazasi alohida ruknda berib borilmoqda. Ekologik yo'nalishdagi barcha axborot vositalarida «ekohuquq» mavzulari alohida rukn yoki sarlavha tariqasida berib borilmoqda.

Shunday qilib, ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish nafaqat atrof-muhit muhofazasiga, balki xalqlar va davlatlar o'rtasida barcha mahalliy, regional va global masalalarni demokratik yo'sinda

hal qilish hamda insoniyatni barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilishga olib keladi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Davlat va huquq so‘zlariga izoh bering.
2. Davlat va huquq belgilarini sanab o‘ting?
3. Davlat va huquq birligi nimada?
4. Tabiat nima-yu, ekologiya nima?
5. Jamiyatning tabiatga nisbatan qanday munosabat shakllarini sanab o‘ta olasiz va tushuntirib bera olasiz?
6. Ayrim Osiyo davlatlarida jamiyatning tabiatga nisbatan qanday munosabat shakli amal qilinishini aniqlab ko‘ring va seminar mashg‘ulotlarida uni muhokama qiling.
7. Ekologik qarashlarni sanab o‘ting va ularning maqsadini tushuntiring.
8. Ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlashda qanday ekologik prinsiplarga rioya etish zarur?
9. Hozirgi kunda yurtimizda qanday ekologik munosabat shakli, konsepsiyasi va prinsiplarni ma’qul deb topilgan?
10. Ekologik xavfsizlikni ta’minlashda huquqning qanday xizmati bor?
11. Qaysi bir milliy axborot vositasida ekologik huquqiy munosabatlarga oid ruknlar berib borilishini aniqlang va uni jadval ko‘rinishida ifodalang!

Obyektiv ravishda yoritilgan tarixiy xotira kelajakka xizmat qiladi.

II bob. EKOLOGIYA HUQUQI TUSHUNCHASI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI, OBYEKTI VA PREDMETI

1. Ekologiya huquqi tushunchasi

XXI asrning 2-o‘n yilligiga kelib «Ekologiya huquqi» qaysi fanlar tizimida turadi, degan o‘rinli savollar tug‘ila boshladi. Umuman olganda, zamonamizda fanlar integratsiyasi juda jadallashib ketdi. Buni sezmaslik ilm-fandan uzoqlashmoq demakdir. Shuning uchun ham ekologiya huquqining fanlar orasida tutgan o‘rni va ular bilan uzviy bog‘liqligini aniqlab olishimiz talab etiladi.

Avvalambor, *Ekologiya huquqining ekologik fanlar tizimidagi o‘rni*ga to‘xtalsak. Yuqorida aytib o‘tdikki, ekologiya fanining predmeti – ekotizimlarda organizmlar o‘zaro va ularni yashash muhiti (aniqrog‘i, tabiiy muhiti) o‘rtasidagi munosabatlar. Ushbu munosabatlar tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, yuridik, umumiy (kompleks) va shunga o‘xshash ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Ana shu xarakterlarga qarab, ekologiya turli fan yo‘nalishlariga ajralib ketadi. Masalan, *ijtimoiy xarakterda* – ijtimoiy ekologiya, inson ekologiyasi, oila ekologiyasi, mahalla ekologiyasi va h.k.; *iqtisodiy xarakterda* – iqtisodiy ekologiya, tabiiy resurslardan foydalanish iqtisodi, makroiqtisodiy ekologiya, mikroiqtisodiy ekologiya va h.k.; *yuridik xarakterda* – ekologiya huquqi, xalqaro ekologiya huquqi, tabiiy resurslardan foydalanish huquqi, tabiatni muhofaza qilish huquqi va h.k. (2.1.1-rasm).

Yuqorida eslatib o‘tilgan Ekologiyaga doir barcha fanlarning o‘ziga xos obyekti, predmeti, usullari, tatbiq qilish joyi va manbalari bor. Aks holda ular mustaqil fan sifatida e’tirof etilmaydi.

Ekologiya huquqi fan sifatida yuridik xarakterdagi kishilar o‘rtasida atrof-muhit, to‘g‘rirog‘i atrof tabiiy muhitga nisbatan yuzaga keladigan barcha munosabatlarni tadqiq qiladi. Tadqiq qilingan ushbu sohaga doir nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirilgan va umumlashtirilgan tarzda ta’lim va tarbiya berish esa ekologiya huquqi o‘quv predmetining maqsadi hisoblanadi.

E K O L O G I Y A						
Umumiy ekologiya	Geoekologiya	Bioekologiya	Amaliy ekologiya	Iqtisodiy ekologiya	Huquqiy ekologiya	Ijtimoiy ekologiya
• Nazariy ekologiya • Eksperimental ekologiya • Matematik ekologiya • Informatsion ekologiya • Analitik ekologiya • Funksional ekologiya • Kompleksklar ekologiyasi • Ekologik tizim va jarayonlarni modellashtirish va h.k	• Geografik qobiq ekologiyasi • Landshaftlar ekologiyasi • Global ekologiya • Regional ekologiya • Mahalliy ekologiya • Ekzoekologiya va h.k.	• Zooekologiya • Fitoekologiya • Autekologiya • Pedoekologiya • Sineekologiya • Populyatsiyalar ekologiyasi • Evolyutsion ekologiya • Organizmlar guruhlari ekologiyasi • Mikroekologiya • Nanoekologiya va h.k	• Kosmos ekologiyasi • Sanoat ekologiyasi • Agro ekologiya • Kommunal ekologiya • Transport ekologiyasi • Tibbiyot ekologiyasi • Qurilish ekologiyasi • Bioresurslar ekologiyasi • Muhandislik ekologiyasi	• Ekologik menejment • Ekologik marketing • Ekologik audit • Makroiqtisodiy ekologiya • Mikroiqtisodiy ekologiya • Iqtisodiy hududlar ekologiyasi va h.k	• Ekologiya huquqi • Xalqaro ekologik huquq • Tabiiy resurslardan foydalanish huquqi • Tabiatni muhofaza qilish huquqi • Milliy ekologik huquq • Ekologik xavfsizlik huquqi • Buzilgan ekotizimlarni tiklash huquqi va h.k.	• Inson ekologiyasi • Etnik ekologiya • Oila ekologiyasi • Mahalla ekologiyasi • Sotsial guruhlar ekologiyasi • Iste'mol ekologiyasi • Urboekologiya • Tarixiy ekologiya • Demoekologiya • Rekratsiyaviy ekologiya • Jamoat ekologiyasi va h.k

2.1.1-rasm. **Hozirgi zamon ekologik fanlar tizimida huquqiy ekologik fanlarning tutgan o'rni.**

Huquqiy xarakterga ega bo'lgan ekologiyaga doir fanlar ham tarmoqlashib ketgan.

Ekologik-huquqiy bilimlar umumlashtirgan tarzda – Ekologiya huquqi yoki ajratilgan tarzda – Tabiiy resurslardan foydalanish huquqi, Xalqaro ekologiya huquqi, Atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish kabi yo'nalishlardan iborat bo'lishi mumkin (2.1.2-rasm).

O'zbekiston Respublikasining huquqshunoslik va ekologiya, atrof-muhit muhofazasi yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida «Ekologiya huquqi»da ekologiyaning huquqiy ekologiya blokiga doir barcha bilimlarni umumlashtiruvchi o'quv predmeti sifatida ta'lim berish qabul qilingan.

Ekologiya huquqi barcha ekologiyaga doir ijtimoiy munosabatlarni huquqiy normalar orqali tartibga solishni o'zining predmeti qilib oladi. U kishilarning tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit holatini sog'lomlashtirish, ekotizimlarni qayta tiklashga doir xulq-atvor qoidalari va me'yorlarini yozma ravishda o'rnatadi, amalga tatbiq qiladi va uning muhofazasini ta'minlaydi. Boshqa hech qaysi bir ekologik yo'nalishdagi fan tarmoqlari bunday vazifani o'z oldiga qo'ymaydi. Masalan, Bioekologik fanlar o'simlik va hayvonot dunyosi, mikro va nanoorganizmlarning o'zaro munosabatni va ularni o'rab turuvchi atrof-muhit bilan bo'ladigan munosabatni yoki o'zaro aloqadorlik qonuniyatini tadqiq qiladi. Unda inson faqatgina omil sifatida ishtirok etadi, xolos. Shunday qilib, Bioekologiya o'rganish obyektining «markazida» organizmlar – o'simlik va hayvonot dunyosi turadi.

Ekologiya huquqi – *ijtimoiy ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan fan tarmog'i, unga oid bilimlarni beruvchi ta'lim yo'nalishi, ushbu munosabatlarni huquqiy jihatdan optimallashtirishga yo'naltirilgan amaliyot sohasi.*

Ekologiya huquqining boshqa ekologik fan tarmoqlari bilan bog'langan joyi bormi? Bor bo'lsa, ular nimalardan iborat, degan o'rinli savollar tug'ilishi mumkin. Ha, bor albatta. Masalan, hozirgi zamon fan va texnikasida yuzaga kelayotgan inqilobiy o'zgarishlar biosfera (organizmlar yashaydigan qobiq)dagi barcha jarayon va hodisalarni o'zgartirib yubormoqda. Xoh u ijobiy, xoh salbiy ko'rinishda namoyon

bo‘lsin, oddiy nanoorganizmlardan tortib to yirik sut emizuvchilarning soni, ko‘payishi, rivojlanishi inson faoliyatiga kundan-kunga ko‘proq bog‘lanib qolmoqda. Shuning uchun ham inson faoliyatini ekologik jihatdan boshqarish boshqa turdagi ekologik munosabat va aloqadorlikning mohiyatini belgilab beradi. *Boshqarishning zamonaviy usullaridan biri esa huquqiy tartibga solishdir*. Agarda biz ekologik huquq normalarini o‘z vaqtida qabul qilib, ularni hayotga real tatbiq qilgan, ya’ni ekologik-huquqiy mexanizmni ishga solib yuborgan taqdirimizdagina, bioekologik, geoekologik, ijtimoiy-ekologik ko‘rinishdagi ekologik tizimlarda modda va energiya almashuvini normal kechuvini ta’minlay olamiz. Bu esa barcha turdagi organizmlarning yashash muhiti – makonini saqlab qolish demakdir.



2.1.2-rasm. **Ekologiya huquqining tarmoqlashuvi.**

Ekologiya huquqi huquq sohalari tizimida ham muhim o‘rin tutadi. Hammamizga ma’lumki, huquqning asosiy maqsadi – ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish. Tartibga solish funksiyasi o‘ziga huquqning qo‘riqlash va tarbiyalash funksiyasini ham qamrab oladi. Ijtimoiy munosabat esa yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, shaxs → jamiyat → davlat → davlatlar o‘rtasida yuzaga keladigan

munosabatlardir. Ushbu munosabatlar esa iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, ma’rifiy-ma’naviy, mulkiy, shaxsiy nomulkiy kabi o‘nlab xarakterga ega bo‘ladi. Aynan shu xarakterlar huquq sohalarini farqlab olishga xizmat qiladi. Masalan, *siyosiy xarakterda* – xalqaro huquq, inson huquqi va h.k.; *iqtisodiy xarakterda* – moliya huquqi, bank huquqi, tadbirkorlik huquqi va h.k.; *ekologik xarakterda* – ekologiya huquqi, xalqaro ekologiya huquqi va h.k.

Ekologiya huquqi ekologik xarakterdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquq sohasi hisoblanadi. U Yer huquqi, Suv huquqi, Yer osti boyliklari huquqi, O‘rmon huquqi kabi mustaqil huquq sohalaridan farqli tabiiy unsurlar (yer, suv, yer osti boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosi) va tabiat majmualariga (qo‘riqxonalar, buyurtma qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, noyob landshaftlar, o‘rmonlar...) mustaqil tabiiy obyekt sifatida qaramaydi. *Tabiiy unsurlar va majmualarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning yagona ekologik tizimlarda turishi nuqtayi nazaridan qaraydi*. Shuning uchun ham ekologiya huquqi tabiiy obyektlarga nisbatan qaratilgan barcha ijtimoiy munosabatlarni tizimli tartibga solishni nazarda tutadi. Lekin ushbu maqsadga yerishishni boshqa huquq sohalari – Yer huquqi, Suv huquqi, O‘rmon huquqi, Yer osti boyliklari huquqi, Jinoyat huquqi, Fuqarolik huquqi kabi fanlar bilan bog‘langan va ulardan foydalangan tarzda amalga oshiradi. Misol tariqasida, Jinoyat huquqida ekologik qonun normalarini buzganlik uchun alohida jinoiy jazo sanksiyalari belgilangan bo‘lib, ular orqali Ekologiya huquqi o‘zining «qo‘riqlash» (oldini olish) funksiyasini amalga oshiradi. Yer huquqi orqali esa u o‘ta muhim ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan hududlarni alohida bir yer toifasiga – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga (O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida «alohida» so‘zi olib tashlangan) ajratadi va ularda alohida bir huquqiy holatni o‘rnatadi.

Ekologiya huquqining maqsadi va vazifalari. XXI asrga kelib atrof-muhit holatiga salbiy ta’sir etuvchi – insonlarning turmush faoliyatini har tomonlama qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Aks holda ushbu insonlarning noekologik turmush tarzi o‘zining hayoti uchun zomin bo‘lishi muqarrar.

Kishilar turmush tarzini ekologik xavfsizlikka tomon yo‘naltirish uchun uning barcha iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy, ma’rifiy,

huquqiy faoliyatini ekologiyalashtirish talab etiladi. Optimist alarmizmchilarning konsepsiyasiga qo‘shilgan holda, faqatgina huquqiy-demokratik davlat qurish va bozor iqtisodiyotini chinakamiga shakllantirish ekologik inqirozlarning oldini oladi, deyish mumkin. Unga qo‘shimcha tarzda Oliy Majlisning II chaqiriq 9-sessiyasida Prezident I. A. Karimov tomonidan alohida ta’kidlab o‘tilgan fuqarolik jamiyatini barcha davlatlarda o‘rnatish ham ekologik xavfsizlikni ta’minlash tomon qo‘yilgan katta qadam bo‘ladi. Ushbu talablarni, avvalambor, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ekologik-huquqiy asosini yaratish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini ko‘tarish, ekologik qonunchilikni hayotga keng tatbiq qilish orqali amalga oshirish mumkin.

O‘zbekistonda ekologiya huquqining maqsadi – *davlatning barqaror rivojlanishi va fuqarolarning ekologik xavfsiz muhitda yashash huquqini ta’minlash uchun ekotizimlarni muhofaza qilish, ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni tiklashni huquqiy tartibga solishdir.*

Ushbu maqsadni amalga oshirmoq uchun Ekologiya huquqi quyidagi *vazifalarni* bajarishni nazarda tutadi:

- aholining ekologik-huquqiy ongi va madaniyatini ko‘tarish;
- ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish;
- ekologik qonunlarni kodifikatsiyalash;
- milliy ekologik xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy asosini yaratish;
- demokratik prinsiplarga mos ravishda ekologik qonunchilikni takomillashtirish;
- ekologik-huquqiy boshqaruvni yo‘lga qo‘yish;
- huquqni muhofaza qilish organlarining ekologik faoliyatlarini aniqlash va kengaytirish hamda mukammal ekologik-huquqiy nazorat tizimini yaratish;
- ekologik-huquqiy mexanizmni ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish;
- ekologik harakatlarni rag‘batlantirish va ekologik huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlikni yuridik jihatdan rivojlantirish;
- har bir tabiiy obyekt va komplekslardan oqilona foydalanishning huquqiy rejimini ekologik talablarga moslab borish;

- ekologik jihatdan nobop yoki buzilgan hududlarga aholini ijtimoiy muhofaza qiladigan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomini o‘rnatish;
- ilg‘or mamlakatlarning ijobiy hamda rivojlanmagan mamlakatlarning salbiy ekologik-huquqiy tajribasini o‘rganish;
- global ekologik tizimda atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro huquqiy va yagona sayyoraviy mexanizmini yaratish hamda uni milliy qonunchilikda keng ifoda etish;
- xalq, millat, elat va jamoalarning yagona inson sayyorasini xavfsiz holda saqlash javobgarligining huquqiy bazasini yaratish;
- xalqaro miqyosda ekologik monitoring, nazorat, ekspertiza, ekologik-protsessual masalalarni tezkorlik bilan hal qiluvchi organlarni yaratish va ularning faoliyatlarini ta’minlash.

Yuqorida sanab o‘tilgan Ekologiya huquqining vazifalari real sharoit va holatga mos ravishda takomillashib borishi lozim. Lekin qo‘yilgan maqsad yagona va o‘zgarmasdir. Chunki hamma narsa inson va uning farovonligi uchun xizmat qiladi. Farovon hayot faqatgina toza va xavfsiz atrof-muhitdagina amalga oshishini biz hammamiz Orol va Orolbo‘yi misolida yaqqol tasavvur eta olamiz. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aynan ushbu maqsad huquqiy jihatdan bevosita va bilvosita tarzda ifoda etilgandir.

2. Atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish tarixi

Har bir fan va fanlar tizimining rivojlanish tarixi bo‘lgani kabi, jamiyatdagi ekologik munosabatlarning ham rivojlanish tarixi yoki taraqqiyot bosqichlari mavjud. Garchand ular ekologik munosabat yoki ekologiya huquqi deb nomlanmagan bo‘lsa-da, lekin maqsad, aynan atrof tabiiy muhitni huquqiy jihatdan muhofaza qilishga qaratilgandir.

Tabiatni huquqiy muhofaza qilish tarixini ko‘pgina olim va mutaxassislar turlicha ifodalaydilar. Bir guruh o‘zbek huquqshunos olimlari[1] tomonidan chop etilgan «*Ekologiya huquqi»* darsligida O‘zbekiston hududida ekologik-huquqiy munosabatlar tarixini yaqin ikki asrga, taraqqiyot bosqichlarini esa keskin ravishda o‘zgargan

[1] *Экология ҳуқуқи.* Дарслик. – Т.: «Адабиёт жамғармаси», 2001. – 325-б.

ijtimoiy-siyosiy holatga bog‘laydilar: *sotsialistik tuzumgacha (1917–1924-yillargacha); sotsialistik tuzumda (1924–1990-yillarda); mustaqillik davri (1991-yildan buyon).*

Rossiyalik olimlar ekologik-huquqiy munosabat tarixiga turlicha yondashadilar. Masalan, professor V. V. Petrov[1] tabiatni huquqiy muhofaza qilishning tarixiy bosqichlarini ekologik munosabatlar qaysi bir huquq sohasining predmetiga kirganligiga qarab ajratadi: fuqaroviy-huquqiy; yer-huquqiy; yer va resurslar huquqi; ekologik-huquqiy.

V. V. Vedenin[2] esa tabiatni huquqiy muhofazalashning tarixiy bosqichlarini ekologiya huquqining maqsadi va vazifalariga ko‘ra ajratadi: konservatsion, tabiiy resurslar, ekologik.

Yuqorida keltirilgan tabiatni, huquqiy muhofaza qilishning tarixiy bosqichlarini ajratishga turlicha yondashishlar tarixiy bosqichlarni huquqiy o‘zgarishlar davriga bog‘laydilar. Biz ham shunday qilishimiz mumkin. Lekin O‘zbekiston hududidagi davlat va huquq tarixi nuqtayi nazaridan ekologik munosabatlar rivojlanish bosqichlariga qarash boshqa ilmiy asoslar zaminida tasniflashni talab etadi. Sababi, *O‘rta Osiyo davlatchilik tarixida yuz bergan XIX–XX asrdagi siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar doimo ham jamiyatning ekologik dunyoqarashlarini keskin ravishda va tubdan o‘zgartirgani yo‘q.* Chunki chor Rossiyasining ham, sovet tuzumining ham maqsadi bitta edi – Turkiston o‘lkasini tabiiy xomashyo bazasi sifatida ushlab turish. Mustaqil O‘zbekistonning rivojlanishida ham aynan tabiiy resurslardan atroflicha foydalanish niyati yo‘q emas edi. Undan tashqari, tabiatni huquqiy muhofaza qilish tarixi Markaziy Osiyoda juda uzoq davlatchilik tarixiga borib taqaladi. Buni aslo inkor etib bo‘lmaydi.

Bizning fikrimizcha, ***O‘zbekiston hududida tabiatni huquqiy muhofaza qilishning tarixiy bosqichlarini*** keskin chegaralash kerak emas, aksincha, ularni ajratishda insonlarni tabiatga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishi va davlatning ekologik siyosatiga bog‘liqligi asosiy tasniflash mezoni bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich. Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan oddiy-iqtisodiy munosabat shaklidagi davri. Bu bosqich hozirgi O‘zbekiston hududida yuzaga kelgan davlatchilik tarixidan boshlanib, to XIX asrning

[1] *В.В.Петров.* Экологическое право России. – М.: «Бек», 1997. – С. 557.

[1] *В.В.Веденин.* Экологическое право. Вопросы и ответы. – М.: «Юриспруденция», 1999. – С.126.

70-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Oddiy-iqtisodiy munosabat shaklidagi davrda ham yuridik kuchga ega bo‘lgan, aynan tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy normalar amal qilgan. Masalan, zardushtiylarning qadimgi Avesto[1] kitobining Vandidod qismida atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy normalari o‘rnatilgan. Unda insonlar suv, tuproq, olov, umuman tabiat in’om etgan barcha narsalarni pok va bus-butun asrashga burchli ekanligi, yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishilarga nisbatan 400 qamchi jazosi belgilanganligi aytilgan. Lekin Avestoda jazo sanksiyasi tabiiy obyektlarni qirish yoki kamaytirishga ham qaratilgan edi. Suvni iflos qilgan yoki ov itini o‘ldirgan kishi 10 ming ruhiyatni tetiklashtiradigan o‘simlik bargini yig‘ishi, 1000 echkiemar va xuddi shu miqdorda suv qo‘ng‘izi yoki kasallik tarqatuvchi pashshalarni o‘ldirishi orqali gunohini yuvishi lozim bo‘lgan.

Islom huquqi, ya’ni fiqh ilmining huquqiy manbalari, xususan, Qur’oni karim va hadislarda hayvonlarni boqish, sug‘orish va parvarish qilish har bir mo‘min musulmonning burchi qilib ko‘rsatilgan. Kimki ushbu majburiyatni bajarmasa, u gunohkor sanalib, jamoat tomonidan tanbehga uchragan va ularga do‘zax azobida qiynalish javobgarligi o‘rnatilgan. Ushbu huquqiy manbalarga asoslangan tarzda qoraxoniylar sulolasidan bo‘lmish Abul Fazl Abbos 1041-yil 29-dekabrdagi «Vorux farmoni»da ilk bor ekologik ko‘rinishdagi manba yaratgan. Uning farmonida quyidagi ekologik normalar bitilgan: «Har bir ovchi tirikchilik manbayi bo‘lgan ovga faqat bitta yoy o‘qi bilan chiqishga majburdir. Bir o‘q bilan ovlanadigan hayvon unga nasibadur. Nasibadan ortig‘i esa unga makruhdir (haromdir). Hayvonlarni bolalash paytida ovlamoq mumkin emas, jonivorning urg‘ochisi, parrandaning modasini ov qilmoq mashnu’dir...», deyilgan.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning tabiatga nisbatan oddiy-iqtisodiy munosabat shakliga xos bo‘lgan davrda ekologik munosabatlar umumiy tarzda ifodalangan va ko‘pincha yuqori qatlam – shoh, hokim va ulamolarning mulkini muhofazalashga qaratilgan. Undagi huquqiy normalar mahalliy ahamiyat kasb etib, tabiiy obyektlar «foydali» yoki «foydasiz»ga ajratilgan. Yagona ekologik tizimga xos huquq va majburiyatlar hamda javobgarlik sanksiyalari o‘rnatilmagan. Bunday

[1] *Авесто.* Тарихий-адабий ёдгорлик. – Т.: «Шарқ», 2001. – 384 б.

ekologik munosabat davri Yevropa huquq normalarining Markaziy Osiyoga kirib kelish davrigacha hukm surgan.

2-bosqich. Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan iqtisodiy munosabat shakliga xos bo‘lgan davr. Bu bosqich XIX asrning 70-yillaridan XX asrning 90-yillarigacha bo‘lgan tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. O‘quvchi bu davr keskin siyosiy-ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni o‘zida mujassamlagan davr-ku, degan e’tirozlarni bildirishi mumkin. Lekin chor Rossiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasining bosib olinishi, 1917-yildan so‘ng sotsialistik tuzumning o‘rnatilishi va Konstitutsiyaviy normalarning qabul qilinishi, 1960–80-yillarda bir qator ekologik qonunlarning yuzaga kelishi, Xorazm va Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi, so‘ngra Turkiston avtonom respublikasi va O‘zbekiston SSRdagi davlatlarning ekologik konsepsiyasi hamda ularning ekologik siyosatlariga aytarli amaliy ta’sir etmadi. Chunki chor Rossiyasi davrida ham, Sovet tuzumida ham O‘rta Osiyo arzon tabiiy xomashyo o‘lkasi bo‘lib qolavergan. Albatta, bu davrda huquq tizimi xalqaro andozalarga moslashtirildi, yangi turdagi va yo‘nalishdagi ixtisoslashtirilgan qonunlar qabul qilindi, lekin tabiat va jamiyat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabat shakli qanday bo‘lsa shunday qoldi, ya’ni aytarlicha o‘zgargani yo‘q. Paxta yakkahokimligi, uran, volfram, molibden, tilla konlarining pala-partish ishlatilishi, rekultivatsiya va melioratsiya choralarini keng miqyosda olib bormaslik – Orol va Orol bo‘yi, Uchquduq – Kokpotos, Uzun – Sariosiyo, Mirzacho‘l – Jizzax cho‘li, Navoiy – Gazli ekologik inqirozli hududlarni yuzaga keltirdi. Ushbu tarixiy davr bizlarga saboq bo‘lishi kerak. Bu esa jamiyat va tabiat o‘rtasida iqtisodiy munosabat shaklining qayta yuzaga kelishiga aslo yo‘l qo‘ymasligimizga chaqiradi.

3-bosqich. Iqtisodiydan iqtisodiy-ekologik munosabat shakliga o‘tishga xos bo‘lgan davr. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi uning ekologik konsepsiyasi va ekologik siyosatining yangilanish davri. Bu bosqich aslida Ekologiya huquqi jihatidan 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Yer to‘g‘risidagi qonundan boshlandi. Unda respublikamiz yer kengligi o‘zbek xalqining xohish-irodasiga qarab tasarruf qilinishi, egallanishi va undan foydalanishning ilk suveren huquqi belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil Konstitutsiyasi bilan bir paytda 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonuni davlatimizning atrof tabiiy muhitga bo‘lgan dunyoqarashini belgiladi. Keyingi 21 yillikda qabul qilingan o‘nlab ixtisoslashtirilgan va yuzlab umumlashtirilgan ekologik qonun va qonunosti hujjatlarning qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Orolbo‘yi hududida yiliga 20–30 ming gektar suvi qochgan sho‘rli yerlarning fitomelioratsiya qilinishi (o‘simlik dunyosi bilan qoplanishi), Orolbo‘yi tumanlar aholisining toza ichimlik suvi bilan ta’minlanishi, Tursunzoda alyumin zavodidan chiqayotgan chiqitlarning xalqaro me’yorlar orqali tartibga solinishi, toza ekologik mahsulot chiqarishning huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi, davlatning ekologik boshqaruv va nazorat tizimining yuzaga kelishi buning amaliy misoli bo‘la oladi.

Hozirgi bosqichda asosiy ekologik muammolardan biri ekologik-huquqiy mexanizmning to‘la shakllanmaganligidadir. 3-bosqich davri endi boshlanyapti. Ushbu davr jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy munosabat shaklidan iqtisodiy-ekologik munosabat shakliga o‘tish davri bo‘lmog‘i kerak. Zero, endilikda o‘zbek xalqining azaliy orzusi – o‘z tabiiy boyliklariga nisbatan egalik huquqi yuzaga keldi. Inson huquqi va davlat xavfsizligi unsurlaridan biri bo‘lgan ekologik xavfsizlikni ta’minlash kelajakda o‘zimizga bog‘liqdir.

3. Ekologiya huquqi obyekti va predmeti

Barcha fanlarda bo‘lgani kabi Ekologiya huquqining nazariy asoslari mavjud. Nazariyaning ildizi, hammamizga ma’lumki, falsafaga borib taqaladi. Falsafada nazariya – bilimning biror bir sohasiga oid g‘oyalar tizimi yoki voqelik qonuniyatlari hamda undagi muhim aloqalar haqida bir butun tasavvur beradigan bilim shakli[1]. Nazariyaning asosiy vazifasi tajribalar bergan dalillarni izohlash, voqea va hodisalarning mazmun va mohiyatiga chuqurroq kirib borish, yangi paydo bo‘lganlarini avvaldan ko‘ra bilish hamda yangi bilimlar hosil qilishdagi boshlang‘ich ilmiy asosni shakllantirish. Nazariya amaliyot bilan uzviy bog‘langandagina u yashovchan bo‘ladi, harakat hamda rivojlantirish quroliga aylana oladi.

Avvalambor, har bir *fan sohasi yoki fanlar tizimi mustaqil* ravishda e’tirof etilishi yoki amalda faol harakatlanishi uchun nazariy jihatdan isbotlangan o‘ziga xos *izlanish yoki tadqiqot obyekti, predmeti, metodologiyasi, metodikalari, prinsiplari, amaliy va nazariy ahamiyati,*

[1] *1 Назария.* Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ ДИН. 6-жилд. – Т.: «ЎзМЭ давлат илмий нашриёти», 2003. – 242-б.

ta'lim va tarbiyalash xususiyatlari talab qilinadi. Aks holda ushbu fan sohasi yoki fanlar tizimi hayotda o'z o'rnini topa olmaydi, eskilari esa asta-sekin jamiyat va davlat «e'tiboridan chetda» qolib yoki «omuxtalashib», ya'ni aralashib ketadi.

Hozirgi kunda huquqshunoslik fanlar tizimining eng dolzarb muammolaridan biri unda uning tadqiqot yoki o'rganish obyektiga yetarli darajada e'tibor berilmayotganligida. Har bir nazariya fanning obyektini aniqlashtirib olishdan boshlanadi. Ekologiya huquqi ham bundan istisno emas. *Falsafada obyekt – bizning ongimizga yoki bizlarga bog'liq bo'lmagan holda namoyon bo'luvchi tashqi dunyo, moddiy borli*q[1]. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida obyekt (lotinchada objektum – narsa) – subyektga (tadqiqotchiga, izlanuvchiga, o'rganuvchiga – A.N.) qarama-qarshi bo'lgan hamda insonning amaliy va bilish faoliyati qaratilgan obyektiv reallik. Obyekt inson va uning ongidan mustaqil.. .[2]

Shunday qilib obyekt kishilarning ongidan mustaqil hosil bo'lgan obyektiv reallik. Ekologiya huquqida ekotizimlar, u qanday ko'rinishda va chegarada ifodalanmasin, baribir, kishilar ongining mahsuli emas. Shuning uchun ham Ekologiya huquqining obyektni uning predmeti bilan almashtirish yoki ularni bir ma'noda talqin qilish yoinki unga boshqacha tushuncha berish hech qanday falsafiy asosga to'g'ri kelmaydi.

Ekologiya huquqining obyekti – *ijtimoiy munosabatlar sodir etilishi mumkin bo'lgan ekotizimlar.*

Tabiat unsurlari – yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklar, o'simlik va hayvonot dunyosi alohida bir huquq tarmog'larining tadqiqot yoki o'rganish obyekti bo'lib hisoblanadi. Ekologiya huquqining boshqa turdosh huquq sohalaridan farqi ham uning tadqiqot obyektida. U inson ongidan tashqaridagi tabiatga kompleks yoki mamualilik nuqtayi nazardan yondoshadi. Albatta, ekotizimlarda yuqorida sanab o'tilgan barcha tabiat unsurlari mavjud, lekin ularga oid ijtimoiy munosabatlar ekologiya huquqida ekotizimning ajralmas bir bo'lagi yoki qismi sifatida qaraladi.

[1] *Объект*. Словарь русского языка. Том II. М., 1958. – С.791.

[2] *Объект*. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ ДИН. 6-жилд. – Т.: «ЎзМЭ давлат илмий нашриёти», 2003. – 441-б.

Ekologiyaning predmeti – *ekotizimlarda organizmlar o'zaro va ularning atrof-muhiti o'rtasidagi munosabatlar.* Ushbu munosabat tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, ma'rifiy-ma'naviy, umumiy va shunga o'xshash ko'p qirrali xarakterga ega. Ushbu xarakterlarga qarab Ekologiya turli fan va ta'lim tarmoqlariga bo'linib ketadi. Masalan, tabiiy xarakterda – geoekologiya, bioekologiya, zooekologiya, ixtioekologiya, fitoekologiya va h.k. Ijtimoiy xarakterda – ijtimoiy ekologiya, inson ekologiyasi, rekratsiyaviy ekologiya va h.k. Iqtisodiy xarakterda – amaliy ekologiya, sanoat ekologiyasi, resurslar ekologiyasi, agroekologiya va h.k. Huquqiy xarakterda – ekologiya huquqi, xalqaro ekologiya huquqi, tabiatni muhofaza qilish huquqi, tabiiy resurslardan foydalanish huquqi va h.k. Siyosiy xarakterda – politekologiya, xalqaro ekologiya va h.k. Umumiy xarakterda – umumiy ekologiya, regional ekologiya, kosmik ekologiya va h.k.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha ekologik fan tarmoqlari ham o'zining mustaqil o'rganish obyekti, predmeti, manbalari, usullari, tatbiq qilish obyektlariga ega. Ularning mustaqil predmeti – yagona ekologik tizimdagi o'zgaruvchan organizmlar va o'zgaruvchan atrof tabiiy muhit o'rtasidagi aniq bir munosabat turidir.Masalan, Ekologiya huquqining predmeti – uning obyektiga nisbatan ekologik-huquqiy munosabat. Lekin keyingi paytlarda tadqiqotchilar[1] tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni Ekologiya huquqining predmeti emas, balki Suv, Yer, O'rmon kabi huquq sohalari predmeti qilib ko'rsatmoqdalar. Ammo tabiiy resurslardan kompleks foydalanish huquqini ma'lum bir huquq tarmog'i bilan tartibga solinishi maqsadga muvofiq emas. Undan tashqari, ekologik munosabat deganda biz faqatgina insonlarning tabiatni tiklashdagi ijobiy faoliyatlarini tushunmaymiz. Inson yashar ekan, u xohlaydimi yoki yo'qmi, albatta ma'lum bir darajada tabiat obyektlaridan foydalanadi. Bunday foydalanish huquqshunoslikda tabiiy huquqlar toifasiga kiritiladi. Masalan, insonlarning atmosfera havosidan nafas olishi va nafas chiqarishi, suv ichishi va tabiat ne'matlarini iste'mol qilishi, yerda yurishi, suvda cho'milishi va h.k. Qarangki, inson tug'ilishi bilan paydo bo'ladigan ham huquqlar ma'lum darajada atrof tabiiy muhitni ifloslantiradi. Shuning uchun ham ijtimoiy ekologiyada «ta-

[1] *Suv huquqi* J.T. Xolmo'minovning umumiy tahriri ostida. – T.: TDYuI nashriyoti, 2011.

biat sig‘imi», ya’ni Yer kurrasida tabiiy resurs imkoniyatlariga ko‘ra, insonlarning sonini me’yorlash masalasi mavjuddir. Undan tashqari, tabiiy resurslardan oqilona va o‘ta samaradorlik bilan ilmiy asoslangan tarzda foydalanish atrof tabiiy muhitni buzmasligini Shveytsariya, Yaponiya, Kanada, Finlyandiya kabi «ekologiyalashtirilgan mamlakatlar» tajribasida ko‘rish mumkin.

Xullas, Ekologiya huquqining predmeti deganda, yagona ekologik tizimdagi atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishini tushunish kerak. Ekologik tizimni qayta tiklash + sog‘lomlashtirish + qayta ishlab chiqarish + muhofaza qilish degan yagona ibora bilan umumlashtirilgan tarzda ifoda etish xato bo‘lmaydi, deb o‘ylaymiz.

Ko‘pgina adabiyotlarda Ekologiya huquqining predmeti – ekologik munosabat, deb aytiladi. Lekin ekologik munosabat – tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitni sog‘lomlashtirish, tabiiy tizimlarni qayta tiklash va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanishda yuzaga keladigan kishilarning harakat yoki harakatsizliklarini ifodalovchi barcha xarakterdagi ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. *Ushbu ijtimoiy munosabat huquq normalarida belgilangan tarzda amalga oshirilsa – yuridik xarakterdagi, faqatgina axloq-odob qoidalarida aks ettirilsa – ijtimoiy xarakterdagi, xalqaro aloqa qoidalarida aks ettirilsa – siyosiy xarakterdagi ekologik munosabatlar* deyish mumkin. Ekologiya huquqi esa faqatgina yuridik xarakterdagi ijtimoiy-ekologik munosabatlarni o‘z predmeti qilib oladi. Chunki hamma odob-axloq yoki xalqaro aloqa qoidalari milliy qonunchilikda aks ettirilmasligi va u davlatning huquqiy-ekologik boshqaruv asosi bo‘lmasligi ham mumkin.

Ekologiya huquqining predmeti – *ekologik-huquqiy munosabatlar, ya’ni ekotizimlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklashda yuzaga keladigan yuridik xarakterdagi ijtimoiy munosabatlar.*

Keyingi vaqtlarda olimlar[1] ekologik huquqiy munosabatlarga tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir ijtimoiy munosabatlarni kiritish shart emas, degan fikrni olg‘a surmoqdalar. Ular mustaqil huquq sohalari – suv, yer, yer osti boyliklari, o‘rmon huquqlari predmeti bo‘lib qolsin, demoqdalar. Ammo atrof-muhitni huquqiy jihatdan muhofaza qilishni ekotizimlardagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki inson bu boqiy dunyoda yashar ekan, u hayotiy zarur ehtiyojlarining deyarli barchasini tabiatdan oladi. Tabiat uni kiyintiradi, to‘ydiradi, dam oldiradi va sog‘lomlashtiradi. Masalan, inson atmosfera havosidan nafas olmay turib, suv ichmay turib, yerdan hosil yig‘may turib, yerda yurmay turib yoki suvda cho‘milmay turib yashay olmaydi. Shuning uchun ham insonning aksariyat (uning tug‘ilishi bilan yuzaga keladigan tabiiy) huquqlari aynan tabiat bilan bog‘liqdir. U ma’lum darajada ushbu tabiiy huquqlardan foydalanishi tufayli atrof-muhitni ifloslantiradi va tabiiy resurslarni kamaytiradi. Lekin insonning bunday ta’siri ma’lum darajada me’yorlangan yoki cheklangan bo‘lishi darkor. Aks holda u o‘zi yashayotgan atrof tabiiy muhit holatini aynan tabiiy huquqlardan foydalanish imkonini bermaydigan tarzda buzib yuborishi mumkin. Undan tashqari, ekologik munosabat har qanday yer, suv, o‘rmonga oid munosabatlarni yagona ekologik tizimdagi munosabat deb qaraydi va unga kompleks (majmuali) tarzda yondashadi. Komplekslikni 1996-yil 26-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan tasdiqlangan davlatning ekologik davlat boshqaruvi – Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi. O‘zining nizomiga muvofiq Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat nazoratini hamda tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiradi.

4. Ekologiya huquqining o‘ziga xos xususiyatlari va prinsiplari

Ekologiya huquqi mustaqil huquq sohasi sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

➤ *mustaqil obyekti* – ekotizimlarda turuvchi tabiiy boyliklar, zaxiralar va ularning komplekslari;

➤ *ixtisoslashtirilgan huquq manbalarining mavjudligi* – tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun va shu kabilar;

➤ *mustaqil predmeti* – ekologik-huquqiy munosabatlar;

[1] *В.В.Веденин.* Экологическое право: вопросы и ответы. – М.: «Юриспруденция», 1999. – С.126.

➤ *mustaqil prinsiplari* – o‘ziga xos yo‘naltiruvchi qoidalarining mavjudligi;

➤ *o‘ziga xos tadqiq qilish va boshqarish usullari* – kompleks tizimli yondashish va h.k.;

➤ *ekologik me’yor, qoida va huquqiy mexanizmning tatbiq qilish joyining mavjudligi.*

Ekologiya huquqi prinsiplari. «Prinsip» so‘zi lotin tilida «pricipium» – «asos», «boshlash qoidasi» degan ma’nolarni anglatib, u ijtimoiy fanlarda har bir harakat yoki faoliyatning asosi yoki yo‘naltiruvchi qoidasi deb yuritiladi. Ushbu yo‘naltiruvchi qoidalar huquqshunoslikka oid prinsiplarni umumiy ekologik prinsiplar bilan uyg‘unlashtirgan holda tuzilgan bo‘ladi.

Ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda mazkur fan sohasi quyidagi *prinsiplarga* amal qiladi:

1. *Ekologik-huquqiy tadqiq qilish, ta’lim berish va tartibga solishda tizimli yondashuvning majburiyligi.* Ya’ni yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni huquqiy jihatdan tashkil etishda uni yer osti boyliklari, suv, havo, barcha organizmlar bilan uzviy bog‘lagan holda olib borish.

2. *Tabiat qonunlari bilan jamiyat qonunlarini uyg‘unlashtirish zarurati.* Ya’ni resurslarni qayta tiklanish va tashqi ta’sirlarga qarshi turish (buferlik) qobiliyatini inobatga olgan holda foydalanishning eng yuqori ko‘rsatkichlarini o‘rnatish.

3. *Mahalliy va milliy qonunchilik normalarini xalqaro huquq normalariga moslashtirish zaruriyati.* Ya’ni mahalliy (tuman, shahar, viloyat) ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash davlat (qo‘shni tuman, shahar, viloyat) regional (qo‘shni davlatlar) va global (xalqaro hamjamiyat) miqyosidagi ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash orqaligina amalga oshirish mumkinligi.

4. *Ekologik xavfsizlik darajasining huquqiy ta’minlanish darajasi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liqligi.* Ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy baquvvat va ekologik madaniyati yuqori bo‘lgan davlatdagina ekologik qonunlarni hayotga tatbiq qilish mexanizmini to‘laqonli ishlatish imkoniyatining vujudga kelishi.

Yuqorida sanab o‘tilgan ekologiya huquqining o‘ziga xos jihatlari shaxs – jamiyat – davlat – davlatlarning ekologik munosabatlarini huquqiy tartibga solish imkoniyatini beradi. Quyida ko‘rib chiqiladigan har bir mavzuning yoritilishida aynan ushbu «o‘ziga xoslik» inobatga olinadi.

Ular davlatlarning milliy huquq manbalarida va xalqaro huquq normalarida aks ettiriladi. Biz, avvalambor, O‘zbekiston Respublikasining ekologik siyosatidan kelib chiqqan holda namoyon bo‘ladigan milliy ekologik huquq prinsiplarini ko‘rib chiqamiz.

Ekologiya huquqining prinsipi – *ekologik munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda amal qilinuvchi yoki yo‘naltiruvchi qoidalar.*

1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respblikasi qonunining 4-moddasida milliy ekologik huquqiy prinsiplar aks ettirilgan. Unga binoan tabiatni muhofaza qilish maqsadida davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat, vazirliklar va idora, korxona, muassasa, tashkilot, fermer va kooperativ xo‘jaliklar, shuningdek, ayrim shaxslar xo‘jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida quyidagi *yo‘naltiruvchi qoidalarga* amal qilishlari shart:

1. *Insonning yashash muhiti bo‘lmish biosfera va ekotizimlarni saqlab qolish, insonlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilish.*

Albatta, bu modda ushbu qonunda prinsip sifatida lo‘nda va aniq aks ettirilmagan. Biosfera – organizmlar tarqalgan qobiq yoki ularning yashash muhitini o‘zida qamrab olgan atmosferaning pastki, butun gidrosfera va litosferaning yuqori qismi. Lekin butun biosfera insonlarning yashash muhiti bo‘lib hisoblanmaydi. Chunki havoda, suvda yoki yer ostida inson yashamaydi yoki uzoq muddat yashay olmaydi. Biosferaning mazkur qatlamida boshqa turdagi organizmlar istiqomat qiladi. Shuning uchun ham ushbu prinsipni ifodalashda insonlarning atrof tabiiy muhiti – *biosferani va undagi ekologik tizimlarni saqlab qolish*, desak to‘g‘riroq bo‘lardi. Davlat va huquq nazariyasining prinsiplari aniq va lo‘nda qilib berilgan[1] – obyektivlik, tarixiylik, mantiqiylik, ijtimoiy yondashish, milliy va mahalliy xususiyatlarni hisobga olish. Biz ham xuddi ana shunday yozma ifoda etish qoidalarini

[1] *А.Саидов, У.Тожихонов.* Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 1-жилд. ЎзР ИИВ Академияси, 2001. 28–30-б.

inobatga olgan holda «Ekologiya huquqi» prinsiplarini aks ettirishga urinib ko‘ramiz.

Birinchi ifoda etilayotgan huquqiy-ekologik prinsip – «*Biosfera va undagi ekologik tizimlar insonlarning ekologik xavfsizligi bilan uzviy bog‘langandir*». Ya’ni organizmlar yashaydigan muhitda kechayotgan barcha hodisa va jarayonlar inson hayoti bilan uzviy bog‘langan. Shuning uchun ham ularni muhofaza qilish kishilarning ekologik jihatdan xavfsiz hayot kechirishlari manbayi hisoblanadi.

2. *Fuqarolarning hayoti uchun qulay tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlash, barcha turdagi ta’lim muassasalarida ekologiya o‘quvining majburiyligi.*

Ushbu ekologik prinsipni ikki qismga ajratib olish maqsadga muvofiqdir. *Birinchisi – «Fuqarolarning ekologik xavfsiz muhitda yashash huquqini ta’minlash»,* ya’ni inson bu dunyoga kelar ekan, u toza suvdan ichish, toza havodan nafas olish, go‘zal tabiat qo‘ynida hordiq chiqarish, o‘zi uchun zarur bo‘lgan tabiat ne’matlaridan foydalanish huquqiga ega. Fuqarolarning ushbu tabiiy huquqlari 1948-yil 10-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan va 1992-yildan buyon mustaqil O‘zbekiston uchun ham majburiy bo‘lgan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 25-moddasiga mos tushadi.

Ikkinchisi – «Ta’lim tizimida ekologik o‘quvning majburiyligi», ya’ni qayerda o‘g‘itish joriy qilingan bo‘lsa (bog‘chadan tortib to malaka oshirishgacha), o‘sha yerda ekologik o‘quvni tashkillashtirish shartdir. Afsuski, ushbu majburiy huquqiy norma 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan Ta’lim to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunida o‘z aksini topmagan.

3. *Jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg‘unlashtirish*. Ya’ni tabiatga qaratilgan hamma iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlar ekologik nuqtayi nazardan qaralishi hamda ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishi zarurdir. 2003-yil O‘zbekistonda «Obod mahalla yili» deb e’lon qilindi. O‘zbek millatiga xos bo‘lgan ushbu ijtimoiy-iqtisodiy tadbirning maxsus dasturida «Mahallada ekologik, salomatlik va sanitar tadbirlar» alohida band qilib ko‘rsatilgan. Chunki har qanday ekologiyalashtirilgan harakat kelajakda, albatta, o‘z mahsulini beradi. Ekologik manifestdan «Ekologiyalashtirilgan tadbirlar iqtisodlashtirilgandir», degan iborani bu yerda keltirish ayni muddaodir.

Garchand O‘zbekiston Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi o‘zining erkin bozor munosabatlari yoki demokratik institutlari, Germaniya kabi qonun yoinki Shvetsiya kabi fuqarolik jamiyatining ustuvorligi bilan dong chiqargan bo‘lmasa-da, lekin o‘zining «mahallasi» bilan bemalol ular oldida g‘ururlanishi mumkin. Chunki «mahalla» kabi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi boshqa yurtlarda yo‘q[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mahalla haqida gapirar ekan, uni «Eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo‘lishi mumkin», deya e’tirof etgan. Lekin «Mahalla, qishloqqacha o‘zini o‘zi boshqarishi, mustaqil bo‘lishi zarur. Faqat bu beboshlik, bo‘ysinmaslik, degani emas. Har qanday rahbar, har qanday kengash va har qanday mustaqil kishi xalq oldida, yurt oldida mas’ul va javobgardir, degan qoidadan kelib chiqishi shart» (O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning paydo bo‘lishi. – Toshkent.: «O‘zbekiston», 1992).

4. *Tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun haq to‘lash va umumiy asoslarda foydalanganlik uchun haq to‘lamaslik.* Mazkur ekologik prinsip ko‘pgina mamlakatlarning Ekologiya huquqida umumiy tarzda «Tabiatdan maxsus foydalanishning pullik va umumiy foydalanishning pulsiz tizimi», deb yuritiladi. Bu degan so‘z, agarda shaxs biron-bir xo‘jalik va boshqa maqsadlarni ko‘zlab yer, suv, yer osti boyliklari, o‘rmon, o‘simlik va hayvonot dunyosidan maxsus ruxsatnomalar asosida foydalanar ekan, ular 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan Soliq kodeksiga binoan yer, suv, yer osti tabiiy boyliklaridan foydalanganliklari uchun haq va ekologik soliqlarni to‘lashga majburdirlar. Lekin umumdavlat, umuminsoniy qadriyatlarni ifoda etuvchi har qanday tabiatdan foydalanish huquqi soliq va to‘lovlardan ozod qilinadi. Undan tashqari, ijtimoiy adolat prinsipiga muvofiq, ayrim shaxslar va aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlami ekologik to‘lov va soliqlardan ozod qilinadilar.

5. *Ekologik ekspertiza o‘tkazishning majburiyligi*. To‘g‘rirog‘i *«Ekologik ekspertizaning majburiylik»* prinsipi Ekologik ekspertiza to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-may qonunida o‘z aksini topdi. Mazkur qonunning 13-moddasiga binoan, barcha re-

[1] *А.Н.Нигматов.* Ўзбек маҳалласи: кеча, бугун ва эртага / «Глобаллашув жараёнлари ва ёшлар маънавитяи // Респуб. илмий-амалий конф. мақолалар тўплами, 2008. 14 – 18-б.

jalashtirilgan va amalga oshirilayotgan xo‘jalik hamda boshqa xil inson faoliyati ekologik talablarga mosligini aniqlash maqsadida mutaxassis yoki mutaxassislar tomonidan xulosalaniladi. Ekspertiza shaxslarni noekologik faoliyat turini taqiqlash maqsadida olib boriladi.

6. Tabiatdan oqilona foydalanishni va tabiatni muhofaza qilishni rag‘batlantirish. To‘g‘rirog‘i, «*Ekologik faoliyatni rag‘batlantirish*» prinsipi ko‘pgina ekologik qonunchilik manbalarida aks ettirilgan bo‘lib, u tuproq unumdorligini saqlash, suvlarni tozalash, kamchiqitli texnologiyalarni qo‘llash, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni huquqiy maqomiga mos ravishda ushlab turish, ekologik toza mahsulotlarni chiqarish kabi faoliyat turini olib borayotgan yuridik va jismoniy shaxslarni turli ekologik yo‘nalishdagi soliqlardan ozod qilish, ularga imtiyozli kreditlar berish va aksiz to‘lovlarni kamaytirish kabi ijobiy oqibatlarni keltirib chiqarish. Masalan, Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 37-moddasiga binoan, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan barcha tadbirlar davlat tomonidan rag‘batlantiriladi. Bizningcha, agar ushbu moddadagi normalarni barcha qonun hujjatlarida aniq qilib ifoda etilsa, juda yaxshi bo‘lar edi.

7. *Tabiiy resurslarni tiklash zarurligi, atrof tabiiy muhit va inson sixat-salomatligi uchun zararli, tiklab bo‘lmas oqibatlarga yo‘l qo‘ymaslik*. To‘g‘rirog‘i, «*Noekologik faoliyatga yo‘l qo‘ymaslik*» prinsipi Konstitutsiyamizning 55-moddasida aks ettirilgan bo‘lib, uni bajarish davlat zimmasiga yuklatilgan, chunki O‘zbekiston Respublikasida davlat o‘zining vakolatlangan organlari orqali barcha turdagi organlar va shaxslarning faoliyatlari ekologik talablarga mosligini nazorat qiladi, qonunbuzarlarga nisbatan salbiy yuridik oqibatlarni keltirib chiqarishini ta’minlaydi. Kelajakda esa davlat uni bosqichma-bosqich mahalliy idoralarga va nodavlat tashkilotlarga o‘tkazishni mo‘ljallamoqda.

8. *Tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishda oshkoralik*. To‘g‘rirog‘i, «*Ekologik faoliyat oshkoraligi*» prinsipi demokratik davlat qurayotgan va fuqarolik jamiyatini o‘rnatayotgan O‘zbekistonda juda muhim ekologik qoida hisoblanadi. Chunki fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash asosan ularning atrof tabiiy muhiti haqidagi axborotlarni olish imkoniyati bilan belgilanadi. Bu o‘rinda tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining yillik hisobotini nafaqat rus[1], balki

[1] Национальный доклад «О состоянии окружающей среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистан». – Т.: Chinor ENK, 1998–2008.

davlat tilida ham chop etish va keng ommaga tarqatish ushbu prinsipni amalga oshirishning amaliy choralaridan biri hisoblanadi. Aks holda, atrof tabiiy muhit haqida haqqoniy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxs uni saqlab qolish haqida o‘ylab ham ko‘rmaydi.

9. *Tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarni uyg‘unlashtirish.* To‘g‘rirog‘i, «*Milliy, regional va global ekologik manfaatlar birligi*» prinsipi umumiy ekologik prinsipdan kelib chiqqan bo‘lib, tabiatda ketayotgan barcha jarayonlar va hodisalar hech qanday ma’muriy chegaralarga bo‘ysunmaydi. Shuning uchun ham milliy ekologik qonunchilikka xalqaro ekologik normalarni implementatsiya (tatbiq) qilish zarurdir. Hech qachon atmosfera havosiga chiqarilayotgan is gazi shu yerda muallaq holda turib qolmaydi, balki qo‘shni davlat va xalqaro hamjamiyatga xavf tug‘diradi. Orol muammosi aynan shu tariqa global muammoga aylangandir.

10. *Tabiatni muhofaza qilish qonunlari talablarini buzganlik uchun javobgar bo‘lish*. To‘g‘rirog‘i, «*Ekologik javobgarlikning muqarrarligi*» prinsipi ekologik huquqbuzarlarga nisbatan (xoh u tabiatni muhofaza qilish, xoh tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yoki buzilgan ekotizimlarni qayta tiklab bo‘ladimi), albatta, salbiy yuridik oqibatlarni keltirib chiqarishi lozim. Shuning uchun ham Jinoyat kodeksining IV bo‘limi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning VIII bobida ekologik qonunbuzarliklar uchun maxsus ravishda sanksiyalar ko‘rsatilgan. Fuqarolik va Mehnat kodekslarida ham ushbu qoidabuzarlik sanksiyalari aniqlashtirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish zarurki, yuqorida sanab o‘tilgan ekologiya huquqining 10 ta prinsipi davlat tomonidan o‘rnatilgan bo‘lib, u umummajburiy kuchga ega va barcha qonun hujjatlarida o‘z aksini topishi shart.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Hozirgi kunda Ekologiya huquqini qaysi fanlar tarmog‘iga kiritish ma’qulligini muhokama qiling va isbotlashga harakat qiling!
2. Ekologiya huquqining boshqa huquq fanlari bilan qanday aloqasi bor?
3. Ekologiya huquqining o‘ziga xos jihatlarini sanab o‘ting.
4. Ekologiya huquqining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

5. Tabiatni huquqiy muhofaza qilish tarixi qanday bosqichlardan iborat?

6. Ekologiya huquqining obyekti va predmetini aytib bering?

7. Yerga oid qanday munosabatlar Ekologiya huquqining predmetiga kiradi?

8. Ekologiya huquqining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning yangi jihatlarini ochib ko‘rsatishga harakat qiling!

9. Ekologiya huquqining qanday yo‘naltiruvchi qoidalarini bilasiz?

10. «Ekologik javobgarlikning muqarrarligi» deganda nimani tushunasiz?

Huquqiy-demokratik davlatda ijtimoiy munosabatlar boshqarilmaydi, balki tartibga solinadi.

III bob. EKOLOGIK-HUQUQIY MUNOSABAT VA EKOLOGIK-HUQUQIY MEXANIZM

1. Ekologik-huquqiy munosabat tushunchasi va normalari

Ekologiya huquqining predmeti aynan ekologik-huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Ekologik-huquqiy munosabatlarga ekologiya nazariyasiga binoan ekotizimlarni muhofaza qilish, ekotizim resurslaridan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashda yuzaga keladigan kishilar o‘rtasidagi yuridik tusdagi munosabatlar kiradi.

Ekologik-huquqiy munosabat – *ekotizimlarni muhofaza qilish, uning resurslaridan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklashda yuzaga keladigan yuridik tusdagi ijtimoiy munosabatlardir.*

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 2-moddasiga binoan e*kologik munosabatlarga yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosini va ularning komplekslarini*:

– ifloslanishidan;

– buzilishidan;

– oriqlanib ketishidan;

– vayron bo‘lishidan;

– *yo‘q bo‘lib ketishidan;*

– *oqilona foydalanmaslikdan muhofaza qilishga oid barcha ijtimoiy munosabatlar kiradi.* Ular umumlashtirilgan tarzda atrof-muhitni muhofaza qilishga doir yuridik tusdagi munosabatlar, deb ham aytiladi.

Lekin, huquqshunoslikda suv, yer, yer osti boyliklari, o‘rmon kabi tabiat unsurlariga oid ijtimoiy munosabatlar alohida huquq sohalari bilan ham tartibga solinadi[1]. Shuning uchun ham bunday holatda turli

1 *O‘rmon huquqi*. J.T. Xolmo‘minovning umumiy tahriri ostida. – T.: TDYUI nashriyoti, 2011; *Suv huquqi* J.T. Xolmo‘minovning umumiy tahriri ostida. – T.: TDYuI nashriyoti, 2011.

Kitob.uz

huquq sohalarining o‘ziga xos tadqiqot obyekti va predmetini aniqlashtirib olish o‘ta muhim bo‘lib ham fanniy, ham ta’limiy va hamda amaliy ahamiyat kasb ham etadi.

Xo‘sh, qanday ekologik-huquqiy munosabatlar ekotizimlarni ifloslantirishdan muhofaza qilishga qaratilgan bo‘ladi?

Ushbu ifloslanish tabiiy hamda antropogen jarayon va hodisalar natijasida yuzaga keladi. *Tabiiy ifloslanish* – vulqon otilishi, yer qimirlashi, kuchli shamollarning esishi, suv toshishi, sel kelishi natijasida yuzaga keladi.

Ekotizimlarning ifloslanishi – *organizmlar, jumladan inson salomatligi, hayoti va uning atrof-muhitiga xavf tug‘diradigan darajada ekotizim tarkibining biologik, fizik va kimyoviy jihatdan o‘zgarishi.*

Antropogen ifloslanish esa kishilarning xo‘jalik va boshqa noekologik faoliyatlari natijasida ekotizimlarning, biologik, fizik va kimyoviy o‘zgarishidir. Ushbu ifloslanish juda xilma-xil tarzda namoyon bo‘lgani uchun ham ularni bir necha turlarga ajratib olinadi: chang-to‘zonli, gazli, kimyoviy, aromatik (hidli), issiqlik (suv temperaturasining ortishi), tovushli, radioaktiv va h.k. Masalan, Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 45-moddasi tabiatni ishlab chiqarish va iste’mol chiqindilari bilan ifloslanishidan muhofaza qilish tartibini o‘rnatadi. 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan, 2007 va 2011-yillar o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining «Chiqindilar to‘g‘risidagi qonuni» chiqindilarning fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga zararli ta’sirining oldini olishga qaratilgan maxsus ekologik qonundir.

Ekotizimlarning oriqlanib ketishi – *kishilik jamiyati ehtiyojlarini iqtisodiy munosabat shaklda qondirilishi natijasida ekotizimlarning resurs imkoniyatining kamayishidir.*

Ekotizimlarning oriqlanib borishi natijasida tabiiy unsurlar resurs imkoniyatlarini tugata boradi hamda ekologik tizimdagi modda va energiya almashuvining normal kechuvini to‘xtatadi. Insoniyat tarixi davomida yer yuzida o‘rmonlarning 2/3 qismining qisqarishi atmosfera havosidagi O_2:CO_2 nisbatini o‘zgartirib yubordi. Bu esa kishilarda qon-tomir kasalliklarining ko‘payishiga, nafas olish organlarining surunkali ravishda xastalanishiga olib kelmoqda.

Ekotizimlarning buzilishi – *ekotizimlar holatining organizmlar, jumladan insonlar yashashi uchun noqulay darajada o‘zgarishi, ya’ni ularda normal holda modda va energiya aylanishining o‘zgarishi.*

Ekotizimlarning ifloslanishi turli joy, hudud hamda mintaqalarda turli ko‘rinishda va darajada namoyon bo‘ladi. Shaharlarda, ayniqsa, yirik megapolislarda, atmosfera havosining ifloslanishi asosan (70–80%) transport vositalaridan chiqayotgan gazlar hisobiga, sanoat zonalarida metallurgiya va kimyo zavodlari chiqindilari hisobiga (40–50%), agrar zonalarda qishloq xo‘jaligini kimyoviylashtirish hisobiga (50–60%) sodir bo‘ladi. Ekologik-huquqiy munosabat esa ifloslantiruvchi obyektlardan chiqayotgan chiqindilarni me’yorlash orqali olib boriladi. Me’yorlash normalari tabiat sig‘imi, tabiiy obyektlarning qayta tiklanish imkoniyati va ekologik tizimlarda modda va energiya almashinuv jarayoni hamda aholining salomatligi darajasi kabi ko‘rsatkichlarga qarab o‘rnatiladi.

Ekologik tizimda modda va energiya almashinuvining salbiy o‘zgarishi, O‘zgidromet ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyoda atmosfera havosi temperaturasining keyingi 100 yil ichida 0,3–0,6° C ko‘tarilishiga, cho‘llanish jarayonining jadallashuviga, yil fasllarining surilishiga sabab bo‘lgan[1].

Ekotizimlarning vayron bo‘lishi – *ekotizimlarni tabiiy va anetropogen omillar ta’sirida tabiiy xossa va xususiyatlarining salbiy o‘zgarishi.*

Ekotizimlarning vayron bo‘lishiga misol tariqasida sobiq Ittifoq davrida qishloq xo‘jaligida mineral o‘g‘itlardan haddan tashqari ko‘p foydalanish yerlarning tabiiy xossa va xususiyatlarining yo‘qotilishiga olib keldi va ularda ekologik sof mahsulotlarni yetishtirish imkonini bermadi. Bunday holat, ayniqsa, sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan hududlarda keskin ravishda aholiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi.

[1] *A.Nigmatov,N.Shivaldova.* Iqlim va biz. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Chinor ENK», 2011. – 134-b.

Shuning uchun ham Jinoyat kodeksining 201-moddasida shu turdagi huquqbuzarliklarga alohida sanksiya belgilangan.

Ekotizimlarning yo‘q bo‘lib ketishi – *ekotizimlarning taksonomik birlik sifatida yo‘qolishi.*

Ekotizimlarning yo‘q bo‘lib ketishiga misol tariqasida noyob, kam uchraydigan hamda yo‘qolish arafasida turgan hayvonot va o‘simlik dunyosining butunlay yo‘qolishini olsak bo‘ladi. Bunda albatta antropogen omilning o‘rni sezilarli ravishda xizmat qilmoqda. O‘zbekiston «Qizil kitob»iga kirgan o‘simlik dunyosi turlari keyingi 15 yil ichida 181 tadan 301 tagacha ko‘paydi. Ularning yo‘qotilishi butun insoniyat, xususan, millatning tabiiy merosini yo‘qotish bilan barobardir. Ushbu huquqbuzarliklar huquqshunoslikda ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizliklar toifasiga kiritiladi va Jinoyat kodeksining 202-moddasiga binoan, huquqbuzarlar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

2. Ekologik-huquqiy munosabat obyekti

Davlat va huquq nazariyasida huquq va uning sohalari obyektiga alohida munosabat bildirilmagan. Agar bildirilgan bo‘lsa ham, unga nisbatan juda turlicha yondashilgan. Lekin yuqorida ta’kidlandiki, har bir fan sohasi, avvalambor, o‘zining o‘rganish obyektini tanlab oladi, so‘ngra predmetini aniqlashtiradi. Huquqshunoslikda ijtimoiy munosabat obyekti yoki o‘sha munosabat yo‘naltirilgan moddiy va ma’naviy boylikmi, huquq yoki manfaatlarmi? Fuqarolik huquqida ashyo, mualliflik huquqi, mulk uning obyekti bo‘lsa, mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabat uning predmetidir. Lekin Jinoyat huquqida barcha ijtimoiy munosabatlar uning obyekti bo‘lsa, uning predmeti alohida moddiy ashyoga oid jinoyatlardir. Shuning uchun ham huquq nazariyasida har bir huquq sohalariga alohida yoki umume’tirof etiluvchi huquq obyekti va predmetiga oid bilimlarni rivojlantirish kerak.

Ekologiya huquqi yurisprudensiyada fuqarolik huquqiy bilimlar toifasiga kiruvchi huquq sohalari qatoridan joy olganligini inobatga olgan holda, biz uning obyektini ekotizimlar va ularning insonlar uchun xavfsizlik holati, deb olsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Insonlarning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi fuqaroviy huquqiy nuqtayi nazardan to‘g‘ridir. Lekin ijtimoiy-ekologik, xususan, Ekologiya huquqida uning o‘rganish obyektining markaziy bo‘lagi insondir. Ushbu fan tirik organizmlar toifasiga kiruvchi insonlar o‘rtasidagi o‘zaro va ularni atrof-muhiti bilan bo‘ladigan qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish aynan insonning ekologik xavfsizligiga ega bo‘lish huquqini ta’minlash nuqtayi nazaridan me’yorlanadi. Hamma ekologik huquqiy normalar aynan inson huquqlariga qarab o‘rnatiladi[1]. Undan tashqari, insonlarning ekologik huquqlari mustaqil huquq sohasi – inson huquqlarining ham obyektidir. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunining muqaddimasida fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi ushbu qonunning obyekti emas, balki uning maqsadi sifatida qaralgan.

Organizmlar – *morfologik va morfometrik nuqtayi nazardan turlicha tasniflanadigan tirik mavjudot, individ.*

Ekotizimlarning tarkibiy qismlari «Ekologiya huquqi»ning obyekti bo‘lishi uchun, ular to‘rt talabga javob berishi kerak *(3.2.1-rasm): huquqiy munosabat obyekti bo‘la olishi; tabiiy kelib chiqqanligi; ekologik tizimning tarkibiga kirishi; kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirishi.*[2]

Ekologik-huquqiy munosabat obyekti – *amaldagi qonunlar bilan tartibga solish imkoniyatiga ega ekotizimlar va ularning tarkibiy qismlaridir.*

Huquqiy munosabat obyekti bo‘la olishi talabi huquqshunoslikka xos. Zero, hamma tabiat unsurlari va ularning majmualarini huquq normalari orqali tartibga solish imkoniyatining yo‘qligidadir. Masalan, atmosfera havosining yuqori qatlamlaridagi ekotizimlar makonida uchraydigan mayda organizmlar yoinki litosfera chuqur qatlamidagi mikroorganizmlardan oqilona foydalanish talablarini amaldagi qonunlar bilan tartibga solish imkoniyati hozircha yo‘q.

Tabiiy kelib chiqqanlik talabi kishilar o‘rtasida yuzaga kelayotgan munosabat qaratilgan ashyo, mulk yoki narsa inson faoliyatining mah-

[1] *A.Nig‘matov, R.Ikromov.* O‘zbekistonda fuqarolarning ekologik huquqlarini takomillashtirish. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: O‘zMU nashriyoti, 2004. – 28-b.

[2] www.edudic.ru/eco. Экологический энциклопедический словарь.

sulimi yoki uni tabiat yaratganmi? Masalan, o‘rmonlar insonlardan ham oldin bo‘lgan va tabiiy sharoitlar imkon bergan joylarda hozir ham yuzaga kelyapti. Sun’iy o‘rmonlar inson bilan tabiatning birgalikdagi mahsuli. Lekin u tabiat bag‘ridagina o‘sadi, ko‘payadi, ya’ni jonli organizmga aylanadi. Jonli organizm esa ekologiyaning obyekti bo‘la oladi.



3.2.1-rasm. **Ekologiya huquqi obyektiga qo‘yiladigan talablar va obyektlarning tasniflanishi.**

Ekologik tizimning tarkibiga kirish talabi har bir moddiy narsalar tabiatda ketayotgan modda va energiya almashish jarayonida ishtirok etishi kerak. Masalan, o‘simlik o‘sadi va uni o‘txo‘r hayvonlar yeydi, o‘txo‘r hayvonlar esa yirtqich hayvonlar o‘ljasi hisoblanadi, yirtqich hayvonlar o‘lganlaridan so‘ng grif kabi «sanitar» qushlar o‘ljasiga aylanadi. «Sanitar» qushlar o‘lib, tuproqdagi mikroorganizmlarga yem bo‘ladi, ularning yashash muddatining tugashi organik elementlarni parchalab, mineral elementlarga aylanishiga sabab bo‘ladi. Tuproqdagi mineral moddalar (N, P, K, Al kabilar ...) o‘simlik dunyosining yerdagi ozuqa moddasi hisoblanadi. O‘simlik esa yana o‘txo‘r hayvonlar ozuqasi bo‘ladi. Shu tariqa modda va energiya aylanish jarayoni kechadi. Buni fanda «Ozuqa zanjiri» deb ataydilar. Ozuqa zanjirining uzluksizligini suv, havo, quyosh energiyasi ta’minlab beradi, ya’ni «ekologik tizim» yuzaga keladi. Agarda moddiy dunyo elementlari ana shu ekologik tizimda qatnasha olmasa, u holda ular ekologik-huquqiy munosabat obyekti bo‘la olmaydi.

Kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish – hamma moddiy dunyo ijtimoiy yo‘nalishdagi fanlarda inson nuqtayi nazaridan qaraladi. Ekologiya huquqining markazida «inson» turar ekan, atrof-muhit unga xizmat qilishi, ya’ni ekologik xavfsiz muhitga ega bo‘lish huquqi nuqtayi nazaridan qaraladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan zaruriy talablarning har uchalasiga javob bergan moddiy dunyo elementlari ekologik-huquqiy munosabat obyekti bo‘lishi mumkin.

Mikrorganizmlar – *50 dan to 500 mkm kattalikdagi mayda tirik mavjudotlar, mikroblar*[1].

Amaldagi milliy ekologik qonunchilik, xususan, Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 2-moddasiga binoan, Ekologiya huquqining obyekti uch xil shaklda (ko‘rinishda) namoyon bo‘lmoqda: *differensial, integral (kompleks), individual.*

Differensial (*lotin tilida diffyerentia – turli, turli xil*) shakldagi Ekologiya huquqi obyektlariga, ya’ni turli ko‘rinishdagi tabiiy unsurlarni alohida-alohida muhofaza etish, ularni qayta tiklash va ular-

[1] www.edudic.ru/eco. Экологический энциклопедический словарь.

dan oqilona foydalanishga doir ekotizim komponentlari – yer, yer osti boyliklari, suv, o‘rmon, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi kiradi. So‘nggi paytlarda organizmlar qatoriga mikro va nano-organizmlar qo‘ishilgani uchun ham ular Ekologiya huquqining differensial obyektlar qatoridan joy oldi.

Nanoorganizmlar – *50 mkm dan kichik bo‘lgan juda mayda tirik mavjudotlar.*

Integral (*lotin tilida integyer – bir butun, yaxlit*) yoki *kompleks* shakldagi Ekologiya huquqining obyektlariga muayyan hududlarda tabiiy obyektlarning majmuali (kompleks) muhofazasini amalga oshirish. Ularga – qo‘riqxona (jumladan, biosfera qo‘riqxonasi), buyurtma qo‘riqxona, milliy bog‘, botanika bog‘i, kurort va rekratsiyaviy zonalar, yer usti va yer osti suvlari to‘planadigan zonalar (daryo vodiylari, adirlar, tog‘ yonbag‘irlari), suv obyektlarining sohilbo‘yi zonasi, suvlarni muhofaza etish zonasi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning qo‘riqlanadigan (bufer) zonasi, baliqchilik xo‘jaligi yerlari, o‘rmonlarning taqiqlangan zonalari kiradi.

Individual (*lotin tilida individium – xususiy, alohida*) shakldagi Ekologiya huquqi obyekti – alohida bir ko‘rinishdagi yoki qiymatdagi tabiiy obyektlar. Ular jumlasiga – tabiat yodgorliklari, Xalqaro va O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»lariga kiritilgan tabiiy turdagi hayvonlar va o‘simliklar, nodir va qimmatbaho metall konlari kiradi, Davlatlararo anklav yerlar (masalan, O‘zbekiston – Afg‘oniston, Tojikiston – Afg‘oniston chegaralari neytral zonasida suvsizlik natijasida ochilib qolgan Amudaryodagi yer maydonchalari), Antraktida kabi xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan yerlar.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik-huquqiy munosabatlar aynan ana shu tabiiy obyektlarga nisbatan qaratilgan bo‘ladi hamda ushbu 3 turdagi obyektlar bo‘yicha ekologik qonun va qonunchilik hujjatlari ishlab chiqiladi. Lekin fan va jamiyat taraqqiyoti Ekologiya huquqi obyektlari tasniflanishini takomillashtirishga, yuzaga kelayotgan ekologik holat va jarayonlarni inobatga olishga hamda yangi shakldagi ekologik munosabatlarni shakllantirishga undamoqda. Xususan, antropogen o‘zgargan (shahar, agrar, sanoat...) hududlarni yoki Orolbo‘yi, Orol, Denov – Uzun kabi inqirozli tegralarni alohida bir ekologik-

huquqiy obyekt sifatida qarash va ularga nisbatan huquq manbalarini ixtisoslashtirish, ularda davlat boshqaruvi, nazorati va javobgarlikning o‘ziga xos tamoyillarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

3. Ekologik-huquqiy munosabat subyektlari

Ekologiya huquqi huquqshunoslik fanlari turkumiga kiruvchi fan tarmog‘i sifatida kishilarning o‘zaro ekologik munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan. Umuman olganda, falsafada ijtimoiy munosabat nimaga qaratilgan bo‘lsa – obyekt, kim tomonidan qaratilsa – subyekt bo‘ladi. Ekologik huquqda ijtimoiy munosabat qaysi bir ekotizim va uning unsurlariga (differensial, integral, individual) qaratilsa – Ekologiya huquqining obyekti, kimlar tomonidan qaratilsa – ushbu munosabat subyektidir.

Ekologiya huquqining subyektlari – *ekologik-huquqiy munosabat ishtirokchilari hamda subyektiv huquq va majburiyatlar egasi.*

Ekologik-huquqiy munosabat qatnashchilariga huquqda jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat va uning tashkilotlari kiradi. Bizlarga ma’lumki, 1995-yil 21-dekbrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining ikkinchi kichik bo‘lim, 3-bob, 16-moddasiga binoan O‘zbekistonda *jismoniy shaxslar*ga respublika fuqaroligi bo‘lgan, fuqaroligi bo‘lmagan va chet el fuqarolari kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga binoan, barcha fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar. Ularning harakatlari yoki harakatsizliklari o‘zga shaxslarning toza va sog‘lom atrof-muhitga ega bo‘lish huquqlarini, ya’ni Konstitutsiyaning 24-moddasida aks ettirilgan yashash huquqlariga zid bo‘lmasligi kerak.

Jismoniy shaxs – *muayyan davlatda fuqaroligi bo‘lgan, fuqaroligi bo‘lmagan va chet el fuqarolari.*

Yuridik shaxslar jamoaviy subyektlar toifasiga kiritilib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasiga binoan, o‘z mulkiga, xo‘jalik yuritishda yoki kundalik boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulkka javob-

gar, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarini bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilotdir.

Yuridik shaxsning ekologik majburiyatlari Konstitutsiyamizning 54-moddasida aks ettirilgan bo‘lib, u o‘z mol-mulkini o‘z xohishicha egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini amalga oshirishi, o‘zga shaxs va davlatning ekologik xavfsizlikka ega bo‘lish huquqini buzmasligi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 44-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan barcha korxona, tashkilot, muassasalar kiradi.

Yuridik shaxs – *o‘z mulkiga, xo‘jalik yuritishda yoki kundalik boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulkka javobgar, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarini bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilotdir.*

O‘zbekistonda *davlat* barcha tabiiy obyektlarning egasi sifatida ekologik-huquqiy munosabat ishtirokchilaridan hisoblanadi. Konstitutsiyamizning 55-moddasi va tegishli ixtisoslashtirilgan qonunlarga binoan, u tabiiy unsurlar egasi sifatida umummilliy boyliklarni muhofaza qilish majburiyatini oladi. Uning huquqi esa davlatning milliy xavfsizlik elementlaridan biri bo‘lgan ekologik xavfsizlikka ega bo‘lishidadir. Davlat ekologik-huquqiy munosabatlarda o‘zining hokimiyat organlari va tegishli idoralari orqali ishtirok etadi.

4. Ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish metodlari

Ekologiya huquqi ekotizimlarni muhofaza qilish, ekotizimlar resurslaridan oqilona foydalanish, buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashga oid ekologik munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda turli metodlardan foydalaniladi. Metod (grekchada methodos – tadqiq qilish) – biror jarayon, hodisa yoki munosabatlarni tadqiq qilish, o‘rganish, boshqarish, tartibga solish yo‘lidir.

Tabiatni muhofaza qilish uchun davlat, jamiyat va insonlar turli metodlardan foydalanadilar. Ularga tabiiy-ilmiy, iqtisodiy, sanitar-tozalik, tashkiliy-boshqaruv, madaniy-tarbiyaviy va albatta, huquqiy metodlar kiradi.

Ma’lumki, huquqshunoslikda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy normalar orqali tartibga solishni huquqiy metodlar, deb ataladi. Lekin huquqiy metodlar turli adabiyotlarda turlicha tasniflanadi. Ekologiya huquqidagi metodlarni ham turlicha tasniflash bundan istisno emas. Ayrim olimlar man etish, oldini olish, majburlash, moddiy manfaatlarni ifoda etishga oid huquqiy normalarni ishlab chiqish va ularni amalda tatbiq etish – Ekologiya huquqining metodlari deyishsa, boshqalari ekologik boshqaruv yo‘llari – ma’muriy (avtoritar), fuqaroviy (avtonomiya), aralash (fuqaroviy + ma’muriy), ekologizatsiyalashtirish uning metodlari bo‘ladi, deyishadi[1].

Birinchi yondashuv, bu huquq normalarining ichki mazmunidan kelib chiqadigan huquqni amalga oshirish shakllari hisoblanadi[2], lekin metodlari emas. Ikkinchi yondashuv esa ekologiya huquqining o‘ziga xos jihatlarini inobatga olmagan tarzdagi umumyuridik metod hisoblanadi. Ekologizatsiyalashtirilgan, to‘g‘rirog‘i, ekologiyalashtirilgan metodni alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq emas. Chunki ekologiya huquqida ekologiyalashtirish metod emas, balki maqsaddir.

Ekologiya huquqi metodi – *ekologik ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta’sir etish yoki ularni tartibga solish usuli.*

Ekologiya huquqi metodi esa ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish usuli va yo‘li. Ushbu yo‘llar umume’tirof etilgan tarzda ma’muriy-huquqiy, fuqaroviy-huquqiy va aralash (ma’muriy va fuqaroviy-huquqiy) metodlardan iboratdir (3.4.1-rasm).

[1] *Н.В.Кузнецова.* Экологическое право. Схемы и комментарии. – М.: «Юриспруденция», 1999; *А.Н.Нигматов.* Ўзбекистон Республикаси экология ҳуқуқи. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2004. 55–58-б.

[2] *А.Саидов, У. Тажихонов.* Давлат ва ҳуқуқ асослари. – Т.: ИИВ академияси, 1999. – 414-б.



3.4.1-rasm. **Ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish metodlari.**

Ma'muriy-huquqiy metod *– davlatning ekotizimlarni muhofaza qilish, ekotizimlar tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashda yuzaga keladigan munosabatlarni taqiqlovchi, oldini oluvchi (profilaktik) va majburlovchi me'yor va qoida normalarini ishlab chiqish hamda amalda tatbiq etish usuli.* Bu metod ekologik munosabat qatnashchilarining tengsizligi asosida, ya'ni davlat – hokim va qolgan subyektlar (yuridik va jismoniy shaxslar) – bo'ysinuvchi, itoat etuvchilar sifatida qatnashadi. Masalan, davlat barcha ekologik obyektlarning egasi (davlat mulki) sifatida jismoniy va yuridik shaxslarni ushbu mulkdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish majburlov normalari orqali tartibga soladi.

Fuqaroviy-huquqiy metod *– tabiatni, ekotizimlarni muhofaza qilish, ekotizimlar tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashda yuzaga keladigan munosabatlarni uning ishtirokchilarida moddiy va ma'naviy manfaatdorlik me'yor va qoida normalarini ishlab chiqish hamda amalda tatbiq etish usuli*. Ushbu metod Ekologiya huquqi subyektlarining tengligi asosida amalga oshiriladi. Bunday holat faqatgina chinakam demokratik davlat o'rnatilgan va fuqarolik jamiyati shakllangan mamlakatlarda amalga oshiriladi. Unda ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan nafaqat davlat mulkchiligi, balki turli mulk shakllarining yuzaga kelishi va ularning daxlsizligi, davlat organlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning o'z ekologik faoliyatlarini moddiy rag'batlantirilganligi va iqtisodiy jazo sanksiyalarining ustuvorligi prinsiplari amal qiladi.

Aralash (ma'muriy va fuqaroviy-huquqiy) metod *– ekotizimlarni muhofaza qilish, ekotizimlar tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashda yuzaga keladigan munosabatlarning bir paytning o'zida ham fuqaroviy, ham ma'muriy-huquqiy normalarini ishlab chiqish va amalda tatbiq etish usuli.* 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan Yer kodeksiga muvofiq yerlarni tasarruf etish davlatning ma'muriy faoliyatiga kirsa-da, undan foydalanuvchilarning xo'jalik faoliyatlariga erkinlik berish va yerga oid nizolarni nafaqat ma'muriyat tomonidan, balki sud va o'zini o'zi boshqaruv organlari orqali hal qilinishi bunga misol bo'la oladi. Mazkur metod bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlarga xos bo'lgan holatdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 29-avgustdagi qaroriga muvofiq Jinoyat, Jinoyat protsessual, Fuqarolik protsessual kodekslarini liberallashtirish (yengillashtirish) chora-tadbirlari va mazkur qonunlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish mamlakatimizda ma'muriy-huquqiy metodlarni bosqichma-bosqich fuqaroviy-huquqiy metodlar bilan almashtirish tomon amalga oshirilayotgan dadil qadamdir.

5. Ekologik-huquqiy mexanizm

Ekologik qonun hujjatlari qabul qilindi va tegishli me'yoriy hujjatlar yuzaga keldi, degan so'z, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishdagi barcha ijtimoiy munosabatlar tartibga solindi va oqibatda, ekologik xavfsizlik yaratildi, degani emas. Uning uchun juda keng qamrovli va o'ta serxarajat masalani hal qilish kerak bo'ladi, ya'ni ekologik-huquqiy mexanizmni yaratish talab etiladi.

Mexanizm – grekchada «mechane» – qurol, qurilma degan ma'noni anglatib, u biron-bir harakatni bajarish uchun zarur bo'lgan uzviy bog'langan qismlar tizimidir.

Ekologik-huquqiy mexanizm – ekologik munosabatlarning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta'minlovchi qismlar (zvenolar) tizimi.

Ekologik-huquqiy mexanizm ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solinishini ta'minlovchi qismlar yoki zvenolar tizimi. Qism-

lar yig‘indisi emas, aynan qismlar tizimidir. Masalan, avtomobilni normal holdagi harakatini ta’minlash uchun uning elektr, yog‘lash, yonish, yurish kabi bir qator qismlarini bir me’yorda va bir paytning o‘zida ishlashini ta’minlash talab etiladi. Aks holda avtomobil «xavfli mashina» yoki «quruq temir»ga aylanadi.

Ekologiya huquqida ham ekologik-huquqiy normalar «*tishsiz qonunlar»*ga aylanmasligi va kishilar tomonidan inkor etilmasligi (*«huquqiy negilizm»*) uchun ekologik-huquqiy mexanizm yaratiladi.

Ekologik-huquqiy mexanizm muayyan davlatning ekologik siyosatiga, konsepsiyasiga, tabiatga nisbatan munosabat hamda qurilish va boshqarish shakllariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. «Bizning pirovard maqsadimiz, – degan edi Prezidentimiz I. Karimov, – ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo‘lgan kuchli demokratik davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir»[1]. Ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmi O‘zbekistonda aynan ana shu tamoyillarni inobatga olgan tarzda tuzilishi va unga monand ravishda harakat qilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish unga huquqiy ta’sir etish, uni amalga oshirish, takomillashtirish va rivojlantirish orqaligina olib boriladi. Chunki zamon o‘zgargan sari insonlar ham o‘zgarib boradilar, atrof tabiiy muhit ham o‘z «o‘zgaruvchanlik» xususiyatini yo‘qotib qo‘ymaydi.

Ekologik-huquqiy mexanizm zanjirining qismlari quyidagilardan iborat:

1) *ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi konstitutsiyaviy me’yorlarni o‘rnatish va ekologiyalashtirilgan qonunlarni qabul qilish*;

2) *ekologik qonunlar ijrosini ta’minlovchi qonun osti me’yoriy hujjatlarni tezkor ravishda ishlab chiqish*;

3) *kafillik normalarini yaratish*;

4) *ekologik-huquqiy munosabatlarni tashkillashtirish*;

Ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi konstitutsiyaviy me’yorlar – qat’iy (imperativ) normalardan iborat bo‘lib, Konstitutsiyamizning 50, 54, 55, 100-moddalarida aks ettirilgan. Ular bozor iqtisodiyotiga o‘tib borayotgan mamlakatimizning ekologik siyosatini mujassamlashtirgan tarzda ifodalaydi. Ekologik xavfsizlik esa kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondira oladigan toza, sog‘lom va qulay atrof tabiiy muhit holatidir.

[1] *И.А.Каримов.* Кучли давлатдан кучли жамият сари. – Т.: «Шарқ», 1998. – 49-б.

Ekologiyalashtirilgan qonunlarni qabul qilish Konstitutsiyada belgilangan imperativ normalarni kengaytirilgan tarzda ekologik qonunlarda ifodalash. Ushbu me’yor va qoidalar «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunda yaqqol ifoda etilgan bo‘lib, ular to‘rt ko‘rinishdagi normalardan iborat: *prinsip, birlamchi, imperativ, kafillik.*

Ekologiyalashtirilgan prinsip normalar – darslikning II bobi 4-paragrifida va Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 4-moddasida ifoda etilgan. Ular ekologik munosabatlarni qanday qoidalar asosida huquqiy tartibga solish kerakligini ko‘rsatadi.

Ekologiyalashtirilgan birlamchi normalari – tabiat unsurlari – yer, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi, o‘simlik va hayvonot dunyosini, birinchi navbatda, davlat – jamoa – fuqarolarning qaysi bir hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun yo‘naltirilishi kerakligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 8-moddasiga binoan yerlar birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi maqsadlarida ishlatilishi kerak. Chunki yer, xususan, tuproq fuqarolarning oziq-ovqatga bo‘lgan birlamchi talabini qondiradi. Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 21-moddasiga binoan esa suv, avvalambor, aholining ichimlik suvga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilishi lozim. «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonuni esa o‘rmonlarga, birinchi navbatda, ekologik xavfsizlikni ta’minlash manbayi sifatida qaraydi.

Ekologiyalashtirilgan imperativ normalar – kishilarni o‘rab turuvchi atrof tabiiy muhitga ta’sir etuvchi barcha harakat yoki harakatsizliklarni qat’iy me’yorlab qo‘yadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi «Chiqindilar to‘g‘risida»gi qonunning 19–22-moddalarida chiqindilar (ishlab chiqarish yoki iste’mol qilish jarayonida xomashyo, materiallar, xomaki mahsulotlar, boshqa buyumlar yoki mahsulotlarning hosil bo‘lgan qoldiqlari, shuningdek, o‘zining iste’mol xususiyatlarini yo‘qotgan tovarlar) ekologik-sertifikatsiyalanishi, ularni tashish, olib kirish, saqlash va ko‘mib tashlashga doir talablar qat’iy belgilangan. Bu belgilangan normalar hamma uchun majburiy – imperativ talablar hisoblanadi.

Ekologiyalashtirilgan kafillik normalari – imperativ normalarning bajarilishini ta’minlovchi me’yorlar va qoidalar. Kafillik normalari-

ni yaratish ekologiyalashtirilgan qonun hujjatlarining amal qilishini ta'minlashdan iborat. Ular iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy-madaniy, sanitar-gigienik nazoratning yuridik jihatdan ta'sir etuvchi yo'lini ko'rsatadi. Ushbu ta'sir etish yo'li protsessual huquq normalarida rag'batlantiruvchi yoki jazolovchi choralarni qo'llashda, huquqbuzarlarga nisbatan iqtisodiy, ma'naviy va moddiy noqulayliklarni keltirib chiqarishda namoyon bo'ladi.

Ekologik-huquqiy munosabatlarni tashkillashtirishda davlat va uning organlari, nodavlat tashkilotlar, o'zini o'zi boshqaruv idoralari, yuridik va jismoniy shaxslar hamda ular o'rtasida yuzaga keladigan, yagona ekologik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan harakatlarini muvofiqlashtirishga qaratiladi. Masalan, shaharsozlikda uy-joy va kommunal xizmat ko'rsatish sxohobchalarini yaratish muayyan darajada ekologik xavfsizlik talablarini bajarish orqali olib boriladi. Bu talablar hamma xo'jalik yurituvchi hamda boshqa faoliyat olib boruvchi korxona, tashkilot, muassasa va shaxslardan yagona maqsad sari o'z rejalarini tuzish va ularni tatbiq qilishga undaydi. Aks holda shahar aholisining hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirish imkoniyati bo'lmaydi. Shaharlarda yangi uy-joy massivlarini ko'kalamzorlashtirish nafaqat daraxt yoki buta ko'chatlarini yetishtiruvchilardan, balki miroblardan ham, jamoat xavfsizligini ta'minlovchilardan ham va hattoki, fuqarolarni ekologik ongi hamda madaniyatiga ta'sir etuvchi mutaxassislardan ham hamjihatlikni, ularning bir paytda va o'zaro kelishilgan tarzda harakat qilishlarini talab etadi. Bu esa yagona ekologik-huquqiy mexanizmning ajralmas halqalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

6. Ekologiya huquqining tizimi

Faylasuflarning, umuman, ijod ahlining e'tiboriga molik masalalaridan biri fan va o'quv kurslarini tizimlashtirish masalasidir. *Tizim* (o'zbekchada) yoki *sistema* (grekchada) so'zi – qismlardan iborat bo'lgan bir butunlik ma'nosida ishlatiladi. Masalan, «yagona davlat boshqaruv tizimi», «huquqshunoslik o'quv kursidagi fanlar tizimi», «kadrlar tayyorlash tizimi» va h.k.. Agarda fan va ta'limni o'ziga xos ikki xil kategoriyadagi ilmiy bilish jarayoni deb qarasak, bu holda ularning har ikkilasini alohida-alohida tizimlashtirgan ma'qul. Chunki ilmiy bilishning asl mohiyati ham muayyan tadqiqotlarni yoki uning natijalarini tizimlashdan iboratdir. Ushbu tizimlash reallikni analiz

yoki sintez qilish jarayonida aniqlanadi va u muayyan ilmiy asosga tayangan holda tartibga solinadi.

Tizimlash jarayoni nafaqat huqushunoslik doirasida, balki fanlar va ta'lim yo'nalishlarida ham amalga oshiriladi. U xuddi ekologiyadagi ekotizimlarni katta-kichik taksonomik birliklarga ajratgandek olib boriladi. Eng katta *fanlar tizimi* – tabiiy, texnika, ijtimoiy-gumanitar kabi *guruhlarga* ajratiladi.[1] Tabiiy fanlar o'z navbatida fan *sohalariga* – aniq, Yer bilimlari va hokazolarga bo'linadi. Yer bilimlari esa – gekologik, geografik, biologik, ekologik, tuproqshunoslik kabi fan *tarmoqlariga* bo'linib ketadi. Shu tariqa fan katta va kichik qismlarga ajratiladi va ular ma'lum qonuniyatlarga bo'ysingan tarzda zinasimon iyerarxiyada joylashtiriladi.

Tizim – *muayyan bir butunlikni ifoda etuvchi o'zaro uzviy bog'langan elementlarning iyerarxik joylashgan tuzilmasi.*

Tizim muayyan bir butunlikni ifoda etuvchi o'zaro bog'langan elementlar tuzilmasi ekan, tizimlashda uning elementlari (qismlari, bo'linmalari) ma'lum bir qonuniyatlarga bo'ysungan holda joylashtiriladi. Xuddi ana shu muayyan ketma-ketlikda joylashtirish qism va bo'linmalarning birini ikkinchisidan kelib chiqqan (funksional) holda bog'lab turadi. Uning hammasi esa bir butunlikni tashkil etadi. Shunday qilib, tizim – ma'lum bir qonuniyatlarga asoslangan muayyan bir butunlikni ifoda etuvchi va ketma-ketlikda turuvchi, o'zaro bog'langan qismlar (bo'linmalar) tuzilmasidir.

Ekologiya huquqining tizimi – *ekologik ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi uning qismlari va institutlarining o'zaro uzviy bog'langan va iyerarxik joylashgan tuzilmasi.*

Ekologiya huquqining tizimi alohida fan va o'quv predmeti sifatida alohida bir qismlarga va institutlarga ajratilishi mumkin. Chunki fanda tizimlash ekologik-huquqiy tadqiq qilish qonuniyatlari, ta'limda esa o'g'itish qonuniyatlari asosida tuziladi. Shuning uchun ham biz ushbu darslikning 1–2-boblarida umumiy ekologik va huquqshunoslikka oid

[1] *Фанлар.* Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ ДИН , 9-ж. 182-б.

nazariy bilimlarni kengroq yoritib beruvchi institutlarni ko‘rib chiqdik. Chunki maktab va o‘rta maxsus o‘quv yurtida olingan nazariy bilimlar «sof ekologik» jihatdan qaralmaydi.

Ekologiya huquqining tizimi ko‘pgina huquqshunoslar tomonidan ikki qismga ajratish orqali tuziladi – umumiy va maxsus qism[1]. Lekin huquqshunoslikda huquq sohasi tizimini uch qismga – umumiy, alohida, maxsus qismga ajratish ham bor[2].

Amaliy tajribadan foydalangan holda Ekologiya huquqini uch qismga ajratish maqsadga muvofiqdir (3.6.1-rasm). Chunki, *birinchidan* – ekologiya huquqining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ta’lim berishda tizimli yondashuv va mahalliy – milliy – xalqaro huquq normalarini moslashtirish yoki uyg‘unlashtirish zarurligi. Bu O‘zbekistonda ekologik munosabatlarni tartibga solish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun regional va global huquqiy-ekologik munosabatlarni amalga oshirish degani. Aks holda biz bu ezgu niyatlarimizga erisha olmaymiz, zero qo‘shnilarning noekologik munosabatlari bizning ekologik munosabatlarga bevosita ta’sir etadi. Yangi «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi» aynan ekologik globallashuv yo‘lini targ‘ib etmoqda[3].

Ikkinchidan – ekologiya huquqining alohida qismi alohida bir tabiiy obyektlar bo‘yicha ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalalarini ko‘rib chiqadi. Xalqaro ekologik masalalar yoki ilg‘or «ekologiyalashtirilgan» mamlakatlarning tajribasini bilmay va solishtirmay turib, ta’lim jarayonini zamon talabiga mos ravishda amalga oshirildi, deb aytolmaymiz.

Uchinchidan – xalqaro ekologiya huquqining aynan milliy ekologiya huquqi nuqtayi nazaridan qaralishi va aynan ekolog-huquqshunoslar tomonidan o‘g‘itilishi mantiqan to‘g‘ri bo‘lsa kerak.

Huquqiy tizim go‘yoki «uy»ga o‘xshaydi. Uning «ustunlari» – qismlari bo‘lsa, institutlari – terilgan «g‘ishtlari»dir. Ekologiya huquqi ikki ustundan ko‘ra uch ustunda tursa, «mustahkam» va turli «ofatlarga bardoshli» bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

---

[1] Экология ҳуқуқи. – Т.: «Адабиёт жамғармаси», 2001. – 44-б; В.Н.Яковлев. Экологическое право. – Кишинев, 1988. – С. 39.

[2] Аграрное право. – М.: «Юридическая литература», 1966. – 640 с.

[3] *А.Н.Нигматов.* Барқарор тараққиёт мақсадлари учун таълимдан «Табиат-жамият уйғунлигида барқарор ривожланиш таълими сари // Материлы 1-ой Респ. Конф.(с международным участием)» Зеленая химия».Самарканд, 2012. 499-504-б.



3.6.1-rasm. **Ekologiya huquqining tizimlanishi.**

Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslangan holda, biz Ekologiya huquqini uch qismga ajratib olamiz – *umumiy, alohida va maxsus qismlar.*

Ekologiya huquqining umumiy qismi – *ekologiya huquqining umumnazariy asoslarini tadqiq qiluvchi va ta’lim beruvchi institutlarining ma’lum bir ketma-ketlikda joylashgan tuzilmasi.*

Umumiy qism umumiy ekologiya va huquqshunoslikning umume'tirof etilgan masalalaridan boshlanib, ekologik javobgarlikkacha bo'lgan institutlarni o'z ichiga oladi. Ushbu institutlar qolgan ikki qism uchun nazariy asos bo'ladi.

Ekologiya huquqining alohida qismi *mazkur huquq sohasi obyektlarini alohida-alohida tadqiq qiluvchi va ta'lim beruvchi institutlarining ma'lum bir ketma-ketlikda joylashgan tuzilmasi.* Bu institutlarning tarkibi va uning joylashish tartibi ekologiya huquqi obyektlarini qay darajada va nimalarga asosan guruhlashtirishga bog'liqdir.

Ekologiya huquqining maxsus qismi *ayrim davlatlarda va xalqaro ekologiya huquqida ekologik munosabatlarning tartibga solinishiga doir institutlarining ma'lum bir ketma-ketlikda joylashgan tuzilmasi.* Bu o'rinda, avvalambor, umumiylikdan xususiylikka tomon borish prinsipiga amal qilgan holda xalqaro ekologiya huquqi institutlaridan ayrim mamlakatlarning ekologiya huquqi institutlariga tomon borish yoki to'xtalib o'tish o'rinli, deb o'ylaymiz.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ekologik munosabat bilan ekologik-huquqiy munosabat o'rtasidagi farqni aytib bering.
2. Ekologik-huquqiy munosabat oqibatlarini o'zingiz o'sgan joy misolida ta'riflang.
3. Ekologiya huquqining obyektiga qanday talablar qo'yiladi?
4. «Integral» obyekt tushunchasiga ta'rif bering.
5. Ekologik-huquqiy munosabat qatnashchilari kimlardan iborat?
6. Sizning fikringizcha, ekologiya huquqining metodi qanday tasniflangani ma'qul?
7. Ekologik-huquqiy mexanizm nima?
8. Ekologiya huquqini nechta qismga ajratishni ma'qul deb bilasiz?

Fuqarolar irodasi – ekologik qonunlarda, qonunlar ustuvorligi – barqaror rivojlanishdadir.

IV bob. EKOLOGIYA HUQUQI MANBALARI

1. Ekologiya huquqi manbalari va ularning tasniflanishi

Mustaqil huquq sohalariga qo'yiladigan talablardan biri – ixtisoslashtirilgan manbalarga ega bo'lishdir. Ekologiya huquqi ham bundan istisno emas. Uning umumlashtirilgan manbalaridan tashqari, maxsus ixtisoslashtirilgan manbalari ham bor.

Ekologiya huquqining manbayi – *ekologik ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda yuridik asos bo'la oladigan huquqiy hujjatlar.*

Yuridik tusdagi qonun va qonunchilik hujjatlari tizimi Ekologiya huquqining manbayi bo'lishi uchun, albatta, ekotizimlarni muhofaza qilish, ekotizimlarni tiklash, ekotizim resurslaridan oqilona foydalanishga doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilishi lozim.

Ekologiya huquqi manbalari mazmuni, mohiyati va ahamiyatiga ko'ra turlicha tasniflanadi:

- *maqsadi va vazifasiga ko'ra* – ekotizimlarni muhofaza qilish, ekotizim resurslaridan oqilona foydalanish; ekotizimlarni tiklash;
- *qo'llash doirasiga ko'ra* – mahalliy, milliy, mintaqaviy va global (sayyoraviy);
- *yuridik kuchiga ko'ra* – konstitutsiyaviy, qonuniy, qonunosti, me'yoriy;
- *yo'naltirilganligiga ko'ra* – tabiatni muhofaza qilish, tabiatni qayta tiklash va uning resurs qobiliyatini qayta ishlab chiqarish, atrof-muhitni sog'lomlashtirish; tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishga doir;
- *tartibga solishiga ko'ra* – umumiy, maxsus;
- *ekologiyalashtirilganligiga ko'ra* – ekologiyalashtirilgan, yetarli darajada ekologiyalashtirilmagan;
- *xalq xo'jaligida ishlatilishiga ko'ra* – umumlashtirilgan, so-

halashtirilgan, funksiyalashtirilgan;

- *huquqiy normalarning holatiga ko‘ra* – moddiy, protsessual.

Ekologiya huquqi manbalari mazkur fan sohasining maqsadi va vazifasiga ko‘ra ekotizimlarni muhofaza qilish, ekotizim resurslaridan oqilona foydalanish; ekotizimlarni tiklashga doir ekologik qonun va qonunchilik hujjatlariga ajratiladi (4.1.1-rasm).

Ekotizimlarni muhofaza qilishga oid qonun va qonun hujjatlari – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, tabiat boyliklarini qayta tiklash, ularni qayta ishlab chiqarishga jalb qilishga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar tizimi.

Ekotizim resurslaridan oqilona foydalanishga oid qonun va qonun hujjatlari – tabiat boyliklaridan uning resurs imkoniyatlarini saqlagan holda foydalanish va foydalanish mobaynida, ularni muhofaza qilish talablarini bajarishga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar tizimi.

Ekologiya huquqi manbalari yig‘indi holda emas, balki tizimlashgan tarzda namoyon bo‘ladi. Ushbu tizimlashda ekologiya huquqi manbalarining yuridik kuchiga qarab ma’lum bir ketma-ketlikda aks ettiriladi va iyerarxik pog‘onaga joylashtiriladi. Masalan, ekologiya huquqi manbalarining konstitutsiyaviy asoslari → ekologik qonunlar → ekologiyaga doir qonunosti me’yoriy hujjatlar.



4.1.1-rasm. **O‘zbekiston Respublikasining ekologiyaga oid qonunlari va qonun hujjatlari tasnifi.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – ekologiya huquqining asosiy manbayi

Hozirgi zamonda har bir davlatning mustaqilligini ifodalovchi shartlardan biri – milliy konstitutsiyasining mavjudligi va uning hayotiyligidir. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi sobiq Ittifoq respublikalari ichida ilk bor qabul qilingan hamda mukammal ishlangan Asosiy Qonun bo‘lib hisoblanadi. Hammamizga ayonki, Konstitutsiyaning asosi Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligidagi Konstitutsiyaviy komissiyaning ikki yillik tinimsiz mehnati va ikki yarim oylik umumxalq muhokamasi orqali yaratilgan. Xalqaro hamjamiyat bir ovozdan uni eng muqobil va puxta ishlangan konstitutsiya deya e’tirof etgan. U ham, boshqa qonunlar qatori, jadal suratda rivojlanib borayotgan yangi davr kishilari o‘rtasidagi munosabatlarga moslashtirib borilishi tabiiy holdir. Masalan, qonun chiqaruvchi davlat hokimiyati – Oliy Majlisning ikki palataga ajratilishi 2003-yil 24-aprelda Konstitutsiyamizga tuzatish va qo‘shimchalar kiritilishi orqali amalga oshirildi va umumxalq muhokamasidan o‘tdi. Konstitutsiya bu dogma, ya’ni qotib qolgan «tishsiz qonun» emas. U yashovchan yoki «tishli» bo‘lishi uchun uni atroflicha o‘rganmoq kerak.

Konstitutsiya – *davlatning xalq irodasini ifodalovchi, davlat tuzilishi va boshqaruv shakli asoslarini mustahkamlovchi, hokimiyat idoralari faoliyatining tashkil etilish tartibi va prinsiplarini belgilovchi asosiy qonun*[1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va konstitutsiyaviy qonunlari (konstitutsiyada belgilangan normalar bo‘yicha qabul qilingan qonunlar) milliy davlatimizda yuzaga keladigan barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy hamda qat’iy (imperativ) me’yor va qoidalarini o‘rnatadi. Ekologik-huquqiy munosabatlarning asosiy hamda qat’iy me’yorlari va qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ifodalangan.

Mustaqillik Konstitutsiyasi respublikamizda inson faoliyati jabhalarining deyarli barcha qirralarini umumlashgan tarzda qamrab oladi. Unda siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy va albatta, ekologik munosabatlar bevosita yoki bilvosita tarzda aks ettirilgan[1]. Agarda Kostitutsiyamizning 128 ta moddasidan 4 tasi, ya’ni 50,54,55,100-moddalarida ijtimoiy ekologik munosabatlar bevosita tarzda aks ettirilgan bo‘lsa, qolgan 124 ta moddasida u bilvosita tarzda berilgandir.

Mustaqil Konstitutsiyamizning sobiq Ittifoq davrida qabul qilingan O‘zbekiston SSR Konstitutsiyalaridan asosiy farqi, unda inson huquqlari, erkinliklari, burchlari jamoat va davlat huquqlaridan yuqori qo‘yilganligi, ya’ni prioritet (birlamchi) ahamiyat kasb etganligidadir. Konstitutsiyamizning XI bobi – Fuqarolarning burchlari deb nomlangan 50-moddasida: «*Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar»,* deya «*bevosita»* tarzda ko‘rsatib o‘tilgan. Bu degani O‘zbekistonda yashovchi har bir shaxs, xoh u fuqaro bo‘ladimi yoki fuqaroligi bo‘lmaydimi, yoxud chet el fuqarosi bo‘ladimi, o‘z huquqlari va erkinliklaridan foydalanar ekan, u o‘zga shaxs, jamoat va davlatning ekologik xavfsiz tabiiy muhitda yashash huquqini poymol qilmasligi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – *o‘zbek xalqining irodasini aks ettiruvchi, mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va burchlarini ifodalovchi, davlat tuzilishi hamda boshqaruv shakli asoslarini mustahkamlovchi, hokimiyat idoralari, nodavlat tashkilotlar faoliyatining tashkil etilish tartibi va prinsiplarini belgilovchi asosiy qonun*[2].

Lekin juda ajoyib bo‘lur edi, agarda *Konstitutsiyamizga fuqarolarning ekologik huquqlari ham alohida modda yoki 50-moddasining alohida bir bandi qilib kiritilishi maqsadga muvofiqdir.* Zero huquqshunoslikka xos bo‘lgan bir aksioma, ya’ni majburiyat (u qanday munosabatlarga tegishli bo‘lmasin) huquqsiz e’tirof etilmaydi.

[1] *Конституция.* Юридик энциклопедия. – Т.: «Шарқ», 2001. 241-б.

[1] *А.Н.Нигматов.* Ўзбекистон Республикаси Конституциясида билвосита тарзда акс эттирилган экологик нормалар / Конституция - давлат ва жамият қурилиши ислоҳатларининг асоси // Илмий-назарий конф. материаллари. – ТДЮИ, 2006. 72-77-б.; Бош қомусимиз ва экологик нормалар Ma’rifat. 94-сон, 25.11.2006; Экология ва Конституция // Соғлом авлод, 7-13..12.2006, 49-сон.

[2] *А.Н.Нигматов.* O‘zbekiston Respulikasi ekologiya huquqi. Darslik. – T.: TDYUI nashriyoti, 2004. 66-b.

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va kundalik hayot mazmuniga aylantirishga shaylangan O‘zbekistonda keyingi 15 yil davomida turli mulk shakllari paydo bo‘lmoqda va ular rivojlanib boryapti. *Tabiiy obyektlarga nisbatan mulk huquqi* – bu *tabiiy zaxira, resurs, komplekslar yoki hududlarning kimga tegishliligi va mulkdorning unga nisbatan qanday vakolat (huquq)ga ega ekanligi demakdir.* Odatda, mulk huquqi uchta vakolat nuqtayi nazaridan qaraladi – egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqi. Ammo ular o‘z mulklaridan o‘z xohishlaricha foydalanar ekanlar «*...ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart» (*Konstitutsiyamizning uchinchi bo‘lim, XII bob, 54-moddasi).

Kontitusiyamizning 55-moddasida «*Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»*, deyilgan. Ushbu moddada «umummilliy boylik» iborasi «Mulkchilik» va «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunlarda ham o‘z ifodasini topgan. Bu esa sobiq Ittifoq konstitutsiyalaridan farqli, tabiat boyliklarining mamlakatimizda egasi O‘zbekistonda yashovchi barcha xalqlar, ya’ni o‘zbek xalqi etib belgilangan. «Umummilliy boylik» so‘zlar birikmasi mulk huquqida ishlatilishi bozor iqtisodiyoti sharoitida ayni muddaodir, chunki mazkur umumlashtirilgan konstitutsiyaviy norma o‘z tushunchasiga nafaqat «davlat mulki» yoki «jamoat mulki»ni, balki «shaxsiy mulk»ni ham qamrab oladi. Sobiq Ittifoq Konstitutsiyalarida, xususan, 1991-yil O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasining 11-moddasida tabiiy zaxiralar qat’ian «davlat mulki» etib belgilangan edi.

O‘zbekistonda tabiat boyliklarining holati va ularning ekologik xavfsizligi foydalanishda ilmiylikni va oqilonalikni talab etadi. Oqilona foydalanishni ta’minlash hamda ularni tabiiy xossa va xususiyatlarini yo‘qotib qo‘ymaslik, kelajak avlod oldidagi ekologik burchimizni bajarish uchun ham davlat tabiiy zaxiralarni muhofazalashni o‘z zimmasida qoldirgandir.

Mustaqil Konstitutsiyamizning yana bir ekologik jihatdan afzal tomoni *mahalliy hokimiyat organlari (viloyat, tuman va shahar hokimliklari) va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga o‘z vakolat doirasida va hududida ekologik munosabatlarni tartibga solish imkoniyatini berishidadir.* Ushbu vakolat Konstitutsiyaning 100-moddasida belgilangan. Bunga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi mustaqil respublikadir. Uning huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII bobi 70–75-moddalarida hamda 1993-yilda qabul qilingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan. Mazkur Konstitutsiyalarga binoan Qoraqalpog‘istonda mustaqil vakillik va qonun chiqaruvchi hokimiyat – Jo‘qorg‘i Kenges va ijro etuvchi hokimiyat – Vazirlar Kengashi mavjud.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Oliy Majlis qatori, ekologik qonunchilik jarayoni bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Lekin uning ekologiyaga doir qonunlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga (71-moddasiga ko‘ra) zid bo‘lmasligi kerak. Markaziy davlat apparati chiqargan ekologik qonun hujjatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ham majburiy ahamiyat kasb etadi. Uning ekologik xavfsizligi O‘zbekistonning milliy xavfsizlik elementi sifatida qaraladi va himoyalanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi - ijro etuvchi hokimiyat sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlarining barcha vakolatlariga tenglashtirilgan. Ekologik munosabatlarni tartibga solishda, u mahalliy hokimiyat va mahalliy ijroiya hokimiyat organlarining vakolatlari doirasida ish yuritadi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘ziga xos jihatlaridan biri, birinchi bor tariximizda mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘z hududlarida atrof-muhitni muhofaza qilish vakolati yuklatildi. Masalan, 1991-yil chop etilgan O‘zSSR Konstitutsiyasining yangi tahrirdagi qonunining 16-bob, 13-modda ikkinchi qismida xalq deputatlari mahalliy sovetlariga ekologik vakolat yuklatilmagan. Ushbu faoliyat turi faqatgina ittifoq va markazdagi respublika davlat organlari zimmasiga yuklatilgan edi, xolos.

Konstitutsiyamizning XXI bobidan kelib chiqqan holda 1993-yil 2-sentabrda «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunning 1-moddasiga binoan *Mahalliy vakillik va Ijroiya hokimiyati organlari* o‘z hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, ekologik boshqaruvni amalga oshiradilar. Mahalliy hokimiyat tarkibiga viloyat, tuman, shahar hokimliklari kiritiladi. Ular davlat mulki – umummilliy boylik bo‘lgan tabiiy obyektlarning davlat nomidan o‘z vakolat doirasida tasarruf etilishini ta’minlaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunning 24-moddasidan kelib chiqqan holda *Xalq deputatlari kengashi o‘z hududida quyidagi ekologik vakolatlarga egadir*:

- hokimning taqdimiga binoan mahalliy byudjetda atrof-muhit muhofazasiga oid xarajatlarni belgilash;
- hududiy-ekologik rivojlantirishning istiqbolga mo‘ljallangan dasturlarni, reja va loyihalarni tasdiqlash;
- mahalliy yer solig‘i, aksiz solig‘i, boj to‘lovi kabi yig‘imlar va to‘lovlarni ekologik nuqtayi nazardan ishlab chiqish hamda unga imtiyozlar berilishini hal qilish;
- hokimning ekologik qarorlarini tasdiqlash;
- xalq deputatlari kengashining ekologiyaga doir doimiy muvaqqat komissiyalarini va organlarini tuzish, saylash va tugatish hamda tarkibini o‘zgartirish, hisobotlarini tinglash;
- xalq deputatlarining ekologiya borasidagi vakolatlarini e’tirof etish, muddatidan oldin to‘xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;
- ijroiya hokimiyat bo‘linmalarining ekologiyaga doir hisobotlarini tinglash;
- xalq deputatlarining ekologiya borasidagi so‘rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- fuqarolarning ekologik huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o‘z vakolatidagi masalalarni hal etish.

Hokimlik instituti O‘zbekiston uchun tarixiy jihatdan yangilik emas, lekin uning vakolat doirasi mutlaq o‘zgachadir. «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonunning 25-moddasidan kelib chiqqan holda *viloyat, tuman va shahar hokimlariga quyidagi ekologik turdagi vakolatlar yuklatilgan*:

– ekologik qonun hujjatlarining ijrosini o‘z hududida ta’minlash;

– ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy ofat va texnogen jarayonlarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini tugatish;

– ekologiya sohasidagi asosiy yo‘nalishlar, byudjetda tabiatni muhofaza qilishga mablag‘ ajratish va ularning ijrosini ta’minlashga doir hisobotlarni xalq deputatlari Kengashining tasdig‘iga taqdim etish;

– quyi turuvchi hokimlarning ekologiyaga doir qarorlarini (ekologik qonun hujjatlariga zid bo‘lsa) bekor qilish hamda quyi turuvchi

xalq deputatlari Kengashlarining noekologik tusdagi hujjatlarini bekor qilish to‘g‘risida taqdimnoma kiritish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanayotgan shaxslarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash haqida iltimosnomani ko‘rib chiqish va shu bo‘yicha markaziy davlat organlariga takliflar kiritish;

– fuqarolarning toza atrof-muhitda yashash huquqini talab qilishga doir shikoyat, taklif va arizalarini qarab chiqish;

– tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta’minlash kabi masalalarni qonuniy hal etish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tabiatni muhofaza qilishni joylarda amalga oshirishlarida ularni Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bo‘linmalari, huquqni muhofaza qilish va nazorat inspektorlari bilan hamkorlikda ishlashlari juda katta ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar, nazorat inspektorlari va adliya organlari hokimiyatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunadilar. Shuning uchun ham ekologik nazorat bo‘linmalarining joylardagi faoliyatlari bevosita hokimiyatlarning ekologik dunyoqarashlari va ularning mazkur masala bo‘yicha amaliy harakatlariga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ko‘pgina moddalari ekologik munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda «*bilvosita*» xizmat qiladi. Masalan, *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida (kursiv bilan bizning sharhimiz berilgan)*

O‘zbekiston xalqi:

- inson huquqlariga (jumladan, *ekologik xavfsiz muhitda yashash huquqiga*) va davlat suverenteti g‘oyalariga (*jumladan, o‘z tabiiy boyliklarini o‘zi tasavvur etish tamoyillariga*) sodiqliligini tantanali ravishda e’lon qilgan holda:
- hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatini (jumladan, *o‘zgalar ham sog‘lom atrof tabiiy muhitda faoliyat yuritish, tabiat in’omlaridan foydalanish huquqiga ega ekanliklarini*) anglagan holda,
- o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga (jumladan, *yer, suv, yer osti boyliklari kabi tabiat unsurlarini qadimdan ilohiy qadriyat yoki buyuk ne’mat sifatida qabul qilishga)* tayanib,
- demokratiya (jumladan, *tabiat zaxiralarini umumxalq boyligi sifatida ko‘rib*) va ijtimoiy adolat (jumladan, *har bir fuqaro-*

ni tabiatdan teng huquqlilik asosida foydalanish) sadoqatini namoyon qilib;

- xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini (jumladan, *yagona Yer kurrasida atrof tabiiy muhitda sodir bo'layotgan barcha jarayon va hodisalarning o'zaro uzviy bog'langanligi va ular ma'muriy davlat chegaralariga bo'ysunmagan holda global miqyosda ta'sir etishi mumkinligini)* tan olgan holda;
- respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini (jumladan, *hotirjam bo'lib atrof muhitda yashashlarini*) ta'minlashga intilib;
- insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni (jumladan, *xalq irodasini aks ettiruvchi ekologik qonunlarni qabul qilish va ularning ustuvorligini ta'minlashni)* ko'zlab;
- fuqarolar tinchligi (jumladan, *turli ekologik inqiroz va talofotlardan muhofazalangan holda*) va milliy totuvligini (jumladan *tili, dini, irqi, millati va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar bir xilda tabiat in'omlaridan bahramand bo'lish huquqini*) ta'minlash maqsadida;
- o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini (jumladan, *prezidenti, xalq deputatlari orqali quyidagi bevosita va bilvosita tarzda aks etirilgan konstitutsiyaviy ekologik normalarni*) qabul qiladi.

*Konstitutsiyamizning birinchi bo'lim – asosiy prinsiplari I bob – davlat suvereniteti*dagi 6 ta moddasining deyarli har birida ekologik prinsiplar, ya'ni tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan qoidalarni keltirib chiqarish mumkin. Masalan, 3-modda 2-xatboshisida «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir» deyilgan. Bu degani ekologiyaga oid barcha huquqiy normativ hujjatlar o'zbek tilida chop etilishi va tarqatilishi shart, chunki u davlatning ish yurituvchi, ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi, xalqaro shartnomalarni bir tomonlama ifoda etuvchi tildir. 6-moddasida Toshkent shahri – O'zbekistonnning poytaxti sifatida e'tirof etilgan. Bu degan so'z milliy miqyosida atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat komplekslari yoki hududlarini qayta tiklashga yo'naltirilgan barcha qonunlar, qonun osti normativ aktlar, milliy boshqaruv organlarining me'yoriy hujjatlarida Toshkent

shahrida qabul qilinganligi aks etishi lozim. Chunki Toshkent – respublikamiz poytaxtidir.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi – inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinlari va burchlari, V bob – umumiy qoidalari ham ekologik munosabatlarga tegishlidir. Masalan, 20-moddada «Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart», deyiladi. Bu degani O'zbekiston fuqarosi tabiatdan va uning fuqarolar hayoti uchun zarur bo'lgan xususiyatlaridan foydalanar ekanlar, ular o'zgalarning xuddi shunday huquqqa ega ekanliklarini unutmasliklari lozim. Zero barcha hozirgi va kelajak avlod fuqarolari beg'ubor osmondan nafas olish, toza suvni iste'mol qilish, go'zal landshaftlar qo'ynida nafas olish, yer osti boyliklaridan foydalanish kabi huquqlarga egadirlar. O'zbekistonning hozirgi iqtisodiy salohiyati va kelajak istiqbollari, jamiyatning yashovchanligi ham aynan tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishga borib taqaladi.

Asosiy qonunimizning *VII bob, 24-moddasida «yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir»* deyilgan. Bu degani O'zbekistonda inson bu dunyoga kelar ekan, uni atrof tabiat in'omlaridan foydalanish, ya'ni suv ichish, yerda yurish, havodan nafas olish huquqi tabiiy huquqlar toifasiga kirib, u o'z-o'zidan paydo bo'ladi va uning o'limi bilan tugaydi. Insonlarning ekologik huquqlaridan biri – toza atrof tabiiy muhitda yashash huquqi, u kim bo'lishidan qat'iy nazar, qonuniy ta'minlanadi. U 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 6-moddasiga to'liq mos tushadi.

«Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas», – deb bitilgan Konstitutsiyaning 26-modda 3-xatboshida. Bu degani so'z hech bir inson turli xil o'zgartirilgan atrof muhitda yashash imkoniyatlarini sinash uchun ishlatilishi yoki ular ustidan ilmiy tajriba qilib ko'rilishi mumkin emas, agarda uning roziligi bo'lmasa. Masalan, AQShning «Biosfera – 2», Rossiya Federatsiyasining «Bios – 6» rusumli sun'iy kamyeralarida kichik kosmo muhiti yaratiladi. Ular orqali organizmlar, jumladan insonlarni turli tabiiy sharoitda yashash imkoniyatlari ham tibbiy, ham ilmiy jihatdan sinab ko'riladi. Bunday jarayonda ishtirok etish insonlarning roziligisiz olib borilmaydi.

Konstiusiyaning VIII bob – siyosiy huquqlari, 35-moddasida «Har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega» deyilgan. Bu bilan inson, agarda uning atrof tabiiy yashash muhitida keskin ekologik o‘zgarishlarni payqab qolsa, davlatning umumiy, maxsus va funksional ekologik boshqaruv organlariga, nodavlat tashkilotlariga, jamoat uyushmalari yoki o‘zini-o‘zi boshqaruv idoralariga ariza bilan chiqishi, ekologik tarzdagi chora-tadbirlarni taklif qilishi yoki shikoyat bilan ariza berish huquqiga egadir. Ular esa arizalarni qonunlarda belgilangan tartibda va aniq bir muddatda ko‘rib chiqishlari shart. 2000-yil 25-mayda qabul qilingan «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro‘yobga chiqarish mumkinligini aniqlashga yo‘naltirilgan. U davlat, jamoat va ixtisoslashtirilgan firmalar (ekologik auditlar)ning xulosalari yoinki majburiyatlar yoki tavsiyalari orqali amalga oshiriladi.

*IX bob – Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar*ga tegishli bo‘lgan 38-moddada «Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar» deyilgan. Bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan ushbu me’yor xattoki kichik yoki o‘rta tadbirkorlik subyektlarida yollanma ishchiga ish beruvchi tomonidan ekologik xavfsiz muhitda dam olish huquqini ta’minlab berishi lozimligini qo‘rsatadi. Uning 7 yoki 8 soatlik ish vaqtidan so‘ng dam olishi shovqinli, havosi zaharlangan zavod, fabrika, qurilish maydoni, axlatxonada emas, balki bexatar atrof tabiiy muhit qo‘ynida o‘tishi lozim. Aks holda u ertangi ish kunini samaradorlik bilan o‘tkazishga hech kim kafolat bera olmaydi.

Xuddi shu tarzda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining barcha moddalarini ekologik nuqtayi nazardan sharhlab berish mumkin. Mazkur tajriba muallifning ko‘p yillik ilmiy va pedagogik hamda 12 yillik yuridik sohadagi ilmiy-pedagogik faoliyati davomida turli xil ta’lim bosqichlarida sinovdan o‘tkazilgan hamda barchaning «duosini olgan». Bunday tajribani Siz azizlar, Konstitutsiyamizning iqtisodiy, siyosiy, ma’rifiy-ma’naviy, ijtimoiy xarakterdagi munosabatlarni o‘zingiz ham o‘z sohangiz nuqtayi nazardan sharhlab chiqishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har tomonlama pishgan va inson faoliyatining turli jabhalarini inobatga olgan, bevosita yoki bilvosita tarzda aks ettirgan asosiy qonun bo‘lib hisoblanadi va shuning uchun ham biz Konstitutsiya qabul qilingan kunni umumxalq bayrami sifatida uni keng nishonlaymiz.

3. Qonunlar – ekologiya huquqining manbayi sifatida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va konstitutsiyaviy qonunlari uning qonunchilik tizimiga asos bo‘ladi. Konstitutsiyamizda ifoda etilgan har bir ekologik shartlarning aksariyati umumlashtirilgan yoki ixtisoslashtirilgan ekologik qonunlarda kengaytirilgan tarzda yoritib berilgan.

Qonun – *oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan, davlatning qonun chiqaruvchi muassasasi tomonidan yoki aholi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, referendum o‘tkazishning talablariga muvofiq ravishda qabul qilingan va o‘zida qonunning amal qilish hududi, muddati va shaxslar doirasida huquqiy munosabatlar subyektlari faoliyatining umumiy namunasini mujassamlashtirgan normativ-huquqiy hujjat*[1].

O‘zbekiston Respublikasining ekologiya sohasidagi qonuni – Oliy Majlis tomonidan yoki umumxalq ovoz berish (referendum) orqali qabul qilingan, o‘zida uning amal qilish muddati, hududi va shaxslar doirasida ekologik munosabat subyektlari faoliyatining umumiy ko‘rsatkichlarini mujassamlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat.

Ekologik qonunlar umumiy ahamiyatga ega (umumlashtirilgan) va maxsus ahamiyatga ega (ixtisoslashtirilgan) bo‘ladi.

Umumlashtirilgan ekologik qonunlar muayyan davlatdagi bir qator ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan birga ekologik munosabatlarni ham tartibga soluvchi qonunlardir. Ularga Fuqarolik, Fuqarolik-protsessual, Mehnat, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, Soliq, Shaharsozlik kabi kodekslar; Korxonalar, Mulk, Davlat sanitariya nazorati, Mahalliy davlat hokimiyati, Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risidagi kabi qonunlar kiradi. Masalan, ekologik qonunbuzarlik Jinoyat kodeksi predmeti sifatida ham olina-

[1] *Қонун.* Юридик энциклопедия. – Т.: «Шарқ», 2001. 610-б.

di. Fuqarolik kodeksida shaxslarga yetkazilgan mulkiy va nomulkiy ekologik zarar qoplanishi ham ko‘zda tutilgan. Fuqarolik protsessual huquqi ushbu ekologik zararni qoplash nuqtayi nazaridan yuzaga keladigan nizolarni hal qilish jarayonini ko‘rsatib beradi.

Ixtisoslashtirilgan ekologik qonunlarga Konstitutsiyamizning 55-moddasida ko‘rsatilgan va Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 5-moddasida kengaytirilgan tarzda ifoda etilgan tabiiy obyektlar hamda aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashga oid qonunlar kiradi. Ularga Tabiatni muhofaza qilish, Aloxida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, Suv va suvdan foydalanish, Atmosfera havosini muhofaza qilish, O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, O‘rmon, Ekologik ekspertiza, Chiqindilar, Davlat kadastrlari kabi qonunlar hamda Yer kodeksi kiradi. Ushbu qonunlar ekotizimlarni kompleks yoki alohida bir tabiiy obyektlar bo‘yicha muhofaza qilish, ularni qayta tiklash, sog‘lomlashtirish va ekotizimlardagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir normalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Kelajakda qonunchilik jarayoni ixtisoslashtirilgan qonunlarni zamon talabiga mos ravishda o‘zgartirib borish, kodifikatsiyalash va tizimlashtirish masalalarini hal qilishga qaratilsa, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi ekologik-iqtisodiy munosabatdan ekologik munosabatga o‘tish tomon qo‘yilgan katta qadam bo‘lur edi.

4. Qonun osti normativ-huquqiy hujjatlarning ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati

2012-yilga kelib O‘zbekiston Rekspublikasida ekologiya va atrofmuhit muhofazasiga doir 20 dan ziyod ixtisoslashtirilgan va 100 dan ziyod umumlashtirilgan qonunlar qabul qilindi. Ularning barchasi bevosita yoki bilvosita ekologik munosabatlarni huquqiy jihatdan hal qilishga yuridik asos bo‘la oladi. Lekin Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, qonunlar qabul qilindi, degan so‘z ekologik xavfsizlikni ta’minlashga oid barcha huquqiy muammolar hal etildi, degani emas. Chunki qonunchilik jarayoni bilan ularni amalda qo‘llash o‘rtasida yuzaga kelayotgan «jar»ga juda «katta ko‘prik» qurish kerak. Ushbu «ko‘prik» vazifasini esa qonun osti normativ-huquqiy, qonunchilik yoki qonun kuchiga ega hujjatlar o‘taydilar.

Qonun osti normativ-huquqiy (qonunchilik yoki qonun kuchiga ega) hujjatlar – *qonunlarda belgilangan me’yor va qoidalarning amalda qo‘llanishini ta’minlash, mahalliy sharoitlarni inobatga olish, boshqaruvning turli xil jihatlariga oydinlik kiritish, ularni zamon talabiga moslashtirish kabi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan vakolatli davlat organlari, shaxslar va idoralar tomonidan qabul qilingan hamda ijrosi ta’minlanadigan normativ-huquqiy hujjatlar tizimi.*

O‘zbekistonda ekologik qonunosti normativ hujjatlar deb qonunlarda belgilangan ekologik me’yor va qoidalarning amalda qo‘llanishini ta’minlash, mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy-tabiiy sharoitlarni inobatga olish, ekologik boshqaruvning turli xil jihatlariga oydinlik kiritish, ularni zamon talabiga moslashtirish kabi vazifalarni bajarish uchun vakolatli davlat organlari, shaxslar va idoralar tomonidan qabul qilinadigan hamda ijrosi ta’minlanadigan normativ hujjatlar tizimiga aytiladi.

Qonun osti ekologik normativ hujjatlar son, shakl, tur va doira jihatdan juda xilma-xildir. Shuning uchun ham ularni tadqiq qilish va o‘rganishda tasniflab olinadi: *yuridik kuchiga ko‘ra* – Oliy Majlis qarorlari ➞ Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ➞ Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va yo‘riqnomalari ➞ sud qarorlari, hukmlari ➞ vazirlik, qo‘mita, agentlik, boshqarmalarning buyruqlari, qarorlari, nizomlari, ko‘rsatmalari, yo‘riqnomalari, tavsiyanomalari ➞ mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari ➞ nodavlat notijorat tashkilotlarining yuridik tusdagi hujjatlari ➞ o‘zini o‘zi boshqaruv idoralarining normativ hujjatlari va hokazo.

Hokimiyat bo‘linish prinsipiga ko‘ra – qonun chiqaruvchi hokimiyatning me’yoriy hujjatlari ➞ ijro etuvchi hokimiyat organlarining me’yoriy hujjatlari ➞ sud hokimiyatining me’yoriy hujjatlari.

Ekologik funksiyasiga ko‘ra – ekotizimlarni muhofaza qilish ➞ ekotizimlarning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish ➞ ekologik nazoratlash ➞ ekotizimlarni qayta tiklash ➞ ekotizimlarni qayta ishlab chiqarishga jalb etish shu kabi tizimlashgan tasniflash yo‘llari mavjud.

Qonunosti me’yoriy hujjatlar mahalliy davlat hokimiyati (viloyat, shahar, tuman), o‘zini o‘zi boshqaruv idoralari (mahalla, qishloq va ovul kengashlari) va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan qabul qilinishining quyidagi ekologik ijobiy tomonlari mavjud:

- mahalliy tabiiy sharoitni inobatga olish;
- fuqarolarning ekologik ongi, madaniyati va mas'uliyatini o'stirish;
- axloq-odob normalarini huquqiy talablarga xizmat qildirish;
- inson huquqlarini ta'minlash;
- o'zgaruvchan tabiiy va texnogen sharoitlarga tez moslashish va h.k.

Xulosa qilib aytganda, qonunchilik jarayoni nafaqat qonunlarni tayyorlash, muhokama qilish, qabul qilish, nazoratlashdan, yana ularni qonun osti me'yoriy hujjatlar tizimi bilan ta'minlash jarayonini ham qamrab olishi darkor, ya'ni ekologik-huquqiy mexanizmning boshlang'ich tizimini yaratishdan iborat. Aks holda qonunlar o'z yo'lida, hayot esa o'z yo'lida ketaveradi. Natijada qonuniylikni ta'minlash, demokratik islohotlarni o'tkazish va huquqiy nigilizmni kamaytirish imkoniyati pasayaveradi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ekologiya huquqining manbayi deganda nimani tushunasiz?
2. Mustaqillik davrida O'zbekistonda qabul qilingan qonunlarni ro'yxatlang va tasniflang!
3. Umumlashtirilgan qonunlarga misollar keltiring?
4. Ixtisoslashtirilgan ekologik huqiiy manbalar kim tomonidan qabul qilinadi?
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qaysi moddalar ekologik munosabatlarga bevosita qaratilgan?
6. Sizning fikringizcha, Konstitutsiyamizning qaysi moddalari bilvosita tabiatni muhofaza qilishga qaratilgandir?
7. O'zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan ekologik tusdagi qarorlarni aniqlang va tizimlashtiring!
8. Oliy Majlis tomonidan qanday ekologik qonunlar qabul qilingan?
9. Qonun osti normativ-huquqiy, qonun kuchiga ega yoki qonunchilik hujjatlari nima uchun kerak?

Tabiat boyliklari – kelajak avlodlarimiz boyligidir.

V bob. TABIIY OBYEKTLARGA NISBATAN MULK HUQUQI

1. Ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan mulk huquqi

Har qanday moddiy yoki ma'naviy boyliklarning egasi bo'lganidek, tabiat yaratgan barcha in'omlarning ham egasi bor, albatta. Yurisprudensiyada ushbu egalikni tabiiy obyektlarga, ilmiy nuqtayi nazardan, to'g'rirog'i, ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan mulk huquqi, deb ataladi.

Ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan mulk huquqi – *ekotizim va ularning tabiiy resurslarining kimga tegishli va mulkdorning unga nisbatan qanday vakolat(huquq)ga ega ekanligi.*

Odatda, mulk huquqi uchta vakolat nuqtayi nazaridan qaraladi – egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi.

O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 2-moddasiga ko'ra mamlakatimizda Ekologiya huquqining obyekti qilib tabiiy resurslar – yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiat unsurlari hamda ularning komplekslari – qo'riqxona, buyurtma qo'riqxona (zakaznik), milliy tabiiy bog', tarixiy-tabiiy yodgorlik, botanika va hayvonot bog'lari, dendrologik bog'lar, kurort va rekratsion hududlar kabi majmualar olinadi.

Lekin fanda ekologiya huquqi obyekti (biz ushbu darslikning III bobida ko'rib chiqdik) tushunchalariga aniqliklar kiritildi. Zero Ekologiya, jumladan Ekologiya huquqi boshqa fanlarga nisbatan yangi fan. Unda hanuzgacha o'z yechimini topmagan mummolar juda ko'p. Hattoki uning umume'tirof etilmagan nazariy asoslari ham yo'q[1]. Shuning uchun ham ekologik qonunchilik normativ-huquqiy hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish, tabiiy holdir.

[1] *А.Н.Нигматов.* Новое научное направление: Эколого-правовая география // Ж.»Вопросы географии и геоэкологии», №4, Алматы, 2010. – С.16-17

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga binoan hamma tabiiy zaxiralar umummilliy boylik hisoblanadi. Umummilliy boylik iborasi «Mulkchilik» va «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunlarda ham o‘z ifodasini topgan. Bu esa sobiq Ittifoq konstitutsiyalaridan farqli, tabiat boyliklarining mamlakatimizda egasi O‘zbekistonda yashovchi barcha xalqlar, ya’ni o‘zbek xalqi etib belgilangan. «Umummilliy boylik» iborasini mulk huquqida ishlatish bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan respublikamiz uchun ayni muddao edi. Ushbu umumlashtirilgan konstitutsiyaviy norma o‘z tushunchasiga nafaqat «davlat mulki» va «jamoat mulki»ni, balki «shaxsiy mulk»ni ham qamrab oladi.

Huquqiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, Ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan mulk huquqi ular ustidan yuridik hokimlik qilish demakdir[1]. Bu hokimlikni millat yoki xalq bevosita amalga oshira olmaydi, balki uning o‘zi tomonidan vujudga keltirgan siyosiy apparati, ya’ni davlati orqali amalga oshiradi. Shu sababdan barcha ixtisoslashtirilgan va muayyan tabiiy obyektlar bo‘yicha qabul qilingan qonunlarda ular davlat mulki – umummilliy boylikdir, deb ifodalangan. Masalan, Yer kodeksining 16-moddasi, Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 4-moddasi, O‘rmon to‘g‘risidagi qonunning ham 4-moddasi va hokazo.

Agarda biz tabiiy resurslarga nisbatan faqat davlat mulkchiligini Konstitutsiyamizda qat’iy belgilab qo‘yadigan bo‘lsak, unda eski sobiq Ittifoq konstitutsiyalari va ekologik qonunlaridan hech qanday farq qolmaydi. Lekin na konstitutsiyaviy sharhlar va na yuridik ensiklopediyada bunga aniqlik kiritilmagan. Amaldagi qonunlarga binoan barcha tabiiy obyektlar davlat mulki – umummilliy boylik hisoblanadi. Davlat ularni tasarruf qiladi, vakolatlangan organlari orqali egalik qiladi, foydalanadi va ijaraga beradi.

Ekologiya huquqining obyektlariga nisbatan mulk huquqining yuzaga kelishida tabiat qonunlarini va jamiyat manfaatlarining o‘ziga xos tomonlarini inobatga olmasdan iloji yo‘q. Ushbu o‘ziga xoslik *tabiiy unsurlarning moddiyligida, ajralmasligida va qiymatining yo‘qligida* namoyon bo‘ladi (5.1.1-rasm).

[1] *М.Б. Усманов.* Табиатни муҳофаза қилишнинг конституциявий асослари. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2002. – 12-б.



5.1.1-rasm. **Tabiiy obyektlarga nisbatan mulk huquqining o‘ziga xos xususiyatlari.**

Tabiiy unsurlarning moddiyligi – *o‘zining obyektiv ko‘rsatkichlariga binoan tabiiy unsurlarni mulk sifatida o‘zlashtirish yoki undirish imkoniyatining yo‘qligi.*

Tabiiy unsurlarning moddiyligiga misol qilib iqlim resurslari, atmosfera havosi va fazoviy elementlarni olsak bo‘ladi. Chunki ularni mulk etib olish imkonining yo‘q. Bulut bugun O‘zbekistonda, ertaga esa Qozog‘istonga o‘tib ketishi mumkin yoki umuman tarqalib ketishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun ham uni milliy boylik sifatida e’tirof etib bo‘lmaydi.

Tabiiy unsurlarning ajralmasligi – *muayyan yoki aniq bir tabiiy unsurlarni mulk sifatida alohida-alohida o‘zlashtira olish imkonining yo‘qligi.*

Tabiiy unsurlarning ajralmasligiga misol qilib suvni olish mumkin. Zero suvga nisbatan tasarruf etish, egallash va foydalanish huquqi undagi o‘simlik dunyosi va hayvonot dunyosidan ajralmagan holda belgilanadi. Chunki suvni undagi o‘t va baliqlardan ajratgan holda muhofaza qilish yoki foydalanish choralarini o‘rnatib bo‘lmaydi. Yana bir misol,

o‘rmon aksariyat hollarda alohida bir o‘simlik dunyosidan ajratilgan tabiiy obyekt sifatida qaraladi. Chunki o‘rmon muhofazasi undagi barcha tabiat unsurlarini muhofaza qilish orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

Tabiiy unsurlar qiymatining yo‘qligi – *tabiiy unsurlar faqatgina kishilik jamiyatining mahsuli bo‘lmaganligi uchun ham uning qiymatini aniq belgilab bo‘lmaslik.*

Tabiiy unsurlar qiymatining yo‘qligiga esa «yer» bir paytning o‘zida tabiiy unsur, ham ko‘chmas mulk, ham ekologik tizimning ajralmas bir «halqasi» ekanligini biz inkor eta olmaymiz. Shuning uchun ham yerdan foydalanish huquqi uni muhofaza qilish choralari bilan birga olib borilishi talab etiladi.

Tabiat unsurlariga nisbatan mulk huquqi o‘rnatilayotganda ularning barchasi yagona ekologik tizimda turishi, ular inson va davlatning xavfsizligini belgilashini aslo esdan chiqarib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ular – umumsiyosiy, umumekologik va umumiqtisodiy tabiiy obyektlar toifasiga ajratiladi.

Umumsiyosiy tabiiy unsurlar – *faqatgina davlat hokimiyati va markaziy boshqaruv organlarining mulkiy vakolatiga kiruvchi mudofaa zaruriyatlari, xavfsizlikni ta’minlash, davlat chegarasini qo‘riqlash va shunga o‘xshash siyosiy funksiyalarni bajaruvchi tabiat obyektlari.* Masalan, harbiy poligonlar, davlat chegarasi atrofidagi yer kengliklari, atom va elektrostansiya atrofidagi yerlar faqatgina davlat tasarrufida va egaligida bo‘lishliligi.

Umumekologik tabiiy unsurlar – *fuqarolarning qulay atrof-muhitda yashash, davlatning milliy xavfsizligini hamda ekologik xavfsizlikka ega bo‘lish huquqini ta’minlovchi tabiiy obyektlar va ularning komplekslari.* Masalan, Toshkent shahrini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun davlat suvning hosil bo‘lish manbalarida (tog‘larda) alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni ajratadi va ularni tasarruf qilishni faqatgina o‘z zimmasida qoldiradi.

Umumiqtisodiy tabiiy unsurlar – *davlatning iqtisodiy mustaqilligini belgilab beruvchi energetika, transport, aloqa, kosmik va yadro obyektlari joylashgan tabiiy obyektlar va komplekslar.* Ular har bir davlatning iqtisodiy potensialini belgilagani bois, doimo davlat mulki bo‘lib qoladi.

2. Ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan mulk huquqining kelajak istiqbollari

Yuqorida aytib o‘tilgan tabiiy unsurlarning o‘ziga xos xususiyatlari ularga nisbatan mulk obyektini ham belgilab beradi. «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasida O‘zbekistonda mulk obyekti bo‘lib yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar chiqadi, deyilgan. Ular esa umummilliy boylik – davlat mulki hisoblanadi. Lekin hamma tabiiy resurslar ham muayyan davlat mulki sifatida e’tirof etila olmaydi. Chunki ularning o‘ziga xos jihatlari O‘zbekiston tomonidan o‘zlashtirish imkoniyatini bermaydi.

Ekologiya huquqida milliy mulk obyekti bo‘lib – *muayyan davlat tomonidan mulk sifatida o‘zlashtirish imkoni bor tabiiy unsurlar hisoblanadi.* Chunki davlatning ommaviy mulki (Fuqarolik kodeksining 17-bobiga muvofiq) uning o‘ziga tegishli mulkini o‘z xohishiga ko‘ra va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilishini belgilaydi. Lekin ayrim hayvonot dunyosi namoyandalari – qaldirg‘och, turna va boshqa bir qator ko‘chib yuruvchi qushlar bahorda bizning yurtimizga janubiy mamlakatlardan uchib keladi va kuzda uchib ketadi. Ularni O‘zbekiston Respublikasi mulki qilib olish qushlarni o‘limga mahkum etadi va ekologik munosabatlarni tartibga solish imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun ham ko‘chib yurish xususiyatiga ega bo‘lgan hayvonot dunyosi obyektlari xalqaro huquq obyekti – umuminsoniy mulk hisoblanadi. Xuddi ana shunday xususiyat boshqa tabiiy unsurlarga ham xos bo‘lishi mumkin.

Muayyan davlatning mulk obyekti bo‘lish imkoniyatini bermaydigan va xalqaro huquq me’yorlari bilan ekologik jihatdan muhofazasi va oqilona foydalanishi ta’minlanadigan umuminsoniy mulkka O‘zbekistonda quyidagi tabiiy unsurlar kiradi:

- o‘zga davlatlardan boshlanib, boshqa davlatlarga oqib o‘tadigan daryolar (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va shu kabilar);
- ikki davlat o‘rtasidagi ko‘llar (Orol dengizi);
- iqlim resurslari va kosmik obyektlar (bulut, quyosh);
- ko‘chib yuruvchi va uchib yuruvchi parrandalar (qaldirg‘och, turna, laylak) va hokazo.

Xalqaro huquq obyektlaridan foydalanish, ularni egallash va tasarruf qilish huquqi xalqaro huquq manbalari – konvensiya, shartnoma,

deklaratsiya, kelishuv kabi me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning mustaqil subyekti sifatida atrof-muhit muhofazasiga doir bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shilgan va xalqaro ekologik huquq obyektlarini umuminsoniy boylik deb e'tirof etgan. Masalan, 1994-yil 14-mayda «Iqlimga ta'sir etishni chegaralash», 1995-yil 15-iyunda «Afrika – Osiyo qit'alarida ko'chib yuruvchi qushlarni muhofaza qilish», 1995-yil 13-oktabrda «Sahrolanishga qarshi kurash» va shu kabilar.

Mulk huquqi obyekti bo'lib ekologiya huquqida nafaqat ekotizimlarning tabiiy unsurlari, balki ularning majmualari (komplekslari), ya'ni ekotizimlarning o'zi ham olinadi. 2004-yil 3-dekabr yangi tahrirda qabul qilingan «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi qonunning 6-moddasiga muvofiq ular davlat mulkidir va uning muhofazasidadir. Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar xususiy buyurtma qo'riqxonalar hamda tabiiy pitomniklar tashkil etish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin, xolos.

Tabiiy obyektlarga nisbatan mulk huquqining yana bir jihati, uning foydalanish davomida o'zgarishidadir. Masalan, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga ko'ra, tabiiy turdagi hayvonlar davlat mulkidir. Lekin mazkur qonunning 16-moddasiga binoan litsenziya (ruxsatnoma) asosida tutib olingan yoki ovlangan hayvonot dunyosi obyektlariga nisbatan yuridik va jismoniy shaxslarning xususiy mulk huquqi yuzaga keladi. Qonuniy ovlangan yoki tutib olingan hayvonlarni tasarruf etish, egallash va foydalanish huquqi davlatdan shaxslarga o'tadi. Aynan shunday huquqiy holat yer osti boyliklari va o'simlik dunyosiga nisbatan ham qo'llaniladi.

Yer huquqida yer uchastkasiga nisbatan yer-huquqiy munosabat qatnashchilari – yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi vujudga kelishi ko'rsatilgan. Yer kodeksining 18-moddasiga binoan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiylashtirilganda mulk huquqi vujudga keladi. Xuddi shunday mulkchilik shakli diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlar, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning (diplomatiya korpusi xodimlarining, matbuot vakillari, firma, kompaniya va xalqaro tashkilotlarning doimiy vakolatxonalari

xodimlari, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarda doimiy ishlovchi shaxslar va shu kabilar) yer uchastkalaridagi uy-joy binolari joylashgan yer uchastkalari bilan birga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi.

Bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida milliy huquq normalari takomillashtirilayotgan O'zbekistonda tabiiy obyekt va komplekslarga nisbatan turli mulk shakllarining yuzaga kelish imkonini beradi. Bizlarda ham AQSh, Avstraliya, Italiya kabi rivojlangan yoki Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi kabi bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar singari yerga nisbatan xususiy mulkchilik o'rnatilishi mumkin va bu haqda biz Ekologiya huquqining maxsus qismida alohida to'xtalib o'tamiz.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Mulk nima va uning qanday turlari borligi haqida mulohaza qiling!
2. Ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan mulk huquqining o'ziga xos jihatlari jadval ko'rinishida bering va uni kichik guruhlarga bo'lingan tarzda debat o'tkazing!
3. Tabiiy unsurlarni mulk sifatida o'zlashtirishda qanday tabiiy xususiyatlarga e'tibor beriladi?
4. Nima uchun umumekologik, umumsiyosiy, umumiqtisodiy obyektlar davlat tasarrufidan chiqarilmaydi?
5. Qanday tabiiy obyektlarni muhofaza qilish xalqaro huquq normalari orqali amalga oshiriladi?
6. Tabiat unsurlari qanday holatda bir mulk shaklidan ikkinchi bir mulk shakliga o'tishi mumkin?

Bozor munosabatlarida ekologik boshqaruv bilan ekologik tartibga solish nisbati tenglashadi.

VI bob. EKOLOGIK BOSHQARUV

1. Ekologik boshqaruv tushunchasi va tizimi

Ekologik boshqaruv tushunchasi juda keng va ko‘p qirralidir. Chunki ekologik munosabatlarning o‘zi turli-tuman ko‘rinishga ega. Masalan, global ekologik boshqaruv – Yer kurrasida, regional ekologik boshqaruv – Markaziy Osiyo kabi mintaqalarda, milliy boshqaruv – muayyan davlatlarda, lokal boshqaruv – davlatlardagi ma’muriy va mahalliy hududiy birliklarda atrof-muhitni muhofaza qilish orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlash.

Ekologik boshqaruv – *atrof-muhitni muhofaza qiluvchi va ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi organlar vakolati, funksiyalari va uni amalga oshirish metodlari yig‘indisi.*

Mazkur bobda biz milliy boshqaruv masalasiga to‘xtalib o‘tamiz. ***O‘zbekistonda ekologik boshqaruv*** *– hokimiyat, organlar, birlashmalar, tashkilotlar hamda ularning tabiatni muhofaza qilish vakolatlari, funksiyalari va metodlari yig‘indisi*. Nima uchun biz faqatgina organlar, to‘g‘rirog‘i, an’anaviy qabul qilingan[1] vakolatlangan davlat idoralari bilan cheklanib qolganimiz yo‘q. Chunki huquqiy-demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatida barcha ijtimoiy munosabatlar qatori ekologik munosabatlarning boshqarilishi va tartibga solinishi nafaqat davlat organlari, balki jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari tomonidan olib boriladi (6.1.1-rasm). Prezident Islom Karimov Oliy Majlisning II chaqiriq 6-sessiyasida jamiyatni demokratlashtirish masalasiga alohida urg‘u berib: «Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq ko‘p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o‘tkaza borishni

[1] *Управление экологическое*. Экология // Юридический энциклопедический словарь. – М.: «Норма», 2001. – С. 387–388.



6.1.1-rasm. **Ekologik boshqaruv tizimi.**

taqozo etadi», degan edi. Bu o‘rinda 2003-yilning mamlakatimizda «Obod mahalla yili» deb e’lon qilinishi ham bejiz emasdir.

Ekologik boshqaruvda, albatta, davlat va uning vakolatlangan organlarining ekologik funksiyasi juda katta[1]. Ayniqsa, bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan ikkinchi bir formatsiyaga, ya’ni bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida davlat o‘zining islohotchilik rolini yo‘qotib qo‘ymasligi kerak.

Davlatning ekologik boshqaruvi uning vakolatlangan organ-

[1] *М.Нижимов.* Давлат ва унинг экологик функцияси. – Т.: «Янги аср авлоди», 2002.- 35-б.

lari hamda ushbu organlarning atrof-muhitni muhofaza qilish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash funksiyasi va metodlari majmuasi.

Adabiyotlarda[1] ekologiya sohasida davlat boshqaruvi deb vakolatli davlat organlarining tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha ijro etish va farmoyish berish faoliyati nazarda tutiladi. Davlatning ijro etishi ijroiya hokimiyat organlarining faoliyati, farmoyish berishi esa ularning yuridik va jismoniy shaxslarga majburiy ko'rsatmalar berish huquqidir, deyilgan. Lekin bu o'rinda Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat, Prezidentlik instituti, Sud hokimiyati, Huquqni muhofaza qilish davlat organlarining ekologik funksiyalari inobatga olinmay qolinyapti. Vaholanki, ularning ham ekologik munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati, ayniqsa, O'zbekistonda juda beqiyosdir.

Ma'muriy huquqda davlatning ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda umumiy va maxsus vakolat doirasidagi organlari ajratib olinadi. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 2-bo'limida davlat hokimiyati va boshqaruv (to'g'rirog'i, ijro etuvchi) idoralarining ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi vakolatlari berilgan. Ularga umumiy vakolatlangan – Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, hokimiyatlar, maxsus vakolatlangan Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi kiritilgan. Lekin darslikning III bob 5-paragrafida (ekologik-huquqiy mexanizmlar qismida) ekologik normalarni qabul qilish hamda ularni amalga tatbiq etish jarayoni serqirra tizim va o'ta muhim masala ekanligiga iqror bo'ldik. Bizning fikrimizcha, ekologik boshqaruv tarkibini faqatgina Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunda keltirilgan davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari bilan cheklab qo'yish ekologik munosabatlarni to'laqonli tartibga solish imkonini bermaydi. Bu o'rinda davlat boshlig'i, sohaviy organlar, huquqni muhofaza qilish idoralarining ekologik boshqaruv vakolatlarini umumlashtirilgan tarzda bo'lsa ham keltirish maqsadga muvofiqdir.

2. Davlatning ekologik boshqaruvi

Har bir davlatning asosiy vazifalaridan biri o'zi tashkil etgan davlat organlari orqali barcha ijtimoiy munosabatlarni milliy hududda tartibga solishdan iborat. O'zbekiston ham bundan istisno emas va

[1] *Экология ҳуқуқи.* Дарслик.- Т.: «Адабиёт жамғармаси», 2001.- 64-б.

ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan bir davrda davlat o'zining «bosh islohotchi»lik funksiyasini bajarishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 5 tamoyillaridan biridir.

Davlatning ekologik boshqaruvi – *o'z vakolat doirasida davlat boshlig'i, hokimiyati, ijro etuvchi davlat organlari va ularning ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi faoliyati.*

Davlatning ekologik boshqaruvini huquqshunoslikda «davlatning ekologik funksiyasi» deb ham ataladi. *Funksiya* esa *vakolat doirasidan kelib chiqadigan faoliyatdir.*

Davlatning ekologik boshqaruvi ikki ko'rinishda – umumiy va maxsus davlat organlarining funksiyasi orqali amalga oshiriladi.

Davlatning umumiy ekologik boshqaruvi – *davlat boshlig'i va hokimiyatining o'z vakolatlari doirasida ekologik munosabatlarni tartibga solish funksiyasi.* Ushbu faoliyat O'zbekiston Respublikasida butun yer kengligi doirasida amalga oshiriladigan bo'lsa –*davlatning markaziy organlarining ekologik boshqaruvi, deyiladi.* Agarda organlar muayyan ma'muriy-hududiy birliklarda ekologik boshqaruvni amalga oshirsa – *umumiy ko'rinishdagi mahalliy ekologik boshqaruv,* deya e'tirof etiladi. Davlat rahbari va hokimiyatining ekologik funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, tegishli Konstitutsiyaviy qonun va qonunlarda aks ettirilgan.

2002-yil 27-yanvar kuni O'zbekistonda o'tkazilgan umumxalq referendumiga binoan Oliy Majlis 2004-yil 1-iyuldan ikki palatadan – Qonunchilik (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat bo'ladi. 2003-yil 24-apreldagi «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonuniga binoan bir palatali Oliy Majlisning ekologik funksiyasi ikki palataga ajratiladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat vakillik va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. U ikki palatadan – *Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat* bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi va 2002-yil 12-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonun-

larining 8-moddalariga muvofiq, ular quyidagi birgalikdagi ekologik vakolatlarga ega[1]:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ekologik tusdagi normalarni kiritish, unga o‘zgartish va qo‘shimchalar qilish;
- ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir konstitutsiyaviy qonunlar, qonunlar qabul qilish hamda ularga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish;
- ichki va tashqi ekologik siyosatning asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlatning strategik (uzoqqa mo‘ljallangan) ekologik dasturlarini qabul qilish;
- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini ekologik nuqtayi nazardan belgilash;
- O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi ekologik yo‘nalishdagi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;
- Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan Davlat byudjetida atrof-muhit muhofazasini inobatga oluvchi me’yorlarni qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;
- ekologik soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;
- tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirishda tabiatning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga tegishli davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek mamlakat ekologik dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;

[1] *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 2002 y., 12-son, 215-modda, 2003 y., 5-son, 67-modda; *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami,* 2007 y., 15-son, 153-modda; 2008 y., 52-son, 510-modda; 2011 y., 16-son, 160-modda.

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rinbosarini saylashda fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash nuqtayi nazaridan qarash;
- Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqishda ekologik masalalariga e’tibor qaratish;
- ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;
- Konstitutsiyamizda nazarda tutilgan boshqa ekologik vakolatlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi quyi va yuqori palatalarining birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatda ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasi va 2002-yil 12-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida Konstitutsiyaviy qonunining 9-moddasiga muvofiq ***Oliy Majlis Qonunchilik palatasining*** mutlaq ekologik vakolatlariga[1]:

- Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylashda ekologik harakat deputatlari guruhidan;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, jumladan Ekoharakat deputatlar guruhi a’zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;
- o‘z ekologik faoliyatini tashkil etish va palataning ichki ekologik-tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- ekologiya sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi ekologik siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasi va 2002-yil 12-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati

[1] *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 2002 y., 12-son, 215-modda, 2003 y., 5-son, 67-modda; *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami*, 2007 y., 15-son, 153-modda; 2008 y., 52-son, 510-modda; 2011 y., 16-son, 160-modda.

to‘g‘risida Konstitutsiyaviy qonunining II qism 9-moddasiga binoan ***Oliy Majlisning Senati*** quyidagi mutlaq ekologik vakolatlarga ega[1]:

- Prezidentimizning taqdimiga binoan Senat Raisi va uning o‘rinbosarlari, qo‘mita raislari va ularning o‘rinbosarlari, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo‘jalik sudini saylashda ularning ekologiya borasidagi faoliyatini inobatga olish;
- Prezidentimizning taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;
- Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlashda ham ularning atrof-muhitni muhofaza etishdagi faoliyatini inobatga olish;
- Prezidentimizning taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilishda ekologik javobgarlik sanksiyalarining rolini pasaytirmaslik;
- Bosh prokurorning taqdimiga binoan Senat a’zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etishda uning ekologik faoliyatini inobatga olish;
- O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisining hisobotlarini eshitish va tegishli qarorlarni chiqarish;
- siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, jumladan ekologiya sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Senat qarorlarini qabul qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan mansabdor shaxslarni Senat tomonidan saylash, tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etishda ularning ham ekologiya borasidagi faoliyatini inobatga olish.

O‘zining konstitutsiyaviy vakolati doirasida Oliy Majlis aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashga ulkan hissa qo‘shmoqda. Masalan, Konstitutsiyamizga to‘rtta bevosita va 124 ta bilvosita ekologik normalar kiritilgan. 30 dan ziyod ixtisoslashtirilgan va o‘nlab umumlashtirilgan ekologik qonunlar qabul qilindi, «2008–2012 yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari

[1] *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi,* 2002 y., 12-son, 213-modda, 2003 y., 5-son, 67-modda; 2011 y., 16-son, 160-modda.

Dasturi» amalga tatbiq qilinmoqda. Hozirda esa xuddi shunday dasturning 2013–2017-yillar uchun loyihasi tayyorlanmoqda va u Oliy Majlisda ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida Konstitutsiyaviy qonunining 23-moddasiga binoan O‘zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan deputatlar 15 ta deputatlar guruhlarini tuzishga haqli. Ushbu Konstitutsiyaviy qonunning 23-moddasiga muvofiq ekologik qonunlar va qarorlar loyihasini ishlab chiqadi, amaldagi qonunlarni takomillashtirish bilan bog‘liq masalalarni tayyorlaydi va ularni Oliy Majlis sessiyasi kun tartibiga kirgazish taklifi bilan chiqadi. Qo‘mita ekologik masalalarni davlat organlari va nodavlat tashkilotlari hamda o‘zini o‘zi boshqaruv idoralarining mutasaddi xodimlari bilan muhokama qiladi. Ekologik qonunlarning amalda tatbiq qilinishiga doir deputat nazoratini olib boradi va shu kabi muhim ekologik masalalarni hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig‘i va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydigan shaxs sifatida Konstitutsiyamizning 89–97-moddalariga binoan bir qator o‘ta muhim markaziy ekologik boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradi. 1991-yil Sobiq Ittifoq respublikalari orasida O‘zbekistonda birinchilar qatori Prezidentlik institutining joriy etilishi uning tinch va osoyishta yo‘l bilan bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o‘tib borishiga xizmat qilmoqda. U milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy kafili sifatida ekologik xavfsizlikni tarkib toptirish uchun xizmat qiladi. *Prezidentning ekologik boshqaruv vakolati* juda keng qamrovlidir, masalan:

- fuqarolarni toza atrof-muhitda yashash huquqini ta’minlaydi, Konstitutsiya va qonunlardagi ekologik talablarga rioya etilishini kafolatlaydi;
- ekologik xavfsizlikni muhofaza etadi;
- ichki va xalqaro tashqi ekologik munosabatlarni o‘rnatishda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;
- atrof-muhit muhofazasiga oid muzokaralarni olib boradi, shartnoma va bitimlarni imzolaydi hamda ularga rioya etilishini ta’minlaydi;
- Oliy Majlisga har yili mamlakat ekologik hayotining, ichki va tashqi ekologik siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma’ruzalar taqdim etadi;

- respublika oliy hokimiyat va ekologik boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi;
- ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;
- huquqni muhofaza etuvchi organlarning ekologik qonunchilikni ta'minlashga doir ishlarini muvofiqlashtiradi;
- Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi nomzodini Oliy Majlisga taqdim etadi;
- ekologik qonun me'yorlari va qoidalarini buzgan hokimlarni lavozimidan ozod etadi;
- respublika boshqaruv organlari, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan noekologik hujjatlarini to'xtatadi va bekor qiladi;
- ekologik qonunlarni imzolaydi, noekologik qonunlarni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytaradi;
- ekologik xavf yuzaga kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasining butun hududi yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va bu haqidagi qarorni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi;
- O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan tabiatni muhofaza qilishda jonbozlik ko'rsatganlarni mukofotlaydi,
- ekologlarni O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlari bilan taqdirlaydi;
- davlatning ekologik nazorat xizmatlarini amalga oshiradi;
- Konstitutsiya va qonunlar ijrosi yuzasidan davlat ahamiyatiga molik farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Qo'shimcha qilingan va o'zgartirishlar kiritilgan Konstitutsiyamizning 93–94-moddalariga binoan, unda yuqorida zikr etilgan ekologik vakolatlarning deyarli hammasi saqlanib qolindi.

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim masalalardan biri global miqyosda inson xavfsizligi, xususan uning bir elementi bo'lmish ekologik xavfsizlikni ta'minlashdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot

kafolatlari» nomli asarida, «*Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolarni anglab yetayapmizmi? Xavfsizlikka tahdid solib turgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz?... biz istiqomat qilayotgan mintaqada jo'g'rofiy-siyosiy muvozanatni saqlanishiga nimalar kafolat bo'la oladi? Xavfsizlikni qanday saqlab qolish mumkin?,*» – degan savollar barcha o'zbek xalqining dolzarb muammmolari sifatida kun tartibiga qo'yilgan.

Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakatimizda mustaqillik davrida ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida olib borayotgan ulkan ishlarini ularning ma'ruzalari va nutqlari bayon etilgan maxsus kitobchadan bilib olish mumkin[1]. Turli anjuman, yig'ilish va Sammitlarda ekologik inqiroz to'g'risida so'z yuritilganda, misol tariqasida o'z-o'zidan Orol fojiasi milliy yohud mintaqaviy muammo emas, balki global falokat ekanligi haqida Prezident Islom Karimov BMT Bosh assambleyasining 48, 50, 55-sessiyalarida va davlat, hamjamiyat rahbarlari ishtirok etgan Mingyillik Sammitida minbardan turib gapirgan edi.

Yaponiya, Hindiston, Germaniyada bo'lgani kabi, O'zbekiston, Respublikasida ham davlat ijroiya hokimiyatining ekologik ahamiyati kattadir. Konstitutsiyamizning XX bob 98-moddasi va 2003-yil 29-avgust yangi tahrirda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonuniga binoan ***O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi*** ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi[2].

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy, ma'naviy, jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarining samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari,

[1] *Tabiat. Jamiyat. Ma'naviyat* / Prezident Islom Karimov asarlarida ekologiya masalalarining yoritilishi). To'ldirilgan ikkinchi nashr // Ekologik ta'lim va tarbiya uchun qo'llanma. – T.: «O'zbekiston», 2009. – 152 b.

[2] *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 2003 y., 9-10-son, 138-modda; *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami*, 2007 y., 15-son, 153-modda; 2008 y., 52-son, 510-modda; 2009 y., 50-51-son, 532-modda; 2011 y., 16-son, 160-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi. U amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq respublikamiz hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ekologik talablarning bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. ***O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri*** Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig‘iga binoan xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ekologik masalalar bo‘yicha ish ko‘radi, milliy ekologik qonunlar, Prezidentning ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini amalga tatbiq etishini ta’minlaydi. Uning faoliyatisiz har qanday ekologiyalashtirilgan Konstitutsiya, qonun, qaror, farmon va boshqa huquqiy normativ hujjatlar o‘z o‘rnini hayotda topa olmaydi. Shuning uchun ham u ekologik-huquqiy mexanizmning muhim va asosiy bo‘limi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi o‘zning ekologik faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi kollegiallik, demokratik va qonuniylik, O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplaridan kelib chiqqan holda, ekologik boshqaruvda ishtirok etuvchi barcha davlat, nodavlat, o‘zini o‘zi boshqarish hamda xalqaro hamjamiyatlar bilan atrof-muhit muhofazasi borasida hamkorlik qiladi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ularga zarur yordam ko‘rsatadi.

Vazirlar Mahkamasi Oliy Majlis bilan ekologik masalalar bo‘yicha munosabatlarini muvofiqlashtiradi. U o‘zning ekologik faoliyati dasturini taqdim etadi. Respublikada ekologik rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, byudjetdagi atrof-muhitni muhofaza qilishga oid asosiy ko‘rsatkichlar va unga kiritiladigan o‘zgarishlarni ishlab chiqadi, Oliy Majlis tasdig‘iga taqdim etadi hamda bu borada unga hisob berib turadi. Vazirlar Mahkamasi a’zolari Oliy Majlis yig‘ilishlarida qatnashish va axborot berish huquqiga ega. Oliy Majlisning Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi kabi barcha ekologik masalalarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘mita va komissiyalarining Hukumat faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarini

Vazirlar Mahkamasi ko‘rib chiqadi va ular yuzasidan tegishli choratadbirlar qabul qiladi hamda axborot beradi. Deputatlar yoki komissiya va qo‘mitalarning ekologik masalalar bo‘yicha so‘rovlariga 3 kun ichida yozma yoki og‘zaki javob beradi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolat doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining ekologik masalalar bo‘yicha davlat hokimiyati va boshlig‘i tomonidan qabul qilingan me’yoriy hujjatlarning mazkur respublikada bajarilishiga oid axborotlarini eshitadi, takliflarini ko‘rib chiqadi, nizoli masalalarni hal etadi, uning noekologik qarorlari va farmoyishlarining ijrosini to‘xtatadi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasini (QqR) ekologik jihatdan rivojlantirish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga taalluqli masalalar hal etilayotganda QqR Vazirlar Kengashining fikri hisobga olinadi. Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasida uning Doimiy vakolatxonasi faoliyat yuritadi.

Vazirlar Mahkamasi o‘zi to‘g‘risidagi Qonunning 6-moddasiga binoan mahalliy hokimiyatlar (viloyat, tuman, shaharlar)ning ijro etuvchi organlari bilan doimo hamkorlikda faoliyat yuritadi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ekologik faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning atrof-muhit muhofazasiga doir takliflarini ko‘rib chiqadi. Vazirlar Mahkamasining ekologik qarorlari, farmoyishlari, yo‘riqnomalari, topshiriqlarining bajarilishini nazorat qiladi, ularni bajarish yuzasidan hokimiyat rahbarlarini yig‘adi va axborotlarini tinglaydi. Markaziy apparat va organlar bilan mahalliy hokimiyat organlarining ekologiya borasidagi hamkorligini ta’minlaydi hamda nizoli masalalarni hal etadi. Mahalliy va regional miqyosda atrof-muhit muhofazasiga oid reja hamda dasturlarini ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi. Mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan noekologik qaror hamda farmoyishlarni to‘xtatib qo‘yish va bekor qilish huquqiga ega.

O‘zi to‘g‘risidagi Qonunning 5-moddasidan kelib chiqqan holda ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir Vazirlar Mahkamasi quyidagi vakolatlarga ega:

- ekologik tadbirlarning iqtisodiy mexanizmini shakllantirish va realizatsiya qilish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qodir bo‘lgan turli mulk shakllarini yuzaga keltirish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

- ekologik to‘lov va ekologik tadbirlarni kreditlashtirish tizimini mustahkamlash va uni amalga tatbiq qilish;
- respublika byudjetida atrof-muhit muhofazasiga doir mablag‘ miqdorini aniqlash va uni Oliy Majlis tasdig‘iga kiritish;
- ekologik dastur va istiqbolli yo‘nalishni ishlab chiqish va ularning ijrosini tashkil etish;
- ekologik boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish – vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralari, davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to‘g‘risidagi takliflarni ishlab chiqish;
- ekologiya fani va texnikasini rivojlantirish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- fuqarolarning toza atrof tabiiy muhitga bo‘lgan talabini qondirish;
- ekologik ta’lim, ekologiya va salomatlikni rivojlantirish hamda takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, ekologik madaniyatni rivojlantirishga ko‘maklashish;
- milliy xavfsizlik elementi bo‘lgan ekologik xavfsizlikni oshirish;
- davlat boshqaruv organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o‘tkazish;
- respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish;
- atrof-muhit holatiga salbiy ta’sir qiluvchi katta halokatlar, falokatlar va tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko‘rish;
- xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlarda ekologiya sohasi bo‘yicha ham vakillikni ta’minlash;
- hukumatlararo ekologik shartnoma va bitimlar tuzish, ularni bajarish chora-tadbirlarini ko‘rish;
- ekologik jihatdan tashqi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshirish kabi vakolatlarga ega.

Vazirlar Mahkamasi tarkibidagi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida ekologik boshqaruvning umumiy masalalari bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi. Ularning nizomlari, apparatlar soni va ularga sarflanadigan mablag‘lar miqdorini belgilaydi. Ularning rahbar xodimlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Umuman olganda, o‘z tizimidagi barcha bo‘linmalarning ekologik boshqaruvida nazorat o‘rnatadi va tegishli qarorlar qabul qiladi.

Mustaqil Respublikamiz 20 yil mobaynida Vazirlar Mahkamasi tomonidan yuzlab ekologik tusdagi qarorlar, farmoyishlar, yo‘riqnomalar qabul qildi. Maxsus vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar va assotsiatsiyalar tashkil etildi, ularning ekologik boshqaruv tizimi qayta ko‘rib chiqildi. Masalan, 1998-yil 1-aprelda uning 139-sonli qarori bilan «O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va harakatlar rejasi» qabul qilindi. Xuddi ana shu yil Yer resurslari davlat qo‘mitasi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2008–2012-yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to‘g‘risida»gi 212-sonli qarori juda muhim ekologik-huquqiy manba bo‘lib qoldi. Unda keyingi 5 yil mobaynida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning quyidagi asosiy chora-tadbirlari belgilab olindi:

* aholi yashashi uchun qulay sharoitlar yaratish;
* tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
* ekologik qonun hujjatlarini va uni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish;
* iqtisodiy mexanizmni amalga oshirish;
* monitoring va axborotlar, ekologik ta’lim tizimini takomillashtirish;
* xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi mustaqil respublikadir. Uning huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII bobi 70–75-moddalarida hamda 1993-yilda qabul qilingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo‘lishi mumkin emas. Ushbu ikkala konstitutsiyalarga binoan Qoraqalpog‘istonda mustaqil vakillik va qonun chiqaruvchi hokimiyat – Jo‘qorg‘i Kenges va ijro etuvchi hokimiyat – Vazirlar Kengashi mavjud.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Oliy Majlis qatori, ekologik qonunchilik jarayoni bilan shug‘ullanish huquqiga

ega. Lekin uning ekologiyaga doir qonunlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga (71-moddasiga ko‘ra) zid bo‘lmasligi kerak. Markaziy davlat apparati chiqargan ekologik qonun hujjatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ham majburiy ahamiyat kasb etadi. Uning ekologik xavfsizligi O‘zbekistonning milliy xavfsizlik elementi sifatida qaraladi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan himoya qilinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi – ijro etuvchi hokimiyat sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlarining barcha vakolatlariga tenglashtirilgan. Ekologik munosabatlarni tartibga solishda, u mahalliy hokimiyat va mahalliy ijroiya hokimiyat organlarining vakolatlari doirasida ish yuritadi. Shuning uchun ham Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi ekologik munosabatlarni, viloyat, shahar, tuman hokimiyatlarining ekologik funksiyalari bilan bir qatorda ko‘rib chiqiladi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘ziga xos jihatlaridan biri, birinchi bor tariximizda mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘z hududlarida atrof-muhitni muhofaza qilish vakolati yuklatildi. Masalan, 1991-yil chop etilgan O‘zSSR Konstitutsiyasining yangi tahrirdagi qonunining 16-bob, 13-modda ikkinchi qismida xalq deputatlari mahalliy sovetlariga ekologik vakolat yuklatilmagan. Ushbu faoliyat turi faqatgina ittifoq va markaziy respublika organlari zimmasida edi.

Konstitutsiyamizning XXI bobi 100-102- moddalaridan kelib chiqqan holda, 1993-yil 2-sentabrda «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunning 1-moddasiga binoan *Mahalliy vakillik va Ijroiya hokimiyati organlari* o‘z hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, ekologik boshqaruvni amalga oshiradilar. Mahalliy hokimiyat tarkibiga viloyat, tuman, shahar hokimliklari kiritiladi. Ular davlat mulki – umummilliy boylik bo‘lgan tabiiy obyektlarning davlat nomidan o‘z vakolat doirasida tasarruf etilishini ta’minlaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunning 24-moddasiga muvofiq ravishda Xalq deputatlari kengashi o‘z hudu*dida ekologiyaga oid quyidagi vakolatlarga egadirlar*:

- hokimning taqdimiga binoan mahalliy byudjetda atrof-muhit muhofazasiga oid xarajatlarni belgilash;

- hududiy rivojlanishning istiqbolga mo‘ljallangan ekologik dastur, reja va loyihalarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- mahalliy yer solig‘i, aksiz solig‘i, boj to‘lovi kabi yig‘imlar va to‘lovlarni ekologik nuqtayi nazardan ishlab chiqish hamda unga imtiyozlar berilishini hal qilish;
- hokimning ekologik tusdagi qarorlarini tasdiqlash;
- xalq deputatlari kengashining atrof-muhit muhofazasiga doir doimiy muvaqqat komissiyalarini va organlarini tuzish, saylash va tugatish hamda tarkibini o‘zgartirish, hisobotlarini tinglash;
- xalq deputatlarining ekologiya borasidagi vakolatlarini e’tirof etish, muddatidan oldin to‘xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;
- ijroiya hokimiyat bo‘linmalarining ekologiyaga doir hisobotlarini tinglash;
- xalq deputatlarining ekologiya va atrof-muhit muhofazasi borasidagi so‘rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- hokimning va quyi kengashning ekologik-huquqiy bo‘lmagan qarorlarini bekor qilish;
- fuqarolarning ekologik huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o‘z vakolatidagi masalalarni hal etish.

Hokimlik instituti O‘zbekiston uchun tarixiy jihatdan yangilik emas, lekin uning vakolat doirasi mutlaq o‘zgachadir. «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonunning 25-moddasiga binoan *viloyat, tuman va shahar hokimlariga quyidagi ekologik vakolatlar yuklatilgan*:

- ekologik qonun hujjatlarining ijrosini o‘z hududida ta’minlash;
- ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy ofat va texnogen jarayonlarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini tugatish;
- atrof-muhit muhofazasi sohasidagi asosiy yo‘nalishlar, byudjetda tabiatni muhofaza qilishga mablag‘ ajratish va ularning ijrosini ta’minlashga doir hisobotlarni xalq deputatlari Kengashining tasdig‘iga taqdim etish;
- quyi turuvchi hokimlarning atrof-muhit muhofazasiga doir qaror-

larini (ekologik qonun hujjatlariga zid bo‘lsa) bekor qilish hamda quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlarining noekologik hujjatlarini bekor qilish to‘g‘risida taqdimnoma kiritish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanayotgan shaxslarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash haqida iltimosnomani ko‘rib chiqish va u bo‘yicha markaziy davlat organlariga takliflar kiritish;
- fuqarolarning toza atrof-muhitda yashash huquqini talab qilishga doir shikoyat, taklif va arizalarini qarab chiqish;
- tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta’minlash kabi masalalarni qonuniy hal etish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tabiatni muhofaza qilishni joylarda amalga oshirishlarida ularni Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bo‘linmalari, huquqni muhofaza qilish va nazorat inspektorlari bilan hamkorlikda ishlashlari juda katta ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar, nazorat inspektorlari va adliya organlari hokimiyatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunadilar. Shuning uchun ham ekologik nazorat bo‘linmalarining joylardagi faoliyatlari bevosita hokimiyatlarning ekologik dunyoqarashlari va ularning mazkur masala bo‘yicha amaliy harakatlariga bog‘liqdir.

Davlatning maxsus ekologik boshqaruvi – ixtisoslashtirilgan davlat organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid munosabatlarni vakolat doirasida bevosita tartibga solish faoliyati. Ushbu maxsus boshqaruv 3 yo‘sinda olib boriladi – kompleks, tarmoq va funksional.

Davlatning maxsus kompleks ekologik boshqaruvi – *davlatning ixtisoslashtirilgan organlarining ekologik munosabatlarni tarmoqlararo majmuali tartibga solish funksiyasi.*

Kompleks vakolati yuklatilgan davlat organlari Ekologiya huquqi obyektlari qaysi mulk shaklida yoki qaysi xalq xo‘jaligi tarmog‘ida bo‘lishidan qat’i nazar, ularning atrof tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir barcha faoliyatlarini huquqiy jihatdan tartibga solib turadilar, nazorat qiladilar va kuzatib boradilar

hamda tegishli chora-tadbirlar qabul qiladilar. Bu bora Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining alohida o‘rni bor.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi 1996-yil 26-aprelda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom»ga muvofiq faoliyat yuritadi (6.2.1-rasm). Nizomning 11-moddasiga binoan Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi quyidagi asosiy kompleks ekologik vazifalarni bajaradi:

- atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- tabiatni muhofaza qilishga doir faoliyatni tarmoqlararo kompleks boshqarish;
- tabiatni muhofaza qilish hamda resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- atrof-muhitning ekologik holati qulay bo‘lishini ta’minlash, ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish.

Davlatning maxsus tarmoq ekologik boshqaruvi – *davlat tarmoq organlarining tegishli xalq xo‘jaligi sohalarida yoki obyektlarida ekologik munosabatlarni tartibga solish funksiyasi.*

Hammamizga ma’lumki, xalq xo‘jaligining biron-bir sohasi yo‘qki, tabiiy obyektlar – yer, suv, havo, yer osti boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosidan o‘z xo‘jalik va boshqa faoliyatlarida foydalanmasalar. Ular davlatning umumiy va maxsus-kompleks ekologik boshqaruv organlari tomonidan beriladigan huquqiy ko‘rsatma, qoida va me’yorlar asosida o‘z tarmoqlarida ekologik munosabatlarni tartibga soladilar. Masalan, Yer resurslari davlat qo‘mitasi 1998-yil 27-iyulda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizomning 1-moddasiga muvofiq yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni nazorat qilish sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiradi.

Davlatning maxsus funksional boshqaruvi – *ayrim davlat organlarining ish faoliyati yoki xizmat doirasidan kelib chiqadigan va ma’lum bir tabiiy obyektlarga doir muayyan ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi funksiyasi.*

Bilimlar xazinaboni



6.2.1-rasm. **O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining huquqiy holati.**

Davltaning maxsus funksional boshqaruv organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi DYHHX xizmatiga avtotransportlardan chiqadigan zaharli chiqitlarni (CO gazi, moy, turli xil tormoz suyuqliklari) va shovqindan atrof-muhit ifloslanishini nazorat qilish vakolati berilgan. Ushbu nazorat avtotransport kimga qarashli yoki qaysi tarmoqqa tegishli ekanligidan qat’i nazar, avtomobillarning muayyan funksiyasiga doir nazoratni amalga oshiradi, xolos. Funksional vazifalarni Bojxona va Soliq qo‘mitalari ham bajaradilar.

3. O‘zini o‘zi boshqarish organlari (fuqarolar yig‘ini)ning ekologik funksiyalari

2001 yilda Rossiya Federatsiyasining eng ommabop xaftanomasi «Аргументы и фалты»da chop etilgan «O‘zbek mahallasi – insoniyatni o‘ylab topgan eng ajoyib jamoa birligi» sarlavhali bir sahifali katta maqolasida ushbu fuqarolar yig‘ini dunyo jamoatchilik majmuasi tarixida eng ibratli va qadimiy tarixga ega bo‘lgan uyushmalaridan biri ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

Garchand O‘zbekiston Respublikasi Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi o‘zining erkin bozor munosabatlari yoki demokratik institutlari, Germaniya kabi qonunlari yoinki Shvetsiya kabi fuqarolik jamiyatining ustivorligi bilan dong chiqargan bo‘lmasa-da, lekin o‘zining «mahalla» mushunchasi bilan bemalol ular oldida g‘ururlanishi mumkin. Chunki «mahalla» kabi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi boshqa yurtlarda yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mahalla haqida gapirar ekan, uni «Eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo‘lishi mumkin», deya e’tirof etgan. Lekin «Mahalla qishloqqacha o‘zini o‘zi boshqarishi, mustaqil bo‘lishi zarur. Faqat bu beboshlik, bo‘ysinmaslik, degani emas. Har qanday rahbar, har qanday kengash va har qanday mustaqil kishi xalq oldida, yurt oldida mas’ul va javobgardir, degan qoidadan kelib chiqishi shart»[1].

Har bir inson, ayniqsa O‘zbekiston fuqarosi «Mahalla avvaldan qanday bo‘lgan, bugungi kuni va mavqeyi nimadan iborat hamda kelajakda nima bo‘ladi?», degan o‘rinli savollarni berishga haqli. Tarixiy

[1] *Ислом Каримов.* Ўзбекистон Республикаси: мустақил давлатнинг пайдо бўлиши. – Т.: «Ўзбекистон», 1992.

xotira bugungi kunimiz va kelajak istiqbollarimizni belgilab berishi esa isbot talab etmaydigan aksiomadir.

Mahalla haqida aziz o‘quvchi, «Mahalla o‘zini o‘zi boshqarish organi»(Fan, 1994), «Mahalla: o‘zini o‘zi boshqarishning huquqiy kafolati» (Adolat,1999) kabi bir qator adabiyotlar bilan tanishib chiqishingiz foydadan xoli emas. Ajoyib huquqshunos olim, mahalla harakatining jonkuyarlari Marat G‘ulomov o‘zining «Mahalla–fuqarolik jamiyatining asosi» (Adolat, 2003) va Shuhrat Mahmudbekov «Mahalla o‘zini o‘zi boshqarish tizimi: tarixi va bugungi kuni» (Akademiya, 2004) kitoblarida mahalla tarixini tadqiq qilar ekanlar, o‘zbek-turkiy millatlar etnosi ko‘hna moziyning tabiiy huquqlar va ular negizida shakllangan ibtidoiy jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni boshqarishning asosiy omili urf-odatlarga borib taqalishini e’tirof etganlar. Mahalla, o‘sha davrlarda urug‘-aymoqchilik an’analari asosida qaror topgan qabila ko‘rinishida aks etganligi tarixdan ma’lum. Bundan 3 ming yillar chamasi avval, ya’ni zardushtiylik davrida o‘zini o‘zi boshqarish idoralari qonuniy kuch olgan va u «Avesto» kitobida o‘z aksini topgan. Qadimiy huquq manbalaridan biri bo‘lgan Avestoda mahalliy boshqarish qoidalari andisha, pand-nasixatlar, yo‘l-yo‘riqlar, da’vat va chaqiriqlar sifatida aks ettirilgan.

Rus olimi S.Tolstov tomonidan Yonbosqal’a va Tuproqqal’alarda olib borilgan arxekologik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, mahalliy turar joylarning o‘rtasida «olovxona»lar tarkib topgan. Abu Rayxon Beruniyning ma’lum qilishicha, aynan o‘sha olovxonalar jamoaning to‘planadigan joyi, ya’ni «mahalla maskani» bo‘lib hisoblangan. Unda jamoaga tegishli masalalar ko‘rib chiqilgan, diniy marosimlar o‘tkazilgan, ko‘pchilik kelib ovqatlanadigan joy hisoblangan (Avesto.Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi.-Toshkent.:Sharq,2001). Avesto urug‘ jamoasini – «Vis», Oqsoqollar Kengashi boshlig‘i «Vispata» qabila boshlig‘i – «Zantupati» nomi bilan atalgan.

Ilk uyg‘onish davridayoq shaharlardagi savdo-hunarmandchilik guzarlari, keyinchalik esa aholi yashaydigan mavzular «mahalla»deb atala boshlangan. Mahalla so‘zi arabchada «mahallun» – joy degan ma’noni anglatib, u shaharlarning shakllangan muayyan bir bo‘lagini ifoda etuvchi so‘z sifatida qo‘llanilgan. Qadimdan mahallalarda boy va kambag‘al, kosib va savdogar, etikdo‘z bilan hammol birga yashab

kelishgan. Shuning uchun ham mahallalarda barcha kundalik muammolar mahalla oqsoqollari yoki kengashlari tomonidan xal etilgan. Shu tariqa mahallalar rivojlanib va shakllanib kelgan. XIX – XX asrlarga kelib mahalla tushunchasi shaharlardan chiqib, katta-yu kichik qishloqlarga ham tarqala boshlagan. Bunday jarayon ayniqsa Farg‘ona vodiysidek aholi zich yashaydigan hududlarga xos bo‘lgan.

Sobiq Ittifoq davrida ham mahallalar faqatgina katta shaharlarning mahalliy millat vakillari ko‘proq yashaydigan joylarda bor edi, lekin ular davlat, jamiyat va ayniqsa shaxsning kundalik hayotida deyarli o‘rin tutmagan. Chunki hamma boshqaruv, hattoki mahalliy miqyosda ham, faqat davlat va uning tegishli organlari qo‘lida bo‘lgan.

Mustaqilligimizning birinchi yiliyoq huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishni bosh maqsad qilib olgan O‘zbekiston Respublikasida Sobiq Ittifoq davlatlari ichida birinchilar qatori o‘z Konstitutsiyamizni ishlab chiqishga kirishildi. «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» g‘oyasini ilgari surgan davlatimizda 1992-yil 12-sentabrda «Respublika «Mahalla» xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida» Prezidentimiz farmon chiqardilar. Unda tarixan shakllangan asriy milliy va an’anaviy qardriyatlarni asrash, ularni faol targ‘ib etish, ommalashtirish, ularda zamon talablariga mos ravishda uyg‘un va muqaddas istiqlolimiz ma’naviy manfaatlarini, mushtarak urf-odatlarni qaytadan tiklash, aholi o‘rtasida madaniy-ma’rifiy ishlarni olib borishni jadallashtirish, xalqimizning huquqiy savodxonligini oshirish, kam ta’minlangan oilalar, nogironlar, yetimlar va yolg‘iz qolgan qariyalarga nisbatan insonparvarlik hamda mehr-shafqat munosabatida bo‘lish, ularga moddiy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvatlash, fuqarolarning madaniy rivojiga ko‘mak berish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarni hal etish zarurati aks etdi. Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan «Mahalla» xayriya jamg‘armasining tashkiliy-boshqaruv maqomi ishlab chiqildi va 25 mln. so‘m yordam puli ajratildi.

1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi tomonidan «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonun bilan bir kunda «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida» qonun qabul qilindi. Ushbu ikki qonunning bir muddatda qabul qilinishi bejiz emas edi. Shu kungacha faqatgina mahalliy davlat hokimiyati

vakolatiga kirgan masalalarni xal etishni ikkiga bo‘lishga qaror qilindi va uning huquqiy me’yorlari aniq qilib belgilab olindi. Unga ko‘ra, ilk bor shaharcha, qishloq va ovullarda hamda ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolar yig‘ini raisi(oqsoqoli)ni va uning maslahatchilarini 2,5 yilga saylash muddati qonuniy tus oldi.

Bu bilan mahalla borasidagidagi davlat va shaxsan Prezidentimizning sa’y-harakatlari to‘xtab qolgani yo‘q. Islom Karimov o‘zining «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va rivojlanish kafolatlari» degan asarida mahallada «qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi», deb aytdi. Agarda Siz 1993 – 1999-yillarni yodga olsangiz, o‘sha davrda respublikamizda kishilik jamiyatining barcha jabhalarida tub islohotlar davri bo‘ldi: mahalliy miqyosda xususiylashtirishning birinchi bosqichi yakunlanish arafasida edi, tadbirkorlik faoliyatining ham huquqiy, ham iqtisodiy negizi yaratildi, fuqarolarning xatti-harakatlari beboshlikdan chiqib, aniq bir shakl va mazmun kasb eta boshladi, yurtimizga chet el investitsiyasi mahalliy miqyosgacha kirib keldi. Shuning uchun ham zamon talabiga mos ravishda fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini qaytadan ko‘rib chiqish vaqti yetib kelgan edi. Natijada 1999-yil 14-aprelda «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida (yangi tahrirda)» Qonun qabul qilindi. Qonunda mahalla tinchlik-totuvlik maskani sifatida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi alohida ta’kidlab o‘tildi. Qonunda davlat hokimiyati fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining shakllanishi va rivojlanishida olib borilayotgan ishlarga aralashishga yo‘l qo‘ymaydi, deb bitib qo‘yildi.

Yangi tahrirdagi Qonunning 29 ta moddasidan atigi bittasida, ya’ni 20-moddada «Fuqarolar yig‘inining raisi (oqsoqoli) va rais maslahatchilarini saylash tartibi» belgilagan edi, xolos. 2003-yil 29-aprelda maxsus «Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida» Qonun qabul qilindi. Mahalla raisi va uni «komandasi»ning davlat, jamiyat va shaxs hayotida tutgan o‘rni va mavqeyining oshayotganligini inobatga olgan tarzda ushbu qonun 31 moddadan iborat bo‘lgan normalarni o‘zida aks ettirdi.

Qonunda fuqarolar yig‘ini raisi va uning maslahatchilari demokratiya, oshkoralik va teng saylov huquqi asosida o‘tkazilishi, unda shu hududda yashovchi jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi,

shaxsiy hamda ijtimoiy mavqeyi, ma’lumoti, mashg‘ulot turi va uning xususiyatidan qat’iy nazar, har bir fuqaro saylanishi mumkin ekanligi belgilab berildi. Hozirgi kunda Respublikamizda 10 mln kishidan ortiq aholi saylash va saylanish huquqiga egadir. Mahalla raislari va uning maslahatchilari saylovida ishtirok etish, albatta, ixtiyoriy hamda erkindir, lekin ular saylovgacha 18 yoshga to‘lgan bo‘lishlari hamda muomala layoqatiga ega bo‘lishlari shart.

Saylovni o‘tkazish ochiq va oshkora ravishda, oldindin belgilangan kun, vaqt va joyda o‘tkaziladi. Ovoz berish natijalari va nomzodlar haqidagi ma’lumot barcha ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarga yetkazib boriladi.

Davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlari ushbu saylovni o‘z muddatida va hamma qonun talablari asosida o‘tishini ta’minlaydi. 2006-yil may-iyun oylarida o‘tkazilgan fuqarolar yig‘ini raisi(oqsoqoli) va ularning maslahatchilari saylovi fuqarolar yig‘ini raislari va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish va ularga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Prezident devoni hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tashkiliy-kadrlar ishlari guruh rahbarlarining saylovga doir hisobotlari tinglandi.

Respublika «mahalla» jamg‘armasi tegishli davlat organlari bilan kelishilgan tarzda 2006-yilda jami 8794 ta fuqaro yig‘inida raislar (oqsoqollar) va ularning kamida 40 mingdan ziyod maslahatchilarini saylandilar. Ulardan 1629 tasi shaharcha, qishloq va ovul yig‘inlariga, 4887 ta ular tarkibidagi mahallalarga, 474 tasi shaharlardagi mahalla fuqarolar yig‘inlariga tegishlidir. Shu o‘rinda bir narsani eslatib o‘tish joizki, 1993-yil fuqarolar yig‘inlariga O‘zbekiston bo‘yicha 5260 nafar fuqarolari saylangan edi. Ularning qo‘payishi shaharlardagi mavzelarni hamda qishloq va ovul kengashlarini mahallalarga aylantirish hisobidan amalga oshirildi. Bunga o‘zimizning ma’rifiy –ma’naviy an’analarimiz, boy va beqiyos urf-odatlarimizni tiklash nuqtayi nazaridan qaraldi.

«Ho‘sh, kelajakda «o‘zbek xalqining mahallasi» qanday bo‘lmog‘i kerak degan savol tug‘iladi. Bu masala yuzasidan 2000 yil 2 iyunda «XXI asr mahallasi konsepsiyasini yaratish to‘g‘risida» Prezident farmoniga binoan, Respublika «Mahalla» jamg‘armasi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, nodavlat notijorat tashki-

lotlari bosh qotirib kelmoqdalar. Mazkur masalani ilk bor 2002-yil 5-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘n yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda Prezidentimiz o‘rtaga qo‘ygan edi. «Mahallaning hayotimizdagi mavqeyi yuksak, uning qonuniy, huquqiy asoslari har tomonlama mustahkam bo‘lib rivoj topsa, bu idorani jamiyatimiz siyosiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotining ajralmas bir qismi, quyi boshqarish tizimi sifatida nechoqli kuchaytirsak, buning uchun barcha moddiy-moliyaviy sharoitlarni tashkil qilib bersak, o‘ylaymanki, bu o‘z oldimizga qo‘ygan oliy maqsadlarga yerishish yo‘lida katta qadam bo‘ladi. Barchangiz yaxshi bilasiz, «Otang – mahalla, onang – mahalla» degan hikmatda juda katta ma’no bor».

Konsepsiya o‘zi nima? XXI asr konsepsiyasi qanday bo‘lmog‘i kerak? Konsepsiya bu – dunyoqarashlar tizimi yoki bizning holatimizda endigina zamonamizga qadam qo‘yib kelayotgan yangi uchinchi Mingyillikning birinchi asri o‘zbek mahallasi qanday bo‘lmog‘i kerakligi haqidagi o‘ylar. Ushbu o‘ylar yoki dunyoqarashlar muayyan bir guruh yoinki qatlam yoki biron bir partiyaning dunyoqarashi bo‘lsa u tizimga aylanadi. Mening «*Kelajak mahallasi*» haqidagi dunyoqarashim ko‘pchiliknikiga to‘g‘ri kelmasligi tabiiy hol. Lekin davlatimiz, xususan Prezidentimiz dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda, ya’ni «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» shiori ostida quyidagi tamoyillarni ma’qul, deb aytish mumkin.

Birinchidan, Kelajak mahallasining maqsadi bitta va lo‘nda qilib ifodalangan bo‘lmog‘i zarur. Masalan, mahallada yashayotgan hamma fuqarolarning farovon turmush tarzining barcha jabhalarini demokratik prinsiplar asosida boshqarish va tartibga solish.

Ikkinchidan, mahahllalar vakolatini kuchaytirayotganda davlat ahamiyatiga molik yoki nodavlat tashkilotlarining fuksional yo‘nalishlariga oid masalalar mahallaga o‘tib ketmasligi lozim. Davlatning bevosita vakolat doirasidan mahallaga olib berib bo‘lmaydigan funksional yo‘nalish: umumsiyosiy, umumiqtisodiy, umumekologik masalalar. Misol tariqasida – davlatlararo kelishuvlar, bitimlar va shartnomalar, davlat xavfsizligini ta’minlash, mudofaa, jamoat tartibini saqlash kabi siyosiy masalalar. Iqtisodiy rivojlanishning taktik vazifalarini belgilash yoki strategik yo‘nalishlarni rejalashtirish, ekologik xavfsizlikni milliy, regional va global miqyosda amalga oshirish. Nodavlat notijorat tashkilotlardan – turli partiyalarni tuzish,

klublar yoki harakatlar yo‘nalishini belgilash, jamg‘arma ichida yana turli yo‘nalishdagi yoki oqimdagi jamg‘armalarni tashkil etish.

Ushbu maqsadga yerishmoq uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirmoq talab etiladi: mahalla imkoniyatlarini shaxs va jamiyat rivoji uchun xizmat qildirish; davlat organlarining bevosita vakolatiga kirmaydigan, ya’ni umumsiyosiy, umumiqtisodiy, umumekologik masalalardan tashqari vakolatlarni borsqichma-bosqich fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazish; zamon talabiga mos ravishda qonunchilik tizimini takomillashtira borish; mahalliy iqtisodiy rivojlantirish tizimini yaratish va uni amalga oshirish; mahallada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish; diniy aqidalardan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borishda keng foydalanish; mahalla boshqaruv organlarining maoshlari, ularga beriladigan qo‘shimcha haqlarni yuqori darajaga ko‘tarish yo‘llarini izlab topish; moddiy va moliyaviy tomondan mahallaning mustaqilligini ta’minlash, uni erkin va baquvvat qilish. Mazkur vazifalar quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirilishi lozim: oshkoralik, qonuniylik, faollik va h.k.Unda 7 ta g‘oyaviy-mafkuraviy yo‘nalishlar: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson tarbiyasi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik tamoyillari ustuvorlik qilishi kerak.

2003 yil O‘zbekistonda «Obod mahalla yili» deb e’lon qilindi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurayotgan respublikamizda davlatning umumiy, ayniqsa, maxsus ekologik boshqaruv organlarining ijtimoiy-iqtisodiy vakolatlarini o‘zini o‘zi boshqaruv idoralariga o‘tkazish masalasi juda dolzarbdir. Toza atrof tabiiy muhit kishilarning yashash huquqining asosiy elementi va uni asrab-avaylash, avvalambor, o‘zlariga bog‘liq ekanligini anglashlari hamda o‘z hududlarida ekologik boshqaruvni bosqichma-bosqich o‘z vakolati doirasiga kirgizishlari muhim masaladir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida ko‘rsatilganidek, shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat olib bordilar. Mahalla fuqarolari har ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylash orqali o‘z hududlarida atrof-muhit muhofazasini tashkil etish hamda vakolat doirasida sog‘lomlashtirish ishlarini olib borishlari mumkin.

1999-yil 14-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonunga va obod mahalla yiliga mo‘ljallangan davlat dasturiga binoan, *shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolarining yig‘ini (vakillar yig‘ilishi) o‘z ekologik manfaatlaridan, urf-odat qoidalaridan va hududiy ekologik xavfsizlikdan kelib chiqqan holda, vakolat doirasida mustaqil faoliyat yurgizish huquqiga egadirlar*. Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig‘ini va shahar mahallasida, Qonunning 10-moddasiga ko‘ra, *fuqarolar yig‘ini*:

- atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish yuzasidan o‘z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxona, muassasa, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi;
- obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va sanitariya-tozalash ishlarini o‘tkazish uchun tegishli hududda joylashgan korxona va tashkilotlarning mablag‘laridan shartnoma asosida foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;
- atrof-muhitni muhofaza qilishga ko‘maklashadi;
- yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiquvchi tuman komissiyasiga o‘z vakilini yuboradi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Nisbatan kamroq ekologik boshqaruv funksiyasi shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolar yig‘iniga berilgan bo‘lib, ular hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha tadbirlar rejasini belgilangan tartibda tasdiqlaydilar hamda qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan boshqa ekologik faoliyatni amalga oshiradilar.

Xulosa kilib aytganda, O‘zbekistonda kuchli davlatdan kuchli fukarolik jamiyati sari boriladigan asosiy yo‘l «mahalla chorrahasidir». Unda yoshlarning faolligi, albatta, birlamchi ahamiyat kasb etadi. Zero kelajak negizi yoshlar, ularning soni esa O‘zbekistonda 60% dan yuqoridir.

4. Nodavlat notijorat organlarining ekologik boshqaruvi

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning yana bir talabi nodavlat organlarining faoliyatini erkinlashtirish va ularga ijtimoiy hayotning turli jabhalarida ulkan vakolatlar berishdan iborat.

1999-yil 14-apreldagi «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi qonun nodavlat organlar faoliyatining huquqiy asosi hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkilot – *jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) kelishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti.*

Nodavlat notijorat tashkilotlarining ekologik-huquqiy maqomi o‘zi to‘g‘risidagi qonun, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunlarda ham belgilangandir. Ularga respublikada faoliyat yurituvchi milliy, xalqaro, chet el nodavlat notijorat tashkilotlari kirishi mumkin. Ushbu tashkilotlar ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan jamg‘arma, uyushma, klub, assotsiatsiya, qo‘mita va harakatlarga birlashish huquqiga ega (6.4.1-rasm).

O‘zbekistonda 2003-yilga kelib o‘nlab ekologik yo‘nalishdagi jamoat birlashmalari tuzildi. Mazkur birlashmalar o‘z nizomlariga egalar, ular tabiatni muhofaza qilish borasida davlat organlari va o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari bilan faol harakat qilib kelmoqdalar. Misol tariqasida «Ekosan» xalqaro jamg‘armasini olsak bo‘ladi. «Ekosan» – ekologiya va salomatlik yo‘nalishidagi xalqaro jamg‘arma. U 1992-yil Toshkent shahrida tuzilgan bo‘lib, hozirgi kunda uning 3 mln dan ortiq a’zosi, 30 dan oshiq mamlakatda 70 dan ziyod bo‘linmalari va vakolatxonalari bor. «Ekosan» nafaqat respublikamizda, balki xorijda ham juda tanilgan ekologik yo‘sindagi tashkilot bo‘lib, u turli yo‘nalishda katta loyiha va dasturlarni amalga oshirmoqda (6.4.2-rasm). U ekologik munosabatni huquqiy jihatdan tartibga solishda, aholining huquqiy ongi va madaniyatini ko‘tarishda, atrof-muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan moliyaviy mablag‘larni ajratishda o‘zining katta hissasini qo‘shmoqda.

Ayrim mamlakatlarda «Kedr», «Grinpis», «Yashillar partiyasi» kabi ekologik oqimlar faoliyat yuritmoqda. Bu ham aholining ekologik boshqaruvda qatnashishining bir yo‘li, chunki ilmiy-texnika revolyutsiyasi tabiatga «bostirib» kelar ekan, uning zararli oqibatlarining oldini olish, avvalambor, fuqarolar, ularning maqsadli va qonuniy uyushmalarining xohish va irodasini inobatga olgan holda ekologik munosabatlarni tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir.



6.4.1-rasm. **Ekologik yo‘nalishdagi nodavlat notijorat tashkilotlari (ENNT) va ularning huquqiy faoliyatlari.**



6.4.2-rasm. **O‘zbekiston ekologik harakati (Ekoharakat) ning huquqiy maqomi.**

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ekologik boshqaruv tushunchasini ta’riflang.
2. Demokratik davlatlarda ekologik boshqaruv tizimi qanday bo‘ladi?
3. Davlatning umumiy ekologik boshqaruviga qaysi organlar kiradi?

4. Adabiyotlarda davlatning maxsus ekologik boshqaruvi qanday qismlarga ajratiladi?

5. Oliy Majlisning ekologik vakolatlarini sanab o‘ting.

6. Qaysi qonunlar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatini belgilaydi?

7. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

8. O‘zbekistonda qanday nodavlat notijorat tashkilotlarini (NNT) bilasiz?

9. NNTining ekologik-huquqiy maqomi haqida aytib bering.

XXI asr – «yashil iqtisodiyot» asridir.

VII bob. EKOLOGIK KADASTR, NAZORAT VA EKSPERTIZA

1. Ekologik boshqaruvda ekologik kadastr, nazorat va ekspertizaning ahamiyati

Nufuzli xalqaro tashkilotlar YuNEP va YuNESKOlarning tavsiyanomalariga ko‘ra, rivojlanib borayotgan va bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichida turgan davlatlarda (jumladan, O‘zbekistonda ham) ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun uch dolzarb muammoning yechimini topish tavsiya etiladi:

1) davlatning ekologik boshqaruv (jumladan, ekologik kadastr, monitoring va nazorat) tizimini yo‘lga qo‘yish;

2) xalq xo‘jaligiga ekologiyalashtirilgan texnologiyalarni keng jalb etish;

3) fuqarolarning ekologik ongi va madaniyatini ko‘tarish.

Keyingi ikki muammoning yechimi davlatning izchil ekologik boshqaruv va nazoratini yo‘lga qo‘yish bilan uzviy bog‘langandir. Ekologik boshqaruvni amalga oshirish uchun, albatta unga bir necha talablar qo‘yilgan (7.1.1-rasm).

Yuqorida keltirilgan ekologik boshqaruv tizimining qismlari, albatta, mana shunday ketma-ketlikda va iyerarxik pog‘onada turadi. Ularning birisiz ikkinchisini amalga oshrish yoki boshqaruv mexanizmini yuritishning imkoniyati yo‘q. O‘zingiz bir tassavur qilib ko‘ring: ekotizimlarni aniqlamay turib (masalan, baland tog‘ yoki cho‘l ekotizimi), ularning o‘ziga xos sifat va son ko‘rsatkilarining holatini ayta olmaymiz. Ekotizimlardagi unsur yoki komponentlar holati qanday darajada ekanligi, ularning sifati, tarkibi va soni ekologik kadastr uchun indikator bo‘lib xizmat qiladi va h.k. Hech qachon monitoring baholash yoki kadastrdan avval o‘tkazilishining iloji yo‘q. Biz ushbu darslikda ekologik boshqaruvning eng asosiy elementlari – ekologik kadastr, nazorat va ekspertizaga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Chunki ularning amaldagi holati qaysi bir mamlakatda yaxshi yo‘lga qo‘yilsa,



7.1.1-rasm. **Ekologik boshqaruv talablari.**

ana shu yurtda ekologik-huquqiy boshqaruv mexanizmi harakatda bo‘ladi va real ekologik boshqaruv imkoniyatini yuzaga keladi.

Ekologik boshqaruv aynan ekologik kadastr, aniqrog‘i, tabiiy obyektlarning kadastrini yuritishdan boshlanadi. *Kadastr – fransuz tilida «Cadastre» – reyestr, ro‘yxat, degan ma’noni anglatadi.* Odatda, ushbu ro‘yxatlash umumiy obyektlar bo‘yicha emas, balki aniq bir moddiy, jumladan, tabiiy obyektlarga nisbatan qo‘llaniladi.

2000-yil 15-dekabrdagi «Davlat kadastrlari to‘g‘risidagi qonun»ning 3-moddasiga binoan ekologik kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yagona tizim O‘zbekiston Respublikasi va uning ayrim hududlari tabiiy-iqtisodiy salohiyatining yagona umumdavlat hisob-kitobi yuritilishini, baholanishini ta’minlashga mo‘ljallangan ko‘p maqsadli tizimi tarzida yaratiladi.

Ekologik kadastr – *uning obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan (o‘zgaruvchan) ma’lumotlar va hujjatlar tizimi.*

«Davlat kadastrlari to‘g‘risidagi qonun»ning 5-moddasi ekologik kadastr obyektlariga berilgan (7.1.2-rasm).



7.1.2-rasm. **Ekologik kadastrni olib borish obyektlari.**

Ekologik kadastrni yuritishda respublika hududini to‘liq qamrab olish, fazoviy koordinatlarining yagona tizimini qo‘llash, uslubiyatning umumiyligi, axborotning aniqligi va ommaviyligi kabi huquqiy prinsiplarga asoslaniladi. Mazkur kadstrlarni Vazirlar Mahkamasi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi hamda tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ularni nomlashda «davlat» so‘zi qo‘shib ishlatiladi.

Davlat ekologik kadastr obyektlarini baholash tabiiy unsur hamda komplekslarning sifat va qiymat jihatlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, «Davlat yer kadastri to‘g‘risidagi qonun»ning 17-moddasiga binoan, yer sifati – qishloq xo‘jaligi bo‘yicha uni rayonlashtirishni, tuproq va yerlarni tasniflashni, ularni agronomik, ekologik, texnologik va shaharsozlik belgilari bo‘yicha tavsiflashni, tuproqni guruhlarga ajratishni o‘z ichiga oladi. Yerlarning qiymat bahosi 1998-yil 6-avgustda tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning sifat, iqtisodiy va qiymat bahosini aniqlashning Muvaqqat uslubi»ga binoan yerlarning me’yoriy baholari, banklardan ipoteka qarzlari berishda xususiy turar-joylar qurish uchun yer ajratib berish, dehqon xo‘jaligiga qo‘shimcha yer berish va yer solig‘i stavkalarini

aniqlash kabi hollarda yer uchastkasining dastlabki (boshlang‘ich) bahosi belgilanadi.

Boshqa tabiiy obyektlarni kadastrlash bo‘yicha ham Nizomlar ishlab chiqilgan va amalda tatbiq qilinmoqda.

Ekologik kadastr obyektlari bo‘yicha hujjatlar – ularga nisbatan mulk huquqi va boshqa huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar, yig‘ma jildi, xaritasi (plani), kitobi, holati haqidagi hisobotlarni o‘z ichiga oladi.

Ekologik kadastr obyektlari bo‘yicha axborot davlat hokimiyati organlariga bepul, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga esa belgilangan tartibda haq evaziga taqdim etiladi.

2. Ekologik nazorat

Tabiiy va tabiiy-antropogen obyektlar kadastri ekologik nazoratni olib borishning iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy, huquqiy asosi bo‘la oladi.

Ekologik nazorat – *ekologik munosabat subyektlarining faoliyatlarini vakolatlangan davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari tomonidan tekshirib borish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish tizimi.*

Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 29-moddasiga binoan ekologik nazorat quyidagi vazifalarni bajarish uchun olib boriladi:

- ekologik monitoringni o‘tkazish;
- ekologik qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan me’yor va qoidalarning bajarilishini tekshirib borish hamda tegishli yuridik oqibatlarni keltirib chiqarish;
- davlatning ekologik xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan dastur, reja va loyihalarini ro‘yobga chiqarish.

Ekologik nazorat ekologik boshqaruv mexanizmining ajralmas bir qismi bo‘lib, u ekotizimlarni muhofaza qilish, buzilganlarini esa qayta tiklash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yishda juda katta ahamiyat kasb etadi. ***Ekologik nazorat tizimiga quyidagilar kiradi*:**

- ekologik munosabatlarning davriy o‘zgarishini ekologik kadastr ma’lumotlariga asoslangan holda kuzatib borish;

- *olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va tegishli davlat organlari va jamoat birlashmalariga topshirish;*
- *fuqarolarning ekologik faoliyatlarini baholash;*
- *tegishli xulosalar chiqarish va chora-tadbirlarni belgilash;*
- *yuridik va jismoniy shaxslarning ekologik faoliyatlariga litsenziyalar berish;*
- *noekologik faoliyat yuritayotgan shaxslarning harakat yoki harakatsizliklarini ogohlantirish, huquqlarini cheklash, faoliyatlarini bekor qilish yoki to‘xtatib turish;*
- *hamda ularni tegishli javobgarlikka tortish* (7.2.1-rasm).



7.2.1- rasm. **Ekologik nazorat obyektlari, shakllari, turlari va metodlari.**

Yuqoridagi fikrimizdan ko‘rinib turibdiki, ekologik nazorat juda keng qamrovli va turlicha yo‘nalishdagi faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun ham u yagona tizimga birlashtiriladi. *Ekologik nazorat xizmati tizimiga:*

- *ekologik monitoring xizmati;*
- *davlat ekologik inspeksiyalari xizmati;*
- *huquqni muhofaza qilish davlat organlari xizmati;*
- *ichki idoraviy va ishlab chiqarish organlari xizmati;*
- *jamoat birlashmalari xizmati quyidagilar kiradi.*

Ekologik monitoring – *ekologik nazoratning birinchi bosqichi bo‘lib, u atrof tabiiy muhit va tabiiy resurslarning davriy o‘zgarishini (kadastr ma’lumotlariga asoslangan holda) kuzatib borish, hisobga olish, baho berish va istiqbolini belgilash tizimi.*

Ekologik monitoring milliy, regional (mintaqaviy) va global miqyosda olib boriladi. O‘zbekistonda milliy ekologik monitoring tizimi 1972-yil Birlashgan Millatlar Tashkilotining Stokgolm konferensiyasida qabul qilingan Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan rezolyutsiyasida aks ettirilgan prinsiplarga mos ravishda olib borilmoqda. Uning huquqiy asosi bo‘lib «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 28-moddasi, 2002-yil 3-aprelda Vazirlar Mahkamasining 111-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi to‘g‘risida»gi Nizom, maxsus vakolatlangan davlat organlarining Nizomlari (masalan, 2000-yil 23-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Yer monitoringi to‘g‘risida»gi Nizom) hamda boshqa qonuning osti normativ hujjatlar hisoblanadi. Lekin ekologik monitoring faqatgina davlat organlari tomonidan olib boriladi, deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Ekologik kadastrdan farqli o‘laroq, ekologik monitoring nodavlat tashkilotlari, o‘zini o‘zi boshqaruv idoralariga ham xos bo‘lgan nazorat turidir.

Ekologik monitoring xizmati davlat boshlig‘i, hokimiyatlar va ijroiya organlariga atrof-muhit holatiga doir ma’lumotlarni o‘z vaqtida yetkazib berish orqali ekologik yo‘nalishdagi maxsus vakolatlangan davlat inspeksiyasi xizmati faoliyatini aniq va jadal sur’atlarda olib borishga asos bo‘ladi. Ekologik monitoring ma’lumotlari Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 31-moddasiga ko‘ra,

ochiq-oshkora ravishda olib borilishi kerak. Ushbu axborot, avvalo, ekologik boshqaruv organlarida umumlashtiriladi va baholanadi. Salbiy ekologik holat bo‘yicha monitoring ma’lumotlari darhol aholiga e’lon qilinishi shart.

Tabiiy resurslarning miqdori, sifat va boshqa xil ko‘rsatkichlari, ulardan foydalanish hajmi, tartib, tamoyilini hisobga olib borish uchun davlat tabiiy resurslar kadastrini yuritadi. Atrof tabiiy muhit holatiga zararli ta’sir etishi mumkin bo‘lgan obyektlar, atrof tabiiy muhitni ifloslantiruvchi zararli moddalar va ularning miqdori, ishlab chiqarish va ro‘zg‘or (kommunal) chiqindilarining hajmlari, tarkibi ham nazorat etib boriladi va davlat hisobiga olinadi.

Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 30-moddasiga muvofiq ekologik nazorat xizmatining tarkibi, tashkil etilishi, faoliyati hamda ekologik kadastr va ekologik monitoring xizmati Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari bilan belgilab boriladi va tasdiqlanadi.

Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 31-moddasiga muvofiq, ekologik nazorat inspeksiyasi davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari hamda maxsus vakolatlangan davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Ular ham o‘z ekologik boshqaruv vakolatlaridan kelib chiqqan tarzda umumiy va maxsus ekologik nazoratlovchi davlat organlariga ajratiladi.

Umumiy ekologik nazorat organlari:

Oliy Majlis – ekologik qonunlar va o‘z qarorlarining bajarilishini nazorat qiladi.

Prezident – ekologik xavfsizlik va davlat ekologik nazorati xizmatlarini tuzadi, ularning rahbarlarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi.

Vazirlar Mahkamasi – ekologik qonun va qonun osti normativ hujjatlar, jumladan, dastur, reja va loyihalarning bajarilishini nazorat qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari – o‘z vakolat doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha nazorat ishlarini olib boradi.

Maxsus ekologik nazorat organlari:

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan kompleks davlat nazoratini amalga oshiradi.

Sog'liqni saqlash vazirligi – atrof tabiiy muhit sanitariyasi, gigiyenasi va epidemiologik holati bo'yicha nazoratni olib boradi.

Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish inspeksiyasi – xalq xo'jaligi tarmoqlarida yer osti va usti mineral boyliklaridan foydalanish ishlarini atrof tabiiy muhit holatiga keskin zarar yetkazmaydigan qilib olib borilishini nazorat qiladi.

Ichki ishlar vazirligi – joylarda ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik nazoratga ko'maklashadi, jamoat joylari tozaligini nazorat qiladi, avtotransportdan atmosfera havosining ifloslanishini va shovqinlanishining oldini oladi, tabiiy va xalq xo'jaligi obyektlarining yong'inga qarshi turish holatini nazorat qiladi.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi – qishloq xo'jaligi yer, suv va o'rmon fondlaridan unumli foydalanish hamda ularning muhofaza qilinishini nazorat qiladi.

Yer resurslari davlat qo'mitasi – yerdan foydalanish hamda uni muhofaza qilish ustidan nazoratni tashkil etadi va amalga oshiradi.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi idoraviy nazorat – vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning ekologik xizmatlari o'z tasarrufidagi korxonalar hamda tashkilotlar ustidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi nazoratni olib boradi.

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 32-moddasiga ko'ra, *ishlab chiqarish ekologik nazorat korxona, tashkilot, birlashma, muassasalardagi ekologik xizmatni amalga oshiradi*.

Bu o'rinda qonunda aks ettirilmagan muassasalarni alohida ta'kidlab o'tish darkor. Chunki ta'lim sohasi yoki *ilmiy-tadqiqot muassasalarida* tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yangi turdagi madaniy o'simliklar, kimyoviy dorilarni yaratish, ularni sinab ko'rish mobaynida ishlab chiqarish faoliyatining ekologik talablarga javob berishini nazorat qilish ham ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ***jamoat nazorati*** nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, o'zini o'zi boshqaruv organlarining ekologik boshqaruv funksiyasidan kelib chiqadi. Unda ekologik nazorat –fuqarolar yig'ini kengashi, kengash qoshidagi maxsus ekologik komissiyalar yoki shaxslar, ekologik nazorat bo'linmalari, mehnat jamoalari, faol mutaxassislar guruhi, jismoniy shaxslar tomonidan olib boriladi.

Idoraviy ishlab chiqarish va jamoatlarning ekologik nazoratining tashkil etilishi, faoliyat yuritishi, huquq va majburiyatlari tegishli qonun hujjatlari va jamoat nazorati to'g'risidagi nizomlarda belgilangan bo'ladi.

3. Ekologik ekspertiza

Ekspertiza so'zi lotinchada «expyertus» – tajribali, degan so'zdan olingan bo'lib, u ma'lum bir masalaning tajribali mutaxassis tomonidan yoritib berilishi degan ma'noni anglatadi. Ekspertiza turli fan va xo'jalik sohalarida turlicha ko'rinishda namayon bo'lib, voqea va hodisalarni to'g'ridan-to'g'ri belgilash, o'lchash va aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ushbu sohadagi mutaxassislar xulosasiga muhtoj holatlarni inobatga oladi.

O'zbekiston Respublikasi ekologik qonunchiligida ilk bor ekologik ekspertiza 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning maxsus VI bo'lim 24–27-moddalarida yoritib berildi. Ushbu qonunning 4-moddasida esa ekologik ekspertizaning majburiylik prinsipi belgilab qo'yildi. Lekin Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun ekologik ekspertizaning imperativ (qat'iy) shartlarini belgiladi, xolos. Uning asl mohiyati, turlari, olib borish metodlari, muddatlari, prinsiplari va obyektlari esa yoritilmay qolgan edi.

Konstitutsiyamizda belgilangan ekologik shartlar (50, 54, 55, 100-moddalar) kompleks va alohida bir tabiiy obyektlar bo'yicha qabul qilingan qonunlar, qonunosti me'yoriy hujjatlar hamda kafillik me'yorlaridan bo'lmish – Mehnat, Fuqarolik, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslaridagi yuridik javobgarliklar ham ekologik qonunbuzarliklarni keskin ravishda kamaytira olmayapti. Javobgarlikka tortilayotgan umumiy qonunbuzarliklar ichida ekologiya borasidagi javobgarliklar bor-yo'g'i 0,5–4,0 % ni tashkil etmoqda, xolos. Tabiatning tobora buzilib va aksincha, qonunbuzarliklarning ko'paya borishining sabablaridan biri ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunning yo'qligidan ham edi.

2000-yil 25-mayda qabul qilingan va shu yilning 1-iyulidan kuchga kirgan «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni huquqiy-ekologik mexanizmni shakllantirishda va uni hayotga tatbiq qilishda katta hissa qo'shdi.

Ekologik ekspertiza – *rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini aniqlash.*

Ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunning asosiy maqsadi va vazifalari – mo'ljallanayotgan xo'jalik, boshqa xil faoliyatni rejalashtirish hamda amalga oshirishdan avval, ushbu faoliyatni ekologik talablar, xususan, fuqarolar sog'lig'iga qay darajada ta'sir etishi mumkinligini aniqlash, shuningdek, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning ekologik talablarga javob bera olishi yetarliligi va ilmiy asoslanganligini aniqlashdan iborat (7.3.1-rasm).



7.3.1-rasm. **Ekologik ekspertiza turlari, prinsiplari, obyektlari, subyektlari va usullari.**

Qonunda belgilangan *boshqa xil faoliyatga*: davlat dasturlari, konsepsiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish kuchlari, ijtimoiy va iqtisodiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish loyihalarini tuzish; barcha turdagi qurilishlar uchun yer uchastkalarini ajratish, hujjatlarni tayyorlash va o'tkazish; texnika, texnologiya, materiallar, moddalar va mahsulotlarning yangi turlarini yaratishga doir hujjatlar tayyorlash; alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va favqulodda ekologik vaziyat hamda ekologik ofat zona (tegra)lari maqomini berish; shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, ularni amaliy qo'llash mexanizmi ham ekspertiza obyekti bo'ladi va ular, albatta, mutaxassislar xulosasiga muhtojdir.

Ekologik ekspertiza *davlat, jamoat va ixtisoslashtirilgan firmalar* tomonidan o'tkazilishi mumkin (Qonunning 4, 12, 23, 24-moddalari). Lekin *davlat ekologik ekspertizasidan* o'tish inson faoliyatining yuqorida sanab o'tilgan hamma jabhalari uchun majburiydir. Shuning uchun ham maxsus vakolatlangan – Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining turli maqomdagi ekspert bo'linmalari tomonidan o'tkazilishi Qonunning 21-moddasida aks ettirilgan. Agarda xo'jalik yoxud boshqa faoliyat yurgizuvchi subyekt (buyurtmachi) davlat ekologik ekspert komissiyasi xulosasidan qoniqmaydigan bo'lsa, u o'z e'tirozini umumiy yoki xo'jalik sudlarida ko'rib chiqish uchun da'vo bildirish huquqiga ega.

Davlat ekspertizasini o'tkazish muddati 30 kundan oshmasligi va ayrim, o'ta murakkab sharoitlarda, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi – bosh davlat eksperti ruxsati bilan 2 oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin. Ushbu ekspertiza faoliyatini moliyalash buyurtmachilar hisobidan bo'ladi.

Qonun fuqarolar, fuqarolar yig'ini, o'zini o'zi boshqarish organlariga, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan *jamoat ekspertizasini* o'tkazishga ham imkon beradi. Chunki O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqi (Konstitutsiyaning 24 va 29-moddalari) qulay va xavfsiz atrof tabiiy muhitda yashash va bu haqda qonun bilan chegaralanmagan tarzda axborot olishi mumkin. Ekologik ekspertiza nuqtayi nazaridan, ular o'z mablag'lari hisobiga, davlat ekspertizasidan tashqari mustaqil holda ekologik ekspertizani o'tkazishlari mumkin. Faqatgina jamoat ekologik ekspertiza xulosasi tavsiya kuchiga ega bo'ladi va davlat ekspertiza xulosasini tekshirib ko'rish hamda sudga da'vo e'tirozi bilan chiqish imkonini beradi.

Jamoat ekologik ekspertizasini o'tkazish uchun fuqarolar, fuqarolar yig'ini yoki jamoat tashkilotlari mustaqil ekspert komissiyasiga

«Ekologik oqibat arizasini» berishlari mumkin. Bu arizada ular ikki masalani yoritishlari kerak:

1) ekologik tavakkallikni hisobga olgan holda atrof tabiiy muhit holatining buzilish oqibatlari;

2) ekologik zarar oqibatlarini tugatish, atrof-muhit holatini tiklash va mo‘tadillashtirish uchun zaruriy chora-tadbirlarni ko‘rsatish.

Ekspertlarning vazifasi esa ushbu vaziyat yoki holatning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini isbotlashdan iborat, xolos. Agarda jamoat ekspertizasi davlat ekspertizasi xulosasi bilan mos kelmasa, unda ushbu nizoli holat haqida davlat ekologik ekspertizasini tayinlovchi davlat organi, prokuratura yoxud sud organlariga murojaat etish orqali masalaga oydinlik kiritish mumkin.

Bozor munosabatlarining o‘ziga xos tomonlaridan biri turli ko‘rinishdagi *auditorlik faoliyatini* shakllantirishdan iborat. Audit ingliz tilida «audit» – tekshirish, ya’ni buxgalteriya kitoblari, hisobotlari va hujjatlarini taftish qilish degan ma’noni anglatadi. O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish 2000-yil 26-maydagi «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonun va shu asosda qabul qilingan qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Ekologik audit – *ekologik munosabat subyektlarining buxgalteriya kitoblari, hisobotlari va hujjatlarini taftish qilish.*

Auditorlik faoliyati auditor (audit firma)lar tomonidan tadbirkorlik faoliyati ko‘rinishida amalga oshiriladi. Ekologik audit bir muncha o‘ziga xos ko‘rinishga ega.

Ekologik audit – uch xil: 1) ishlab chiqarish ekologik ekspertizasi; 2) hududiy ekologik ekspertiza; 3) ekologik konsalting ko‘rinishlarda olib boriladi.

Ishlab chiqarish obyektlarini ekologik auditlashning maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilishga doir talab va yo‘riqnomalarga korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘ri kelishi, tabiatni muhofaza qilish tadbirlari bo‘yicha tavsiyanomalarni tayyorlash hamda tabiiy resurslardan foydalanishdagi sarf-xarajatlarni tekshirishdir. Bunday tekshiruv «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi qonunning 11-moddasida qayd qilingan ishlarni moliyalashdan avval va nazoratlovchi organlar bilan bo‘ladigan nizoli holatlarda amalga oshiriladi.

Hududiy ekologik audit – aniq bir yer uchastkalari yoki hududlarni tabiiy resurs imkoniyatlarini salbiy tabiiy hodisalar hamda atrof tabiiy muhitga texnogen jarayonlarning ta’sirini va ularning turlarini aniqlashni baholashda qo‘llaniladi. Ushbu ekologik audit turi ko‘chmas mulk va yer uchastkalari yuzasidan bajariladigan operatsiyalar bilan qo‘shib baholanadi. Ish natijalari ushbu faoliyatni asoslash borasidagi ekspert xulosasi bilan yakunlanadi.

Ekologik konsalting – shahar va shaharlar aglomeratsiyasi (to‘plami) ishlab chiqarish texnologiyalari, shaharsozlik, ularda yerdan foydalanish huquqlari va boshqa xo‘jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan atrof-muhit muammolarini moliyalash masalalarini tekshirishdan iboratdir. Konsalting – xo‘jalik yurgizuvchi subyektlarga turli masalalar bo‘yicha maslahat (konsultatsiya)lar berishdir. Ekologik konsalting, masalan, yer uchastkasidan foydalanish yoki uni egallashga berish borasidagi loyihalardan oldin ularni ekologik oqibat bo‘yicha xulosalash, mavjud yoki loyihalashtirilgan texnologiyalarni ekologik baholash, tabiat muhofazasiga doir tadbirlarning samaradorligini baholash; ekologik tadbirlarni qo‘llash bo‘yicha baholash; ruxsat beruvchi hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etish va hokazolardir.

Ekologik auditni olib borishga ruxsatnoma Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tavsiyasiga ko‘ra, Adliya vazirligi tomonidan beriladi. Ekologik audit buyurtmachilarning mablag‘i hisobiga va ularning qaroriga binoan o‘tkaziladi.

Ekologik ekspertizaning har qanday turi uning obyektlarini qo‘llash va ularni amalga oshirish mumkinligi haqidagi xulosani berish bilan yakunlanadi.

Umuman olganda, ekologik ekspertizalash jarayoni 5 ta bosqichni o‘ziga qamrab oladi:

1) ekspertizani belgilash;

2) axborotlarni to‘plash, umumlashtirish va baholash;

3) dastlabki xulosani shakllantirish va u bilan jamoatchilikni tanishtirish;

4) ekspertiza xulosasini taqdim qilish va yuqori vakolatli organlar tomonidan tasdiqlash;

5) nizolarni hal qilish.

Ekologik ekspertiza to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik quyidagi holatlarda yuzaga keladi:

– ekspertlar o‘z ishlariga sovuqqonlik bilan qarasalar va noto‘g‘ri xulosa bersalar. Bunday holatlarda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 15-moddasiga binoan mansabdor shaxslarga ma’muriy javobgarlik sanksiyalari qo‘llanilishi mumkin. Agarda ushbu harakat yoki harakatsizliklar ijtimoiy xavfli oqibatlarga olib kelsa, u holda Jinoyat kodeksining V bo‘limida keltirilgan sanksiyalar asosida huquqbuzar javobgarlikka tortilishi mumkin;

– ekologik ekspertiza xulosa talablariga rioya etmagan korxona rahbarlari va fuqarolar Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning maxsus 96-moddasiga binoan javobgarlikka tortiladilar. Agarda bu xulosalarni inkor etish ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizliklar bilan bog‘liq bo‘lsa, Jinoyat kodeksining IV bo‘limiga asosan javobgarlikka tortilishi mumkin;

– ekologik ekspertizaning xulosasini o‘zgartirishga majbur etish va (yoki) o‘zgartirmoqchi bo‘lgan huquqbuzarliklar holati bo‘yicha javobgar subyekt bo‘lib mansabdor shaxslar chiqadilar.

Xulosa qilib aytganda, ekologik kadastr, nazorat va ekspertiza ekologik boshqaruvning samaradorligini oshiruvchi asosiy chora-tadbirlardan hisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ekologik boshqaruv tizimini doskada tasvirlang va uni muhokama qiling.
2. Ekologik boshqaruvda ekologik kadastr, nazorat va monitoring tizimining ahamiyati nimada?
3. Ekologik kadastr obyektlarini sanab o‘ting va uning huquqiy asoslarini keltiring.
4. Nima uchun respublikamizda kadastrlarga oid qonunlarda «davlat» so‘zi qo‘shib ishlatiladi?
5. Ekologik nazorat tizimini ta’riflab bering.
6. Ekologik monitoringni qaysi davlat organlari olib boradi?
7. Jamoatning ekologik nazorati nima uchun kerak?
8. Ekologik ekspertiza nima?
9. Qaysi qonunda ekologik ekspertiza va uning turlari batafsil keltirilgan?
10. Ekologik auditni tushuntirib bering!
11. Ekologik ekspertizaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik qaysi qonunlarda yoritib berilgan?

Kimningdir saodati o‘zgalarning kulfati evaziga bo‘lmasligi kerak.

VIII bob. EKOLOGIK JAVOBGARLIK

1. Ekologik javobgarlik tushunchasi va turlari

Atrof tabiiy muhitning buzilishi va ifloslanishi natijasida nafaqat tirik mavjudot, balki davlatlar ham katta zarar ko‘rmoqda. Chunki ekologik inqirozli holat go‘yoki inson badanidagi yaraga o‘xshaydi. Yarani davolash esa albatta, davlatdan ma’lum miqdorda qo‘shimcha moddiy va moliyaviy resurslarni sarf qilishga majbur etadi. Oilada bo‘lgani kabi, har bir davlat yoki jamiyatda «ekologik yara»larning ko‘payishi uning salohiyati va qudratini bunyodkorlikka va rivojlanishga emas, balki kasalliklarni tuzatishga majburlaydi.

Ekologik javobgarlik so‘zining ma’nosini ifodalashdan oldin «Javobgarlik o‘zi nima?» degan savolga javob berishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Javobgarlik – *muayyan shaxs, jamoa yoki davlatning o‘zga shaxslar, jamoatchilik, davlat, davlatlar va xalqaro hamjamiyat oldidagi burchi, majburiyati.*

Muayyan shaxs, jamoa yoki davlatning o‘zga shaxslar, jamoatchilik, davlat, davlatlar va xalqaro hamjamiyat oldidagi burchi va majburiyatlari ularning xatti-harakatlarini yoki harakatsizliklarini belgilovchi qoida va me’yorlar asosida o‘rnatiladi. Ijtimoiy munosabatlarni belgilovchi qoida va me’yorlar milliy yoki xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan, yo bo‘lmasa har bir millat, elat yoki xalqlarning urf-odatlari, an’analari va qadriyatlaridan kelib chiqqan, lekin yuridik tarzda, huquqiy normada aks ettirilmagan holda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Mustaqillik tufayli O‘zbekistonda milliy qadriyatlarimizga, o‘z-o‘zini anglashga va g‘ururimizga alohida e’tibor bilan qaralmoqda. Tariximizga qaytadan, obyektiv ravishda nazar tashlashimizga to‘g‘ri kelmoqda. Buning ekologiya faniga juda katta ta’siri bor, albatta.

Masalan, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan birinchi yozma yodgorlik manbayi bo‘lgan zardushtiylarning «Avesto» kitobida atrof tabiiy muhitning sofligiga qarab, insonlarning 800 yildan 1400 yilgacha umr ko‘rganliklari bayon etiladi. Avestoning «Vandidot» qismida suv va yerdan foydalanish, unda jinoyat va jazo, mol-mulk bilan bog‘liq masalalarni tartibga solib turuvchi qoidalar bitilgan. «Vandidot»ning 13–14-boblarida har kuni kishilar ekinlarni ikki marotaba sug‘orishlari mumkinligi, lekin sug‘orish suvining miqdori bir belkurak kengligidagi va chuqurligidagi ariq orqali amalga oshishi bayon etilgan.

Navro‘z bayramida esa Sharq xalqlari urf-odatlariga ko‘ra, har bir inson «yangi yil» munosabati bilan yerga ko‘chat qadashi va urug‘ sepishi orqali tabiatni obodonlashtirishi, ariq, zovur, o‘rmon va dalalarni tozalashi shart bo‘lgan. Bunday holat har bir kishining majburiyatiga aylantirilgan va jamoatchilik oldidagi javobgarligi hisoblangan.

Javobgarlikning yana bir muhim elementi – belgilangan qoida va me’yorlarga rioya etmaganlarni, ya’ni o‘z burchlari va majburiyatlarini bajarmaganlarga nisbatan jamoat, davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan jazolovchi choralarning (sanksiyalarning) qo‘llanishidir. *Bunday javobgarlikda 3 asosiy element:*

1) davlat, davlatlararo tashkilotlar yoki jamiyat tomonidan o‘rnatilgan qoida yoki me’yorlarning mavjudligi;

2) qoida yoki qonunbuzarliklar umummajburiy hisoblanishi;

3) jazo choralarining mavjud bo‘lishi talab etiladi.

Ushbu holatdan kelib chiqib, biz ekologik javobgarlikni quyidagicha ta’riflash mumkin – axloqiy qadriyatlar, milliy va xalqaro huquq normalari tomonidan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish maqsadida o‘rnatilgan qoida va me’yorlarning biron-bir davlat, yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan buzilishi oqibatida ularga nisbatan qo‘llaniladigan noqulayliklar.

Ekologik javobgarlik – axloqiy qadriyatlar, milliy va xalqaro huquq normalari tomonidan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish maqsadida o‘rnatilgan qoida va me’yorlarning biron-bir davlat, yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan buzilishi oqibatida ularga nisbatan qo‘llaniladigan noqulay kechinmalar.

Ko‘pgina mualliflar (B. F. Yerofeyev, Yu. G. Jarikov, O. S. Kolbasov, G. S. Bashmakov va boshqalar)[1] ekologik-huquqiy javobgarliklar tarkibidagi maxsus turdagi ekologik-huquqiy javobgarlikni ajratib ko‘rsatadilar. Ularning ta’kidlashlariga ko‘ra, ushbu yuridik xususiyatga ega bo‘lgan javobgarlik intizomiy, ma’muriy, fuqaroviy va jinoiy javobgarliklardan farq qilib, maxsus normativ-huquqiy aktlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, O‘rmon qonunchiligiga binoan, ekologik nuqtayi nazardan, ulardan foydalanishni cheklash, uni to‘xtatib qo‘yish yoki tuproq unumdorligiga yetkazilgan zararni to‘ldirish.

Davlat va huquq nazariyasida yuridik javobgarlik huquqbuzarliklarning to‘rt ko‘rinishiga ko‘ra ajratiladi. Nazariya esa dogma emas, u ham rivojlanadi, takomillasha boradi. Lekin tuproq unumdorligini tiklash fuqaroviy, ya’ni davlat mulkiga yetkazilgan zararni qoplash, o‘rmonlardan foydalanishni cheklash, bekor qilish va to‘xtatib qo‘yish ma’muriy-ekologik boshqaruv talablarini buzish, desak bo‘ladi. Ayniqsa, ta’lim sohasida yuqorida aytib o‘tilgan masalalarni yoritishda juda ehtiyot bo‘lishimiz zarur.

Bizningcha, ekologik javobgarlik mazmun va mohiyatiga ko‘ra, 3 ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin:

1) ekologik-ijtimoiy javobgarlik;

2) ekologik-iqtisodiy javobgarlik;

3) ekologik-huquqiy javobgarlik.

Ekologik-ijtimoiy javobgarlik ijtimoiy javobgarlikning bir turi bo‘lib, u hozirgi zamon milliy yoki xalqaro huquq normalarida belgilanmagan, lekin millat yoki xalqlarning azaliy urf-odatlari, an’analari orqali avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qoida va me’yorlar. Masalan, «Navro‘z» ayyomida tevarak-atrofni tozalash va ko‘kalamzorlashtirish qoidasini inkor etgan shaxslarga nisbatan ma’naviy jazoni qo‘llash odati. Jazo chorasi sifatida unda jamoatchilik tomonidan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan sanksiya – axloqbuzarlarni to‘y yoki ma’rakalarga qo‘shmaslik, qizlarini kelinlikka olmaslik, o‘g‘illariga qizlarini nikohlamaslik, umuman olganda, ularni jamoatchilik nazaridan qoldirish. Bunday jazo Buyuk ingliz adibi V. Shekspirning: «Meni ko‘pchilik nazaridan qoldirganlaridan ko‘ra, qatl qilganlari ma’quldir», degan so‘zlarini yodga soladi.

[1] *А.Н.Нигматов.* Ўзбекистон Республикасининг экология ҳуқуқи. Дарслик. – ТДЮИ нашриёти, 2003.-304 б.

Ekologik-ijtimoiy javobgarlik – *kishilarning jamoatchilik oldidagi ma'naviy javobgarligi.*

Ekologik-iqtisodiy javobgarlik iqtisodiy-huquqiy javobgarlikning bir turi bo'lib, u milliy yoki xalqaro huquq normalarida belgilangan, lekin ularga nisbatan faqatgina javobgarlik sanksiyalari sifatida iqtisodiy to'lov turini qo'llash borasidagi qoida va me'yorlar. Iqtisodiy to'lov esa ekotizim komponentlari tabiiy resurslaridan foydalanish va ekotizimlarni ifloslantirish uchun to'lovlar qo'llaniladi. Bu – aksioma, chunki har bir inson, jamoat va davlatning gumanitar huquqi mavjud bo'lib, u tabiatdan foydalanmasdan va oxir-oqibatda uni ifloslantirmasdan turib yashay olmaydi. Lekin ushbu ifloslantirish yoki iste'mol qilish miqdori, albatta, tabiat qonunlariga bo'ysungan tarzda me'yorlangan bo'lishi kerak. Ushbu ruxsat etilgan me'yorlar – REM (amaliyotda rus tilidagi abbreviaturasi – PDK, PDVX, PDU) kabi abbreviaturalar sifatida ishlatilib, ularning yuqori ko'rsatkichi ekotizimlarning holati yoki ularning qayta tiklanish xususiyatlariga ko'ra turli davlatlarda, hududlarda yoki mintaqalarda tabaqalashgan (differensial) tarzda o'rnatiladi. Masalan, qurilish me'yorlari va qoidalari bo'yicha O'zdavarxitekturaqurilish davlat qo'mitasi tomonidan QMQ 20401-98 raqamli «Binolar va ichki suv quvurlari hamda kanalizatsiyalar» bo'yicha belgilangan miqdorga binoan jon boshiga o'rnatilgan suvdan foydalanishlari mumkin bo'lgan me'yori 103 kub metrni, Toshkent shahar hokimi qarori bilan belgilangan issiq suvdan foydalanish miqdori esa 55 kub metrga teng. O'rnatilgan ushbu me'yorlar doirasida shaxslar uchun soliq imtiyozlari qo'llaniladi va belgilangan tarzda to'lovlar undiriladi. Aksincha, suvdan ruxsat etilgan me'yordan ortiqcha foydalanish shaxslarga hech qanday imtiyozlarni bermaydi va ular Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 50-moddasiga asosan iqtisodiy javobgarlikka tortiladilar. Iqtisodiy javobgarlik tariqasida ulardan qo'shimcha to'lovlar undiriladi.

Ekologik-iqtisodiy javobgarlik – *kishilarning tabiat oldidagi iqtisodiy javobgarligi.*

2000-yil 26-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan va har yili unga o'zgartirishlar (indeksatsiya)

kiritib turiladigan «O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitga chiqariladigan (tashlanadigan) ifloslantiruvchi moddalar chiqarish va chiqindilarni joylashtirish to'lovlarini hisoblash va to'lash tartibi»ga binoan atmosfera havosiga, suv va mahalliy relyefga chiqariladigan chiqitlar miqdori va ularga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy to'lovlar belgilangandir.

Bunday iqtisodiy javobgarlik faqatgina iqtisodiy to'lovni, ya'ni tabiatga keltirilgan ziyonni moliyaviy qoplashni inobatga oladi.

Mazkur javobgarlik kishilarning tabiat oldidagi javobgarligidir.

2. Ekologik-huquqiy javobgarlik

Ekologik-huquqiy javobgarlik ijtimoiy javobgarlikning bir turi bo'lib, u milliy va xalqaro huquq normalarida belgilangan ekologik talablarni buzganlar uchun yuridik tusdagi jazo sanksiyalari o'rnatilgan hamda ekologik munosabat qatnashchilari uchun majburiy kuchga ega bo'lgan qoida va me'yorlardir.

Ekologik-huquqiy javobgarlik – *milliy va xalqaro huquq normalarida belgilangan ekologik talablarni buzganlar uchun yuridik tusdagi jazo sanksiyalari o'rnatilgan hamda ekologik munosabat qatnashchilari uchun majburiy kuchga ega bo'lgan qoida va me'yorlar.*

Ekologik-huquqiy javobgarlik milliy huquqda shaxslarning davlat oldidagi burchi va majburiyatidir.

U davlat tomonidan o'rnatilgan ekologik-huquqiy me'yor va qoidalarni buzganligi natijasida ekologik zarar yetkazilgandan so'ng vujudga keladi. Aniqrog'i, ekotizimlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va buzilganlarini esa qayta tiklashga doir qonun hujjatlarida o'rnatilgan normalarni buzuvchi aybli harakat yoki harakatsizliklar uchun qo'llaniladi.

Ekologik zarar ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

Yuzaga kelgan oqibatlar xarakteriga ko'ra – atrof-muhit, to'g'rirog'i ekotizimlarning yo'q qilinishi, ifloslanishi va buzilishi; tabiiy resurslarning kamayishi va shikastlanishi; ekologik muvozanatning yo'qotilishi va ekologik tizimdagi tabiiy obyektlarning bog'lanish aloqalarining buzilishi.

Obyektlarga yetkazilgan zarari – ekotizim va uning unsurlari; in-

son salomatligi; yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlatga yetkazilgan zarar.

Ekologik huquqbuzarlik aybli ekologik qilmish (ma'muriy, fuqaroviy, intizomiy) va ekologik jinoyat tariqasida tasniflanadi. Shunday qilib, ekologik-huquqiy javobgarlik, boshqa barcha ijtimoiy munosabatlarda bo'lgani kabi, to'rtta yuridik javobgarlik turini inobatga oladi: intizomiy, ma'muriy, fuqaroviy, jinoiy.

Ekologik huquqbuzarliklar obyektiga tabiatni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik tartibot va aholining ekologik xavfsizligiga doir ekologik munosabatlar kiradi.

Ekologik huquqbuzarlik predmeti esa tabiiy muhit yoki uning alohida bir obyekti hamda inson salomatligi bo'lishi mumkin. Bunda inson salomatligiga yetkazilgan zarar atrof-muhitning yomonlashuvi orqali yuzaga keladi, ya'ni bilvosita ta'sir qilishi inobatga olinadi.

Ekologik huquqbuzarlarga yuridik javobgarlikni qo'llash uchun to'rt *javobgarlik elementi* bo'lishi kerak, ya'ni:

1. *Ekologik huquqbuzarlik obyekti* – kishilarning aybli noqonuniy harakati yoki harakatsizligi tabiiy obyekt, tabiiy resurs, tabiiy kompleks yoki tabiiy-antropogen hududlarning ekologik talablariga qaratilganligi.

2. *Ekologik huquqbuzarlikning obyektiv tomoni* – kishilar xatti-harakatlarining noqonuniyligi, ekologik zarar yetkazilganligi yoki yetkazish xavfining borligi.

3. *Ekologik huquqbuzarlik subyekti* – noqonuniy xatti-harakatlarning kim tomonidan sodir etilganligi. Ular yuridik shaxs (korxona, tashkilot, muassasa, firma, jamiyat...) yoki jismoniy shaxs (fuqaro, fuqaroligi bo'lmagan shaxs, chet el fuqarosi, rahbar) lar bo'lishi mumkin.

4. *Ekologik huquqbuzarlikning subyektiv tomoni* – noqonuniy xatti-harakat qilgan shaxsning aybi. Ushbu aybning qasddan yoki ehtiyotsizliklar orqali sodir etilishi.

Ekologik javobgarlikda huquqbuzarlarga nisbatan, odatda, yuridik jazolar qo'llaniladi. Jazo turlari ham, albatta, qonunlarda aks ettirilgan bo'lishi shart. Aks holda u yuridik tus olmaydi. Xohlagan shaxs yoki davlat organi qonunda belgilangan xohlagan jazo turini qo'llashga ham haqli emas. Ularning vakolat doirasi (chegarasi) belgilanib qo'yilgandir.

Ekologik qonunchilikda, xususan, Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 47-moddasiga ko'ra quyidagi huquqbuzarliklar ekologik tusdagi huquqbuzarliklar toifasiga kiradi:

- tabiatni muhofaza qilishning standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-texnik talablarini buzish, shu jumladan, korxonalar, inshootlar, transport vositalari va boshqa obyektlarni rejalashtirish, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish yoki ularni tugatish chog'ida, ekologiya nuqtayi nazaridan xavfli mahsulotlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan olib kelishda hududning belgilab qo'yilgan ekologiya sig'imini, ekologiya normalari, qoidalarini buzish;
- tabiiy boyliklardan o'zboshimchalik bilan foydalanish, davlat ekologiya ekspertizasi talablarini bajarmaslik;
- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun, atrof tabiiy muhitga zararli moddalar chiqarganlik va oqizganlik, qattiq chiqindilar joylashtirganlik, bu muhitni ifloslantirganlik va unga zararli ta'sir ko'rsatishning boshqa turlari uchun belgilangan haqni to'lashdan bosh tortish;
- tabiatni muhofaza qilish obyektlarini qurish rejalarini, tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa tadbirlarni bajarmaslik;
- atrof tabiiy muhitni tiklash, unga bo'ladigan zararli ta'sir oqibatlarini bartaraf etish va tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish choralarini ko'rmaslik;
- tabiatni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirayotgan idoralarning ko'rsatmalarini bajarmaslik;
- alohida muhofaza qilinadigan hududlar va obyektlarning huquqiy tartibotini buzish;
- atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirni hisobga olish qoidalarini buzish;
- ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini, kimyolashtirish vositalarini, shuningdek, radioaktiv va zararli kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, ulardan foydalanish, ularni zararsizlantirish va ko'mib yuborish vaqtida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning obyektlarga borishiga, ayrim shaxslar va tabiatni muhofaza qilish jamoat tashkilotlariga esa o'z huquq va vazifalarini ro'yobga chiqarishlariga to'sqinlik qilish;
- atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslaridan foydalanish to'g'risida o'z vaqtida va to'g'ri axborot berishdan bosh tortishda aybdor bo'lgan shaxslar.

3. Ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarliklarni qo‘llash asoslari

Shunday qilib, yuqorida sanab o‘tilgan ekologik huquqbuzarliklar uchun to‘rtta yuridik javobgarlik turi qo‘llaniladi: intizomiy, ma’muriy, fuqaroviy va jinoiy.

Intizomiy ekologik javobgarlik – *mehnat munosabatlari yuzaga kelgan korxona, tashkilot va muassasalarda shaxsning o‘z xizmat doirasida noqonuniy xatti-harakatlari tufayli ekotizim va uning komponentlariga zarar yetkazish yoki unga zarar yetkazish xavfini tug‘dirish orqali kelib chiqadigan yuridik tusdagi salbiy oqibatlar.*

Intizomiy javobgarlikda qachonki xodimning vazifasiga tabiiy resurslardan foydalanish yoki uni muhofaza qilish majburiyati yuklatilgan bo‘lsagina, jazo turi ish beruvchi tomonidan xodimga nisbatan qo‘llaniladi. Aks holda u boshqa turdagi, ya’ni ma’muriy, fuqaroviy, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Intizomiy jazoni Mehnat qonunchiligi (Mehnat kodeksining 181-moddasida ko‘zda tutilgan jazo turlari) bo‘yicha amalga oshiriladi. Ekologik huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan quyidagi intizomiy jazo qo‘llaniladi:

– yozma ravishda hayfsan berish;

– o‘rtacha oylik ish haqining *30%,* ayrim hollarda *50%* dan ortiq bo‘lmagan miqdorida jarima solish;

– mehnat shartnomasini bekor qilish, ya’ni ishdan bo‘shatish.

Intizomiy jazo bir yilgacha bo‘lgan muddatda amal qiladi va shu davrda xodimga rag‘batlantirish metodlari qo‘llanilmaydi.

Mehnat qonunchiligini buzgan shaxs atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplashi kerak bo‘ladi. Agarda zarar yuridik shaxs tomonidan yetkazilgan bo‘lsa, zararni yuridik shaxs qoplaydi va u o‘z xodimini moddiy javobgarlikka tortishi mumkin. Moddiy javobgarlik mulkiy javobgarlik emas, chunki unda undiriladigan zararning miqdori belgilanishi va zararning faqat xodimning mehnat munosabatlari natijasida vujudga kelishi bilan farq qiladi. Xodimlarning ish beruvchi tomonidan atrof-muhitga yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasi maxsus komissiyalar tomonidan ko‘rib chiqiladi va uning miqdori aniqlanadi. Ushbu miqdorga qarab moddiy javobgarlik ish beruvchi, yoki sud qarori asosida undirib olinadi.

Ma’muriy javobgarlik ekologik javobgarlikda eng ko‘p qo‘llaniladigan yuridik javobgarlik turi hisoblanadi. U davlat (ma’muriy boshqaruv organlari) tomonidan o‘rnatilgan ekologik tartib-qoidalarni buzganlik uchun qo‘llaniladi.

Ma’muriy ekologik javobgarlik – *davlatning ekologik munosabatlarini tartibga solishdagi ma’muriy boshqaruv qoidalarini buzganligi, ya’ni ekotizim va uning komponentlari holatiga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy (huquqqa qarshi), aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizliklar orqali kelib chiqadigan yuridik tusdagi salbiy oqibatlar.*

Ma’muriy javobgarlik 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan va keyinchalik unga bir qator o‘zgartirishlar kiritilgan «Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida»gi kodeksda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ma’muriy jazo ma’muriyat tomonidan mansabdor shaxsga alohida va fuqarolarga alohida jazo sanksiyalarini belgilaydi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning maxsus VIII bobida 32 xil turdagi tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishga doir huquqbuzarliklar (ushbu moddalarda ekologiya huquqi obyektlari yangi takomillashgan obyektlar nuqtayi nazardan qaralmagan) uchun ma’muriy jazo belgilangan. Ekologik-huquqiy munosabat obyektlariga qarab, ushbu *ma’muriy huquqbuzarliklarni tasniflash mumkin (8.3.1-rasm)*:

Afsuski, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda o‘simlik dunyosiga oid ma’muriy huquqbuzarliklar uchun alohida bir ma’muriy jazo sanksiyasi o‘rnatilmagan. Garchand, 1997-yilda qabul qilingan O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonunda o‘simlik dunyosi alohida bir Ekologiya huquqining obyekti qilib olingan va u ham davlatning ekologik xavfsizlik tizimini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Chotqol, Turkiston va Forish tog‘ tizmalaridagi yaylovlarda 2012-yil kuchli jala yomg‘irlarning yog‘ishi natijasida o‘simlik dunyosining yuvilib ketishi va abiotik omillar ta’sirida yo‘q qilinishi kuchli sel ketishiga sabab bo‘lgan. Natijada, So‘qoqsoy, Sanzar va Boshqizilsoy kabi daryolarning suvi loyqalanib, dambalarni to‘ldirib yuborgan. Xalq xo‘jaligiga katta moddiy zarar yetkazilgan va atrof tabiiy muhit holatiga putur etgan. Bu esa ushbu

hududlarda ma'muriy boshqaruvning noto'g'ri tashkil etilganligi natijasida yuzaga kelgan, deya e'tirof etilgan.



8.3.1-rasm. **O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik tog'risidagi kodeksidagi ekologik huquqbuzarliklar tasnifi.**

Ekologik huquqbuzarlarga nisbatan ma'muriy jazo sanksiyasining asosan jarima turi (eng kam oylik ish haqining 1/3 qismidan besh barobarigacha – mansabdor shaxslarga, bir barobaridan yetti barobarigacha – fuqarolarga) qo'llaniladi. Faqatgina Kodeksning 90, 94-moddalaridagina maxsus huquqdan mahrum etish va ov qurolini olib qo'yish jazosini qo'llash nazarda tutilgan.

Fuqaroviy javobgarlik. Bozor iqtisodiyoti va demokratik davlat qurilishi O'zbekistonda fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning rolini asta-sekin oshirib bormoqda. Fuqaroviy yoki mulkiy va shaxsiy nomulkiy xarakterga ega bo'lgan javobgarlik Fuqarolik kodeksida quyidagi ekologik huquqbuzarlikka oid holatlarni inobatga oladi. Avvalambor, Fuqarolik kodeksining 116-moddasiga muvofiq, agarda bitimlar ekologik qonun talablariga javob bermasa, ular o'z-o'zidan haqiqiy emas, deb topiladi. Masalan, mulkdor yoki yerdan foydalanuvchi o'z yer uchastkasini noekologik maqsadlarda ijaraga berishi, ijara shartnomasini bekor qilishga va yerga yetkazilgan zararni Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 51-moddasiga ko'ra qoplashga majburdir.

Fuqaroviy ekologik javobgarlik – *ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni qonuniy tartibga solishda yuzaga keladigan huquqbuzarliklar orqali kelib chiqadigan yuridik tusdagi salbiy oqibatlar.*

Mulkiy javobgarlikda asosiy o'rinni shartnomalarda aks etmagan faoliyatni olib borish natijasida tabiatga zarar yetkazish egallaydi. Ushbu zarar natura yoki pul bilan to'liq hajmda, Fuqarolik kodeksi 985-moddasiga muvofiq, qoplanishi lozim. Lekin tabiatga, ya'ni davlat va shaxslarning mulkiga yetkazilgan zararni aniq hisoblash qiyin. Bunday holatda taksalar bo'yicha javobgarlik yuzaga keladi. *Taksa* – mol-mulkka belgilangan aniq narx, ya'ni zararni qoplash bo'yicha o'rnatilgan har bir mol-mulk yoki xizmatga belgilangan narx-navo. 1995-yil 27-iyuldagi Vazirlar Mahkamasining 293-sonli «O'simlik dunyosiga yetkazilgan zararni undirib olish taksalarini hisoblashni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori asosida jismoniy va yuridik shaxslardan o'simlik dunyosiga yetkazilgan mulkiy zarar undirib olinadi.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar oxir-oqibatda insonlar-

ning mulki bilan bir qatorda shaxsiy nomulkiy xarakterga ega bo‘ladi, ya’ni salomatligiga ham ziyon keltirishi mumkin. Shuning uchun ham Fuqarolik kodeksida jismoniy va yuridik shaxslarning toza atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi ham inobatga olingan.

Jinoiy javobgarlik. Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) uchun jazo qo‘llash tahdidi jinoyat deb topiladi. Jinoyat kodeksi *bilan qo‘riqlanadigan obyektlar, jumladan, ekologik munosabat obyektlariga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli deb topiladi* (JK, 14-m).

JKning IV bo‘lim XIV bobining 12 ta moddasi ekologik sohadagi jinoyatlar deya e’tirof etiladi (8.3.2-rasm).



8.3.2-rasm. **O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi ekologik sohadagi jinoyatlar.**

2001-yil 18-oktabrda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Fuqarolik-protsessual kodekslari qayta ko‘rib chiqildi. Ularga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi. Jinoyat kodeksida ekologik huquqbuzarliklar uchun iqtisodiy jazo

sanksiyalari kuchaytirildi. Umuman olganda, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar eng ko‘p uchraydigan, lekin eng kam javobgarlikka tortiladigan javobgarliklar toifasiga kiradi.

Jinoiy javobgarliklar o‘z xususiyatiga va ijtimoiy xavfliligiga ko‘ra: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarga bo‘linadi. Ekologik javobgarlik esa afsuski, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga kiritilgan. Lekin atrof tabiiy muhitning ifloslanishi jamoa, davlat va shaxsning xavfsizligini belgilovchi omil hisoblanadi. Shuning uchun ham ayrim ekologik jinoyatlarni og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Jinoiy ekologik javobgarlik – *ekologik munosabat obyektlariga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazishning real xavfini keltirib chiqaradigan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) huquqbuzarliklar orqali kelib chiqadigan yuridik tusdagi salbiy oqibatlar.*

Ekologiya sohasida jinoyatchilarga nisbatan Jinoyat kodeksining 43-moddasida belgilangan 8 jazo turidan 5 turi qo‘llaniladi: *jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, qamoq va ozodlikdan mahrum qilish.* Ekologik jinoyatlar uchun xizmat bo‘yicha cheklash, intizomiy qismga jo‘natish va o‘lim jazolari qo‘llanilmaydi.

Jinoiy jazo turi va uning og‘irligi ijtimoiy xavfli qilmishning qaysi bir tabiiy obyektga qaratilganligi, tirik organizmlar hamda insonlarning hayoti va muhitiga ta’sir etganlik darajasi, zararning miqdori va ko‘lami, kim tomonidan amalga oshirilganligi, qasddan yoki ehtiyotsizliklar orqali sodir etilganligi, xizmat mavqeyidan foydalanganligi, uyushgan jinoyat ekanligi, texnik yoki boshqa vositalardan foydalanganligiga qarab o‘rnatiladi.

Jarima – aybdordan davlat hisobiga pul undirish ekologiya sohasidagi jinoyatda eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha (JKning 198, 202, 204-moddalari); ellik baravaridan to yuz baravarigacha (197, 199, 200–204-moddalar); yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha (193–196-moddalar bo‘yicha) bo‘lgan miqdorda qo‘llaniladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish – aybdorning ma’lum bir muddatga korxona, muassasa yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashdan yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanishini taqiqlashdan

iborat. Ushbu jazo Jinoyat kodeksining 197–198, 202–203-moddalari bo‘yicha qo‘llanilmaydi. Muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorning mansabi yoki ish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, asosiy jazo sifatida qo‘llanilsa, bir yildan besh yilgacha muddatlarni (194–196, 199–201, 204-moddalar), agarda qo‘shimcha jazo tariqasida tayinlansa, bir yildan uch yilgacha (193-modda) bo‘lgan muddatlarni o‘z ichiga oladi.

Axloq tuzatish ishlari – shaxs ish haqining 10 % idan 30 % igachasini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda, aybdorni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo‘lib, jazoni o‘z ish joyida yoki nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o‘tash.

Ekologik tusdagi jinoyatlar uchun axloq tuzatish ishlari uning hamma moddalari bo‘yicha qo‘llaniladi. Lekin jazo muddati barcha ekologik sohadagi moddalar bo‘yicha uch yilgacha belgilanadi va Jinoyat kodeksining 46-moddasida ko‘rsatilgan tarzda amalga oshiriladi.

Qamoq jazosi – shaxsni batamom jamiyatdan ajratgan sharoit ostida saqlash. Ekologik huquqbuzarliklar uchun qamoq jazosi Jinoyat kodeksining 194–196, 198, 202–204-moddalari bo‘yicha bir oydan olti oygacha bo‘lgan muddatga belgilanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish – mahkumni jamiyatdan ajratgan holda jazoni ijro etish koloniyasi yoki qamoqqa joylashtirish. Ekologik huquqbuzarliklar uchun ozodlikdan mahrum qilish 204-moddadan tashqari Jinoyat kodeksining barcha moddalarida qo‘llaniladi. Uning muddati jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab besh yilgacha bo‘lishi mumkin.

Jinoiy jazo faqatgina sud hukmi bilan ado etiladi. Jinoyat kodeksining 198 va 202-moddalari bo‘yicha, agarda huquqbuzar shaxs tabiat va u orqali insonlarga yetkazilgan *moddiy zararni uch karra miqdorida qoplaydigan bo‘lsa,* aybdorga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

Jinoiy jazoga tortilishning umumiy e’tirof etilgan qoidalariga alohida to‘xtalib o‘tmasdan, biz e’tiborimizni aynan ekologik jinoyatlarga qaratdik. Ekologiya sohasida jinoyatlarning mazmuniga ko‘ra, ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Ekologiya xavfsizligi talablarini buzuvchilarga belgilangan jazolar (JKning 193–196, 199–201-moddalarida aks ettirilgan).

2. Alohida bir tabiiy obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish talablarini buzganlar uchun belgilangan jazolar (JKning 197, 198, 202, 203, 204-moddalarida keltirilgan).

Hayotiy tajriba tariqasida shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, aholining e*kologik madaniyati, ongi va bilimini oshirishda hamda ekologik qonun talablariga rioya qilganlarga nisbatan rag‘batlantirish metodlarini qo‘llash huquqbuzarlikning kamayishi, intizomiy, ma’muriy, fuqaroviy va jinoiy jazoni kamroq qo‘llashga olib kelishi mumkin.* Yuridik tusdagi jazo, albatta, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Lekin u aholining ekologik ongi, madaniyati va ta’limiga ijobiy ta’sir etmasligi ham mumkin. Chunki hech bir huquqbuzar, aksariyat hollarda, o‘z aybiga iqror bo‘lmaydi va o‘zining xatti-harakatini to‘g‘ri deb biladi. Buyuk amerikalik psixolog *Deyl Karnegi: «Rag‘batlantirilgan kishilarninggina xatti-harakatlarini oldindan aytib berish mumkin»,* – deya xulosa qilganligi bejiz emas.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarni umumlashtirib, shuni alohida ta’kidlash joizki, ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishda, avvalambor, «Jazo kodekslari»ni emas, balki «RAG‘BATLANTIRUVCHI KODEKS»lar va ularning intizomiy, ma’muriy, fuqaroviy va jinoiy jazo yo‘nalishlarini yaratgan ma’quldir.

Ekologik-huquqiy rag‘batlantirish – *ekologik qonunchilik qoida va talablarini doimiy ravishda bajarib kelayotgan yoki katta miqdordagi ekologik zararning kelib chiqishining oldini olish borasida ekologiya huquqi subyektlari uchun davlat va uning vakolatlangan organlari tomonidan qo‘llaniladigan yuridik tusdagi ijobiy oqibatlar.*

Xulosa qilib, ushbu aksiomani shior tarzida keltirish mumkin. «Tabiat ustidan qozonilgan g‘alaba – inson falokatidir». Ushbu oddiy haqiqat kishilarni tabiat in’omlaridan o‘ta oqilona va samarali foydalanishlarini talab etadi. Chunki ona tabiat bizning yashayotgan uyimiz, uni obod qilish va asrash har birimizning ham ma’naviy, ham ma’rifiy, ham konstitutsiyaviy burchimizdir. Burch esa ma’lum darajada javobgarlikni keltirib chiqaradi. Javobgarlik, o‘z navbatida, u xoh qonun normalarida, xoh axloq me’yorlarida belgilanmasin, baribir, ekologik inqiroz va falokatning oldini olishga qaratilgandir. O‘zligimizni anglash, milliy davlat va mustaqil diyorda yashash bizlarga nasib etgan

ekan, inson – jamiyat – davlat oldidagi javobgarlikni his etishimiz kerak, uning samaradorligini oshirish esa davr talabidir.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Javobgarlik nima?
2. Ekologik javobgarliklarni tasniflang!
3. Ekologik-huquqiy javobgarlik qolgan yuridik javobgarliklardan nimasi bilan farq qilishini guruhlarga bo‘linib yozib chiqing va uni muhokama qiling.
4. Moddiy javobgarlik bilan mulkiy javobgarlik bir xilmi?
5. Ekologiya sohasida intizomiy javobgarlik qanday holatlarda qo‘llaniladi?
6. Atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun qanday ma’muriy jazo qo‘llash ko‘zda tutilgan?
7. Ma’muriy tusdagi ekologik-huquqbuzarliklarni tasniflang.
8. Tabiatga yetkazilgan zarar qanday qoplanadi?
9. Ekologiya sohasidagi jinoiy javobgarlik deganda nimani tushunamiz?
10. Ekologik jinoyatlar uchun qanday va qay miqdorda jinoiy jazo qo‘llaniladi?
11. Ekologik huquqbuzarliklarni kamaytirish uchun kelajakda nimalar qilish kerak?
12. Nima uchun davlat va jamiyatga «Rag‘batlantiruvchi Kodeks» kerakligini isbotlovchi ilmiy dalillarni to‘plang va uni ekologik nuqtayi nazardan amalga oshrish mexanizmini o‘ylab toping.

Ekologik-iqtisodiy-ijtimoiy-huquqiy muammolar yagona bir zanjirda turadi, ularni alohida-alohida hal etib bo‘lmaydi.

ALOHIDA QISM

IX bob. YERLARNI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. Yer muammolari va ularni yechish yo‘llari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2002-yil 14-fevral Vazirlar Mahkamasining «2001-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va iqtisodiy islohotlarning borishi to‘g‘risida» qilgan ma’ruzasida shunday deyiladi: «*Shu narsa barchamizga ma’lum bo‘lishi kerakki, mamlakatimiz aholisi asosiy qismining daromadi va farovonligi mana shu yerdan samarali foydalana olishimizga, uning hosildorligini qay darajada saqlab turishimizga bog‘liq ekanini anglagan holda, bu muammo naqadar muhim ekanini tushunishimiz qiyin emas, deb o‘ylayman. So‘nggi paytlarda o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasida yerdan foydalanish masalasida to-qat qilib bo‘lmaydigan xo‘jasizlik faktlari, yer haqidagi qonunchilikni qo‘pol ravishda buzish holatlari aniqlandi*».[1]

Boshqa tabiiy boyliklar singari yer ham Allohning bizlarga tortiq qilgan buyuk ne’matidir. Yer insonlarning nafaqat yashash makoni va ishlab chiqarish vositasi, u milliy xavfsizlikni va inson hayotini belgilab beruvchi omil hamdir. U bizni to‘ydiradi, boqadi va faoliyatimiz uchun zarur bo‘lgan tabiiy xomashyoni taqdim qiladi. Yer ekologik tizimdagi tabiiy unsurlarning ajralmas bo‘lagidir. Usiz tabiatda na modda va na energiya almashuvining zanjirsimon, aylanma harakati amalga oshadi.

Yer muammolari (nazariy va amaliy jihatdan hal qilinmagan yer masalalari) juda xilma-xil va ko‘lami ham kengdir (9.1.1-jadval). Ushbu masalalarni yechishning turli xil metodlari va yo‘llari mavjud.

[1] *И.Каримов.* Иқтисодий эркинлаштириш, ресурслардан тежамкорлик билан фойдаланиш – бош йўлимиз. – Халқ сўзи. 2002 й. 15 февраль.

9.1.1-jadval.

Yer muammolari, ularni yechish yo‘llari va huquqiy choralari.

YER MUAMMOLARI	YECHIMI	HUQUQIY CHORALARI
Noqishloq xo‘jaligi uchun unumdor yerlarning ajratilishi	Ilmiy asoslangan yer tuzish ishlari, shahar va sanoat qurilishini intensifikatsiyalash va h.k.	Yerlardan oqilona va maqsadli foydalanish uchun javobgarlik normalarini kuchaytirish
Yerlarning texnogen buzilishi	Buzilgan yerlarni texnik, biologik, kimyoviy rekultivatsiyalash va h.k.	Yerlarni rekultevatsiya qilishning huquqiy mexanizmini yaratish va h.k.
Cho‘llanish jarayoni-dagi maydonlarning kengayishi	Tez o‘zgaruvchan dinamik dehqonchilik tizimini yaratish va h.k.	Yerlarni muhofazalash va ulardan foydalanishni, davlat monitoringi va nazoratini kuchaytirish va h.k.
Yerlarning ifloslanishi	Dehqonchilik madaniyati, biologik metodlarni keng qo‘llash va h.k.	Keng qamrovli yer ekspertizasini tashkil etish va h.k.
Suv va shamol eroziyasi	Texnik rekonstruksiyalash, tubdan melioratsiya qilish va h.k.	Sho‘rlangan yerlar melioratsiyasiga doir rag‘batlantirish normalarini joriy qilish va h.k.
Tuproqda chirindi miqdorining kamayishi	Tuproq-suv muhofazali dehqonchilik, o‘rmon-gidro-agro-melioratsiyasi va h.k.	Tuproq eroziyasiga doir mazsus farmon va qarorlarni qabul qilish va h.k.
Degumifikatsid va tuproq tuzilishining buzilishi	Almashlab ekish, organik o‘g‘itlarni ishlatish va h.k.	Jamoat va davlat monitoringi va nazo-ratiga doir normalarni kuchaytirish va h.k.
Tuproq qatlamining zichlanishi	Q/x ishlab chiqarishini qayta texnik jihozlash, minimal ishlov berish va h.k.	Q/x ishlab chiqarish va unga chet el invis-titsiyasining kirib keli-shiga imkon beruvchi imtiyozli huquqiy bazani yaritish va h.k.
Yerlarning botqoqlanishi	Suv berishni me’yorlash, texnik rekonstruksiyalash va h.k.	Suv qonunchiligini buzgani uchun yuri-dik javobgarlikni kuchaytirish va h.k.

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini o‘rnatayotgan O‘zbekis-tonda yerga oid munosabatlarni huquqiy va ayniqsa, ekologik-huquq-iy tartibga solish ayni muddaodir (9.1.1-rasm).



9.1.1-rasm. **Yerlarni muhofaza qilish tadbirlari va turli yo‘llari .**

Yer tuproq tushunchasining sinonimi, lekin aynan o‘zi emas. Chunki yer yuzasi nafaqat tuproqlardan, balki o‘simlik bilan qo*planma*gan qumli, toshli, sho‘rxok, toshloq kabi sof mineral jinslardan ham iborat bo‘lishi mumkin. Uning inson faoliyatida turli xil maqsadlarda ishlatilishi turlicha ma’no kasb etishga olib kelgan.

Ekologik-huquqiy munosabat nuqtayi nazaridan yerni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, qayta tiklash, qayta ishlab chiqarish va oqilona foydalanish obyektidir.

Yer tushunchasi: «yer» huquqda – *mulk obyekti; «yer» qishloq xo‘jaligida – tuproq qatlami; «Yer» astranomiyada – planeta, «yer» geografiyada – quruqlik yuzasi, «yer» ekologiyada – ekotizim komponenti (unsuri), «yer» iqtisodda – xo‘jalik yuritish obyekti...*

Ekologiya huquqida «Yer huquqi»dan – yerlarni yer fondi yoki yer uchastkalariga ajratgan tarzda iqtisodiy xarakterdagi munosabatlardan, «Qishloq xo‘jaligi huquqi»dagi – faqatgina qishloq xo‘jalik tovar mahsuloti ishlab chiqarish munosabatlaridan, «Fuqarolik huquqi»dagi – mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlardan farqli ravishda aynan ekologik nuqtayi nazardan, ya’ni ekotizmning ajralmas bo‘lagi sifatida huquqiy jihatdan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni maqsad qilib qo‘yadi. Lekin bu maqsadga Ekologiya huquqida yer, agrar, fuqarolik huquqiy munosabatlari bilan bog‘liq holda ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishni amalga oshiradi. Shuning uchun ham Yer kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi kabi qonunlar uning ham manbalari turkumiga kiradi.

Ekologiya huquqida «yer» – *ekotizimlar doirasidagi huquqiy (komponenti sifatidagi) munosabatlarning mustaqil mulk obyekti.*

Yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining maqsadi – yerni umummilliy boylik sifatida O‘zbekiston xalqi hayoti, farovonligi va faoliyatining asosi sifatida undan oqilona foydalanish bilan bir qatorda muhofaza qilishni ta’minlashdir.

1998-yil 30-apreldagi Yer kodeksining 1-moddasidan kelib chiqqan holda, davlat – jamoat – shaxs yerga oid qonun hujjatlarida qo‘yilgan talablarga erishish maqsadida, quyidagi ekologik-huquqiy vazifalarni bajarishlari kerak bo‘ladi:

– yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish;
– tuproq unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish;
– yerni tabiiy muhit elementi sifatida asrash va yaxshilash.

Yer huquqidan farqli Ekologiya huquqi prinsiplari mazkur darslikning umumiy qismida berilgan bo‘lib, ular yerga ham tegishlidir. Yer kodeksining 2-moddasida ifoda etilgan yer – huquqiy prinsiplar asosiy qoida emas, balki vazifa sifatida aks ettirilgan va u tahrirga muhtojdir.

Yerga oid qanday ekologik muammolar bor va ular huquqiy jihatdan qanday qilib hal qilinmoqda, degan o‘rinli savol tug‘iladi. O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish milliy harakat rejasi (AMMQMHR) 1998-yilda Jahon taraqqiyot bankiga moliyaviy ko‘mak so‘rab ishlab chiqilgan va unda asosiy ekologik muammolar hamda ularning ko‘lami ko‘rsatilgan. AMMQMHR-da yer bilan bog‘liq bo‘lgan ekologik muammolar faqatgina tuproq sho‘rlanishi va degradatsiyasi bilan cheklangan. Bizning fikrimizcha, yerlarni ekologik-huquqiy jihatdan muhofaza qilishda asosiy e’tiborni quyidagi muammolarni hal qilishga qaratmoq lozim:

1) unumdorlik xususiyatiga ega bo‘lgan tuproq qatlamini saqlab qolish va uni qayta ishlab chiqarishga jalb etish;

2) yer toifalarini ajratish va ularning birini ikkinchisiga o‘tkazishda yer kadastri ma’lumotlariga tayangan holda amalga oshirish;

3) tuproq degradatsiyasi (unumdorligining pasayishi)ga olib keluvchi tabiiy-atropogen jarayonlar (sho‘rlanish, eroziyaga uchrash, botqoqlanish, ifloslanish, qattiqlashish) va hodisalar (sel ketish, o‘pqonlashish, surilish, suv toshish, yong‘in ketish...)ning oldini olish choralarini ko‘rish;

4) yerlarning asossiz ravishda texnogen buzilishi (yo‘l qurish, tog‘-kon sanoati ishlarini ekstensiv holda olib borish, qurilish kabi xo‘jalik faoliyatida)ga yo‘l qo‘ymaslik;

5) yerlarni melioratsiya va rekultivatsiya qilishni keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yish;

6) yer qonunchiligini ekologiyalashtirish;

7) yerga oid ekologik munosabatlarning prioritet (birlamchi) me’yorlarini hamma qonunchilik tizimida belgilab olish;

8) davlat boshqaruvi bilan bir qatorda jamoat, nodavlat va xalqaro boshqaruv tizimini yaratish;

9) yer qonunchiligi normalarini buzuvchilarga nisbatan yuridik, iqtisodiy va ma'naviy tusdagi javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash;

10) bozor infrastrukturasi va mulkchilikning turli ko'rinishlarini yerga oid ekologik munosabatlarda ham keng joriy qilish.

Albatta, mustaqillik davrida qabul qilingan qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlarda bu muammolarni hal qilishning yuridik asosi yaratilgan. Lekin ular yer muhofazasini to'lig'icha ta'minlab berayapti, deb aytolmaymiz. Chunki O'zbekistonda sho'rlanish, eroziyaga uchrash, tuproq zichlanishi va ifloslanishi kabi jarayonlar hanuzgacha davom etmoqda.

2. Yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilishning umumiy qoidalari

Yerga oid munosabatlar nafaqat yer qonunchiligi (Yer kodeksi, 3-modda), balki ekologik qonunchilik (Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun, 17-modda) asosida ham tartibga solinadi. Modda va energiya almashinuvi hamda organizmlarning ozuqa zanjirida tuproqning o'rni beqiyosligini inobatga olgan holda, «*Tuproq unumdorligi to'g'risida» alohida qonun qabul qilish* va *uni Konstitutsiyamizning 55-moddasiga asosan alohida bir tabiiy obyekt sifatida e'tirof etish lozim*.[1]

Yer munosabatlarini tartibga solishda Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari Yer kodeksining 4–7-moddalarida aks ettirilgan. Ammo qolgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining yerga oid vakolatlari yer qonunchiligida to'liq berilmagan.

Yer qonunchiligida yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni huquqiy ta'minlash yo'llari 9.2.1-rasmda ko'rsatilgan. Yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish, avvalambor, ularning son, sifat va miqdor ko'rsatkichlari hamda aholining yerga bo'lgan talabini qondirish nuqtayi nazaridan toifalarga ajratishdan boshlanadi. Yer kodeksining 2-bobi yer fondi toifalarini ushbu ko'rsatkichlarga ko'ra 8 qismga ajratib beradi. Unda to'rtinchi toifa – tabiatni muhofaza qilish,

[1] *Турапов И., Нигматов А., Гафурова Л., Баиров А.* Предлагаем принять! О необходимости принятия закона РУз "О плодородии почв" Ж. Экологический вестник Узбекистана, № 1, 1998. – 11-б.



9.2.1-rasm. **Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni huquqiy ta'minlash yo'llari.**

sog'lomlashtirish, rekratsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar alohida ajratib olingan. Yer toifalarining birini ikkinchisiga o'tkazish, uning qimmatiga hamda davlat va jamiyat uchun ahamiyatlilik darajasiga qarab boshqarish markaziy va mahalliy davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Har bir toifa uning kadastr ko'rsatkichlariga qarab, yer uchastkalarini egallash, foydalanish va mulkchilik qilish maqsadida bo'lib beriladi.

Yer fondi va yer uchastkalari ajratilgandan so'ng, ularda yer tuzish ishlari olib boriladi. Yer tuzish (Yer kodeksining 12-moddasiga ko'ra) – yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, qulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaftlarni yaxshilashga, yer tuzishning hududiy va ichki xo'jalik rejalarini tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Yer tuzish ishlari 1999-yil 11-noyabrda tasdiqlangan «Asosiy Nizom»ga muvofiq olib boriladi. Yer tuzish ishlari davlat yer kadastri (Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonun) va yer monitoringini (Yer kodeksi, 14-modda) olib borishga asos bo'la oladi.

Yer tuzish, kadastrini yuritish va monitoringini olib borish jismoniy va yuridik shaxslarning Yer kodeksining 16-moddasida aks ettirilgan yerga nisbatan bo‘lgan huquqlarini aslo inkor etmaydi. Faqatgina egallovchi yoki foydalanuvchilarning majburiyatlarini ham aniqlashtiradi. Unga binoan har bir shaxs yer uchastkasidan mulk huquqi, umrbod egalik qilish va meros qilib qoldirish, doimiy, muddatli yoki birgalikda foydalanar ekan, ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan yerga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdir (O‘zR Konstitutsiyasi 50-moddasiga binoan). Bunday ekologik talab yer uchastkasini realizatsiya qilish (egalik qilish va foydalanish uchun berish), ijara (shartnoma asosida haq evaziga muddatli egalik qilish va foydalanishga berish), qidiruv ishlari (gekologik suratga olish va qidirish, geodeziya va shu kabilar), imorat qurish, yakka tartibda uy-joy qurish hamda uni obodonlashtirishda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart.

Yerlardan oqilona va samarali foydalanish, unga yetkazilgan antropogen zararni qoplash, tuproq unumdorligini ko‘tarish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida yerdan maxsus foydalanganlik uchun to‘lovlar undirib olinadi. *Yer to‘lovi* yuridik va jismoniy shaxslar uchun alohida yer solig‘i yoki ijara haqi sifatida undirib olinadi. Yer solig‘i stavkalari (Soliq kodeksining 96–98-moddalariga binoan) yer uchastkasining sifati, joylashgan manzili va suv bilan ta’minlanganlik darajasiga qarab belgilanadi.

Yer uchastkasini saqlashda ekologik talablar Yer kodeksining 29-moddasida bayon etilgan. Ularga: yer uchastkasidan foydalanish maqsadini o‘zgartirmaslik, yer unumdorligini saqlash va oshirish; irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini soz holatda saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirish; tabiatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish yoki muayyan ishlarni bajarish, shu jumladan, tuproq qatlami, noyob o‘simliklarni, tabiat yodgorliklarini asrash. Ushbu ekologik talablar yer uchastkasining huquqiy maqomiga kiritiladi va tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlanadi.

O‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut)da ham foydalanuvchilar ihota daraxtlarini ekish va tabiatni muhofaza qilishga taalluqli boshqa obyektlarni barpo etishga ruxsat beriladi.

Yer kodeksining 36-moddasiga binoan jismoniy va yuridik shaxslarning yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlari ushbu moddaning 7-bandi – yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda (uch yil davomida kadastr bahosidan kam hosildorlikka yerishilganda), 8-bandi – tuproq unumdorligi pasayishiga, uning kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan metodlar bilan foydalanilgan taqdirda bekor qilinadi yoki tegishli davlat organining taqdimnomasiga binoan olib qo‘yiladi.

Davlat va jamoatning ekologik xavfsizligini ta’minlash uchun yer uchastkasi yoki uning bir qismi yer egasining roziligi yoki yerdan foydalanuvchi va ijarachi bilan kelishilgan holda tegishli tuman, shahar, viloyat yoxud Vazirlar Mahkamasining qarori bilan olib qo‘yilishi mumkin. Agarda yer uchastkasi Yer kodeksining 37,41-moddalarida ko‘rsatilgan shartlar asosida mulk qilib sotib olingan bo‘lsa, ekologik nuqtayi nazardan ham davlat va jamoat ehtiyojlari uchun qayta sotib olinadi.

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va mulkdorlarning ekologik huquqlari va majburiyatlari Yer kodeksining 5-bob, 39–42-moddalarida aks ettirilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Huquqlari:

- tabiiy zaxiralardan qonun hujjatlarida belgilangan tarzda foydalanish va foydali xususiyatlarini ishga solish;
- yerlarni sug‘orish, zaxini qochirish, agrotexnika va melioratsiya ishlarini o‘tkazish;
- qishloq xo‘jalik ekinlarini, dov-daraxtlarni sug‘orish (limitlarga muvofiq ravishda).

Majburiyatlari:

- belgilangan maqsadda oqilona foydalanish;
- tuproq unumdorligini oshirish;
- ishlab chiqarishda tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarni qo‘llash;
- o‘z xo‘jalik faoliyati natijasida hududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- yerlarni muhofaza qilishga oid Yer kodeksining 79-moddasida ko‘rsatilgan va quyida yoritib o‘tiladigan tadbirlarni amalga oshirish;
- foydali qazilma konlarini ishlatish, qurilish, xalq xo‘jaligi kommunikatsiyalarini o‘tkazish va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun berilgan qishloq hamda o‘rmon xo‘jaligi yerla-

rini, ularga ehtiyoj qolmagandan keyin, o‘z hisobidan qishloq va o‘rmon xo‘jaligi yoki baliq xo‘jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish hamda atrofidagi yer uchastkalarining tabiiy holatiga zarar yetkazmaslik va h.k.

Yuqorida sanab o‘tilgan huquq va majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishi uchun davlat kafolat sifatida xizmat qiladi. Ushbu kafolat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda huquqlarini tiklash, yetkazilgan zarar (jumladan, boy berilgan foyda)ni qoplash, kadastr bahosi teng bo‘lgan yer uchastkasini boshqa joydan ajratib berish va inshoot hamda binolarni qurib berish, qayta sotib olish kabilardan iboratdir.

3. Yer fondi toifalari bo‘yicha yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish

O‘zbekistonda yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish talablari sakkiz toifadagi yer fondi uchun ham alohida o‘rnatilgan. Bularning ichida eng ko‘p tarqalgani (20,5 mln. ga yoki umumiy yer fondining 46,1%) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar hisoblanadi[1].

1. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning ekologik-huquqiy holati nafaqat Yer kodeksi (6-bob, 43–58-moddalar), Tabiatni muhofaza qilish, qishloq xo‘jalik kooperativi (Shirkat xo‘jaligi), Fermer xo‘jaligi, Dehqon xo‘jaligi, Korxonalar, Mulkchilik, qishloq xo‘jalik korxonalarini sanasiya qilish kabi o‘nlab qonunlar hamda «Yerlardan samarali foydalanishni oshirish to‘g‘risida»gi Prezidentning 1994-yil 24-noyabrdagi Farmoni, «O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni sifat va pullik bahosini belgilashning vaqtinchalik metodikasi» (1998-yil 6-avgust), «O‘zbekiston Respublikasida tuproq bonitirovkasi ishlarini olib borish va ma’lumotlarini tasdiqlash» (1998-yil 18-may 732-sonli VMQ), «Ayrim davlat kadastrlarini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida» (2005-yil 15-noyabr 250-sonli VMQ), «Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (2007-yil 29-oktabr PF-3932-sonli farmoni) «O‘zR Moliya vazirligi huzuridagi yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘richsida» (2007-yil 31-oktabr PQ-718-sonli qarori) «2008–2012-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning melorativ holatini yaxshilash davlat Dasturi to‘g‘risida» (2008-yil 19-martda PQ-817-sonli qarori) kabi me’yoriy hujjatlar asosida ham o‘rnatilgan.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga uning ehtiyojlari uchun berib qo‘yilgan va ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar kiradi. Mazkur yer fondiga nafaqat haydalgan yerlar, balki pichanzorlar, yaylovlar, tashlandiq yerlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar (bog‘lar, tokzorlar, tutzorlar) bilan qoplangan yerlar, jumladan, qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan ichki xo‘jalik yo‘llari, kommunikatsiyalar, o‘rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlar ham kiradi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning eng qimmatlisi va alohida huquqiy muhofazaga muhtoji – *sug‘oriladigan yerlar* hisoblanadi. Ularning umumiy maydoni 4,3 mln. ga bo‘lib, butun tovar qishloq xo‘jalik mahsulotining 95 % idan ortig‘ini beradi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlarning alohida ekologik-huquqiy maqomi belgilangandir.

> Sug‘oriladigan yerlar – *qishloq xo‘jaligida foydalanish va sug‘orish uchun yaroqli bo‘lgan, suv resurslari shu yerlarni sug‘orishini ta’minlay oladigan, sug‘orish manbayi bilan bog‘langan doimiy va muvaqqat sug‘orish tarmog‘iga ega bo‘lgan yerlar.*

Mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlagan bir qator normativ hujjatlar qabul qilingan. Masalan: 2008-yil 19-martdagi «2008–2012-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning melorativ holatini yaxshilash davlat Dasturi to‘g‘risida»gi PQ-817-sonli qarori bilan joriy yilda ushbu ishlarga 75 mlrd. so‘m ajratildi.

Yer kodeksining 44-moddasiga ko‘ra, sug‘oriladigan yerlarni sug‘orilmaydigan yerlar sirasiga o‘tkazish, alohida zarurat tug‘ilganda Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda, viloyat hokimining qaroriga binoan amalga oshiriladi. Kadastr bahosi o‘rtacha tuman bonitet balidan (sifat ko‘rsatkichidan) 20 foiz ko‘p bo‘lsa, «alohida qimmatga ega bo‘lgan unumdor sug‘oriladigan yerlar» jumlasiga kiradi va ularni sug‘orilmaydigan yerlar jumlasiga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi yoki buning uchun Vazirlar Mahkamasining alohida qarori kerak bo‘ladi.

[1] *С.А.Арабов, Р.К.Кузиев.* Ер ресурсларининг ҳолати, муҳофазаси ва улардан самарали фойдаланиш // Ерлардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг институционал масалалари. – Т.,2012. – 7-б.

Qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanilayotgan shirkat xo‘jaliklari, dehqon va fermer xo‘jaliklari, fuqarolar, jamoa bog‘dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligini yuritayotgan shaxslar o‘z yer uchastkalaridan belgilangan maqsadlarda qishloq xo‘jalik tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish huquqiga egadirlar. Lekin ular biznes rejalarda tuproq unumdorligini yaxshilash va yerlardan oqilona foydalanish yuzasidan aniq tadbirlarni nazarda tutishlari shart. Mulkchilikning qaysi shaklida bo‘lishidan qat’i nazar, jismoniy va yuridik shaxslarga (Yer kodeksining 49–58-moddalarida ko‘rsatilganidek) yer berish tartibi tuproqlarning tabiiy iqlim sharoiti, ekologik holati va kelajak istiqbollari hamda mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga qarab o‘rnatiladi.

Aholi punktlari (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlari) yerlarining sifat va son ko‘rsatkichlariga ko‘ra, uning ichida daraxtzor va alohida muhofaza etiladigan hududlar uchun aholini toza atrof-muhitga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida yerlar ajratiladi. 2002-yil 4-apreldagi Shaharsozlik kodeksining 36,47,51-moddalarida aholi punktlari hududlarini rivojlantirish tarhlarida atrof-muhitni muhofaza qilish, rekreatsion zonalarni yaratish, shahar atrofi yashil tegralarini barpo qilish majburiy holat qilib kiritilgan. Shahar va aholi punktlarini qurish va rivojlantirish loyihalari (Ekologik ekspertiza to‘g‘risidagi qonunning 11-moddasiga ko‘ra) mutaxassis ekologlarning xulosalash obyekti hisoblanadi.

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlarda ularning atrof tabiiy muhitga yetkazadigan zararini kamaytirish, tabiiy-texnogen hodisalar va jarayonlardan buzilishining oldini olish uchun yashil muhofaza polosalari va zonalarini barpo etish talab qilinadi.

Alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari tarkibidan tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar ajratilib olinadi. Yer kodeksining 72-moddasida ushbu yerlarni ajratish, berish va ularni muhofazalashning umumiy talablari keltirilgan. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunda esa ushbu talablar kengaytirilgan va aniqlashtirilgan tarzda ifoda etilgan. Mazkur darslikning XVI bobida biz alohida muhofaza etiladigan hududlarning ekologik-huquqiy tartiboti haqida atroflicha to‘xtalib o‘tamiz.

Sog‘lomlashtirish, rekratsiya va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarda ham atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish aholining salomatligini tiklash, dam olishini yuqori darajada uyushtirish va tarixiy yodgorliklarning saqlab qolinishini ta’minlash uchun ham kerakdir. Aks holda, ushbu maqsadlarni amalga oshirishning iloji ham bo‘lmaydi.

O‘rmon, Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunlar Yer kodeksining 10-bob 76–78-moddalariga muvofiq *o‘rmon fondi, suv fondi va zaxira yerlardan* foydalanishning ekologik-huquqiy normalari o‘rnatilgan. O‘rmon va suvning o‘zi ekologik tizimda turuvchi tabiiy obyekt hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni to‘liq saqlash ekologik-huquqiy talabning bir qismidir.

4. Yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilishning mazmuni va mohiyati

Yerlarni muhofaza qilish juda keng ma’noda ishlatilib, odatda unga yer qonunchiligida: yerlardan belgilangan maqsadda oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini, o‘rmon fondi yerlarining samaradorligini tiklash va oshirish, qishloq xo‘jalik oborotidan va alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari tarkibidan yerlarning asossiz ravishda olib qo‘yilishining oldini olish, ularni zararli antropogen ta’sirdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimi tushuniladi. Lekin ekologik munosabatlarda yerlardan oqilona foydalanish, ularning foydali (masalan unumdorligini oshirish) xususiyatlarini qayta tiklash alohida ijtimoiy munosabat turkumiga kiradi.[1]

Yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish – *ekotizim yer maydonlarining tabiiy xususiyatlarini saqlab qolishga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.*

Yerlarni muhofaza qilish yerlarga murakkab tabiiy hosilalar (ekotizimlar) tariqasida, ularning tabiiy hudud va mintaqaga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan tarzda atroflicha yondashish asosida amalga oshiriladi.

Yer kodeksining 79-modda 4-qismiga binoan yer munosabati qatnashchilari, ya’ni yer egalari, foydalanuvchilar va ijarachilar:

[1] *А. Нигматов.* Ер ҳуқуқи / схемалар, тушунчалар ва рақамларда. – Т.: ТИУ нашриёти, 2001. – 224-б.

* hududni oqilona tashkil etadilar, ya'ni yerlarni yer fondi toifalari va yer uchastkalariga ajratishda, avvalambor, ularni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan qaraydilar;

* tuproq unumdorligi, tuproq osti «ona jinslar»ni xossa va xususiyatlari kabi zaruriy tabiiy jarayonlarning kechuvini ta'minlaydilar;

* yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishdan, zaxlanishdan, qayta sho'r bosishdan, qaqrab qolishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan, xarob qiladigan boshqa jarayonlardan himoya qiladilar;

* hosildan qolgan qishloq xo'jalik yerlaridagi tuproq unumdorligini boshqa metodlar bilan qayta tiklashning iloji bo'lmasa, bu yerlarni konservatsiya (saqlab qolish) qiladilar;

* buzilgan (jarlangan, o'pirilgan, yemirilgan, texnogen buzilgan) yerlarni qaytadan ekinzorlarga aylantiradilar, ularning unumdorligi va boshqa foydali xususiyatlarini (xossalarini) oshiradilar;

* yerlarni buzish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni amalga oshirish chog'ida tuproqning yuqori unumdor (chirindiga boy qatlami 20–30 sm) qatlamini sidirib oladilar (transplantatsiyalaydilar), undan foydalanadilar va uni saqlab qoladilar.

Davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlari esa ushbu ekologik-huquqiy talablarning bajarilishi yuzasidan dastur, reja, loyihalar ishlab chiqadilar, chet el sarmoyasini kiritadilar va uni amalga oshirish uchun butun kuch va idroklarini sarflashlari ham qonunchilikda aks ettirilgan.

Masalan, 2008–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish ishlari dasturini amalga oshirish tadbirlarida o'pirilishlar, ko'chki va sel kelish xavfini baholash uchun davlatning tegishli organlariga respublika byudjetidan muayyan miqdorda pul ajratilgan.

2012-yilga kelib O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning yarmidan ortig'i, ya'ni 2,2 mln.ga sho'rlangan, tuproqda chirindi miqdori (gumus) 30–50% kamaygan, 30 mln. gektar yerda suv va shamol eroziyasi o'z salbiy oqibatlarini ko'rsatdi, cho'l va chala cho'l mintaqalarida yer degradatsiyasi, tog' oldi hududlarda esa cho'llanish jarayoni ketmoqda. Respublikamizda jon boshiga to'g'ri keladigan ekin maydoni 0,22 gektardan 0,16 gektarga tushib qoldi. Aholisi jadal sur'atlarda 30 mln. kishiga etib kelayotgan O'zbekistonda yer va suv

muammosi o'ta muhim va dolzarbdir. Shuning uchun ham respublikamizda yerlarni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilamoqda.

Obyektlar, imoratlar va inshootlarni joylashtirish, loyihalash, qurish va ulardan foydalanishda yuqorida qayd qilingan yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini nazarda tutish, ularni ekologik ekspertizalash, yer tuzish va ularni ilmiy asosda joylashtirish (Yer kodeksining 80-moddasiga muvofiq) talab etiladi.

Kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslantirish hamda, 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi qonunning 11-moddasiga binoan, ifloslanganlikning oldini olish va Yer kodeksining 81-moddasiga asosan yerlardan foydalanish tartibi o'rnatilgan.

Yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun, albatta, moddiy va moliyaviy baza bo'lishi kerak. Yer kodeksining 82-moddasida ko'rsatilgan talablar bo'yicha Davlat byudjetidan, mahalliy hokimiyat byudjetlaridan, ekologik jamg'armalardan, xalqaro ekologik jamg'arma, loyiha kabilarga milliardlab so'm miqdorida mablag' ajratilmoqda. Afsuski, ekologik to'lov va soliqlardan tushayotgan mablag'ning 80 foizi davlat byudjetiga, atigi 20 foizi mahalliy tabiatni muhofaza qilish jamg'armalariga tushishi yerlarni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlarning moliyalanishini kamaytirib yubormoqda. Chet davlatlarda ekologik to'lov va soliqlardan tushadigan mablag' – Rossiyada 60:40, Germaniyada esa 50:50 nisbatdadir.

5. Yer nazorati va yuridik javobgarlik

Yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazorat nafaqat davlatning maxsus vakolatlangan organlari (Tabiatni muhofaza qilish va Yer resurslari davlat qo'mitalari, Geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari bosh boshqarmasi, Davlat sanitariya nazorati, mahalliy davlat hokimiyati organlari), balki jamoat va nodavlat tashkilotlarning nazoratidan ham iboratdir (9.5.1-rasm).

Yer nazorati – *yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga oid, yer qonun hujjatlari talablarining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda vakolatlangan idoralar va shaxslar tomonidan tekshirish.*



9.5.1-rasm. **Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni nazorat qilish**

Davlat yer nazorati (inspeksiyasi) esa davlatning mahalliy hokimiyat va maxsus vakolatli organlarining yer munosabati qatnashchilari (subyektlari)ning yer uchastkalaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir faoliyatlarini tekshirish. Ushbu faoliyat tegishli davlat organlarining Nizomlariga muvofiq amalga oshiriladi va yer nazorati inspektorlarini muayyan vakolatlar bilan ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118–121-moddalari va «Prokuratura to'g'risida»gi qonunning mohiyatidan kelib chiqqan holda davlatning maxsus nazoratini Bosh prokuror va unga bo'ysinuvchi prokurorlar amalga oshiradilar. *Ekologiya prokuror nazorati deb prokuratura tomonidan yer munosabatlari subyektlari (jumladan, davlat organlari va mansabdor shaxslar) faoliyati yer qonun hujjatlariga mosligini tekshirishga aytiladi*.

Fuqarolik jamiyatida har bir ijtimoiy munosabat kishilarning uyushgan qismi tomonidan ham tekshirilishi nazarda tutiladi. *Jamoat yer nazorati – yerlarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish borasidagi yer qonunchiligi talablariga rioya etishni nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tekshirish*. Jamoat yer nazorati nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunning 7-moddasi va yangi tahrirdagi

Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 10-moddasiga muvofiq ravishda olib boriladi.

Yer nazorati ikki xil shaklda olib boriladi – axborotlash va jazolash.

Yer nazoratining axborotlash shakli – ogohlantiruvchi va jazolovchi choralarni qo'llash maqsadida davlat nazoratining yer munosabati subyektlarining yer qonunchiligi talablarini bajarishlariga doir zaruriy ma'lumotlarni yig'ish va ularni umumlashtirishga qaratilgan tekshirish turi.

Yer nazoratining jazolash shakli – yerlarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha qonun talablarini bajarmaydigan va ularga rioya etmaydigan huquqbuzarlarga nisbatan davlatning majburlov choralarini qo'llashga qaratilgan tekshirish turi.

Yer nazoratini amalga oshirishning umumiy qoidalari Yer kodeksining 84–85-moddalarida aks ettirilgan. Unda ekologik-huquqiy talablar bo'yicha tekshiruv ishlarini olib borish prioritet (birlamchi) norma sifatida berilgandir.

Yer qonunchilik talablarining buzilishi yer munosabati qatnashchilarini yuridik javobgarlikka tortishga asos bo'la oladi.

Yer nazoratini olib borish yer egalari, foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlarga yetkazilgan zararni, jumladan, ekologik zararni qoplash (Yer kodeksi, 86-modda), qishloq va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarining o'rnini qoplash (Kodeksning 87-moddasi), yuridik javobgarlik sanksiyalarini qo'llashga (Kodeksning 90-moddasi) hamda o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerlarni qaytarib olishga asos bo'la oladi.

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 47-moddasi, Yer kodeksining 90-moddasi, Mehnat, Fuqarolik, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Jinoyat kodekslariga muvofiq ravishda yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlar uchun intizomiy, fuqaroviy, ma'muriy va jinoiy jazo qo'llaniladi. 9.5.2-jadvalda ekologik-huquqiy munosabatlarga doir huquqbuzarlik turlari, tegishli javobgarlik va maxsus qonunlarning muayyan moddalari ko'rsatib o'tilgan.

6. O'zbekistonda yerga oid munosabatlarni tartibga solishning ekologik-huquqiy masalalari

Mustaqilligimiz, avvalambor, boy tabiat komponentlari, xususan yerlarni insonning o'zi mustaqil ravishda tasarruf qilish huquqida na-

moyon bo‘ldi. Endilikda u 44.8 mln. ga yer fondini milliy qonunchilik asosida muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni huquqiy tartibga sola boshladi. Ushbu huquq respublikamiz uchun mustaqillikdan avval qabul qilingan ilk milliy qonunchilik manbalari – «Til» va «Mulk»

9.5.1-jadval.

Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni buzganlik uchun yurudik javobgarlik

YER QONUNCHILIGINING BUZILISH TURLARI	JAVOBGARLIK
Yerlardan belgilangan maqsadlarda foydalanmaslik	MJK – 105-106 JK – 197, 270 EK – 90 TMQQ – 47-48, 52
Yerlarni yaroqsiz holatga keltirish, ularni kimyoviy va radioaktiv moddalar, ishlab chiqarish chiqindilari hamda oqova suvlar bilan ifloslantirish	MJK – 77, 89, 91, 104 JK – 193-197, 201 FK – 985 TMQQ – 47-51 MK – 181
Yer holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi obyektlarni joylashtirish, qurish, loyihalashtirish va foydalanishga topshirish	MJK – 96 JK – 193 TMQQ – 47
Ekologik talablarni bajarmaslik	MJK – 91 JK – 172, 197 MK – 181 TMQQ – 47-52
Vaqtincha egallab turgan yerlarni qaytarish muddatini buzish yoki yerlarni belgilangan maqsadlarda foydalanishga yaroqli holatga keltirishga oid majburiyatlarni bajarmaslik	MJK – 67 JK – 197 FK – 985 TMQQ – 47-51
Davlat yer kadastri ma’lumotlarini buzib ko‘rsatish	MJK – 68 JK – 209 TMQQ – 47
O‘zboshimchalik bilan pichan o‘rish va chorva mollarini boqish	MJK – 82 JK – 197 FK – 985 TMQQ – 47
Yerlardan xo‘jasizlarcha foydalanish, tuproq unumdorligini pasaytiruvchi omillarga yo‘l berish, yerlarning holatini yomonlashtirish	MJK – 65, 95 JK – 195, 197 FK – 985 MK – 181

to‘g‘risidagi qonunlar bilan bir qatorda, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan «Yer to‘g‘risida»gi qonundan boshlangan. Shundan xulosa qilish mumkinki, tabiiy boyliklar har bir davlatning mustaqilligini ifoda etuvchi eng muhim elementlardan hisoblanadi[1].

Nima uchun tabiiy zahiralar, jumladan yerga bunchalik katta e’tibor berilmoqda? Chunki O‘zbekistonda yer va ayniqsa, unumdor tuproqli yerlar juda cheklangandir. Ana xolos, deyishi mumkin masalani chuqur anglamagan kishilar, axir yer maydoni O‘zbekistonda Buyuk Britaniyadan ikki barobar, Gollandiyadan 10 barobar, Belgiyadan 15 barobar ko‘p-ku! 44,9 milllion gektarga teng bo‘lgan yer kengliklarimizning 44,5 mln. gektari uning quruqlik qismidan iborat-ku! Shundaylik-ka shunday ammo, Respublikamiz davlat yer fondining 3/5 qismi sahro va cho‘l landshaftlaridan, 1/5 qismi geomorfologik jihatdan noqulay bo‘lgan tog‘u-toshlardan iborat. Diyorimizning faqatgina 1/10 qismi inson yashashi uchun qulay sharoitdagi yerlardan, to‘g‘rirog‘i tuproqlardan iborat.

Tuproq – yer so‘zining sinonimi, ammo aynan o‘zi emas. Chunki tuproq toshli, qumli, suvli yerlardan farqli unumdorlik xususiyatiga ega. Aynan ana shu unumdorlik bizni to‘yintiradi va boqadi. U sanoat uchun xomashyo yetkazib beradi. Tuproq unumdorligining foydali xususiyatlarini to‘laqonli namoyon bo‘lishida *namlik va issiqlik* juda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, mo‘tadil iqlimda tarqalgan eng unumli qora tuproqlarda bug‘doydan 20-25 s/ga cha hosil olinadi. Unumdorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha undan bir necha barobar past bo‘lgan O‘zbekistonda eng ko‘p tarqalgan bo‘z (sur) tuproqlarda hosildorlik ikki va undan ham ko‘proqdir. Buning sababi issiqlikdadir. Ammo bo‘z (sur) tuproqlarda namlik etishmaydi, ya’ni sug‘ormasdan turib yuqori hosil olishning iloji yo‘q. Shuning uchun ham qishloq xo‘jalik mahsulotining 95 foizi aynan sun’iy namlash darajasiga ega bo‘lgan sug‘orma-obikor yerlardan olinadi.

O‘zbekistonda sug‘orib dehqonchilik qilsa bo‘ladigan tuproqlarning umumiy maydoni 7,4 mln. gektar atrofida. Hozir uning 4,3 mln. gektari sug‘oriladi, xolos. Qolgan 3,1 mln. gektari esa cho‘l-sahro va tog‘li hududlarda, ya’ni o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan yerlardadir. Fan va texnika rivojlangan XXI asrda buni ham iloji bordir, deyish mumkin. Afsuski uning iloji doimo ham topilmaydi, chunki sug‘orish uchun ker-

[1] *Nigmatov A.* Yer qonunchiligi va tuproq unumdorligi // Agrar qonunchilikni rivojlantirish muammolari. – T.:TDYuI nashriyoti, 2003. 57–62-b.

ak bo‘ladigan chuchuk suv muammosi bizlarga doimo to‘sqinlik qiladi. Mamlakatimizda keyingi o‘n yil mobaynida aholi soni 4-4,5 mln. kishiga ko‘paydi va 29 mln.dan oshib ketdi. Sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan yerlar miqdori esa keyingi 15-20 yil ichida deyarli o‘zgargani yo‘q. Vatanimiz – agrar-industrial respublika. Agrar soha respublikamiz yalpi ichki mahsulotining 30 foizidan ortig‘ini, valyuta tushumining 55 foizini, tovar aylanuvining 60 foizga yaqinini beradi. Qishloqda mehnatga yaroqli aholining 44 foizi istiqomat qiladi. Haydalib dehqonchilik qilinadigan ekin maydonlarini jon boshiga taqsimlaydigan bo‘lsak biz MDH respublikalarining orasida oxirgilaridan birimiz, ya’ni har birimiz uchun bor yo‘g‘i 0,15 gektar atrofida ekin maydoni to‘g‘ri keladi.

Xo‘sh, juda cheklangan ekin maydonlaridan va ayniqsa, sug‘oriladigan yerlardan oqilona foydalanish uchun nima qilmoq kerak? Avvalambor O‘zbekistonda yerga nisbatan munosabatlarni qaytadan ko‘rib chiqish va xalq xo‘jaligining barcha sohalarida tegishli evolyutsion tarzdagi o‘zgartirishlarni yo‘lga qo‘yish kerak bo‘ladi. Masalan:

Tabiatni muhofaza qilish yoki ekologik sohada. Barcha yer toifalari va yer uchastkalarini ekologik-geografik jihatdan optimallashtirish yo‘llarini qayta ko‘rib chiqish. Uning uchun yerlarni son va sifat bahosini aniqlash, operativ ekologik nazorat va monitoringni olib borish, yerga oid ekologik huquqbuzarliklarning muqarrarligini ta’minlash tizimini yaratish hamda amaliy mexanizmini shakllantirish.

Iqtisodiy sohada. Tuproqlarning unumdorlik ko‘rsatkichlarini ko‘tarish maqsadida katta sarf-harajatli melioratsiya va rekultivatsiya ishlarni olib borish talab etiladi. Buni esa maxsus «*Yer jamg‘armasi» yoki «Yer fondi»ni* tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin. Jamg‘arma mablag‘i nafaqat ichki moliyaviy zahiralardan, balki maqsadli yo‘naltirilgan tashqi investitsiyalardan iborat bo‘lmog‘i lozim. Yer qonunchiligini buzish bo‘yicha byudjetga tushayotgan moliyaviy jarimalarning 60 foizi aynan «Yer fondi»ga tushishi darkor. Chunki yer qonunbuzarlari o‘z qilmishlari orqali birinchi navbatda «Ona yer»ga, to‘g‘rirog‘i tuproqqa zarar keltiradilar va shuning uchun ham mazkur jarimalar, avvalo, tegishli zararni qoplashga yo‘naltirilishi lozim bo‘ladi. Davlatning *dotatsiyalash va kreditlash* siyosati aynan yerga «yuz tutishi» maqsadga muvofiqdir. *Tashqi iqtisodiy aloqalar va qishloq xo‘jalik tovar mahsulotlarini oldi-sotdi(realizatsiya) qilish* keng tarmoqlangan xizmat ko‘rsatishga asoslangan bo‘lmog‘i lozim, ya’ni «bir dehqonga

uch xizmatkor» prinsipida ish yuritmoq maqsadga muvofiqdir. Qishloqda xizmat ko‘rsatishni xomashyoni qayta ishlay va kam chiqitli texnologiyalarini joriy qila oladigan kichik va o‘rta biznes sohiblariga topshirish darkor. Bunday tajriba Gollandiya va Fransiya davlatlarining agrar soha majmuasida juda ibratli darajada yo‘lga qo‘yilgan.

Huquqiy sohada. Konstitutsiyamizning *55-moddasida* yer bilan bir qatorda tuproqni alohida bir tabiiy zahira, to‘g‘rirog‘i tabiiy *«boylik»* sifatida e’tirof etish maqsadga muvofiqdir. Nima uchunligini biz yuqorida yer bilan tuproqni farqlashda ko‘rsatib o‘tdik. Uning asosida 1997-yildan buyon milliy qonunchilikda o‘z o‘rnini topa olmayapgan «*Tuproq unumdorligi to‘g‘risida»*gi qonunni Oliy Majlisning quyi palatasi muhokamasiga kiritish lozim. Yerga oid mulkiy xarakterga ega bo‘lgan munosabatlarni, ya’ni uni egallash, foydalanish, tasarruflash, jumladan ijaralash huquqini o‘rnatishda tuproqning son va sifat ko‘rsatkichlarini inobatga olish zarur. Unumdor, ya’ni o‘ta qimmatli sug‘oriladigan yerlarni faqatgina qishloq xo‘jalik maqsadlaridagi toifada ushlab turish va dehqonchilikka ixtisoslashgan fermerchilikni rivojlantirishga berish davlatimizning fermerchilik sohasidagi siyosatiga mos tushadi. Yer qonuchiligida bonitet bahosi 30 balldan kam bo‘lgan sug‘orma yerlarni aholi punktlari va uning atrofini noqishloq xo‘jalik maqsadlarida ishlatish, mehnat resurslari kam bo‘lgan yerlarda esa birlamchi *kreditlash va dotatsiyalash* obyekti sifatida qaramoq lozim. Chunki sug‘oriladigan yerlarimizning yarmidan ko‘pi turli darajada sho‘rlangan, 5/1 eroziyaga uchragan (yuvilgan yoki yemirilgan), 1/12 qismi texnogen buzilgan, qolgan qismi esa ekologik jihatdan ifloslangandir. Bunday yerlarni «qayta jonlashtirish» va ulardan foyda olish juda qiyin va syerharajat tadbirlar ko‘lamiga kiradi.

Yer qonunchiligida qishloq xo‘jalik subyektlari uchun ball boniteti past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan yer uchastkalaridan (30 dan kam bo‘lsa) yer solig‘iga tortilmaslik muddatini «ushbu yerlardan foyda olish muddatiga qadar», deb belgilanishi lozim. Chunki bizlarga ma’lumki[1], tabiiy va texnogen buzilgan yerlarning «*o‘zlashtirish muddati*», ya’ni fermerlarning tubdan melioratsiya va rekultivatsiya qilish uchun ishlatgan mablag‘larini qoplash va daromad olishni boshlash muddati, 3 yildan to 25 yilgacha davom etishi mumkin. Bunday huquqiy norma

[1] *Нигматов А.Н.* Геоэкологические аспекты заовраженности и техногенной нарушенности земель Узбекистана: Изд. НУУз, 2005. – 337 с.

fermerlarni yaxshi yer qidirib yurishga, kadastr bahosini kamaytirishga yo‘naltirilgan noqonuniy harakati yoki intilishini kamaytiradi. Ularda o‘z yerini qayta tiklashga bo‘lgan vatanparvarlik hissini uyg‘otishga olib kelsa ajab emas. Muayyan yerlarning o‘zlashtirish muddati bo‘yicha yo‘riqnoma, tavsiyanoma va metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish, so‘ngra ularga asosan maxsus komissiyalar, aniqrog‘i mutaxassislar faoliyatini amalga oshirish orqali xulosalash lozim.

Tashkiliy-xo‘jalik sohasida. Yerlarni diagnostika qiladigan («kasalini aniqlaydigan») va tez yordam ko‘rsatishni ta’minlaydigan – «*Agrodoktor*», «*Yer tez yordami*», «*Yer klinikasi*» kabi firmalarni tuzish va ularni kerakli moddiy-texnika (masalan, maxsus jihozlangan mashinalar va aloqa vositalari), ayniqsa, mutaxassislar bilan ta’minlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur firmalarni tashkil etish va faoliyatini yurgazishni boshlashda davlat bosh islohotchi bo‘lishi (masalan, ularni soliq va to‘lovlardan ma’lum muddatga ozod qilishi hamda ularga imtiyozli kretidlarni berishi, ularni ommaviy axborot visitalarida keng targ‘ib qilishi), keyinchalik esa mustaqil xo‘jalik shartnomalari asosida ish yurituvchi subyektlarga aylantirishi lozim. Yer nazoratida umumiqtisodiy, umumsiyosiy va umumekologik ahamiyatga molik bo‘lmagan yer uchastkalarini o‘zini o‘zi boshqaradigan uyushma va nodavlat notijorat tashkilotlariga boshqarish va nazorat qilish uchun topshirish fuqarolik jamiyatining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Ta’lim sohasida. *Yer tuzish, kadastrlash, ekspertizalash, nazoratlashning yagona tizimini* amalga oshirishga qodir bo‘lgan *kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash*ni yo‘lga qo‘yish lozim. Yerga nisbatan turli mulkchilikning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomaviy munosabatlarni yuridik jihatdan tartibga solish. Lo‘nda qilib aytganda, qishloqda yuridik xizmatni yo‘lga qo‘yuvchi *agroyuristlarni tayyorlash* zamon talabidir. Uning uchun huquqshunoslik institutlari yoki maxsus noyuridik oliy o‘quv yurtlarida agroyuristlarni tayyorlovchi bo‘linmalarni ochish va ularda ikki (yer va qonunchilik) sohasini yaxshi biladigan va ularni uyg‘unlashtira oladigan mutaxassislarni yetishtirib chiqarishni yo‘lga qo‘yish (Masalan, AQShda bo‘lgani kabi sohaviy yuristlarni ikki bosqichli o‘g‘itish tizimini joriy qilish). Mazkur masala bo‘yicha maxsus davlat dasturini ishlab chiqish va amalga tatbiq qilish mexanizmini yaratish kerak. Maktablarda va maktabdan tashqari ta’limda «*Tuproq – bizning boyligimiz», «Ona zamin – sening ixtiyoringda» kabi o‘quv predmetlar, to‘garaklar va klublarni* ochish va ularni tegishli davlat standartlari, dastur va rejalar hamda o‘quv-amaliy qo‘llanmalar bilan ta’minlash agrar respublikamizning o‘ziga xos jabhalaridan bo‘lib qolmog‘i lozim.

Ma’naviy-ma’rifiy sohada. «*Yer bebaho boyligimiz», «Yeri boyning – eli boy», «Yer – rizqu-ro‘zimiz»* degan mavzularda maxsus *konkurslar, viktorinalar, ko‘rsatuvlar, eshittirishlar va ruknlarni* tashkil etish. Ularga nafaqat o‘zimizni balki shu sohadagi yetuk mutaxassislarni chet ellardan ko‘proq jalb qilish. Rivojlangan agrar mamlakatlardan yer muhofazasi va undan samarali foydalanishga doir ko‘rsatuv va reportajlarni tayyorlash hamda ular bilan tajriba almashishni qo‘llab-quvatlash, adabiyot va san’at kunlari kabi «bobo dehqon kunlari» ruknidagi xalqaro uchrashuvlarni davlat miqyosida olib borish lozim. «*Yer qo‘shig‘i», «Yer tarixi», «Yer falsafasi», «Yer dardi»* mavzuidagi shou-dastur, uchrashuv, ko‘rgazma, konferensiya, konsyert, muloqat va, hattoki, lotoreyalar o‘yinini uyushtirish o‘z ona yerimizga bo‘lgan mehrni orttiradi. Qadimgi zardushtiylarda bo‘lgani kabi yerni muqaddas in’omga aylantirishga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Yer tabiiy tizimlardagi eng muhim komponent ekan, ularni muhofaza qilish, uning inson uchun foydali bo‘lgan xususiyatlaridan to‘g‘ri foydalanish, buzilgan yerlarni qayta tiklash zamon talabi hisoblanadi. Yer, xususan tuproq – Ollohning bizlarga tortiq qilgan ne’mati. Ushbu ne’mat insonlarning nafaqat ishlab chiqarish vositasi, balki yashash makoni hamdir. Shuning uchun ham ota-bobolarimizda «Yeri boyning – eli boy», biz olimlarda esa «Tuprog‘i boyning – eli boy» deb, bejiz aytilmagan.

Takrorlar uchun savollar va topshiriqlar

1. «Yer»ning yuridik ma’nosi qanday?
2. Tug‘ilgan joyingizdagi yer muammolarini aniqlang va unga oid mustaqil ta’lim vazifasini bajaring.
3. Huquqiy jihatdan yer muammolarining yechimini topish uchun nimalar qilinadi?
4. Yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
5. Yerlardan oqilona foydalanish tartibi qanday?
6. Ekologiya huquqi qanday yerga oid munosabatlarni tartibga soladi?

7. Yer fondi toifalari bo‘yicha ekologik-huquqiy munosabatlar o‘rnatiladimi?

8. Yer resurslari davlat qo‘mitasiga qanday vakolatlar berilgan?

9. Davlat yer kadastrini olib borishning ekologik-huquqiy jihatlarini sanab o‘ting.

10. Yerga oid qanday huquqbuzarliklar ekologiya sohasidagi javobgarliklar toifasiga kiradi?

11. Yerga oid ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun Siz qanday takliflar berar edingiz (buyruqlar bilang ishlang)?

Suv o‘z servitutini o‘zi topadi, agarda uni avvaldan belgilab berilmasa.

X bob. SUV VA SUVDAN FOYDALANISHNI EKOLOGIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

1. Suv resurslari va ularni ekologik-huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati

Sayyoramizda garchand suv bilan egallangan maydon quruqlikka nisbatan ikki barobar ko‘p bo‘lsa-da, uning ekologik muammosining yechimini topish juda dolzarbdir. Bunga sabab:

Birinchidan. Suv tirik organizmlar, jumladan, inson massasining 90% dan ortig‘ini tashkil qilgani holda, u doimo aylanma (sirkulyativ) harakatda. Aylanma harakatdagi suv chuchuk, toza va musaffo bo‘lishi talab etiladi. Aks holda tirik organizmlar nobud bo‘ladi.

Ikkinchidan. Chuchuk suvlar zaxiralari Sayyoramizda bir tekis tarqalmagan. Yer usti suvlari (daryo, ko‘l, suv omborlaridagi suvlar) ning 70 % i aholi yashashi noqulay bo‘lgan shimoliy sovuq yoki baland tog‘ mintaqalaridadir. Ayrim mamlakatlar (Kanada, Norvegiya, Rossiya...) da suv toshqinlari muammosi yuzaga kelayotgan bo‘lsa, ayrimlarida (O‘zbekiston, arab mamlakatlari, Turkmaniston...) suv tanqisligi juda katta muammodir.

Uchinchidan. Toza suv doimo harakatdadir. U ko‘pincha daryolar orqali bir davlatdan ikkinchi bir davlatga o‘tib boradi. Bu degan so‘z daryo suvining muhofazasi xalqaro muammolar toifasiga kiradi va suv borsidagi bahslashish davlatlardan juda katta diplomatik mahorat talab qiladi.

To‘rtinchidan. Okean suvlarining keskin ravishda ifloslanishi atmosfera havosida kislorodning kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki kislorodni «ishlab chiqaruvchi» okean yuzasidagi planktonlar ifloslanayotgan okean suvlarida kamayib boryapti.

Beshinchidan. Deyarli barcha xalq xo‘jaligi sohalarida suv ishlatiladi. Gidroresurslarning imkoniyati kamayib, unga talab esa ko‘payib bormoqda. Xo‘jalikda ishlatilayotgan suv ham, afsuski, toza – chuchuk bo‘lishi kerak. Agrar respublika bo‘lgan O‘zbekistonda xalq

Kitob olami

xo‘jaligining asosiy tarmog‘i – qishloq xo‘jaligi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotining 95 % i sug‘oriladigan yerlardan olinadi.

Oltinchidan. Markaziy Osiyoda chuchuk suv zaxirasi – 183 km kub (undan Amudaryoda 78 km^3 va Sirdaryoda – 36 km^3). Uning aksariyati sug‘orish uchun ishlatiladi va turli sun’iy suv havzalari (kollektor, drenaj, suv omborlari, tashlandiq ko‘llar)da va yer ostida yig‘ilib, Orol ko‘li muammosini yuzaga keltirdi.

Xalqimiz «Suv – hayot manbayi, suv bor joyda hayot bor», deb bejiz aytmagan. Suvlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish nafaqat global, regional, balki o‘ta dolzarb milliy masaladir.

Suv resurslarini ekologik-huquqiy jihatdan tartibga solish uchun *mustaqil O‘zbekistonimizda bir qancha ishlar qilingan*. Masalan:

* suv va suvdan foydalanishga oid 30dan ziyod maxsus va umumiy qonunlar qabul qilindi;

* Orol dengizi muammosi BMT va uning tashkilotlari tomonidan xalqaro darajadagi masalalar toifasiga ko‘tarildi;

* suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan me’yoriy hujjatlar qabul qilinib, dastur va loyihalar ishlab chiqildi;

* milliy, regional, global miqyosda shartnomalar tuzildi va h.k.

Kelajakda, bizning fikrimizcha, *O‘zbekiston qonunchilik tizimida:*

- Orol va Orolbo‘yiga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlardan «alohida muhofaza etiladigan hudud» maqomini berish;
- Orol dengizi to‘g‘risidagi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish;
- xalqaro suv havzalari va daryolarni muhofaza qilishga doir shartnomalar, baholash ➢ kadastr ➢ monitoring ➢ nazorat ➢ ekspertiza ➢ rahbatlantirish ➢ javobgarlik tizimini yaratish;
- suvlardan foydalanishni qat’iy hisobga olish va to‘lovini shakllantirish kabi *ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi*.

Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 19-moddasida bayon etilganidek, O‘zbekiston Respublikasida *suv va suv havzalaridan foydalanishning ekologik-huquqiy shartlari* quyidagilardan iborat:

* yer usti, yer osti va dengiz suvlaridan zarur miqdordagi suvning tabiiy aylanishini saqlash, uning normativda ko‘rsatilgan darajada tozaligini ta’minlash;

* suv o‘simliklari va hayvonlarini asrash;

* suv havzalarining ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

* suvda ekologik muvozanatni saqlash va suv havzasiga landshaft elementi sifatida ziyon yetkazmaslik;

* maxsus vakolatli davlat organlari daryo irmoqlari hosil bo‘ladigan joylarda, suv sohili mintaqalarida daraxtzorlarni tiklashlari va dov-daraxtlarni ko‘paytirishlari hamda ularning saqlanishini ta’minlashlari shart.

Konstitutsiyamizning 55-moddasi, Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 5-moddasiga muvofiq suv, boshqa tabiiy obyektlar singari umummilliy boylik – davlat mulkidir, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofazalanadi.

2. Davlat suv fondi va uni boshqarish

Yurisprudensiyada Suv huquqi mustaqil huquq sohasi sifatida qaraladi. Lekin u O‘zbekistonda to‘liq shakllanmagan fan sohasidir. Mamlakatimizda suv muammolarining ortib borayotganligi suv huquqini ham rivojlantirishni talab etmoqda. Sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchi bor Toshkent Davlat yuridik institutida Suv huquqi darsligi ishlab chiqdi va magistrlarga mustaqil huquq predmeti sifatida o‘tilmoqda.

Yer singari suvni muhofaza qilish va undan foydalanishni ham huquqiy jihatdan tartibga solish uchun turli xil toifalarga ajratib olinadi. Aynan o‘sha toifalar bo‘yicha ijtimoiy munosabatlar ekologik-huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

1993-yil 6-maydagi «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasiga ko‘ra, O‘zbekistonda yagona suv fondi uch toifaga ajratilgan:

– *yer usti suvlar* (daryolar, ko‘llar, suv omborlari, kanallar, hovuzlardagi suvlar);

– *yer osti suvlari va muzliklar;*

– *xalqaro suvlar* (Amudaryo, Sirdaryo, Orol dengizi, Zarafshon va shu kabi ikki va undan ortiq davlat hududlaridan oqib o‘tadigan yoki ularning hududida joylashgan suv havzalari va suv manbalari).

Suv davlat mulki bo‘lganligi uchun ham suvga oid munosabatlar davlatning umumiy va maxsus vakolatlangan organlari tomonidan tartibga solinadi.

Oliy Majlis to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonun hamda «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasiga binoan, Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat sifatida suvga doir munosabatlarni tartibga solishda tegishli qonunlar ishlab chiqadi, qabul qiladi va ularning bajarilishini nazorat qiladi, suvga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi va strategik dasturlarni qabul qiladi.

Vazirlar Mahkamasi o‘zi to‘g‘risidagi qonundan kelib chiqqan holda, «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 6-moddasida belgilangan vakolatlariga binoan: suvlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini o‘tkazadi; maxsus vakolatlangan davlat organlarining faoliyatini uyg‘unlashtiradi; suvdan foydalanishning me’yorlari va limitlarini tasdiqlaydi; suv kadastri – monitoringi – nazorati tizimini yaratadi va uning yuritilishini ta’minlaydi; suvga tegishli yirik hodisa va jarayonlar yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadi; suv to‘lovlari va haq undirish tartibini belgilaydi; davlatlararo munosabatlarni rivojlantiradi va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan keyingi 10 yil mobaynida 100 dan ziyod suv munosabatlarini tartibga solishga doir qaror, yo‘riqnoma hamda ko‘rsatmalar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza etish ustidan *davlat nazoratini* mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlari, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi o‘zlari to‘g‘risida qabul qilingan qonunlar va nizomlar asosida olib boradilar. *Idoraviy nazorat* esa Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasiga topshirilgan.

Suvga oid munosabatlarni tartibga solishda nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va jamoalarning vakolatlari tegishli qonunlarda belgilangan va ular davlatga ko‘makdosh ekanligi ifoda etilgan. Bizningcha, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari nafaqat ko‘makdosh, balki mustaqil nazorat olib boruvchi subyekt bo‘lishi demokratik jamiyat talablarini bajarish va fuqarolik jamiyatini o‘rnatishda katta xizmat qiladi.

3. Suvlardan oqilona foydalanishning ekologik-huquqiy asoslari

Suvdan foydalanuvchilar qatoriga barcha mulk shaklidagi korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolar kiradi. Suv munosabati obyekti yuqorida sanab o‘tilgan barcha suv fondi toifalaridir. Ularga xalq xo‘jaligining barcha sohalarida *umumiy yoki maxsus ravishda suvdan foydalanish*ga ruxsat beriladi. Umumiy foydalanish – suvning holatiga ta’sir qiladigan inshootlar yoki texnik qurilmalarni qo‘llamagan tarzda suvdan foydalanish. Agarda ularni qo‘llab foydalanilsa, maxsus foydalanishga tegishli bo‘ladi. Ularning ro‘yxati maxsus davlat boshqaruv organlari tomonidan belgilab qo‘yiladi. Suvdan foydalanish *birgalikda* va *tanho* (yuridik shaxslarga butunlay yoki qisman berib qo‘yilsa), *birlamchi* (tanho foydalanuvchilarga boshqa subyektlarga foydalanish uchun berish huquqi bilan) yoki *ikkilamchi* tarzda amalga oshiriladi.

Suvdan oqilona foydalanish – *suvning foydali xususiyatlaridan jismoniy va yuridik shaxslarning qonun talablari va ilmiy asoslangan tarzda foydalanishlaridir.*

Suv obyektlari, avvalambor, prioritet norma asosida aholining ichimlik suviga bo‘lgan talabini qondirish uchun beriladi. Suvlarni foydalanishga berish tartibi (tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan holda) «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 26–31-moddalarida aks ettirilgan. Ushbu talablar suvning ekologik tizimlarda turuvchi unsur sifatida qarashni nazarda tutib ruxsatnomalar berish, milliylashtirish, haq to‘lash va muddatlarini belgilash orqali amalga oshiriladi.

Suvdan foydalanuvchilar huquqlari davlat tomonidan muhofaza etiladi. Lekin davlat va jamoat ehtiyojlari, ekologik xavfsizlik, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy holatlarda foydalanuvchilarning huquqlari cheklanishi mumkin (10.3.1- rasm).

Yuqorida qayd etilgan talablar bajarilmasa, yuridik va jismoniy shaxslarning suvdan foydalanish huquqlari tegishli qonun hujjatlari asosida bekor qilinishi mumkin. Yetkazilgan zarar «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 39-moddasiga asosan chiqarilgan.



10.3.1-rasm. **Suvdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari.**

Nizom, yo‘riqnomalar asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hollarda va tartibda undirib olinadi.

Suv qonunchiligiga binoan *suv obyektlaridan foydalanish*:

* aholining iste’moli, maishiy va boshqa ehtiyojlari;
* davolash, kurort va sog‘lomlashtirish;
* qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari;
* sanoat maqsadlari va issiqlik energetikasi ehtiyojlari;
* baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari;
* ovchilik xo‘jaligi ehtiyojlari;
* alohida qo‘riqlanadigan hududlarda joylashgan suv obyektlari;
* suv transporti ehtiyojlari;
* oqova suvlarni oqizish;
* yong‘inga qarshi kurash ehtiyojlari;
* davlat va jamoat ehtiyojlari;
* suv omborlari, gidrouzellar va boshqa suv inshootlari;
* Orol dengizi havzasidagi suvdan davlatlararo foydalanish.

Mamlakatimizda ularning har biri bo‘yicha alohida me’yoriy hujjatlar qabul qilinadi va ekologik-huquqiy foydalanish hamda muhofaza qilish ta’minlanadi.

4. Suvlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish

Suv – hayot manbayi bo‘lgani uchun ham undan foydalanishda birlamchi huquqiy talab sifatida ekologik jihatdan muhofaza qilish me’yorlari o‘rnatiladi. Suv qonun hujjatlarida, xususan, «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 24-bobida aynan shu masalani huquqiy jihatdan tartibga solish qoidalari va me’yorlari o‘rnatilgan. Unga binoan suv obyektlari kishilar sog‘lig‘iga, suvda yashovchi tirik organizmlarning kamayishi, suvning xossa va xususiyatlari (hattoki o‘zini o‘zi tozalab turish), suv rejimining buzilishi natijasida sodir bo‘ladigan boshqa ko‘ngilsiz holatlarning kelib chiqishini muhofaza qilishni belgilovchi va amalda tatbiq qiluvchi yagona tartibot suvni ekologik-huquqiy muhofaza qilish deb yuritiladi.

Suvni ekologik-huquqiy muhofaza qilish – *quruqlik va suv ekotizimlarida suvlarning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolishga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.*

1997-yil 25-aprelda «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 98-moddasiga o‘zgartirishlar kiritilib, suvlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilishni ta’minlovchi tadbirlarni amalga oshiruvchi korxona, tashkilot va muassasalar mahalliy hokimiyat va davlatning maxsus vakolatlangan organlari bilan kelishgan holda texnologik, o‘rmon-meliorativ, agrotexnik (to‘g‘rirog‘i, agromeliorativ), gidrotexnik, sanitar-texnik tadbirlarni o‘tkazishlari shart deb qo‘yildi. Ushbu yuridik shaxslar suvga turli maishiy, sanoat, kimyoviy va fizik chiqit va chiqindilarni chiqarishlari taqiqlanadi. «Chiqindilar to‘g‘risida»gi qonunning 14-moddasiga binoan korxona, tashkilot va muassasalar chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish huquqiga egalar, lekin ushbu huquqlari mazkur qonunning 17-moddasida ko‘rsatilgan xavfsizlik talablari, ya’ni fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga yoki atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va ekologik xavfsizlikni ta’minlaydigan holatdagina ruxsat beriladi. Ularning burchlari «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 103-moddasida aks ettirilgandir.

Suv obyektlarini muhofaza qilish maqsadida muayyan alohida qo‘riqlanadigan okrug va tegra (zona)lar yoki hududlar ajratib olinadi. 1992-yil 7-apreldagi Vazirlar Mahkamasining 174-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekistonda ekologik-huquqiy rayonlashtirish, suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlar, ichimlik va maishiy suv ta’minoti obyektlari, davolash va madaniy sog‘lomlashtirish tegralariga doir Nizom»ga muvofiq olib boriladi.

O‘zbekiston huddudiga yirik daryolarni suvni muhofaza qilish zonasi va qirg‘oqbo‘yi polosasini belgilash maqsadida har bir daryo uchun davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining maxsus normativ hujjatlari qabul qilingan. Masalan:

- «Qashqadaryo viloyatida Qashqadaryo daryosining suvni muhofaza qilish zonasini va qirg‘oqbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida» (2002-yil 6-mart O‘zR VM 80-sonli qarori);
- «Toshkent viloyati va Toshkent shahrida Chirchiq daryosining suvni muhofaza qilish zonasi va qirg‘oqbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida» (2003-yil 29-oktabr O‘zR VM 471-sonli qarori);
- «Surxondaryo viloyatida Surxondaryo daryosining suvni muhofaza qilish zonasini va qirg‘oqbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida» (2004-yil 1-yanvar O‘zR VM 15-sonli qarori);
- «Namangan viloyatida Norin daryosining suvni muhofaza qilish zonasini va sohilbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida» (2004-yil 13-aprel O‘zR VM 179-sonli qarori);
- «Andijon va Namangan viloyatlarida Qoradaryoning suvni muhofaza qilish zonasini va sohilbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida « (2004-yil 13-aprel O‘zR VM 178-sonli qarori).

O‘zbekistonda So‘qoqsoy, Boshqizilsoy, Nuvalisoy kabi kichik daryolar yer usti oqar suvlarning aksariyatini tashkil qiladi. Ularda ekologik-huquqiy talablar «Tabiatni muhofaza qilish» davlat qo‘mitasi va maxsus vakolatlangan organlari bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

Suv toshqini va sel ketishi natijasida yuzaga keladigan zararli ta’sirlarning oldini olish uchun tuman hokimligi tegishli chora-tadbirlar ko‘radi. Katta talafotlarga olib keladigan suv bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy hodisalarning oldini olish va ularni bartaraf etish 1999-yil 20-

avgustdagi «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyat, tuman va shahar hokimiyatlari qoshida tuziladigan komissiyalar orqali hal qilinadi. Ilmiy, metodik va amaliy ishlarni Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning bo‘linmalari olib boradi. Moliyaviy ta’minot va moddiy yordam esa tashkilot, korxona, muassasa, xo‘jaliklar va mahalliy byudjet hisobidan, respublika va mintaqaviy dasturlar bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar esa respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

Yer osti suvlarini ekologik-huquqiy muhofaza qilish, birinchi navbatda, suvni chiqaruvchi va undan foydalanishni ta’minlovchi idoralarning huquq va majburiyatini belgilash bilan boshlanadi. Chunki yer osti suvlari joylanishining o‘ziga xos tomonlari yer qa’ridan foydalanuvchilarning xatti-harakatlariga bevosita bog‘liqdir. Yuridik va jismoniy shaxslar yer qa’ridan yoki yer osti suvlaridan foydalanishda ularning kamayib ketishi, foydali xususiyatlarini yo‘qotishi yoki ifloslanishiga yo‘l qo‘ymasliklari shart.

Suv qonunchiligi suvlarni ekologik-huquqiy muhofazalash normalarining amalda bajarilishini iqtisodiy ta’minlash maqsadida: suvdan maxsus foydalanganlik, suv obyektlarini ifloslantirganlik va ularga zararli ta’sir ko‘rsatishning boshqa xil to‘lovlari undirib olinadi. Ushbu to‘lov turi, miqdori va tartibi Soliq kodeksi, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya vazirligi va tegishli davlat organlarining qonun osti me’yoriy hujjatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Suvdan tejab-tyergab, yangi texnologiyalar asosida foydalanuvchilar uchun Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 106-moddasiga muvofiq ravishda huquqiy (masalan, birlamchi foydalanuvchi), iqtisodiy (imtiyozli kredit), tashkiliy (qo‘shimcha korxonalar tashkil etish), ijtimoiy (tajribalarini keng targ‘ib qilish), ekologik (ekologik to‘lovlardan ozod etish) va boshqa rag‘batlantirish omillarining samarali tizimini qo‘llash mumkin.

Suvdan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida suv zaxiralari davlat yo‘li bilan hisobga olinadi. Uning tarkibiga yagona suv fondini tashkil etuvchi suvlarning miqdori, sifati, aholi va xalq xo‘jaligining ehtiyojlari uchun suvdan foydalanishga oid ma’lumotlar kiritiladi. O‘zbekistonda 17 mingdan ortiq tabiiy suv oqimi mavjud

bo‘lib, unda toza suvdan foydalanish 44 km^2 dan 40 km^2 ga kamaygan. Qayta ishlatiladigani 3,9 km^2 dan 4,0 km^2, ifloslangan suvlarni suv sxohobchalariga tashlash 32,7 kub km dan 16,9 kub km, tozalab tashlangan suvlar 12,1 kub km dan 10,5 kub km ga kamaygan. Bu degan so‘z xalq xo‘jaligida suvdan foydalanish va uni tozalash, oqova suv sifatini oshirish mustaqil respublikamizda kundan-kunga yaxshi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Suvdan ekologik jihatdan foydalanish va uni muhofaza etishni rejalashtirishda prioritet (birlamchi) masala bo‘lib aholining ichimlik va maishiy xizmati inobatga olinadi. Rejalashtirish ilmiy va kadastr ma’lumotlariga asoslangan, suv xo‘jaligi balanslari, kompleks foydalanish, suvga so‘ngra, maishiy xizmatga bo‘lgan talabi muhofaza qilish jadvallarini hisobga olgan holda bajarilishi kerak.

Davlat suv kadastri «Davlat kadastrlari to‘g‘risida»gi qonun va Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1998-yil 7-yanvarda 11-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida davlat suv kadastrini ishlab chiqish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq olib boriladi. Suvning mavjud miqdori va undan foydalanish darajasini baholash esa daryo havzalari va tumanlar bo‘yicha suv xo‘jaligi balanslari asosida belgilanadi. Suvdan kompleks foydalanish va uni muhofaza qilishning *bosh va havza (hududiy) jadvallarida* aks etgan bo‘ladi. Bularning hammasi, jumladan, suv monitoringi ham Vazirlar Mahkamasi belgilab bergan tartibda davlat byudjeti hisobidagi tegishli davlat idoralari tomonidan olib boriladi.

Suvdan oqilona foydalanish hamda uni muhofaza qilish talablarini buzgan yuridik va jismoniy shaxslar tegishli javobgarlikka tortiladilar. Masalan, «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 114-moddasiga muvofiq suvdan foydalanish huquqini boshqalarga berish hamda davlatning egalik huquqini oshkora yoki yashirin tarzda buzadigan boshqa xil bitimlar haqiqiy hisoblanmaydi.

Suv qonunchiligiga oid javobgarlik va tegishli yuridik jazo quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

* suv obyektlarini o‘zboshimchilik bilan egallab olgan yoki suvdan o‘zboshimchalik bilan foydalanganda;
* suvdan foydalanish limitlarini buzgan holda suv olganda;
* daryolarni bulg‘agan va ifloslaganda;
* suvni bulg‘ash va ifloslashning yoki suv yetkazadigan zararli ta’sirning oldini oladigan inshootlari va qurilmalari bo‘lmagan korxonalarni, kommunal obyektlarni va boshqa obyektlaridan ishga tushirganda;
* suvdan (suv obyektlaridan chiqarib yoki ajratib olingan suvdan) xo‘jasizlik bilan foydalanganda;
* suv havzalarida suvni muhofaza qilish rejimini buzib, uning bulg‘anishiga, tuproqni suv yuvib ketishiga va boshqa zararli hodisalar ro‘y berishiga sabab bo‘lganda;
* suv xo‘jaligi inshootlari va qurilmalariga shikast yetkazgan va ularni vayron qilganda;
* suv xo‘jaligi inshootlarini va qurilmalarini ishlatish qoidalarini buzganda;
* suvning holatiga ta’sir qiluvchi to‘siqlar, nasos stansiyalari va boshqa inshootlarni o‘zboshimchalik bilan qurganda;
* suv haqi va suvdan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun solingan jarimalarni o‘z vaqtida to‘lamaganda;
* rejalarda ko‘zda tutilib, suvni bulg‘anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashni, shuningdek, suv holati va rejimini yaxshilashni ta’minlovchi gidrotexnika, texnologiya, o‘rmon-melioratsiya, sanitariya-texnika tadbirlari va boshqa tadbirlarni amalga oshirmaganda;
* vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulaganda;
* foydalanish va kuzatish quduqlarini yo‘q qilib tashlagan yoki ularga zarar yetkazganda;
* suv quduqlarini burg‘lashning belgilangan qoidalari va texnologiyasini buzganda;
* suvni muhofaza qilish inshootlari va qurilmalarini qurishning me’yoriy muddatlarini barbod qilganda;
* qurilishi tugallanmagan suvni muhofaza qilish inshootlarini ularning samarali ishlashiga salbiy ta’sir etuvchi, kam-ko‘stini bitirmay va loyihadan chetga chiqishlar bilan foydalanishga topshirganda;
* suvni muhofaza qilish tegralariga rioya etmaganda;
* suvdan foydalanganlik haqidagi davlat hisobotlarini taqdim etmagan yoki ushbu ma’lumotlarni buzib ko‘rsatganda;
* tabiatni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlarning ko‘rsatmalarini bajarmaganda;

* alohida qo‘riqlanadigan suv obyektlari rejimini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunlarga muvofiq jinoiy, ma’muriy va o‘zga tarzdagi javobgarlikka tortiladilar. Qonunlarda suvga oid boshqa turdagi huquqbuzarliklar uchun ham javobgarlik belgilab qo‘yilishi mumkin.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, dehqon xo‘jaliklari hamda fuqarolar suv to‘g‘risidagi qonunlarni buzish natijasida yetkazilgan zararlarni qonunlarda belgilangan miqdorda va tartibda qoplashlari shart.

O‘zboshimchalik bilan egallab olingan suv obyektlari va qonunsiz foydalanish vaqtida qilingan xarajatlar qoplanmagan holda o‘z egasiga qaytarib olib beriladi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yetkazilgan zararni qoplash tegishli qonunlarda belgilangan miqdorda va tartibda amalga oshiriladi. Suv obyektlari, shaxslar va davlatga zarar yetkazishda aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslar hamda boshqa xodimlar ma’muriy javobgarlik qoidalariga muvofiq ravishda moddiy javobgarlikka tortiladilar. Lekin amalda suvga oid munosabatlarni tartibga solishda ijobiy ishlarni rag‘batlantirish, javobgarlikka tortishdan ko‘ra samaraliroqdir[1].

5. Iqtisodiyotning ayrim sohalarida suvdan oqilona foydalanish qoidalari

Suv qonunchiligiga binoan suvdan, birinchi navbatda, aholining ichimlik suviga va maishiy xizmatga bo‘lgan talabini qondirish zarurdir. Lekin ushbu ehtiyojni qondirish istemolchilik emas, balki ekologik nuqtayi nazardan qarashni taqozo etadi. Chunki, aynan kishilarning toza ichimlik suviga ega bo‘lish huquqini ta’minlash uchun suvning hosil bo‘lish manbalarida, uning istemolchilargacha oqib kelish yo‘llarida aynan muhofaza qilish va oqilona foydalanish talablarini qo‘llashga undaydi. Bunday munosabatni fanda suvlarni ekologik-huquqiy jihatdan muhofaza qilish deb ataladi. Ekologik-huquqiy talablar iqtisodiyotning barcha sohalarida o‘ziga xos ravishda o‘rnatiladi va suvdan foydalanuvchilardan mazkur talablarga rioya etish talab etiladi.

O‘zbekiston agrar respublika bo‘lgani uchun ham davlat va jamiyatning asosiy e’tibori qishloq xo‘jaligiga qaratilgan. Chunki ushbu

[1] *Сув ҳуқуқи.* Дарслик. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2004. – 254-б.

xalq xo‘jaligi sohasi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 30 foizidan ortig‘ini, valyuta tushumining 55 foizini va tovar almashinuvining 70 foizini ta’minlaydi. Respublika aholisining 60 foizidan ortig‘i qishloqda istiqomat qiladi. Fuqarolarimiz uchun birlamchi ehtiyoj bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari agrar sohada ishlab chiqarilmoqda. Shunisi alohida e’tiborga loyiqki, qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 95 foizi sug‘oriladigan yerlardan olinmoqda.

Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish deb, qishloq xo‘jalik tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida qonuniy tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi huquqi subyektlarining suv resurslaridan foydalanishdagi huquq va majburiyatlariga aytiladi. Qishloq xo‘jalik subyektlariga qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari), dehqon va fermer xo‘jaliklari, ijara jamoalari, yordamchi xo‘jaliklar, davlat xo‘jaliklari va boshqalar kiradi. Ular madaniy o‘simliklarni o‘stirishda zarur bo‘lgan suv rejimini ta’minlash uchun suv resurslaridan foydalanish huquqlariga egadirlar.

Suv obyektlaridan qishloq xo‘jaligida oqilona foydalanish – *sanitar-ekologik nuqtayi nazardan belgilangan me’yorga rioya etgan holda qishloq xo‘jalik subyektlarining suvdan umumiy va maxsus foydalanishlari.*

Umuman olganda, qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish me’yorlari hanuzgacha 1986-yil 20-martda sobiq Ittifoq Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan va «Soyuzxlopok» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan «Gidromodul rayonlashtirish va qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish rejimi»ga binoan olib borilmoqda. Albatta, sug‘orish me’yorlari siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy holatga qarab o‘zgarmaydigan me’yordir. Lekin O‘zbekistonda aholi sonining o‘sishi va sanoatning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Bu esa miqdori o‘zgarmayotgan suv zaxiralariga bo‘lgan talabni geometrik progress ravishda o‘stirmoqda. Shuning uchun ham sug‘orish limitlari va sug‘orish rejimini rejalashtirishni zamon talabiga va ekologik vaziyatga qarab o‘zgartirib borish yoki ularda «moslashuvchanlik» prinsipini joriy qilish darkor.

Amaldagi «Gidromodul rayonlashtirish va qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish rejimi» har bir sug‘orish joyining iqlim sharoiti, gidrogeologiyasi, tuproq-meliorativ holatiga qarab, tabaqalashgan tarzda

belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining butun hududini sug‘orish limitlariga binoan tabaqalashtirish uchun maxsus rayonlarga ajratiladi. Tumanlashtirish joyning tabiiy-iqlim sharoiti va qishloq xo‘jalik subyektlarining ixtisoslashuviga muvofiq ravishda o‘tkaziladi. Lekin unda hanuzgacha ekologik vaziyat darajasi inobatga olinmaydi. Masalan, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish rejimi va gidromodul rayonlashtirish quyidagi indikatorlar (ko‘rsatkichlar)ga binoan olib boriladi:

* joyning sug‘orish sxohobchalari bilan ta’minlanganlik darajasi;
* sug‘orish suvining sifati;
* tuproq namligi (tabiiy namlik va yer yuvishda to‘planadigan namlik);
* yer osti suvlarining holati.

Gidromodul rayonlashtirish o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, u yer kadastriga doir ma’lumotlarni yig‘ishni, ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimini yaratishni talab etadi. Bunday tadbir oxir oqibatda suv resurslardan qishloq xo‘jalik maqsadlarida oqilona foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, gidromodul rayonlashtirish – yer va suv resurslardan yuqori samaradorlik bilan foydalanish, sug‘orish rejimini ilmiy asoslangan va tabaqalashgan tarzda olib borish orqali qishloq xo‘jalik ekinlaridan doimo yuqori hosil olish maqsadida muayyan ma’muriy hududlarni taksonomik birliklarga (qismlarga yoki bo‘laklarga) ajratib chiqish.

O‘zbekiston Respublikasi hududida sakkizta gidromodul okrug (Quyi Amudaryo, Chirchiq – Angren, Farg‘ona, Mirzacho‘l, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo) ajratilgan. Ular, o‘z navbatida, o‘nlab zonalarga, zonalar esa oblastlarga, oblastlar o‘z navbatida rayonlarga bo‘linadi.

Gidromodul rayonlashtirish asosida har bir viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasida sug‘orish rejimi (tartibi) xo‘jaliklar, ya’ni qishloq xo‘jalik subyektlari bo‘yicha ishlab chiqiladi. Suvdan foydalanish limitlari aynan ana shunday rejalashtirish me’yorlariga binoan o‘rnatiladi. Unda:

* umumiy sug‘orma maydonga nisbatan xo‘jalikda mavjud bo‘lgan sug‘oriladigan yerlar miqdori (foiz hisobida);
* har bir o‘simlik turi uchun sarflanishi lozim bo‘lgan suv miqdori (gidromodul rayonlarga ajratilgan tarzda);

* tavsiya etiladigan yer yuvish, zaxiraga sug‘orish me’yorlari va uni o‘tkazish vaqti;
* qishloq xo‘jaligi o‘simliklarini o‘stirish (vegetatsiya) davridagi sug‘orish rejimining kengaytirilgan jadvali;
* qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanishni rejalashtirish kabi ma’lumotlar berilgan bo‘ladi.

Suv resurslaridan oqilona, davriy va samarali foydalanishni olib borish maqsadida qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish rejalashtiriladi. Mazkur rejalashtirish «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonuning 48-moddasi, «Suvdan foydalanishning ichki xo‘jalik rejalarini tuzishni olib borishga doir yo‘riqnoma» va «Suvdan foydalanishning umumiy tizimini rejalashtirishni tuzish va olib borishga doir yo‘riqnoma»ga binoan amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish rejalari qonunga muvofiq sug‘orish, suv chiqarish, sug‘orish – suv chiqarish (birgalikda) tarmoqlaridagi, magistral kanallardagi, suv omborlaridagi va boshqa gidrotexnik hamda suv xo‘jaligi obyektlaridagi suvlardan foydalanish ishlari, suvdan foydalanishning ichki xo‘jalik va umumiy tizimli rejalarga binoan yillik amaldagi suv bilan ta’minganlikni hisobga olgan holda olib boriladi.

Suvdan foydalanishning ichki xo‘jalik rejasi qishloq xo‘jalik subyektlarining suv resurslaridan ekinlarni sug‘orishda foydalanishni rejalashtirishni tuzish tartibini belgilaydi. U esa o‘z navbatida, qishloq xo‘jalik shirkati, fermer va dehkon xo‘jaliklari, bog‘dorchilik va uzumchilik uyushmalari kabi subyektlarning yetishtirilishi kutilayotgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining suvga bo‘lgan talabini inobatga olish, sug‘oriladigan yerlarni tayyorlash, boshqa noqishloq xo‘jalik maqsadlarida suvdan foydalanish me’yorlarini o‘rnatish uchun xizmat qiladi.

Xo‘jaliklararo ishlovchi meliorativ qurilmalar (kollektor, drenajlar)da suvdan foydalanish va ulardagi suv rejimini tartibga solish ichki xo‘jalik va umumiy tizimli rejalarga muvofiq olib boriladi.

Qishloq xo‘jalik ekinlarni yetishtiriruvchi xo‘jaliklar tomonidan tuzilgan ichki suvdan foydalanish rejalari Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining havza boshqarmalari bilan kelishilib, mahalliy tuman hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlanishi kerak bo‘ladi. Ushbu holat qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining huquqiy asosini yaratish

va takomillashtirishga oid 1998-yil aprel va avgust oylarida bo‘lib o‘tgan Oliy Majlisning maxsus XI va XII sessiyalarida hamda 2000-yil 15-dekabr II chaqiriq 4-sessiyasida qabul qilingan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalarga binoan amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlarning suvdan foydalanishning umumiy tizimli rejalari havzalar bo‘yicha 2003 yil tuzilgan boshqaruv organlari bilan muvofiqlashtirish va tuman, viloyat respublika markaziy hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlash asosida amalga oshiriladi.

Sug‘oriladigan yerlarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun suvdan maxsus ravishda foydalaniladi. U uchun sug‘oriladigan yerlarda turli xil ahamiyatga molik gidrotexnik inshootlar quriladi, meliorativ sxohobchalar yaratiladi hamda shu kabi turli suv olish, sug‘orish, oqizish va tashlash moslamalari quriladi.

Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 49-moddasiga binoan, yerdan foydalanish mulkchilikning qaysi shaklida bo‘lishidan qat’i nazar, suv fondi yerlaridan, sug‘oriladigan yerlar doirasidagi xo‘jaliklararo gidrotexnik inshootlardan, yer osti suv chiqargichlardan yagona suv xo‘jaligi tizimi sifatida foydalaniladi. Mazkur inshootlar davlat mulki hisoblaniladi va ularni milliy xavfsizlik nuqtayi nazaridan xususiylashtirish, ya’ni boshqa mulk shakliga o‘tkazish mumkin emas.

Daryolar, magistral va boshqa suv xo‘jaligi obyektlarining sohil bo‘yi mintaqalari, yer osti suvi chiqarish sanitariya muhofaza tegralarining I va II poyaslari tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlari uchun yer egalari va yerdan foydalanuvchilardan olib qo‘yilishi mumkin. Tabitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 48-moddasida ko‘rsatilganidek, atrof tabiiy muhitga zararli ta’sir ko‘rsatayotgan obyektlar, jumladan, qishloq xo‘jalik obyektlari ham, faoliyati cheklanishi, to‘xtatib qo‘yilishi, tugatilishi va o‘zgartirilishi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, vakolatlangan tabiatni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur qonunning 49-moddasiga binoan, qonunbuzarlik oqibatlari orqali suv resurslariga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash majburiyati huquqbuzar shaxslarga yuklatiladi.

1992-yil 7-aprel Vazirlar Mahkamasining 174-sonli «O‘zbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlarning, shuningdek, ichimlik va maishiy

suv ta’minotining, davolash va sog‘lomlashtirishda ishlatiladigan suv manbalarining suvini muhofaza qilish zonalari haqidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq qishloq xo‘jalik maqsadlarida suvlarni ishlatish tartibi belgilanadi.

Sug‘oriladigan yerlarda dehqonchilik uchun suv olish limitlari gidromodul rayonlashtirish, ichki va umumiy tizimdagi rejalarda belgilangan yillik me’yorlar asosida amalga oshiriladi. U ko‘zda tutilmagan holatlar, ya’ni suv resurslarining zaxiralanishi yoki uning xalqaro miqyosda taqsimlanish me’yori o‘zgargan taqdirda, ijroiya davlat markaziy va mahalliy hokimliklari qarorlariga muvofiq o‘zgartiriladi.

Suv olish va uning hisob-kitobini yuritish ro‘yxatdan o‘tkazilgan suv manbalaridan (xo‘jalik kanallarining bosh inshootlaridan, quduqlardan, nasos stansiyalari va boshqa suv olish gidrotexnik inshootlardan) suv ajratish joylarida turgan suv xo‘jaligi (2003-yildan havza suv boshqarmalari) organi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq olib boriladi.

O‘zbekistonda sug‘orish suvining yetishmasligi yer osti suvlari bilan bir qatorda oqindi suvlardan qishloq xo‘jaligida foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Lekin ulardan foydalanishda hamisha ekologik talablarning bajarilishi talab etiladi.

Qishloq xo‘jaligida yerlarni oqindi suvlar orqali sug‘orish suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 51-moddasi, Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 19 va 24-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 3-avgustdagi 385-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida suvdan cheklangan miqdorda foydalanish bo‘yicha vaqtinchalik yo‘riqnoma»ga, binoan amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga ko‘ra, oqova suvlardan qishloq xo‘jaligida faqatgina suv olish inshootlari o‘rnatilgan va suvdan maxsus foydalanishga ruxsatnomalari bo‘lgan xo‘jaliklargagina foydalanishga beriladi. Suv olishning cheklangan miqdorlari suv xo‘jaligi organlari tomonidan suv manbalarining taxmin etilgan va sersuvlik darajasini hisobga olgan tarzda qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanuvchilar uchun yiliga 2 marotaba belgilaniladi. Ushbu suv olish tartibi shartnomaga binoan va mazkur qarorning 4-bandiga muvofiq belgilangan shartlarda amalga oshiriladi.

Oqindi suvlardan qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun maxsus Tabiatni muhofaza qilish davlat organlari, Davlat sanitariya va veterinariya nazorati organlarining ruxsatini olish lozim bo‘ladi.

Sanoat, kommunal xo‘jalik korxonalari va boshqa korxonalar hamda tashkilotlar tuproq unumdorligi va yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlariga zararli ta’sir qiluvchi suvlarni qishloq xo‘jalik yerlarini sug‘orish uchun berishlari taqiqlanadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanib borayotgan O‘zbekiston Respublikasida suvdan qishloq xo‘jaligida foydalanuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari tenglashib bormoqda. Sobiq Ittifoq davrining suv qonunchiligida davlat agrar sohasida faoliyat yurgizuvchi, ilmiy tadqiqot muassasalari, tajriba uchastkalari, sinov va moslashtiruvchi korxonalarning suvdan foydalanish huquqlari boshqa nodavlat xo‘jaliklariga nisbatan ustivorlika ega bo‘lgan. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining davlat tasarrufidan chiqarilishi (qishloq xo‘jaligida 2003-yilga kelib 98% dan ortiq xo‘jaliklar mustaqil faoliyat yurituvchi turli mulk shaklidagi xo‘jaliklardan iborat bo‘ldi) ular o‘rtasida suv-yer resurslaridan teng huquqlik asosida foydalanish imkoniyatini yaratdi.

«Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 32 va 34-moddalaridan kelib chiqqan holda *qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suvdan foydalanuvchilar:*

- suv obyektlari qanday, ya’ni qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, sho‘rini yuvish, yahob suvini berish kabi maqsadlarda berilgan bo‘lsa, shu maqsadlarda foydalanish;
- sho‘rini yuvish, zaxira suvini to‘plash, sug‘orish va boshqa meliorativ ishlarni amalga oshirish uchun tegishli inshootlarni qurish va chora-tadbirlarni o‘tkazish kabi ishlarni amalga oshirish;
- ishlatilish arafasida turgan, ishlatilayotgan suv sifatini va miqdorini tekshirib borish;
- qonunlarda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda (masalan, kutilmagan qurg‘oqchilik, suv toshish, gidrotexnik inshootning falokatga uchrashi kabi fors-mojor holatlarda) shartnoma bo‘yicha olinmay qolgan suv uchun tovon to‘lanishini talab qilish;
- suv obyektlaridan foydalanish bo‘yicha qonunda taqiqlanmagan boshqa ishlarni amalga oshirish huquqiga egadirlar. Ularning ushbu huquqlari qonunlar bilan muhofaza qilinadi, huquqlar buzilgan taqdirda, ular qonunlarda nazarda tutilgan tartibda tiklanishi lozim. Qonunlarda ko‘zda tutilgan hollarda (davlat, jamiyat va xalqaro hamjamiyat manfaati uchun) suvlardan qishloq xo‘jaligida foydalanish huquqlari cheklanishi mumkin.

«Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 35 va 50-moddalariga muvofiq, suvdan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanayotgan subyektlar zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

- suvlardan faqatgina belgilangan maqsadlarda, miqdorda va tartibda foydalanishlari;
- suvdan foydalanish limitlari, rejalari, qoidalari, me’yorlari va rejimlariga rioya etishlari;
- vyertikal(tik) drenajlarni inobatga olgan holda, foydalanishning barcha turlari uchun ishlatilayotgan suvni hisobga olib borishlari;
- ichki xo‘jalik sug‘orish, suv chiqarish va kollektor tarmog‘i hamda undagi inshootlarni va suv chiqarish hududlarini texnik jihatdan ishga yaroqli holda saqlashlari;
- melioratsiya qilingan yerlarni kompleks rekonstruksiya qilishlari va qishloq xo‘jalik ekinlari hamda o‘simliklarini sug‘orish, shuningdek, yaylovlarga suv chiqarishning maqbul rejimini saqlashlari;
- suvni tejaydigan texnologiyalar va ilg‘or texnikani joriy etish orqali sug‘orishning uslub hamda metodlarini takomillashtirishlari;
- qishloq xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalaniladigan suv monitoringi asosida salbiy jarayonlarning sabablari va oqibatlarini bartaraf etishlari;
- belgilab olingan aniq maqsadlarga muvofiq, foydalanilayotgan suvlarning samaradorligini oshirishlari shart.

Undan tashqari, qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suvdan foydalanuvchilar xo‘jaliklararo melioratsiya va irrigatsiya tarmoqlarini ishga yaroqli holda saqlab turish uchun qonunlarda belgilangan tartibda irrigatsiya va melioratsiya ishlarini bajarishga jalb etiladilar.

Soliq kodeksining 149-moddasiga binoan qishloq xo‘jalik tovar mahsulotini yetishtiruvchi yuridik shaxslar sho‘rlangan yerlarni yuvish maqsadida suvdan bepul foydalanish huquqiga egadirlar. Lekin ushbu bepul foydalanish tartibi tasdiqlangan ichki xo‘jalik rejalari asosida amalga oshirilishi talab etiladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining sug‘orma yerlardan oqilona foydalanishni tashkillashtirish va yer kadastri talablariga mos ravishda tuproq unumdorligiga yerishishlari uchun turli xil fitomeliorativ choratadbirlarni amalga oshirishlari kerak bo‘ladi. Masalan, O‘zbekistonda shamol eroziyasi xavfi bo‘lgan sug‘oriladigan hududlarda (respublikamizda ularning maydoni 1 mln.ga dan oshiqroq) ihota daraxtzorlarini tashkil etish asosiy tuproq-meliorativ choralardan hisoblaniladi. Kuchli jarlangan yoki yemirilgan 300 ming ga voha yerlarida suv eroziyasi jarayonlarining oldini olish uchun o‘rmon-fitomeliorativ himoya tegralarini tashkil etish ilmiy va amaliy jihatdan o‘z isbotini topgan. Xullas, sug‘oriladigan va qishloq xo‘jaligi ekinlari bilan band bo‘lgan yerlarning unumdorligini saqlab qolish, agrosanoat, agroxizmat va qishloqda yashaydigan aholining kundalik faoliyatini barqarorlashtirish maqsadida qishloq xo‘jaligi maqsadlaridagi yer fondida o‘rmonlar, daraxtzorlar (jumladan, ihota daraxtzorlari), ko‘chatzorlar tashkil etish ekologik tadbirlar ko‘lamiga kiradi.

Tashkil etilgan o‘rmonlar, daraxtzorlar va ko‘chatzorlarni sug‘orish «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 47, 50, 51, 52-moddalarida ko‘rsatilgan qoidalar va me’yorlar asosida olib boriladi. Ularda ham gidromodul rayonlashtirish asosida ichki va umumiy tizimdagi rejalar ishlab chiqiladi, tegishli hujjatlar tuziladi va xuddi shunday protsessual tartibda tasdiqdan o‘tadi.

Jamoa bog‘lari, ekinzorlari va tomorqa yerlarni sug‘orishda suv obyektlaridan foydalanish ikkilamchi darajada suvdan foydalanish obyekti, deb qaraladi. Lekin ushbu yerlarda respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mayda tovar mahsulotining (meva, sabzovot, poliz ekinlari, ko‘kat va gullarning) 80–85 foizi olinadi. Shuning uchun ham qonunda ikkilamchi daraja qilib belgilangan sug‘orma yerlarni suv bilan ta’minlash ham o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi va ekologik jihatdan asoslanishi talab etiladi.

Jamoa bog‘lari va ekinzorlari hamda tomorqa yerlarini suv bilan ta’minlash 1993-yil 3-avgustda qabul qilingan «Suvdan foydalanish limitlari to‘g‘risida»gi Vazirlar Mahkamasining 11-sonli qarori asosida olib boriladi. Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 53-moddasiga ko‘ra, bunday yerlarni suv bilan ta’minlash xo‘jaliklarning suv ajratish joylarida (xo‘jalik taqsimlagichning yoki kanalning bosh gidrotexnika inshootida) birlamchi suvdan foydalanuvchilar bilan shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

Birlamchi suvdan foydalanuvchi qishloq xo‘jalik shirkati, fermer va dehqon xo‘jaliklari, ilmiy va tajriba muassasalari o‘z ichki xo‘jalik va umumiy tizimli suvdan foydalanish rejalariga jamoa bog‘lari va ekinzorlari hamda yordamchi tomorqa yerlarini sug‘orish uchun kerak bo‘ladigan suv miqdorini ko‘rsatib o‘tishlari zarur. Ularda ikkalamchi sug‘orma yerlar maydoni, ekin turlari, gidromodul rayonlashtirishda talab etiladigan va suv rejimini belgilovchi barcha me’yoriy hujjatlar berilishi lozim.

Birlamchi suvdan foydalanuvchi xo‘jaliklar, jumladan, qishloq xo‘jalik shirkatlari, dehqon va fermer xo‘jaliklar hamda boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari, tashkilotlari va muassasalari, fuqarolar xo‘jaliklararo ahamiyatga molik suv obyektlaridan suv olishni ko‘paytirish yoki kamaytirish maqsadida o‘z rejalarini o‘zgartirishlari taqiqlanadi. Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunning 9-moddasida ko‘rsatilganidek, ushbu inshootlardan foydalanuvchi subyektlar inshootlarning xavfsiz darajada ishlashini buzishlari, muvaqqat to‘siqlar, nasos stansiyalari va boshqa inshootlarni qurishlari taqiqlaniladi. Huquqbuzar shaxslar esa keltirilgan moddiy va ma’naviy ziyonni qoplashlari shart hamda qilmishning ijtimoiy xavfliligiga qarab, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 55-moddasi, Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunning 9-moddasiga binoan kanallar, to‘g‘onlar, suv tashlash, suv bo‘shatish, suv o‘tkazish va suv chiqarish inshootlari, tunellar, turli tabiiy ofat va texnogen falokatga qarshi o‘rnatilgan gidrotexnik inshootlar ustidan traktorlar, transport vositalari va chorva mollarini haydab o‘tish taqiqlanadi. Ularda ko‘chat yoki ekinlarni yetishtirish maqsadida obikor dehqonchilik qilish, ruxsat etilmagan barcha xo‘jalik ishlarini olib borish taqiqlanadi. Qonunbuzar shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 76-moddasiga (suv xo‘jaligi inshootlari va qurilmalarini shikaslantirish, ulardan foydalanish qoidalarini buzish), Jinoyat kodeksining 193-moddasiga (ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish) binoan yuridik javobgarlikka tortiladilar.

2003-yil 1-sentabrda bo‘lib o‘tgan Xalqaro Dushanba Forumida toza suv bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlarining barqaror rivojlanish tashab-

busi qabul qilindi. Hozirgi kungacha o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan ushbu tashabbusda mazkur mintaqada toza suvdan foydalanish va unga ega bo‘lishning quyidagi asosiy vazifalari belgilanib olindi:

- 2010-yilda sug‘oriladigan yerlar uchun suvdan samarasiz foydalanishni 20 foizgacha pasaytirish;
- ichimlik suvidan kundalik iste’mol qilish me’yorini shaharda har bir kishi uchun 200 litrga, qishloqda 100 litrgacha tushirish;
- vodoprovod tarmoqlari orqali suv ta’minotini shaharda 99 foizgacha, qishloqda esa 60 foizgacha ko‘paytirish;
- sanoatdan qaytmaydigan suv sarfi salmog‘ini 30–40 foizgacha kamaytirish.

Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 25-moddasida respublikamizda suv obyektlari, avvalo, aholining ichimlik suviga va maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanishga berilishiga alohida urg‘u berilgan.

Ochiq suv havzalaridan aholini sog‘lomlashtirish va ijtimoiy-maishiy maqsadlarda suvdan foydalanishi, ya’ni daryolar, ko‘llar, buloqlar, suv omborlari va boshqalardan maxsus inshootlar va texnik vositalarsiz foydalanishlari – aholining suvdan umumiy foydalanishlari deb ataladi hamda u bepul amalga oshiriladi. Aholining suvdan umumiy foydalanishi eng ko‘p tarqalgan suvdan foydalanish turi hisoblanadi va unga kishilarning suvdan ichimlik suvi sifatida foydalanishlari va uy hayvonlarining suvga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishi, ovqat tayyorlash, cho‘milish, kir yuvish, xonaki va madaniy o‘simliklarga suv quyish kabi faoliyat turlari kiradi.

Umumiy va maxsus suvdan foydalanish masalasi ko‘rilganda, asosiy diqqat kommunal xo‘jalikning vodoprovod tarmoqlaridagi ichimlik va texnik suvdan foydalanishga qaratiladi. Bunday munosabatlar esa fuqarolik huquqining predmeti hisoblanadi va u doimo o‘zgarib turadi. Masalan, poytaxtda vodoprovod va kanalizatsiyalar orqali suvdan foydalanish normalarining so‘ngi tarifi Toshkent shahar hokimi apparati Moliya bosh boshqarmasining maxsus buyrug‘i bilan qabul qilinadi va doimo o‘zgartirishlar kiritib boriladi. Unga binoan shahar aholisi suvdan vodoprovodlar orqali foydalanishlari uchun har 1 m^3 ga o‘rnatilgan miqdorida pul to‘laydilar. Aholining suvdan ichimlik va maishiy maqsadlarda foydalanish uchun to‘lov miqdorini

o‘rnatish juda murakkab jarayon bo‘lib, u bir qator maishiy va xo‘jalik holatlarni inobatga olgan tarzda hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojning 80% yer osti suvlari hisobiga amalga oshiriladi. Ichimlik suvining umumiy istiqbolli bahosining respublika bo‘yicha me’yori 17 km^3 ni tashkil etadi. Hozirgi kunda o‘rtacha yillik iste’mol qilish 10 km^3 ni tashkil etmoqda, jumladan, maishiy-xizmat zarurati uchun 3 km^3 dan ko‘proqdir. Kelajakda esa bunday imkoniyatlar yanada kamayadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy viloyatlarini ichimlik suvi bilan ta’minlash imkoniyati yetarli darajada, deb bo‘lmaydi. Bunday holat Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida ham yuzaga kelishi mumkin. Chunki ushbu viloyatlarda 1 litr ichimlik suvi tarkibida suvda yengil eruvchan tuzlarning miqdori 1,5–3 gramm va undan ham ortiq miqdorni tashkil etmoqda. Ular ekologik xavfsiz ichimlik suvi darajasida emas.

Respublikaning boshqa viloyatlarida chuchuk ichimlik suvining zaxirasi hozircha yetarli, lekin ular ham kamaya bormoqda.

Yer osti va ustki suv resurslarini saqlash, ularning zaxiralarini ko‘paytirish uchun yerlarni melioratsiya qilish va qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta’minlashning davlat dasturlari ishlab chiqilgan va ularni amalga tatbiq qilishning kompleks tadbirlar rajasi ishlab chiqilmoqda.

Yangi va rekonstruksiya qilingan korxonalar va boshqa xo‘jalik obyektlarini joylashtirish, loyihalashtirish, qurish va ishga tushirishda hamda suvning sifatiga salbiy ta’sir qiluvchi yangi texnologik tizimlarni joriy qilishda aholining salomatligini muhofaza qiluvchi talablarga rioya qilish, birinchi navbatda, maishiy va ichimlik suvga bo‘lgan talabni qondirish o‘ta muhim masala hisoblanadi. Bunda, albatta, quyidagi ekologik choralarni nazarda tutmoq lozim:

- suv obyektlaridan foydalanish uchun olinadigan va ularga qaytarib tashlanadigan oqova suvlarni hisobga olish;
- suvni ifloslanish, turli xil chiqindilar bilan ifloslanib, uning yo‘lini to‘suvchi holatlardan muhofaza qilish;
- suvning salbiy ta’sirining oldini olish;
- yerlarning namini zarur miqdorda ushlab turish va zax bosishdan asrash;
- yerni erozion jarayonlardan asrash;

- suvlarni muhofaza qiluvchi qulay tabiiy sharoitlarni va yer usti landshaftlarini saqlab qolish.

Suvning holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, inshootlar va boshqa obyektlar quriladigan joylarni belgilab olish «Suv va suvdan foydalanish to'grisida»gi qonunning 13-moddasiga muvofiq, mahalliy hokimiyat boshqaruv organlari, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish, Sanitariya nazorati, Geologiya va mineral resurslari hamda boshqa organlar bilan kelishgan holda O'zR 421–1, 25 04. 97-raqamli boshqaruv hujjatiga muvofiq olib boriladi.

Suvning holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, inshootlar va boshqa obyektlarni qurish loyihalarini kelishib olish tartibi davlat ekspertizasidan o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Davlat ekspertizasi Qishloq va suv xo'jaligi, Tabiatni muhofaza qilish, Geologiya va mineral resurslar hamda boshqa davlat organlari bilan O'zR 421–1, 25.04.02-raqamli boshqaruv hujjatiga muvofiq belgilanadi.

Suvning bug'lanishi va ifloslanishi yoki zararli ta'sir ko'rsatishining oldini oluvchi qurilmalar bilan ta'minlanmagan yangi va ta'mirlangan korxonalar, sexlar, agregatlar, kommunal va boshqa obyektlarni ishga tushirish qonunning 15-moddasiga binoan quyidagi holatlarda man etiladi:

– loyihalarda nazarda tutilgan yerlarning suv bosishi, zaxlanishi, botqoqlanishi, sho'rlanishi hamda tuproq eroziyasining oldini olish tadbirlari amalga oshirilmaguncha sug'orish va suv bilan ta'minlash tizimlarini, suv omborlari va kanallarini ishga tushirish;

– tasdiqlangan loyihalarga muvofiq, suv to'planadigan va boshqa inshootlarni qurib bitkazmay turib, zax qochirish tarmoqlarini ishga tushirish;

– tasdiqlangan loyihalarga muvofiq baliqlarni saqlab qolish qurilmalari bo'lmagan suv olish inshootlarini ishga tushirish;

– tasdiqlangan loyihalarga muvofiq toshqin suvlari va baliqlarni o'tkazib yuboradigan qurilmalar tayyor bo'lmagan gidrotexnika inshootlarni ishga tushirish;

– yer osti suv zahiralari tasdiqlanmagan guruhli suv olish inshootlarini ishga tushirish;

– suvni tartibga soluvchi qurilmalar bilan ta'minlamay turib va tegishli hollarda sanitariya muhofazasi tegralarini belgilamay turib, suv chiqarish uchun burg'ilangan quduqlarni ishga tushirish taqiqlanadi. Shuningdek, suv omborlarini to'latish, loyihada ko'rsatilgandek tayyor qilib qo'yish tadbirlari amalga oshirilmagunga qadar suv bilan to'ldirish taqiqlanadi.

Mazkur qonunning 17-moddasida suv obyektlarida suvni muhofaza qilish tegralari va sohil bo'ylarida qilinadigan ishlarni bajarish tartibi o'rnatilgan. Unga binoan suv obyektlarining sohil bo'ylarida suv obyektlarining bulg'anishi, ifloslanishi va kamayib ketishining oldini olish, ularning maqbul suv rejimi va tegishli holatini saqlab turishga mo'ljallangan suvni muhofaza qilish tegralari va qirg'oq bo'yi mintaqalarida muayyan tegralar ajratiladi.

Suvning tarkibiga ta'sir etuvchi suv obyektlaridagi suvni muhofaza qiluvchi zonalar va qirg'oq bo'ylaridagi tegralarda qurilish, o'zan tubini chuqurlashtirish va portlatish ishlari, foydali qazilmalar va suv o'simliklarini olish, kabellar va boshqa kommunikatsiyalar o'tkazish, daraxtlarni kesish, parmalash, qishloq xo'jaligi ishlari va boshqa xil ishlar O'zR 421–1, 25.04.97-raqamli boshqaruv hujjatlari asosida mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo'jaligi organlari va boshqa organlar bilan kelishgan holda olib boriladi. Suvning holatiga ta'sir qiluvchi barcha ishlar qonun talablariga muvofiq ravishda, ilmiy asoslangan me'yor va qoidalar asosida qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi hamda kommunal xo'jaligining manfaatlarini inobatga olgan tarzda olib boriladi.

Alohida davlat ahamiyatidagi yoki ilmiy va madaniy qimmatga ega bo'lgan suv obyektlaridan foydalanish qonunning 20-moddasiga binoan, qisman yoki to'liq man etilishi mumkin. Chunki ushbu obyektlar har bir davlatning siyosiy, iqtisodiy va ekologik xavfsizligini ta'minlashning muhim elementi hisoblaniladi.

O'zbekiston Respublikasining suv resurslariga oid barcha dasturlarini hayotga tatbiq qilish (jumladan, qishloqning 2000-yilgacha bo'lgan ijtimoiy infrastrukturasining rivojlanish Dasturi, qishloq aholisini ichimlik suvi va gaz bilan 1995–2000-yillarga ta'minlanish rejasi) ichimlik suvidan foydalanishni 2001-yilga kelib, qishloq joylarda 72 foizga oshirdi. XX asrning 90-yillarida bu raqam atigi 52 foizni tashkil etgan, xolos.

Qonunning 43-moddasida ichimlik va maishiy maqsadlardan boshqa maqsadlarda yer osti suvlaridan foydalanish, qoidaga binoan, man etiladi. Lekin yer usti chuchuk suv zaxiralari bo'lmagan hudud-

larda Qonunning 30-moddasiga muvofiq, limit asosida ruxsat etiladi. Bu ruxsatnomani Tabiatni muhofaza qilish, Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitalari organlari tomonidan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun berilishi mumkin.

Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 57-moddasiga asosan mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari tabiiy ofat, avariyalar ro‘y bergan taqdirda va boshqa favqulodda holatlarda, shuningdek, korxona vodoprovod suvini belgilab qo‘yilgan miqdordan oshiq sarf qilib yuborgan taqdirda ichimlik suvidan sanoat maqsadlari uchun foydalanishni cheklashlari mumkin. Iste’mol suvi kategoriyasiga kiritilgan chuchuk yer osti suvlarini ishlab chiqaruvchi texnik maqsadlar uchun sarf qilish qat’iyan man etiladi. Lekin yer usti suv manbalari yo‘q hududlarda ichimlik yoki foydali suvlar darajasiga kiritilmagan yer osti suvlari (chuchuk, mineral, termal) belgilangan tartibda texnik maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

Qonunning 74-moddasiga binoan, suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga ruxsat etiladi, agarda ular tabiatni muhofaza qilish va sanitariya nazorati organlari tomonidan belgilab qo‘yilgan darajada tozalab berilsa, qonunda ko‘rsatilgan qoidalar buzilsa, oqava suvlarni tashlash cheklanadi, to‘xtatiladi yoki taqiqlanadi. Aholining sog‘lig‘iga xatarli hollarda, oqindi suvlarni tashlash to‘xtatiladi va hatto ishlab chiqarish obyekti faoliyati to‘xtatib qo‘yilishi mumkin.

«Suv bor yerda hayot bor», deydi dono xalqimiz. Shuning uchun ham uni ekologik-huquqiy jihatdan muhofaza qilish hozirgi va kelajak avlodlarimiz oldidagi burchimizdir.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Suv resurslarini nima uchun ekologik-huquqiy muhofaza qilish zarurligini jadvalga tuzib chiqing va uni muhokama qiling!
2. Suv obyektlariga nimalar kiradi?
3. Suvga oid munosabatlarda umumiy va maxsus davlat boshqaruv organlarining funksiyalari qanday?
4. Suvlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilishning huquqiy asoslarini keltiring va guruhda muhokama qiling!
5. Suvdan foydalanuvchilarning huquqlari nimalardan iborat?
6. Suvdan foydalanuvchilarga qanday majburiyatlar yuklatiladi?

7. Markaziy Osiyoda suv muammolari va ularning ekologik-huquqiy yechimi qanday?
8. Qanday suv obyektlardan foydalanish O‘zbekistonda xalqaro-huquqiy normalar asosida tartibga solinadi?
9. Ichimlik va maishiy xizmatda suvdan foydalanish birlamchi (prioritet) norma sifatida qaraladi.
10. Jinoyat kodeksida suvga oid huquqbuzarliklar uchun qanday sanksiyalar o‘rnatilgan?
11. Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish talablarini aytib bering.
12. Suvdan foydalanishning milliy huquqiy me’yorlarini aniqlang!

Bilimlar xazinaboni
ziyonet.uz

XXI asr – yer osti boyliklaridan o'ta oqilona foydalanish asri bo'lmog'i lozim.

XI bob. YER OSTI BOYLIKLARINI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. Yer osti boyliklari tushunchasi va ularni huquqiy muhofaza qilish zarurati

Yer osti boyliklari nisbiy tushuncha bo'lib, me'yoriy hujjatlarda u nafaqat tuproq ostidagi, balki yer yuzasi va suv obyektlari tubida, ya'ni yer qa'rida joylashgan mineral moddalardir. Mineral – yer yuzida va qa'rida fizik va kimyoviy jarayonlar natijasida vujudga kelgan, kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari jihatdan deyarli bir xil bo'lgan jins (modda)[1]. Shunday qilib, mineralning tuproq yoki tuproq hosil qiluvchi ona jinsdan farqi uning kimyoviy tarkibi (kimyoviy elementlar soni va uning o'zaro birikmasi) va fizik xususiyatlari (suv va temperatura rejimi, katta-kichikligi, sinishi, qattiqligi) bilan farq qiladi. Masalan, toshko'mir – 97% gacha ugleroddan va qolgani esa uchuvchi moddalardan tarkib topgan. Issiqlik berishi 7200–8750 kkal/kg. Ohaktosh – karbonli birikma, fizik xususiyatlaridan biri – suvda eruvchanligi va uning natijasida katta miqdorda energiya ajratib chiqaradigan jinsligi.

Ayrim mutaxassislar[2] yer osti boyliklarini «yer osti qazilmalari» deb ham yuritadilar. Lekin bu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki sayyoramizda uchraydigan 3 ming turdan oshiq minerallarning atigi 200–300 xil turi inson faoliyatida «qazilma» boylik sifatida ishlatiladi, xolos. Undan tashqari, minerallar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va madaniy-sog'lomlashtirish vazifalarini ham bajaradi.

Yer osti boyliklarining ekologik funksiyasi – *ekotizimlarning tabiiy fundamenti, pedosferani hosil qiluvchi ona jinslarning tarkib topishidagi mineral asosi ekanligi.*

[1] *Энциклопедик луғат.* 1-ж. – Т.: ЎСЭБР, 1987. – 522-б.

[2] *Х.Т.Турсунов.* Экология асослари ва табиатни муҳофаза қилиш. – Т.: Саодат РИА, 1997. – 5-б.

Mineralning kimyoviy, fizik va biologik yemirilishi natijasida ona jinslar hosil bo'ladi va tirik organizmlarning faoliyati natijasida ular tuproqqa aylanadi. Bunday tabiiy jarayon yer osti minerallarining ekologik tizimlarda ishtirok etishini ta'minlab beradi.

Yer osti boyliklarining iqtisodiy funksiyasi – insonlarning kundalik hayotidagi (energetika, qurilish, sanoat va h.k. jabhalarida) moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi mineral xomashyoligi.

Yer osti boyliklarining madaniy-sog'lomlashtirish funksiyasi – yer qa'ri va minerallarning foydali xususiyatlarini insonlarning dam olishi va salomatligini tiklashda ishlatilishi.

Yer osti boyliklarining o'ziga xos tomonlaridan biri ularni tugallanadigan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar toifasiga kirishidir. Agarda o'simlik va hayvonot dunyosining qayta tiklanish davri bir necha daqiqadan bir necha o'n yillarni, tuproq – yuzlab yillarni, suv – 10 yildan 5000 yilni o'z ichiga olsa, minerallarning tiklanish davri yuz minglab yoki millionlab yillarni talab etadi. Insoniyat tarixida bu jarayon juda uzoq muddatli davr bo'lgani uchun ham, biz ularni tiklanish imkoniyati yo'q yoki tiklanmaydigan tabiiy resurslar toifasiga kirgizamiz.

Bizga ma'lumki, ayrim minerallar (qum, tosh, toshko'mir va h.k.) yer usti va suv ostida ham uchraydi. Lekin ularning aksariyati (90% dan ortig'i) yer qa'rida uchragani uchun ham biz shartli ravishda ularni – «yer osti boyliklari» deb ataymiz. Ular nafaqat tabiiy resurs sifatida, balki tabiiy boylik (obyekt) sifatida ham qaralib, ularni muhofaza qilish esa ekologik tizimlarning harakatini saqlab qolish demakdir.

O'zbekistonda yer osti boyliklaridan 100 dan ortig'i mineral resurslar sifatida ishlatilib kelinmoqda. Ularning moliyaviy potensiali 3,3 trln. yillik qazib olishning iqtisodiy ko'rsatkichi 5,5 mlrd. AQSh dollariga tengdir. Shuning uchun ham mineral xomashyo bizning asosiy boyligimiz hisoblanadi. Ulardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» degan asarida O'zbekiston sobiq Ittifoqning mineral xomashyo bazasi bo'lgani va undan o'ta shafqatsizlarcha – «tagi yo'q bochka» kabi foydalanganliklarini alohida ta'kidlab o'tgan. Natijada ular ekologik tizimlarning

buzilishiga, «oy landshafti»ga o‘xshash chiqindi moddalar tepaliklarini paydo qilishga, radioaktiv xavfli tegralarni vujudga keltirishga sabab bo‘lganini aytib o‘tgan. Endilikda bunday qayta tiklanmaydigan zaxiralardan qat’iy mezon asosida foydalanish, ularni qazib olish va qayta ishlash chog‘ida isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik kerak. Buning uchun eskirgan qayta ishlash va qazib olish uskunalarini yangi texnologiyalar bilan almashtirish, rekonstruksiya qilish zarur. Tog‘-kon sanoatining chiqindilarini o‘zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish talablarini amaliy qo‘llash lozim.

Yuqorida keltirilgan va davlatimizning yer osti boyliklaridan foydalanish hamda muhofaza qilishdagi davlat siyosatini amalga oshirmoq uchun, avvalambor, ushbu munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy-me’yoriy zamin yaratmoq kerak. Chunki yosh va mustaqil respublikamiz endilikda o‘z mineral boyliklariga o‘zi egalik qilish huquqiga ega bo‘ldi. O‘n uch yillik mustaqillik davrida O‘zbekistonda yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid bir qator qonun va qonun osti me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Lekin bu bilan jamiyatdagi ushbu munosabatlarning huquqiy zamini yaratildi, deb bo‘lmaydi. Mustaqil respublikamiz bozor munosabatlariga o‘tib borar ekan, tabiiy boyliklardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish o‘zgarib, takomillashib boravyeradi. Eng asosiysi, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir huquqiy me’yorlarni amaliyotda qo‘llash mexanizmini to‘liq ishlab chiqishdir. Aks holda qonunlarimiz «tishsiz» bo‘lib qolishi va jamiyatda huquqiy negilizm holati vujudga kelishi mumkin.

Yer osti boyliklarining huquqiy holati – *yer osti boyliklarini muhofaza qilish, mineral xomashyodan o‘ta samaradorlik bilan foydalanish va buning natijasida buzilgan tabiiy komplekslarni qayta tiklashda yuzaga keladigan munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi.*

O‘zbekiston Respublikasida yer osti boyliklarining huquqiy holati Konstitutsiyada belgilangan imperativ normalar va uning asosida ishlab chiqilgan umumlashtirilgan normalar (Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida...), kodifikatsiyalangan (Yer kodeksi, Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik

to‘g‘risidagi kodeks, Fuqarolik kodeksi...) va ixtisoslashtirilgan (Yer osti boyliklari to‘g‘risida, Konsepsiyalar to‘g‘risida...) qonunlar va qonun osti normativ hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Yer osti boyliklaridan huquqiy foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir ijtimoiy munosabatlar ushbu huquq tarmog‘ining predmetidir. Yer osti boyliklarini huquqiy tartibga solish mazmuni ruxsat beruvchi, oldini oluvchi va taqiqlovchi huquqiy me’yorlar orqali ularni muhofaza qilish hamda ulardan o‘ta samaradorlik bilan foydalanishdir.

2. Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofazalashning ekologik-huquqiy talablari

Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofazalashning ekologik-huquqiy talablari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54 va 55-moddalarida imperativ shaklda o‘z aksini topgan. Ularga binoan, har bir fuqaro yoki mulkdor atrof tabiiy muhitga (jumladan, yer osti boyliklariga) nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi va ulardan oqilona foydalanishi zarur. Ushbu shartlar kengaytirilgan tarzda Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunda berilgan bo‘lib, unga muvofiq (18-modda) yer osti boyliklaridan yuridik va jismoniy shaxslar quyidagi ekologik talablar asosida foydalanishlari mumkin: qazilma boyliklarni qazib olishda mineral xomashyodan kompleks va oqilona foydalanish ta’minlansa; atrof tabiiy muhit va yer osti boyliklari ifloslanishining oldi olinsa; foydalanilgan yer uchastkalarini rekultivatsiya (qayta tiklash yoki buzilgan yerlarni qayta madaniylashtirish ishlari) qilinsa; qayta tiklanadigan foydali qazilmalardan tabiiy qayta tiklanishga yerishilsa.

Umumlashtirilgan ekologik-huquqiy talablar ixtisoslashtirilgan holda yangi tahrirdagi 2002 -yil 13-dekabr «Yer osti boyliklari» va 1995-yil 30-avgustdagi «Konsepsiyalar to‘g‘risida»gi qonunlarda o‘z aksini topgan va ular quyidagilardan iborat:

* tog‘-kon sanoatidagi ishlarni (qidiruv, kovlash va rekultivatsiya qilish) yer qa’ridan foydalanish loyihasiga muvofiq olib borish va uni ekologik ekspertizadan o‘tkazish;

* yer qa’rini to‘la-to‘kis o‘rganish, yer osti boyliklaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda ularni muhofaza qilish;

* konlarning foydali qazilmalar mo‘l uchastkalarini tanlab ishlatish, mineral xomashyo qazib olish va uni qayta ishlashda foydali qazilmalarning normativdagidan ortiq nobudgarchiligiga yo‘l qo‘ymaslik;

* yer osti boyliklaridan foydalanish bilan bog‘liq ishlarning zararli ta’siridan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;

* yer osti boyliklaridan foydalanish chog‘ida buzilgan yer uchastkalarini ulardan keyinchalik boshqa maqsadlarda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish;

* ichimlik suvi sifatida foydalaniladigan suv to‘plash va yer osti suvlari to‘planadigan maydonlarda tog‘-kon sanoati va maishiy chiqindilarning yig‘ilib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;

* alohida ilmiy va madaniy qimmatga molik yer osti boyliklari uchastkalarini davlat qo‘riqxonalari yoxud tabiat yoki madaniyat yodgorliklariga mo‘ljallab ajratib olish;

* chet ellik investorlar yer osti boyliklaridan foydalanish davomida atrof-muhitni muhofaza qilish va ishlarni ekologik jihatdan bexatar olib borishlari hamda yer usti yoxud yer osti uchastkalarini bosqichma-bosqich bexatar qilib qaytarib berishlari va qonun-hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa ekologik-huquqiy chora-tadbirlarni olib borish.

Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishdagi ekologik-huquqiy talablar bevosita yoki bilvosita «Chet el investitsiyalari», «Mulkchilik», «Suv va suvdan foydalanish», O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunlar, Yer kodeksi, Soliq kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Konchilik tashlamalarini foydali qazilma konlari ishlab chiqish uchun berish tartibi to‘g‘risida», «Qazib olingan va qazib olish jarayonida yo‘qotilgan foydali qazilmalarning zaxiralarini yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar hisobidan o‘chirish tartibi to‘g‘risida», «Foydali qazilmalarni ishlab chiqish paytida yer osti boyliklarini muhofaza qilishning yagona qoidalari»ga bag‘ishlangan qarorlarda aks ettirilgan.

Amaldagi me’yoriy hujjatlarda aks ettirilgan yer ostidagi boyliklardan foydalanishdagi ekologik-huquqiy talablarning mohiyati va vazifalariga ko‘ra 4 guruhga ajratish mumkin:

1) yer osti boyliklarini to‘liq va kompleks holda o‘rganish orqali ularni ishlatish yoki konservatsiya qilish orqali muhofazalash;

2) mineral xomashyolarni qidirish, qazib olish va rekultivatsiya qilishni faqatgina ixtisoslashtirilgan davlat organlari nazoratida olib borish va ularni amalga oshirish davomida atrof tabiiy muhitning boshqa obyektlariga zarar yetkazmaslik;

3) ishlatilgan konlarni yoki ularni ekspluatatsiya qilish davomida yer uchastkalarini o‘z vaqtida rekultivatsiya qilib borish;

4) noyob turdagi mineral boyliklarni va ularning komplekslarini alohida muhofaza qilish tartibini o‘rnatish.

3. Yer osti qonchilik munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish

O‘zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o‘tishning besh tamoyilidan biri – davlatning bosh islohotchiligidir. Davlat islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berar ekan, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning hozirgi zamon talablariga mos tushadigan siyosiy yo‘lini ishlab chiqishi hamda uni izchillik bilan amalga oshirishi kerak. Chunki «ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan hozirgi bozor – davlat tomonidan tartibga solib turiladigan bozordir»[1].

Konchilik munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish vazifalari yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonunning II bobiga binoan quyidagilardan iborat:

- yer osti boyliklarini gekologik jihatdan o‘rganish va muhofaza qilish, mineral resurslardan oqilona, kompleks foydalanish, ular bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni bexatar yuritishga doir me’yorlar va qoidalarni belgilash;
- mineral xomashyo bazasini rivojlantirishni ta’minlash;
- foydali qazilmalarning asosiy turlarini qazib olishning hozirgi paytdagi va istiqbolga mo‘ljallangan hajmlarini belgilash;
- yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun to‘lovlarni belgilash va undirish;
- yer osti boyliklari kadastrini o‘tkazish, monitoringini olib borish;
- yer osti boyliklarini muhofazalash va ulardan oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini o‘rnatish va h.k.

[1] *И.А.Каримов.* Биздан обод ва озод ватан қолсин. – Т.: «Ўзбекистон», 1994. – 37-б.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni bajarishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat organlarining o‘zi to‘g‘risidagi qonunlar yoki nizomlariga muvofiq konchilik munosabatlarini tartibga solib turadi. Ularning vakolatlari mohiyati va mazmuniga ko‘ra 2 katta guruhga: umumiy va maxsus boshqaruv vakolatidagi davlat organlariga ajratiladi.

Umumiy boshqaruv vakolatidagi davlat organlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimiyat organlari kiradi. *Maxsus davlat boshqaruv organlari* o‘z navbatida – kompleks, sohalar va funksional boshqaruv organlariga ajratiladi.

Yer osti boyliklarining huquqiy holatini belgilovchi ko‘rsatkich O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Konstitutsiyamizning 78-moddasi va 2002-yil 12-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy qonunlarining 8-moddalariga muvofiq *Oliy Majlis:*

- yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonunlarni ishlab chiqadi, qarorlar qabul qiladi va ularning ijrosini nazorat qilishni tashkillashtiradi;
- unga hisobot beruvchi O‘zR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi orqali yer osti boyliklaridan foydalanishda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning kompleks nazoratini tartibga solib turadi;
- davlatning yer osti mineral xomashyo bazasidan foydalanish dasturlarini qabul qiladi, bu borada ichki va tashqi siyosatning asosiy yo‘nalishlarini tasdiqlaydi;
- mineral resurslardan foydalanganlik uchun to‘lovlarni joriy qiladi va ularga oid imtiyozlarni belgilaydi;
- konchilik sanoatini rivojlantirish bo‘yicha byudjet xarajatlarini qabul qiladi;
- yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlaydi) hamda denonsatsiya (barvaqt to‘xtatadi) qilish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Oliy Majlis tomonidan 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi qonunning yangi tahriri Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tog‘-kon sanoatiga chet el investitsiyalarini jalb qilishning huquqiy asosini yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq, *Prezident* – yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish borasidagi ichki va xalqaro siyosatni belgilaydi; ushbu sohadagi ishlar fuqarolarning ekologik xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligiga kafillik beradi; yer osti mineral xomashyodan foydalanish va uning muhofazasiga doir qonunlarni imzolaydi hamda farmon, farmoyish va qarorlar qabul qiladi; ekologik talafot ko‘rgan tog‘-kon sanoatining hududlari bo‘yicha favqulodda holat joriy etadi va shu kabi boshqaruv masalalarni hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi *Vazirlar Mahkamasi* davlatimizning ijro etuvchi organi sifatida Konstitutsiyamiz, o‘zi to‘g‘risidagi va Yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonunning 8-moddasiga ko‘ra, bir qator o‘ta muhim vazifalarni bajaradi:

- yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonunlar ijrosini ta’minlaydi;
- yer osti boyliklari kadastrini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- konchilik va u bilan bog‘liq bo‘lgan inqirozli holatni bartaraf etadi, yer ostida bo‘layotgan tabiiy ofatlarning (endogen jarayonlarni) kelib chiqish sababini aniqlaydi hamda ularning ekologik xavfsizlik darajasini ta’minlashning chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- yer osti boyliklaridan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish hamda qayta tiklash (rekultivatsiyalash) bo‘yicha targ‘ibot, o‘quv, ta’lim va malaka oshirishni yo‘lga qo‘yadi;
- mineral xomashyolardan foydalanish tartibini tasdiqlaydi va shunga o‘xshash o‘z vakolati doirasida faoliyat yuritadi.

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 13-yanvardagi «Konchilik tashlamalarini foydali qazilma konlarini ishlab chiqish uchun berish tartibi to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida «Zarafshon – Nyumont», «WMC Zormitan LTD», «Nyumont – O‘zbekiston LTD – Misun» «Uz-kor silicon», «Uz-shindong silicon» «O‘z-Kores mayning»kabi qo‘shma korxonalar sovet davridan qolgan konchilik chiqitlarini qayta boyitish orqali turli qimmatbaho rangli metallarni olmoqdalar. Chet el firmalarining 15 yillik muddatda va qulay huquqiy

negizda ishlashi tog‘-kon sanoatiga yuqori unumdorlikka ega bo‘lgan texnologiyalarning kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida konchilik munosabatlarini tartibga solishda, sobiq Ittifoqdan tubdan farqli o‘laroq, *mahalliy davlat boshqaruv organlarining* faoliyatida to‘laqonli namoyon bo‘la boshladi. Konstitutsiyamiz, «Mahalliy davlat hokimiyati va Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunning 9-moddasiga muvofiq ular shahar, tuman va viloyat ahamiyatiga molik bo‘lgan konchilik munosabatlarini tartibga solishda faol ishtirok etmoqdalar. Ular:

* yer osti va usti mineral xomashyo resurslaridan foydalanish, ularni ekologik xavfsizlik darajasini ta’minlash bo‘yicha hududiy boshqaruv dasturlarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar;

* yer osti boyliklari kadastrini va monitoringini amalga oshiradilar hamda ularga binoan mahalliy to‘lovlarni undirib oladilar;

* konchilik sanoatidan chiqqan chiqitlarni tashlash, ko‘mish uchun ruxsatnomalar beradilar va ularni bekor qiladilar;

* mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan qurilish, tog‘-kon sanoati korxonalarining ekologik faoliyatini nazorat qiladilar va asosli ravishda uni to‘xtatib qo‘yadilar hamda O‘zR Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlarga zid bo‘lmagan huquqiy-ekologik tadbirlarni olib boradilar.

Davlatning yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishdagi maxsus vakolat tizimidagi kompleks boshqaruvni Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish inspeksiyasi, Favqulodda hodisalar bo‘yicha vazirlik olib boradi. Ushbu davlat organlari mulk shaklidan qat’i nazar, yer osti boyliklaridan foydalanilayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatlarini inson salomatligi va atrof-muhit holatiga bezarar olib borayotganlarini boshqarib va nazorat qilib turadi.

Bizlarga ma’lumki, yer osti boyliklaridan bir qator xalq xo‘jaligi sohalarida ham foydalanadilar. Shuning uchun har bir sohada o‘zining boshqaruv va nazorat bo‘linmalari mavjud bo‘lib, davlatning maxsus boshqaruv organlariga yordam berish uchun ular maxsus ko‘rinishdagi *sohaviy boshqaruv* vakolatiga egadirlar. Ularga O‘zsanoatqurilish, Qishloq va suv xo‘jaligi, Mudofaa, Avtomobil yo‘llari vazirliklari kabi davlat organlari kiradi.

Davlat boshqaruv organlarining maxsus boshqaruv tizimida *funksional* vakolatga ega bo‘lgan davlat idoralarining yer osti boyliklarini

muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishdagi ahamiyati kattadir. Masalan, alohida muhofaza qilishga molik tog‘ sanoatiga qarashli obyektlarning huquqni muhofaza qilish organlarining harbiylashtirilgan idoralari tomonidan qo‘riqlanishi, ulardagi xo‘jalik ishlarining bexatar olib borilishiga va oqibatda, ekologik inqirozli holatning oldini olishga olib kelmoqda. Davlat standartlashtirish va metereologiya qo‘mitasi o‘z funksional vazifasiga ko‘ra, mineral xomashyolarni qidirish va qazib olishlarning xalqaro ekologik standartlarga mos kelishini tartibga solib turadi. Soliq inspeksiyasi esa o‘z vakolati doirasida yer osti va usti mineral boyliklaridan foydalanganlik yoki bu foydalanish davomida atrof-muhitni ifloslantirganliklari uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlardan soliqlar va to‘lovlarni o‘z muddatida undirib olishi orqali tabiatga yetkazilgan zararni moliyaviy qoplashga imkon yaratadi. Huquqni muhofaza qilish davlat idoralarining funksional boshqaruv vazifalari yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish qonunchiligi buzilishining profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda konchilik qonun hujjatlarini buzganlarga nisbatan jazo choralarini qo‘llashdan iboratdir.

4. Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqi

Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (respublika ahamiyatiga molik obyektlar uchun) litsenziya (ruxsatnoma)si asosida yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi. (11.4.1-rasm). Yer osti boyliklaridan foydalanish muddatlari «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunning 22-moddasiga muvofiq *muddatli va muddatsiz* bo‘lishi mumkin. Agarda foydalanish muddati oldindan belgilanib qo‘yilmagan bo‘lsa, u muddati cheklanmagan hisoblanadi. Aksincha, agarda yer osti boyliklaridan foydalanish litsenziyada belgilab qo‘yilgan bo‘lsa – cheklangan bo‘ladi. Masalan, chet el yuridik va jismoniy shaxslarga «Konsepsiyalar to‘g‘risida»gi qonunning 3, 15, 17-moddalariga binoan tanlov va auksion o‘tkazish orqali 15 yil muddatga, Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yer osti boyliklari foydalanish uchun beriladi. Zaruriyatga qarab bu muddat muayyan davrga, lekin 15 yildan oshirmagan tarzda, uzaytirilishi mumkin.

Gekologik o‘rganish uchun berib qo‘yish Qonunning 25-moddasida belgilangan tartibda tasdiqlangan yer qa’rini gekologik o‘rganish loyi-



11.4.1-rasm. **Yer osti boyliklaridan foydalanish turlari.**

ha – chizma hujjatlariga binoan amalga oshiriladi. Yer qa’rini gekologik jihatdan o‘rganishga doir ekologik ekspertiza talab qilmaydigan ishlar ro‘yxati Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi maxsus litsenziyalar asosida amalga oshiriladi. Buning uchun yer osti mineral boyliklardan foydalanish maqsadi, kon joylashgan maydon, texnogen hosilalardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan korxona loyihalari, qazib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan inshootlarni qurish va ulardan foydalanish, zararli moddalar, radioaktiv chiqindilarni va ishlab chiqarish chiqitlarini joylashtirish huquqlari bo‘lishi lozim.

Yuridik va jismoniy shaxslarga yer osti boyliklaridan foydalanishning bir yo‘la bir necha turi uchun litsenziyalar berilishi mumkin. Vazirlar Mahkamasi tomonidan berilgan litsenziya Yer kodeksining 17-moddasiga muvofiq yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar uchun yer uchastkasini ajratishga asos bo‘la oladi. Kon ajratmalari sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Foydali qazilma konlarini tajriba-sanoat yo‘sinida ishlatish (neft va gaz konlari bundan mustasno), yer osti chuchuk suvlarini chiqarib olish, nodir tosh xomashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa kolleksiyabop gekologik materiallarni to‘plash uchun litsenziyaga muvofiq berib qo‘yiladigan yer osti boyliklari uchastkalariga kon ajratmasi talab qilinmaydi.

Geologiya va qidiruv ishlari moliyaviy ta’minlangan yuridik va jismoniy shaxslar qidirib topilgan konni ishlatish uchun litsenziyalar olishda mutlaq huquqqa egadirlar.

Xo‘jalik va ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun foydalanishga yer osti boyliklarini berib qo‘yish «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunning 31-moddasi bilan alohida belgilab qo‘yilgan. Unga binoan mahalliy xo‘jalik ahamiyati uchun zarur mineral xomashyo va yer osti suvlarini qazib olish, yer osti inshootlarini qurish Vazirlar Mahkamasining maxsus litsenziyasisiz, lekin qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Yer osti boyliklaridan foydalanish uchun tayyorlangan loyihalar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining ekspertizasidan o‘tishi lozim.

Aholi punktlarida, shahar atrofidagi yashil zonalarda, sanoat, transport, aloqa obyektlari, yer osti mineral suvlarini chiqarib olish zonalarida va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar doirasida yer qa’rining ayrim uchastkalaridan foydalanish cheklab yoki taqiqlab qo‘yilishi mumkin.

Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunning 32–33-moddalariga muvofiq bir qator huquqlar va majburiyatlarga egadirlar.

Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqini cheklash, to‘xtatib turish va tugatish «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunning 34-moddasida ko‘rsatilgan hollarda va Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. «Yer osti boyliklari» so‘zlar birikmasiga izoh bering!
2. Nima uchun yer osti boyliklarini huquqiy muhofaza qilish zarur?
3. O‘zbekiston Respublikasi «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi eski va yangi tahrirdagi qonunlarning asosiy farqini qiyoslab bering!
4. Konsepsiya shartnomasi qanday shartnoma hisoblanadi?
5. Yer osti boyliklaridan foydalanishni qanday davlat organlari nazorat qiladi?

6. Konchilik munosabatlariga qanday ijtimoiy munosabatlar kiradi?
7. Chet el investitorlariga milliy mineral boyliklardan foydalanishda qanday imtiyozlar beriladi?
8. Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarga qanday ekologik-huquqiy talablar qo‘yiladi?
9. Yer osti boyliklari qonunchiligini buzganlik uchun qanday javobgarliklar mavjud?

Insonlar tabiat qonunlariga bo‘ysinadilar,
hattoki unga qarshi borganlarida ham.
I.V.Gyote

XII bob. O‘SIMLIK DUNYOSINI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. O‘simlik dunyosi va uni ekologik-huquqiy muhofaza qilish zarurati

O‘simlik dunyosi tirik organizmlar qatoridan joy olgan holda ekologik tizimlarda o‘z o‘rniga va ahamiyatiga ega. Avvalambor, u tirik organizmlar, xususan, inson uchun o‘ta zarur kislorod (O_2) ishlab beruvchi manba hisoblanadi. O‘simliklar inson va hayvonot dunyosini fotosintez jarayoni orqali organik ozuqa bilan ta’minlaydi (180 mlrd. tonna yiliga). «Yashil do‘stlarimiz» atmosfera havosidagi CO_2 ni yutib, o‘zidan O_2 chiqarish hisobiga, undagi CO_2 : O_2 o‘rtasidagi mutanosiblikni ushlab turadi. Ma’lumotlarga ko‘ra o‘simlik dunyosi yiliga 20–30 mlrd. tonna uglerod yutar ekan.

Inson o‘z hayoti davomida o‘simlik dunyosiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kishilarning ijobiy ta’siri tabiiy o‘simliklar o‘sadigan sharoitlarni muhofaza qilish, yo‘qolib ketayotgan turlarini ko‘paytirish, madaniy o‘simliklar maydonini kengaytirish, shahar va qishloqlarni ko‘kalamzorlashtirish va hokazo. Kishilarning o‘simlik dunyosiga salbiy ta’siri – yaylov va o‘rmon maydonlarini sanoat, transport, shahar va qishloqlarga aylantirish, atrof-muhitni ifloslantirish orqali o‘simliklarning yashash muhitini inqiroziy holatga olib kelish, madaniy-oqartuv ehtiyojlarni qondirish uchun ularni to‘ptab, yulib va ko‘chirib tashlash kabilar.

Ma’lumotlarga ko‘ra keyingi 200 yil mobaynida o‘simlik dunyosi roppa-rosa ikki barobarga qisqardi. Undan foydalanuvchi insonlar soni esa bir necha 10 barobarga ko‘paydi va hozir 6 mlrd. kishidan ortib ketdi. Yer kurrasida uchraydigan 600000 turdan ortiq yovvoyi o‘simlik turlaridan O‘zbekistonda bor-yo‘g‘i 4500 turi uchraydi, xolos. O‘simliklarning har birini o‘ziga xos morfologik va morfometrik xususiyatlari bor va tabiiy landshaftlarga qarab ularning tarqalish

qonuniyatlari aniqlanadi. «O‘zbekiston Respublikasining «Qizil kitob»i»dan olingan ma’lumotlarga ko‘ra keyingi 14 yil ichida 138 tur yovvoyi o‘simliklar noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlar qatoridan joy oldi. 1984-yilda ularning soni 163 ta bo‘lsa, 1998-yilga kelib 301 tagacha ko‘paydi. Oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra 2009-yilga kelib O‘zbekistonda noyob va yo‘qolib ketayotgan o‘simlik dunyosi obyektlarining soni 324 taga etdi[1].

Yuqorida keltirilgan salbiy jarayonlarga misollar insonlarni va ayniqsa, davlatlarni «yashil do‘stlarimiz» oldidagi mas’uliyatni oshirishga undaydi. Barcha huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faoliyatlar vazifasini o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan o‘ta samaradorlik bilan foydalanish ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

O‘simlik dunyosini muhofaza qilishda uning bir qator o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qilish lozim:

Birinchidan – o‘simliklar tuproqda, yer ustida, yer ostida va suvda uchraydi.

Ikkinchidan – ularning madaniy va yovvoyi turlari mavjuddir.

Uchinchidan – yovvoyi o‘simliklar ikki toifaga – o‘rmon va o‘rmon tashkil etmaganlarga ajratiladi. O‘simlik dunyosini huquqiy jihatdan muhofaza etish yo‘llari aynan shu 3 xil xususiyatlarga e’tibor bergan tartibda olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 1-apreldagi 139-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Biologik rang-baranglikni saqlash bo‘yicha milliy strategiya va harakatlar rejasi»da o‘simlik dunyosini huquqiy jihatdan muhofaza qilish ustuvor yo‘nalishlar qatoridan joy olgan. Zero, o‘simlik dunyosi fuqarolarning yashash huquqini ta’minlash manbayi ekan, davlat ushbu huquqlarni ta’minlashning kafili sifatida maxsus qonunlar qabul qilish va uning ijrosini ta’minlashni birlamchi masala qilib qo‘ymoqda.

2. O‘simlik dunyosini muhofazalashning huquqiy tartibi

O‘simlik dunyosi O‘zbekiston Respublikasida Ekologiya huquqining mustaqil obyekti sifatida e’tirof etilgan. Shuning uchun ham 1997-yil 26-dekabrda Oliy Majlisning 1-chaqiriq X sessiyasida «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi maxsus qonun (quyida Qonun deb yuritiladi) qabul qilindi. Ushbu Qonunning 1-moddasiga binoan ***o‘simlik dunyosi obyekti*** *bo‘lib tabiiy sharoitda o‘sadigan, takror yetishtirish va genetik fondini saqlash uchun ekib o‘stiriladigan yovvoyi o‘simliklar hisoblanadi.* Aynan ana shu turdagi o‘simliklarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga oid munosabatlar ekologik-huquqiy munosabatlar toifasiga kiritiladi.

O‘simlik dunyosi obyekti – *tabiiy sharoitda o‘sadigan, takror yetishtirish va genetik fondini saqlash uchun ekib o‘stiriladigan yovvoyi o‘simliklar.*

O‘rmonlar Ekologiya huquqining mustaqil obyekti sifatida alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlar mazkur respublikaning qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Agarda ushbu masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarda ishtirok etsa va ularda boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, unda xalqaro shartnoma normalari ustuvorlikka ega.

O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish vazifalari 12.2.1-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, u qonun hujjatlari orqali floraning tur bo‘yicha tarkibini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘simlik dunyosi davlat mulki – umummilliy boylik bo‘lib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir (Qonun, 3-modda).

O‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish umumiy va maxsus yo‘nalishda olib boriladi. Umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun bepul amalga oshiriladi. Qonunning 7-moddasiga ko‘ra, jismoniy shaxslar chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotini tayyorlash va chorva mollarini o‘tlatish kabi huquqlarga egadirlar.

O‘simlik dunyosidan maxsus foydalanish yuridik va jismoniy shaxslarni ishlab chiqarish va boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun haq evaziga ruxsatnomalar asosida berib qo‘yishdir. Maxsus foydalanish Qonunning 7-modda 4-qismida berilgan bo‘lib, ularga: ovchilik

[1] O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. – T.: «Chinor ENK», 2009. – 4-b.



12.2.1-rasm. **O‘simlik dunyosi obyektlari va ularni ekologik-huquqiy muhofazalash va foydalanish vazifalari.**

xo‘jaligi ehtiyojlari; texnik va dorivor xomashyoni tayyorlash; oziq-ovqat maqsadlari uchun tayyorlash; daraxt va butalarni kesish; ilmiy-tadqiqotlar olib borish; madaniy-ma’rifiy, tarbiyaviy, sog‘lomlashtirish, rekratsion va estetik maqsadlarda foydalanish; tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish kabi faoliyat turlari kiradi.

Soliq kodeksining 31-moddasiga muvofiq, o‘simlik dunyosidan foydalanishda, yangi tashkil qilingan dehqon va fermer xo‘jaliklari ikki yil muddatga, ilmiy-tadqiqot va ekologik vazifalarni bajaruvchi tashkilotlar, madaniy-ma’rifiy, tarbiyaviy va sog‘lomlashtirish maqsadlarini ko‘zlagan notijorat yuridik shaxs maqomidagi jamoa uyushmalari esa tegishli haq to‘lashdan ozod qilinadilar.

O‘simlik dunyosini doimiy va vaqtincha (uzoq muddatli – 10 yilgacha, qisqa muddatli – 3 yilgacha) foydalanishga berib qo‘yiladi. Foydalanish normativlari (Qonunning 9-moddasiga binoan) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va Respublika Fanlar akademiyasi bilan kelishilgan holda hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan belgilanadi.

O‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar Qonunning 10-moddasiga ko‘ra quyidagi huquqlarga egadirlar:

- berib qo‘yish shartlariga muvofiq foydalanish;
- belgilangan tartibda olingan mahsulotni tasarruf etish;
- buzilgan huquqlarini tiklatish va yetkazilgan zararni qoplatish.

Ularga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

- belgilangan qoidalarga rioya etish;
- oqilona foydalanish;
- muhofaza qilish va takror yetishtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- yong‘in xavfsizligiga rioya etish, unga qarshi choralar ko‘rish va yong‘in chiqqan taqdirda uni o‘chirish choralarini ko‘rish;
- foydalanganlik uchun o‘z muddatida haq to‘lash va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquq va majburiyatga egadirlar.

Davlatning siyosiy, ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash alohida bir tabiiy, texnogen va boshqa xavfsizlik holatlari yuzaga kelgan holda, foydalanuvchilarning faoliyati davlatning umumiy va maxsus vakolatlangan organlari tomonidan cheklab qo‘yilishi, to‘xtatib turilishi yoki man etilishi mumkin.

Qonunning 11-moddasiga muvofiq, alohida muhofaza etiladigan ayrim tabiiy hududlar (qo‘riqxona, qo‘riqlanadigan zonalar, tabiat yodgorliklari)da o‘simlik dunyosidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. ««Qizil kitob»»ga kiritilgan o‘simliklardan foydalanish man etiladi. Lekin Qonunda Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan noyob va yo‘q bo‘lib ketayotgan o‘simlik dunyosidan foydalanish, ular bilan savdo qilish, chetga olib ketish amalga oshirilishi mumkin. Bunday holatda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining taqdimnomasi va Fanlar Akademiyasining xulosasi kerak bo‘ladi.

O‘simlik dunyosidan foydalanuvchi shaxslarning umumiy va maxsus turdagi foydalanish tartibi Qonunning 12–18-moddalarida batafsil ko‘rsatib o‘tilgan.

Xo‘sh, qanday hollarda shaxslarning o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish huquqi bekor qilinadi. Unga Qonunning 19-moddasida hamda boshqa ekologik me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan holatlar asos bo‘lishi mumkin. Masalan:

- o‘simlik dunyosidan foydalanish huquqidan voz kechilganda;
- belgilangan foydalanish muddati tugaganda;
- yuridik shaxs faoliyati tugatilganda;
- o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni takror yetishtirish qoidalari, normativlari va boshqa talablari buzilganda;
- o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanganlik uchun haq belgilangan muddatda to‘lanmaganda;
- foydalanish ta’sirida tabiiy o‘simliklar turkumida asliga qaytarib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar xavfi tug‘ilganda;
- yer uchastkalari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilganda va hokazo.

O‘simlik dunyosidan foydalanish tartibi zamon talabiga mos ravishda doimo o‘zgarib, takomillashib va rivojlanib borishi tabiiy holdir.

3. O‘simlik dunyosini muhofaza qilish chora-tadbirlari

O‘simlik dunyosidan oqilona foydalanish, albatta, bir paytning o‘zida, yuridik va jismoniy shaxslardan, ularni muhofazalash chora-tadbirlarini qo‘llashni talab etadi. O‘simlik dunyosini muhofazalash chora-tadbirlari «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda va «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 20–24-moddalarida ko‘rsatilgan me’yorlar va qoidalar asosida olib boriladi. Ushbu *ekologik-huquqiy chora-tadbirlar* quyidagilardan iborat:

1. *Sanitar-ekologik, iqtisodiy, ma’rifiy-madaniy ahamiyatga molik bo‘lgan o‘simliklarning tarqalish maydoni (areali) va ularning miqdorini tartibga solish.*

Ular shudgorlar, pichanzorlar va yaylovlarda tabiiy sur’atlarda bosib ketadigan zaharli, giyohvand moddalarni, karantindagi o‘simliklar, begona o‘tlar hamda boshqa yovvoyi o‘simliklarning tarqalishi va ularning miqdorini tartibga solish va o‘zga tabiat obyektlariga zarar yetkazmaslik, o‘simlik jamoalari va ular o‘sadigan muhitning saqlanishini ta’minlaydigan metodlar bilan amalga oshiriladi.

Tarqalishi va miqdori tartibga solinishi lozim bo‘lgan yovvoyi o‘simliklarning turlari, shuningdek, tartibga solish qoidasi maxsus vakolat berilgan davlat organlari tomonidan Fanlar Akademiyasining xulosalari asosida belgilanadi.

1995-yil 31-avgustda qabul qilingan «O‘simliklar karantini» va 2000-yil 31-avgustdagi «Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunlarning asosiy vazifalariga, xalq xo‘jaligiga katta zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan, chetdan turli yo‘llar bilan kirib keladigan begona o‘tlardan muhofaza qilish ham kiradi. Mazkur qonunlar yovvoyi o‘simliklarning normal o‘sishi va rivojlanishini ta’minlash maqsadida nafaqat begona o‘tlar, balki o‘simlik kasalliklari va hayvonot dunyosiga oid zararkunandalardan ham muhofaza qilish normalarini belgilaydi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda Qishloq va suv xo‘jaligi huzurida O‘simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi tashkil etilgan va unga yovvoyi turdagi o‘sadigan o‘simliklarni muhofaza qilish vakolati topshirilgan.

2. *Yovvoyi o‘simliklarni boshqa joyga ko‘chirish va duragaylash (irsiy xususiyatlari turlicha bo‘lgan o‘simliklarni chatishtirish).*

O‘simliklarning yangi turlarini yovvoyi floraga ko‘chirish va yovvoyi o‘simliklarni duragaylash Fanlar Akademiyasi va O‘simliklar karantini bosh boshqarmasining xulosasi asosida chiqarilgan Vazirlar Mahkamasining maxsus qaroriga binoan, faqatgina ilmiy tadqiqot va xo‘jalik maqsadlarda, belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

3. *Botanika kolleksiyalarini to‘plash* faqatgina davlat hisobidan o‘tkaziladi va ilmiy, madaniy-ma’rifiy, o‘quv-tarbiyaviy yoki estetik maqsadlarni ko‘zlagan holda amalga oshiriladi. Botanika kolleksiyalarini to‘plash maxsus ruxsatnomalar asosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Uning egalari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan hisobga olish, to‘ldirib borish, asrash, sotib olish va sotish, jo‘natish, chet ellardan olib kirish va ularga olib chiqish qoidalariga rioya etishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika institutida bir milliondan ziyod o‘simlik nusxalariga ega bo‘lgan gerbariy bor. Unda nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyodan keltirilgan va davlat tomonidan muhofaza etiladigan flora kolleksiyasi to‘plangan.

4. *O‘simlik dunyosining obyektlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish hamda ularni takror yetishtirish qoida va me’yorlarini zamon talabiga mos ravishda ishlab chiqish.*

5.*O‘zbekiston Respublikasi ««Qizil kitob»»iga kiritilgan o‘simlik dunyosining tarqalish arealini yoki o‘sish sharoitlarini alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni yaratish orqali amalga oshirish.* Ya’ni, noyob va yo‘q bo‘lib ketayotgan o‘simlik dunyosi obyektlarida qo‘riqxona, buyurtma qo‘riqxona, biosfera qo‘riqxonasi kabi huquqiy maqomdagi muhofaza tegralarini barpo etish.

6. *O‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishni cheklash va taqiqlash.*

7. *Davlat va jamoat nazoratini va ekspertizasini kuchaytirish, tegishli yuridik sanksiyalarni huquqbuzarlarga nisbatan qo‘llash mexanizmini yaratish.*

8. *Ilmiy-tadqiqot, ma’rifiy-madaniy, o‘quv-uslubiy ishlarni talab darajasida yo‘lga qo‘yish va ijobiy natijalarni ommalashtirish* va hokazo.

Bizningcha, har bir tabiiy obyektlarni, xususan, o‘simlik dunyosini muhofaza qilishning ekologik-iqtisodiy, ekologik-huquqiy, ekologik-ijtimoiy, ekologik-siyosiy mexanizmlarini yaratish ayni muddaodir. O‘simlik dunyosi obyektlarini nazorat qilish va javobgarlik.

O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solish uchun davlatning floristik baholash ➞ kadastr ➞ monitoring ➞ nazorat ➞ ekspertiza tizimini yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Ushbu talab normalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi, Ekologik ekspertiza to‘g‘risidagi, O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi umumlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan qonunlarda belgilangan.

Masalan, *o‘simlik dunyosi obyektlarining kadastri* ushbu ekologik nazoratlash tizimining birinchi bo‘g‘iniga kirib, uni olib borish tartibi 2000-yil 19-dekabrda qabul qilingan «Davlat kadastrlari to‘g‘risida»gi qonun hamda «Ayrim davlat kadastrlarini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqidagi O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-noyabrdagi 250-sonli qaroriga muvofiq o‘rnatilgandir. Davlat kadastrlari to‘g‘risidagi qonunning 5-moddasiga binoan o‘simlik dunyosi obyektlari davlat kadastrlar tizimidagi alohida bir baholash obyekti hisoblanadi.

O‘simlik dunyosi obyektlarining kadastri Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi tomonidan umumlashtiriladi va unda o‘simlik dunyosiga oid barcha iqtisodiy, huquqiy, tabiiy, informatik va kartografik materiallar berilgan bo‘ladi. Kadastr ma’lumotlari davlat organlariga bepul, yuridik va jismoniy shaxslarga esa haq evaziga beriladi.

Kadastr ma’lumotlariga asoslangan tarzda *o‘simlik dunyosining monitoringi* olib boriladi. O‘simlik dunyosidan foydalanuvchilar va uni muhofaza qiluvchilarning faoliyatini kuzatib borish Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi hamda tegishli hududlardagi mahalliy davlat idoralari tomonidan o‘tkaziladi (Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 28-moddasiga muvofiq).

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi nizomining 11-moddasiga binoan o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishga doir ekologik-huquqiy munosabatlarning *davlat nazoratini* ushbu davlat organi olib boradi. Davlat nazorati monitoring ma’lumotlariga binoan operativ (rejalashtirilmagan) tarzda olib borilishi ham mumkin.

Ekologik-huquqiy nazorat nafaqat Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, yana mahalliy davlat hokimiyati nazoratchilari tomonidan ham qonunning 27-moddasi asosida o‘tkaziladi. Undan tashqari korxona, tashkilot, muassasalarda idoraviy, ishlab chiqarish va jamoatchilik nazoratini olib borish qonunda nazarda tutilgan.

O‘simlik dunyosi obyektlari bo‘yicha ekspertiza 2000-yil 25-mayda qabul qilingan «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi qonunning 12-moddasiga ko‘ra, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining maxsus ekspertiza guruhi tomonidan o‘tkaziladi. Bu holatda ekspertiza obyekti bo‘lib o‘simlik dunyosiga salbiy ta’sir etuvchi ishlab turgan korxonalar hisoblanadi.

Yagona nazorat tizimidagi o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish tadbirlari asosida davlat yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan rag‘batlantirish yoki javobgarlikka tortish choralarini ko‘radi.

«O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonun hujjatlarida belgilangan talablarning buzilishi aybdorlarga nisbatan *yuridik javobgarlikni* qo‘llashga asos bo‘la oladi.

Jinoyat kodeksining 202-moddasiga ko‘ra, o‘simliklarning doridarmon, oziq-ovqat va manzarali (dekorativ) turlarini yig‘ish yoki

tayyorlash, maxsus qo‘riqlanadigan tabiiy hududlardagi o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining 50 barobarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi. O‘sha qilmishlar ««Qizil kitob»»ga kiritilgan turlarni nobud qilishga, ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining 50 barobaridan 75 barobarigacha jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘simlik dunyosiga yetkazilgan zararlarni qoplash O‘zR Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 27-iyulda «O‘zbekiston Respublikasida o‘simlik dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undiriladigan jarima miqdorlarini hisoblash taksalarini tasdiqlash to‘g‘risida» 15-sonli qarori va 2006-yil 6-fevraldagi «Tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun to‘lovlar tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»giasosida 293-sonli qarorlari asosida undirib olinadi. Undirilgan zarar mablag‘lari, agarda huquqbuzarlik Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining inspektorlari tomonidan aniqlangan taqdirda, Tabiatni muhofaza qilishning mahalliy ekologik jamg‘armalariga tushiriladi va undan Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 24-maydagi 246-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tabiatni muhofaza qilish jamg‘armalari to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq foydalaniladi. Agar mazkur turdagi huquqbuzarlik O‘rmon xo‘jaligi inspektorlari tomonidan aniqlansa, respublika byudjetiga o‘tkaziladi. O‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofazalash qoidalarini buzgan huquqbuzarliklar qo‘riqxona yoki milliy bog‘da sodir etilsa, u qaysi inspeksiya tomonidan aniqlanishidan qat’i nazar, mazkur muassasalarning hisob-kitob raqamiga o‘tkaziladi.

5. Aholi punktlarida daraxt va butalarni kesish qoidalari va javobgarligi

Xalqaro ekologik talablarga ko‘ra har bir insonga aholi punktlarida, uning tabiiy sharoitiga monand ravishda, 30-70 m^3 yashil maydon to‘g‘ri kelishi kerak. Lekin mutaxassislar bu ***me’yor*** O‘zbekistonning tabiiy sharoiti uchun ***50-60 m^2/kishi*** kam bo‘lmasligini uqtirmoqdalar. Bu me’yor ayniqsa ekologik xavfli hududlar uchun o‘ta dolzarb muammo ekanligini ta’kidlash joiz. Birgina poytaxt Toshkent shahrida daraxtlardan – eman, qayrag‘och, chinor, terak, kashtan, katalpa, gledichiya, akatsiya, qarag‘ay; butalardan – forzitsiya, nastarin, yapon noki, suriya atirguli, bagryanik, Vangutta spireyasi, deysiya, buddleya; ekzotik floradan - o‘tkir bargli zarang, Amerika shumtoli, yapon saforasi, shamshod, sarv kabi 220 xildan ortiq manazarali daraxt va butalar o‘smoqda. Mazkur madaniy va tabiiy turdagi o‘simlik dunyosi obyektlarining aholi punktlardagi ekologik funksiyasi quyidagilardan iborat[1]:

Birinchidan, keskin kontinental iqlim sharoitida ***havo harorati va namligini mo‘tadillashtiradi***. Masalan, yoz jaziramasida kunduz kunlari harorat 35-40 C^0va undan ham ortiq darajaga ko‘tarilganda ochiq joylarda va ayniqsa, asfalt-beton yuzasi, quyoshga qaragan bino harorati 70-80 C^0 darajagacha chiqadi. Aynan xuddi shunday paytda bog‘ va xiyobonlarda, ya’ni daraxtzoru-butazorlar bilan qoplangan hududlarda quyosh radiatsiyasi oqimining kamayishi tufayli harorat o‘rtacha 7-10 C^0 darajaga past bo‘ladi. Aksincha, havo namligi o‘rtacha 20-30 foizga ko‘p bo‘ladi.

Ikkinchidan, atmosfera havosi tarkibidagi kislorod va CO_2 (is gazi) balansini ushlab turadi. Hammamizga ma’lumki, daraxt va butalarning yashil yuzasi inson hayoti uchun zarur bo‘lgan kislorodni is gazini yutishi orqali atrofga chiqaradi. Buni fanda fotosintez jarayoni deb ataydilar. Undan tashqari daraxt va butalarning gaz azot oksidi, oltingugurt, ftorli vodorod, kislota bug‘ini hosil balansini ushlab turishda ham bevosita ahamiyat kasb etadi. Lekin atmosfera havosidagi gaz almashuv jarayoni va havodagi turli qo‘shilmalarni o‘ziga yutish xususiyatlari hamma o‘simliklarda bir xil emas. Bu borada igna barglilar keng bargli daraxt va butalarga teng kela olmaydi. Agar igna bargli archalarning havodagi gaz almashuv jarayonida ishtirok etish tezligini 100 foiz deb olsak, unda keng bargli daraxtlarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 118 foizga teng. Masalan, keng bargli qarag‘ayda 164 foiz, jo‘ka (lipa)da 254 foiz, emanda 450 foiz, berlin teragida -691 foizga teng.

Uchinchidan, atmosferadagi changlarni ushlab turadi. Chang

[1] *O‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishning ekologik talablari* (o‘rmon fondi yerlariga kirmaydigan hududlarda daraxt va butalarni kesish) / B.B.Alixonov va A.N.Nigmatovlarning mas’ul muharrirligida // Xususiy tadbirkorlar, kichik biznes korxonalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari rahbarlari uchun metodik tavsiyalar. – T. Ekoharakat, 2011. – 71-b.

ushlab qolish samaradorligi daraxtlarning qanchalik zich joylashuviga va barglari yuzasiga bog‘liqdir. Barglar yuzasidagi yopishoqlik va igna barglardagi o‘ziga xos yelimlar vegetatsiya davri boshlanishida kuchayib, keyin asta-sekinlik bilan kamayib boradi. Chunki barglarning yopishqoqligi va g‘adir-budurligi qancha kuchli bo‘lsa, shunchalik ko‘p changni ushlab qoladi. Masalan: balzamli terak – 0,6 g/m^2, o‘tkir bargli zarang – 1,0 g/m^2, mayda bargli jo‘ka(lipa) - 1,3 g/m^2, mojar nastarini(siren) – 1,6 g/m^2, qayrag‘och – 3,4 g/m^2.

Sxoh-shabbasi tarvaqaylab ketgan va barglari ajinli, g‘adir-budirli daraxtlar eng ko‘p chang ushlab qolish xususiyatiga ega. Umuman olganda, ma’lumotlarga ko‘ra igna bargli daraxtlar bir yilda gektariga 40 tonna ushlab qolsa, keng bargli daraxtlar 100 tonnagacha changni ushlab qolar ekan.

To‘rtinchidan, sanitar funksiyasini bajaradi. Daraxtlar va butazorlarning sanitar-gigiyenik xususiyati bor. Misol uchun eman va terak barglari ichburug‘ni qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlarni yo‘q qilish xususiyatiga ega moddalar chiqaradi. Igna bargli daraxtlar fitonsidlarni ishlab chiqaradi. Oq akas (akatsiya), soxta kashtan, oddiy qayin, tatar zarangi, qayrag‘och, tol, olma fitonsidlarning eng asosiy manbayidir. O‘simliklarning fitonsidlar ajratib chiqarish xususiyati daraxtlarni kurtaklash va gullash pallasida, shuningdek, issiq va quyosh ta’sirida kuchayadi. Bir gektar igna bargli archa bir kecha-kunduzda 30, qarag‘ay va qoraqarag‘ay –W 20–25 kilogramm bakteriyalarni o‘ldiradigan uchuvchan moddalar ajratib chiqaradi.

Shaharlardagi atrof-muhitni sog‘lomlashtirishda daraxtlar va butalarni atmosfera havosining ionlashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yengil ionlar soni o‘rmonlarda 2000-3000 sm^{3}ni tashkil etsa, shahar bog‘larida – 800, sanoat zonalarida – 200-400, ko‘p kishilik yopiq binolarda – 25-100 ga tengdir. Bu esa organizmlarning yurak qon-tomir, nafas olish va qon aylanish tizimi, miya faoliyatini kuchaytirish, qondagi qand va fosfor miqdorini pasaytirish, kayfiyatni yaxshilash, bosh og‘riq va charchoqni kamaytirish kabi xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham rivojlangan Yevropa va Amerika mamlakatlarning katta shaharlarida bog‘larni shahar atrofida esa «yashil himoya zona»sini tashkil etish odat tusiga aylanib qolgan.

O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini

hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalari»ga ko‘ra daraxtzorlar quyidagichi guruhlashtiriladi: ***umumiy foydalaniladigan daraxtzorlar*** – bog‘lar, xiyobonlar, o‘yingohlar, ko‘chalar va maydonlar, umumshahar ahamiyatiga ega savdo va ma’muriy markazlar, jamoat binolari atrofidagi daraxtzorlar; ***foydalanilishi cheklangan daraxtzorlar*** – sanoat va qurilish inshootlariga tutash hududlar, uy-joylar atrofi, bolalar bog‘chalari va yaslilari, maktablar va boshqa o‘quv muassasalari, shuningdek, sanoat korxonalari hududidagi soni cheklangan kishilar foydalanuvchi daraxtzorlar; ***ijtimoiy ahamiyatga molik daraxtzorlar*** – kommunal xo‘jalik obyektlari, omborxonalar, sanitariya-himoya hududlari, shamoldan to‘sish (ihota), suv va tuproq muhofazasiga oid, ko‘chat yetishtiruvchi xo‘jaliklar va qabristonlardagi daraxtzorlar. Ularning barchasi aholining ekologik xavfsiz muhitda yashashiga, atrofimizdagi sog‘lom tabiiy muhitdan aholini birdek foydalanishga xizmat qiladi va albatta, ko‘kalamzorlashtirishning yagona tizimini vujudga keltiradi.

Aholi punktlariga qarashli yerlardagi daraxt va butalarni kesish quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonuni (15-modda);

2. Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 28-oktabrdagi 508-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘simliklar dunyosi obyektlaridan foydalanish, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning tashqarisiga olib chiqish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»

3. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisining 2007-yil 15-maydagi 01-705-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2007-yilning 4-iyunida 1686-raqam bilan ro‘yxatga olingan «Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesish, shuningdek, davlat o‘rmon fondi yerlariga kirmaydigan zaxira yerlarida pichan o‘rish va chorva mollarini o‘tlatish uchun beriladigan ruxsatnomalar blankalarini to‘ldirish va hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma»si asosida olib boriladi.

Aholi punktlarida daraxt va butalarni faqat shakl berish, binolar, inshootlar, kommunikatsiya qurilishlari uchun kesish mumkin. Lekin ushbu ishlarni mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bilan kelishilgan holda, beriladigan maxsus ruxsatnoma asosida olib borish mumkin. ««Qizil kitob»»ga

kiritilgan daraxt va butalarga ruxsatnoma «O‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning tashqarisiga olib chiqish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiradi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 22-avgustdagi 189-sonli, 2009-yil 20-yanvardagi 16-sonli qarorlari bilan tashkil etilgan komissiya tomonidan ko‘rib chiqilgandan so‘ng amalga oshiriladi. Bino, inshoot va kommunikatsiya tarmoqlarini bunyod etish uchun yer maydoni ajratilgan taqdirda bu yerdagi daraxt va butalarni kesishga ruxsat olish uchun yuridik va jismoniy shaxslar tuman (shahar) hokimiyatiga arizani quyidagi hujjatlarni unga ilova qilish orqali topshiriladi:

- davlat hokimiyati organining unga yer maydonini ajratganligi to‘g‘risidagi qarori;
- davlat me’morchilik-qurilish nazorati organining qurilish obyektini bunyod etishga ruxsatnomasi;
- boshlang‘ich jarayonda atrof muhitga ta’siri baholangan va qonunchilik talablariga javob beruvchi taqdim qilingan shaharsozlik hujjatlari asosidagi Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi;
- tuman (shahar) me’morchilik-qurilish bo‘limi (boshqarmasi) tomonidan «O‘zGAShKLITI» DUKning hududdagi loyihaqidiruv tashkiloti vakillari belgilangan tartibda jalb etilgan holda tayyorlangan yer maydoni chegarasiga oid chizmasi (tarhi).
- obyekt qurilishi jamoatchilikning roziligi bilan tasdiqlangan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi (yoki shaxsiy uyjoy mulkdorlari shirkati) majlisi bayonnomasidan ko‘chirma (zarurat tug‘ilganda).

Daraxt va butalarni kesish to‘lovlari «O‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning tashqarisiga olib chiqish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» asosida belgilanadi. Uning miqdorini belgilashda tabiatga yetkazilgan zarar hisobga olinadi (kesilishi kerak bo‘lgan daraxt yoki butaning aylanasi hamda uning tur tarkibi). Masalan, aylanasi 25 sm. bo‘lgan terakni kesishga ruxsatnoma olish uchun to‘lov miqdori eng kam ish haqining 2,2, eman va boshqa qimmatbaho bo‘lgan turlar uchun – 3,3 darajasida belgilangan. Kesishga ruxsat beriladi va to‘lov badali undirilmaydi, agarda daraxt va butalar ko‘karishi imkoniyati 80 foizdan kamayib ketsa (qurigan, qurib ketish darajasida, shikastlangan, kasallangan). Undan yig‘ilgan mablag‘ Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va uning joylardagi organlari qoshida maxsus tashkil etilgan «Tabiatni muhofaza qilish respublika va mahalliy jamg‘armalari»ga kelib tushadi. Tabiatni muhofaza qilish maxsus jamg‘armasiga tushadigan mablag‘lar tabiatni muhofaza qilish yo‘nalishidagi ekologik dastur, reja, loyiha va tadbirlarga sarflanadi.

XX asrning 90-yillariga kelib Indoneziyada o‘rmonlarning noqonuniy kesilish darajasi qonuniy kesilish darajasi bilan teng bo‘lgan. Braziliyaning Amazoniya o‘rmonlarida esa yog‘ochlarning 80% noqonuniy kesiladi. Rossiyaning qonuniy yog‘och ishlab chiqarish yillik hajmining 25% yoki umumiy kesishning 20% noqonuniy hisoblanadi yoki o‘rmon qonunchiligi talablarining qo‘pol tarzda buzish orqali amalga oshiriladi. Shimoliy Amerika (Kanada) va Sharqiy Yevropa (Polsha, Belorussiya) davlatlarining muhofaza etiladigan hududlarida daraxt va butalarning noqonuniy kesilishi oddiy holga aylangan[1].

Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 5-noyabrdagi «Ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik bo‘yicha sudlari tomonidan qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida» gi 14–sonli qarorida shunday ta’rif berilgan «Daraxtlarni noqonuniy kesish deganda, daraxt, buta va lianalar (chirmovuqlar)ni kesish ruxsatnomasi, chiptasi, orderi bo‘lmagan yoki ruxsatnoma, chipta, orderlarni qo‘pol tarzda buzish bilan berilishi, bundan tashqari, boshqa hudud yoki ushbu hudud chegarasidan tashqarida, nizomdan ortiqcha kesish, boshqa tur yoki kesishga ruxsat etilmagan daraxt, buta va lianalar(chirmovuqlar) ni kesish, shuningdek, ruxsatnoma, chipta, orderda ko‘rsatilgan me’yorlardan ortiq, hujjatda ko‘rsatilgan vaqtdan tashqari kesish, man qilinadigan daraxt, buta va lianalar(chirmovuqlar)ni kesish Rossiya Federatsiyasi hukumatining 1998-yil 1-iyundan 551-sonli qarori asosida o‘rmon xo‘jaligi foydalanuvchisi uchun cheklov, faoliyatni bir muddat to‘xtatish yoki umuman to‘xtatib qo‘yilganda amalga oshirilgan xatti-harakatlardir».

[1] www.forest.ru

O‘zbekistonda ekologik huquqbuzarliklar uchun asosan quyidagi javobgarlik choralari qo‘llaniladi: atrof tabiiy muhitga, shuningdek, jamiyatga yetkazilgan zararni moddiy va ma’naviy qoplash; atrof-muhit muhofazasiga oid qonunchilik buzilishi holatlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha boshqa subyektlarni ogohlantirish; ekologik qonunchilik talablariga amal qilmagan shaxslarni jazolash.

Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik. O‘zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunining 49-moddasiga binoan atrof tabiiy muhitga ziyon yetkazgan korxona, muassasa, tashkilot va jismoniy shaxslar keltirilgan zararni qoplashga majburdirlar.

Noqonuniy ravishda daraxt va butalarni kesish orqali tabiat va jamiyatga yetkazilgan zararni undirish Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 27-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi o‘simlik dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undiriladigan jarima miqdorlarini hisoblash taksalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 273-sonli qarorida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Undirib olinadigan pul miqdori yetkazilgan zarar ko‘lamiga bog‘liqdir. Agarda jismoniy shaxslar daraxt va butalarning qimmatbaho turlarini, yuridik shaxslar esa daraxt va butalarning har qanday turlarini noqonuniy ravishda kesgan hollarda undiriladigan jarima miqdori eng yuqori ko‘rsatkichlar bo‘yicha olinadi. Misol uchun, jismoniy shaxslar tomonidan qimmatbaho bo‘lmagan, aylanasi 25 sm. bo‘lgan bir tup daraxtni noqonuniy kessalar eng kam ish haqining 1,9 darajasida, agarda qimmatli daraxt turi kesilsa yoki kesish natijasida uning o‘sishi to‘xtab qolsa undirib olinadigan jarima miqdori besh barobarga oshadi. Xuddi shunday noqonuniy harakat yuridik shaxs tomonidan amalga oshirilsa jarima miqdori jismoniy shaxsga nisbatan besh barobar yuqori bo‘ladi. Demakki, daraxt va butalarni kesishda yuridik shaxslarning mas’uliyati jismoniy shaxslarga nisbatan juda yuqoridir.

Daraxt va butalarning o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan, ya’ni ularni shikastlantirgan darajada zarar yetkazilgan hollarda jarima daraxt yoki butaning yoshiga qarab unidiriladi. Qimmatbaho bo‘lmagan va 10 yoshdan oshiqlariga jismoniy va yuridik shaxslardan eng kam ish haqining 0,3 foizi, qimmatbaho turlariga esa eng kam ish haqining 0,9 foizi miqdorida jarima solinadi. Daraxt va butalarni noqonuniy ravishda kesish yoki ularga ziyon yetkazish uchun qo‘llanilgan jarima, aybdorlarni ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortishdan ozod etmaydi.

Ma’muriy javobgarlik. Ma’muriy javobgarlik manbalari – O‘zbekiston Respublikasining «Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida»gi kodeksi, qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari va Vazirlar Kengashi qarorlari, viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi qarorlaridan iboratdir.

Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurlardan foydalanishga oid ma’muriy javobgarlikni qo‘llash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 1997-yil 27-yanvarda 302-raqam bilan ro‘yxatga olingan qoida asosida uning mansabdor shaxslari tomonidan qo‘llaniladi. Daraxt va butalarni noqonuniy kesish orqali sodir etilgan ekologik huquqbuzarliklar uchun aybdorlarga nisbatan odatda iqtisodiy sanksiya normalari, ya’ni jarima qo‘llaniladi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 261-moddasiga binoan Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi nomidan ma’muriy javobgarlik bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish va jarima shaklidagi ma’muriy choralarni qo‘llash huquqiga quyidagilarga ega:

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston respublikalari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitalari, viloyatlar va Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo‘mitalari davlat inspektorlari - fuqarolarga eng kam ish haqqining 2 barobarigacha, mansabdor shasxlarga eng kam ish haqining 5 barobarigacha;

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston respublikalari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitalari, viloyatlar va Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo‘mitalari katta davlat inspektorlari, tumanlararo, tuman va shahar inspeksiya boshliqlari – fuqarolarga eng kam ish haqining 3 barobarigacha, mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining 7 barobarigacha;

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston respublikalari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitalari, viloyatlar va Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo‘mitalari bosh davlat inspektorlari va ularning o‘rinbosarlari – fuqarolarga eng kam ish haqqining 5 barobarigacha, mansabdor shaxslarga eng kam ish haqqining 10 barobarigacha.

Ma’muriy javobgarlik choralarini qo‘llashda sodir etilgan huquqbuzarlik ko‘rinishi aybdor shaxs va aybdorlik darajasi uning uy-joy sharoiti hamda yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlari

inobatga olinadi. Uni qo‘llashda adolatlilik, tarbiyaviylik va oldini olishga yo‘naltirilganlik kabi gumanitar prinsiplar samadorligi inobatga olinadi. Shaxs tomonidan bir yilda takroran bir turdagi huquqbuzarlik sodir etilsa ma’muriy javobgarlik kuchaytiriladi.

Jinoiy javobgarlik. Daraxt va buta kesish orqali o‘simlik dunyosiga ko‘p va juda ko‘p miqdorda zarar yetkazilsa, ya’ni qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan holatlarda milliy qonunchilikda aybdorlarga nisbatan jinoiy javobgarlikning quyidagi iqtisodiy sanksiyalarini qo‘llash ko‘zda tutilgan:

- ***ko‘p bo‘lmagan zararda*** **–** eng kam oylik ish haqining 10 dan 30 barobarigacha;
- ***ancha miqdordagi zarar*** **–** eng kam ish haqining 30 dan 100 barobarigacha;
- ***ko‘p miqdordagi zarar*** **–** eng kam ish haqining 100 dan 300 barobarigacha;
- ***juda ko‘p miqdordagi zarar*** **–** eng kam oylik ish haqining 300 baravari va undan ortiq.

Misol uchun faqatgina 2009-yil va 2010-yilning birinchi yarmida tabiatni muhofaza qilish organlari tomonidan daraxt va butalarni noqonuniy kesgan shaxslarga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘atish uchun 18 ta taqdimnoma Toshkent shahar prokuraturasiga yuborilgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, aybdorlarni ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi ularni o‘simlik dunyosiga yetkazgan zararini qoplashdan ozod etmaydi.

Mansabdor shaxslarning ma’muriy va jinoiy javobgarligi. O‘zR Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 162 moddasida ko‘rsatib o‘tilgan «shaharlardagi daraxtlarga zarar yetkazish va ularni o‘zboshimchalik bilan kesish» normaga binoan daraxt va butalarni noqonuniy kesganlik, zarar yetkazganlik hamda ularni yo‘q qilganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan eng kam ish haqining 1 barobaridan 3 barobarigacha bo‘lgan miqdorda jarima qo‘llaniladi.

Mansabdor shaxslar tomonidan xuddi shunday huqubuzarlik ma’muriy javobgarlikdan qo‘llanilgandan so‘ng bir yil ichida qayta sodir etilsa jarima miqdori eng kam ish haqining 3 barobaridan 7 barobarigacha ortadi.

Mansabdor shaxslar tomonidan daraxt va butalarni muhofaza qilish bo‘yicha talablar bajarilmagan yoki bajarishga xalaqit berilgan

taqdirda, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish organlari davlat inspektorlarining qonuniy talablari bajarilmagan holatlarda ularga nisbatan O‘zR Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 198-moddasi «Hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaslik yoki xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilish» deb qaraladi va ularga nisbatan eng kam ish haqining 1 barobaridan 2 barobarigacha jarima solinadi. Xuddi shunday holat mansabdor shaxs tomonidan ma’muriy javobgarlikdan so‘ng bir yil ichida takroran sodir etilsa jarima miqdori eng kam ish haqining 3 barobaridan 5 barobarigacha ko‘payadi.

O‘zR Jinoyat kodeksining 198-moddasiga «Ekinzor, o‘rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish» binoan daraxt va butalarni noqonuniy ravishda kesganlik uchun eng kam ish haqining 50 barobaridan 75 barobarigacha bo‘lgan miqdorda aybdorga nisbatan jarima solinadi yoki bir yildan ikki yilgacha bo‘lgan muddatga axloq tuzatish yoki 3 oydan 6 oygacha qamoq yoxud 3 yilgacha bo‘lgan muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi qo‘llaniladi.

Daraxt va butalarga qasddan zarar yetkazish, nobud qilish holatlari uchun eng kam ish haqining 75 barobaridan 100 barobarigacha bo‘lgan miqdorda jarima yoki 2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi qo‘llaniladi. Agarda aybdor yetkazilgan moddiy zararni 3 barobar miqdorida to‘lasa ozodlikdan mahrum etish jazosi qo‘llanilmaydi.

Mansabdor shaxs o‘zining xizmat vakolatidan foydalangan holda daraxt va butani kesish orqali o‘simlik dunyosiga juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holatlarda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 206-moddasi binoan mansabdor shaxs o‘z vakolat doirasidan chetga chiqqan deb qaraladi va unga nisbatan O‘zR JK 207-moddasi, mansabga sovuqqonlik bilan qarash deb hisoblanadi. Jumladan, hokim yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqqanligi uchun eng kam oylik ish haqining 150 barobaridan 300 barobarigacha bo‘lgan miqdorda jarima yoki ma’lum huquqdan 5 yilgacha mahrum etish yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlariga jalb qilish, yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llaniladi. Agar bunday harakat:

a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan bo‘lsa;

b) uyushgan guruh manfaatlariga xizmat qilsa;

d) masul mansabdor shaxs tomonidan sodir etilsa eng kam ish haqining 300 barobaridan 600 barobari miqdorida jarimaga yoki ma’lum

huquqdan mahrum qilingan holda 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi qo‘llaniladi.

Masalan, Mirzo Ulug‘bek tumanining Mo‘minov ko‘chasidagi 145-maktabgacha tarbiya muassasasi hududida noqonuniy ravishda daraxt kesilib, o‘simlik dunyosiga ko‘p miqdoda zarar yetkazilganligi uchun ushbu muassasa mudiri aybdor deb topilib, unga 1 yil davomida rahbarlik lavozimida ishlamasligi sharti bilan eng kam ish haqining 320 barobari miqdorida jarima solindi.

Fuqarolarning ma’muriy va jinoiy javobgarligi. O‘zR Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 162-moddasiga binoan dov-daraxtlarga shikast yetkazish, ularni o‘zboshimchalik bilan kesib tashlash yoki boshqa joyga ko‘chirish harakatlari uchun fuqarolarga eng kam ish haqining 1/3 qismidan 1 barobari miqdorigacha jarima solinadi. Fuqarolar tomonidan xuddi shunday holat ma’muriy javobgarlikdan so‘ng bir yil davomida takroran sodir etilsa eng kam ish haqining 1 barobaridan 3 barobarigacha miqdorda jarimaga tortiladi.

O‘zR Jinoyat kodeksining 198-moddasiga binoan o‘simlik dunyosiga juda ko‘p miqdorda zarar yetkazilgan taqdirda fuqarolar jinoiy javobgarlikka ham tortilishlari mumkin.

Intizomiy javobgarlik. Daraxt va butalarni noqonuniy ravishda kesish va ularga ziyon yetkazilganda intizomiy javobgarlik O‘zR Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunining 47-moddasida aks ettirilgan. Aybdorlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 181 va 100-moddalariga asosan intizomiy javobgarlikning quyidagi turlari ularni ishga qabul qilgan shaxslar (organlar) tomonidan qo‘llaniladi: (hayfsan; o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdordagi ish haqidan ushlab qolish) jarima; xodimlarning o‘z mehnat majburiyatini uzluksiz ravishda yoki bir marta qo‘pol ravishda buzganligi uchun mehnat shartnomasini bekor qilish.

Ichki mehnat qoidalarida xodimga nisbatan oylik maoshning 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan jarima qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan bo‘lishi ham mumkin. Xodim tomonidan mehnat majburiyatlarini buzish qo‘pol ravishda ekanligi har bir aniq holatda xatti-harakatning og‘ir oqibatlarga olib kelganligi va olib kelishi mumkinligi bo‘yicha hal etiladi. Har bir xatti-harakat uchun faqat bitta intizomiy jazo qo‘llaniladi. Aybdorga nisbatan intizomiy jazoning qo‘llanilishi uni fuqaroviy, ma’muriy, jinoiy javobgarlik choralarini qo‘llashdan ozod etmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolarning asosiy faoliyati, biologik xilma-xillikni saqlash maqsadida, o‘simlik dunyosining kamayishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ekologiya huquqida qanday o‘simlik dunyosi obyektlari ajratiladi?
2. Biologik xilma-xillikmi yoki rang-baranglikmi. Ekolog sifatida uning farqlarini ochib bering!
3. Nima uchun o‘simlik dunyosini ekologik-huquqiy jihatdan muhofaza qilish kerak?
4. O‘simlik dunyosidan foydalanish kimlarga va qanday talablarda beriladi?
5. O‘simlik dunyosining noyob va yo‘q bo‘lib ketayotgan turlari qayerda berilgan bo‘ladi?
6. ««Qizil kitob»» huquqiy manba bo‘la oladimi?
7. O‘simlik dunyosidan qanday maqsadlarda foydalanish uchun ruxsat beriladi?
8. O‘simlik dunyosini muhofaza qilishning huquqiy tamoyillarini sanab o‘ting!
9. Aniq bir holat bo‘yicha daraxt va butalarni noqonuniy kesganligi uchun javobgarlik sanksiyalarini belgilang!
10. Aniq bir madaniy o‘simlik uchun aholi punktlarida qanday qilib ruxsatnoma olish tartibini belgilang!

Ekologik muammolar boshqa xavfsizlik muammolaridan yashirin tarzda kechishi bilan farqlanib turadi.
Islom Karimov

XIII bob. O‘RMONLARNI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. O‘rmon – alohida Ekologiya huquqining obyekti sifatida

Garchand O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «o‘rmon» mustaqil tabiiy zaxira (to‘g‘irog‘i, unsur, boylik), deb ifoda qilinmagan bo‘lsa-da, dunyoning aksariyat mamlakatlarida u huquqiy jihatdan alohida tartibga solish obyekti hisoblanadi. Chunki o‘rmon o‘zining ekologik tizimda tutgan muhim ahamiyatiga ko‘ra juda katta o‘ziga xos majmua hisoblanadi. *O‘rmon nafaqat o‘simlik dunyosi, balki o‘rmonlarsiz yerlarga nisbatan keskin ajralib turadigan hayvonot dunyosi, tuprog‘i, atmosfera havosi va hattoki, suviga ham ega.* O‘rmonlarda uchraydigan bo‘ri bilan yaylovdagi bo‘ri, «podzol» o‘rmon tuprog‘i bilan och qo‘ng‘ir rangli cho‘l tuprog‘i, kislorod bilan boyitilgan o‘rmon havosi bilan baland tog‘ havosining tarkibiy qismida farq bor, albatta.[1]

O‘rmon – *bir-biriga va o‘sish sharoitiga ta’sir etuvchi va geografik landshaft elementini hosil qiluvchi daraxtsimon o‘simliklar majmuyi.*

Inson hayotiy faoliyatiga tabiiy obyektlar ichida eng ko‘p ta’sir qiladigani ham aynan o‘rmonlardir. Kishilik sivilizatsiyasi davrida Yer yuzidagi butun o‘rmonlarning 2/3 qismi kesilib ketdi. Bu esa atmosfera havosidagi kislorod va is gazining nisbati, tuproq eroziyasi, hayvonot dunyosining xilma-xilligiga keskin salbiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘rmonlarning yo‘qotilishi qishloq xo‘jaligi yerlarining 60 foizini xalq xo‘jaligi oborotidan chiqib ketishiga olib keldi.

[1] *Ўрмон.* Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 10-ж. – Т.: ЎзМЭ ДИН, 2005. – 516-б.

O‘zbekistonda o‘rmonlar, Yevropa, Shimoliy yoki Janubiy Amerika singari davlatlarda ham o‘rmonlar juda rang-barang va zich deb aytolmaymiz. O‘zR Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasining ma’lumotlariga ko‘ra 2008-yil 1-yanvarga kelib respublikamizda davlat o‘rmon fondi yerlarining umumiy maydoni 8,2 mln.ga teng bo‘lib, shundan o‘rmon bilan qoplangani 2,7 mln. ga teng. Undan tabiiy o‘rmonlar maydoni 2,1 va madaniy o‘rmonlar – 0,6 mln. ga tashkil etadi.

O‘rmonlarning tarqalishi, o‘sishi va rivojlanishiga qarab, mamlakatimizda *uch mintaqa ajratib olinadi – tog‘, cho‘l va sohil o‘rmonlari.* Tog‘ o‘rmonlari 0,9 mln. gektar yoki o‘rmonli yerlarning 10,1 foizni (204 ming ga archazorlar), 7,1 mln. ga cho‘l o‘rmonlari yoki 86,6 foizni (saksovul va psammofitlar turkumiga kiruvchi butalar), 0,2 mln. ga 2,3 foizni (to‘qayzorlar – mayda tol, terak va turli butalar) o‘rmonlar mavjud. Keyingi 100 yil davomida garchand o‘rmon fondi yerlari ko‘paysa-da, lekin o‘rmonlar maydoni 4–5 barobarga kamaygan va ayniqsa, sohildagi o‘rmonlarning yo‘qolib ketayotgani achinarli holdir.

O‘rmonlar atrof-muhit musaffoligini ta’minlashi, insonlarning ekologik xavfsizligi va madaniy boyligi sifatida alohida e’tibor bilan huquqiy muhofazalanadi. O‘rmonlar turli mintaqalarda turli xil funksiyalarni bajaradi. Qalin o‘rmonlar bilan qoplangan mintaqalarda *o‘rmonlar,* avvalambor, *jamiyatning iqtisodiy talablarini* (Kanada, Finlyandiya, Rossiya, Belorussiya kabi mo‘tadil iqlimli davlatlarda), chiroyli manzara va turizmni rivojlantirish imkoniyati keng bo‘lgan hududlarda o‘rmonlar *jamiyatning ijtimoiy talablarini* (Fransiya, Ispaniya, Gretsiya, Kipr kabi subtropik iqlimli davlatlarda), iqlimi keskin kontinental bo‘lgan hududlarda o‘rmonlar jamiyatning *ekologik talablarini* (O‘zbekiston, Turkmaniston, Meksika, Isroil, arab mamlakatlari) qondiradi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda o‘rmonlar organizmlar uchun ekologik barqarorlikni ushlab turuvchi omil sifatida xizmat qilar ekan. Ular tirik organizm, xususan, insonlar uchun kislorod manbayi, tuproqdagi mineral xomashyo uchun organik manba, yerlarni yemirilishdan saqlovchi «qalqon», mikroiqlim hosil qiluvchi «konditsioner», biosferadagi va yer ostidagi namlikni bir me’yorda ushlab turuvchi «balansyer», minglab turdagi jonzotlar uchun «yashash makoni», qolaversa, go‘zal landshaftlarning asosiy ko‘rsatkichidir. O‘rmonlarning ushbu muhim ijtimoiy-ekologik ko‘rsatkichlarini inobatga olgan hol-

da, uni O‘zbekistonda qolgan o‘simlik dunyosidan ajratilgan tarzda alohida ekologik-huquqiy muhofaza qilish tartibi o‘rnatilgan.

1999-yil 15-aprelda qabul qilingan (2000, 2006, 2009-yillar qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan) O‘zbekiston Respublikasi «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasida «O‘rmonlar asosan *ekologik* (*suvni muhofaza qilish, qo‘riqlash, sanitariya-gigiyena, sog‘lomlashtirish, rekratsion), estetik va boshqa vazifalarni bajaradi, cheklangan darajadagi foydalanish ahamiyatiga ega»*, deb ifodalangan. O‘rmonlarning mazkur prioritet (birlamchi) funksiyasiga ko‘ra ekologik-huquqiy tartiboti o‘rnatiladi.

2. O‘rmonlarga oid munosabatlarni tartibga solishning umumiy jihatlari

O‘rmonlarning ekologik, estetik va xo‘jalik ahamiyatiga ko‘ra qonunchilik tizimi shakllanadi. «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonunning 2-moddasiga binoan o‘rmonlarga oid qonun hujjatlarining quyidagi *vazifalari* belgilangan (ahamiyatiga ko‘ra ketma-ketlikda berilgan):

- o‘rmonlarni muhofaza qilish;
- qo‘riqlash va ulardan oqilona foydalanish;
- takroriy ko‘paytirishni ta’minlash;
- o‘rmon mahsuldorligini oshirish.

Ana shu qonuniy vazifalar o‘rmonlarni davlat mulki – umummilliy boylik sifatida e’tirof etish, ulardan oqilona foydalanish mexanizmini yaratish va davlatning alohida e’tibori bilan muhofazalanish normalarini o‘rnatishga olib keldi.

O‘rmonlarni ekologik-huquqiy jihatdan tartibga solish uchun davlat o‘rmon fondi ajratib olinadi. O‘rmon to‘g‘risidagi qonunning 5-moddasiga ko‘ra, davlat *o‘rmon fondiga barcha toifadagi o‘rmonlar kiradi*. O‘rmon fondi, o‘z navbatida, davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan o‘rmonlardan (davlat o‘rmon xo‘jaligida turgan) va idora, muassasa, tashkilot, korxona va shu kabi yuridik shaxslarning foydalanishidagi o‘rmonlarga bo‘linadi.

2000-yilga kelib, O‘zbekistonda 90 dan ziyod davlat o‘rmon xo‘jaligi mavjud bo‘lgan. Ulardan 70 dan ziyodi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi qaramog‘ida, 6 tasi davlat qo‘riqxonasi maqomida. O‘rmon xo‘jaliklarining 2 tasi dorivor va ozuqa o‘simliklarini yetishtiruvchi va qadoqlovchi, 2 tasi

o‘rmon ovchilik xo‘jaligi, 2 tasi Zomin va Ugam Chotqol milliy bog‘lari, 2 tasi xo‘jalik hisobidagi o‘rmon uchastkalari, 2 tasi bosh o‘rmon korxonasi, 1 tasi ishlab chiqarish o‘quv markazidadir[1].

Davlat o‘rmon fondiga – qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardagi daraxt va ularning to‘plari, ekinzorlarning ihota daraxtzorlari va boshqa turdagi butazor va daraxtzorlar; temir yo‘l, avtomobil yo‘llari, kanallar va boshqa suv fondi yerlaridagi daraxtzorlar; aholi punktidagi daraxtzorlar va ko‘kalamzorlashtirish uchun ekilgan o‘simliklar; tomorqalardagi va bog‘lardagi daraxtlar va ularning to‘plami *kirmaydi.*

Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtzor va butazorlar O‘zR O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish qonuni yoki boshqa qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi.

O‘rmon fondidan tashqari «*O‘rmon fondi yerlari»* degan alohida tushuncha bor. Yer kodeksining 8 va 76-moddalariga muvofiq *O‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar o‘rmon fondi yerlaridir.* O‘rmon fondi yerlariga nafaqat o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek, o‘rmon bilan qoplanmagan, lekin o‘rmon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yerlar ham kiradi.

> O‘rmon fondi yerlari – *o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek, o‘rmon bilan qoplanmagan, lekin o‘rmon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yerlar uchastkalari.*

O‘zR Yer kodeksining 10-moddasiga asosan o‘rmon fondi yer uchastkasini ajratish tartibi amalga oshiriladi. Ushbu yer uchastkalaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish davlat boshqaruvida umumiy va maxsus yo‘sinda olib boriladi.

Davlatning o‘rmonga oid munosabatlarni tartibga solishning umumiy vakolati O‘zR Vazirlar Mahkamasi, mahalliy hokimiyat va Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga topshirilgan.

Vazirlar Mahkamasining «O‘rmonlarni muhofaza qilish, qo‘riqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy ko‘paytirish» sohasidagi vakolatlari O‘rmon to‘g‘risidagi qonunning 10-moddasida belgilangandir.

Mahalliy davlat hokimiyatlari 1993-yil 2-sentabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risi»da, 1994-yil 5-maydagi «Xalq deputatlari

[1] *Ф.Намазов.* Ўзбекистонда ўрмонлардан фойдаланиш ҳуқуқи. – Т.: НПО Восток, 2000. – 3-б.

viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to‘g‘risida» va «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonunning 11-moddasiga muvofiq o‘rmonga oid barcha munosabatlarni boshqa ijtimoiy munosabatlar qatori o‘zining hududida va vakolat doirasida hal etishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi ham davlatning o‘rmonga oid munosabatlarni tartibga solishda umumiy vakolatlangan organlar qatoridan joy oladi. Chunki u nafaqat o‘rmonlarni, shuningdek, barcha tabiiy obyektlarni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini o‘rnatadi. Ushbu kompleks ekologik nazorat funksiya 1996-yil 26-apreldagi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Nizomida aks ettirilgandir.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi, o‘rmonga oid barcha munosabatlarni tartibga solib turuvchi maxsus vakolatlangan organ hisoblanadi. 2000-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat o‘rmon qo‘mitasini O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi Bosh boshqarmasiga aylantirish to‘g‘risida»gi Prezident Farmoniga binoan tashkillashtirilgan.

O‘rmon xo‘jaligi Bosh boshqarmasining 12-may 2000-yildagi Nizomiga binoan, umumlashtirilgan tarzda, mazkur boshqarmaga quyidagi vakolatlar va vazifalar yuklatilgan:

- O‘zR Davlat o‘rmon qo‘mitasi tasarrufiga kirgan o‘rmon xo‘jaligining barcha bo‘linmalariga rahbarlik qilish va uning huquqiy vorisi hisoblanish;
- o‘rmon qonunchiligi ijrosi ustidan davlat nazoratini olib borish;
- o‘rmon fondini boshqarish, ulardan foydalanish, ularni tiklash, qo‘riqlash va muhofaza qilishni tashkil etish;
- o‘rmon xo‘jaligidagi qo‘riqxona va milliy bog‘larning ishlarini yuritish;
- davlat o‘rmon fondining yagona texnik siyosatini yuritish;
- o‘rmon fondi monitoringini olib borish;
- o‘rmon-meliorativ choralarini tashkil etish;
- o‘rmonlarni yong‘indan, kesishdan va o‘rmon qoidalari buzilishining oldini olish;
- qo‘riqxona ishlari va ovchilik masalalariga doir ishlarni o‘z vakolati doirasida nazorat qilish;

- o‘rmon xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlarini malakali kadrlar bilan ta’minlash.

Mazkur farmondan kelib chiqqan holda O‘rmon xo‘jaligi Bosh boshqarmasi uchun Vazirlar Mahkamasi va Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining qarorlari qabul qilindi.

O‘zbekistonda o‘rmonlar, avvalambor, ekologik funksiyani bajarar ekan, ularni qo‘riqlash asosiy huquqiy normalardan biri hisoblanadi. O‘rmon to‘g‘risidagi qonunning 13-moddasiga asosan *o‘rmon qo‘riqchiligi o‘rmon xo‘jaligi korxonalarida o‘rmonlarni qo‘riqlash va muhofaza qilishni ta’minlaydi*. Korxonadagi mansabdor shaxs bo‘lib o‘rmon inspektori hisoblanadi va unga bir qator muhim qo‘riqlash vakolatlari berilgan.

O‘rmon xo‘jaligini tashkil etishning asosiy prinsiplari, ya’ni yo‘naltiruvchi qoidalari quyidagilardan iborat: o‘rmonlarni himoya etish, sog‘lomlashtirish va boshqa foydali xususiyatlarini saqlash va kuchaytirishning afzalligi; o‘rmonlardan oqilona foydalanish; ularni takroriy ko‘paytirish, ularning mahsuldorligini oshirish, nav tarkibi va sifatini yaxshilash va hokazo. Ammo O‘rmon to‘g‘risidagi qonunning 14-moddasida aks ettirilgan ushbu qoidalar, to‘g‘rirog‘i, prinsiplar (afsuski, qoida sifatida emas) vazifa tariqasida berilgan. Ularni umumlashtirilgan hamda davlat va huquq nazariyasidan kelib chiqqan holda shunday ifoda etish mumkin:

- o‘rmonlarning ekologik jihatlarining afzalligi;
- o‘rmonlardan oqilona foydalanishning majburiyligi;
- davlatning islohotchilik funksiyasini yo‘qotmaslik va shu kabi qoida tariqasida aks ettirilgan normalar.

O‘rmonlarning ekologik jihatlarining afzalligi prinsipi O‘rmon to‘g‘risidagi qonunning 3, 15, 26-moddalarida bevosita va qolgan barcha moddalarida bilvosita tarzda yoritilgan. Qonunning 15-moddasida o‘rmonlarning ekologik funksiyasini saqlab qolish uchun 15 xil qo‘riqlanish toifalari belgilangan. Masalan, daryo sohilini eroziyadan saqlaydigan, chala cho‘l va cho‘l mintaqasidagi o‘rmonlar va hokazo.

Umuman olganda, o‘rmon xo‘jaligi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish uchun «O‘rmon tuzish» ishlari olib boriladi. O‘zbekistonda o‘rmon tuzishning huquqiy asoslari Konstitutsiyamizning 50, 54, 55-moddalarida, «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonunning 16-moddasida, O‘rmon xo‘jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2000-yilda ishlab chiqilgan «O‘rmon tuzish va loyiha-qidiruv ishlarini olib borish tar-

tibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma»da ifodalangan. Ularda o‘rmon tuzishning maqsadi va vazifalari, chora-tadbirlari, normativ hujjatlari, bosqichlari, olib borish tartibi, o‘rmonlarning turlarga ajratilishi, o‘rmon taksatsiyasi, baholanishi, karta – planlarga tushirilishi kabi masalalarning me’yoriy qoidalari berilgan.

O‘rmon tuzish – *o‘rmonlarni muhofaza qilish, qo‘riqlash, o‘rmon xo‘jaligi va o‘rmonlardan foydalanishning oqilona yuritilishini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar tizimi.*

O‘rmon tuzish ishlarini olib borish o‘rmonlarni davlat hisobiga o‘tkazishga asos bo‘ladi. Agar o‘rmon tuzish ishlari o‘rmon fondiga o‘tkazilmagan bo‘lsa, Qonunning 17-moddasiga binoan, o‘rmon fondini hisobga olish va tekshirish materiallari asosida, davlat byudjeti hisobiga olib boriladi.

O‘rmon tuzish va o‘rmon fondining davlat hisobi o‘rmonlarga oid barcha kadastr ma’lumotlarini to‘plashga xizmat qiladi. *O‘rmon kadastri* 2000-yil 15-dekabrdagi «Davlat kadastrlari to‘g‘risida»gi qonunga binoan o‘tkaziladi. O‘rmon kadastri davlat byudjeti hisobiga o‘tkazilgani uchun ham «Davlat» so‘zi qo‘shib ishlatiladi. U yagona tizim bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlatning maxsus tashkillashtirilgan organlari orqali olib boriladi.

3. O‘rmonlardan foydalanish huquqi

Yuqorida biz, o‘rmon inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etishi haqida alohida to‘xtalib o‘tgan edik. Kishilar o‘rmonlardan doimo foydalanar ekanlar, bir paytning o‘zida ular o‘rmonlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ko‘rishga majburdirlar.

O‘rmondan foydalanish huquqi – *o‘rmonning foydali xususiyatlaridan yuridik va jismoniy shaxslarning o‘z xo‘jalik va boshqa hayotiy ehtiyojlarini qondirishlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tarzda foydalanishlari.*

Ekologiya huquqining prinsiplaridan kelib chiqqan holda va O‘rmon to‘g‘risidagi qonunning 19, 30-moddalariga binoan, o‘rmondan foydalanish ma’lum *haq evaziga (maxsus foydalanish)* yoki *bepul*

(umumiy foydalanish) amalga oshiriladi. To‘lovlar miqdori va ularni undirish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va unga doimo qo‘shimcha hamda o‘zgartirishlar kiritib turiladi.

O‘rmonlardan foydalanish *doimiy* va *vaqtinchalik* bo‘ladi. Doimiy foydalanish uchun o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga, vaqtinchalik esa (qisqa muddatli – 3 yilgacha, uzoq muddatli – 10 yilgacha) o‘rmon xo‘jaligiga kirmagan yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Ushbu foydalanish huquqi O‘rmon xo‘jaligi Bosh boshqarmasining bo‘linmalari yoki ular vakolat bergan tashkilot, muassasa yoki korxonalar tomonidan beriladi. O‘rmondan maxsus foydalanishga litsenziya yoki chipta asosida yo‘l qo‘yiladi.



13.3.1-rasm. **O‘rmonlardan doimiy va vaqtinchalik foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari.**

O‘rmon to‘g‘risidagi qonunning 30-moddasiga muvofiq, o‘rmondan doimiy foydalanuvchilar muayyan huquq va majburiyatlarga egadirlar.

Mazkur Qonunning 23-moddasiga ko‘ra, davlat o‘rmondan foydalanuvchilarning qonun bilan belgilangan faoliyatlariga aralashmaslik, huquqlari buzilgan taqdirda ularni tiklash va yetkazilgan zararni to‘la hajmda qoplash majburiyatini oladi. Qonunning 24-moddasida belgilangan tartibda o‘rmondan foydalanuvchilar o‘z huquqlaridan voz kechishi, uning bekor qilinishi, olib qo‘yilishi, mahrum qilinishi ham mumkin.

O‘rmondan quyidagi maqsadlarda foydalanish uchun ruxsat beriladi:

- daraxtzor va butazorlarni kesish;
- qo‘shimcha tarzda foydalanish (mol boqish, pichan o‘rish, asalarichilik, dorivorlar tayyorlash;
- ovchilik ehtiyojlari uchun foydalanish;
- ilmiy-tadqiqot olib borish;
- madaniy-ma’rifiy, tarbiyaviy, sog‘lomlashtirish, rekratsion va estetik maqsadlar hamda shu kabi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda.

Fuqarolar Qonunning 30-moddasiga binoan, o‘rmonda yovvoyi dorivor va ozuqabop o‘simliklar, mevalar, qo‘ziqorinlar yig‘ishni bepul amalga oshirishlari mumkin. Lekin ular yong‘in va ekologik xavfsizliklarga rioya etishlari, daraxt va butalarni sindirmasliklari, o‘rmon ekinlariga shikast yetkazmasliklari, o‘rmondagi atrof tabiiy muhit unsurlariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar. Davlat chegarasidagi o‘rmondan foydalanish tartibi Davlat chegaralarini himoya qilish davlat qo‘mitasi va O‘rmon xo‘jaligi Bosh boshqarmasi bilan birgalikda belgilagan huquqiy tartibi asosida o‘rnatiladi.

4. O‘rmonlarni huquqiy himoyalash

O‘zbekistonda o‘rmonlar, avvalambor, ekologik funksiyani bajarar ekan, ularni qo‘riqlash, muhofaza qilish, tiklash, ko‘paytirish, mahsuldorligini oshirish, ya’ni himoyalashni huquqiy jihatdan ta’minlash o‘ta dolzarb masaladir. Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 9-apreldagi 163-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida o‘rmonlarning qo‘riqlanish toifalari bo‘yicha bo‘linishini tasdiqlash

to‘g‘risida»gi normativ hujjatga muvofiq yuqorida keltirib o‘tilgan toifalar bo‘yicha o‘rmonlar davlat tomonidan alohida e’tibor bilan qo‘riqlanadi.

O‘rmonlarni qo‘riqlash – *tegishli davlat organlari tomonidan o‘rmonlardan noqonuniy tarzda foydalanish, ularga zararli ta’sir ko‘rsatishdan asrash.*

O‘rmonlarni muhofaza qilish esa ularga zararkunandalar, kasalliklar, tabiiy texnogen jarayonlar (eroziya, sel, deflyatsiya, solifluksiya, abraziya kabilar)ning oldini olish chora-tadbirlarini qo‘llash orqali olib boriladi. Ushbu huquqiy tartib O‘rmon xo‘jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan belgilanadi.

O‘rmonlarni tiklash uchun kesilgan o‘rmon yoki o‘rmonsiz yer o‘rniga daraxt va butalar ekish, nav tarkibini yaxshilash, ularning mahsuldorligi va muhofazalash xususiyatini oshirish, genetik fondi va biologik xilma-xilligini saqlab qolish.

O‘rmonlarni ko‘paytirish o‘z ichiga daraxtzorlarning zichligini oshirish, nav tarkibini yaxshilash, qimmatli navlarni ko‘paytirish, boshqa yer fondi toifalaridan (masalan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan) o‘rmon fondi yer toifasiga kiritish kabi tadbirlarni oladi.

O‘rmonlarning mahsuldorligini oshirish ularni takroriy ko‘paytirish, nav tarkibini yaxshilash, o‘rmon melioratsiyasi va plantatsiyasini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

O‘rmonlarni huquqiy jihatdan himoyalash, yuqorida keltirilgan tadbirlar bilan bir qatorda, Qonunning 37–41-moddalarida belgilangan normalar asosida ham olib boriladi. Masalan, noqonuniy ravishda qo‘lga kiritilgan o‘rmon mahsulotlarini (daraxt, buta, hayvonot va o‘simlik dunyosi turlari) olib qo‘yiladi yoki keltirilgan zarar to‘liq qoplanadi.

O‘rmon fondi yerlarida o‘rmonlarning holatiga va ularni takroriy ko‘paytirishga ta’sir etadigan korxonalar, inshootlar va boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish va ishga tushirish, yangi texnologiyalarni joriy etishga ruxsat berilmaydi. Insonlarning o‘rmonlarga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan barcha faoliyat turi ekologik ekspertizadan o‘tkazilishi va tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi shart.

O‘rmon fondi yerlarida o‘rmon xo‘jaligini yuritish bilan bog‘liq bo‘lmagan qurilish va portlatish ishlari, foydali qazilmalarni qazib olish, kabellar, quvurlar va boshqa kommunikatsiyalarni o‘tkazish, parmalash va shu kabi ishlar davlat o‘rmon xo‘jaligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

O‘rmonlarni huquqiy jihatdan muhofazalash O‘rmon to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining talablarini buzuvchilar faoliyatlarini to‘xtatib qo‘yish, cheklash yoki taqiqlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu yuridik tusdagi davlat organlarining harakatlari qurg‘oqchilik, yong‘inlar, ko‘chmalar, zilzila, toshqin kabi tabiiy va texnogen salbiy oqibatlardan o‘rmonlarni saqlash maqsadida ham qo‘llanilishi mumkin.

O‘rmonlarni huquqiy muhofaza qilishning yana bir jihati o‘rmonlarni muhofaza qilish, qo‘riqlash, ulardan oqilona foydalanish va ularni takroriy ko‘paytirishni moliyalashtirish hamda o‘rmon huquqi subyektlarini iqtisodiy rag‘batlantirish orqali amalga oshiriladi. Bunday holat Ekologiya huquqida tabiatni muhofaza qilishning ekologik-iqtisodiy mexanizmini yaratish, deb aytiladi.

O‘rmonlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish doirasida kelib chiqadigan nizolar xo‘jalik, fuqarolik, ma’muriy va jinoiy protsessual tarzda hal qilinadi va tegishli huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlikni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Masalan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 77–80-moddalarida o‘rmon fondidan foydalanish qoidalari, o‘rmonda daraxt va butalarni kesish yoki ularni payhon qilish, yoxud o‘rmonlarni tiklash qoidalarini buzish, mansabdor shaxs yoki fuqarolarga ma’muriy jazoni qo‘llashga asos bo‘la oladi. Ma’muriy jazo mazkur moddalar bo‘yicha Tabiatni muhofaza qilish va O‘rmon xo‘jaligi inspektorlari tomonidan qo‘llanilishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Nima uchun o‘rmon Ekologiya huquqining alohida bir obyekti ekanligini isbotlovchi dalillarni keltiring!
2. O‘rmonlar qanday ekologik funksiyalarni bajaradi?
3. O‘zbekistonda o‘rmonlardan foydalanishning prioritet (birlamchi) normasi nimada?
4. O‘rmonga oid ekologik-huquqiy munosabatlarni sanab bering!

5. Davlatning maxsus o‘rmon boshqaruv vakolati qaysi idoralarga yuklatilgan?
6. O‘rmon tuzish deganda nimani tushunasiz?
7. O‘rmonlardan foydalanish tartibi va muddati qanday?
8. «O‘rmon fondi» bilan «O‘rmon yer fondi»ning farqi bormi?
9. O‘rmonlarni muhofaza qilishning ekologik-huquqiy jihatlarini keltirib o‘ting!

Bilimlar xazinaboni
bxon.uz

Har bir jonzodning tabiatda o'z o'rni va ahamiyati bor.

XIV bob. HAYVONOT DUNYOSINI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. Hayvonot dunyosi, uni ekologik-huquqiy muhofaza qilishning maqsadi va vazifalari

Hayvonot dunyosi o‘simlik dunyosidan ekologik tizimlarda aynan turi va sonining ko‘pligi, ya’ni biologik xilma-xilligi (rang-barangligi emas) bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda Yer sayyorasida o‘simlik dunyosining atigi 400 mingdan ortiq turi ma’lum bo‘lsa, hayvonot dunyosining 2 mln. ga yaqin turi mavjud. Lekin uning biologik massasi bor-yo‘g‘i 2 foizni tashkil qilsa-da, hayvonot dunyosi o‘zining energetik jarayonlarining juda yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ular o‘simlik dunyosidan ko‘ra jadal harakatda va faol faoliyatda bo‘ladi. Masalan, 1 sm^3 tuproqda 1 mln. dan ortiq mayda jonivorlar yashaydi. Mikroorganizmlar o‘simlik dunyosi uchun zarur bo‘lgan barcha mineral moddalarni organik moddalarni parchalash orqali yetkazib beradi. Ushbu jarayonda azotni parchalovchi mikroorganizmlar o‘rnini hech qachon fosforni parchalovchi organizmlar bosa olmaydi. Har bir mineral moddaning o‘zini transformatsiya qiluvchi (o‘simlik ozuqasi sifatida yetkazib beruvchi) mikroorganizmlari mavjud. Faqatgina mikroorganizmlarning *xilma-xilligi orqaligina* tuproq unumdorligini ta’minlovchi va o‘simlik dunyosini oziqlantiruvchi turli zaruriy moddalar yetkaziladi. Moddalarning parchalanishi esa katta miqdorda issiqlik energiyasini ajratadi. Natijada, tuproqda modda va energiya almashuvining jadal sur’atdagi jarayoni yuzaga keladi.

Modda va energiya almashuv jarayoni nafaqat tuproqda, balki yer ustida, suv havzalarida va hattoki atmosfera qobig‘ida ham hayvonot dunyosi va uning turli-tumanligi orqali tez sur’atlarda ketadi. O‘simlik dunyosining 10 foizdan ortig‘i hayvonot dunyosi tomonidan iste’mol qilinadi va tuproqqa organik modda – gumus sifatida aralashtiriladi. Ana shunday aralashishda hayvonot dunyosining ahamiyati kattadir.

XIX–XX asrlarda Avstraliya qit’asida uy hayvonlarining ko‘payib ketishi tuproq yuzasida qalin go‘ng qatlamini hosil qilgan va uning tagidagi o‘simlik issiqlikdan kuyib ketgan. Oqibatda hosildor yaylovlar kamaya borgan. Ekologlarning tashabbusi bilan Janubiy Afrikadan go‘ng qo‘ng‘izlarini olib kelishgan va Avstraliya yaylovlarida ko‘paytirishgan. Natijada go‘ng jadal sur’atlarda parchalanib, chirindiga aylangan va tuproq unumdorligini oshirgan, yaylovlar ham sero‘t bo‘lib ketgan.

Tropik o‘rmonlarda yerning ustini qoplagan o‘simlik dunyosining qoldiqlarini tyermitlar (chumolilar) tez parchalab yuboradilar. Ular qirilib yoki kamayib ketsa nima bo‘lishini tasavvur eting.

Afsuski, Yer yuzasida hayvonot dunyosi son va tur jihatdan kamayib bormoqda. O‘zbekiston ham bundan istisno emas. Masalan, 1983-yil chop etilgan O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga 63 turdagi umurtqali, 22 turdagi mayda jonivorlar, 31 turdagi qushlar, 5 xildagi sudraluvchilar va xuddi shuncha turdagi baliqlar kiritilgan edi. 2003-yilda esa unga sut emizuvchilarning 23 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 16 turi, baliqlarning 17 turi, halqasimon chuvalchanglarning 3 turi, mollyuskalarning 14 turi, bo‘g‘imoyoqlilarning 61 turi kiritildi. 2009-yilga kelib O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga 184 turdagi hayvonot dunyosi kiritildi[1] va natijada yo‘qolish arafasida turganlari 58 taga ko‘paydi.

Faktik ma’lumotlar hayvonot dunyosi bo‘yicha 27 yil ichida keskin o‘zgardi. Bunga sabab bo‘lib:

Birinchidan – «Qizil kitob» maqomining o‘zgarishi, olib borilgan maxsus muhofaza choralarining yangilanishi orqali ba’zi turlarning son jihatdan tiklanishi (olako‘zan, qum chumchig‘i) bo‘lsa, ayrimlarining kamayishi orqali (manul, Tyanshan tog‘ qo‘yi).

Ikkinchidan – aynan 80-yillar davomida sobiq Ittifoq davrida hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilishga yetarli e’tibor berilmaganligi.

Uchinchidan – tabiatda antropogen bosimning kuchayishi tufayli hayvonot dunyosi yashash muhitining yomonlashuvi.

Hayvonot dunyosining yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lib mutaxassislar quyidagi o‘ta ahamiyatga moyil muammolarni ko‘rsatmoqdalar:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. II jild. – T.: Chinor ENK, 2009. – 215-b.

– Orol dengizining qurishi va u orqali yuzaga kelgan salbiy ekologik holatlar;

– cho‘llanish jarayonining tog‘ oldi hududlarga kirib kelishi;

– sug‘orma dehqonchilik va chorvachilikning kengayishi;

– yirik gidrotexnik inshootlarning qurilishi va suv havzalarining ifloslanishi;

– tog‘-kon sanoatining jadal sur’atlarda rivojlanishi;

– qonunchilik asoslarining yetishmasligi va ularni amalda yetarli darajada qo‘llanilmasligi.

Hayvonot dunyosi turlarini ekologik tizimlarda saqlab qolish nechog‘liq zarurligini his etgan holda, 1995-yil O‘zbekiston Respublikasi «Biologik xilma-xillik to‘g‘risida»gi xalqaro konvensiyaga qo‘shildi. Konvensiya talablarini bajarish uchun 1998-yil «O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va harakatlar rejasi» Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi. Xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikda tatbiq etilishi Konvensiya va rejani ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyatini keskin oshirdi. Shuning uchun ham 1997-yil 26-dekabrda «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun xalqaro Konvensiyada ko‘rsatilgan barcha talablarni o‘zida aks ettirgan va xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholangan.

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda hayvonot dunyosi va uning yashash muhitini saqlab qolish maqsadida biosfera qo‘riqxonalari, milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar va buyurtma qo‘riqxonalar tashkil qilindi. Bojxona davlat qo‘mitasi va Tabiatni muhofaza qilish nazorat inspektorlarining huquqiy maqomi oshirildi. Maxsus mahalliy va respublika jamg‘armalari tashkil etildi. Juda katta miqdorda chet el sarmoyalari aynan hayvonot dunyosini muhofaza qilishga yo‘naltirilmoqda.

Hayvonot dunyosining sayyoramizda kundan-kunga kamayib borishi davlat, jamoat va insondan unga nisbatan o‘ta ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, har bir harakatni ilmiy asoslangan tarzda, huquqiy me’yor va qoidalar orqali tartibga solinishini talab etmoqda. Zero, bu tabiiy boylik bizlarga ota-bobolarimizdan merosga qolgan emas, balki kelajak avlodlardan qarzga olingandir.

Hayvonot dunyosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish – *quruqlikda, suvda, atmosferada va tabiiy erkinlik holatida yashaydigan yovvoyi, shuningdek, ilmiy maqsadlarda yarim erkin sharoitda yoki sun’iy yaratilgan yashash muhitida boqilayotgan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solish.*

O‘zbekistonda hayvonot dunyosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish deganda quruqlikda, suvda, atmosferada ekotizimlarida va tabiiy erkinlik holatida yashaydigan, O‘zbekistonda doimiy yoki vaqtincha yashaydigan yovvoyi hayvonlarni, hamda ilmiy yoki ekologik maqsadlarda yarim erkin sharoitda yoki sun’iy yaratilgan yashash muhitida boqilayotgan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solish tushiniladi.

Maqsad esa hozirgi va kelajak avlod uchun hayvonot dunyosini huquqiy yo‘llar orqali saqlab qolishga yerishishdir.

«Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 2-moddasiga binoan, ushbu maqsadga yerishmoq uchun quyidagi *vazifalarni* bajarish talab etiladi:

- hayvonot dunyosining yashash sharoitlarini ta’minlash;
- ularning xilma-xil turlarini, tabiiy galalari butunligi va yashash muhitini saqlash maqsadida hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;
- hayvonot dunyosini tiklash va takror yetishtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish.

Hayvonot dunyosining inson hayotida tutgan o‘rnining juda beqiyosligini inobatga olgan holda, O‘zbekistonda u davlat mulki – umummilliy boylik deb e’tirof etilgan. Davlat o‘zining umumiy va maxsus vakolatlangan organlari orqali hayvonot dunyosini ekologik-huquqiy jihatdan boshqaradi, tartibga soladi va muhofazasini ta’minlaydi.

2. Hayvonot dunyosi obyektlari va ularni muhofaza qilish talablari

Hayvonot dunyosidan unumli foydalanish va uning muhofazasini huquqiy jihatdan ta’minlash maqsadida mustaqil O‘zbekistonida bir qator muhim qonun hujjatlari qabul qilindi hamda ularning ekologik-huquqiy mexanizmi yaratilmoqda.

O‘zbekistonda hayvonot dunyosining ekologik-huquqiy jihatlari –

Tabiatni muhofaza qilish, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonunlar, Oliy Majlisning «Noyob va yo‘q bo‘lib ketayotgan o‘simlik va hayvon turlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni tartibga solish» (1993), Vazirlar Mahkamasining «Yovvoyi hayvonlar va o‘simliklar muhofazasini kuchaytirish va ulardan foydalanishni tartibga solish choralari», «O‘zbekiston Respublikasiga yirtqich qushlar olib kelinishini va ularning chetga chiqarilishini tartibga solish to‘g‘risida»gi, 2004-yil 28-oktabrdagi 508-sonli «Biologik resurslardan oqilona foydalanish, ularni olib kelish va O‘zbekiston Respublikasidan chetga chiqarilishining nazoratini kuchaytirish to‘g‘risida»gi qarorlari va «O‘zbekiston Respublikasida ov va baliqchilik qilish qoidalari (2006) kabi yo‘riqnomalarida to‘liq aks ettirilgan.

O‘zbekistonda barcha ko‘rinishdagi hayvonlar Ekologiya huquqining obyekti bo‘la olmaydi.

«Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasida *O‘zbekistonda ekologik-huquqiy jihatdan tartibga solinadigan hayvonot dunyosi obyektlariga quyidagilar kiradi:*

1) *kelib chiqishi hayvonlarga mansub bo‘lgan sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchilar, quruqlikda va suvda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar va ularning populasiyalari;*

2) *yovvoyi hayvon galalari yoki ularning har qanday to‘dalari;*

3) *«Qizil kitob»ga kiritilgan kamyob yoki yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan turlari;*

4) *yovvoyi hayvonlar yashash faoliyatining mahsulotlari.*

O‘zbekistonda[1] yovvoyi turdagi sut emizuvchi hayvonlarning 6 turkumi mavjud bo‘lib, ulardan 6 turi hasharotxo‘rlar, 20 turi qo‘lqanotlilar, 2 turi quyonsimonlar, 37 turi kemiruvchilar, 24 turi yirtqichlar, 8 turi tuyoqlilardir. Parranda yoki qushlarning – 424, suvda va quruqlikda yashovchilarning – 3, sudralib yuruvchilarning – 59, baliqlarning – 83, umurtqasizlarning – 58 turi mavjud.

Yovvoyi hayvonlar yakka, oila, gala yoki to‘da bo‘lib yashaydilar. Ularning bunday hayot kechirishlari minglab yillar davomida evolyutsion tarzda davom etib kelgan. Ularning yashash muhitining buzilishi hayvonlarning qirilib ketishiga sabab bo‘la oladi. Shuning

[1] Ўзбекистон Республикасида биологик хилма хилликни сақлашнинг миллий стратегияси ва ҳаракатлар режаси. – Т.: БМТРД,1998. – 36-б.

uchun hayvonot dunyosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish tartibi ularning galalari va to‘dalari hamda yashash faoliyatining mahsuli (in va uyalari) bo‘yicha ham olib boriladi.

Alohida muhofaza etishga muhtoj bo‘lgan hayvonot dunyosi, ya’ni «Qizil kitob»ga kiritilgan turlariga doir ijtimoiy munosabatlar davlatning huquqiy jihatdan katta e’tibor berish obyekti bo‘lib hisoblanadi.

Hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilish maqsadida O‘zR Konstitutsiyasining 50, 54-moddalaridan kelib chiqqan holda va «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasiga binoan *jismoniy va yuridik shaxslarga quyidagi huquq va majburiyatlar belgilangan:*

- hayvonot dunyosi va uning yashash muhitini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish;
- mazkur masala bo‘yicha davlat dasturlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;
- jamoat ekologik ekspertizasini o‘tkazish;
- jamoat nazoratini olib borish;
- tegishli axborot olish;
- keltirilgan zararni qoplash masalasining qo‘yish.

Ushbu qonuniy huquq va majburiyatlarning fuqarolar va ularning jamoalariga yuklatilishi O‘zbekistonda demokratik davlatchilik elementlarini shakllantirish va fuqarolik jamiyatini qurishning yana bir muhim yo‘li hisoblanadi.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchi va uni muhofaza qiluvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan yetarli darajada ekologik-huquqiy tartibga solish, uning nazorat tizimini yo‘lga qo‘yishga bog‘liqdir. Davlatning mazkur masalada ekologik-huquqiy nazorati esa hayvonot dunyosining baholanishi➞kadastri ➞ monitoringi➞ na zorati➞ekspertizasi tizimi orqali olib boriladi.

Hayvonot dunyosi kadastri 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan «Davlat kadastrlari to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq ravishda yagona davlat kadastrlari tizimi bo‘yicha o‘tkaziladi. Uni Vazirlar Mahkamasi tasdig‘iga binoan, Yer resurslari davlat qo‘mitasi qoshidagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari boshqarmasi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar hamda Fanlar Akademiyasi ishtirokida olib boriladi.

Hayvonot dunyosining kadastri uning monitoringi, ya’ni vaqt davomida o‘zgarib borishini kuzatish uchun asos bo‘ladi. *Hayvonot*

dunyosi monitoringi «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 9-moddasiga va ixtisoslashtirilgan qonun osti normativ hujjatlar asosida olib boriladi. Unda hayvonot dunyosi obyektlarini kuzatish davridagi holatga oid ma’lumotlar to‘planadi, umumlashtiriladi va tahlil etiladi. Ma’lumotlar davlatning umumiy va maxsus vakolatlangan organlariga bepul, jismoniy va yuridik shaxslarga to‘lov asosida yetkazib beriladi.

Hayvonot dunyosi monitoringi ma’lumotlariga binoan, davlat nazorat organlarining faol harakati yo‘nalishlari aniqlanadi. *Davlatning nazorat inspektorlari* o‘z vakolat doirasida hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar va ularni muhofaza qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslarning xo‘jalik va boshqa faoliyatlarini tekshirib turadilar. Tekshirish Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan idoraviy, jamoatchilik va ishlab chiqarish nazorati yordamida amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosini davlat nazoratiga oydinlik kiritish, mazkur qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarini buzishning oldini olish, yuridik jihatdan subyektlar faoliyatini rag‘batlantirish yoki javobgarlikka tortish maqsadida davlat *ekologik ekspertizasi* o‘tkaziladi. Ekologik ekspertiza to‘g‘risidagi qonundan kelib chiqqan holda, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining mutaxassislari yoki ularning guruhi «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 7-moddasida ko‘rsatilgan talablar asosida xulosalar beradi.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid asosiy talablar esa mazkur qonunning vazifalaridan kelib chiqqan tarzda, uning 11-moddasida aks ettirilgan. Ushbu talablarni bajarish maqsadida yaratilgan dastur, reja va iqtisodiy rag‘batlantirishning ekologik-huquqiy asoslari qonunning 12–13-moddalarida berilgandir.

3. Hayvonot dunyosidan foydalanish tartibi

Hayvonot dunyosidan foydalanish umumiy va maxsus tarzda amalga oshiriladi. *Umumiy foydalanish* ekologiya huquqining prinsiplaridan kelib chiqqan holda bepul amalga oshiriladi hamda kishilarning foyda olishga yo‘naltirilmagan va insonlarning tabiiy huquqlaridan kelib chiqadigan faoliyatini nazarda tutadi. Masalan, Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonunning 17-moddasida ko‘rsatilgan hayvonot dunyosidan foydalanish

turlari – ilmiy, madaniy-ma’rifiy, tarbiyaviy va estetik maqsadlarda foydalanish shular jumlasidandir.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar – *hayvonot dunyosi obyektlarining foydali xususiyatlaridan o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlarida belgilangan shartlar va tartibda foydalanishlari.*

Hayvonot dunyosidan maxsus foydalanish pullik to‘lov va ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladi. Ularga: ov qilish, baliq ovlash, hayvonlarning foydali xususiyatlaridan tijorat maqsadida foydalanish, turli mahsulotlar olish, pullik xizmat ko‘rsatuvchi tadbirlar o‘tkazish hamda faoliyat olib borish kabi xo‘jalik va boshqa faoliyat turlari kiradi.

Hayvonot dunyosidan foydalanishda uning obyektlarini yashash muhitidan ajratib olib yoki ajratmasdan amalga oshirishi mumkin. Qonunning 16-moddasiga binoan *hayvonot dunyosidan foydalanuvchilarga* quyida keltirilgan huquqlar beriladi va majburiyatlar yuklatiladi (14.3.1-rasm).



14.3.1-rasm. **Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari.**

Ov qilish – tabiiy erkinlik holatida yashaydigan yovvoyi hayvonlarni tutish maqsadida izlash, iziga tushish va quvlab borish, tutishga intilish va tutish (otish, tutib olish). Ov qilish sanoat, havaskorlik va sport maqsadida olib borilishi mumkin.

Baliq ovlash – baliq va umurtqasiz suv hayvonlarini sanoat, havaskorlik va sport maqsadida tutish.

O‘zbekistonda ov qilish va baliq ovlash tartibi mazkur bobda ko‘rsatilgan Qonun, Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va ovchilik – baliqchilik xo‘jaliklarini yuritish to‘g‘risidagi Nizom» (1991) hamda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan 2006-yilda tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi hududida ov va baliqchilik qilish qoidalari» kabi me’yoriy hujjatlar asosida muvofiqlashtiriladi.

Ov qilish va baliq ovlashda umumxavfli qurollar va metodlarni qo‘llash, falokatga uchragan va ular uchun tabiiy bo‘lmagan sharoitda olib borish man etiladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanish miqdori (kvotasi) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan hisobga olinadi va Fanlar Akademiyasining xulosalari asosida qonun hujjatlariga muvofiq ravishda o‘rnatiladi. O‘zbekistonda 50 dan ortiq ov qilish va baliq ovlash xo‘jaliklari mavjud. Orol dengizi va Amudaryo deltasida ov qilish va baliq ovlashlar 1995-yildan buyon deyarli to‘xtatilgan. Yana bir huquqiy holat – «Qizil kitob»*ga kiritilgan hayvonot dunyosini ov qilish yoki baliq ovlashga ruxsat etilmaydi.* Ilmiy, estetik va ma’rifiy-ma’naviy maqsadlarda ularni ovlash markaziy maxsus boshqaruv organlarining ruxsati asosida amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosini ovlash uchun litsenziyalar olish har bir jonzodning bahosini belgilash hamda har yili qiymatini indeksatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Ov qilish va baliq xo‘jaligini yuritish Fanlar Akademiyasining xulosalari, Yer resurslari, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi kabi maxsus vakolatlangan organlarning kelishuvi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan nizomlarga muvofiq ravishda olib boriladi.

Hayvonlarni boshqa joyga ko‘chirish, iqlimlashtirish va chatishtirish ilmiy-tadqiqot va xo‘jalik yuritish Fanlar Akademiyasining xulosasi va Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining ruxsatnomasiga binoan amalga oshiriladi.

Qonunning 27-moddasida ko‘rsatilgan quyidagi hollarda yuridik va jismoniy shaxslarning *hayvonot dunyosidan foydalanish huquqlari bekor qilinadi:*

- foydalanish zarurati qolmaganda va undan voz kechganda;
- foydalanish muddati tugaganda;
- tegishli qonun talablari buzilganda;
- hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilish maqsadida ularni foydalanishdan ajratib olinganda;
- foydalanish huquqi berilgan yuridik shaxs tugatilganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa holatlarda.

4. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish me’yorlari va qoidalarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik belgilangan. Ushbu javobgarlik «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 47-moddasi va «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning IV bob 39-moddalarida ko‘rsatilgan umumiy qoidalar hamda Mehnat, Fuqarolik, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi va Jinoyat kodekslariga muvofiq amalga oshiriladi.

Mehnat kodeksining 181-moddasida ko‘rsatilgan huquqbuzarliklar uchun *intizomiy jazo* sanksiyasi qo‘llaniladi. Intizomiy jazo bevosita ichki mehnat qoidalarini buzgan va huquqbuzarning ish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar uchun ishlatiladi. U uch turdagi, ya’ni hayfsan berish, ish haqining 30% dan 50% gacha ish haqidan jarima sifatida undirish hamda mehnat shartnomasini bekor qilish sanksiyasini ish beruvchi tomonidan xodimga qo‘llash orqali yuzaga keladi. Intizomiy jazo xodimning vazifasiga (agarda u ichki Nizom yoki mehnat shartnomasida ko‘rsatilgan bo‘lsa) hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularni qo‘riqlash, ko‘paytirish va saqlash kabi majburiyatlar yuklatilgan tarzda qo‘llanilishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 214-moddasiga binoan, hayvonot dunyosi obyektlari ommaviy mulk – respublika mulki sifatida e’tirof etilgan. Ushbu mulkka yetkazilgan zarar *fuqaroviy huquqiy javobgarlik* hisoblanadi. Ularni qoplash belgilangan taksalar asosida huquqbuzar – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadi. Lekin huquqbu-

zar fuqaro yoki mansabdor shaxsni fuqarolik javobgarlikka tortish unga nisbatan ma'muriy yoki jinoiy jazoni qo'llashdan ozod etmaydi. Chunki hayvonot dunyosi obyektlariga yetkazilgan zararning doimo ham o'rnini qoplash imkoniyati yo'q va aybli qilmishning oldini olish hamda Konstitutsiyamizning 55-moddasida ko'rsatilgan tabiiy zaxiralarni muhofaza etish davlat funksiyasini amalga oshirish nuqtayi nazaridan qaralishi kerak.

Ma'muriy huquqiy javobgarlik fuqaroga yoki mansabdor shaxsga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 83, 90, 92, 93, 94-moddalariga asosan amalga oshiriladi. Mazkur kodeksning 83-moddasida o'rmon uchun foydali bo'lgan hayvonot dunyosi – hasharotxo'r qushlar, tyermitlar (chumolilar) va shu kabilarni yo'q qilishga olib kelgan g'ayrihuquqiy aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida) sodir etilgan shaxslarning harakati yoki harakatsizligi uchun qo'llaniladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 90-moddasi ov qilish yoki baliq ovlash hamda boshqa turdagi hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun jazo sanksiyasini o'rnatadi. Kodeksning 92-moddasi esa hayvonlar yashaydigan muhitni va ularning ko'chib yurish yo'llarini muhofaza qilish, zoologik kolleksiyalarini tashkil etish, ularni olib borish, savdo qilish hamda hayvonot dunyosini o'zboshimchalik qilib ko'chirish, iqlimlashtirish va chatishtirish qoidalarini buzganlar uchun qo'llaniladi. 93-modda «Qizil kitob»ga kirgan hayvonlarni tur sifatida saqlab qolishga zarari etadigan hayvonot va o'simlik dunyosini mamlakat ichkarisiga olib kirganlar uchun qo'llaniladi. 94-modda esa «O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga kiritilgan hayvonot dunyosini yo'q qilib yuborish, o'lja qilish yoxud ularning yashash muhiti (boshpanasi va boshqa yashash joyi)ni yo'q qilish, yoki buzish, agarda ular sonining kamayishi, qirilishi yoki yashash faoliyatining o'zgarishiga olib kelsa, huquqbuzarlik qurolini musodara qilish yoki musodara qilmay, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan yetti baravarigacha jarima solishni ko'zda tutadi.

Agarda hayvonot dunyosi obyektlariga nisbatan qilingan huquqbuzarlik aybli ijtimoiy xavfli qilmish bo'lsa, u *jinoiy jazoga* tortish uchun asos bo'la oladi. Jinoyat kodeksining 196-moddasiga binoan,

atrof-muhitni ifloslantirish hayvon, parranda yoki baliqlarning qirilib ketishiga sabab bo'lsa va u sud hukmi bilan aybli qilmish deb topilsa, eng kam oylik ish haqining 100 baravaridan 200 baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Mazkur kodeksning 199-moddasiga binoan esa o'simlik kasalliklari va zarar-kunandalari bilan kurashish maqsadidagi kishilar faoliyati hayvonot dunyosining yo'q bo'lib ketishiga olib kelsa, eng kam oylik ish haqining 50 dan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki 5 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Jinoiy jazo Jinoyat kodeksining 201-moddasi – zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish, 200-modda – veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish, 202-modda – hayvonot dunyosidan foydalanish va 204-modda – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish orqali sodir etilgan jinoyatchilar uchun qo'llaniladi.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish va uni muhofaza qilish qoida va me'yorlarini buzganlar uchun yuridik javobgarlik sanksiyalarini qo'llash nafaqat noqonuniy harakatlarni jazolaydi va ularning oldini oladi, avvalambor, hayvonot dunyosining xilma-xilligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Qanday hayvonlar ekologik-huquqiy munosabat obyekti bo'la oladi?
2. Biologik xilma-xillik va biologik rang-baranglikning umumiy va xususiy tomonlarini sanab chiqing va uni muhokama qiling!
3. Qaysi qonunlarda hayvonlarni muhofaza qilish tartibi o'rnatilgan?
4. Hayvonot dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish tartibiga solishtirma tavsif bering!
5. Hayvonot dunyosidan foydalanish nimalarga asosan olib boriladi?
6. Baliq ovlash nima?
7. Ov qilish nimalarni o'z ichiga oladi?
8. Qanday hayvonot dunyosining turlarini ovlash yoki tutish man etiladi?
9. Hayvonot dunyosiga keltirilgan zarar qay tariqa qoplanadi?

Ifloslanishning oldini olish unga qarshi kurashdan arzonroq va osonroqdir.

XV bob. ATMOSFERA HAVOSINI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. Atmosfera havosi – Ekologiya huquqining obyekti sifatida

Atmosfera so‘zi dastlab Aristotel tomonidan ilk bor e’tirof etilgan bo‘lib, «atmos»– par, bug‘, «sfera» – shar, qatlam, *ya’ni yer sharini o‘rab turuvchi bug‘simon qatlam degan ma’noni anglatadi.* Atmosfera havosi tarkibiga yerdagi, suvdagi, tog‘ jinslari orasidagi havo kirmaydi. Organizmlar har 10 yilda atmosfera havosini bir sidra to‘liq o‘zlashtirib, o‘z organizmlaridan o‘tkazadilar.

Atmosfera tarkibida nafaqat kislorod, balki is gazi, vodorod, suv bug‘lari, nitrat kabi o‘nlab uchuvchi moddalar uchraydi. Undagi har bir modda o‘z funksiyasiga ega. Kislorod atmosferada oddiy (O_2) va ozon (O_3) tariqasida uchraydi. Erkin kislorod (O_2) havo tarkibida 20–21% ni tashkil qilgan holda, u asosan dengiz va okean yuzidagi fitoplankton (80%) va yer ustidagi o‘simlik dunyosidan (20%) to‘yinadi. Uning fiziologik vazifasi tirik mavjudot qonining harakatini gemoglabinlar hisobiga aylantirib turishdan iborat. Undan tashqari kislorod xalq xo‘jaligining barcha sohalarida ishlatiladi, chunki u kimyoviy eng faol va yonishga yordam beruvchi gaz hisoblanadi.

Uglerod oksidi (karbonat angidrid), garchand atmosferada 0,03% ni tashkil etsa-da, 170 mln. tonna biomassa hosil qilishda va Quyosh energiyasini ushlab turishda xizmati kattadir. Atmosfera havosining asosiy sifat ko‘rsatkichi aynan O_2:CO_2 nisbatiga qarab baholanadi.

Atmosferada azot – 78 %, argon – 0,9%, qolgan – kseson, geliy, vodorod, neon, kripton va radonlar juda kam miqdorda uchraydi. Vodorod (H_2) tabiiy radioaktiv parchalanishni ta’minlasa, suv bug‘lari (H_2O) namlikni yer shari bo‘yicha bir tekisda tarqatadi, azot (N_2) bosimni ushlab turadi, ozon (O_3) ultrabinafsha nurlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yer yuzasiga o‘tishini ushlab qoladi. Umuman olganda, atmosfera

tarkibidagi har bir tabiiy gaz va bug‘lar ma’lum bir ekologik funksiyalarni bajaradi.

Atmosfera havosida tabiiy gaz va bug‘lardan tashqari turli ayerozol va ionlar ham bor. Ayerozol – turli xil birikmalarning hidi, suvning havosi, bulutlar, tutun, quyun (smog), zaharli hidlar. Ionlar esa radioto‘lqinlarning tarqalishi, magnit bo‘ronlarining sababchisidir. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar qatorida oltingugurt (98%), uglerod oksidi, azot ko‘p miqdorni tashkil etadi. Atmosfera havosi tarkibining o‘zgarishi tirik organizmlar, xususan, inson hayotiga juda tez ta’sir etadi. Shuning uchun ham uni iqtisodiy-ijtimoiy, ham siyosiy-ma’rifiy, ham huquqiy yo‘llar bilan muhofaza qilish dolzarb masala hisoblanadi. Atmosfera havosini Ekologiya huquqining alohida bir obyekti qilib olishga va unga oid munosabatlarni ixtisoslashtirilgan qonun hujjatlari asosida tartibga solishga da’vat etadi.

1996-yil 27-dekabrda mustaqil O‘zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. *Qonunning maqsadi – atmosfera havosini mustaqil tabiiy obyekt unsuri sifatida huquqiy jihatdan muhofaza qilish.* Mazkur Qonunning asosiy vazifalari: atmosfera havosining tarkibini saqlash; turli xil kimyoviy, fizik, biologik va boshqa xil ta’sirning oldini olish; davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning mazkur sohadagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishdir. Atmosfera havosi umuminsoniy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Mustaqil respublikamizda atmosfera havosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish nafaqat ushbu Qonun, balki Tabiatni muhofaza qilish, Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, Suv va suvdan foydalanish, O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish kabi ixtisoslashtirilgan Korxonalar, Tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash to‘g‘risidagi qonunlar, Yer, Jinoyat, Fuqarolik, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslar kabi umumlashtirilgan qonunlar va boshqa me’yoriy huquq manbalari asosida olib boriladi.

1981-yilda qabul qilingan O‘zbekiston SSRning «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunidan 1996 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunining bir qator afzallik tomonlari bor. Avvalambor, yangi qonunda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning mustaqil subyekti sifatida qaraladi. U o‘z mazmuni va mohiyatiga

ko‘ra, bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillariga tayanadi. Mustaqil Respublikamiz qonunida atmosfera havosi birinchi bor tabiiy resurslar tarkibidan joy olgan. Avvalgisida esa atmosfera havosi faqatgina tabiiy obyekt sifatida qaralgan edi, xolos. Atmosfera havosiga tabiiy resurs sifatida qaralishiga sabab bo‘lib:

* atmosfera havosidan sanoat maqsadlarida (azot va kislorod xomashyosidan) foydalanishlik;

* korxonalarning ma’lum bir qorishmani olishda atmosfera havosidan foydalanish orqali amalga oshirish;

* atmosfera havosi tarkibidagi azotdan ammiak olish va mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish;

* atmosfera havosidan issiqlik o‘tkazish, efirga radiotelefon va televizion to‘lqinlar tarqatish manbayi sifatida foydalanish;

* atmosfera havosidan issiqlik elektrostansiyalarida, sanoatning yoqilg‘i qozonlarida, avtomobillarda yonish manbasi sifatida foydalanish kabilar.

Xullas, hozirgi zamon fan-texnikasining rivojlanishi davrida atmosfera havosi muhofaza obyekti bilan birga foydalanuvchi resursga aylandi. *Yangi qonun aynan atmosfera havosidan oqilona foydalanish jihatlarini ham tartibga soladi.*

«Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonun nafaqat insonlarning toza havoga ega bo‘lish huquqi, balki butun tirik mavjudotlar uchun asosiy yashash makoni va ularning ham yashash muhiti ekanligini e’tirof etilishidadir. Chunki fuqarolarning ekologik xavfsizligi tirik organizmlarning xilma-xilligi va ularning xavfsizligi bilan bevosita bog‘liqdir. Mayda yoki nozik jonivorlar insonlarga nisbatan atmosfera havosining o‘zgarishiga juda ta’sirchan bo‘lishadi, hattoki ularning yashab ketishiga qarab atmosfera havosining holati «diagnostika» qilinadi. 2003-yil mart oyidagi Iroq–Amerika urushida kimyoviy qurollarning ishlatilganligi haqidagi dastlabki ma’lumotlarni kabutarlarning xatti-harakatiga qarab aniqlashgan. Shuning uchun ham yangi qonunda atmosfera havosiga fizik, kimyoviy, biologik va boshqa xil inson faoliyatining ta’sir etish standartlari va me’yorlari aynan butun tirik organizmlarning toza havoga talabi nuqtayi nazaridan o‘rnatilgan.

2. Atmosfera havosini muhofaza qilishning umumiy qoidalari

Atmosfera havosining o‘ziga xos xususiyati – doimo harakatda bo‘lishi va uni biron-bir subyekt tomonidan mulk sifatida o‘zlashtira olish imkoniyatining yo‘qligi. Shuning uchun ham «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 1-moddasida u davlat mulki deb e’tirof qilinmagan. Atmosfera havosi – umuminsoniyat boyligi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Ekologiya huquqining boshqa manbalaridan farqli, unda ko‘proq xalqaro huquq normalarini aks ettirish maqsadga muvofiqligi ham aynan o‘shandadir.

O‘zR Konstitutsiyasining 50-moddasi va mazkur Qonunning 4-moddasiga ko‘ra, fuqarolar o‘z hayoti davomida qulay atmosfera havosiga ega bo‘lish huquqi va uni saqlash sohasida imperativ majburiyatga egadirlar. Davlat o‘zining vakolatlangan organlari (Vazirlar Mahkamasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, mahalliy davlat hokimiyati) orqali atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiradi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish standartlari va me’yorlari Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Agarda kishilarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi atmosfera havosi standarti Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan o‘rnatilsa, iqlim, ozon qatlami va boshqa havo standartlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan o‘rnatiladi. Atmosfera havosi sifatining normativlari Davlat standartlari boshqarmasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha belgilanadi:

- atmosfera havosida ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson va atrof tabiiy muhit obyektlari (tirik organizmlar) uchun yo‘l qo‘yiladigan darajada to‘planishi;
- fizik omillar atmosfera havosiga akustik, elektromagnit, ionlashtiruvchi hamda boshqa xil zararli ta’sir ko‘rsatishining inson va atrof tabiiy muhit obyektlari uchun yo‘l qo‘yiladigan darajalari;
- ayrim mintaqalar yoki ekologik inqirozli hududlar uchun alohida normativlarning belgilanishi ham mumkinligini qonun alohida e’tirof etadi. Chunki Orol va Orol bo‘yi, Surxondaryoning shimoliy hududlarida atmosfera havosida tuz, fenol, ftor va uglerod oksidining ko‘payishi tegishli moddalar bo‘yicha

atmosfera havosini ifloslantirish normativlarini juda qattiq me'yorlanishiga sabab bo'ladi.

Doimiy manbalardan atmosfera havosiga zararli ta'sir ko'rsatish normativlari alohida o'rnatiladi. Ularni Sog'liqni saqlash vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. O'zbekistonda atmosferaga 150 turdagi ifloslantiruvchi moddalar chiqariladi. Xavflilik darajasiga qarab ular klasslarga ajratiladi. 1-klass moddalariga: og'ir metallar, vanadiy, benzapiren, ozon, mishyak va shu kabilar kiradi. 2000-yilga kelib doimiy zararli ta'sir ko'rsatish manbalari 1971 tonnaga yetgan. Tozalagichlarning 85% normal holda faoliyat yuritmoqda. Qolganlarida ularning o'rnatilishi yoki yangisi bilan almashtirilishi talab etiladi. 2007-yilga kelib tashlanmalarning umumiy hajmi 1,2 barobarga kamaygan.

Yangi qonunning o'ziga xos tomonlaridan yana biri atmosfera havosidan foydalanishga doir normativlarning o'rnatilishidadir. Ushbu foydalanish normativlari ko'chma manbalar, doimiy ifloslantiruvchi manbalar, fizik omillar bo'yicha alohida o'rnatilgan. Normativlarning eng yuqori ko'rsatkichlari atmosfera havosining tabiiy tarkibining o'zgarishiga olib kelmaydigan darajada belgilanadi. Atmosfera havosidan foydalanish normativlari korxona, muassasa, tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi va Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasida tasdiqlanadi.

Ko'chma manbalardan atmosfera havosiga zararli ta'sir ko'rsatish normativlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilab qo'yiladi. Ayniqsa, bu o'rinda yangi qonun avtomobil, traktor, tramvay, trolleybus, samolyot, poyezdlar tomonidan chiqariladigan tovushlarga birinchi bor alohida e'tiborni qaratgan. Rivojlangan G'arb mamlakatlarida harakatdagi texnika manbalarining tovushi uni milliy hududda yurishi, uchishi va suzishga ruxsat berilishini belgilovchi bosh me'yordir. Ushbu talablarga javob berish uchun ham O'zbekiston shovqinsiz O'zDEU avtomashinalarini ishlab chiqmoqda, A–300, Boing–474 kabi samolyotlarni sotib olmoqda. Ular barcha ekologik normativlarga javob beradi va dunyoning barcha chekkalarida ushbu texnikalardan foydalanish imkonini yaratadi. Masalan, O'zR Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2007-yil 17-apreldagi 1670-sonli qo'shma qarori bilan tasdiqlangan

«O'zbekistonga olib kiriladigan benzin va dizel motorlari bilan jihozlangan «M2», «M3» va «N2» toifalaridagi yangi avtotransport vositalarini «Yevro–2» ekologik darajadan kam bo'lmagan talablarga muvofiqligi bo'yicha ekologik sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik yo'riqnoma»ga binoan amalga oshrish yo'lga yo'yilgan.

Lekin 2012-yilga kelib doimiy aholisi 2,4 mln. va vaqtinchalik kelib ketadiganlar bilan 3,5 mln. kishiga teng bo'lgan Toshkent xalqaro aeroportining shaharda joylashishi poytaxtning ekologik xavfsizligiga jiddiy ta'sir etmoqda. O'zingiz o'ylab ko'ring, umumiy maydoni 33, 5 ming ga teng bo'lgan Toshkentning qoq o'rtasida 520 ga hududini egallagan Toshkent aeroporti samolyotlarning qatnovi natijasida 1500 metr radiusda 360 ming kishi istiqomat qiladigan aholi punktlariga 25-299 marotaba normativ ko'rsatkichlaridan yuqori darajada ovoz chiqarib atmosfera havosini fizik ifloslantirmoqda[1]. Shuning uchun ham Toshkent shahrining 2030-yilgacha bo'lgan Bosh rejasida aeroportni 45 km janubga ko'chirish g'oyasi yo'q emas.

Doimiy ifloslantiruvchi manbalardan atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar hamda biologik organizmlarni chiqarish va foydalanishni tartibga solish Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan beriladigan ruxsatnomalarga binoan yo'l qo'yiladi.

Qonunning 14-moddasida barcha turdagi yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallarini standartlashtirish talabi o'rnatilgan. Bu degan so'z Energetika vazirligiga qarashli issiqlik stansiyalari isitish va sanoat qozonlarida yoqilg'ini ishlatishni «O'zneftgaz» korporatsiyasi bilan kelishgan tarzda, muayyan standartlarga muvofiq ravishda olib boradi. Yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallarining talabi Farg'ona va Sho'rtangaz zavodlarida jahon standartlariga moslashtirilishi shart. Standartlarni o'rnatish va nazorat qilish juda serchiqim tadbir bo'lib, u mazkur korxonalar tomonidan Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bilan kelishgan tarzda olib boriladi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, shahar va aholi punktlarida atrofmuhitning ifloslanishi, avvalambor, yoqilg'i materiallari sifatining yomonligi va motor yoqilg'isining tarkibida oltingugurtning ko'pligida, deb xulosalangan. Yaqin kelajakda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi etilsiz yoqilg'ilarni ishlab chiqarish niyatida. Ana o'shanda Yevropa,

[1] *Н.Шивалдова.* Каким будет Ташкент будущего // Ташкентская неделя. – № 30 от 26 июля 2012 г.

Yaponiya, Amerikada bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham atmosfera havosi nisbatan musaffolashadi, degan niyatdamiz.

Sobiq Ittifoq hududida mustaqil respublikalarning paydo bo‘lishi, ularda yaxshi amallarning ko‘payishi bilan bir qatorda, noekologik oqibatlarni ham keltirib chiqardi. Bunga misol qilib rivojlangan mamlakatlardan keltirilgan eski avtomobil parkining to‘planishi va ularni nosoz ekspluatatsiya qilinishi. 1997-yildan boshlab, ushbu holat O‘zbekiston uchun qo‘llanilmadi. Birinchi navbatda, «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunda chetdan olib kiriladigan mashinalarga katta talablarning qo‘yilishi (15-modda) va bojxona to‘lovlarining ko‘paytirilishi. IIV, DYO‘XBB va Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi respublika hududida xalqaro standartlarga mos ravishda avtomobillarga oid ekologik normalarni tatbiq qilishga kirishgan.

Suveren O‘zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Chunki Asaka, Samarqand, Urganch shaharlarida yengil va yuk avtomashinalari, Toshkentda esa samolyot, traktor va boshqa qishloq xo‘jalik mashinalari ishlab chiqarila boshlandi. Qonunning 16-moddasi aynan transport va boshqa qatnov vositalari hamda qurilmalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanishning ekologik talablarini o‘rnatdi. Ushbu talablarga javob bermaydigan texnik vositalarni ishlab chiqarish taqiqlanadi. Xuddi ana shunday ekologik talab bundan buyon avtoservis xizmatlari uchun ham qo‘llaniladigan bo‘ldi (17-modda). Avtoservislarda, albatta, atmosferaga chiqariluvchi gazlarni va ovozni tekshirish bo‘yicha diagnostik va tuzatish asboblari hamda mutaxassislarning bo‘lishi talab etiladi. Qonunning 22-moddasida transport magistrallarida avtomobillarni nazorat qilish uchun yuridik asos yaratildi. Bu norma ham atmosfera havosini muhofaza qilishning xalqaro standartlariga mos tushadi.

3. Atmosfera havosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish talablari

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining Navoiy, Qo‘qon, Chirchiq, Namangan, Buxoro kabi o‘nlab shaharlarida yirik kimyoviy, neft-kimyoviy, gaz-kimyoviy korxonalar mavjud. «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 18-moddasida kimyoviy moddalarni ishlab chiqaruvchi va ulardan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar uchun yo‘l qo‘yiladigan normativlar belgilangan,

ularni nazorat qilish metodlari va ekologik-taksokologik pasportlarini O‘zR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va Sog‘liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda ishlab chiqilishi ko‘rsatilgan. Ishlatish taqiqlangan yoki ishlatishga yaroqsiz bo‘lib qolgan har qanday kimyoviy moddalarning zararsizlantirilishi, borlarini esa xalq xo‘jaligida va ayniqsa, qishloq xo‘jaligida foydalanishning qattiq me’yorlari o‘rnatilishi talab etiladi. *Yangi qonun atmosfera havosini muhofaza qilish maqsadida osmondan turib (samolyot yoki vertolyot kabi uchuvchi vositalar yordamida) defolyatsiya yoki dezintikatsiya qilishni taqiqlaydi.*

Ozon qatlamini muhofaza qilishga doir Vena konvensiyasi va ozon qatlamini buzuvchi moddalarga doir Monreal protokoliga qo‘shilgan O‘zbekistonda, ozon qatlami Atmosfera havosini ekologik-huquqiy muhofaza qilishning maxsus obyekti sifatida qaraladi. Qonunning 19-moddasiga muvofiq, ozonni buzuvchi moddalar bo‘lgan buyumlardan foydalanuvchi va ularni ta’mirlovchi korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar bunday moddalarni hisobga olishi va ozon uchun xavfsiz moddalar bilan almashtirilishini ta’minlashlari lozim. Bu o‘rinda freon moddasi ishlatiladigan muzlatgich va konditsionerlarni ta’mirlovchi maishiy xizmat ko‘rsatish sxohobchalarining ishini tartibga solish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilgarilari yer qa’ridan foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen tashlandiqlarni saqlash ishlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablari o‘rnatilmagan edi. Yangi tahrirdagi «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunning IV bobi 35, 40-moddalariga binoan, yer qa’ridan va uning hosilalaridan foydalanishda, atmosfera havosining ifloslanishiga olib keluvchi ishlarning taqiqlanishi, mas’uliyatli shaxslarning esa majburiyatlari qonun bilan tartibga solinishi belgilab qo‘yilgan. «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 21-moddasiga muvofiq, shahar va aholi punktlari hamda ularning atrofida texnogen hosilalarni tashkil etish va tashlandiq chiqitlarni joylashtirish man etiladi. Aholi soni va iqlim sharoitlariga ko‘ra, aholi punktlarida tegishli maydonlarda muhofaza zonalari o‘rnatiladi.

Atmosfera havosini muhofaza qilishda yangi qonun barcha xo‘jalik faoliyati, agarda u atmosfera havosiga ta’sir etishi mumkin bo‘lsa, ekologik sertifikatsiyalanadi. Ekologik sertifikatsiyalash kashfiyotlar, ixtirolar, sanoat namunalari, texnika va texnologiyalarni joriy etish paytida ham qo‘llaniladi. Bu talab O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldidagi burchi hisoblanadi.

Korxona, tashkilot va muassasalar atmosfera havosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish sohasida 15.3.1-rasmda bayon etilgan talablarni bajarishga majburdirlar. Aks holda ularning faoliyatlari to‘xtatilishi, bekor qilinishi va huquqbuzar shaxslar tegishli yuridik javobgarlikka tortilishlari mumkin.



15.3.1-rasm. **Yuridik shaxslarning atmosfera havosini muhofaza qilish majburiyatlari.**

4. Atmosfera havosini muhofaza qilishning kafillik mexanizmi

Yuqorida keltirilgan atmosfera havosini muhofaza qilishga oid ekologik-huquqiy talablarni amalga oshirish uchun davlat muayyan kafillik mexanizmini yaratadi. *Kafillik mexanizmiga atmosfera havosiga yetkazilgan zararni qoplash uchun to‘lovlarni undirish➞ davlat hisobini olib borish ➞ monitoringni tashkillashtirish ➞ nazoratni o‘rnatish ➞ huquqbuzarlarni javobgarlikka tortish ➞ xalqaro majburiyatlarni bajarish kiradi.*

Atmosfera havosiga zararli ta’sir ko‘rsatgan korxona, muassasa va tashkilotlar, alohida muhofaza etiladigan hududlarda esa jismoniy shaxslar ham Soliq qonunchiligiga binoan *ekologik soliqqa* tortiladilar. Uning stavkasi Soliq kodeksining 112-moddasiga binoan, ishlab chiqarish tannarxining bir foizli stavkasi bo‘yicha to‘lanadi. Undan tashqari, har yili Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan, Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqiladigan O‘zbekiston hududida atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalarni tashlash (oqizish) va chiqindilarni joylashtirganligi uchun to‘lovlar belgilanadi. Ushbu to‘lov va soliqlarning aksariyat qismi atmosfera havosini muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga sarf qilinadi. Lekin ekologik soliq va tegishli to‘lovlarni to‘lash Qonunning 25-moddasiga ko‘ra korxona, muassasa va tashkilotlarni atmosfera havosini muhofaza qilishga oid ishlarni bajarishdan va tabiatga yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

Atmosfera havosiga yetkazilgan zararni qoplash va tegishli ekologik-huquqiy choralarni olib borish ushbu tabiiy obyekt bo‘yicha *davlat hisobini yuritishni* talab etadi. Davlat hisobi:

1) atmosfera havosining holatiga zararli ta’sir ko‘rsatayotgan yoki zararli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan obyektlar;

2) foydalanilayotgan atmosfera havosi hajmlari;

3) atmosfera havosiga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlar, issiqxona gazlari va ozonni buzuvchi moddalarning turlari va hajmlari;

4) fizik omillar ko‘rsatadigan zararli ta’sirining turlari va hajmlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda yagona tizimda olib boriladi.

Atmosfera havosi holatini kuzatish, u haqdagi axborotni to‘plash, umumlashtirish, tahlil qilish istiqbolini belgilash (monitoringni olib borish) O‘zboshgidromet tomonidan tegishli davlat idoralarining faol ishtirokida amalga oshiriladi. *Monitoring* ma’lumotlari davlatning umumiy va maxsus vakolatlangan organlariga bepul beriladi va ular *davlat nazoratini* o‘tkazishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan maxsus nazoratni Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasida Atmosfera havosini muhofaza qilish bosh boshqarmasi, Sog‘liqni saqlash vazirligida Sanitariya va gigiyena bo‘yicha davlat inspeksiyasi, Ichki ishlar vazirligida nazorat inspeksiyalari tomonidan olib boriladi. Ulardan tashqari «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 32-moddasi, mazkur Qonunning 29-moddasi va tegishli ixtisoslashtirilgan qonun hujjatlariga binoan, idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazoratini olib borish nazarda tutilgan.

Atmosfera havosiga oid qonun hujjatlaridagi talablarni buzgan shaxslarga nisbatan *intizomiy, fuqaroviy, ma’muriy va jinoiy jazo turlari qo‘llaniladi.*

Masalan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda 85–89-moddalar bo‘yicha bevosita, 70, 78, 79, 82, 84, 91, 95, 96-moddalar bo‘yicha bilvosita ravishda atmosfera havosiga salbiy ta’sir etganlari uchun fuqaro va mansabdor shaxslarga ma’muriy jazo qo‘llaniladi. Agarda qilmish ijtimoiy xavfli bo‘lsa, ya’ni kishilar hayotiga xuruj qilsa yoki unga sababchi bo‘lsa, Jinoyat kodeksining 193–196-moddalarida aks ettirilgan jazolarni qo‘llashga asos bo‘la oladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, yuridik va jismoniy shaxslarning atmosfera havosini buzish oqibatida yetkazilgan zarar o‘rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplashlari aybdorlarni intizomiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortishdan ozod etmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning mustaqil subyekti tariqasida atmosfera havosini muhofaza qilishga oid to‘rtta Konvensiyaga imzo chekkan. Ularni bajarish orqali davlatimiz umuminsoniyat mulki bo‘lmish atmosfera havosini muhofaza qilishga katta hissa qo‘shadi, deb o‘ylaymiz.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Yer planetasining qaysi bir sferalarida havo uchrashini ifoda eting!
2. Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun qaysi bir havo muhofazasining huquqiy normalarini o‘rnatadi?
3. Qanday ko‘rsatkichlar bo‘yicha atmosfera havosi sifati aniqlanadi?
4. Sobiq Ittifoq va mustaqillik davridagi «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunlarning asosiy farqini jadval tariqasida yozib chiqing!
5. Davlat standartlari qaysi turdagi obyektlar bo‘yicha o‘rnatiladi?
6. Atmosfera havosining qaysi bir o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan tarzda huquqiy normalar o‘rnatiladi?
7. Davlatning maxsus vakolatlangan boshqaruv organlarining funksiyalarini sanab o‘ting!
8. Atmosfera havosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish talablari nimalardan iborat?
9. Yuridik shaxslarning atmosfera havosini muhofaza qilishdagi majburiyatlari qanday?
10. Atmosfera havosini muhofaza qilishning kafillik mexanizmi deganda nimani tushunasiz?

Bilimlar xazinasi
ziyo.uz

Ekologik xavfsiz hudud – tozalanganni emas, balki ifloslantirilmagani.

XVI bob. MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING HUQUQIY HOLATI

1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tushunchasi va ularning tasniflanishi

Mahalliy, regional va milliy ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun tuman, viloyat yoki respublika miqyosida ekologik rayonlashtirish olib boriladi. Ekologik rayonlashtirishda muayyan hududlarni, ularning atrof tabiiy muhit holati va kelajak istiqbollariga qarab bo'lib chiqiladi. Bo'lingan konturlarda xalq, millat yoki davlatning tabiiy genofondini saqlash yoki ma'lum bir ekologik maqsadlarni ko'zlagan holda alohida muhofaza etiladigan hududlar ajratib olinadi.

Muhofaza etiladigan hududlar – *tarixiy-madaniy, siyosiy va ekologik maqsadlarni ko'zlagan holda davlatning alohida e'tibori bilan qo'riqlanadigan yer maydonlari va suv akvatoriyalari.*

Muhofaza etiladigan hududlar uch ko'rinishda namoyon bo'ladi: muhofaza etiladigan *tarixiy-madaniy hududlar* – tarixiy yodgorliklar, ansambl va arxitektura majmualari, tarixiy ahamiyatga moyil bog'lar; alohida muhofaza etiladigan *siyosiy hududlar* – harbiy va o'quv poligonlari, davlat chegarasi yoki atom yadrosi bilan ishlovchi korxonalar atrofi kabi tegralar; alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – *ekologik, madaniy-sog'lomlashtirish, ilmiy, estetik, rekratsion maqsadlarni ko'zlab, davlatning alohida e'tibori bilan qo'riqlanadigan tabiiy hudud va obyektlar.*

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer uchastkalari, yer qa'ri, suv kengliklari, o'rmonlar va milliy tabiiy merosga kiruvchi aniq

bir tabiiy obyektlar kirishi mumkin. Ular nafaqat o'zlarining tabiiy xususiyatlarining noyobligi, balki o'zga hududlarning ekologik barqarorligini ta'minlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Chotqol – Ugam tog' tizmasida qo'riqxonalarning tashkil etilishidan maqsad, noyob tabiat boyligini saqlash bilan bir qatorda, Toshkent shahri va uning atrofida yashovchi deyarli 4 milliondan ortiq aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlab beruvchi daryolarning to'yinish manbalarini (qor va muzliklar, buloqlar va chashmalar) saqlab qolishdir.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik-huquqiy holatiga qarab, ularni ijtimoiy-ekologik, qo'riqxona-ekologik, iqtisodiy-ekologik xillarga ajratiladi (16.1.1-rasm).

Ijtimoiy-ekologik xil – aholining madaniy-sog'lomlashtirish va rekratsion maqsadlarni ko'zlagan holda tashkillashtirilgan, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar. Bu degan so'z, aholining salomatligi va uning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini muayyan hududlarda ijtimoiy-ekologik muhofaza qilish maqsadida, ularda alohida bir huquqiy holatni tashkil etish.

Qo'riqxona-ekologik xil – ilmiy, estetik va madaniy-oqartuv maqsadlarni ko'zlagan holda tashkillashtirilgan, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va obyektlar. Tabiiy merosni saqlab qolish, biologik xilma-xillikni saqlash, ilmiy va reproduktiv (qayta tiklash) masalalarni hal qilish, aholining o'z go'zal va betakror diyoriga bo'lgan mehrini uyg'otish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish va vatanni sevish kabi vazifalarni bajarish maqsadida tashkillashtirilgan va alohida huquqiy maqomga ega bo'lgan hududlar va tabiat yodgorliklari.

Iqtisodiy-ekologik xil – davlatning iqtisodiy qudratining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi tabiiy obyektlarni muhofaza qilish maqsadida tashkillashtirilgan hududlar va obyektlar. Ifloslanmagan yoki kimyoviy moddalar bilan zaharlanmagan suv hamda noyob va qimmatbaho konlar nafaqat insonlarga ijtimoiy yoki ekologik maqsadlarda, balki qishloq xo'jaligini sug'orish suvi bilan ta'minlash, baliq xo'jaligini yuritish, qimmatbaho mineral boyliklarni saqlash va ularni davlat ravnaqi uchun xizmat qildirish maqsadlarini ham ko'zlaydi.



16.1.1-rasm. **Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xillari va turlari.**

2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining umumiy jihatlari

Barcha xildagi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga xos bo‘lgan huquqiy qoidalar va me’yorlar mavjud. Ushbu huquqiy normalar 2005-yil 3-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi, Tabiatni muhofaza qilish, Suv va suvdan foydalanish, Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, Yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonunlar, Yer, Jinoyat, Fuqarolik, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, Mehnat kodekslari kabi o‘nlab qonunlar va qonun osti me’yoriy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Barcha Ekologiya huquqi manbalarining asosiy maqsadi hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko‘zlab noyob hamda fuqarolarning ekologik-huquqiy talablarini qondiruvchi qimmatli tabiat majmualarini va yodgorliklarini huquqiy muhofaza qilishdir.

Qonunning 5-moddasiga ko‘ra O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning belgilangan maqsadi va rejimiga qarab quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- davlat qo‘riqxonalari;
- majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalari;
- tabiat bog‘lari;
- davlat tabiat yodgorliklari;
- ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko‘paytirish va tiklash uchun mo‘ljallangan hududlar;
- muhofaza etiladigan landshaftlar;
- ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo‘ljallangan hududlar.

O‘zbekistonda Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunning 6-moddasiga muvofiq muhofaza etiladigan tabiiy hudud va obyektlar davlat mulkidir va uning muhofazasidadir. Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar xususiy buyurtma qo‘riqxonalar hamda tabiiy pitomniklar tashkil etish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin.

Yer kodeksining 8-moddasiga binoan *muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari alohida bir yer toifasiga ajratiladi*. Soliq kodeksining 101-moddasi 3-bandiga ko‘ra, tabiatni muhofaza qilish ahami-

yatiga molik yerlar – davlat qo‘riqxonalari, milliy va botanika bog‘lari, buyurtma qo‘riqxonalar (ov qilishga mo‘ljallangan zakazniklardan tashqari), tabiat yodgorliklari, ihota daraxtzorlari *yer uchastkalari yer solig‘idan ozod qilinadi*. Ularda belgilangan maqsaddan tashqari barcha faoliyat taqiqlanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda foyda olish maqsadida xo‘jalik faoliyati yuritiladigan bo‘lsa, u holda yer solig‘i va ijara haqi undirib olinadi.

1999-yil 20-avgustdagi «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning IV bobiga muvofiq, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda favqulodda vaziyatlar (suv toshqini, zilzila, ko‘chish va h.k.) ro‘y bergan taqdirda, ularning *huquqiy holatiga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin*.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, maxsus vakolatlangan vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar va idoralar amalga oshiradilar. Davlat nazoratini esa Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi olib boradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ularni rivojlantirish va joylashtirishning bosh chizmasi yoki Tabiatni muhofaza qilishning hududiy majmua chizmasiga muvofiq barpo etiladi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu tasdiqlanish tegishli yer maydonini zaxiralash (ajratish) to‘g‘risidagi qaror qabul qilinishiga asos bo‘la oladi. Zaxiralangan yer maydonida xo‘jalik faoliyati to‘xtatiladi yoki cheklanadi.

«Davlat kadastrlari to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasiga ko‘ra, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrlarining yagona tizimida turadi. Uni yuritish tartibi 1998-yil 10-martda Vazirlar Mahkamasining 109-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasining alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga» muvofiq o‘tkaziladi. Ushbu kadastrda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy maqomi, geografik joylanishi, miqdor va sifat ko‘rsatkichlari, ekologik, ilmiy, ma’rifiy va boshqa xil ahamiyati to‘g‘risidagi, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar haqidagi ma’lumotlar aks ettiriladi. Tegishli davlat kadastri Geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari bosh boshqarmasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

O‘zini o‘zi boshqaruv idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni yo‘lga qo‘yishda, ekologik, ma’rifiy, madaniy tadbirlarni o‘tkazishda davlat organlariga hamkorlik qilishlari mumkin.

3. Muhofaza etiladigan ijtimoiy-ekologik vazifalarni bajaruvchi hududlarning huquqiy holati

Shunday qilib, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ijtimoiy-ekologik xili, fuqarolarni bexatar atrof tabiiy muhitni yuzaga keltirish orqali, ularning bevosita ekologik huquqlarini ta’minlab beradi. Ularga – tabiat bog‘lari (kurort tabiiy hududlar, tabiiy sog‘lomlashtirish hududlari, rekratsion va himoya tegralar, dendrologiya, hayvonot va botanika bog‘lari kiradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunning 24–25-moddalariga binoan, O‘zbekistonda *kurort tabiiy hududlarga* insonlarni davolash va salomatligini tiklash xususiyatlariga, mineral manbalarga, davolovchi balchiq qatlamlariga, qulay iqlim sharoitlari va boshqa tabiiy shart-sharoitlarga ega bo‘lgan zonalar kiradi. Ular mahalliy yoki respublika ahamiyatiga molik bo‘lishi mumkin. *Mahalliy ahamiyatga molik kurortlar* mahalliy davlat hokimiyatining Kasaba uyushmalar Federatsiyasi kengashi va Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘shma taqdimnomasiga binoan qabul qilingan qarori asosida tashkil etiladi. *Respublika ahamiyatiga molik kurortlar* Vazirlar Mahkamasi, Respublika kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi bilan Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘shma taqdimnomasiga binoan tashkil etiladi.

Tabiiy sog‘lomlashtirish hududi uch xil bo‘ladi: 1) davolash xususiyatiga ega bo‘lgan manbalar; 2) sanatoriylar, pansionatlar, dam olish uylari; 3) sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylari atrofidagi (tutash) hududlar.

Davolash xususiyatiga ega bo‘lgan issiq va mineral suv manbalari hamda balchiq qatlamlari bor joylarda har qanday xo‘jalik faoliyatini yuritish taqiqlanadi. Ularda faqatgina davolashni ta’minlab beruvchi inshootlar qurish mumkin, xolos. Sanatoriylar, pansionatlar va dam ol-

ish uylari tegralarida ularni tashkil etish va faoliyat yuritishdan boshqa xo‘jalik faoliyati taqiqlanadi. Bu yerda tibbiyot va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlardan tashqari boshqa aholining yashashi man etiladi. Ular atrofidagi hududlarda davolash manbalariga va atrof-muhitga zararli ta’sir etmaydigan faoliyat yuritishga ruxsat etiladi.

Rekratsiya tegralari – turizm va aholining ommaviy dam olishini tashkil etish uchun qulay geografik va iqlim sharoitlariga ega hududlar. Rekratsiya tegralari mahalliy davlat hokimiyati Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi va Sog‘liqni saqlash vazirligining taqdimnomasiga binoan qabul qilingan qaror orqali tashkil etiladi. Ularda turizm va aholining dam olishiga xalaqit bermaydigan, cheklangan tarzdagi, xo‘jalik faoliyati yuritishga ruxsat etiladi.

Botanika bog‘i – o‘simlik termalari (kolleksiyalari)ni tuzish, to‘ldirish va asrash, ilmiy, o‘quv-ta’lim ishlarini olib borish yo‘li bilan mahalliy va jahon miqyosidagi o‘simliklar majmualarining nodir va muayyan turkumga xos turlarini maxsus yaratilgan sharoitda asrash, o‘rganish, iqlimlashtirish, ko‘paytirish hamda ulardan samarali va oqilona foydalanish maqsadida tashkil etilgan bog‘.

Toshkent botanika bog‘i ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi. U respublikada yagona botanika bog‘i bo‘lib, unda 1647 turdagi Sharqiy Osiyo, Uzoq Sharq, Shimoliy Amerika, Qrim-Kavkaz, Markaziy Osiyoga xos o‘simliklar 40 gektardan oshiq maydonda joylashtirilgan.

Dendrologiya bog‘i – ilmiy, madaniy, rekratsiya va boshqa yo‘sinda g‘oyat samarali foydalanish uchun daraxtlar, butalarning har xil turlarini hamda ulardan tarkib topgan daraxtzor va butazorlarni maxsus yaratilgan sharoitda asrash, o‘rganish maqsadida tashkil etilgan bog‘. Umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan dendrologiya bog‘i ilmiy tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Hayvonot bog‘i – ekologik ta’lim-tarbiya ishlarini yo‘lga qo‘yish, hayvonlarning nodir ekzotik va mahalliy turlari ekspozitsiyalarini yaratish, ularning irsiy fondini saqlab qolish, yovvoyi hayvonlarni o‘rganish hamda ularni tutqunlikda ko‘paytirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan bog‘. Umumdavlat ahamiyatiga molik hayvonot bog‘i madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi tabiatni muhofaza qilish muassasasi hisoblanadi. Hayvonot bog‘ida hayvonlarning ko‘chma ekspozitsiyalarini tashkil etish, jonivorlarni ozuqa bilan ta’minlash uchun yordamchi xo‘jaliklar barpo etishga ruxsat beriladi.

O‘zbekistonda Toshkent va Termiz hayvonot bog‘lari mavjud. Poytaxtdagi hayvonot bog‘ida 124 turdagi hayvonot dunyosining turlari saqlanmoqda.

4. Qo‘riqxona – ekologik vazifalarni bajaruvchi muhofaza etiladigan hududlar va obyektlarning huquqiy holati

Qo‘riqxona-ekologik vazifalarni o‘tovchi alohida muhofaza etiladigan hududlarga – qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, buyurtma qo‘riqxonalar (zakazniklar), tabiat yodgorliklari, qo‘riqlanma (oraliq) tegralar kiradi. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunning II bo‘limiga muvofiq, ularda aksariyat ishlar davlat tomonidan moliyalashtirilgan tarzda olib borilsa, «davlat» so‘zi qo‘shib ishlatiladi.

Qo‘riqxona – *oddiy va noyob tabiiy majmualar, o‘simliklar hamda hayvonlarning irsiy fondlarini saqlab qolish va o‘rganish, tabiiy jarayonlar va hodisalar o‘zgarishi ustidan monitoring o‘tkazish maqsadidagi ilmiy-tadqiqot muassasasi.*

O‘zbekistonda qo‘riqxonalar davlat tassarufida turgani uchun ham ***«Davlat qo‘riqxonalari»*** deb nom olgan. O‘zR Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi Qonunning III bo‘lim 18–20-moddalariga muvofiq tabiiy obyektlar va majmualarni muhofaza qilishning qattiq rejimiga ega bo‘lgan, tipik ekologik tizimlar, o‘simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish hamda o‘rganish uchun mo‘ljallangan, umumdavlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat qo‘riqxonalari hisoblanadi. Davlat qo‘riqxonalari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat tabiatni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot muassasasi shaklida tashkil etiladi. Ular bunday qo‘riqxonalar to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Davlat qo‘riqxonalarining hududi to‘liq va bir umrga xo‘jalik faoliyati yuritishdan tortib olinadi hamda doimiy foydalanish uchun muassasalarga bepul beriladi. Qo‘riqxona yer fondini ijaraga berish taqiqlanadi. Ular O‘zbekistonda maxsus ekologik funksiyalarni bajargani uchun davlat tasarrufida turadi.

Davlat qo‘riqxonalari Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi. Uni boshqarish esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan davlat organlari orqali amalga oshiriladi. Qo‘riqxona qaysi idoraning tasarrufida bo‘lishidan qat’i nazar, shu idora Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bilan kelishilgan va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat yuritadi.

O‘zbekistonda 9 ta davlat qo‘riqxonalari mavjud bo‘lib, ular 209,6 ming ga yerni qamrab olgan. Qo‘riqxonalardan biri (Chotqol tog‘-o‘rmon) davlat biosfera qo‘riqxonasi maqomini olgan.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tasarrufida – Chotqol tog‘-o‘rmon biosfera qo‘riqxonasi (Toshkent viloyatida), Hisor tog‘-archa qo‘riqxonasi (Qashqadaryo viloyatida). *Qishloq va suv xo‘jaligi huzuridagi* O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi tasarrufida Zomin tog‘-archa (Jizzax viloyatida), Baday-to‘qay tekislik-to‘qay (Qoraqalpog‘iston Respublikasida), Qizilqum qumli-to‘qay (Buxoro va Xorazm viloyatlarida), Zarafshon tekislik-to‘qay (Samarqand viloyatida), Nurota tog‘-yong‘oq (Jizzax viloyatida), Surxon tog‘-o‘rmon (Surxondaryo viloyatida) qo‘riqxonalari hamda *Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi tasarrufida* – Kitob gekologik qo‘riqxonasi faoliyat yuritmoqda.

Davlat qo‘riqxonalari yuridik shaxs maqomidagi davlat muassasalaridan hisoblanib, ularning mablag‘lari davlat byudjetidan, tashqari, ilmiy, madaniy-ma’rifiy, reklama-noshirlik, undirib olingan zarar va jarima pullaridan, fuqaro va yuridik (jumladan, xorijiy) shaxslarning beg‘araz yordamlaridan va boshqa xil tushum va yig‘imlardan iborat bo‘lishi mumkin. Qo‘riqxona hududlarida o‘simlik va hayvonot dunyosini ko‘paytirish, ko‘chirib keltirish va iqlimlashtirish taqiqlanadi. Qo‘riqxonalarda ilmiy ishlarni olib borishga ruxsat beriladi. Ularda ilmiy institutlarga xos bo‘lgan barcha faoliyat turi o‘z Nizomlariga muvofiq ravishda olib boriladi. Lekin «Tabiat solnomasi»ni yuritish majburiy hisoblanadi.

Biosfera qo‘riqxonasi, o‘ziga xos boshqaruv funksiyasiga ega bo‘lgan qo‘riqxona hisoblanadi. Chunki unda Yer kurrasi bo‘yicha kishilar xo‘jalik va boshqa faoliyatlarini YuNESKOning dasturiga asosan atrof-muhitga bo‘lgan ta’sirini o‘rganish va uni kuzatib borish (global monitoring yuritish)ga oid vazifalar bajariladi. *Biosfera qo‘riqxonasida xalqaro standartlarga mos ravishda uchta zona – qo‘riqxona yadrosi, bufer (muhofaza) tegrasi va xalqaro kuzatish sxohobchalariga ega bo‘lgan biosfera poligoni bo‘lishi talab etiladi.*

Yangi tahrirdagi O‘zR Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunning 44-moddasida Biosfera qo‘riqxonasi o‘rniga «Davlat biosfera rezervatlari» kiritilgan. Ular – biologik xilma-xillikni saqlash, tabiiy obyektlar va majmualardan oqilona foydalanish uchun tashkil etiladi. Davlat biosfera rezervatlari xalqaro biosfera rezervatlari tarmog‘iga qo‘shilishi va atrof tabiiy muhitning global monitoringida ishtirok etishi mumkin. Davlat biosfera rezervatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Biosfera qo‘riqxonasi – *qo‘riqxonaning bir turi bo‘lib, ulardagi barcha ishlar xalqaro huquq norma talablari darajasida olib boriladi.*

Davlat biosfera rezervatlarining hududlari davlat biosfera rezervatlariga foydalanishga beriladigan yer uchastkalarida, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning davlat biosfera rezervatlari chegaralari doirasidagi yer uchastkalarida joylashadi.

Davlat biosfera rezervatlari hududida quyidagilar ajratib qo‘yiladi:

- tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlab qolish uchun mo‘ljallangan, davlat qo‘riqxonalari uchun nazarda tutilgan rejimli qo‘riqxonaga aylantirilgan zona;
- tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko‘paytirish va tiklash uchun mo‘ljallangan, qo‘riqxonaga aylantirilgan zonaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday faoliyat taqiqlanadigan oraliq zona;
- davlat biosfera rezervatlarining tabiiy obyektlari va majmualariga zarar yetkazmaydigan xo‘jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagi faoliyatni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan zona.

Davlat biosfera rezervatlarining rejimi bunday rezervatlar to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar bilan belgilanadi.

Chotqol tog‘-o‘rmon biosfera qo‘riqxonasi (rezervati) 1947-yil tashkil etilgan bo‘lib, u Markaziy Osiyo tabiatining eng go‘zal maskanlaridan biri bo‘lib, uning faoliyati Vazirlar Mahkamasining 2001-

yil 22-iyundagi 262-sonli «Ugam-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘i va chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi to‘g‘risidagi nizomlarni, Ohangaron va Burchmulla o‘rmon xo‘jaligi korxonalari nizomlarini tasdiqlash haqida»gi qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida tashkillashtiriladi.

Milliy bog‘ – *tabiatni muhofaza qilish muassasasi bo‘lib, ular alohida ekologik, tarixiy va estetik qimmatga ega bo‘lgan hamda tabiatni muhofaza qilish, rekratsiya, ma’rifiy-madaniy, ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan tabiiy majmua.*

Milliy bog‘lar yuridik shaxs maqomida faoliyat olib boruvchi muassasa bo‘lib, u ham davlat byudjetidan va o‘z maqomiga ko‘ra yurgizilayotgan rekratsiya, turizm-ekskursiya, reklama-noshirlik kabi daromadlardan hamda turli yo‘sindagi beg‘araz yordam pullaridan yig‘ilgan mablag‘lar hisobiga o‘z moddiy bazasini shakllantiradi. O‘zbekistonda davlat milliy bog‘lari yangi tahrirdagi qonunga muvofiq tabiat bog‘lari deb yuritiladi. Ushbu qonunning 23-moddasiga binoan ularni tashkil etishdan maqsad – alohida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo‘lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo‘nalishidagi, rekratsiya, ilmiy va madaniy boyliklarni saqlab qolish hamda ulardan foydalanishdan iborat.

Tabiat bog‘lari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etiladigan milliy tabiat bog‘lari va mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog‘lariga bo‘linadi.

Tabiat bog‘lari bunday bog‘lar to‘g‘risidagi, ular qaysi davlat organlarining tasarrufida bo‘lsa, shu davlat organlari tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida faoliyat ko‘rsatadi. Masalan, O‘zR Vazirlar Mahkamasining «Ugam-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘i va Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi to‘g‘risidagi nizomlarni, Ohangaron va Burchmulla o‘rmon xo‘jaligi korxonalari ustavlarini tasdiqlash haqida» 2009-yil 26-yanvardagi 20-sonli qarori bilan 2001-yil 22-iyundagi 262-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom va ustavga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

Qonunning 24-moddasiga ko‘ra tabiat bog‘lari tarkibida – qo‘riqxona tegralari, rekratsiya, xo‘jalik va o‘zga yo‘sindagi foydalanish hamda kurort zonalari bo‘lishi mumkin. Lekin tabiat bog‘ida uning maqsadini bajarishga zid bo‘lgan va ekologik holatini yomonlashtiruvchi barcha faoliyat turi taqiqlanadi. Tegishli vazifalarni bajarish uchun kerak bo‘ladigan yo‘l va inshootlar qurish, xizmat ko‘rsatish infrastrukturasini tashkil etish faoliyati ekologik ekspertizadan o‘tgan taqdirda ruxsat etiladi.

O‘zbekistonda Zomin va Ugam – Chotqol milliy bog‘lari faoliyat yuritmoqda. Xalqaro tabiatni saqlash kengashining (IUCN) tasnifiga ko‘ra, milliy bog‘lar 2-darajali muhofaza zonalariga kiritilgan.

Buyurtma qo‘riqxonalar doimiy va vaqtinchalik bo‘ladi. Ularni tashkil etish Vazirlar Mahkamasi (respublika ahamiyatiga moliklari) va Viloyat hokimi (mahalliy ahamiyatga moliklari) qarori bilan amalga oshiriladi.

Buyurtma qo‘riqxona – *tabiatning ayrim tarkibiy qismlari, ya’ni o‘simlik, hayvonlar va qushlar yoki tabiatning ayrim bo‘lagi muhofaza qilinadigan tabiiy hudud.*

Buyurtma qo‘riqxonalar ularning maqsadi va qo‘yilgan vazifalarni bajarishiga qarab:

- alohida qimmatga ega bo‘lgan tabiiy landshaftlar va majmualarni asrash va tiklash uchun mo‘ljallangan *landshaft;*
- jonsiz tabiatning qimmatli obyektlari va majmualarini asrab qolish uchun mo‘ljallangan *gidrologik* (botqoq, ko‘l, daryo);
- qimmatli, nodir va yo‘qolib borayotgan o‘simlik va jonivorlar turlarini asrab qolish va tiklash uchun mo‘ljallangan *biologik* (botanik va zoologik);
- ayrim qazilma boyliklar va ularning majmuyini asrab qolish uchun mo‘ljallangan *paleontologik;*
- tabiiy kelib chiqqan nodir noyob va nodir relyef shakllarini asrab qolish uchun mo‘ljallangan *geomorfologik;*
- nodir gekologik va mineralogik hosilalar va tuzilmalarni asrab qolish uchun mo‘ljallangan *gekologik* turlarga ajratiladi va ularga tegishli huquqiy maqom beriladi.

Buyurtma qo‘riqxonalar tashkil etilgan hududlarda yer egalari va yerdan foydalanuvchilar o‘z huquqlarini vaqtinchalik to‘xtatib turadi-

lar. Hududdagi tashkilot, muassasa va korxonalar buyurtma qo‘riqxona talablariga rioya etishlari shart. Uning ish tartibi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasi yoki viloyat hokimi tasdiqlagan Nizom asosida olib boriladi.

Hozirda O‘zbekistonda 10 ta davlat buyurtmaxonasi mavjud bo‘lib, ulardan Arnasoydan (Jizzax viloyatida) boshqa hammasi – Saygachiy (QqR), Sudoche (QqR), Nurobod (Samarqand viloyati), Qoraqir (Buxoro viloyatida), Muborak (Qashqadaryo viloyati), Oq-tog‘ (Navoiy viloyati), Qarnobcho‘l (Navoiy viloyati), Qo‘shrabod (Samarqand viloyati), Dengizko‘l (Buxoro viloyatida) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tasarrufidadir.

Tabiat yodgorliklari – *ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan noyob, o‘rnini to‘ldirib bo‘lmas, qimmatli, kelib chiqishi tabiiy bo‘lgan obyektlar.*

O‘zR muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunning 27-moddasiga binoan tabiiy obyektlarni davlat ***tabiat yodgorliklari*** deb e’lon qilish maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasi bo‘yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan davlat tabiat yodgorliklari deb e’lon qilinadi. Tabiiy obyektlarni ular joylashgan yer uchastkalarini olib qo‘ymagan holda davlat tabiat yodgorliklari deb e’lon qilishga yo‘l qo‘yiladi. Qonunning 28-moddasiga ko‘ra davlat tabiat yodgorliklari hududida ularning asralishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi. Davlat tabiat yodgorliklari qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida joylashgan bo‘lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga bunday yodgorliklarning rejimini ta’minlash majburiyatlari yuklatiladi. Diniy maqsadlarda foydalaniladigan davlat tabiat yodgorliklari diniy tashkilotlarga yoki jismoniy shaxslarga bunday yodgorliklarni obodonlashtirish va asrash ishlarini amalga oshirish sharti bilan foydalanishga yoki ijaraga berilishi mumkin.

O‘zbekistonda tabiat yodgorliklari (Mingbuloq, Chust, Yozyovon, Markaziy Farg‘ona, Yangibozor,) bor-yo‘g‘i 35 km^2 maydonda joylashgan bo‘lib, ular Tabiatni muhofaza qilish, O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi kabi davlat idoralarining tizimida turadi. Tabiat yodgorliklari jumlasiga noyob ko‘rinishdagi toshlar, landshaftlar, daraxtlar, butalar, sharshara kabi tabiiy obyektlar kiradi.

5. Iqtisodiy-ekologik vazifalarni bajaruvchi alohida muhofaza etiladigan hududlarning huquqiy holati

Iqtisodiy-ekologik xarakterdagi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga suvni muhofaza qilish, qo‘riqlanma (oraliq), baliq xo‘jaligi, o‘rmonlarning taqiqlangan mintaqalari(zonalari) kiradi.

O‘zR Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunning VIII qismmiga ko‘ra suvni muhofaza qilish zonalari- muhofaza etiladigan landshaftlar turiga kiritilgan.

Suvni muhofaza qilish zonalari – *daryolar, ko‘llar, suv omborlari, kanallar, kollektorlar hamda boshqa suv obyektlarining o‘zanlariga tutash suvlarni muhofaza qilish hududlari.*

1. O‘zR Vazirlar Mahkamasining «Chuchuk yer osti suvlari hosil bo‘ladigan zonalarga alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maqomini berish to‘g‘risida»gi 2002-yil 16-yanvardagi 23-sonli qaroriga muvofiq mamlakatimizda barcha suv obyektlariga xuddi ana shunday maqom berildi. Shuning uchun viloyatlar doirasida katta suv obyektlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari qabul qilindi: «Toshkent viloyatida va Toshkent shahrida Chirchiq daryosining suvni muhofaza qilish zonasi va qirg‘oqbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida»gi O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 471-sonli qarori; «Surxondaryo viloyatidagi Surxondaryo daryosining suvni muhofaza qilish zonasini va qirg‘oqbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida»gi O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 15-sonli qarori; «Andijon va Namangan viloyatlarida Qoradaryoning suvni muhofaza qilish zonasini va sohilbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida»gi O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 178-sonli qarori va h.k.

Ushbu iqtisodiy-ekologik vazifalarni o‘tovchi hududlarni tashkil etishdan maqsad, yuqorida sanab o‘tilgan, gidrografik obyektlarni ifloslanishdan, bulg‘anishdan, sayozlanishdan, loyqalanishidan, nurashdan hamda eng maqbul suv maromini (rejimini) saqlab turishdan iborat.

Suvni muhofaza qilish mintaqalarining ish tartibi yer usti va yer osti suvlari hosil bo‘ladigan tegralar (daryo o‘zanlari, oqiziqli adirlar, tog‘

yon bag‘rining etaklari)ga ham taalluqlidir. Ularning huquqiy holati Vazirlar Mahkamasining tasdig‘idan o‘tgan tabiatni muhofaza qilish va suv xo‘jaligi idoralarining taqdimiga binoan belgilangan tartibda o‘rnatiladi. Masalan, Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon kabi xalqaro suv obyektlarini muhofaza qilish tegralarining huquqiy holati manfaatdor davlatlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar asosida o‘rnatiladi.

Aholi punktlari yer fondida yer tuzish va yerlarni tekislash chog‘ida suv obyektlarini muhofaza qilish tegralari va ularning huquqiy holati tabiatni muhofaza qilish va suv xo‘jaligi idoralari bilan kelishib olinishi talab etiladi.

Suvlarni muhofaza qilish mintaqalarining huquqiy holati alohida suv obyektlari yoki suv havzalari bo‘yicha umumlashtirilgan tarzda belgilanadi. Suvni muhofaza qilish tegralarida xo‘jalik faoliyatini yuritish qat’iy cheklanadi, aholi punktlarida esa sanitariya muhofazasi mintaqasi belgilab olinadi va unda ham suvga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xo‘jalik faoliyati yuritish taqiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 4-oktabrdagi 401-sonli «Zarafshon daryosi suv havzasida ekologik va sanitar-epidemiologik holatni yaxshilash to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq ushbu daryo atrofida joylashgan aholi punktlarining huquqiy holati belgilangan.

Suvni muhofaza qilish tegralarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunning 40-moddasiga binoan suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo‘yi mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari hamda yer usti va yer osti suvlarining hosil bo‘lish zonalari ifloslanish, bulg‘anish, sayozlanishning hamda suv obyektlari tuproq eroziyasi mahsullari bo‘lmish loyqa bilan to‘lib qolishining oldini olish maqsadida, shuningdek eng maqbul suv rejimini saqlab turish uchun tashkil etiladi.

Qattiq rejimga asoslangan suvni muhofaza qilish zonalari doirasidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohil bo‘yi mintaqalari hisoblanadi. Ichimlik, maishiy va davolash-sog‘lomlashtirish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan suv obyektlariga tutash, qattiq rejim asosidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari hisoblanadi. Daryolarning uvalarida, yoyilma konuslarda, tog‘ yonbag‘irlarining etaklarida tashkil qilinadigan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer usti va yer osti suvlarining hosil bo‘lish zonalari hisoblanadi.

Suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo‘yi mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari hamda yer usti va yer osti suvlarining hosil bo‘lish zonalari tegishincha tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo‘jaligi, sanitariya nazorati organlarining, geologiya tashkilotlarining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Qo‘riqlanma (oraliq) yoki bufer zonalar – *ijtimoiy-ekologik va qo‘riqxona-ekologik turdagi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga tabiiy texnogen jarayonlarning salbiy ta’sirining oldini olish maqsadida tashkillashtirilgan hududlar.*

Ularda xo‘jalik faoliyatini qay tartibda olib borish, ularga qaysi bir mintaqalarning kirishi Tabiatni muhofaza qilish davlat idoralari bilan kelishilgan holda, markaziy yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining tasdig‘iga binoan o‘rnatiladi. Ushbu tartib qo‘riqxona, buyurtma qo‘riqxona, tabiat milliy bog‘i, tabiat yodgorliklari va alohida muhofaza etiladigan o‘zga tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtda o‘rnatiladi.

Baliq xo‘jaligi zonalari – *nodir va yo‘qolib ketayotgan baliq turlari hamda boshqa suv hayvonlarini muhofaza etish va ko‘paytirish maqsadida, shuningdek, baliq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladigan suv obyektlari yoki ularning bir qismi.*

Ularning huquqiy holati tabiatni muhofaza qilish va suv xo‘jaligi idoralarining taqdimiga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilanadi. Mazkur tegralarda ham baliq xo‘jaligini yuritishga zid bo‘lgan barcha xo‘jalik faoliyatini yuritish man etiladi.

2002-yil 16-yanvar Vazirlar Mahkamasining 23-sonli «Yer osti chuchuk suv manbalari hosil bo‘lish tegralariga alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud maqomini berish to‘g‘risida»gi qarori *yer osti suvlarini hosil bo‘lish joylari bo‘lgan daryo vodiylari, konus-vinoslar, tog‘ oldi shleyflarini* alohida huquqiy maqomini belgiladi. Lekin ushbu alohida muhofaza etish obyekti qonun bilan alohida e’tirof etilmagan. Dunyo tajribasi esa bunday huquqiy harakatlarni ma’qullaydi va ayniqsa, issiq iqlimli, suv muammosi keskin bo‘lgan mintaqalar uchun bu masala o‘ta dolzarbdir.

Mahalliy davlat hokimiyati miqyosida yer osti chuchuk suvlarni muhofaza qilish hududlari Chirchiq – Ohangaron (Toshkent viloyati), Chimyon – Auvali, Sox (Farg‘ona viloyati), Norin (Namangan viloyati), Osh – Aravan (Andijon viloyati), Kitob – Shahrisabz (Qashqadaryo viloyati), Zarafshon (Samarqand viloyati) daryo havzalari bo‘yicha o‘rnatilib olingan. Respublika bo‘yicha yer-osti suvlarini muhofaza qilish tegralarining soni 19 taga etdi. Ulardan 11 tasiga respublika, 8 tasiga mahalliy ahamiyatga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomini berish tavsiya etildi.

O‘rmonlarning taqiqlangan zonalari – *bag‘oyat qimmatli va nodir o‘simliklar turlarining irsiy fondini muhofaza etish va saqlab qolish, shuningdek, o‘rmon fondi maydonlarida qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar va alohida muhofaza etiladigan o‘zga tabiiy hududlarning ish tartibini ta’minlash maqsadida tashkillashtirilgan hududlar.*

O‘rmonlarning muhofaza qilish zonalarining huquqiy maqomi mahalliy davlat hokimiyati idoralari tabiatni muhofaza qilish va o‘rmon xo‘jaligi idoralarining taqdimiga binoan belgilanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga doir munosabatlar bilan bog‘liq nizolar umumiy sud yoki xo‘jalik sudlarida ko‘rib chiqiladi. Ulardagi alohida bir tabiiy obyektlarga oid nizolar tegishli maxsus qonunlarda belgilangan tartibda hal etiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ish tartibi buzilganda, uning kim tomonidan, qanday hollarda va keltirilgan ziyonning kattakichikligi, ijtimoiy xavfliligiga qarab intizomiy, fuqaroviy, ma’muriy va jinoiy jazo qo‘llanilishi mumkin. Huquqbuzarliklar O‘zR Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunning 49-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar holatiga zararli ta’sir ko‘rsatayotgan korxona, tashkilot, sex, qurilmalarning faoliyati, to ushbu zararli oqibatlar bartaraf etilgunga qadar to‘xtatib turiladi yoki cheklab qo‘yiladi. Agarda ushbu zararli faoliyatni bartaraf etish imkoniyati bo‘lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning faoliyati to‘xtatiladi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Nima uchun ayrim hudud va obyektlarni davlat alohida e’tibor berib qo‘riqlaydi?
2. Muhofaza etiladigan tabiiy hudud tushunchasini ta’riflang!
3. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tasniflab bering!
4. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga xos bo‘lgan qanday umumiy holatlarni aytib bera olasiz?
5. Biosfera qo‘riqxonasi (rezervati) bilan qo‘riqxonaning qanday farqi bor?
6. Buyurtma qo‘riqxona turlarini sanab bering!
7. Nima uchun O‘zbekistonda ko‘pgina alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga «Davlat» so‘zi qo‘shib ishlatiladi?
8. Suv muhofazasi tegralarida ekologik talablar kim tomonidan o‘rnatiladi?
9. Qanday bog‘lar turli mulk shaklida bo‘lishi mumkin?
10. Jinoyat kodeksining nechanchi moddasida qanday jinoiy jazo sanksiyasi alohida muhofaza etish tartibini buzganlik uchun qo‘llanilishi bayon etilgan?

Bilim bazasi mutlaqo bepul
eduxon.uz

Tabiat-jamiyat muvozanati – inson farovonligidir.

XVII bob. ANTROPOGEN O‘ZGARGAN HUDUDLARNI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. Antropogen o‘zgargan tabiiy muhitni ekologik- huquqiy muhofaza qilish tushunchasi, asosiy turlari va xususiyatlari

Yuridik adabiyotlarda mutaxassislar Ekologiya huquqining obyektini tabiiy obyektlar, tabiiy resurslar va tabiiy komplekslarga yoki integrallashgan, differensiatsiyalashgan (tabaqalashgan) va alohida muhofaza etiladigan hamda xalq xo‘jaligi bo‘yicha tarmoqlashgan obyektlarga ajratadilar[1]. Lekin ushbu mualliflarning o‘zlari Ekologiya huquqining obyekti bo‘lishi uchun atrof tabiiy muhit elementi, avvalambor, tabiiy kelib chiqqan, ekologik tizimning tarkibiga kirgan, insonlarning iqtisodiy, ekologik, madaniy, ijtimoiy, siyosiy talablarini qondira oladigan va yashash muhiti sifatini ta’minlab bera oladigan bo‘lishi kerak, deb to‘g‘ri ta’rif berganlar. Albatta, huquq orqali ushbu tabiiy obyektlar amaldagi qonunlar bilan tartibga solish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan berilgan bunday yuridik ta’rif bizni ham qoniqtiradi. Lekin ushbu tushunchadan kelib chiqqan holda, tabiatni muhofaza qilish va ularni huquqiy boshqarish tizimini xalq xo‘jaligi sohalari bo‘yicha ishlab chiqish, tabiat qonuniyatlariga, ya’ni ekologik tizimlarning «komplekslilik» xususiyatiga mos tushmay qoladi. Undan tashqari, sanoat, transport, energetika va boshqa xalq xo‘jaligi tarmoqlari ekologik qonunlar obyekti emas, balki ekologik nazorat va ekspertiza obyekti bo‘lib qolishi mumkin, xolos. Shuning uchun ham ekologik qonunlar, an’anaga ko‘ra, aniq bir Ekologiya huquqining obyektlari yoki ularning komplekslari bo‘yicha ishlab chiqiladi va jamiyatdagi ekologik munosabatlar ana shu obyektlar bo‘yicha tartibga solinadi.

Mazkur darslikning 1-bobida ta’riflangan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini uyg‘unlashtirish talablarini inobatga olib, biz Ekologiya huquqining alohida tartibga solinishi kerak bo‘lgan obyektlaridan biri qilib antropogen o‘zgargan atrof tabiiy muhitni olamiz.

[1] *A.Nigmatov.* O‘zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi. – T.: TDYuI nashriyoti, 2004. – 320-b.

Antropogen o‘zgargan tabiiy muhit – *kishilarning xo‘jalik faoliyati jarayonida ma’lum bir hudud yoki zonalarda tubdan o‘zgargan atrof tabiiy muhit holati.*

O‘zbekiston uchun antropogen o‘zgargan tabiiy muhit bu hudud yoki zonalarni keltirib chiqaruvchi va ularga ta’sir etuvchi omillar majmuasiga qarab – shahar, sanoat va agrar (qishloq xo‘jaligi) tegralariga ajratish mumkin. Bu hudud, tegra yoki zonalarda tabiat elementlari (yer, suv, atmosfera havosi, yer osti boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosi)ning son va sifat ko‘rsatkichlari, morfologik (tashqi) va morfometrik (o‘lchamli) belgilari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Masalan, atropogen o‘zgargan tabiiy hududlarda atmosfera havosi boshqa kam ta’sirlangan atrof tabiiy muhitga nisbatan 10–15 barobar ko‘proq ifloslanadi. *Sanoat zonalarida* havo tarkibida zaharli is gazi (CO_2)ning ko‘payishi asosan metallurgiya (30–40%) va kimyo sanoati (15–20%), transport (10–15%) ta’sirida yuzaga kelsa, *shaharlarda* esa is gazi asosan transport (60–80%), og‘ir sanoat (15–20%), kimyo sanoati (5–10%) ta’sirida ifloslanadi. *Agrar tegralarda* tuproqlarning morfologik (ko‘zga tashlanadigan tashqi) ko‘rinishi 1–1,5 metr chuqurlikkacha tubdan o‘zgargan va yangi tip hosil qilgan bo‘ladi. Qishloq joylarda tuproqlar pestitsid, gerbitsid, mineral o‘g‘itlar; shaharlarda maishiy axlat; sanoat zonalarida sanoat chiqindilari hisobiga ifloslanadi. Sanoat zonalari toifasiga kiruvchi atom elektrostansiyalari atrofidagi suv, tuproq va atmosfera havosida radioaktiv elementlar miqdori shaharlarga nisbatan bir necha o‘n barobar ko‘p bo‘ladi, lekin is gazining miqdori elektrostansiya atrofida agrar zonalarga tenglashgan, shaharlarga nisbatan esa bir necha o‘nlab barobar kam bo‘ladi.

Shunday qilib, antropogen o‘zgargan ekotizimlarda ekologik holat o‘ziga xos bo‘lgani uchun ham ularda ekologik-huquqiy muhofazalash choralari turlicha bo‘lishni talab etadi. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish normalari har bir antropogen hudud bo‘yicha alohida shakllanishi va xo‘jalik yuritishning ekologik talablari differensial (tabaqalashgan) tarzda amalga oshirishni taqozo qiladi. Chunki shaharlarda is gazining miqdori atmosfera havosida

yuqori darajada bo‘lgani uchun ham avtomobillardan chiqayotgan tutun tarkibida CO_2ning ruxsat etilgan miqdori 1,5 emas, balki undan ham kamroq bo‘lishi, cho‘l yoki tog‘li mintaqalarda esa CO_2 – 2,0 yoki undan ortiq bo‘lishigacha ruxsat etiladi. Ekologik jihatdan nobop shaharlarda avtomashinalardan chiqayotgan tutunni nafaqat CO_2 ko‘rsatkichi bo‘yicha, balki SN va NO ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham olish xalqaro ekologik talablar darajasida bo‘lur edi.

Shaharlarning katta-kichikligi, ifloslanganlik darajasi, iqlim sharoitlariga qarab, kishi boshiga to‘g‘ri keladigan yashil maydon yuzasi, shaharsozlikning ekologik talablariga binoan 5–10 m^2 dan to 25–30 m^2 gacha oshirilishi – issiq iqlimli O‘zbekiston sharoitida insonlarning qulay atrof-muhitda yashash huquqini ta’minlab berishga o‘z hissasini qo‘shadi, deb o‘ylaymiz.

2. Shaharlarda atrof tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash

Insoniyat ilmiy-texnik inqilobining oqibatlaridan biri urbanizatsiyadir (lotin tilida «urbanus» – shaharlik), ya’ni sanoat va aholining shaharlarda mujassamlasha borishi. Ayniqsa, bu jarayon iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos bo‘lib, ularda aholining 70–80 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Natijada, ularda atrof tabiiy muhitga bo‘lgan antropogen bosim boshqa hududlarga nisbatan bir necha bor yuqoridir.

Shaharlarda atrof tabiiy muhitning antropogen o‘zgarganlik darajasi, avvalambor, uning katta yoki kichikligiga, sanoatlashganligi va ularning faoliyat yo‘nalishlariga, maishiy xizmat ko‘rsatish darajasiga va transport tarmoqlarining infrastrukturasiga bog‘liq.

Yer kurrasida 170 dan oshiq millioner (aholisi 1 mln. kishidan ortiq bo‘lgan) shaharlar mavjud. Aholishunoslik fanining qoidalariga binoan, katta shaharlarga aholisi 0,5 mln.dan oshiq bo‘lgan aholi punktlari kirishini inobatga oladigan bo‘lsak, yirik shaharlarning soni 2–3 barobarga oshib ketadi. Undan tashqari, katta shaharlar bir-bir hududda o‘zaro qo‘shilib ketadigan bo‘lsa, megapolis (grekchada «megas» – katta, «polis» – shahar)larni hosil qiladi. Masalan, Nyu-York megapolisida 19 mln. kishi, Mexiko, Tokio, Moskva, Qohira kabi megopolislarda ham shunga yaqin aholi istiqomat qiladi. O‘zbekistonning Toshkent va uning atrofidagi shaharlarida 3 mln. dan ortiq aholi yashaydi. Shaharlar soni respublikamizda 60 yil ichida 120 taga ko‘paygan va ularda aholining 30% dan ortig‘i istiqomat qiladi.

Aholining shaharlarda kompakt holda yashashi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir qilishi bilan bir qatorda atrof tabiiy muhitning ekologik xavfsizlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shaharlarda tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosi, suv va yer osti boyliklaridan foydalanish o‘ta yuqori darajada bo‘lgani uchun ham, ularda tabiiy obyektlarning holati to‘lig‘icha antropogen o‘zgargan ko‘rinishdadir. Shaharlarda tabiiy jarayonlar kishilarning xo‘jalik faoliyati bilan uzviy bog‘langandir.

Ekologik tizimlarda nafaqat biologik yoki kimyo, balki fizik o‘zgarishlar (elektromagnit maydon tebranishlari) ham o‘ta kuchaygan ravishda namoyon bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, shaharlarda quyosh radiatsiyasi 15% gacha kamroq yer yuzasiga yetib keladi. Yomg‘ir, do‘l va qorlar 10% gacha ko‘proq yog‘adi, tuman 30–100% gacha ko‘proq tushadi. Kasalliklar, ayniqsa, yuqumlilari, shaharlarda boshqa hududlarga nisbatan bir necha barobar ko‘p ro‘yxatga olingandir. Shaharlarda atmosfera havosining keskin yomonlashuvi tufayli aholi o‘pka raki kasalliklari bilan qishloqdagilarga nisbatan 40 baravargacha, yuqumli kasalliklar bilan esa 2 baravargacha ko‘proq xastalanadilar. Shahardagi shovqin shaharliklarda asab kasalliklarini qishloq aholisiga nisbatan 75% gacha ko‘paytirib yuborgan. Nozogeografiya fani bo‘yicha olima N.K.Komilovaning ma’lumotlariga ko‘ra Buxoro viloyati shaharlarida aholining qon va qon tomir, psixik buzilish, asab tizimi va nafas olish yo‘llari xastaliklari qishloq joylardagi aholiga nisbatan 10–15% ga yuqoridir.

Shaharlarda aholining konsentratsiyalashuvi va ayniqsa, yuqori malakali ishchi kuchining ko‘pligi u yerda sanoatning barcha turlarining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. *AQShning Tabiatni muhofaza qilish agentligi shaharlarda sanoat tarmoqlarini ekologik xavfsizlik darajasi bo‘yicha 2 turga ajratadi: birinchi turga – atmosfera havosiga yiliga 100 tonnadan ortiq hajmda chiqitlarni chiqaruvchi korxonalar*: tog‘-kon boyitish kombinatlari, ko‘mir boyitish fabrikalari, koks zavodlari, qo‘ng‘ir ko‘mir ishlab chiqaruvchi zavodlar, neft mahsulotlarini saqlash va tashish (hajmi 47,7 mln. litrdan ko‘p bo‘lsa), kimyo, metal-

lurgiya, mis va alyumin zavodlari, qo‘rg‘oshin, sink va qog‘oz-sellyuloza kombinatlari; *ikkinchi turga – ko‘proq suvlarni ifloslantiruvchi korxonalar*: yog‘ochni qayta ishlash, qog‘oz va sellyuloza kombinatlari, tekstil, teri oshlash va neorganik (bo‘yoq, siyoh, mineral o‘g‘it) va organik kimyo mahsulotlari (plastmassa, sun’iy materiallar, yog‘-sovun, pestitsid, gerbitsid) ishlab chiqaruvchi korxonalar, farmasevtika, rezina, neftni qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, mashinasozlik va metallurgiya sanoati tarmoqlari korxonalari kiradi.

Shaharlarda atrof-muhit holatiga sezilarli ravishda ta’sir qiluvchi omillardan biri – maishiy kommunal xizmat xo‘jaligi. Uning atrof-muhitga ekologik ta’siri shaharlarning kanalizatsiya va suv ta’minoti, isitishning markazlashganlik darajasiga to‘g‘ri proporsionaldir. Markazlashgan kommunal xizmat tarmoqlarining yo‘qligi tabiiy obyektlarning ifloslanishiga va oqibatda, sanitar-epidemiologik holatning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Maishiy kommunal xizmatning yana bir ekologik ko‘rsatkichi qattiq turdagi axlatlarni yig‘ish va ularni utillashtirish masalasining yechilganligidadir. O‘zbekiston bo‘yicha yiliga 30 mln.m^3 maishiy chiqitlar chiqadi va ular shahar atrofidagi rezyervuarlarga tashlanadi. Lekin bu chiqitlarning 1/10 qismi shaharlarda qolib ketmoqda. Maishiy chiqitlarni ajratish, saqlash, qayta ishlash va ularni huquqiy tartibga solish hanuzgacha yo‘lga qo‘yilmagan muammolardan biridir. Bu masalani ijobiy hal qilishda Toshkent shahar Yunusobod tumani hokimligi, keyinchalik 2012-yilda O‘zbekiston ekologik harakati tomonidan olib borilayotgan – maishiy axlatlarni yig‘ish sxohobchalarini tashkil qilish va ularni navlarga ajratish bo‘yicha chora-tadbirlar maqtovga sazovordir.

Shaharlarda atrof tabiiy muhitga ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha transport sohasi asosiy o‘rin egallaydi. Avtomobil transportining umumiy transport vositalari (temir yo‘l, havo transporti, metropoliten...) ichidagi salmog‘i O‘zbekistonda 70–85% ni tashkil etadi. Ekologik toza hisoblangan elektrotransport (trolleybus, tramvay, metropoliten, elektrovoz...) salmog‘i umumiy transport vositalari bo‘yicha atigi 7–10% ni tashkil etadi, xolos. Toshkent shahrida atmosfera havosining ifloslanishiga katta ta’sir ko‘rsatayotgan transport tarmoqlaridan biri – aviatsiya. Ular havoda uglevodorod, azot va uglerod oksidlarining keskin ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Lekin keyingi paytda A–300, «Boing» toifasidagi samolyotlar bilan aviaparklarni to‘ldirish bunday salbiy holatning kamayishiga olib keldi.

Shunday qilib, shaharlarda atrof tabiiy muhitga antropogen omillarning ta’sir darajasi va turi boshqa antropogen o‘zgargan tegralarga nisbatan o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Mutaxassislarning fikricha, *shaharlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish talablari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:*

** sanitar va epidemiologik holatni yaxshilash;*

** xo‘jalik faoliyatining ekologik xavfsizlik darajasini ta’minlash;*

** axlat va maishiy chiqitlarni qat’iy me’yorlash va ularni utillashtirish;*

** shovqinsizlikni ta’minlash;*

** ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirishni yo‘lga qo‘yish;*

** transportda alternativ energiya (elektr, quyosh energiyasi, vodorod yoqilg‘isi, motorsiz transport...) turidan keng foydalanish;*

** ekologik texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy qilish;*

** yashil muhofaza tegralarini barpo qilish;*

** sanoat va energetika korxonalari, aeroportlarni shahar chekkasiga olib chiqish;*

** qurilish ishlarini tabiiy komponentlarga kam ta’sir etadigan qilib olib borish va rekultivatsiya (qayta tiklash) talablariga rioya etish;*

** maishiy va sanoat suvlarini tozalash va ularni ikkilamchi ishlatish choralarini joriy etish;*

** bino va inshootlarni (ayniqsa o‘ta zararli korxonalarda) joyning seysmik talablariga qarab loyihalash, qurish va hokazo.*

2002-yil 4-aprelda qabul qilingan «Shaharsozlik kodeksi»ning 4, 6, 8-moddalarida ko‘rsatilganidek, jamiyat, davlat va shaxslarning shaharsozlik sohasidagi manfaatlarini inobatga olgan holda, xo‘jalik va boshqa faoliyatning atrof-muhitga yetkazadigan zararli ta’siriga yo‘l qo‘ymaslik, ekologik holatni yaxshilash talabi o‘rnatilgan hamda yuridik va jismoniy shaxslarning majburiyatlari belgilangan.

Shu kunda O‘zbekiston shaharlarida tabiatni muhofaza qilishning huquqiy talablari Tabiatni muhofaza qilish, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, Shaharsozlik kodeksi, Yer kodeksi, Suv va suvdan foydalanish, Atmosfera havosini muhofaza qilish, O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, Chiqin-

dilar, Davlat sanitariya nazorati, Avtomobil yo‘llari, Davlat kadastrlari, Aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilish, Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlar va shular asosida qabul qilingan qonun osti normativ hujjatlarda o‘z aksini topgan va ular orqali tartibga solib turiladi.

Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning maqsadiga ayrim obyektlar (jumladan, shaharlar) tabiatini muhofaza qilish, ularda yashaydigan fuqarolarni qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini kafolatlash ham kiradi (1-modda). Bunday kafolatni shaharlarda *Vazirlar Mahkamasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Toshkent shahri, shahar qo‘mitalari, shaharcha va shahar tarkibiga kiruvchi tuman mahalliy davlat idoralari* amalga oshiradilar. Shaharsozlik kodeksining 18-moddasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi shaharlarda tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosatni olib boradi, tabiiy resurslardan foydalanish, ularni baholash, ulardan foydalanganlik va ifloslantirganlik uchun to‘lovlarning yagona tartibini belgilaydi, tabiiy ofatlar va yirik avariyalar yoki ekologik tang vaziyatlardan aholini saqlash va ularni bartaraf qilish yo‘llarini ishlab chiqadi. Ekologik o‘quv-tarbiya va maorif tizimini yaratadi va ushbu yo‘nalishdagi mamlakatimiz ahamiyatiga molik ekologik chora-tadbirlarni olib boradi.

O‘zR Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 10-moddasi va shaharsozlik kodeksining 19–20-moddalariga binoan mahalliy davlat boshqaruv organlari Toshkent shahri va uning tumanlari, respublikamiz shahar toifasiga kiruvchi aholi punktlari hokimliklari o‘z hududlarida: tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydilar; tabiiy resurslarni kadastrlash, moddiy-texnika ta’minotini yo‘lga qo‘yish, subyektlarning tabiatdan foydalanishi, uni ifloslantirish, unga chiqitlarni chiqarish va utillashtirish tartibini belgilaydilar; ular faoliyatini cheklash, man qilish, to‘xtatish, to‘lovlarni undirish va boshqa qonunlarda ko‘zda tutilgan vakolatlarni ham o‘taydilar.

Shahar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi idoralari O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tizimidagi organ bo‘lib, u Respublika Davlat qo‘mitasining «Tasdig‘i» va shahar hokimining «Kelishuvi» bilan qabul qilinadigan Nizomlariga binoan faoliyat yurgizadilar va shahar xalq deputatlari, boshqa

mahalliy idoralar bilan muvofiqlashgan tarzda ish olib boradilar. Shahar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi idoralari o‘z vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari tegishli hududda hamma subyektlar uchun majburiy hisoblanadi.

Shaharlarda xalq xo‘jalik tarmoqlari faoliyatining atrof tabiiy muhitga va aholiga salbiy ta’sirini kamaytirish hamda tabiiy resurslarni tiklab borishni kafolatlovchi normativlar va standartlar bilan belgilab qo‘yish juda muhim huquqiy chora hisoblanadi. Ekologik normativlarni shaharlarda mahalliy tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash boshqarmasi, sanoatda ishlarni bexatar olib borishni nazorat qilish va kon nazorati bo‘linmalari o‘zlariga berilgan vakolatlarga muvofiq olib boradilar. Bu normativlarga binoan shahardagi korxona, tashkilot va muassasalar, fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning atrof-muhitga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan eng yuqori darajasi yoki ruxsat etilgan me’yori (PDK, PDV, PDS, PDXV...) aniqlanadi. Bunday chegaralanishlar shaharlarda PDK *(zaharli moddalar konsentratsiyalashuvining eng yuqori ko‘rsatkichi)* atmosfera havosi va suvlar uchun olinadi. Moddalarning atmosfera havosi yoki suvda inson organizmida hech qanday patologik o‘zgarishlarga olib kelmaydigan darajasi SN 245–71 raqamli yo‘riqnomasida PDK sanitar normalarining 160 xil modda va 35 turdagi kombinasiyalarda atmosfera havosi ifloslanish darajasining ruxsat etilgan me’yori bo‘yicha belgilangan. Masalan, uglerod oksidi bo‘yicha ifloslantirish me’yori sutkasiga 1,0 mg/m^3, harakatda bo‘lmagan obyektlar uchun – 20 mg/m^3 ga tengdir.

PDV – shaharlarda ma’lum bir korxona yoki tashlash manbayi bo‘lgan subyektlar tomonidan *zararli moddalarni chiqarish miqdori*. U SN–369–71 bo‘yicha amalga oshiriladi va GOST 17.2.3.02–78 bo‘yicha hisoblanadi. Agarda ma’lum bir obyektda 2 va undan ortiq tashlagich manbalari (ventilyatsiya va energetik qurilma) bo‘lsa, bu korxona uchun PDVning umumiy ko‘rsatkichlari belgilanadi. Har bir PDV bo‘yicha tashlash inventarizatsiyasi (pasporti) tuziladi. Unda tashlandiqlarning son va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar, chiqitlarni tozalash metodlari va ekologik texnologiyalarni takomillashtirishning yo‘llari berilgan bo‘ladi. Bu pasportlarni har 5 yilda alohida bir qabul qilingan shakllarni to‘ldirish asosida qayta ko‘rib chiqiladi. Xuddi shunday jarayonlar Davlat standartlashtirish va

metrologiya boshqarmasi tomonidan PDS (oqovalarning eng yuqori ko‘rsatkichi), PDXV (kimyoviy moddalarni ishlatishning eng yuqori miqdori) va boshqa me’yoriy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishlab chiqiladi va shahar sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlarda alohida bir tabiiy obyektlardan foydalanish differensial qonun, mahalliy boshqaruv va nazorat organlarining qabul qilgan me’yoriy hujjatlari orqali tartibga solinadi.

Shahar hududidagi yerlar Yer kodeksining 8-moddasiga binoan aholi punktlari yerlari fondiga kiradi. Shuning uchun ham ularni alohida muhofaza etish va ulardan foydalanishning o‘ziga xos tartibi bor. Ushbu qonunning 59-moddasiga binoan shahar yerlari quyidagi toifalarga ajratiladi: qurilish; umumiy foydalanish; qishloq xo‘jaligi; daraxtzorlar; sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadga mo‘ljallangan yerlar; alohida muhofaza etiladigan hududlar; suv fondi yerlari; zaxira yerlar.

Biz agrar tegralardagi yerlardan samarali foydalanish deganda, ushbu yerlardan yuqori hosil olish va tuproq unumdorligini saqlashni tushunsak, shaharlardagi yerlardan oqilona foydalanish deganda esa qurilish va obodonlashtirish ishlarini ilmiy asoslangan tarzda, joy planirovka majburiyatlariga binoan olib borishni tushunamiz. Shahar yerlari shaharsozlik, yer tuzish hujjatlari bo‘yicha chegaralanadi va ulardan maqsadli foydalanish uchun ruxsatnomalar beriladi. *Foydalanuvchilar esa Yer kodeksining II bob, 79–82-moddalarida belgilangan yerlarni muhofaza qilishning quyidagi ekologik talablariga rioya etishlari shart:*

- obyektlar, imoratlar va inshootlarni joylashtirish, qurish va ulardan foydalanishda yerlarning holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yangi texnologiyalarni joriy etish chog‘ida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi ruxsatnomalarini olish;
- har bir xo‘jalik jarayonini ekologik ekspertizadan o‘tkazish;
- yashil maydon, dov-daraxtlarni iloji boricha saqlab qolish;
- rekultivatsiya qilish;
- maishiy va sanoat chiqitlarini tashlaydigan rezyervuarlar tashkil etish va h.k.

Shaharsozlik kodeksining 29-moddasida ko‘rsatilganidek, shaharlarda aholini joylashtirishda atrof-muhit holatini mo‘tadillashtirish maqsadida:

* alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar;
* suv obyektlarini muhofaza qilish zonalari;
* rekratsion hududlar;
* ekstremal tabiiy-iqlim sharoitlariga ega bo‘lgan hududlarni tashkil etish belgilangan.

Shaharlarni rivojlantirish loyihalarida, albatta, ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi talablarni inobatga olish, aholi punktlari rejalarida aholi soniga qarab, sanitar-gigienik me’yorlarni o‘rnatish talab etiladi. Shaharsozlik kodeksining VI bobida shahar atrofi asosan ekologik va sanitar funksiyalarni bajaruvchi zonalardan iborat bo‘lishi prioritet (birlamchi) norma tariqasida o‘rnatilgan. Mazkur qonunning VII yakunlovchi bobida ekologik, rekratsion, sanitar-gigienik tadbirlar davlat byudjeti, buyurtmachilar, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi ifodalangan.

Shaharlarda uy-joy, korxona, inshoot va boshqa obyektlarni loyihalash, joylashtirish, qurish va ishga tushirish mobaynida aholining ichimlik suvga bo‘lgan hamda maishiy ehtiyojlarini qondirish talablarini birinchi navbatda inobatga olish sharti bilan suvdan foydalanishlari «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 11-moddasida bayon etilgan. Ushbu qonun bo‘yicha aylanma harakatdagi suvlarning bug‘lanishi, ifloslanishi va kamayib ketishining oldini olish, suv obyektlarining boshqa tabiiy obyektlarga zarar yetkazishiga yo‘l qo‘ymaslik, sho‘rlanish, zax bosish va qurib qolishdan muhofaza qilish talablari qo‘yiladi.

Toza ichimlik suvidan oqilona foydalanish maqsadida katta shaharlarda, xususan, Toshkentda maishiy xizmat va ichimlik suvidan fuqarolarning foydalanish limitlari, «Suvsoz» trestlari 2009-yilga kelib jon boshiga 9,9 m^3/oyiga yoki 118,8 m^3/yiliga suv sarfi me’yori belgilangan. Limitdan ortiqcha foydalangan shaxslardan suvning har bir metr kubiga 64% ustama narxlar to‘lash orqali amalga oshiriladi.

Suvdan va umuman tabiiy resurslardan foydalanishni cheklash barcha rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan me’yor bo‘lib, bu tadbir tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Gretsiya, Isroil kabi mamlakatlar qonunchiligida suvlardan samarali foydalanish o‘ta qattiq boshqaruv va nazorat ostiga olingan tadbir bo‘lib, u chuchuk suvning zaxirasi, sanoat tarmoqlari va aholining zichligi bilan bog‘liq holda olib boriladigan masalalar toifasiga kiradi.

Shahar va aholi punktlarida, uning atrofidagi yashil mudofaa tegralarida Yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonunga muvofiq yer qa’rining ayrim uchastkalaridan foydalanish cheklangan yoki taqiqlangandir.

Shunday qilib, shaharlarda ekologik xavfsizlikni ta’minlash o‘ziga xos huquqiy boshqaruv va nazorat tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

3. Agrar zonalarda atrof-muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash

FAO va YuNEP kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlariga ko‘ra[1] Yer planetasi aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirish uchun har bir kishiga kamida 0,5 ga yer maydonida qishloq xo‘jaligini yuritish kerak bo‘ladi. Lekin mazkur me’yor jahon bo‘yicha 0,11 ga teng. Shuning uchun ham turli iqlim mintaqalari agrar zonalarida «Yer bosimi» me’yordan 3-5 barorbar yuqori. Masalan, agrar zonalarda yer degradatsiyasi (mln. km^2):

- chorva mollarini noto‘g‘ri haydash orqali – 6,8;
- tropik o‘rmonlarini kesish natijasida – 5,8;
- qishloq xo‘jaligi yuritish madaniyatining pastligi tufayli – 5,5;
- ovqatni tayyorlash uchun buta va daraxtlarni kesish natijasida – 1,4;
- shahar, yo‘l va industrial obyektlarni qurish natijasida – 1,1;
- kollektor-drenaj tizimining yo‘qligi yoki takomillashmaganligi tufayli – 0,4.

Natijada cho‘llanish jarayoni Dunyo bo‘yicha yiliga 6,9 mln.ga teng. Ekotizimlarning ifloslanishi, og‘riqlanishi va degradatsiyasi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda o‘ta xavflidir.

O‘zbekiston Respublikasi agrar-industrial mamlakat bo‘lib, aholisining 60 foiziga yaqini qishloq joylarda istiqomat qiladi, ishlab chiqarish salohiyatining 1/3 qismi va tashqi savdoning 55% qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq. Ishlab chiqarishda band bo‘lgan aholining har ikkitasidan biri agrar sanoatdadir. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov Vazirlar Mahkamasining deyarli hamma yillik hisobotlarida, Oliy Majlisning barcha qo‘shma yig‘ilishlarida, albatta qishloq xo‘jaligida tub islohotlarni o‘tkazish zarurligi, uning natijasi esa mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi omil ekanligini uqtirib o‘tgan.

[1] *А.Эргашев и др.* О стратегии устойчивого использования водно-земельнқх ресурссов в сельском хозяйстве Центральной Азии// Ерлардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг институционал масалалари. – Т., 2012. – С. 36-40.

Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston, qadimdan dehqonchilik qilib kelinadigan o‘lka hisoblanadi. Tub aholining tirikchiligi ham, tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlari ham qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ulardan tayyorlangan mahsulotlar hisobiga amalga oshirilgan. Chor Rossiyasi va sobiq Ittifoq davrida, ya’ni XIX asrning ikkinchi yarmidan to shu kungacha agrar soha mayda va o‘rta qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishdan yirik tovar ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklariga aylantirildi. Mustaqillik davrigacha Turkiston o‘lkasi mustamlaka o‘lka bo‘lib, SSSRning Yevropa qismidagi korxonalarga paxta, teri, ipak tolasi, meva mahsulotlari kabi xomashyo mahsulotlari yetkazib berar edi. XX asr boshida O‘zbekistonda 1,7–1,8 mln. ga sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan yerlar maydoni shu asrning 80-yillariga kelib 4,3 mln. gektarga etdi. Qishloq xo‘jalik maqsadlarida o‘zlashtirilayotgan yerlar avvaliga tabiiy iqlim sharoiti o‘ta qulay bo‘lgan hududlar – Chirchiq, Ohangaron, Zarafshon, Surxon – Sherobod, Qashqadaryo, Quyi Amudaryo, O‘rta Sirdaryo vohalari, Farg‘ona vodiylarida amalga oshirildi. Aholining eng zich bo‘lgan maydonlari ham aynan shu agrar tegralarda joylashdi.

Kundan-kunga ko‘payib borayotgan aholi va agrar sanoat talabi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ekstensiv tarzda oshirib borishga majbur etmoqda. Atrof tabiiy muhitga, ayniqsa, agrar hududlarda yerga bo‘lgan antropogen bosim darajasi juda kuchayib ketdi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning ekstensiv metodini (ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga mahsulot miqdorini oshirish) tanlagan sobiq Ittifoqda tabiiy obyektlarning ekologik holati keskin yomonlashib ketdi. Mutaxassislarning ma’lumotlariga ko‘ra[1] keyingi bir asr mobaynida sho‘rlangan yerlar maydoni 2 mln. gektarga, shamol va suv eroziyasiga uchragan yerlar 3–3,5 mln. gektarga etdi, kimyoviy ifloslanish butun sug‘orma yer fondining 75–80% ni tashkil qildi. 25–28 mlrd. kub metrni tashkil qilayotgan oqova va tashlandiq suvlar

[1] *Yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning institutsional masalalari*. – T., 2012. – 380 b.; *Т.Е.Старцев, Я.К.Козел.* Итоги Советской ирригации в Средней Азии. – Т., 1934. – С. 146.

Amudaryo va Sirdaryolarni, oxir-oqibatda esa Orol dengizi suvlarining sho‘rlanganlik darajasini 2–3 barobarga, zararli moddalar – pestitsid, gerbitsid, azot, fosfor, kaliy elementlarining miqdorini ruxsat etilgan me’yordan (PDK) 3–4 barobarga ko‘payib ketishiga sabab bo‘ldi. Dalalarni dorilashning «aero» metodi agrar tegralardagi yovvoyi yoki madaniy o‘simlik va hayvonot dunyosiga, atmosfera havosining sifatiga, odam organizmi uchun xavfli bo‘lgan toksikan (zararli) moddalarning suvlarda ko‘payishiga olib keldi. Yangi o‘zlashtirilgan tipik bo‘z tuproqlarda uchraydigan va uning unumdorligi haqida morfologik ko‘rsatma beradigan yomg‘ir chuvalchangi miqdori tuproqning har bir metr kubida 300–1200 dan 1–2 donagacha tushib ketdi yoki umuman uchramaydigan bo‘lib qoldi.

Agrar zona – *qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi bilan band bo‘lgan hudud.*

Agrar zonalarda yuzaga kelgan salbiy ekologik holatlar kishilarning hayotiga keskin ta’sir qiladi. Yu. Shodimetovning ma’lumotlariga ko‘ra[1], pestitsidlar keng qo‘llanadigan hududlardagi aholi orasida nafas olish, endokrin, yurak-qon tomir, jigar kasalliklari, kamqonlik, aqliy etishmovchiligi bo‘lgan bolalar tug‘ilishi, rak va ginekologiya kasalliklari boshqa noagrar hududlardagidan 2–3 marotaba ko‘p uchraydi. Qishloq joylarda 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarda temir moddasi yetishmaydigan kamqonlik, faol sil kasalligi, virusli gepatit (sariq kasallik) va yuqori nafas yo‘llariga mikroblar o‘tiradigan kasalliklar tez-tez kuzatilib turildi. 1980-yillarga kelib pestitsidlardan 80 tagacha o‘tkir va 60 tagacha surunkali zaharlanish qayd etilgan.

Bu esa agrar tegralarda antropogen ta’sirning kuchayishiga olib kelmoqda. *Antropogen bosim natijasida yuzaga kelgan salbiy ekologik holatni 3 guruhga ajratish mumkin.*

Birinchi guruhga qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqarishning negizi bo‘lgan tabiiy obyektlarning buzilishi: a) turg‘unlik yillarida paxta yakkahokimligi va almashlab ekishning yo‘lga qo‘yilmaganligi oqibatida tuproq unumdorligining pasayib ketishi; b) tuproqlarning sho‘rlanishi, eroziyaga uchrashi (suvdan yuvilishi), deflyatsiyalashuvi

[1] *Ю.Шодиметов.* Ижтимоий экологияга кириш. – Т.: «Ўқитувчи», 1994. – 171–172-б.

(shamol orqali uchirilishi), botqoqlashuvi, ifloslanishi, agrokimyoviy va agrofizik ko‘rsatkichlarining yomonlashuvi, mikroorganizmlarning kamayib ketishi, kimyoviy tarkibining buzilishi; d) suv ta’minotining buzilishi va sug‘orma suvlar kimyoviy tarkibining yomonlashuvi; e) foydali organizmlarning (changlatadigan, zararli hasharot kushandalari, sanitar hayvonlar) qirilib ketishi; f) tabiiy yaylovlar ishlab chiqarish qobiliyatining pasayishi; g) cho‘llanish va tabiiy geodinamik (surilma, jarlanish, o‘pirilish, cho‘kish, degish, solyuflyuksiya, abraziya) jarayonlarining ortib borishi.

Ikkinchi guruhga ekologik salbiy oqibatlarning kuchayishini ko‘rsatish mumkin. Bu nafaqat qishloq xo‘jaligiga, balki atrof-muhitning buzilishi natijasida boshqa xalq xo‘jaligi sohalariga zarar etishidir. Misol uchun, gidrografik obyektlar (ko‘l, daryo, suv omborlari, kollektor-drenajlar)ning ifloslanishi va ulardagi hayvonot dunyosining kamayishi; o‘rmon va to‘qayzorlarning kamayib ketishi; yovvoyi turdagi hayvonot va o‘simlik dunyosi yashash muhitining torayib qolishi; atmosfera havosining tarkibida tuz, chang, og‘ir metall kabi kimyoviy moddalarning ko‘payib ketishi; ovchilik va baliqchilik xo‘jaligining oqsab qolishi; qo‘riqxona va buyurtma qo‘riqxona singari alohida muhofaza talab etadigan hududlarning muhofaza tartibining buzilishi va hokazo.

Uchinchi guruhga insonlar yashash muhitining agrar tegralarda yomonlashuvini olsak bo‘ladi. Buning natijasida sobiq Ittifoq davrida XX asrning 70–80-yillariga kelib qishloq aholisining o‘rtacha umr ko‘rish davri 3–5 yilga qisqargan.

Yuqorida keltirilgan salbiy oqibatlarning 3 guruhi davlatning agrar siyosatidagi iqtisodiy talablar bilan ekologik talablarni o‘zaro uyg‘unlashgan holda olib borishni talab etadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mustaqilligimizni mutahkamlovchi omil sifatida, – «Dehqonchilik madaniyatini ko‘tarish tuproq holatining yaxshilanishi va atrof-muhitning ifloslanishining oldini olishi uchun kerak»[1], – deb bekor aytmagan. Bu o‘rinda jamiyatdagi agrar munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asosini yaratish zamon talabidir. Mazkur dolzarb muammoning qonuniy asosi 1998-yil aprel-mayda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respub-

[1] *И.А.Каримов.* Қишлоқ хўжалиги тараққиёти – тўкин ҳаёт манбаи // Халқ сўзи. 1997 йил 26 декабрь.

likasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qishloq xo‘jaligiga oid qabul qilingan bir qator qonunlarda o‘z aksini topdi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun, avvalambor, agrar tegralarni Ekologiya huquqining alohida bir antropogen o‘zgargan va o‘ziga xos «obyekti» deb qarashni taqozo etadi. Agrar zonalarda jamiyatdagi munosabatlarni huquqiy boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish talab qilinadi va ushbu qarashlar tizimi davlatning milliy xavfsizlik konsepsiyasining asosiy elementlaridan biri bo‘lib qolishini ta’minlash darkor.

Sh.X.Fayziyev[1] tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligida ekologik xavfsizlik qoida va talablariga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish davlat va huquqning vazifasi deb qaralishi to‘g‘ri talab etilgandir. Muallif qishloq xo‘jaligida ekologik xavfsizlik talablari Konstitutsiyamizning alohida bir «Davlatning ekologik siyosati» bo‘limida aks etishi kerakligini yoqlab chiqqan. Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunida «Qishloq xo‘jaligida ekologik xavfsizlik talablari» degan alohida bir modda kirgazilishi juda ham maqsadga muvofiqligini ko‘rsatib o‘tgan.

Agrar zonalarda tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ma’rifiy, siyosiy va huquqiy choralari mavjud. Ulardagi ekologik xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy choralarini 2 guruhga ajratish mumkin. *Birinchisi*, xo‘jalik yuritishning ekologik me’yorlarini ishlab chiqish va amaliy tatbiqini ta’minlash; *ikkinchisi* – antropogen buzilgan tegralarni sog‘lomlashtiruvchi me’yorlarni ishlab chiqish va ularni hayotga keng tatbiq qilish.

Har ikkala huquqiy guruh chora-tadbirlarining, avvalambor, konstitutsiyaviy asosini yaratish kerak bo‘ladi. Xo‘jalik yuritishning salbiy-ekologik oqibatlarining oldini olishning konstitutsiyaviy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob 50-moddasida fuqarolarning atrof tabiiy muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish majburiyatidan kelib chiqadi. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida yuzaga kelayotgan barcha turdagi mulkdorlar o‘z mulkidan foydalanishlarida atrof-muhit

[1] Ш.Х.Файзиев. Конституционные проблемы обеспечения экологической безопасности в Республике Узбекистан // Независимость и мировозрение: реальность и философские проблемы возможностей развития. Часть 2. – Т.; «Фан», 1993.

holatiga zarar yetkazmasliklari sharti qo‘yilgan (54-modda). Davlatga (55-modda), jumladan, mahalliy hokimiyatlarga (100-moddaning 5-bandi) tabiiy zaxiralarni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilish majburiyati yuklatiladi. Lekin jamiyatning ekologik xavfsizligini, xususan, agrar tegralarda ekologik inqirozning oldini olishning konstitutsiyaviy asoslari Bosh qomusimizning alohida bir «Davlatning ekologik siyosati» bobida aks etgani ma’qul, deb mutaxassislar fikr bildirmoqdalar. «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga esa «Qishloq xo‘jaligida ekologik xavfsizlik talablari» deb nomlangan alohida bir modda kirgazilishi juda ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aks holda, xalq xo‘jaligimizning yetakchi sohasi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ekologik talablar yetarli darajada namoyon bo‘lmasligi mumkin.

1998-yil 18-martdagi Prezident Farmoniga binoan tasdiqlangan «1998–2000-yillardagi davrda qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish Dasturi»da dehqonchilik tizimini rivojlantirish uchun yerdan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini ta’minlash uchun: tuproq unumdorligini oshirish chora-tadbirlarini qo‘llash; yerdan foydalanish, sifatini aniqlash va baholashni tartibga solish chora-tadbirlarini ishlab chiqish; ekin maydonlari tuzilmasini maqbullashtirish, tumanlarda qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirishni ixtisoslashtirish; noan’anaviy qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish ko‘zda tutilgan edi.

Dasturning qishloq xo‘jaligini kimyoviylashtirish va o‘simliklarni himoya qilish bo‘limida hech qanday ekologik talablar nazarda tutilmagan. Ekologik xavfsiz qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqishning huquqiy chora-tadbirlari belgilanmagan.

Yerlarni irrigatsiya va meliorativ holatini yaxshilash chora-tadbirlarida ham yangi yerlarni o‘zlashtirishning ekologik talablari yoki eski texnogen buzilgan yerlarning ilmiy asosda qayta tiklash talablari bayon etilmagan. Vaholanki, har yili qishloq xo‘jaligidagi sug‘orma yer fondidan boshqa xalq xo‘jaligi maqsadlari uchun 15–20 ming gektar yer ajratilmoqda. Bunday yo‘qotuvning o‘rnini qoplash maqsadida sho‘rlangan, botqoqlangan, eroziyaga uchragan agrar tegralardagi tashlandiq maydonlarni o‘zlashtirish haqida hech narsa deyilmagan. Bizlarga ma’lumki[1], respublikamizda 0,5 mln. gektardan oshiq jarlan-

[1] *А.Н.Нигматов.* Геоэкологические аспекты овражной эрозии и техноегнной нарушенности земель Узбекистана. – Т.: Изд. НУУз, 2005. – 240 с.

gan va texnogen buzilgan yerlarni qishloq xo‘jalik oborotiga qaytarsa bo‘ladi. Lekin meliorativ tadbirlar qonunchilikda o‘ziga xos me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Qishloq xo‘jaligida o‘zaro moliya va kredit munosabatlari, hisobga olish va hisobotni takomillashtirish bo‘limida ekologik chora-tadbirlar uchun qo‘shimcha byudjet ta’minoti va imtiyozli kreditlar ajratish ko‘zda tutilmagan. Ekologik rag‘batlantirishning iqtisodiy mexanizmi ko‘rsatilmagandir.

Qishloq infratuzilmasini rivojlantirishda ortiqcha mehnat potensialidan, qulay tabiiy-iqlim va mineral xomashyo resurslaridan nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, ma’rifiy, madaniy balki ekologik-estetik nazardan unumli foydalanish ko‘rsatilmagandir.

Xulosa qilib aytganda, 1999–2000-yillardagi davrda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi asosan agrar tegralarda iqtisodiy masalalarning yechimini topishga qaratilgan bo‘lib, «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining prinsipi – «Iqtisod bilan ekologik tadbirlarni o‘zaro uyg‘unlashgan holda olib borish»ni inobatga olmagan edi. Vaholanki, qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarning maqsadi[1] qishloq aholisining farovonligi va agrar sanoatining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish. Xalq farovonligining eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri – ekologik xavfsiz muhitda sog‘-salomat yashashdir.

1. Yuqorida aytib o‘tilgan Dastur asosida qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida, xususan, Yer kodeksi, Qishloq xo‘jalik kooperativi (shirkat xo‘jaligi), Fermer xo‘jaligi, Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risidagi, Davlat yer kadastri hamda O‘zR Vazirlar Mahkamasining 1999-yildagi 299, 300-sonli qarorlarida tabiiy boyliklardan samarali foydalanish va ekologik talablar qishloq xo‘jalik subyektlarining huquq va majburiyatlariga kirgizilgandir. Undan tashqari davlat ijroiya hokimiyatining regional turdagi – «Zarafshon daryosi havzasida ekologik va sanitariya-epidemiologik vaziyatni yaxshilash to‘g‘risida» (04.10.2001 y. 401-sonli), universal turdagi – «2006–2010-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida» (16.03.2006 y. 48-sonli) va «2011–2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit davlat monitoringi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida» hamda «Boshoqli don ekinlari somonini yoqib yuborilishi natijasida yetkaziladigan zararni aniqlash hamda ushbu holatlarni sodir etgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan jarimalar qo‘llash bo‘yicha nizomni tasdiqlash haqida»gi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Moliya vazirligining 2006-yil 25-dekbrdagi 1647-sonli qo‘shma qarori misol qilib keltirish mumkin.

[1] *И.А.Каримов.* Деҳқончилик тараққиёти – фаровонлик манбаи. – Т.: «Ўзбекистон», 1994. – 71-б.

2000-yil 25-maydagi Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi qonunning 9-moddasiga muvofiq, har bir tadbirkor (jumladan, fermer va dehqon xo‘jaligi) o‘z faoliyatida ekologik talablarga rioya etishi shart, aks holda uning faoliyati to‘xtatilishi (48-modda) va u javobgarlikka tortilishi (51-modda) mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Agarda tadbirkorlar (jumladan, qishloq xo‘jaligida faoliyat yurgizayotganlari) suvdan samarali foydalansalar, mahalliy davlat hokimiyatlari tomonidan rag‘batlantirish me’yorlarini (V bob) qo‘llashlari ham inobatga olingan. Bunday ijobiy-huquqiy metodni qo‘llash mamlakatimiz qonunchiligida ekologiyalashtirishga tomon qo‘yilgan katta qadamdir.

Afsuski, «Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida»gi qonundan farqli «Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida»gi qonunda (27-modda) dehqonlarning noekologik harakatlari ular faoliyatining to‘xtatilishiga asos bo‘lishi inobatga olinmagan. Dehqon xo‘jaligi mayda qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqarishga va uncha katta bo‘lmagan (0,35 gektargacha) yer uchastkalaridan foydalanish huquqiga ega. Lekin ularning soni va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tutgan salmog‘i bo‘yicha agrar sanoatda yetakchi o‘rinni egallashini inobatga oladigan bo‘lsak, dehqon xo‘jaliklarini tugatishga sabab bo‘lib ekologik talablar ham olinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Agrar sanoat korxonalari, muassasalari, tashkilotlari va kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari)ning prinsiplaridan biri yerlarni muhofaza qilish va tuproq unumdorligini oshirishni ta’minlashdir. 1998-yil 30-apreldagi Qishloq xo‘jalik kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risidagi qonunga muvofiq, agrar tegralarda ekologik talablar faqatgina yerlargagina qo‘llaniladi, xolos. Lekin u hamma xo‘jalik faoliyati jabhasida va hamma tabiiy obyektlar bo‘yicha olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham agrar tegralar bo‘yicha yoki unga bevosita yoxud bilvosita ta’sir etishi mumkin bo‘lgan qonun hujjatlarida

ekologik talablarning alohida bob yoki modda qilib berilishi ekologik xavfsizlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.

Yer kodeksining asosiy maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab, yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, tabiiy xususiyatlarini asrash va yaxshilashdir. Yer esa qishloq xo'jalik ishlab chiqarish vositasidir va shuning uchun ham undan, avvalambor, qishloq xo'jaligida foydalanishlik Kodeksda ko'zda tutilgan. Kodeksning 2-moddasi 6-bandiga binoan, yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplaridan biri – yerga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdir. Ushbu prinsip Davlat boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari doirasida ham aks ettirilgandir. Masalan, Vazirlar Mahkamasi yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishning yagona siyosatini olib boradi, mahalliy hokimiyatlar o'z hududlarida ekologik tadbirlarni ishlab chiqadilar va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladilar.

Yer kodeksining «Yer tuzish», «Yerga bo'lgan mulkchilik, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari va majburiyatlari»da ekologik talablar alohida band sifatida berilgan. Kodeksning 6-bobida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarishning asosiy omillaridan biri yerni haqiqiy egalariga bo'lib berish ekanligi aniq qilib ko'rsatilgan. Yerlarni qishloq xo'jaligida muhofaza qilishning mazmuni (11-bob) va tartibi (79-modda) irrigatsiya, melioratsiya va boshqa qishloq xo'jalik inshootlarini qurish, loyihalash va ulardan foydalanishga oid ekologik talablar (80–81-modda) va bu talablarni o'z muddatida bajarganlar uchun iqtisodiy rag'batlantirish yo'llari (82-modda) ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'rsatilganidek, agrar tegralarda faoliyat yurgizayotgan subyektlar ekologik xavfsiz muhitga ta'sir etuvchi noqonuniy bitimlar tuzgani; unumdor yerlarni o'zboshimchalik bilan egallagani; turli sanoat, maishiy va yakka tartibda uy-joy qurganligi; tuproq unumdorligini yoki kadastr ma'lumotlarining keskin ravishda yomonlashib ketishiga sabab bo'luvchi harakat yoki harakatsizliklar qilgani; atrof-muhit va yerlarni kimyoviy ifloslantirganliklari yoki fizik buzganligi; zaharli modda va birikmalarni saqlash, tashish va qo'llash talablarini buzganligi natijasida yerlarning sifat ko'rsatkichlarini yomonlashtirib yuborganligi

uchun Jinoyat kodeksining 193–197, 201, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 65–69, 8, 91, 95, 96, Fuqarolik kodeksining 111, 173, 214, 231, 516, 517, 541, 542, 551 hamda Yer kodeksining 90, 91-moddalariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Agrar zonalarga yer resurslaridan tashqari, zarar yetkazish mumkin bo'lgan tabiiy obyektlar – suv resurslari, yovvoyi turdagi hayvonot, o'simlik dunyosi va ularning yashash muhiti ham kiradi.

Suv resurslaridan qishloq xo'jaligida asosan sug'orish hamda chorva mollarini ichimlik suvi bilan ta'minlashda foydalaniladi. Foydalanishdagi ekologik talablar suvlarning kamayib ketishi, bulg'alanishi va ifloslanishining oldini olishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham 1993-yil 6-mayda qabul qilingan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning XIII bobiga muvofiq, qishloq xo'jaligi huquqi subyektlari suvdan maxsus foydalanishlari mobaynida yer osti va usti suvlaridan foydalanishning ekologik talablariga qat'iy rioya etishlari, suvlarni sug'orish, oqizish davomida ortiqcha suv o'tkazuvchanlik (filtratsiya) va bug'lanishga yo'l qo'ymaslik shartlari zikr etilgan.

Agrar tegralarda gidrotexnik, maishiy, sanoat, madaniy va boshqa inshootlarni qurish mobaynida suvdan, ayniqsa, chuchuk suvdan foydalanishning samaradorligini ta'minlash, ularni ifloslanish, zaharlanish hamda tuproqlarning yuvilish, sho'rlanish, botqoqlanishiga sabab bo'luvchi oqibatlarning oldini olish choralarini ko'rishlari shart. Suv qonunchiligi O'zbekistonda suv obyektlarini agrar tegralarda ifloslantirishi, buzilishi va yomonlashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan obyektlarni loyihalash, ishga tushirish, qurishni man qiladi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining BO' 118.00277 19.5–91[1] – «Suv obyektlariga tashlandiq suvlar bilan oqizish me'yori loyihalarini ishlab chiqish va ro'yxatlash tartibi»; BO' 118.0027714.50–95 – «Chorvachilik komplekslarida suvlarni muhofaza qilishning davlat nazorati bo'yicha metodik qo'llanma»; BO' 118.0027714.6–92 – «Suvlardan maxsus foydalanishga ruxsat berish va kelishish tartibi» kabi boshqaruv hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Lekin bu boshqaruv hujjatlarning davlat standarti qilib hanuzgacha sobiq Ittifoq davrida ishlab chiqilgan GOST 17.1.3.04–82 – «Yer osti va usti suvlarining pestitsidlardan ifloslanishini muhofaza qilish talablari»; GOST 17.1.3.11–84 – «Mineral o'g'itlardan yer osti va usti suvlarining ifloslanishini muhofaza qilish talablari»; GOST 17.1.3.13–86 – «Yer usti suvla-

rining ifloslanishidan muhofaza qilishning umumiy talablari»; GOST 17.4.3.05–86 – «Sug‘orish va o‘g‘itlashda oqova suvlar va ularni yotqiziqlariga qo‘yiladigan talablar»; San P i N № 4630–88 – «Yer usti suvlarini ifloslanishidan muhofaza qilishning sanitar qoidalari va me’yorlari» kabi me’yoriy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va zamon talabiga moslashtirish zarur.

Amaldagi ekologik qonun hujjatlariga muvofiq chorvachilik komplekslarining katta-kichikligiga qarab, ularning atrofidagi sanitar zonalar chegarasi 3 kilometrgacha bo‘lgan halqani qamrab oladi. Baliqchilik havzalari atrofidagi himoya zonalari esa qishloq xo‘jaligi mintaqalarida 2 kilometrgacha bo‘lishi kerak. Agarda bu zonalarda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiriladigan bo‘lsa, tuproq va madaniy o‘simliklarni o‘g‘itlash yoki kimyoviy moddalar ishlatish yog‘-moy, organik va mineral o‘g‘it yoki boshqa kimyoviy moddalarni saqlash uchun omborlar qurish, chorvachilik komplekslarini barpo qilish va ulardan chiqadigan organik o‘g‘itlarni saqlash qat’iyan man qilinadi.

Agrar tegralarda tabiiy turdagi o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunlarda ko‘rsatilganidek, har bir subyektdan maksimal darajada biologik genofondni saqlab qolishga harakat qilishlarini talab qiladi. Meliorativ inshootlar qurishda baliqlarni muhofaza qilish qurilmalarini tashkil etish, sholi, bug‘doy, beda kabi qishloq xo‘jaligi o‘simliklarini yig‘ishtirib olish davrida yovvoyi turdagi qush va hayvonlarni saqlab qolish choralarini ko‘rish ko‘zda tutilgan.

Lekin mutaxassislarning ma’lumotlariga ko‘ra, agrar tegralarda 30–70% tabiiy turdagi hayvonlar va o‘simliklar dunyosi qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, melioratsiyalash va madaniy o‘simliklarni yetishtirish davrida nobud bo‘lmoqda. Shuning uchun hosilni mexanizatsiyalar yordamida yig‘ishtirib olish paytida hayvonot dunyosini muhofaza qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va ular hosilni mexanizmlar yordamida yig‘ishtirib olishni daryo, o‘rmon yoki tabiiy saqlangan joylardan boshlamaslik, hayvonlarni shu tomonlarga ko‘chib o‘tish imkonini beruvchi normalar bilan to‘ldirish zarur. Amaldagi ekologik qonunchilik qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan tabiatga yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha talablarni qo‘ysada, lekin hanuzgacha aniq bir ilmiy asoslangan boshqaruv, nazorat va ekspertiza hujjatlarining yo‘qligi ajablanarli holdir.

1981-yilda qabul qilingan «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonundan farqli 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan shu nomdagi milliy qonunimizda atmosfera havosini tabiiy resurs sifatida qarab, uni muhofaza qilish nafaqat insonlar, balki himoyasiz tabiiy turdagi o‘simlik va hayvonot dunyosi uchun kerakligi inobatga olingan. Yangi qonunga muvofiq (18-modda) agrar tegralarda kimyoviy moddalarni, ayniqsa pestitsid, gerbitsid, defolantlar va mineral o‘g‘itlarni samolyotdan turib sepish man qilinadi. Ularni faqatgina yerdan turib ishlatish mumkin. Bu esa atrof-muhitni agrar tegralarda sog‘lomlashtirishga tomon qo‘yilgan katta huquqiy qadamdir.

4. Sanoat zonalarida atrof-muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash

Ekologik va iqtisodiy talablarni ma’lum bir iqtisodiy kengliklarda amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish va amaliy tatbig‘ini yo‘lga qo‘yish jamiyatdagi ekologik munosabatlarni tartibga solishning eng samarali vositasidir. Ana shunday iqtisodiy kengliklardan biri sanoat zonalaridir.

Sanoat zonasi – *noqishloq va noo‘rmon xo‘jalik sanoat tarmoqlari joylashgan va ishlab chiqarish faoliyati yurgiziladigan hudud.*

Bunday zonalarga sanoat tarmoqlari yoki ularning majmuasi, ya’ni mashinasozlik va metallurgiya korxonalari, neft-gaz sanoati obyektlari, yengil va oziq-ovqat korxonalari, energetika obyektlari (AES, GES, GRES, TES), tog‘-kon, kimyo, qurilish sanoatiga qarashli zavod, fabrika va korxonalarni aholi punktlaridan chetga olib chiqilgan zonalari kiradi.

Sanoat zonalarida, biz yuqorida aytib o‘tganimizdek, atrof-muhitning ifloslanishi, buzilishi va ekologik xavfsizlik talablari boshqa antropogen o‘zgargan obyektlarga nisbatan o‘ziga xos bo‘lib, ularda *ekologik-huquqiy talablar* quyidagilardan iborat:

* texnologik jarayonlarning kamchiqitli va chiqitsizligini ta'minlash:

* ifloslantirish va zaharlanishni kamaytirish hamda zararli moddalarni neytrallashtirish (xavfsizlantirish);

* energiyaning alternativ turlaridan keng foydalanish;

* ekologik xavfsiz mahsulotlar chiqarish;

* tozalagich texnologiyalarini doimo takomillashtirib borish va ularni davlat nazoratida ushlab turish;

* ilmiy-texnologik jarayonlarni keng tatbiq qilish yoki tabiiy resurslardan juda yuqori darajada samaradorlik bilan foydalanishni yo'lga qo'yish va hokazo.

Bunday ekologik-huquqiy darajadagi talablar sanoat zonalaridagi korxonalarning hamma ishlab chiqarish bosqichlarida rejalash, loyihalash, joylashtirish, qurish, ishga tushirish va tabiatga ta'siri bo'lgan yangi texnologiyalarni joriy qilish jarayonini qo'llashni taqozo qiladi.

Sanoat zonalari yoki ularda biron-bir sanoat korxonasini joylashtirishni rejalashtirish xalq xo'jaligining sohaviy yoki umumiy iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida ekologik xavfsizlik talablarini inobatga olish bilan boshlanishi kerak.

Sanoat korxonalarini joylashtirishning asosiy nazorat hujjatlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning sohaviy, hududiy yoki bosh chizmalari hisoblanadi. Bu chizmalardan sanoat korxonalarini loyihalash muassasalari tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishning ruxsat etilgan me'yorlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Agarda loyihalanayotgan sanoat korxonasi shu zonadagi ekologik me'yor talablariga javob bermasa, loyihalash to'xtatilishi lozim[1].

Sanoat korxonalarini qurish vaqtida qurilish tashkilotlari loyihadagi ekologik va sanitar talablarni bilishlari va ularga to'la e'tibor berishlari kerak. Shu bilan birgalikda, loyihachilar – muallif nazoratini, quruvchilar – qurilish nazoratini, tibbiyot xizmatchilari – sanitar nazoratini amalga oshirishlari shart. Agarda sanitar va ekologik talablar qurilish davomida buziladigan bo'lsa, davlat nazorat organlari ularni bartaraf etish shartlarini ko'rib chiqishlari, kerak bo'lsa qurilish ishlarini to'xtatib qo'yish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha loyiha va qurilish ishlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilishlari mumkin.

[1] Справочник эколога-эксперта. – Т.:Госкомприрода, 1997. – 441 с.

Ko'pgina demokratik mamlakatlar qonunchiligida sanoat korxonalarini joylashtirish va qurishda jamoat birlashmalari va mahalliy aholining fikrlarini inobatga olish ko'zda tutilgan. Jamoatchilik talabi bilan Yevropada shimoliy daryolar janubga oqizilmaydigan bo'ldi, Qrim yarim orolining kurortlar tegrasida Qrim AES qurilishi, Germaniya va Belgiyaning ekologik inqirozli hududlarida TESlar qurilishi to'xtatildi.

Sanoat obyektlarini qurish jarayonida eng ko'p uchraydigan noekologik harakatlar – loyihalarni qayta ko'rib chiqish va qurilish ishlarini arzonlashtirish yoki inflyatsion jarayonlarni oldindan belgilashda «smeta» ko'rsatkichlarining to'g'ri kelmasligi oqibatida ekologiyalashgan texnologiyalarni o'rnatmaslik.

Sanoat zonalarida korxonalarni ishga tushirishdan avval, ularni ekologik ekspertizadan o'tkazish shartlari Ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunning 11-moddasiga muvofiq sanoat korxonalarining ishga tushirilishi ekologik xavfsizlikni ta'minlab berish imkoniyatiga ega bo'lmasa, ya'ni loyihada ko'zda tutilgan tozalovchi va chiqitlarni zararsizlantirish inshootlari qonun hujjatlaridagi me'yorlarga to'g'ri kelmasa, bunday sanoat obyekti o'z faoliyatini boshlay olmaydi. Korxonalarni qabul qilish komissiyasi tarkibida, albatta, ekologik va sanitar-epidemiologik nazorat organlari mutaxassislarining qatnashuvini ta'minlash darkor. Komissiya raisi va a'zolarining shaxsiy javobgarliklari Jinoiy va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarda alohida belgilangandir.

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 41-moddasida korxonalar, tashkilotlar va boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish va ularni tugatishga doir ekologik talablar belgilangan. Lekin mazkur moddada xo'jalik yurgizish vazifasi yuklatilgan sanoat yoki boshqa turdagi korxonalarni ishga tushirish bo'yicha muhim talablar nazarda tutilmagan.

Ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan korxonalarga ekologik guvohnomalar berish Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 46-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Ekologiya yoki gigiyena guvohnomasiga ega bo'lmagan, shuningdek, xo'jalik yuritish davomida belgilangan ekologik-sanitar mezonlarni buzgan korxonalar xomashyo va materiallardan foydalanishi, texnologiya jarayonlarini joriy etishi va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishi man etiladi. Ekologik

guvohnomalar berish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi va Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Sanoat zonalarida tabiiy resurslardan foydalanish limitlari va me’yorlari, atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni korxonalar tomonidan qoplashning huquqiy normalari Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning IV, V, XI boblarida keltirilgan bir qator moddalar va qonun osti normativ hujjatlar asosida tartibga solinadi. Sanoat zonalarida ekologik talablarni xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan buzganlarga, avvalambor, iqtisodiy javobgarlik choralarini qo‘llash (MJTK 50-modda), bu huquqbuzarliklar bir necha bor takrorlansa yoki bir marotaba qo‘pol ravishda buzilsa, yuridik javobgarlikning jinoiy jazo turlarini qo‘llash ko‘zda tutilgan.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Tabiiy va o‘zgargan ekotizimlarni tasniflab chiqing!
2. Atropogen o‘zgargan tabiiy hudud deb nimaga aytamiz?
3. Nima uchun atropogen o‘zgargan hududlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish yo‘llari alohida olib boriladi?
4. Qanday huquq manbalari orqali shaharlarda ekologik talablar o‘rnatiladi?
5. Shaharlarda atrof-muhitni muhofaza qilish talablari nimalardan iborat?
6. Ekologik-huquqiy me’yorlashni tabaqalashgan tarzda o‘rnatsa bo‘ladimi?
7. Agrar zonalarda ekologik munosabatlarni tartibga solishda nimalarga e’tibor qaratiladi?
8. Qanday antropogen jarayonlar qishloq xo‘jaligida salbiy ekologik oqibatlarga olib kelmoqda?
9. Fermer va dehqon xo‘jaliklariga oid maxsus qonunlarda qanday ekologik-huquqiy talablar qo‘yilgan?
10. Sanoat zonalarida me’yorlash qoidalarini normativ hujjatlar asosida jadval tariqasida yozib chiqing!
11. Antropogen o‘zgargan hududlar bo‘yicha o‘rnatilgan qanday yuridik javobgarliklarni bilasiz?

Tabiat qonunlari jamiyat qonunlariga bo‘ysinmasligi, ma’muriy-hududiy chegaralarga esa itoat etmasligi ham mumkin.

MAXSUS QISM

XVIII bob. ATROF-MUHITNI XALQARO-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

1. Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish tushunchasi va rivojlanish tarixi

Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 4-moddasidagi ekologik prinsiplardan biri «Tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, mintaqalararo va xalqaro manfaatlarni uyg‘unlashtirish»dir. Chunki tabiatda sodir bo‘layotgan jarayonlar va hodisalar, jamiyatdagidan farqli, na ma’muriy va na tabiiy chegarani biladi. Qirg‘izistonda Sirdaryo irmoqlarining radioaktiv moddalar bilan ifloslanishi, so‘zsiz, O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalarida atrof-muhitga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Chernobil yoki Orol dengizi ekologik fojialari nafaqat Sharqiy Yevropa yoki Markaziy Osiyo, balki butun Yer kurrasidagi insonlarning yashash huquqining zaruriy elementlaridan biri bo‘lgan ekologik xavfsiz muhit holatiga salbiy ta’sir etmoqda. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov BMTning 48, 50, 55-sessiyalari hamda Mingyillik Sammitida so‘zlagan ma’ruzalarida Orol muammosini xalqaro miqyosda hal qilishni taklif etdi va uning salbiy oqibatlarini nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo hamjamiyati uchun tahdid solayotgan dolzarb global masala qilib ko‘rsatdi.

Ekologiya huquqi manbalarining boshqa huquq sohasidagi manbalardan farqi yoki o‘ziga xos tomoni – milliy ekologik qonunlarda xalqaro-huquqiy me’yorlarini ko‘proq aks etganligidadir.

Atrof-muhitni xalqaro muhofaza qilish – *insonlarning ekologik xavfsiz muhiti va davlatlarning barqaror me’yorda rivojlanishini ta’minlovchi xalqaro huquq prinsiplari, normalari va munosabatlari yig‘indisi.*

Atrof-muhitni xalqaro miqyosda muhofaza qilish XIX asrning boshlarida yuzaga keldi. Avvaliga bu masala ikki davlat o‘rtasidagi tabiiy obyektlardan teng huquqli foydalanish ko‘rinishida namoyon bo‘lgan. Bunday ekologik munosabatlar ikki davlat o‘rtasida tuzilgan umumiy shartnomalar tarkibidan joy olgan. 1913-yil 17–19-noyabrda Shveytsariyaning Bern shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiya ekologik muammolarni xalqaro huquqning maxsus masalalari toifasi darajasiga ko‘tardi.

Kishilik jamiyati tarixida juda ko‘p siyosiy ziddiyatlarga boy davr bo‘lgan XX asrga kelib insoniyat kelajakda qanday qilib tinch va osoyishta hayot kechirishi kerak, degan fikr eng dolzarb masalaga aylanib qoldi. XX asrning 60-yillarida, ya’ni «sovuq urush» ayni avjiga chiqqan davrda, butun insoniyat va xalqaro hamjamiyatning diqqat e’tibori asosan yadroviy to‘qnashuvning oldini olishga qaratilgan edi. Ommaviy qirg‘in keltiruvchi qurollarning qo‘llanilishi va uchinchi jahon urushining boshlanishi Yer sayyorasidagi hayotning tugashi ekanligini barcha kishilar tushunib yetdilar. Bu urushda mag‘lublar va na g‘oliblarning bo‘lmasligi isbot talab qilmaydigan aksiomaga aylanib qoldi.

Global miqyosdagi yana bir muammolardan biri bo‘lmish – yoppasiga tarqalgan kasalliklar fan va texnika yutuqlari tufayli astasekinlik bilan orqaga chekina boshladi. Ammo aynan fan va texnikaning jadal suratlarda rivojlanishi hamda kishilar kundalik hayotiy talab darajasining jadal suratlarda o‘sishi boshqa global muammoni yuzaga keltirdi. Bu muammo «sovuq urush»dan yoki vabo kabi kasalliklardan farqli ko‘zga ko‘rinmaydigan, aksariyat hollarda yashirin tarzda kechadigan, lekin oqibati atom bombadan ham xavfliroq – atrof-muhitni muhofaza qilish, to‘g‘rirog‘i ekologik muammo edi (18.1.1-jadval). XX asrning 70-yillariga kelib insoniyat o‘zining nisbatan qisqa tarixiy bosqichida Yer kurrasidagi o‘rmonlarning 3/2 qismini kesib, 6 mlrd. gektar unumdor tuproqlarni qishloq xo‘jalik oborotidan chiqazib, kuniga biron-bir turdagi hayvonot yoki o‘simlik dunyosini yo‘qotib, 70 foizdan ortiq suv manbalarini ifloslantirib, atmosfera havosida esa is gazi miqdorini 20 mln. tonnaga oshirib, ozon tuynugini AQSh-dek katta mamlakat yer maydoniga teng bo‘lgan kenglikda ochib qo‘ygan edi. Oqibatda, jamiyatda yangi turdagi – allyergiya, OITS (SPID), yuqumli va surunkali o‘pka yo‘li va rak kasalliklari yuzaga keldi. Tug‘ilayotgan ayrim bolalarda mutantlik xususiyatlari, ya’ni

18.1.1-jadval.

Dunyo miqyosida insoniyatga xavf solayotgan global muammolarning davriy o‘zgarishiga olib kelgan sabab va oqibatlar.

Davr	*Muammolar*	*Sabablari*	*Oqibatlari*
XX asrning birinchi yarmi	1.Qurolli to‘qnashuvlar *(Urush muammosi)*	Gegemonlikni o‘rnatish va ta’sir doirasini kengaytirish uchun qurollanish.	O‘nlab million kishilarning «yostig‘i-ni quritish» va atrof-muhit holatini yomonlashuviga olib kelgan I va II-jahon urushlari.
	2. Ocharchilik *(Oziq-ovqat muammosi)*	Iqtisodiyot ko‘rsatkichlari past bo‘lgan davlatlarda aholining tez ko‘payishi.	Sotsial-gumanitar inqirozli holatning yuzaga kelishi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi.
	3. Ommaviy qirg‘in keltiruvchi kasalliklar *(Salomatlik muammosi)*	Sanitar-gigiyenik holatning yomonligi va tibbiyot sohasiga e’tiborning pastligi	Vabo, o‘lat, suvchechak kabi kasalliklarning ko‘payishi orqali gumanitar inqirozning yuzaga kelishi.
XX asrning 50-60-yillari	1. Ommaviy qirg‘in keltiruvchi qurollar *(«Sovuq urush» muammosi)*	Atom va vodorod bombalarini ko‘plab ishlab chiqarish orqali o‘z mavqeyini ko‘tarishga tomon harakat qilish	«Karib inqirozi» kabi o‘ta xavfli holatlarning yuzaga kelishi va aholini III-jahon urushi bilan qo‘rqitish.
	2. Ommaviy qirg‘in keltiruvchi kasalliklar *(Salomatlik muammosi)*	Sanitar-gigiyenik holatning yomonlashuvi va tibbiyot sohasiga e’tiborning pastligi.	Vabo, o‘lat, suvchechak kabi kasalliklarni ko‘payishi orqali gumanitar inqirozning yuzaga kelishi.
	3. Atrof-muhit muhofazasi *(Ekologik muammo)*	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va xo‘jalik faoliyatini ekologik talablarsiz olib borish.	Ekologik xavfsizlikni pasaya borishi va u bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ahvolning nochorlanishi.

Davr	Muammolar	Sabablari	Oqibatlari
XX asrning oxiri	1. Atrof-muhit muhofazasi *(Ekologik muammo)*	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va xo‘jalik faoliyatini ekologik talablarsiz olib borish.	Ekologik xavfsizlikni pasaya borishi va u bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ahvolning nochorlanishi.
	2. Geosiyosiy to‘qnashuvlar *(Mustaqillik muammosi)*	Rejali iqtisodiyotning tanazzulga uchrashi va yangi mustaqil davlatlarning paydo kelishi.	Ishlab chiqarishning pasayishi va hududiy mojarolarning yuzaga kelishi.
	3. Iqlim o‘zgarishi *(Ekologik muammo)*	Atmosfera havosiga chiqarilayotgan gazlar hisobiga «Issiqxona samarasi»ning yuzaga kelishi.	O‘rtacha haroratning ko‘tarilishi bog‘liq bo‘lgan tabiiy ofatlar, cho‘llanish jarayoni kabi oqibatlarning sodir bo‘lishi.
XXI asrning boshi	1. Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar *(Ekologik muammo)*	«Issiqxona samarasi»ning yanada kuchayishi orqali yillik iqlim rejimining keskin o‘zgarishi.	Ijtimoiy-iqtisodiy va cho‘llanish hamda biologik xilma-xillikni kamaya borishi jarayonlarni kuchayishi orqali kabi ekologik xavfni kuchayishi.
	2. Geosiyosiy to‘qnashuvlar *(Demokratsiya muammosi)*	Siyosiy va diniy qarashlarning birligi asosidagi ziddiyatlar.	Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikning pasayishi.
	3. Atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish *(Ekologik –ijtimoiy muammo).*	Tabiiy resurslardan oqilona va hamjihatlikda foydalanmaslik.	Tabiat komponentlariga qaratilgan mintaqaviy qarama-qarshiliklarning kuchayishi.

XXI asr bo‘sag‘asida insonlarning ekologik ong va tafakkurida keskin o‘zgarishlar davri bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Endilikda ekologik muammo har bir insonning qalbidan joy olib, hozirgi va kelajak avlodlar oldida mas’uliyat hissini uyg‘otmoqda. Lekin bu hissiyot amalda o‘z ifodasini topa olmayapti. Odamzodning yagona yashash makoni – Yer kurrasi ekanligi, atrof tabiiy muhit esa uning «o‘tirgan daraxtining sxohi» ekanligi, bu sxohni insoniyat o‘z faoliyati natijasida sekin-astalik bilan arralayotganligini anglab olishning o‘zi katta ekologik yutuqdir. Keyingi qadam esa xalqaro-huquqiy me’yorlarga asoslangan holda ekologik madaniyat va ma’rifatni o‘stirish, davlat boshqaruv va nazorat tizimida ekologik talablarni «birlamchi masalalar» turkumi darajasiga ko‘tarishdir.

Insoniyatning ekologik tafakkurining shakllanishiga sababchi bo‘lgan ekologiya fanining yuzaga kelishi va bu sohadagi ilmiy izlanishlarning keng qamrovli olib borilishi hamda atrof-muhit holati bo‘yicha ko‘pgina ma’lumotlarni oshkora qilinishidir. So‘nggi vaqtlar xalqaro «grand» uchrashuvlarida aynan inson huquqlari va uni ta’minlab beruvchi asosiy omillardan biri bo‘lgan ekologik xavfsizlik masalasi ularning kun tartibidan asosiy o‘rin oldi. Hatto 1999-yil oktabr oyida AQShning Gavayi shtatida bo‘lib o‘tgan Xalqaro yoshlar Kongressida qabul qilingan qarorga binoan butun dunyo yoshlari oldiga qo‘yilgan 3 asosiy dolzarb vazifalardan biri – ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish, deb belgilandi. Qolgan ikki vazifa o‘qish va milliy mojarolarni bartaraf qilishdan iborat.

Hozirgi zamon xalqaro *ekologik hamkorlik* uch yo‘nalishda amalga oshirilmoqda:

1) atrof-muhitni muhofaza qilishning davlatlararo va millatlararo hamkorligi hamda ulardagi ijobiy tajribalarni keng targ‘ib qilish;

2) mintaqada (regionda) yoki cheklangan zonalarda tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amaliy tatbiq qilish;

3) global ekologik muammolarning yechimini topishda xalqaro hamjamiyatning universal yo‘llarini ishlatish.

Atrof-muhit muhofazasi xalqaro miqyosda nafaqat ekologik talablar, balki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy talablarni ham o‘z ichiga qamrab olgan holda shakllanadi. Lekin nazariy jihatdan qaraganda tabiatni muhofaza qilish me’yorlari faqatgina xalqaro ekologik munosabat-

larni inobatga olishi kerak. Chunki ekologik muammolar dunyoviy muammolar – inson huquqlari, iqtisodiy, energetik, yadro urushi, oziq-ovqat, ta'lim kabi muammolar bilan uzviy bog'langandir. Ular milliy ekologik munosabatlar bilan bevosita yoki bilvosita aloqadorlikda bo'lgani uchun ham mahalliy, regional, global masalalar qatoridagi yagona muammolar tizimi sifatida qaraladi.

Agar o'tgan XX asrga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, unda naqadar keskin va katta o'zgarishlar davri bo'ldi, deyish mumkin. Bu foniy dunyoda inson tarixi 5 mln. yilga teng bo'lsa, o'tgan asr qolgan asrlarga tatigulik bosqich bo'ldi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki XX asrda dunyo ikki – sotsialistik va kapitalistik lagyerga bo'lindi, ikki jahon urushi deyarli hamma insoniyat sivilizatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, yoppasiga qirg'in keltiruvchi qurollar yaratildi va ishlatilib ko'rildi, ommaviy kasalliklar yuzaga keldi, qayta qurish orqali Dunyoning siyosiy xaritasida yangi davlatlar yuzaga keldi. Ha, bu asr misli ko'rilmagan fan va texnika yutuqlari, iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda, salbiy tusdagi siyosiy, ijtimoiy, ekologik inqirozlarga ham olib keldi. XXI asrda ushbu xatolarni qaytarish aslo mumkin emas, chunki jahon urushi, yangi qurollarni ishlab chiqarish va global miqyosdagi ekologik muammolarni keltirib chiqarish insonlarning «qiyomat qoyim» kunini yaqinlashtirishi hech gap emas.

Prezidentimiz Islom Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», deb bejiz aytmaganlar. Chunki inson tarixdan saboq chiqaradi. Erishgan yutuqlarini rivojlantiradi, qo'yilgan xatolarni qaytarmaslikka harakat qiladi. Biz ham ekologik jihatdan tarixga bir nazar tashlab ko'ramiz va tegishli xulosalar chiqarishga harakat qalamiz.

XX asrning 60-yillarida, ya'ni «sovuq urush» davrida butun insoniyat va ayniqsa, xalqaro hamjamiyatning tashvishi asosan yadro urushining oldini olishga qaratilgan edi. «Karib inqirozi»dan so'ng yadro quroliga ega bo'lgan davlatlar bir narsaga – atom, neytron, vodorod bombalarni ishlatish Yer kurrasida hayotning tugashiga olib kelishi, bu urushda mag'lublarning ham, g'oliblarning ham bo'lmasligi muqarrar ekanligiga butun dunyo hamjamiyati iqror bo'ldi.

Insonlar ko'ziga ko'rinmaydigan, lekin oqibati urushdan ham xavfli bo'lgan ekologik muammo yuzaga chiqdi. Chunki XX asrning 70-yillariga kelib insoniyat tarixi mobaynida Yer kurrasida 2/3 qism o'rmonlar kesilib ketdi, 6 mlrd. ga unumdor tuproqlar qishloq xo'jalik

oborotidan chiqazib yuborildi, yer yuzasidan kuniga bir turdagi hayvon yoki o'simlik dunyosi yo'q bo'lib bordi, 70 foizdan ortiq suv manbalari ifloslandi, atmosferada is gazining miqdori 20 mln. tonnaga ko'paydi, ozon tuynugi AQSh maydoniga teng bo'lgan kenglikda ochilib qoldi. Natijada, jahon aholisi orasida yoppasiga tarqalgan allyergiya, SPID, yuqumli va surunkali kasalliklar, o'pka yo'li va rak kasalliklari ko'payib ketdi. Tug'ilayotgan bolalarda mutantlik xususiyatlari paydo bo'la boshladi.

Atrof tabiiy muhitning inqirozli holati undan chiqib ketish yo'lini izlashga undadi. Rivojlangan mamlakat va hududlarning o'zidagina ekologik muammolarni hal qilish imkoniyati bo'lmadi. Chunki Orol, Chernobil kabi ekologik inqirozlar ta'siri Markaziy Osiyo yoki Ukraina ma'muriy chegarasida qolib ketmadi. Ular butun dunyo hamjamiyatiga ekologik zarar keltira boshladi. Hattoki, Orolning qurigan yuzasidan uchgan tuz Norvegiya o'rmonlaridan topila boshlandi, Chernobil AESning radioaktiv ifloslanishi Germaniyagacha bo'lgan hududni zaharladi.

Inson aql-zakovati yuqori pog'onaga ko'tarilgan bir davrda bunday ayanchli holat sababini atrof tabiiy muhitning inqirozli holatini tushunib yetgan bir guruh fan, madaniyat, maorif va davlat arboblaridan iborat bo'lgan kishilar ekologik oqibatdan chiqib ketish rejasini ishlab chiqish maqsadida «Rim klubi»ni tuzishdi. ***«Rim klubi»*** a'zolarining 1970-yilda ***«O'sish chegarasi»*** nomli kitobida Yer kurrasida aholining o'sishini tabiiy resurslar imkoniyatiga monand ravishda mo'tadillashtirishni taklif etishdi. Darhaqiqat, ekologik muammolar aholi zich yashaydigan, yetarli darajada iqtisodiy rivojlanmagan, avtoritar yoki totalitar boshqaruvni demokratik prinsiplardan ustun qo'yadigan mamlakatlarda inqirozli darajada tus oldi. Afsuski, ushbu mamlakatlardagi ekologik falokatlar nafaqat ularning o'zlariga, balki nisbatan boy va xavfsiz bo'lgan qo'shnilariga, hattoki butun Yer yuzasiga global miqyosda o'z salbiy oqibatlarini o'tkaza boshladi. Bunday «chegara bilmaydigan» ekologik muammolar butun insoniyatni va ayniqsa, progressiv hamjamiyatni zarbaga keltirdi. Mazkur turdagi ekologik muammolarga misol qilib Orol dengizi va Chad ko'lining qurishi, Chernobil va Fukusima AESlarining falokatga uchrashi, Sahroyi Kabir, Qoraqum va Kalaxari cho'llarida qurg'oqchilik jarayonlarining kuchayishi kabi ekologik inqirozli holatlarni olish mumkin. Ular

nafaqat Ukraina, Yaponiya, Markaziy Osiyo yoki Afrika mamlakatlariga, balki barcha insoniyatga o‘z zararli ta’sirini ko‘rsib, regional muammodan global miqyosdagi ekologik muammolarga aylanib ketdi. Chunki ekologik tusdagi jarayon va hodisalar davlat chegarasiga ham tabiiy chegaralarga ham bo‘ysunadi. Har bir mahalliy tusdagi ekologik talofat milliy, milliy esa regional falokatga va u o‘z navbatida, global tusdagi inqirozga aylanib bormoqda.

«Rim klubi» hisoboti **1972-yil 5-iyunda** Shvetsiya poytaxti Stokgolm shahrida Butunjahon **«Atrof-muhitni muhofaza qilish»** Konferensiyasini chaqirishga asos soldi (18.1.1-rasm). Mazkur konferensiyani, hech mubolag‘asiz, ***xalqaro hamjamiyatning ekologik dunyoqarashidagi tub burilish nuqtasi***, ekologik muammolarni hal qilishga bag‘ishlangan edi. Aynan Stokgolm Konferensiyasidan boshlab davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda atrof – deyish mumkin. Chunki insoniyat tarixida ilk bor BMTning juda keng qamrovli va salohiyatli anjumani Yer sayyorasidagi muhitni muhofaza qilish masalalari alohida bahs va muzokaralar mavzusiga aylana boshladi.

Stokgolm Konferensiyasi 5 ta muhim qaror va hujjatlarni qabul qildi. Masalan, «*Stokgolm deklaratsiyasi»*da atrof-muhitni milliy, regional va xalqaro miqyosda muhofaza qilishning 26 prinsipi ko‘rsatildi. Ulardan birida «Har bir inson qulay atrof muhitga ega bo‘lish huquqiga ega, uning sifati esa insonlarni munosib hayot kechirishga va taraqqiyotga yerishadigan darajada bo‘lishi kerak» deyilgan.

«*Tadbirlar rejasi*» 109 banddan iborat bo‘lib, unda davlatlar va xalqaro hamjamiyat o‘rtasida atrof-muhitni muhofaza qilishning tashkiliy, siyosiy, iqtisodiy masalalari yoritilgan.

Stokgolm Konferensiyasi tavsiyanomasiga binoan BMTning Bosh assambleyasi xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi – *YuNEP tashkilotini* tuzdi. Uning qarorgohi Keniyaning poytaxti Nayrobi shahrida joylashtirildi.

Endilikda ekologik muammolarning yechimini topish global miqyosdagi xavfsizlikni ta’minlashning asosiy omili ekanligini tushunib yetgan dunyo hamjamiyati **1975-yil Xelsinki shahrida** 35 ta Yevropa davlatlari hamda AQSh va Kanada rahbarlari ishtirokida xalqaro Sammitni chaqirishdi. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik Kengashining ***«Yakunlovchi hujjat»***ida ***ekologik havfsizlikni ta’minlash barqaror rivojlanishning eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri*** ekanligi e’tirof etildi.



18.1.1-rasm. **Atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish.**

Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» degan asarida ekologik muammolarni e’tirof etdi hamda boshqa milliy xavfsizlik omillari – terrorizm, diniy ekstremizm, korrupsiya, mahalliychilikdan farqini ochib berdi.

1984-yil BMT qoshida *Xalqaro atrof-muhit va rivojlanish komissiyasi* ish boshladi. Unga Norvegiyaning atrof-muhit vaziri, keyinchalik ushbu davlatning premyer ministri Gro Xarlem Brundtlend boshchilik qildi. Shuning uchun ham bu Komissiyani – «Brundtlend komissiyasi» (Brundtland Comission) deb atashar edi. 1987-yil ushbu Komissiya «*Bizning umumiy kelajagimiz»* nomli o‘z ish hisobotini BMT ga taqdim etdi va shu asosda ingliz tilida kitob nashr etildi.

«Bizning umumiy kelajagimiz»da yangi «*Barqaror rivojlanish konsepsiyasi*»yaratildi. Konsepsiyaning asosiy mazmuni bir narsaga e’tiborni qaratdi, ya’ni «*Ekologik muammolarni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarsiz, xalqaro atrof-muhitning muhofazasini esa lokal, milliy va regional barqaror rivojlanishsiz amalga oshirish mumkin emas»*ligini isbot qilib berdi. Chunki sotsial – ekologik – iqtisodiy rivojlanish yagona zanjirda turadi va ularning har biri «zanjir halqalari» hisoblanadi, deya e’tirof etildi. Nochor va kambag‘al odam, oila yoki davlat hech qachon tabiiy boyliklarni asrashni o‘ylamaydi. Ularda iste’molchilik psixologiyasi avj oladi. Tabiatdan ular o‘ziga oziq-ovqat, xomashyo va boshpana uchun yotoq qidirishi bugungi kunga kelib hech kimga sir bo‘lmay qoldi.

Barqaror rivojlanish-mi yoki taraqqiyot-mi? O‘zbek tilida ***«Barqaror»*** degan so‘z (*bar* – forscha, *qaror* – arabcha) qaror topgan, qat’iy, uzl-kesil o‘rnashgan, ya’ni hech qanday o‘zgarish ta’sir etmaydi, doim birdek turadi degan ma’nolarni anglatadi. «Barqarorlik» esa – turg‘unlik, mustahkamlik o‘zgarmaslik holati, demakdir[1]. Umumlashtirgan tarzda barqaror so‘zini milliy miqyosda tatbiq etadigan bo‘lsak – muayyan davlatning ma’lum bir sohada olib borayotgan siyosatining barqarorligi, deb tushunish mumkin. Lekin ijtimoiy hayot doimo o‘zgaruvchan va moslashuvchan bo‘lmoqlikni talab etadi. Ayniqsa bu bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan ikkinchiga o‘tayotgan davlatlar uchun juda xosdir.

[1] *Барқарор.* Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – ЎзМЭДИН, 2006. – 173-б.

Rus va ingliz tillarida «устойчивый» va «Sustainable»– qat’iylik, ikkilanmaslik, tik turishlik[1], ya’ni biron bir masalada qat’iy va ikkilanmasdan turib olish, degan ma’noni anglatadi. Mazkur so‘zning rus va ingliz tillardagi ma’nosi o‘zbek tilidagi ma’nosiga deyarli mos tushadi.

O‘zbek tilida ***«rivojlanish»*** yoki «***rivojlanmoq»*** – ravnaq topmoq, taraqqiy etmoq, o‘smoq, yuksalmoq degan ma’nolarni anglatadi[2]. Ilmiy lug‘atda ***Rivojlanish – materiya va ongning qaytarilmas, bir yo‘nalishdagi qonuniy o‘zgarishi, ularning universal xossasi,*** deb tushuntirilgan**.** Rivojlanish natijasida obyekt tarkibining yangi sifat holati vujudga keladi. U tabiat, jamiyat va bilish tarixini tushuntirishning umumiy prinsipidir[3]. K.Vebster, M.A.Jevlakova, P.N.Kirillov, N.I.Koryakinalarning «От экологического образвания к образованию для устойчивого развития» kitobining o‘zbekcha varianti «Ekologik ta’limdan barqaror rivojlanish ta’limi sari» deb tarjima qilingan. Chunki razvitie so‘zining o‘zagi «развиваться», ya’ni rivojlana bormoq demakdir[4].

O‘zbek tilida ***«taraqqiyot»*** degan so‘z arabchada yuksalish, olg‘a harakatlanish, rivojlanish, o‘sish degan ma’nolarni anglatadi[5]. Taraqqiyot so‘zi rivojlanish so‘zining sinonimi, lekin aynan o‘zi emas. Taraqqiyot garchand ikki xil ma’noda qo‘llanilsada, lekin u ko‘proq ruschada progress[6] so‘ziga mos tushadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimovning «Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гаратния *прогресса*» (T.: «O‘zbekiston», 1997) asarini o‘zbek tilidagi varianti «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va *taraqqiyot* kafolatlari» deb nomlangan. Agarda biz «Barqaror rivojlanish» so‘zlar birikmasini o‘zbek tilida «Barqaror taraqqiyot» desak ko‘p adashmagan bo‘lamiz. Lekin bir xil so‘z yoki so‘zlar birikmasini ikki xil ma’noda qo‘llash fanda, ayniqsa ta’limda ko‘p chalkashliklarga va ikkilanishlarga olib kelishi mumkin[7].

[1] *Устойчивый.* Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.:ОНИКС 21 век, 2004. – С. 1101.

[2] *Ривожланмоқ.* Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-ж. – ЎзМЭДИН, 2007. – 382-б.

[3] *Ривожланиш.* Энциклопедик луғат.2-том. – Т.: ЎСЭБР,1990. – 136-б.

[4] *Развиваться.* Русско-узбекский словарь. – II том. – Т.: ЎСЭБР,1984. – С. 296.

[5] *Тараққиёт.* Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд.-ЎзМЭДИН, 2007. – 677-б.

[6] *Прогресс.* Русско-узбекский словарь. – II том. Т.: ЎСЭБР,1984.- С. 238.

[7] *М.Н. Заславский* Эрозиоведение. – М.: «Мысль», 1979. – С. 17.

Yuqorida keltirilgan «Xelsinki–1975», «Rio–1992», «Yoxannesburg–2002» anjumanlarining barcha hujjatlarida aks ettirilgan g‘oya aynan ***«Barqaror rivojlanish»*** deb nomlangan. Lekin bu qotib qolgan dogma emas. U zamon va makonga qarab shakllanib hamda takomillashib borishi tabiiy hol. Uning hududiylik, davriylik, tizimlilik va majmualilik jihatlari, ya’ni geografik xususiyatlari hozirgi kunda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi – *hozirgi avlod ehtiyojlarining qondirilishi va kelasi avlodlarning munosib hayot kechirishga bo‘lgan huquqini hisobga olishga oid qarashlar tizimi.*

1989-yili BMT Bosh Assambleyasining 44\428-sonli rezolyutsiyasiga binoan barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun BMTning maxsus konferensiyasini chaqirishga qaror qilindi. Unda barqaror rivojlanish konsepsiyasi – davlatlar va butun dunyo hamjamiyatining xususiyat, mohiyat va tarkibiy jihatdan bir maromda rivojlantiruvchi qarashlar tizimi, deb e’tirof qilindi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqarish va iste’mol qilish, aholining o‘sishi va ijtimoiy himoyasi o‘rtasidagi muvozanatni rivojlangan va rivojlanish yo‘lida turgan barcha davlatlarda saqlashni inobatga oladi. Chunki Yer sayyorasidagi atrof-muhit holati mamlakatlarning birgalikdagi harakat majmuasidir. Ekologik muammolarning yechimi biron bir davlat (masalan, AQSh) yoki biron bir davlatlar (masalan, «katta sakkizlik») faoliyatiga bevosita bog‘liq emas ekan.

Atrof-muhit muhofazasi bilan barqaror rivojlanish g‘oyasining birligi ***1992-yil 3–14-iyun*** kunlari Braziliyaning ***Rio-de-Janeyro*** shahrida bo‘lib o‘tgan BMTning «***Atrof-muhit va rivojlanish»*** konferensiyasi (AMRK) hisoblanadi. Chunki uning ishida dunyoning 170 dan ziyod, jumladan, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligidan 7 ta davlat vakillari ishtirok etgan va 130 ta davlatdan hukumat boshliqlari kelgan. ***AMRK maqsadi*** - *davlatlarning barqaror rivojlanishi va tinchtotuv yashashini ta’minlash uchun ekotizimlarga tushadigan bosimni kamaytirish*. Konferensiya qatnashchilari uchta ishchi guruhda munozaralar olib borildi:

- atmosfera havosi, Yer resurslari va biologik xilma-xillikni saqlash;

- okeanlar, dengizlar, qirg‘oq bo‘yidagi mintaqalar va chuchuk suv resurslari;
- institutsional (barqaror birlashish) va tashkiliy masalalar.

Rio–92da paralell ravishda BMTning maxsus hukumatlararo muzokaralar qo‘mitasi «Iqlimni o‘zgartirishni cheklash konvensiyasi», YuNEP doirasida esa «Biologik xilma-xillik konvensiyasi»ni ishlab chiqishga kirishildi. Konferensiya raisi Braziliya Prezidenti Fernando Kollor de Mello «Bizlar ikkita fundamental nizomga – rivojlanish va atrof-muhitga asoslangan umumiy vazifalarni bajarishda olg‘a siljishni ta’minlash uchun yig‘ildik. Bizlar tarixiy zaruriyat va axloqiy majburiyatni rivojlantirishning yangi modeli, ya’ni rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi degan tushunchalardan iborat bo‘lgan jamiyatni qurishni qabul qilamiz. Bizlar ekologik xavfsizliksiz ijtimoiy adolatli dunyoni ta’minlay ololmaymiz», deya e’tirof qildi.

AMRK tomonidan muhokama qilingan asosiy masalalar: Yer sayyorasida hayotiy tizimni buzuvchi, sanoati rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarish va iste’mol qilish; qoloq va rivojlanmagan mamlakatlarda aholining o‘sish darajasi; boy va qoloq davlatlar, boy va kambag‘al fuqarolar o‘rtasidagi tafovutning orta borishi; atrof-muhit holati, tabiat imkoniyatlari, moddiy manfaatlarimizni hisobga olmaydigan va tabiatga qoplanmaydigan zarar yetkazadigan iqtisodiy tizim.

«Rio Deklaratsiyasi»da jamiyat va tabiat qonunlarining uyg‘unlashtirish mezoni hamda ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy muammolarning o‘zaro birligi va davlatlarning mazkur masalalarning yechimini topishdagi majburiyatlari aks ettirildi. Rio–92 Konferensiyasida qabul qilingan «***XXI asr kun tartibi»***da 2000 yilgacha va undan keyingi yuz yil ichida qo‘yilgan maqsadga yerishish uchun atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasida antropogen faoliyatning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tildi (181.2-rasm).

«XXI asr kun tartibi»da rivojlanishning har bir sohasida ishtirokchilar faoliyati, maqsadi, vazifalari, harakatlari va asoslari berilgan. Ularni amalga tatbiq etish uchun mahalliy, regional va milliy miqyosda faoliyatni moliyalashtirish yo‘llari hamda ko‘lami bayon etilgan. Hujjat global va lokal loyihalar, qarzlarni qoplash, boshqarish va iqtisodiy siyosatni samarali olib borish, xalqaro va regional hamkorlik va muvofiqlashtirish kabi qismlarga ajratilgan va unda moliya masalalari ajratib ko‘rsatilgan. Har bir bobning yakunida sarf-harajatlarni baholashni hisobga olgan

holda moliyalashtirish mexanizmlari va amalga oshirish imkoniyatlari berilgan.



18.1.2- rasm. **«XXI asr kun tartibi»ning mazmuni.**

Mamlakatimizda, Vazirlar Mahkamasining 12-noyabr 1997-yildagi 510-sonli maxsus qarori asosida, milliy barqaror rivojlanish hay’ati tashkil etildi. Hay’at «XXI asr kun tartibi»ning talablarini amalga oshirish maqsadida «Barqaror rivojlanishning milliy strategiyasi»ni ishlab chiqdi.

Rio–92da qabul qilingan muhim hujjatlardan yana biri «***O‘rmonlardan unumli foydalanish, ularni saqlash va o‘zlashtirish prinsiplari to‘g‘risidagi bayonnoma»***si edi. Bu Bayonnoma inson va jamiyatning o‘rmonlarga nisbatan munosabat huquqlari va uni tabiatning bebaho in’omi ekanligi haqidagi hujjatidir. Mazkur hujjat «Yer» deb atalmish sayyorada o‘rmonlar va uning resurs imkoniyatlarini saqlash, hamma turlarini nazoratsiz kesishlardan tiyish va ularni tugatishni to‘xtatish borasidagi global darajadagi halqaro hujjat bo‘lib qoldi.

«Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya» va ***«Iqlimni o‘zgartirishni cheklash to‘g‘risadagi konvensiya»*** ko‘pchilik davlatlar tomonidan imzolandi. Ushbu Konvensiyalar 1993-yil 14-may O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlandi va 1996-yilning 7-may oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolandi.

Iqlimni o‘zgartirishni cheklash to‘g‘risidagi konvensiyasining maqsadi – atmosfera «issiqxona»sini global isishga olib keluvchi gazlarning umumiy ta’sir hajmini bir me’yorda ushlab turish. 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida», 2002-yil 5-apreldagi «Chiqindilar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida mazkur konvensiyaning asosiy prinsiplari va normalari aks ettirilgan.

«Atrof muhit va rivojlanish» konferensiyasining 10 yilligini sarhisob qilish («Rio+10») maqsadida **2002-yilning 26-avgust - 4 sentabr** Janubiy Afrika Respublikasining **Yoxannesburg** shahrida BMTning «**Barqaror rivojlanish»** rukni ostida Butunjahon Cammiti (BRBS) bo‘lib o‘tdi.

«Rio–92»dan farqli ushbu Sammit davlatlar va xalqaro hamjamiyatning barqaror rivojlanishiga doir jiddiy va dolzarb masalalarni muhokama qilish va ularning yechimini topishga intilish uchun chaqirilgan edi. Sammitda ***ijtimoiy hayotning ekologik muammolari davlat va mintaqalarning bir maromda rivojlanishida, ularning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi eng muhim ko‘rsatkich sifatida***

ko'rib chiqildi. BRBSning boshqa shunga o'xshash uchrashuvlardan farqi shunda ediki, unda ishtirok etayotgan davlat va hukumat boshliqlari, nodavlat va xalqaro tashkilotlarning vakillari, sanoat va biznes namoyondalarining ko'pligi va xilma-xilligida edi. Markaziy Osiyo davlatlaridan BRBSda Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmaniston delegatsiyalari qatnashdi.

BRBSning tayyorlov hay'ati va tashkiliy qo'mitasi tomonidan «BRBS qarorlarini bajarish rejasi» va «Siyosiy deklaratsiya» ishlab chiqildi (18.1.1-rasmga qarang).

Sammit ishtirokchilarining asosiy e'tibori «***BRBS qarorlarini bajarish rejasi»*** loyihasiniing muhokamasiga qaratildi. Unda barqaror rivojlanishga tegishli ma'lumotlardan foydalanish, qarorlar qabul qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida sudlardan foydalanish borasidagi Nizomlar ishtirokchilar tomonidan to'la ma'qullanmadi. Masalan, keng jamoatchilik tomonidan qarorlarni qabul qilishdagi ishtiroki to'g'risidagi 151-paragraf ma'qullanmadi. Ushbu muhim qoidalarsiz «BRBS qarorlarini bajarish rejasi» qabul qilindi. Umumiy hajmi 133 betdan iborat bo'lgan hujjat 170 band, IX bo'lim, 12 bobdan iborat edi. Mazkur Rejada, Rio–92 da qabul qilingan «XX1 asr kun tartibi»dan farqli, ***barqaror rivojlanish masalalari ma'muriy birliklarda emas, balki Sayyoramizning turli geotizimlari*** bo'yicha ko'rib chiqildi.

«BRBS qarorlarini bajarish rejasi»ning muqaddimasida uni amalga tatbiq qilishda jahon hamjamiyatining birgalikdagi ish rejalarini qabul qilish lozimligi ko'rsatib o'tilgan edi.

Rejaning ikkinchi bandida mazkur hujjat Rio–92da qabul qilingan hujjatlarning davomi ekanligi ta'kidlangan edi. AMRKda belgilangan, lekin hayotga tatbiq etila olinmagan maqsad va vazifalarni bajarish, XXI asr boshlanishi arafasida yuzaga kelgan holatni hisobga olgan tarzda, xalqaro huquqning yangi prinsiplari va normalarini e'tirof etish uchun qabul qilinganligini ko'rsatdi. «Barqaror rivojlanish, – deyilgan edi rejada, – inson huquqlarining barqarorligi, qardrliligi hamda erkinliligi, uning rivojlanish huquqi hamda madaniy xilma-xillikni qadrlashda hammaning manfaatlariga va talablariga javob beradi».

«BRBS qarorlarini bajarish rejasi» prinsiplari barqaror rivojlanishning uch tarkibiy qismi: iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi talablariga javob beradi. ***Barqaror rivojlanishning asosiy vazifalari va talablari:***

- *qashshoqlikni yo'qotish;*
- *ishlab chiqarish va iste'mol qilishning barqaror bo'lmagan modellarini o'zgartirish;*
- *iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning tabiiy resurslar bazasini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish.*

Barqaror rivojlanish bo'yicha Sammit rejasida asosiy e'tibor davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligiga qaratildi. Global miqyosda aniq xal etilishi mumkin bo'lgan ekologik masalalar faqatgina qit'alar va mintaqalar miqyosida ko'rib chiqildi, xolos.

Rejaning IV bo'limi 24–26-moddalarida ko'rsatilganidek, milliy hududda va uning tashqarisida atrof-muhitni muhofaza qilishga erishish uchun:

- Ichimlik suvi bilan ta'minlanish sohasida Mingyillik Deklaratsiya dasturini moliyaviy va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash. 2015-yilga qadar toza chuchuk suv bilan bevosita foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan kishilarning sonini ikki barobargacha kamaytirish. Moliyaviy resurslar mobilizatsiyasi, texnologiyalarning uzatilishi, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, suv bilan ta'minlash, sanitariya sohasida milliy va xalqaro miqyosda xizmatlarni tashkil etish, kam ta'minlangan kishilarning ehtiyojlarini gender huquqlarini hisobga olgan tarzda jalb etish.
- Okean resurslarini barqaror o'zlashtirishni maxsus organlar orqali barcha bosqichlardagi chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish va hamkorlikni ta'minlash (jumladan, global va regional miqyosda). Bu o'rinda okeanlar muhofazasi yagona ekotizimda, ya'ni okean – dengiz – orol – qirg'oq hududi orqali amalga oshirilishi lozimligini unutmaslik lozim.
- Global dasturlardagi faoliyatni tezlashtirish yo'li bilan Monreal deklaratsiyasiga muvofiq ravishda, dengizlarni shaharlardan oqib kelayotgan suvlar bilan ifloslanishining oldini olish.
- Xavf-xatarli omillarning barcha turlarini va tabiat komplekslarining zaifligini hisobga olgan holda har tomonlama yondashish hamda tabiiy ofatlarning oldini olishda kompleks yondashuvlikni amalga oshirish.
- Iqtisodiy barqarorlik asosida oziq-ovqat xavfsizligini kuchaytirish.

- Qurg‘oqchilik yoki cho‘llanish jarayonlari tez-tez sodir bo‘layotgan davlatlarda BMTning cho‘llanishga qarshi kurash Konvensiyasini tatbiq qilish.
- Yer yuzasining noyob flora va faunasiga ega bo‘lgan nozik va zaif tog‘ ekosistemasini saqlash;
- «Xalqaro ekoturizm yili» (2002-yil), «BMTning Xalqaro madaniy meros yili» (2002-yil), Kvebek deklaratsiyasi va Butunjahon turizm tashkilotining «Global turizm etikasi kodeksi»dagi normalarga asoslanib ekoturizmni rag‘batlantirish;
- Barqaror rivojlanish muhim ahamiyat kasb etayotgan biologik xilma-xillik konvensiyasidagi normalarni kengroq amalga tatbiq etish.

Mazkur vazifalar, «BRBS qarorlarini bajarish rejasi»dagi nizomdan kelib chiqqan tarzda, rivojlanayotgan davlatlar – Afrika, Lotin Amerikasi va Karib havzasi, Osiyo va Tinch okeani, G‘arbiy Osiyo va Yevropa iqtisodiy komissiyasi mintaqalarida hamda orollarida joylashgan davlatlar misolida ko‘rib chiqildi.

Institutsional masalalar, ya’ni barqaror birlashishdagi ko‘rsatmalar BMT Bosh Assambleyasi, uning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi, Barqaror rivojlanish hay’ati, global, regional va milliy tashkilotlarning maqsadi, vazifalari va faoliyat yo‘nalishlarini aniqlashtirdi, ularning rolini oshirishda hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashda aholi asosiy guruhlarining ekologik xavfsizligi uchun sharoit yaratish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ruminiya delegatsiyasi barqaror rivojlanish bo‘yicha mahalliy va regional markazlarni(BRRM) tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi. Bu esa Markaziy Osiyo uchun ayni muddao edi. Sammitda 200 dan ortiq sherikchilik tashabbuslari, jumladan Markaziy Osiyodagi nodavlat tashkilotlaridan ham e’lonlar berildi.

BRBSning ikkinchi muhim hujjati – «***Barqaror rivojlanishga doir Yoxannesburg Deklaratsiyasi»*** 37 banddan iborat bo‘lib, u quyidagi qismlarga ajratilgan:

- *Chashmalarimizdan kelajakka tomon.*
- *Stokgolmdan Rio-de-Janeyroga va Yoxannesburgacha.*
- *Oldimizda turgan vazifalarimiz.*
- *Barqaror rivojlanishga bizning tarafdorligimiz.*
- *Kelajak ko‘p tomonlama yondashishda.*
- *Shunday bo‘lsin!*

Yoxannesburg deklaratsiyasining 35-moddasida – «Sayyoramizni saqlab qolish, kishilar imkoniyatini ko‘tarish va umumfarovonlik yo‘lida totuvlikka erishishda bir bo‘lib harakat qilish majburiyatini olamiz» deb ta’kidlangan edi.

BRBSning yopilishiga bag‘ishlangan press-konferensiyada BMT Bosh kotibi Kofi Annan: «Yoxannesburg – bu Rio emas. Rioda berilgan va’dalar bajarilmadi, biroq umid qilamizki, qabul qilingan hujjatlar – barqaror rivojlanishni yuzaga chiqaradigan aniq faoliyat rejasidir. Biroq menimcha, Sammitda qabul qilingan qarorlar deklarativ (ixtiyoriy) xarakterga ega, shuning uchun ham uning maqsadi va tashabbuslariga yerishmoqlik hamma manfaatdor tomonlarning butun kuch va g‘ayratini ishga solmoqligi zarur. *Qabul qilingan hujjatlar bo‘yicha yakuniy xulosalarni puxta tahlil qilish darkor. Reja va Deklaratsiyaning hayotiyligini vaqt ko‘rsatadi*», – deb aytgan edi.

2. Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish prinsiplari va manbalari

Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir huquq sohasi jamiyatdagi muayyan munosabatlarni tartibga solishda aniq qoida-prinsiplarga yondashadi. Milliy qonunchilikni ishlab chiqish va shakllantirishda bu prinsiplar har bir millat yoki davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’rifiy-madaniy, milliy holati va an’analariga asoslangan tarzda belgilansa, xalqaro huquqda esa ikki va undan oshiq millat, xalq yoki davlatlarning umumiy manfaatlariga, inson huquqlariga yondashadi.

Xalqaro prinsiplar – xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan xalqaro huquq subyektlarining boshqaruv qoidalari.

Xalqaro ekologik prinsiplar – *xalqaro hamkorlik ishtirokchi (subyekt)larining atrof-muhitni muhofaza qilish va xalqaro ekologiya huquqi obyektlaridan foydalanish borasidagi munosabat qoidalari.*

Xalqaro ekologik prinsiplar xalqaro huquq normalari zaminida yotishi va o‘zaro munosabatlarni huquqiy me’yorlash hamda huquqiy mexanizmni ishlab chiqishda yo‘nalish beruvchi ko‘rsatma tarzida xizmat qilishi kerak.

BMT Nizomining 2-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan va uning hamma a’zolari uchun majburiy hisoblangan xalqaro munosabat prinsiplari

Bilimlar xazinaboni

xalqaro ekologik prinsiplarning asosi hisoblanadi. Xalqaro ekologik prinsiplar Stokgolm, Rio-de-Janeyro, Yoxannesburg konferensiyalarining deklaratsiyalarida, Yevropada xavfsizlikni ta'minlashning yakuniy Xelsinki hujjatida va Umumjahon tabiat Xartiyasida va shu kabi xalqaro huquq manbalarida o'z aksini topgan.

Xalqaro ekologik-huquqiy prinsiplarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. *Tabiiy resurslarga davlat suverenitetligi.* Bu prinsip BMT Bosh Assambleyasining 1962-yil 14-dekabr «Tabiiy resurslarga nisbatan ajralmas suverenitet», so'ngra, Stokgolm (1972) konferensiyasining deklaratsiyalarida o'z ifodasini topgan. Mazkur prinsipga binoan har bir xalqaro huquq subyekti xalqaro munosabatlarda o'z tabiiy boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni milliy qonunchilik asosida olib borish huquqiga ega, ya'ni har bir mustaqil davlat uchun o'z tabiiy boyliklarini nafaqat egallash, foydalanish, balki tasarruf qilish huquqidan to'la foydalanish imkoniyati ochib berildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi, – deb ta'kidlagan edi Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» degan asarida, – avvalambor, juda boy xomashyo va tabiiy boyliklaridan o'zi bilganicha foydalanish huquqining paydo bo'lishidadir. Bunday foydalanish chor Rossiyasi, so'ngra sobiq Ittifoq davridagi ekstensiv, ya'ni pala-partish va chala-yarim emas, balki mustaqillik davrida intensiv tarzda, ya'ni yuqori darajada samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda. Milliy manfaatlar milliy qonunchilik asosida himoya qilina boshlandi va texnogen buzilgan landshaftlarni qayta tiklash talablarini keng joriy qilish imkonini berdi. Chunki har bir davlatning tabiiy resurslarga bo'lgan suverenitetligi, uning xalqi va fuqarolarining yashash huquqini ta'minlash, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi buyuk mas'uliyat – milliy ekologik xavfsizlikni ta'minlash hissini tatbiq qilish imkonini berdi. Turkiston o'lkasi, so'ngra O'rta Osiyo respublikalari chor Rossiyasi yoki sobiq Ittifoqning mehnat taqsimoti yoki iqtisodiy rivojlanish tizimidagi uzluksiz ta'minot va progressiv o'sish talablarini qondirishda tabiiy xomashyo va arzon mehnat resurslari o'lkasi bo'lganligi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham bu «chekka o'lka» XXI asr bo'sag'asida ekologik inqirozli hududlar toifasiga kirib qolgan edi.

2. *Davlatlar o'z yuridiksiyasidan tashqaridagi atrof-muhitga zarar yetkazmaslik*. Bu prinsip XX asrning 60-yillarida oddiy bir xalqaro

huquq me'yori sifatida ishlatilgan bo'lsa, 1972-yil Stokgolm konferensiyasida xalqaro ekologik hamkorlikning asosiy qoidalari toifasiga kirgazildi. BMTning Nizomiga binoan, har bir davlat yoki xalqaro huquq subyekti o'z hududi yoki nazorat doirasidagi harakatlari o'zga hudud yoki davlat nazorat doirasida turgan hududlarga zarar yetkazmasligi kerak va bu uchun ular javobgardirlar. Bunga misol qilib Tojikistondagi alyumin zavodining shimoliy Surxondaryoga keltirayotgan zararini olsak bo'ladi. Ifloslanish normasi ruxsat etiladigan me'yordan 7,2 barobar ko'pdir.

3. *Insonlarning ekologik huquqining afzalligi.* Bu prinsip bevosita inson huquqlaridan biridir. Chunki Yer yuzidagi barcha insonlar, ularning irqiy, milliy, diniy, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, yashash huquqiga egadirlar. Yashash huquqi esa inson huquqlarining birlamchi omilidir. BMT Nizomining uchinchi xat boshi 1-moddasiga binoan, xalqaro hamkorlikni davlatlar «inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishlari va ularni rag'batlantirishni rivojlantirishlari» asosida olib borishlari kerak[1].

4. *Hamma bosqichda ekologik nazoratlash* prinsipi yuqorida sanab o'tilgan xalqaro-huquqiy qoidalarning amaliy tatbig'ini kuzatib borish va kafolatlovchi institutlar tizimini yaratishni talab qiladi. Agarda xalqaro ekologik hamkorlik me'yorlarining amaliy tatbig'i uning qatnashchilari yoki uchinchi bir vakolatli idoralar tomonidan nazorat qilinmasa, har qanday xalqaro hujjat deklarativ ko'rinishda namoyon bo'ladi va ular qog'ozda qolib ketadi. Bunday xalqaro nazorat institutining universal tarzda BMTning EKOSOS, YuNEP, YuNESKO, TMXI, JSST, XDK, MAGATE kabi umumiy yoki maxsus masalalar bo'yicha tuzilgan tashkilotlar yoki regional tarzdagi – OBSE, ADA, ABT, ADT, ASEAN kabi tashkilotlar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, Markaziy Osiyo mintaqasida maxsus vakolatli davlatlararo ekologik tashkilotni tuzish (masalan, «Turkiston – bizning uyimiz», «Turk ekonazorat», «Turkistonda ekologik xavfsizlik») va uning qoshida ishtirokchi davlatlardan nazorat, tergov va sud organlarini barpo etish zamon talabidir.

5. *Ekologik axborot almashuvi erkinligi* prinsipi xalqaro hamkorlik qatnashchilaridan o'z milliy chegaralarida yuz berayotgan atrof tabiiy

[1] Международное право в документах. – М.:Юрист, 2007.

muhitning salbiy o‘zgarishlari haqida vaqtida axborot berib borishni nazarda tutadi. Chunki ekologik jarayonlar ma’muriy chegarani «tan olmaydi» va ular qo‘shni mamlakatning ekologik xavfsizlik darajasiga salbiy ta’sir etishi mumkinligini e’tirof etadi. O‘z paytida va tezkor olingan axborot ekologik xavfning oldini olishi hamda uni birgalikda yoki xalqaro hamjamiyat yordamida bartaraf qilish imkonini beradi.

6. *O‘zaro ekologik konsultatsiyalash* prinsipi bundan oldingi axborotlash prinsipining davomi. Konsultatsiyalash yoki maslahatlashish prinsipi yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatining keng yoyilishining oldini olish, uni bartaraf qilishning xalqaro strategik maqsad va taktik vazifalarini aniqlab olish, unga qarshi kurashishning chora-tadbirlar ko‘lami va yo‘llarini aniqlashtirishga imkon beradi.

7. *Ekologik inqirozli holatda davlatlarning o‘zaro yordam ko‘rsatish* prinsipi davlatlarning o‘zaro gumanitar yordam ko‘rsatish va oqibatda o‘z milliy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan harakatlar toifasiga kiradi. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan «Orol muammosi»ni hal qilishda 100 dan ziyod davlat yoki nodavlat tashkilotlarning ishtirok etishi va keyingi 10 yil mobaynida ularning yuz millionlab AQSh dollari miqdorida bizlarga moddiy yordam ko‘rsatishlari bunday olijanob prinsipni amalda qo‘llanilayotganiga dalil bo‘la oladi.

8. *Huquqiy-ekologik nizolarni tinchlik bilan hal qilish* prinsipi xalqaro huquq subyektlari orasida ushbu nizolar orqali atrof tabiiy muhitga yanada ko‘proq zarar yetkazuvchi «sovuq urush»larning yoki harbiy to‘qnashuvlarning oldini olishga qaratilgandir. Zamon talabi – har qanday salbiy jarayonlarni diplomatik vositalar orqali hal qilish va davlatlarning butun kuchini har qanday urushlarga emas, balki insonlarga xavf solayotgan ekologik inqirozlarga sarf qilishlarini da’vat qilishidir.

9. *Ekologik muammolarni barqaror rivojlanish orqali hal qilish.* Bu prinsip «Rio–92» Konferensiyasining deklaratsiyasida o‘z aksini topgan bo‘lib, u davlatlar va regionlar miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy muammolarni ekologik muammolar bilan bir paytning o‘zida kompleks yechishni talab etadi.

Rasman esa **atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbayi** deb xalqaro ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar yig‘indisiga aytiladi.

Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbalari – *moddiy nuqtayi nazardan butun dunyo hamjamiyati a’zolarining atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishdagi xohish va irodalari aks etgan xalqaro huquqiy hujjatlar.*

Xalqaro huquqiy hujjatlarga shartnoma, kelishuv, konvensiya, rezolyutsiya, xartiya, deklaratsiya, qaror(protokol)lar kiradi. Ayrim hollarda xalqaro-huquqiy hujjatlarga davlatlarning ichki qonunlarini ham kiritadilar, qachonki milliy qonunlar xalqaro huquq me’yorlariga nisbatan atrof-muhit muhofazasini ko‘proq ta’minlab bera oladigan bo‘lsa. Nima bo‘lganda ham milliy qonunchilik, bizning fikrimizcha, to‘lig‘icha xalqaro-huquqiy manba bo‘la olmaydi. Faqatgina ma’lum bir xalqaro huquq subyekti bo‘lmish davlatlar hududida ekologik talablarga ko‘proq javob beradigan normalar qo‘llanishi mantiqan to‘g‘ri deb topilgandir.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda markaziy o‘rinni *rezolyutsiyalar* egallaydi. Chunki BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalarida davlatlarning xalqaro hamkorlikdagi ekologiyaga oid asosiy normalari va harakat qoidalari aks etgan. «Rezolyutsiya» lotin tilida «hal qilish», ya’ni ma’lum bir yig‘in (syezd, komitet, konferensiya, simpozium...)larning xulosalovchi yoki hal qiluvchi qarorlari.

Ekologik rezolyutsiya – *atrof-muhit muhofazasiga oid xalqaro doiradagi anjumanlarning xulosalovchi yoki hal qiluvchi qarori.*

Xalqaro-ekologik munosabatlarda ko‘pincha «xartiya» so‘zi ishlatiladi. Xartiya grekchada «qog‘oz», ya’ni qog‘ozga bitilgan ommaviy va siyosiy hujjat ma’nosida ishlatiladi. 1982-yil 28-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi 37-sessiyasida qabul qilingan «Umumjahon tabiatni muhofaza qilish xartiyasi»da xalqaro ekologik huquqning 24 prinsipi qabul qilingan va unga binoan BMTga a’zo mamlakatlar o‘zining milliy ekologik qonunlarini ularga moslashtirishlari talab etiladi.

Ekologik xartiya – *ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid yozma ravishda ifodalangan ommaviy tusdagi siyosiy hujjat.*

Xalqaro huquqda amaldagi milliy qonunchilikni xalqaro huquq talablariga moslashtirish «implementatsiya» deyiladi. BMTning mus-

taqil subyekti bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatga dadil qadamlar bilan kirib borar ekan, huquq sohasida uning oldida 3 katta vazifa turadi: 1) mamlakatda demokratik boshqaruvni barpo etish va barqaror rivojlanishni ta’minlab beruvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilish; 2) milliy qonunchilikni xalqaro prinsiplarga moslashtirish; 3) qonun me’yorlarini hayotga tatbiq qilish mexanizmini yaratish.

1990-yil 21-noyabr «Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi»da (1993-yil 27-noyabrdan O‘zbekiston ham qo‘shilgan) va 2000-yil Yer xartiyasida ekologik xavfsiz muhitni ta’minlash har bir ishtirokchi mamlakatning burchi ekanligi alohida ta’kidlangan.

Shartnoma – siyosiy ahamiyat kasb etuvchi va boshqa siyosiy, iqtisodiy, ma’rifiy-madaniy masalalar qatori atrof-muhit muhofazasiga oid xalqaro me’yorlarni o‘zida aks ettiruvchi hujjat. Shartnomalar XX asrning ikkinchi yarmida keng tarqalgan xalqaro huquq manbayi bo‘lib, ular umumiy, regional va ikki tomonlama tuzilishi mumkin. Dunyoda 300 dan ziyod ekologik munosabatlarni o‘zida qamrab olgan xalqaro shartnomalar mavjud. Ularning ichida eng salohiyatlilari umumiy turdagi «Yevropa xavfsizligini ta’minlashning yakuniy shartnomasi» (1975-yil), «Atmosfera, kosmik fazo va suvda yadro qurollarini sinashni to‘xtatish to‘g‘risida» (1963-yil), «Yadro qurolini tarqatmaslik to‘g‘risida» (1968-yil) kabi xalqaro shartnomalardir.

Ekologik shartnoma – *xalqaro huquq subyektlarining xohish irodasini o‘zida aks ettiruvchi va siyosiy ahamiyat kasb etuvchi va boshqa siyosiy, iqtisodiy, ma’rifiy-madaniy masalalar bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasiga oid xalqaro me’yorlarni o‘zida aks ettiruvchi hujjat.*

Ikki tomonlama O‘zbekiston–Qozog‘iston, O‘zbekiston–Tojikiston, O‘zbekiston–Qirg‘iziston, O‘zbekiston – Turkmaniston respublikalari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarda atrof-muhitni birgalikda muhofaza qilish (jumladan, suv resurslaridan oqilona foydalanish) ga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kabi xalqaro huquqiy me’yorlar belgilanib olingan.

Shartnoma muayyan yo‘nalishdagi xalqaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lsa, u «konvensiya» deb ataladi. Konvensiya – lotin tilida «shartnoma», «shart», «kelishuv» degan ma’noni anglatadi. Konvensiya ikki va undan ortiq xalqaro tabiiy obyektlarni

muhofazalash yoki ulardan birgalikda foydalanishni nazarda tutsa – *kompleks-ekologik,* ma’lum bir turdagi xalqaro tabiiy obyektdan foydalanishni nazarda tutsa – *resurs-ekologik* konvensiya deb ataladi.

Ekologik konvensiya – *xalqaro ekologiya huquqi obyektlarini muhofazalash yoki ulardan birgalikda foydalanishga oid kelishuvlar aks etgan normativ hujjat.*

Kompleks-ekologik konvensiyalarga BMTning YuNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan 1972 va 1973-yillarda qabul qilingan «Butunjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish» va «Yo‘qolish xavfida turgan yovvoyi turdagi fauna va flora turlarini savdo qilish» konvensiyalari kiradi.

Resurs-ekologik konvensiyalarga 1979-yili Bonnda qabul qilingan «Ko‘chib yuruvchi yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish», 1985-yili Venada qabul qilingan «Ozon qatlamini himoya qilish» kabi ekologik shartnomalar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning mustaqil subyekti sifatida 20 dan ziyod ekologik konvensiya va bayonnomalarda ishtirok etmoqda[1] (18.2.1-jadval).

Qabul qilingan konvensiya va bayonnomalarni amaliy tatbiq qilish uchun bir qator qonunlar, davlat dasturlari, loyihalar ishlab chiqilgan va ularning huquqiy mexanizmi yaratilmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilish masalasida mustaqil respublikamiz diplomatik munosabatlarda ko‘proq ikki va ko‘p tomonlama *kelishuvlarni* qo‘llamoqda. 1996-yil 8-mayda O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi va 1997-yil 11-dekabrda Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida tabiatni muhofaza qilishga doir kelishuvlarga imzo chekilgan. Xuddi shunday masaladagi kelishuvlar O‘zbekiston – Germaniya, O‘zbekiston – Niderlandiya Qirolligi, O‘zbekiston – Vengriya, O‘zbekiston – Slovakiya, O‘zbekiston – Isroil, O‘zbekiston – Lyuksemburg va O‘zbekiston – Yevropa Ittifoqi bilan imzolangan. Hamdo‘stlik mamlakatlari – Ukraina, Qozog‘iston, Belorus, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Gruziya respublikalari bilan

[1] Национальный доклад «О состоянии окружающей среды и использовании природных ресурссов в Республике Узбекистан (1988-2007). – С. 275–281.

18.2.1-jadval.

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi konvensiya va bayonnomalarda O‘zbekiston Respublikasining ishtiroki

T/r	Xalqaro huquqiy hujjat nomi	Qaysi yilda		
		qo‘shildi	*ratifikatsi-ya qilindi*	*imzolandi*
1	Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha ramkali konvensiya	1993		
2	Kiota bayonnomasi		1998	1999
3	Ozon qatlamini muhofaza qilish bo‘yicha Vena konvensiyasi	1993		
4	Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo‘yicha Monreal bayonnomasi	1993		
5	Cho‘llanish va qurg‘oqchilik bilan kurashish bo‘yicha konvensiya	1994	1995	
6	Biologik xilma-xillik to‘g‘risida konvensiya			1995
7	Xavfli chiqindilarni tashish va yo‘qotish bo‘yicha Bazel konvensiyasi			1995
8	Yo‘qolish xavfida turgan yovvoyi turdagi fauna va flora turlarini xalqaro savdosi to‘g‘risidagi konvensiya			1997
9	Ko‘chib yuruvchi hayvonot dunyosini muhofaza qilish to‘g‘risida konvensiya			1998
10	Xalqaro miqyosdagi suvda suzib yuruvchi qushlarni yashash makoni bo‘lgan suv-botqoqzorlar to‘g‘risida konvensiya			2001
11	Butunjahon va madaniy meroslarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya			1995
12	Transchegaraviy daryolar va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish bo‘yicha Xelsinki konvensiyasi			2007
13	Suv transporti sifatida foydalanilmaydigan suv tarmoqlaridan foydlanish huquqi to‘g‘risidagi Nyu-York konvensiyasi			2007

O‘zbekiston ikki tomonlama, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikalari o‘rtasida esa ko‘p tomonlama atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish borasida kelishuv mavjud.

1992-yil 8-fevralda Moskvada qabul qilingan MDH mamlakatlari orasidagi kelishuvning 2-moddasiga binoan, Oliy darajadagi tomonlar qatnashchilari (Ozarbayjon, Armaniston, Belorus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston respublikalari) o‘z hududlarida:

* atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha qonun hujjatlarini, ekologik huquqiy me’yorlarni hamda standartlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

* tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanishning son va sifat ko‘rsatkichlarining hisobini oladi hamda ekologik monitoringni olib boradi;

* atrof tabiiy muhit va resurslar holati, ularning o‘zgarib borishi haqida samarali davlat nazoratini o‘rnatadi;

* jonli resurslarni takror ishlab chiqarish, biologik xilma-xillikni saqlash va ularni tiklash bo‘yicha tadbirlar qabul qiladi;

* qo‘riqxonalar, buyurtma qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar va boshqa alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud hamda komplekslarni rivojlantiradi, ular atrofidagi tegralarda xo‘jalik va boshqa inson faoliyatini cheklaydi;

* o‘z hududlarida xo‘jalik va boshqa faoliyatlarning ekologik oqibatlarini har tomonlama baholab boradi;

* tabiiy ofat, ekologik falokat va inqirozlarning oldini olish uchun kerakli bo‘ladigan maxsus kuchlarni hamda vositalarni tashkil qiladi va ularning faoliyatini ushlab turadi.

Xalqaro ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda *deklaratsiya (lotin tilida – e’lon qilish, tushuntirish), ya’ni ma’lum bir tashkilot, davlat yoki partiyalarning asosiy prinsip va me’yorlarini tantanali ravishda e’lon qilish* ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularga misol qilib, 1986-yil 4-oktabrda BMTning «Rivojlanish huquqi to‘g‘risida», 1969-yil 11-dekabr – «Ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot», 1975-yil 10-noyabr – «Ilmiy-texnik rivojlanishdan tinchlik va inson farovonligi yo‘lida foydalanish», «Stokgolm–72», «Rio–92», «Yoxannesburg–2002», «Rio–20» kabi deklaratsiyalarni keltirish mumkin.

Ekologik deklaratsiya – *ma’lum bir tashkilot, davlat yoki partiyalarning asosiy ekologik prinsip va me’yorlarini tantanali ravishda e’lon qilishi.*

Atrof-muhitni muhofaza qilishga doir xalqaro munosabatlarni tartibga solishda *memorandium (lotin tilida – nimani tushuntirmoq kerak) – diplomatik mulohazalar predmeti bo'lgan masalalarni aks ettiruvchi hujjat, qaydnoma – asosiy shartnomaga qo'shimcha qilinadigan hujjatlarning* ham juda katta ekologik ahamiyati bor. Masalan, 2002-yil O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston o'rtasida Buxoro bug'isini saqlash va qayta tiklashga oid uch tomonlama memorandum imzolandi. 2006-yilda esa O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, Mongoliya, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtasida saygaklarni saqlash, qayta tiklash va ulardan barqaror foydalanishga oid besh tomonlama memorandum imzolandi.

Ekologik memorandium – *diplomatik mulohazalar predmeti bo'lgan ekologik masalalarni aks ettiruvchi va asosiy shartnomaga qo'shimcha qilinuvchi hujjat.*

3. Atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy obyekti

Atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy obyekti – xalqaro huquq subyektlarining ekologik munosabatlar predmeti bo'lgan tabiiy obyektlar, ya'ni o'zining xususiyati, joylanishi va ahamiyati nuqtayi nazaridan biron-bir davlat yuridiksiyasiga kirmaydigan yoxud nazoratida bo'lmaydigan va shuning uchun ham ikki va undan ortiq mamlakatlar yoki xalqaro huquq subyektlari mulki bo'lgan tabiiy unsurlar. Misol tariqasida Amudaryo va Sirdaryolarni ko'rsatish mumkin. Ular o'z tabiiy xususiyatlariga va ahamiyatiga ko'ra, Ekologiya huquqining obyektidir. Lekin ikki azim daryolardan foydalanish va ularni muhofaza qilish faqatgina O'zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilmaydi. Chunki bu daryolar Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston respublikalaridan boshlanadi va qo'shni Qozog'iston, Turkmaniston respublikalaridan oqib o'tadi. Mazkur daryolarning yuqori qismidagi suvlarni ifloslantirish yoki suv rejimini o'zgartirish, albatta, ular oqib o'tadigan pastdagi davlatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bunday obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish xalqaro huquq manbalari orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro ekologiya huquqi obyektlari – *o'zining xususiyati, joylashuvi va butun insoniyat uchun ahamiyati nuqtayi nazardan biron-bir davlat yoki shaxs yuridiksiyasiga kirmaydigan yoxud nazoratida bo'la olmaydigan ekologiya huquqi obyektlari.*

Xalqaro ekologiya huquqi obyektlarining ikki turi: xalqaro-huquqiy muhofazalash va xalqaro-huquqiy tabiiy resurslar mavjud.

Xalqaro-huquqiy muhofaza qilish obyektiga havo basseyni, fazo, dunyo okeani, Antarktika, ko'chib yuruvchi hayvonlar va qushlar kiradi. *Xalqaro-huquqiy tabiiy resurslarga* implementatsiya qilingan milliy qonunlar asosida muhofaza qilinadigan va ulardan foydalanadigan tabiiy obyektlar kiradi. Ularga ikki va undan ortiq mamlakatlar hududlarida joylashgan daryolar, ko'llar, dengizlar hamda Xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan noyob va yo'q bo'lib ketayotgan o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini misol qilib keltirish mumkin.

Havo basseyniga Yerning atmosfera qatlami kiradi. Garchand uning muhofazasi milliy qonunlar bilan ham tartibga solinsa-da, lekin atmosfera qatlamidagi iqlim resurslari doimo sirkulyatsiya (aylanma harakat)da bo'lgani uchun ham bu qatlamdagi barcha jarayonlar hech qanday ma'muriy chegaraga bo'ysunmaydi va xalqaro huquq asosida tartibga solinadi.

Havo basseynining xalqaro muhofazasi asosan to'rt yo'nalishda amalga oshiriladi:

1) iqlim va ob-havoga salbiy ta'sirning oldini olish;

2) atmosfera havosini ifloslantirishni davlatlararo tarqalishining oldini olish va bartaraf qilish;

3) ozon qatlamini yemirilishdan muhofazalash;

4) atmosfera havosini nazoratlash va tozalash borasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Fazo – havo basseynidan farqli, biron-bir davlat yuridiksiyasiga kirmaydigan xalqaro huquq obyekti hisoblanadi. Bu o'rinda 1963-yil BMT Bosh Assambleyasining «Kosmik kenglikdan foydalanishda davlatlar faoliyatining huquqiy prinsiplari Deklaratsiyasi» va 1967-yildagi «Fazo kengligi, Oy va boshqa osmon jinslaridan foydalanish va ularni tadqiq qilishda davlatlar faoliyatining prinsiplari to'g'risida»gi kelishuvlarni misol qilib olsak bo'ladi. Bu xalqaro me'yoriy hujjatlarga muvofiq, fazo umuminsoniyat boyligi hisobla-

nadi, undan foydalanish faqatgina tinchlik yo‘lida amalga oshiriladi hamda fazoni ifloslantirish va unga salbiy ta’sir ko‘rsatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ammo hozirgi kunda fazoni «zabt etgan» mamlakatlar undan militaristik yo‘lda foydalanishni to‘xtatayotganlari yo‘q. Fazoda minglab harbiy-shpion fazo kemalari uchib yuribdi. Kosmosda 3,7 mln. dan oshiq turli ko‘rinishdagi fazoviy chiqitlar mavjud va ular erkin harakatdadir.

Dunyo okeanlari Yer sharining 2/3 qismini band etgan holda, butun suvlarning 97%ini o‘zida mujassamlashtirgan. Ular nafaqat arzon va qulay transport yo‘li, balki oziq-ovqat maskani va Yerdagi hayotni ushlab turuvchi yetakchi omil hamdir. Chunki atmosfera havosidagi 70–80 % kislorod okeanlardagi fitoplanktonlarning fotosintez jarayonlarida qatnashuvi orqali yuzaga keladi. Dunyo okeani suvning ekologik tizimdagi katta aylanishi jarayonida faol qatnashadi va u «tozalovchi filtr» bo‘lib xizmat qiladi. Dunyo okeanlaridan foydalanish muayyan davlatning yurisdiksiyasiga kirmaydi va shuning uchun ham uning muhofazasi xalqaro-huquqiy me’yorlarning amaliy samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi.

Dunyo okeanlarini huquqiy muhofazalash shu kunda quyidagi to‘rt yo‘nalishda olib borilmoqda:

1) kimyoviy va radioaktiv moddalardan, neft va neft mahsulotlaridan okeanlar ifloslanishining oldini olish;

2) harbiy maqsadlarda okeanlardan foydalanishni to‘xtatish;

3) okean faunasi va florasini saqlab qolish, qayta tiklash va takroriy ishlab chiqarish;

4) okean resurslaridan o‘ta samaradorlik bilan foydalanish.

1963-yilda qabul qilingan «Atom qurolini sinovdan o‘tkazishni uch sferada taqiqlash to‘g‘risida»gi shartnomaga binoan, hech bir davlat okeanda o‘z qurollarini sinashi mumkin emas. 1954, 1962, 1969, 1971, 1972, 2001, 2009-yillarda qabul qilingan dunyo okeanini muhofaza qilishga qaratilgan bir qator konvensiya va qaydnomalarga binoan, kemalardan inson va umuman jonli mavjudotga ta’sir qiluvchi neft va boshqa mahsulotlarni oqizish va tashlash qat’iyan man qilinadi, ularga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zarar uchun esa javobgarlik belgilangan. Keltirilgan zararni iqtisodiy qoplash maqsadida xalqaro normalarga muvofiq har bir kema va kompaniyalar sug‘urtalanishi hamda moliyaviy hujjatga ega bo‘lishlari kerak.

1990-yildan boshlab AQSh dengiz portlariga faqatgina ikki qavatli korpusga ega bo‘lgan neft tankyerlarining kirishiga ruxsat beriladi. Chunki dengiz va okeanlarning ifloslanishida neft tankyerlarining «xizmati» juda kattadir. Masalan, 1973-yili talafotga uchragan «Amoko Kazus» supyertankyeridan 220 ming tonna, 1989-yili Ispaniya supertankeridan 217 ming tonna neft okeanga oqizilgan. 1989-yil Alyaska qirg‘oqlarida dengiz riflariga urilgan «Ekason Valdiz» kemasidan oqizilgan neftni tozalash uchun 2 mlrd amerika dollari sarf qilingan. 1967-yilda Liberiya tankeri falokati Angliya va Fransiya davlatlarining 180 kilometrlik masofada qirg‘oq bo‘yini ifloslantirgan.

Okeanlar uchun yana bir katta xavf tug‘dirayotgan ifloslanish omili – radioaktiv chiqitlarni okeanlarga tashlash va joylashtirish. Atom floti va atom sanoati yo‘lga qo‘yilgan mamlakatlar tomonidan yiliga minglab tonna miqdorida o‘ta xavfli bo‘lgan radioaktiv chiqitlar dunyo okeanlariga tashlanmoqda.

Antarktika – hech qaysi bir davlat yuridiksiyasiga kirmaydigan va xalqaro-huquqiy me’yorlar bilan tartibga solib turiladigan Yer kurrasidagi eng sovuq, oltinchi qit’a. Bu qit’ani muhofaza qilish va undan foydalanish «Antarktika to‘g‘risidagi shartnomaga ko‘ra» (1959-yil) olib boriladi. Shartnomaga binoan Antarktikadan ilmiy maqsadlarda erkin foydalaniladi va harbiy yo‘nalishdagi har qanday harakatlar bu qit’ada man qilinadi. Undagi dengiz va quruqlik hayvonlaridan foydalanish va ular muhofazasiga doir maxsus «Antarktika havzasidagi hayvonot dunyosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi konvensiyaga muvofiq amalga oshiriladi. BMT ning YuNEP tashkiloti Antarktikadagi ekologik munosabatlarni tartibga solishni kuzatib boradi.

Xalqaro «Qizil kitob» 1972-yili noyabr oyida bo‘lib o‘tgan BMT YuNESKO tashkilotining konferensiyasida qabul qilingan «Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi konvensiyaga muvofiq tuzildi. Unda Yer kurrasida noyob va yo‘qolish xavfi ostida turgan o‘simlik va hayvonot dunyosi turlarining biologiyasi, tarqalishi, yo‘qolib ketish sabablari va muhofaza qilish choralari ko‘rsatib o‘tilgan.

Xalqaro tabiatni qo‘riqlash ittifoqi «Qizil kitob» uchun ma’lumotlarni 1949-yildan boshlab to‘pladi va uni 1966-yili «Red Data Book» nomi bilan ingliz tilida chop etdi. U doimo to‘ldirib boriladi va ingliz tilida chop etiladi. XX asrning oxiriga kelib sut emizuv-

chilarning 236, qushlarning 485, sudralib yuruvchilarning 141, baliqlarning 194 turlari xalqaro «Qizil kitob»ga kiritildi. Hozirgi kunda ularning soni 2 baravargacha ko‘paygan.

Xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan flora va fauna dunyosi turlari qaysi bir mamlakat hududida yashashidan qat’i nazar, ularning xalqaro muhofaza qilinishi va xalqaro tashkilotlar tomonidan nazorat ostida bo‘lishi shart. Ko‘chib yuruvchi hayvonlar va qushlarning vaqtinchalik yashash makoni bo‘lgan botqoq, ko‘l, daryo yoki landshaftlar alohida muhofaza qilinadigan tabiiy obyektlar toifasiga kirgizilishini xalqaro huquqiy normalar talab qiladi. YuNESKOning «Kishilar va biosfera» xalqaro dasturiga muvofiq, O‘zbekistonda yangi ko‘rinishdagi Chotqol biosfera qo‘riqxonasi tashkil etildi.

Bo‘linadigan tabiiy resurslarga doimo yoki vaqtinchalik ikki va undan ortiq mamlakatlar hududlarida joylashgan dengiz (Boltiq, Oxota, Xitoy), daryo (Dunay, Sirdaryo, Amudaryo) va ko‘llar (Buyuk ko‘llar, Kaspiy, Orol) kiradi.

Bo‘linadigan tabiiy resurslarni huquqiy tartibga solish, asosan, undan manfaatdor mamlakatlar o‘rtasidagi tuzilgan shartnomalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Ushbu me’yoriy hujjatlarda, odatda, ulardan foydalanish, ularni muhofaza qilish, ularga oid nizolarni hal qilish, to‘lovlar, takroriy ishlab chiqarish masalalari aks etadi. Boshqaruv organi sifatida turli shakldagi ekologik komissiya yoki komitetlar tuziladi. Masalan, Orol ko‘li va uning havzasi bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlarining «Orolni qutqarish» doimiy komissiyasi ishlab turibdi. 1995-yil BMTning Orol havzasiga bag‘ishlangan maxsus xalqaro konferensiyasida «Nukus deklaratsiyasi», 1997-yil 28-fevralida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Almati uchrashuvida «Almati deklaratsiyasi» qabul qilindi va «Orol dengizini qutqarish» xalqaro jamg‘armasi tashkil etildi. Markaziy Osiyo davlatlari (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari) ning jamg‘armaga yillik badallari mamlakat byudjetining 0,3% miqdorida belgilandi.

Orol dengizi suvini to‘yintirib turuvchi ikki daryo – Amudaryo va Sirdaryolar ham xalqaro huquq obyekti hisoblanadi. Ulardan foydalanishni tartibga solishni «Basseynlar bo‘yicha komissiyalar» ko‘rib chiqadilar va har yili, sharoitga qarab, xalqaro huquq subyektlarining foydalanishi bo‘yicha aniq bir me’yoriy hujjatlarni qabul qiladilar.

4. Xalqaro ekologik tashkilotlar, konferensiyalar va jamg‘armalar

Umuminsoniyat qadriyatlaridan biri bo‘lmish Yer kurrasidagi atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va xalqaro tabiiy resurslardan samarali foydalanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ekologik tashkilotlar, muassasalar va idoralar o‘zlarining faoliyat doirasiga ko‘ra universal va regional (mintaqaviy) turlarga ajratiladi.

Universal xalqaro ekologik tashkilotlar – *faoliyat doirasiga ko‘ra turli toifadagi, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishidagi hamda dunyoning barcha mintaqalardagi davlatlarning ekologik munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan xalqaro tashkilotlari.* Ularga BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari kiradi.

Xalqaro universal ekologik tashkilot – *faoliyat doirasiga ko‘ra kompleks, jumladan ekologik masalalarni global miqyosda xal etuvchi xalqaro tashkilot.*

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – 1945-yilning 25-oktabridan buyon faoliyat yurgizib kelayotgan eng nufuzli xalqaro davlatlararo tashkilot bo‘lib, u o‘z oldiga davlatlar o‘rtasida tinchlik va xavfsizlikni saqlash, mustahkamlash va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadini qo‘yadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi BMT Nizomidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Bosh Assambleya – BMTning eng oliy toifadagi organlaridan bo‘lib, u xalqaro masalalarga doir hamma dolzarb masalalarni kun tartibiga kirgizadi. Keyingi 20–30 yil mobaynida Bosh Assambleyaning kun tartibiga ko‘pincha ekologik masalalar ham kirgiziladigan bo‘lib qoldi. Bosh Assambleya atrof-muhit muhofazasiga doir muammolar yuzasidan unga a’zo davlatlar va Xavfsizlik Kengashiga tegishli tavsiyalar berishga haqlidir. Shuning uchun ham Bosh Assambleya sessiyalarida yirik jamoat, davlat va siyosiy arboblarning ma’ruzasi tinglanadi hamda unga muvofiq xulosalar qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48, 50, 55-sessiyalarida hamda Mingyillik sammitda so‘zlagan nutqlarida jahon hamjamiyatining diqqat-e’tiborini Orol dengizining qurib borayotganligiga va uning oqibatida kelib chiqa-

yotgan ekologik inqirozli holatga qaratdi. 1995-yil 18–20-sentabrda Toshkentda ushbu tashabbusga muvofiq, BMT rahbarligida Orol muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

BMTning ekologik tadbirlari uning asosiy organlari yoki yordamchi idoralari orqali amalga oshiriladi. Bosh Assambleya qoshidagi BMTning *Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS)* muayyan turdagi aniq vazifalarni bajaradi. Ular toifasiga ekologik masalalar ham kiradi. Ekologik masalalar uning rahbarligi ostidagi qo‘mita va komissiyalar vazifasiga yuklatilgan. Tabiiy boyliklar qo‘mitasi ekologik vazifalarni bajarishda alohida o‘rin tutadi. EKOSOS o‘zining qo‘mita va komissiyalar faoliyati natijalarini umumlashtirib, Bosh Assambleyaga tavsiyanomalar beradi va konvensiyalar tayyorlaydi, o‘z vakolat doirasida xalqaro ekologik konferensiyalar chaqiradi, ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan birgalikda ekologik bitimlar tuzadi.

Aniq bir turdagi ekologik masalalarni BMTning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari olib boradi. Ixtisoslashtirilgan tashkilotlar BMT Nizomining 57-moddasiga muvofiq, davlatlar o‘rtasida tuzilgan bitimlar orqali tashkil etiladi va o‘zlarining ta’sis hujjatlariga binoan, bevosita yoki bilvosita ekologik masalalar bilan 63-moddasida ko‘rsatilgan qoidalarga asoslangan holda faoliyat olib boradi. BMT qoshida faoliyat ko‘rsatayotgan 16 dan ziyod ixtisoslashgan tashkilotdan quyidagilari atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir masalalar bilan bevosita shug‘ullanadi.

BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturi (YuNEP) 1972-yil 15 dekabrda tashkil topgan. YuNEP ning uchta bo‘limi – boshqaruvchilar Kengashi, atrof-muhit muhofazasini muvofiqlashtiruvchi Kengash va atrof-muhit Jamg‘armasi mavjud. Hal qiluvchi masalalar boshqaruvchilar Kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi va amalga oshiriladi. Uning kun tartibiga sakkiz yo‘nalishdagi masalalarni hal qilish qo‘yilgan:

- atrof-muhit sanitariyasi, aholi punktlarida kishilar salomatligi;
- yer va suv muhofazasi, cho‘llanishning oldini olish;
- okeanlarni muhofaza qilish;
- tabiat, yovvoyi hayvonlar va genetik resurslar muhofazasi;
- energetik muammolar;
- ekologik o‘quv va tegishli mutaxassislarni tayyorlash;
- tabiiy resurslar savdosi, iqtisodi va texnologiyalari;

- xalqaro va milliy qonunchilikni kodifikatsiyalash hamda unifikatsiyalash.

YuNEP va ayrim rivojlangan mamlakatlar ko‘magida O‘zbekiston Respublikasida Biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va harakatlar rejasi va 20 dan ziyod milliy ekologik qonunlar ishlab chiqildi. O‘zbekistonda ekologik axborot tizimi – YuNEP/GRID – ARENDAL (Norvegiya) loyihasi tayyorlandi.

O‘zining ekologik funksiyalari bilan YuNEP ga yaqin bo‘lgan BMT tashkilotlaridan biri – *madaniyat, fan va maorif masalalari bo‘yicha xalqaro tashkilot (YuNESKO)*. YuNESKO 1948-yil tashkil topgan va o‘z Nizomiga muvofiq, u atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir quyidagi masalalarni hal qilishda faoliyat yurgizadi:

☑ *100 dan ortiq mamlakatlar ishtirok etadigan xalqaro ekologik dasturlarga rahbarlik qiladi*. Shular qatorida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurgizib kelayotgan «Inson va biosfera» (MAB), Tabiat muhofazasiga doir xalqaro maorif dasturi, Xalqaro gidrologik dastur (1995-yildan buyon YuNESKO va Germaniya fan va texnologiyalar vazirligi loyihasiga binoan Orol dengizi atrofidagi yer usti va osti suvlarini baholash va modellashtirish ishlari olib borilmoqda) va hokazo;

☑ *Tabiiy obyektlar muhofazasini hisobga oladi va tashkil etadi*. Shunga asosan, Yer kurrasining turli burchaklarida biosfera qo‘riqxonalari tashkil etilgan. Biosfera qo‘riqxonalarini tashkil etish, ularda atrof-muhitga inson faoliyatining ta’sir qilish darajasining monitoringini olib borish YuNESKOning universal dasturi asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston hududida 1995-yildan buyon Chotqol tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi xalqaro yagona biosfera qo‘riqxonalar tizimida ishtirok etib kelmoqda. Ammo uning faoliyati YuNESKO dasturining 3 tabaqali tegralash bo‘yicha qo‘riqxona ishini tashkil qilish talabiga hanuzgacha javob bermaydi. Biosfera qo‘riqxonasi hududi – qo‘riqxona, bufer (himoya) va yadro tegralariga ajratilmagan. Qo‘riqxonadagi bunday tashkiliy ishlarni amalga oshirish ma’lum darajada moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni taqozo qiladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) eng birinchilar qatori (1946-yil)da tuzilgan BMT ning tashkiloti bo‘lib, u atrof-muhitning salbiy o‘zgarishi natijasida inson salomatligi holati, uni saqlash va mustahkamlashga o‘z faoliyatini qaratadi. JSST quyidagi ekologik vazifalarni amalga oshiradi:

- atrof tabiiy muhitning sanitar-epidemiologik monitoringini olib borish;
- atrof-muhit holatiga qarab, kishilarda kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishi bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash hamda ularni umumlashtirish;
- atrof-muhitning sanitar-gigienik ekspertizasini olib borish va uning sifatiga baho berish;
- shaharlarda inson salomatligi masalalarini tadqiq qilish;
- rekreatsion tabiiy mintaqalar va ularda aholining hordiq chiqarish chora-tadbirlarini olib borish.

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) 1945-yilda tuzilgan bo‘lib, uning qarorgohi Rim shahrida. FAOning ekologik faoliyati xalqaro tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish orqali Yer yuzida ortib borayotgan aholining oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirish. FAOning sa’y-harakati orqali «Dunyo tuproq kartasi» tuzilgan. «Umumjahon tuproq kartasi» qabul qilingan, aholini joylashtirish, oziq-ovqat muammolari, sahrolanishga qarshi kurash, suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish mavzusidagi bir qator xalqaro anjumanlar o‘tkazilmoqda.

Hukumatlararo dengiz kengashi tashkiloti (HDK) 1948-yilda tuzilgan bo‘lib, uning qarorgohi London shahrida. HDK dunyo okeani va dengizlarda suv transportidan foydalanishning ekologik xavfsizlik darajasini ta’minlab berishda faol ishtirok etmoqda hamda ularning ifloslanishiga qarshi kurash bo‘yicha bir qator konvensiyalar ishlab chiqqan. Bu tashkilot o‘z tarkibiga yuzdan ziyod mamlakatlarni birlashtirib, dengiz suvlari muhofazasiga doir asosiy xalqaro prinsiplarni o‘rnatadi va uning siyosatini olib boradi.

Jahon meteorologik tashkiloti (JMT) 1947-yilda tuzilgan bo‘lib, uning qarorgohi Jeneva shahrida. JMTning maqsadi insonlarning xo‘jalik faoliyatini sayyoramiz iqlimiga ta’sir ko‘rsatish darajasini tadqiq qiladi va ularga oid materiallar to‘playdi. U atrof-muhitning global monitoring tizimi (AMGMT) bo‘yicha JMT, JSST, FAO, YuNESKO tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yurgizadi. Bu tizimni YuNEP tashkiloti muvofiqlashtirib turadi. AMGMT harakatdagi 5 dasturni muvofiqlashtirib turadi:

- atmosfera havosi holatining monitoringi;
- ifloslantiruvchi moddalarni uzoq masofalarga ko‘chirish;

- inson salomatligi;
- dunyo okeanlari;
- quruqlikdagi resurslarni tiklash.

O‘zbekiston Respublikasi AMGMT dasturi bo‘yicha tuzilgan «Iqlimning o‘zgarishi to‘g‘risida»gi konvensiyaga 1993-yildan boshlab a’zo. Hozirgi kunda ushbu Konvensiyani 59 mamlakat ratifikatsiya qilgan. 1996-yil 12–14 noyabrda Toshkent shahrida o‘tkazilgan ushbu Konvensiya bo‘yicha seminar yig‘ilishida quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi:

– iqlimning o‘zgarishi to‘g‘risidagi Konvensiya bilan Markaziy Osiyo davlatlari va nodavlat tashkilotlarini tanishtirish;

– Konvensiyaga qo‘shilmagan mamlakatlarni jalb qilish;

– Markaziy Osiyo davlatlariga BMT, xususan, YuNEP ning yordam ko‘rsatish yo‘llarini aniqlash;

– O‘zboshgidromet va boshqa respublikalar gidrometeorologik xizmatlaridan arid (quruq) iqlim sharoitlarida iqlimga sanoat ta’sirini aniqlash metodikalarini takomillashtirish.

BMTning *Tabiiy ofatlarni bartaraf etishga yordam ko‘rsatish bo‘yicha byurosi (YuNDRO)* turli davlatlar va tashkilotlarga tabiiy ofat natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatida yordam ko‘rsatishni tashkillashtiradi va olib boradi. Byuro Yer yuzida sodir bo‘layotgan tabiiy ofatlar bo‘yicha ma’lumotlar bankiga va har bir salbiy ekologik jarayonning oldini olishning aniq tadbirlarini qo‘llash tavsiyanomalariga ega.

1948-yilda tashkil topgan *Tabiat va tabiiy resurslarni muhofazalashning xalqaro ittifoqi (TMXI)* nodavlat tashkilot bo‘lib, u 100 dan ziyod davlat va 500 dan ziyod nodavlat tashkilotlarni a’zo qilib olgan. TMXIning asosiy vazifasi unga a’zo bo‘lib kirgan mamlakatlar va ularda faoliyat yurgizayotgan tashkilot, birlashma, uyushma va fuqarolarning ekologiya sohasida hamkorligini yanada rivojlantirishdir. TMXI tashkiloti quyidagi masalalar bo‘yicha faoliyat yurgizadi:

- tabiiy o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda ekotizmlarni saqlab qolish;
- noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik va hayvonot dunyosi turlarini hamda tabiiy yodgorliklarni saqlab qolish;
- qo‘riqxona, rezervatsiya, milliy bog‘larni tashkil qilish;
- ekologik o‘quvni tashkillashtirish.

TMXI tashabbusi bilan Yer yuzasida noyob, yo‘q bo‘lib ketayotgan yoki yo‘qolish xavfida bo‘lgan o‘simlik va hayvon turlari bo‘yicha «Xalqaro «Qizil kitob»» tuzilgan va unga doimo qo‘shimchalar kiritilib boriladi. «Tabiatni muhofaza qilishning Butunjahon strategiyasi» dasturi ishlab chiqilgan va bunga asosan O‘zbekistonda «Biologik xilma-xillikni saqlab qolishning milliy strategiyasi va harakatlar rejasi» ishlab chiqilgan.

Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik (MAGATE) – 1957-yilda tashkil etilgan davlatlararo tashkilotdir. Agentlikning Nizomiga binoan, uning maqsadi atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishga yerishishga ko‘maklashish va uni nazorat qilish. MAGATE 34 ta mamlakat nomidan qatnashadigan boshqaruvchilar Kengashi orqali quyidagi ekologik masalalarni ko‘rib chiqadi:

- atom elektrostansiyalarni qurish va ishlatish qoidalarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish yoki loyihadagi atom elektrostansiyalarning ekologik xavfsizligini ekspertiza qilish;
- atom qurilmalari va materiallarini atrof-muhitga ta’sirini baholash;
- radiatsion xavfsizlik me’yorlarini belgilash;
- turli atom qurollarini sinash, unga tayyorlash yoki laboratoriya sinovlarini o‘tkazish bo‘yicha monitoringni olib borish.

MAGATE talabiga itoat etmaslik BMT Bosh Assambleyasi Xavfsizlik Kengashi qaroriga binoan, Iroq va Yeronga nisbatan qo‘llanilgan yoki qo‘llanilayotgan siyosiy va iqtisodiy sanksiyalar orqali qarshi kurash chorasini tatbiq etishi mumkin.

Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda mintaqaviy (regional) tashkilotlarning ahamiyati juda katta. Chunki ular har bir mintaqaning aniq ekologik holatini, millatlarning azaliy yaqinligini, ekologik inqirozlarning bir-biriga juda tezlik bilan ta’sir qilishini hamda ularning diniy, ma’rifiy va madaniy yaqinligini inobatga oladi.

Xalqaro regional ekologik tashkilot – *faoliyat doirasiga ko‘ra kompleks, jumladan ekologik masalalarni mintaqaviy miqyosda xal etuvchi xalqaro tashkilot.*

Regional tashkilotlarga – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), Arab davlatlari ligasi (ADL), Afrika birligi tashkiloti

(ABT), Amerika davlatlari tashkiloti (ADT), Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Davlatlararo ekologik Kengash (DEK), Orol dengizi havzasi muammolari bo‘yicha Kengash va shu kabi mintaqaviy tashkilotlar kiradi.

*OBSE*ga barcha Yevropa mamlakatlari, AQSh, Kanada va MDH davlatlari a’zodirlar. Ushbu nufuzli regional tashkilot 1972–1975-yillarda Xelsinki shahrida bo‘lib o‘tgan uch bosqichli uchrashuvlar va muzokaralar natijasida 1975-yil 1-avgustdan faoliyat yurgiza boshlagan. OBSEning maqsadlaridan biri unga a’zo mamlakatlar doirasidagi hududlarda ekologik xavfsizlikni ta’minlash va bu sohada ular o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish. Xelsinkida imzolangan Yakuniy hujjatga muvofiq har qanday global masalalar bo‘yicha uning qoidalarini bajarishni nazoratlash va muhokama qilish maqsadida uchrashuvlar o‘tkazilib turiladi.

1995-yil 10–14-noyabrda Toshkent – Urganch shaharlarida OBSE ning atrof-muhitni tiklash bo‘yicha seminari bo‘lib o‘tdi. Seminarda BMTning YuNEP, PROON, JSST, MAGATE, MDO‘, Jahon banki hamda OBSEga a’zo 20 ta mamlakat, jumladan, O‘zbekiston ham qatnashdi. Seminar qarorida Markaziy Osiyo respublikalarida inson huquqlarining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan ekologik xavfsizlikni to‘laqonli ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadbirlar belgilanib olindi.

Arab davlatlari ligasi (ADL) 1945-yilda tashkil qilingan bo‘lib, 21 ta arab mamlakatlari va Falastin Ozodlik tashkilotining tabiiy resurslaridan (ayniqsa neftdan) kelishgan holda foydalanish va sog‘liqni saqlashning ekologik masalalarini ko‘rib chiqadi.

Afrika birligi tashkiloti (ABT) 1963-yilda Addis-Abebada bo‘lib o‘tgan konferensiyada tashkil etilgan. Ushbu regional tashkilot 50 dan ziyod Afrika qit’asidagi mamlakatlarni ijtimoiy, iqtisodiy, ma’rifiy, madaniy, harbiy masalalarda birlashtirib turadi. ABT da ekologik muammolardan hayvonot va o‘simlik dunyosining xilma-xilligini saqlab qolish bo‘yicha milliy bog‘lar tashkillashtirish va ularni muhofaza qilishning yagona rejasi ishlab chiqilgan.

Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) 1947-yili Rio-de-Janeyroda tashkil topgan bo‘lib, unga 27 ta Lotin Amerikasi davlatlari va AQSh a’zo. ADT tarkibida atrof-muhit muhofazasiga doir ixtisoslashgan tashkilot mavjud bo‘lib, uning asosiy maqsadi Amerika qit’asidagi biologik xilma-xillikni saqlashdir.

Davlatlararo ekologik kengash (DEK) 1992-yil 8-fevralda mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) rahbarlarining Moskvada bo‘lib o‘tgan kengashida tasdiqlangan. O‘zbekiston uning to‘la huquqli a’zosi sifatida sobiq Ittifoq mamlakatlari bilan atrof-muhitni muhofaza qilishni kelishib olgan. DEK muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlarini ko‘zlab faoliyat yurgizadi.

DEK ga a’zo 10 davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Kelishuvga muvofiq (1-modda), uning a’zolari o‘z hududlari uchun atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini ishlab chiqadilar va shu asosda huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy zamin yaratadilar hamda o‘zaro hamkorlik qiladilar.

1993-yil mart oyida Qozog‘istonning Qizilo‘rda shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyodagi besh davlatning Oliy darajadagi uchrashuvida *Orol dengizi muammolari bo‘yicha Davlatlararo Kengash* va uning Ijroiya qo‘mitasi hamda Orolni qutqarish Xalqaro fondi tashkil etildi. 1994-yil Nukus, 1995-yil Tashhovuz va 1997-yil Almati shahrida BMTning ishtirokida bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarda Nukus va Almati deklaratsiyalari qabul qilindi. Ushbu uchrashuvlarda Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish rejalari ishlab chiqildi. Kengashning taklifi va BMTning homiyligida 1998-yilni atrof-muhitni muhofaza qilish yili deb e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan Markaziy Osiyo mintaqasi – ekologik va yadroviy xavfsizlik mintaqasi deb e’lon qilindi va bu region yadro qurolidan xoli tegra hisoblaniladigan bo‘ldi.

Atrof-muhit muhofazasiga doir faoliyat yurgizayotgan tashkilotlardan tashqari, doimiy ravishda, ekologik yo‘nalish bo‘yicha tashkillashtirilayotgan va o‘zining ekologik harakatiga ko‘pgina davlatlarni jalb qilayotgan *xalqaro konferensiya*larning atrof-muhit muhofazasidagi ahamiyati juda kattadir. Ular orasida 1972-yil atrof-muhit bo‘yicha BMTning Stokgolm konferensiyasi, 1975-yil Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Kengashi, 1986-yil OBSE davlatlari boshliqlarining Vena uchrashuvi, 1992-yil BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Rio-de-Janeyro konferensiyasi, 1999-yil EXO‘Tning Istambul Sammiti, 2002-yil Yoxannesburg Sammiti va 2012-yil «Rio+20» konferensiyasi alohida o‘rinda turadi.

Xalqaro ekologik jamg‘armalar tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitning sanitar va gigienik holatini yaxshilash va ekologik dasturlarni

moliyaviy ta’minlash kabi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ekologik fondlar. Faoliyat yurgizish va amaliy harakat qilish ko‘lamiga ko‘ra, ular *umumjahon*, *regional* va *regionlararo turlarga ajratiladi*.

Xalqaro ekologik jamg‘arma – *xalqaro miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalarini moliyaviy ta’minlashga qaratilgan fondlar.*

Umumjahon ekologik jamg‘armalarga BMTning YuNEP tashkiloti qoshidagi «*Atrof-muhit jamg‘armasi*»ni olsak bo‘ladi. Bu jamg‘arma o‘zining moliyaviy mablag‘larini BMTga a’zo davlatlarning badal to‘lovlaridan, xalqaro tabiiy obyektlardan davlatlarning maxsus foydalanganlik uchun yig‘ilgan to‘lovlaridan, xalqaro Gaaga sudi qaroriga binoan, atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni xalqaro ekologiya huquqi subyektlari tomonidan iqtisodiy qoplash bo‘yicha to‘lovlardan, yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan xayriyalardan va turli-tuman lotereya, shou, sport o‘yinlari kabi tadbirlardan tushgan pul yig‘imlaridan to‘ldirib boradi. Uning mablag‘lari faqatgina atrof-muhit muhofazasi va sanitar-epidemiologik holatini yaxshilashga yo‘naltiriladi. Bu jamg‘arma orqali Markaziy Osiyo mamlakatlariga 1994–2010-yillar mobaynida bir necha yuzlab millionlik AQSh dollarida Orolni qutqarish bo‘yicha moliyaviy va moddiy yordam ko‘rsatilgan.

Regionlararo ekologik jamg‘armalar turiga Minsk shahrida qarorgohi bo‘lgan, MDH mamlakatlari orasida tashkil qilingan va Xalqaro Iqtisodiy Kengash (XIK) davlatlarining badal to‘lovlari asosida tashkil qilingan «*Xalqaro ekologik jamg‘arma*» kiradi. Uning nizom kapitali 60 mln. rubldan iborat. Yiliga unga a’zo mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi, yalpi milliy daromadning 0,05% miqdorida pul mablag‘larini o‘tkazib turadilar. Jamg‘arma XIK davlatlarining o‘zaro Kelishuviga binoan (1-modda) tuzilgan Milliy ekologik dasturlarni moliyalab turadi.

XIKning keyingi yillarda o‘tkazgan Oliy darajadagi uchrashuvlarida xalqaro ekologik jamg‘arma tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatish kerak bo‘lgan quyidagi obyektlar aniqlandi: Chernobil zonasi, Amudaryo va Dnepr havzalari, Balxash ko‘li, Qora, Azov, Kaspiy dengizlari, Orol bo‘yi tegrasi.

Markaziy Osiyo mintaqasida juda faol harakat yurgizayotgan regional jamg‘arma – *xalqaro «Ekosan» jamg‘armasi*. Nodavlat notijorat Ekosan tashkiloti 1992-yil Toshkent shahrida tuzilgan bo‘lib, hozirgi

kunda uning faoliyati ancha susaygan. Ekosan – grekcha «ekos» va «sanos» so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, ekologiya va salomatlik degan ma’noni anglatadi. Uning maqsadi va vazifalari Markaziy Osiyo davlatlarida dolzarb ijtimoiy-ekologik muammolarni tadqiq qilish, ilmiy konsepsiyalarni ishlab chiqish va dastavval bajarilishi kerak bo‘lgan muammolarga tadqiqotlarni yo‘naltirish, ilmiy asoslangan ekologik siyosatni ishlab chiqish, ekologik xavfsizlikning yagona tizimini yaratish, ekologik o‘quv, ong va madaniyatni shakllantirish, yagona region uchun iqtisodiy-ekologik tizimni tuzish borasida davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar, olimlar va mutaxassislarning sa’y-harakatlarini birlashtirishdir.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Qizilo‘rda uchrashuvida 1993-yil 4-yanvarda *Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi* tashkil qilindi. Jamg‘arma davlatlararo tashkilot bo‘lib, uning mablag‘i ishtirokchilari (O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari)ning yillik badal to‘lovlari orqali tashkil qilinadi. Badal to‘lovi har bir ishtirokchi mamlakat uchun byudjetning 0,3% miqdorida belgilangan. Uning ijroiya qo‘mitasi tuzilgan bo‘lib, jamg‘arma Raisi uch yillik muddatga, ketma-ketlik asosida, bir-bir davlat Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari darajasida saylanadi. Jamg‘arma Prezidenti esa bir yillik muddatga davlat rahbarlaridan saylanadi. Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armaning asosiy maqsadi Orol dengizi atrofidagi ekologik inqirozli holatni yumshatish va aholining sanitar-gigienik hayot tarzini yaxshilashdan iborat.

5. Ayrim xorijiy mamlakatlarda ekologiya huquqi

Ekologiya huquqining maxsus qismida atrof-muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilish bilan bir qatorda, ayrim rivojlangan va (yoki) ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyi O‘zbekistonga yaqin bo‘lgan davlatlarda ekologik munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga oid institutlarni ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq, deb topgan edik. Chunki dunyo tajribasini o‘rganmay turib, ekologiya sohasida katta muvaffaqiyatlarga yerishish qiyindir.

Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSh) – iqtisodiy-ijtimoiy-ekologik jihatdan eng rivojlangan mamlakatlardan biri. Xristofor Kolumb tomonidan ilk bor zabt etilgandan buyon unda juda keskin ekologik o‘zgarishlar yuzaga keldi. Yevropaliklar va o‘zga qit’alardan ko‘chib

kelganlar uni 200 yil ichida «tabiat qo‘riqxonasidan» «antropogen axlat»ga aylantirib yubordilar. XX asrning boshlariga kelib AQShda na bizonlar ham va mustanglar har qolmagan edi. O‘rmonlarning 1/3 qisqarib, yer osti boyliklari qit’aga boyish maqsadida kelgan kishilar tomonidan ayovsizlarcha yo‘q qilib tashlandi. Atrof-muhitni ifloslash bo‘yicha AQSh dunyoda hammani yarim yo‘lda qoldirib ketgan edi.

1908-yil Prezident Teodor Ruzvelt AQShning tabiat muhofazasiga oid birinchi milliy konferensiyasini chaqirdi. *1909-yil Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi* va *1915-yil Amerika ekologlar jamiyati* tuzildi.

Lekin tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan o‘ta samaradorlik bilan foydalanish 1970-yildan boshlandi. Prezident Richard Nikson tashabbusi bilan Tabiatni muhofaza qilish Agentligi tashkil etildi. Agentlik Senatga «Toza havo to‘g‘risida», «Yo‘qolib borayotgan biologik turlar to‘g‘risida» va shu kabi ko‘plab qonunlarni tavsiya etdi. Xuddi shu paytdan boshlab davlatning federal organlari xalq xo‘jaligining barcha sohalarini ekologiyalashtirishni uyushtirdilar. Hech bir davlat organi, jismoniy yoki yuridik shaxs AQShda «ekologik arizasiz» faoliyat yurgiza olmaydigan bo‘lib qoldi.

Ekologik qonunchilik jarayoni *Senat* va uning maxsus – *Atrof-muhit bo‘yicha va Jamoat ishlari bo‘yicha komitet*larida amalga oshiriladi.

Ichki ishlar vazirligi milliy bog‘larni, baliq xo‘jaligi tegralarini va tabiiy boyliklarni asrashni o‘z zimmasiga olgan. Aynan politsiya tabiiy boyliklar milliy reyestrini olib boradi, atrof-muhit muhofazasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi. Dam olish va rekratsion hududlarga doir ekologik rejalarni texnik jihatdan amalga oshirishni ta’minlaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish Agentligi atrof tabiiy muhitning ifloslanishini kamaytirishda barcha davlat organlari, jamoat tashkilotlari va shtatlarning sa’y-harakatlarini birlashtiradi, ekologik turdagi ilmiy faoliyatlarni tashkillashtiradi, davlat standartlarini ishlab chiqadi hamda ekologik qoidalarga rioya etilishini ta’minlaydi. Agentlik AQShda, Soliq qo‘mitasi kabi, o‘ta kuchli davlat organi hisoblanadi va unda 20 mingdan ortiq mutaxassislar ishlaydi. Ular «Ifloslanishning oldini olish unga qarshi kurashdan arzonroq va yaxshiroqdir» degan prinsipga amal qiladilar.

AQSh *shtatlari va regionlarida* maxsus *Tabiatni muhofaza qilish boshqarmalari* faoliyat yuritadilar. Ular o‘z faoliyatlarini federal

vazirliklar va agentliklar bilan kelishgan holda olib boradilar. AQShda tabiiy resurslardan sanoat maqsadlarida foydalanish juda qimmatga tushganligi sababli, ushbu biznes sohiblari tabiiy resurslarni chet mamlakatlardan olib kelishga harakat qiladilar.

Tabiatni ekologik-huquqiy muhofaza qilishda «Atrof-muhitni muhofaza qilishning milliy siyosati to‘g‘risida»gi qonun alohida o‘rin egallaydi. Bu Qonunga binoan, 1970-yil 1-yanvardan boshlab, federal boshqaruv darajasida har bir fuqaro (Prezidentdan boshlab) tabiatga munosabatini belgilovchi «ariza» yozadi va unga nisbatan o‘z harakatining yuridik asosini yaratadi. Ushbu «ariza»ga amal qilmaslik huquqbuzarlarga operativ tarzda juda katta miqdordagi ma’muriy yoki jinoiy jazo sanksiyalarini qo‘llashga asos bo‘la oladi.

AQSh ekologik qonunchiligining o‘ziga xos tomoni qonunlarning juda ko‘p moddalardan iborat bo‘lishi va hamma tegishli ekologik munosabatlarni qamrab olishi, «otangga bor, onangga bor» kabi boshqa qonun osti normativ hujjatlarga deyarli yo‘naltirilmaganligidir. Shuning uchun ham qonunlar uzoq muddat davomida tayyorlanadi va hajmi juda kattadir.

AQShda ekologik munosabat obyektlaridan ichki suvlarni ifloslanishdan saqlash; dengiz muhitini muhofazalash; qattiq chiqindilar va zaharli moddalarni zararlantirish, ko‘chirish, utillashtirish va qayta ishlashga alohida e’tibor beriladi. O‘nlab ixtisoslashtirilgan qonunlar, dasturlar, rejalar va harakatlar strategiyasi qabul qilingan.

Rossiya Federatsiyasi (RF) AQSh kabi federativ davlat, lekin unda Ekologiya huquqi birmuncha boshqacharoq. Rossiyada tabiiy obyektlarga nisbatan davlat va munisipal mulkchilik o‘rnatilgan. Davlat mulki markaziy federativ organlar va federativ subyektlar tomonidan boshqariladi. Munisipal mulk esa mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlar tasarrufiga berilgan. Lekin Konstitutsiya va ixtisoslashtirilgan ekologik qonunchilik manbalari tabiat obyektlariga xususiy va boshqa mulkchilik shakllarini ham o‘rnatgan.

Rossiya Federatsiyasida *yuridik shaxs va fuqarolarning xususiy mulki bo‘lib – yer uchastkalari* (RF Konstitutsiyasining 36-moddasi), *alohida joylashgan yopiq suv obyektlari* (RF Suv kodeksining 40-moddasi), fuqaro va yuridik shaxslarning xususiy mulkchiligida joylashgan *daraxt va butalar* (RF O‘rmon kodeksining 20-moddasi) hisoblanishi mumkin.

RFda maxsus ekologik boshqaruv funksiyasi, AQShnikidan farqli, federal, respublika, o‘lka, viloyat munisipal tabiatni muhofaza qilish organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladi. Huquqni muhofaza qilish organlari faqatgina ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga nisbatan qarshi kurash funksiyalarini amalga oshiradi. Umumiqtisodiy, umumsiyosiy va umumekologik vazifalarni bajaruvchi tabiiy obyektlar federal organlarning boshqaruv funksiyasiga kiritilgan.

RFning Ekologiya huquqida tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir turli yo‘nalishlar, dasturlar va konsepsiyalar juda ko‘p. Ekologik-huquqiy holat ayrim olimlarning fikriga ko‘ra, faqatgina tabiiy komplekslar, tabiiy resurslar va noyob organizmlarga nisbatan o‘rnatilishi kerak desa[1], ayrimlari[2] – ekologik tizimlar (mahalliy, regional va milliy) bo‘yicha o‘rnatilishini yoqlab chiqadilar; boshqalari[3] – xalq xo‘jaligi obyektlari bo‘yicha o‘rnatilishini ma’qul ko‘radilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, 150 dan ortiq Ekologiya huquqiga doir o‘quv darsliklari va qo‘llanmalari chop etilgan. Yana bir holatga e’tibor berish kerak, ekologik o‘quv umummajburiy hisoblaniladi va har yili yuzlab imtihonga tayyorlanish kitoblari nashrdan chiqadi. Umuman olganda, RF da ekologik ta’lim keyingi vaqtda yaxshi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Yaponiya. Quyosh chiqish yurtida ekologiya, xususan, ekologiya huquqi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aholisining ko‘pligi va maydonining kichikligi yaponlarni atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini qadimdan shakllantirib kelgan.

XX asrning 70–80-yillarida qabul qilingan atrof-muhit muhofazasiga oid bir qator qonunlar ekologik munosabat prinsiplari va mexanizmini o‘rnatgan. Ular jumlasiga, «Korxonalarni joylashtirish to‘g‘risida» (1972), «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida» (1981), «Portlar va gavnlar to‘g‘risida» (1972), «Suv havzalarining sifatini yaxshilash to‘g‘risida» (1972)gi qonunlar kiradi. Shunday qilib, yaponlarning milliy ekologik huquqi manbalarida nafaqat atrof-muhit muhofazasiga doir normalar, standartlar, me’yorlar va qoidalar, yana ularni hayotga tatbiq etish metodlari va yo‘llari ham beriladi.

---

[1] Н.В.Кузнецов. Экологическое право (схемы и комментарии). – Юриспруденция, 1996. – С. 160.

[2] Б.Ф.Ерофеев. Экологическое право Россиии. – М.: Юристъ, 1996. – 624 с.

[3] В.В.Петров. Экологичесмкое право России. – М.: БЕК, 2003. – 537 с.

Ekologik ekspertizani o‘tkazish Yaponiya qonunchiligida mahalliy davlat boshqaruv organlariga topshirilgan. Davlat ahamiyatiga molik ekspertizani Atrof-muhit bo‘yicha agentlik, Atrof-muhit bo‘yicha boshqarmalar o‘tkazadilar. Ularning funksiyalariga: qurilish loyihalarining mazmuni; tabiatni muhofaza qilish inshootlarining turlari; hududlarning tabiiy-geografik xususiyati; tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari; ekologik muammolarning birlamchiligi; istiqbolni belgilash modellariga doir ma’lumotlarni yig‘ish ham kiradi.

Yaponiyada xalqaro ekologik munosabatlarni tartibga solib turuvchi maxsus davlat organlari faoliyat yuritadi. Ular rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish loyihalarini ham ishlab chiqadilar va amaliy yordamni amalga oshirishni nazorat qiladilar.

Kanada. Tabiati go‘zal bo‘lgan shimoliy mamlakatlar qatoridan joy olgan Kanadaning davlat ramzi sifatida «uch zarang bargi» olingan. Ekologik tadbirlar davlatning iqtisodiy rejalashtirish va qarorlarni qabul qilish jarayoni bilan birgalikda olib boriladi.

Kanadada tabiatni muhofaza qilish masalasi, asosan, uning provinsiyalari orqali amalga oshiriladi. Har bir provinsiyaning ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonunlari mavjud bo‘lib, ular mahalliy boshqaruv subyektlarning qattiq nazoratida turadi.

Ekologik qonunchilik umumiy va maxsus vakolatlangan davlat organlaridan atrof-muhitga oid ma’lumotlarni doimiy berib turish, jamoatchilik bilan muloqotda bo‘lish, taftish ma’lumotlarini ommaviy axborot vositalarida chop etib turish majburiyatini yuklaydi. Yuristlar esa bunday faoliyatni ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishning eng progressiv metodi, deya e’tirof etishmoqda.

Kanada dunyoda eng «ekologiyalashtirilgan davlatlar» qatoridan joy olgan bo‘lib, birgina o‘rmonlarni muhofaza qilishdagi «Yashil reja» xalqaro hamjamiyat uchun namuna tariqasida olinadi. Bu dastur o‘rmonlarni muhofaza qilmoqchi bo‘lgan davlatlarga moddiy yordam ko‘rsatishni ham nazarda tutadi. Bu degan so‘z davlat byudjeti o‘zga davlatlarda ekologik munosabatlarni tartibga solishga yordam berishni ham ko‘zda tutadi.

6. Xalqaro ekologik javobgarlik

Xalqaro huquq subyektlarining ekologik javobgarligi – *zararli yoki xilof harakatlari, ularning o‘z iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, texnologik kabi faoliyatlari natijasida kelib chiqadigan atrof-muhit muhofazasiga zid bo‘lgan harakat yoki harakatsizliklari.*

Agarda davlatlar, xalqaro tashkilotlar va transkontinental korporatsiyalar faoliyatlari BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari yoki regional ekologik tashkilotlar tomonidan belgilangan atrof-muhit holati huquqiy me’yorlar doirasida bo‘lsa, bu holat ushbu subyektlarning Yer tabiati oldidagi iqtisodiy-ekologik javobgarligini yuzaga keltiradi. Bu ularning tabiat, qolaversa, kelajak avlodlar oldidagi moddiy va ma’naviy javobgarligi, deyish mumkin. Mazkur javobgarlik esa iqtisodiy-ekologik javobgarlik deyiladi.

Xalqaro ekologik-iqtisodiy javobgarligi atrof tabiiy muhit va uning unsurlariga yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan amalga oshiriladigan iqtisodiy tadbir bo‘lib, u xalqaro munosabat ishtirokchilarining umumjahon, regional yoki subregional turdagi ekologik jamg‘armalarga muntazam ravishda to‘lanadigan badal (moliyaviy) to‘lovlari. Lekin hech qanday hollarda va hech qanday sabab-oqibatlarda bunday ekologik badal to‘lovlari umumiqtisodiy yoki umumijtimoiy ko‘rinishdagi jamg‘armalar orqali amalga oshirilmasligi kerak. Chunki umumiy «qozonga» tushgan osh «ekologik cho‘michga» ilinmay qolishi ham mumkin.

Xalqaro ekologik-iqtisodiy javobgarlik – *atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash uchun ushbu munosabat subyektlarini ekologik jamg‘armalarga tushiradigan badal to‘lovlari.*

O‘zbekiston iqtisodiy-ekologik javobgarlik bo‘yicha badal to‘lovlarini BMT qoshidagi global, MDHning regional va Markaziy Osiyo davlatlarining Orolni qutqarish jamg‘armalariga ma’lum bir belgilangan foiz asosida o‘tkazib turadi va bu bilan u atrof tabiiy muhitga yetkazilgan moddiy zararni iqtisodiy-ekologik javobgarlik nuqtayi nazaridan qoplab turadi.

Kosmik fazoni o‘zlashtirishga oid dasturlarni bajaruvchi ayrim davlatlar, birlashmalar va xalqaro tashkilotlar 1972-yilda qabul qilin-

gan «Kosmik kemalar orqali kosmik fazoga zarar yetkazish» konvensiyasining 2-moddasiga binoan tabiatga yetkazilgan zararni qoplashlari kerak bo‘ladi.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik esa xalqaro ekologik obyektlardan universal, regional va ikki davlat o‘rtasida belgilangan xalqaro-huquqiy me’yorlardan oshirib foydalanish yoki ularni buzish orqali atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash orqali kelib chiqadigan va xalqaro huquq subyektlariga qo‘llaniladigan noqulay moddiy va siyosiy sharoitlarning majburiy kechinmasi yoki ularning yuridik jazoga tortilishi.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik – *xalqaro ekologiya huquqi obyektlaridan foydalanish natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan xalqaro huquq subyektlariga qo‘llaniladigan noqulay moddiy va siyosiy sharoitlarning majburiy kechinmasi.*

Yuridik javobgarlikning *noqulay moddiy kechinmasi* yoki *moddiy javobgarligi* deganda, biz ekologik ziyon ko‘rgan davlatlarga yoki davlatlar yuridiksiyasida bo‘lmagan ekologik obyektlarga (xalqaro ekologik tashkilotlar orqali) yetkazilgan zararni moliyaviy (reparatsiya), natural holda (restutitsiya) yoki almashtirish (substitusiya) orqali qoplashni tushunamiz.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikning moddiy qoplanishining «restoratsiya» metodini, ya’ni muayyan tabiiy obyektni yoki moddiy obyektni huquqbuzar subyekt tomonidan to‘liq tiklab berish sanksiyasini qo‘llash ham mumkin. Masalan, tuproq unumdorligini tiklash, suvni tozalab berish yoki eroziya oqibatida buzilgan binoning halqaro huquq subyekti tomonidan tiklab berilishi.

Milliy ekologik javobgarlikdan xalqaro ekologik javobgarlikning asosiy farqi ularda qo‘llaniladigan sanksiyalardadir. Xalqaro huquq subyektlarini ozodlikdan mahrum qilish, kam ish haqi to‘lanadigan vazifaga tushirib qo‘yish, mol-mulkini musodara qilish, ma’muriy jazoga tortish imkoniyati bo‘lmaganligi uchun ham jazo sanksiyalarining o‘zgacha turlarini qo‘llashni taqozo qiladi.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikda aybdorlarga nisbatan *noqulay siyosiy kechinmalar*ni qo‘llash sanksiyasi ham mavjud. Jazo turi xalqaro tashkilotlar yoki ularning sudlov organlarining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Aybdor deb topilgan xalqaro subyekt xalqaro

tashkilotlar safidan chiqariladi yoki ularga nisbatan turli ko‘rinishdagi yoki shakldagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, harbiy, ekologik «boykot» e’lon qilinadi. Bunga yaqqol misol qilib BMTning Iroq Respublikasiga nisbatan bir necha yil mobaynida qo‘llanilgan iqtisodiy «boykot»ini olish mumkin. 2000-yil fevral oyida Rossiya Federatsiyasiga qarashli «Volga – Don» mazut tashuvchi daryo kemasi Bosfor bo‘g‘ozida Iroq xomashyosini olib ketayotganda ushlandi va yoqilg‘i konfiskasiya qilindi hamda kema qarashli kompaniyaga katta jarima solindi. Iroq Respublikasi urushni targ‘ib qilish va yadro qurolini yaratish orqali tabiatga va inson hayotiga tajovuz qilayotgan harakatlari uchun, xalqaro Gaaga sudi qarori bilan siyosiy sanksiyaga tortildi. Ammo yurisprudensiyada qo‘llaniladigan asosiy prinsiplardan biri «Huquqbuzarliklar uchun jazoning muqarrarligi» xalqaro-ekologik javobgarlikda hanuzgacha to‘lig‘icha qo‘llanilmayapti, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Eng nufuzli xalqaro sudlov organi – *BMT ning xalqaro Gaaga sudi* 1945-yil BMT bilan bir vaqtda faoliyat yurgiza boshladi. Sudyalar Bosh Assambleya tomonidan 5 yil muddatga saylanadilar. BMT Nizomining 99-moddasiga binoan Gaaga sudi Xavfsizlik Kengashiga, xalqaro ekologik masalalar, jumladan, ekologik xavfsizlikni saqlashga doir har qanday masalalarni ko‘rib chiqish uchun takliflar kiritish huquqiga ega.

Xalqaro ekspertlarning ma’lumotlariga ko‘ra, Yer kurrasida davlatlar yoki transkontinental kompaniyalar tomonidan sodir etilayotgan ekologik huquqbuzarliklarning bor-yo‘g‘i 7–8 foizi xalqaro sudlov organlari tomonidan ko‘rib chiqilmoqda. Vaholanki, ularning hammasi ham yetarlicha javobgarlikka tortilmayaptilar, natijada atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni qoplash uzoq muddatga cho‘zilib ketmoqda.

Gaaga sudidan tashqari bir qancha regional va subregional toifadagi xalqaro sudlar mavjud. Ular 230 dan ziyod ikki va ko‘p tomonlama imzolangan shartnoma va kelishuvlar bo‘yicha xalqaro ekologik javobgarlik sanksiyalarini qo‘llashlari mumkin. Bunda davlatlar o‘zlarining milliy qonun me’yorlarini yoki xalqaro tashkilotlarning Nizomlarini «ro‘kach» qilib ko‘rsatishlari aslo inobatga olinmasligi kerak. Chunki, xalqaro ekologiya huquqi prinsipiga binoan, atrof-muhitni muhofaza qilishda xalqaro huquqiy-me’yoriy normalar milliy normalarga nisbatan ustuvorlikka egadir. Undan tashqari, xalqaro shartnoma va kelishuvlarda ekologik-huquqiy javobgarlik ko‘pincha

inobatga olinmaydi, agar olingan bo‘lsa ham davlatlarning u yoki bu tabiiy obyektlari muhofazasiga qaratilgan, xolos. Shuning uchun ham xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik me’yorlari birlamchi me’yorlar toifasiga kiritilmaydi va huquqbuzarlarni yuridik javobgarlikka tortish uchun yetarli asos bo‘la olmaydi.

MDH va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida tuzilgan bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarda yuridik javobgarlikni qo‘llashning aniq bir me’yoriy turi maydon yoki makon bo‘yicha ko‘rsatib o‘tilmagan. Hanuzgacha ekologik-huquqiy manba sifatida javobgarlik Konvensiyalari imzolangan emas. Moddiy yoki siyosiy sanksiyalar turi, miqdori va ularning undirilishi yoki qo‘llash mexanizmi yo‘q. Regional va global miqyosda jazoni amalga oshiruvchi nazorat, inspeksiya va sudlov organlarini tuzish shu kunning kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, insonlarning yagona yashash makoni bo‘lgan Yer sayyorasining ekologik xavfsizligini ta’minlash biron-bir davlat, tashkilot yoki uyushmalarning sa’y-harakatlaridan boshlanadigan va xalqaro hamjamiyatning izchil ekologik siyosatini ishlab chiqish, uning iqtisodiy va huquqiy mexanizmini yaratish orqali amalga oshiriladi. Barqaror rivojlanishga erishish zamonamizning eng dolzarb ekologik muammolari yechimini topishga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
2. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining maqsadini aytib bering!
3. Kichik guruhlarga bo‘linib «Barqaror rivojlanish» va «Barqaror taraqqiyot» so‘zlar birikmasining umumiy va xususiy tomonlarini taqqoslab chiqing!
4. Stokgolm va Rio-de-Janeyro konferensiyalarida qanday xalqaro hujjatlar qabul qilindi?
5. Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish prinsiplarini sanab o‘ting!
6. Milliy huquq manbalari bilan xalqaro huquq manbalarining farqi nimada?
7. Konvensiya qanday shartnoma turi hisoblanadi?

8. Qanday tabiiy unsurlar xalqaro huquq obyekti bo‘ladi?
8. Antarktika qit’asidan foydalanish huquqi qanday?
9. Xalqaro ekologik tashkilotlarning turlariga misollar keltiring!
10. Rossiya Federatsiyasi, AQSh va O‘zbekiston Respublikasidagi ekologik boshqaruvni solishtiring!
11. «Rio+20» nima degani?

Bilimlar xazinaboni
kitobxon.uz

TABIATNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI QONUN HUJJATLARI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni (09.12.1992-y.).
2. O‘zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi» (30.04.1998 y.).
3. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat yer kadastri to‘g‘risida»gi qonuni (28.08.1998-y.).
4. O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonuni (30.04.1998-y.).
5. O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonuni (30.04.1998-y.).
6. O‘zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida» gi qonuni (03.12.2004-y.).
7. O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» gi qonuni (06.05.1993-y.).
8. O‘zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida» gi qonuni (27.12.1996-y.).
9. O‘zbekiston Respublikasining «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida» gi qonuni (26.12.1997-y.).
10. O‘zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida» gi qonuni (26.12.1997-y.).
11. O‘zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari to‘g‘risida» gi qonuni yangi tahrirda (13.12.2002 y.)/ (23.09.1994-y. – eski tahrir).
12. O‘zbekiston Respublikasining «Konsepsiyalar to‘g‘risida»gi qonuni (30.08.1995-y.).
13. O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida»gi qonuni (07.12.2001-y.).
14. O‘zbekiston Respublikasining «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonuni (15.04.1999-y.).
15. O‘zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi qonuni (25.05.2000-y.).
16. O‘zbekiston Respublikasining «Chiqindilar to‘g‘risida»gi qonuni (05.04.2002-y.).
17. O‘zbekiston Respublikasining «Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida»gi qonuni (31.08.2000-y.).
18. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi qonuni (03.07.1992-y.).

19. O‘zbekiston Respublikasining «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonuni (20.08.1999-y.).
20. O‘zbekiston Respublikasining «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonuni (28.12.1993-y.).
21. O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonuni (28.12.1993-y.).
22. O‘zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi qonuni (28.12.1993-y.).

EKOLOGIYA HUQUQIGA OID O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNLARI VA NORMATIV HUJJATLARI

I. Konstitusiya

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 2009.

II. Kodekslar

1. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. – 1998. –№ 5-6. 82 – modda.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2004.
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. -Toshkent: Adolat. 2003. - 496 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2004. – 343 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida»-gi kodeksi. Rasmiy nashr / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - Toshkent: Adolat, 2005. - 319 b.
6. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», 2007 yil, 52-son, (I).
7. III. Qonunlar
8. O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni (09.12.1992-y.).
9. O‘zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi» (30.04.1998 y.).
10. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat yer kadastri to‘g‘risida»gi qonuni (28.08.1998-y.).
11. O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonuni (30.04.1998-y.).

12. O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonuni (30.04.1998-y.).

13. O‘zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida» gi qonuni (03.12.2004-y.).

14. O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» gi qonuni (06.05.1993-y.).

15. O‘zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida» gi qonuni (27.12.1996-y.).

16. O‘zbekiston Respublikasining «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida» gi qonuni (26.12.1997-y.).

17. O‘zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida» gi qonuni (26.12.1997-y.).

18. O‘zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari to‘g‘risida» gi qonuni yangi tahrirda (13.12.2002-y.)/ (23.09.1994-y. – eski tahrir).

19. O‘zbekiston Respublikasining «Konsepsiyalar to‘g‘risida»gi qonuni (30.08.1995-y.).

20. O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida»gi qonuni (07.12.2001-y.).

21. O‘zbekiston Respublikasining «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonuni (15.04.1999-y.).

22. O‘zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi qonuni (25.05.2000 y.).

23. O‘zbekiston Respublikasining «Chiqindilar to‘g‘risida»gi qonuni (05.04.2002-y.).

24. O‘zbekiston Respublikasining «Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida»gi qonuni (31.08.2000-y.).

25. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi qonuni (03.07.1992-y.).

26. O‘zbekiston Respublikasining «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonuni (20.08.1999-y.).

27. O‘zbekiston Respublikasining «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonuni (28.12.1993-y.).

28. O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonuni (28.12.1993-y.).

29. O‘zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi qonuni (28.12.1993-y.).

Ekologiya huquqiga oid normativ hujjatlar

1. *Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish rejalarini ishlab chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida* // O‘zR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 16.02.2012-y. 2325-sonli qarori.

2. *2011-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit davlat monitoringi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 31.10.2011-y. 292-sonli qarori.

3. *Simobli lampalarning ishlatilib bo‘lgan resurslarini to‘plash va ularni utilizatsiya qilishni tashkil etish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 21.09.2011-y. 266-sonli qarori.

4. *O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi huzurida Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 26.08.2011-y. 243-sonli qarori.

5. *O‘zbekiston Respublikasining «Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida»gi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimcha kiritish haqida»* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 25.05.2011-y. 150-sonli qarori.

6. *Kommunal xo‘jaligi tizimida tabiatni muhofaza qilish faoliyatini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 03.02.2010-y. 11-sonli qarori.

7. *O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 15.12.2009 y. 231-sonli qonuni.

8. *Radioaktiv moddalar va radioaktiv chiqindilar, shuningdek yadroviy materiallar aylanishini davlat tomonidan hisobga olish va nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 13.08.2009-y. 231-sonli qarori.

9. *Kioto protokolining musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida «O‘ztransgaz» aksiyadorlik kompaniyasining kompressor stansiyalarida tabiiy gaz sizib chiqishini kamaytirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 23.06.2009-y. 175-sonli qarori.

10. *Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari aylanishini davlat tomonidan hisobga olish va nazorat qilish tizimini tashkil etish qoidalarini tasdiqlash haqida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 03.04.2009 y. 98-sonli qarori.

11. *Vazirlar Mahkamasining «Ugam-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘i va chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi to‘g‘risidagi nizomlarni, Ohangaron va Burchmulla o‘rmon xo‘jaligi korxonalari ustavlarini tasdiqlash haqida» 2001-yil 22-iyundagi 262-son qaroriga qo‘shimchalar*

kiritish to‘g‘risida // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 26.01.2009-y. 20-sonli qarori.

12. *Ishlatib bo‘lingan yoqilg‘i bilan muomalada bo‘lish xavfsizligi to‘g‘risidagi va radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish xavfsizligi haqidagi birlashgan konvensiyaga (Vena, 1997-yil 5-sentyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida* // O‘zR 11.12.2008-y. 186-sonli qonuni.

13. *O‘zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan benzin va dizel motorlari bilan jihozlangan «M2», «M3» va «N2» toifalaridagi yangi avtotransport vositalarini «Evro-2» ekologik darajadan kam bo‘lmagan talablarga muvofiqligi bo‘yicha ekologik sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik yo‘riqnomani tasdiqlash haqida* // O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O‘zR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 17.04.2007 y. 1670-sonli qarori.

14. *Boshoqli don ekinlari somonini yoqib yuborilishi natijasida etkaziladigan zararni aniqlash hamda ushbu holatlarni sodir etgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan jarimalar qo‘llash bo‘yicha nizomni tasdiqlash haqida* // O‘zR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirlig, Moliya vazirligining 25.12.2006 y. 1647-sonli qo‘shma qarori.

15. *Kioto protokolining musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investisiya loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida* // O‘zR Prezidentining 06.12.2006 y. 525-sonli qarori.

16. *2006–2010 yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 16.03.2006 y. 48-sonli qarori.

17. *Tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun to‘lovlar tizimini takomillashtirish to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 06.02.2006 y. 15-sonli qarori.

18. *Ayrim davlat kadastrlarini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 15.11.2005 y. 250-sonli qarori.

19. *O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensasiya to‘lovlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomga qo‘shimcha kiritish haqida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 18.05.2005 y. 126-son qarori.

20. *O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 01.04.2005 y. 95-sonli qarori.

21. *Namangan viloyatida Norin daryosining suvni muhofaza qilish zonasini va sohilbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 13.04.2004-y. 179-sonli qarori.

22. *Andijon va Namangan viloyatlarida Qoradaryoning suvni muhofaza qilish zonasini va sohilbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 13.04.2004-y. 178-sonli qarori.

23. *Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalada bo‘ladigan sohalardagi faoliyat turlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 06.03.2004 y. 111-sonli qarori.

24. *Surxondaryo viloyatidagi Surxondaryo daryosining suvni muhofaza qilish zonasini va qirg‘oqbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 12.01.2004-y. 15-sonli qarori.

25. *Chuchuk yer osti suvlari chiqadigan zonalarni belgilash to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 12.01.2004-y. 14-sonli qarori.

26. *Toshkent viloyatida va Toshkent shahrida Chirchiq daryosining suvni muhofaza qilish zonasi va qirg‘oqbo‘yi polosasini belgilash to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 29.10.2003-y. 471-sonli qarori.

27. *Vazirlar Mahkamasining «Ugam-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘i va Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi to‘g‘risidagi nizomlarni, Ohangaron va Burchmulla o‘rmon xo‘jaligi korxonalari ustavlarini tasdiqlash haqida» 2001-yil 22-iyundagi 262-son qaroriga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 26.01.2009 y. 20-sonli qarori.

28. *Ishlatib bo‘lingan yoqilg‘i bilan muomalada bo‘lish xavfsizligi to‘g‘risidagi va radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish xavfsizligi haqidagi birlashgan konvensiyaga (Vena, 1997-yil 5-sentyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida* // O‘zR qonuni 23.12.2008 y.

29. *2008–2012-yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 19.09.2008-y. 212-sonli qarori.

30. *O‘zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan benzin va dizel motorlari bilan jihozlangan «M2», «M3» va «N2» toifalaridagi yangi avtotransport vositalarini «Yevro-2» ekologik darajadan kam bo‘lmagan talablarga muvofiqligi bo‘yicha ekologik sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik yo‘riqnomani tasdiqlash haqida* // O‘zR Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 17.04.2007-y. 1670-sonli qo‘shma qarori.

31. *Boshoqli don ekinlari somonini yoqib yuborilishi natijasida etkaziladigan zararni aniqlash hamda ushbu holatlarni sodir etgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan jarimalar qo'llash bo'yicha nizomni tasdiqlash haqida* // O'zR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligining 25.12.2006-y. 1647-sonli qo'shma qarori.

32. *Kioto protokolining musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida* // O'zR Prezidentining 06.12.2006-y. PQ-525 qarori.

33. *2003–2005-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturini tasdiqlash to'g'risida* // O'zR Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.01.2003 y. 16-sonli qarori.

34. *2006–2010-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturini tasdiqlash to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 16.03.2006-y. 48-sonli qarori.

35. *Tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini takomillashtirish to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 06.02.2006 y. 15-sonli qarori.

36. *Ayrim davlat kadastrlarini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 15.11.2005-y. 250-sonli qarori.

37. *O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomga qo'shimcha kiritish haqida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 18.05.2005 y. 126-sonli qarori.

38. *O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun to'lovlar tizimini takomillashtirish to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 01.05.2003-y. 199-sonli qarori.

39. *Yer osti chuchuk suvlari hosil bo'ladigan zonalarga respublika ahamiyatiga ega bo'lgan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomini berish to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 26.08.2002 y. 302-sonli qarori.

40. *Qashqadaryo viloyatidagi Qashqadaryo daryosining suvni muhofaza qilish zonasini va qirg'oqbo'yi polosasini belgilash to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 06.03.2002-y. 80-sonlir qarori.

41. *Chuchuk yer osti suvlari hosil bo'ladigan zonalarga alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maqomini berish to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 16.01.2002-y. 23-sonli qarori.

42. *O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 31.12.2001 y. 491-sonli qarori.

43. *O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida* // O'zR Oliy Majlisining 10.02.2002 y. 322-II-sonli qarori.

44. *Zarafshon daryosi havzasida ekologik va sanitariya-epidemiologik vaziyatni yaxshilash to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 04.10.2001 y. 401-sonli qarori.

45. *Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasining tabiiy boyliklarini saqlab qolish hamda dam olish va sog'lomlashtirish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 06.09.2001-y. 362-sonli qarori.

46. *Ugam-Chotqol davlat milliy tabiat bog'i va Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi to'g'risidagi nizomlarni, Ohangaron va Burchmulla o'rmon xo'jaligi korxonalari ustavlarini tasdiqlash haqida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 22.06.2001-y. 262-sonli qarori.

47. *O'zbekiston Respublikasida o'rmonlarning qo'riqlanish toifalari bo'yicha bo'linishini tasdiqlash to'g'risida* // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.04.2001-y. 163-sonli qarori.

48. *O'zbekiston Respublikasi hududida ifloslantiruvchi moddalarni tabiiy muhitga chiqarganlik uchun (tashlaganlik) va chiqindilarni joylashtirganlik uchun to'lovlarni hisoblab chiqish va to'lash tartibiga (o'zgartirish va qo'shimchalari)* // O'zR Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 06.10.2000-y. 883-1-sonli qo'shma qarori.

49. *Ekologik xavfli mahsulotlar va chiqindilarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirishni va ularni uning hududidan olib chiqishni tartibga solish to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 19.04.2000-y. 151-sonli qarori.

50. *Tabiatni muhofaza qilish jamoat noziri to'g'risida Nizom* // O'zR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 30.03.2000-y. 915-sonli qarori.

51. *Ozonni buzuvchi moddalarni va tarkibida ular mavjud bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirishni va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishni tartibga solish to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 14.03.2000-y. 90-sonli qarori.

52. *Chimyon–Chorvoq zonasi tabiiy boyliklarini saqlash hamda hududni o'zlashtirishga kompleks va izchillik bilan yondashishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida* // O'zR Vazirlar Mahkamasining 10.03.2000-y. 83-sonli qarori.

53. *O‘zbekiston Respublikasi hududida ifloslantiruvchi moddalarni tabiiy muhitga chiqarganlik uchun (tashlaganlik) va chiqindilarni joylashtirganlik uchun to‘lovlarni hisoblab chiqish va to‘lash* // O‘zR Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 26.01.2000-y. 883-sonli qo‘shma qarori.

54. *1999–2005-yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 20.10.1999-y. 469-sonli qarori.

55. *Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 27.10.1998-y. 455-sonli qarori.

56. *O‘zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 10.03.1998-y. 104-sonli qarori.

57. *O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlantirish bo‘yicha milliy komissiyasi to‘g‘risida* // O‘zR Vazirlar Mahkamasining 12.11.1997-y. 510-sonli qarori.

58. *Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida* // O‘zR Oliy sudi Plenumining 20.12.1996-y. 36-sonli qarori.

59. *O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida* // O‘zR Oliy Majlisining 26.04.1996-y. 232-I-sonli qarori.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET VEB-SAYTLARI

I. Umumiy adabiyotlar

1. *Каримов Ислом.* Асарлар тўплами. – Т.: «Ўзбекистон», 1999–2011-йй.

2. *Табиат. Жамият. Маънавият* (Президент Ислом Каримов асарларида экология масалаларининг ёритилиши).Тўлдирилган иккинчи нашри / Экологик таълим ва тарбия учун қўлланма // Сўз боши ва тузувчи А.Нигматов. – Т.: «Ўзбекистон», 2009.

3. *Давлат ва ҳуқуқ назарияси*. – Т.: Иқтисод ва ҳуқуқ дунёси нашриёт уйи, 2000.

4. *Давлат ва ҳуқуқ назарияси.* Дарслик. – Т. – Ўзб Респ.И,И.В. Академияси, 2010.

5. *Исломов З. М.* Проблемы власти: ее понимание, назначение, социальная ценность. – Т.: ТГЮИ, 2003.

6. *Nigmatov A.N.* Ekologiya nima? – T.: «Turon iqbol», 2005.

7. *Реймерс Н. Ф.* Природопользование. Словарь-справочник. – М., 1990.

8. *Саидов А., Таджиханов У., Одилқориев Х.* Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Т.: «Шарқ», 2002.

9. *Саидов А. Х.* Халқаро ҳуқуқ. – Т.: Адабиёт жамғармаси, 2001.

II. Maxsus adabiyotlar

1. *Антонов И. П.* Основы правовой системы Федеративной Республики Германия.

2. *Арипов Д.У.* Ўзбекистон Республикасининг «Чиқиндилар тўғрисида»ги қонунига шарҳ. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2007. ческий и историко-правовой аспекты). – М.: Академия управления МВД России, 2003.

3. *Бекназов Р. У., Новиков Ю. В.* Охрана природы. – Т.: «Ўқитувчи», 1995.

4. *Боботов С. В., Жигачев И. Ю.* Введение в правовую систему США. – М.: Норма, 1997.

5. *Давид Р.* Основные правовые системы современности. – М.: Международные отношения, 1986.

6. *Ekologiya huquqi.* Darslik. / Mas’ul muharrir M.B. Usmonov. – T.: TDYI, 2006.

7. *Инако Ц.* Современное право Японии / Отв. ред. В.А.Туманов.– М.: Прогресс, 1981.

8. *Марченко М. Н.* Правовые системы современного мира.- М.: Зерцало, 2001.

9. *Махкамов Д.Н.* Ўсимлик дунёсидан тадбиркорлик мақсадларида фойдаланишнинг ҳуқуқий ҳолати.- ТДЮИ нашриёти, 2011.

10. *Наруллев О.Х.* Халқаро экология ҳуқуқи. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2007.

11. *Narzullayev* O. Ekologiya huquqi. – T.: TDYI nashriyoti, 2011.

12. *Национальный доклад* «О состоянии окружающей природной среды и использовании природных ресурсов Республики Узбекистан». – Т.: «Chinor» ENK, 1995–2008.

13. *Нигматов А.Н.* Экология ҳуқуқи: схемалар ва тушунчаларда (ўзбек ва рус тилларда). Ўқув қўлланма.- Т.: Иқтисод ва ҳуқуқ дунёси, 1999.

14. Nigmatov A. O‘zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi. - T.: «Gofur G‘ulom», 2003.
15. Нигматов А. Ўзбекистон Республикасининг Экология ҳуқуқи. Дарслик. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2004.
16. Николас А. Р. Правовое регулирование природопользования и охраны окружающей среды в США. – М.: Прогресс, 1990.
17. Нурматов М.М. Экологик ҳуқуқий жавобгарлик.- Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009.
18. *Петров В. В.* Экологическое право России. – М.: Бек, 1997.
19. Правовые системы стран мира: Энциклопедический справочник . – М.: Норма, 2003.
20. Ражабов Н.Ш. Ўрмон ҳуқуқи. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2007.
*21. Скрипников Н.*К. Право водопользования, водопотребления и охрана вод.-Т.: Dizayn-prees,2011.
22. Сув ҳуқуқи (Ж.Т. Холмўминов нинг умумий таҳрири остида). – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011.
23. Усмонов М. Б. Табиатни муҳофаза қилишнинг конституциявий асослари. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2002.
24. Усмонов М.Б., Нарзуллаев О. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисидаги»ги қонунига шарҳлар.- Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
25. Файзуллаева Г.Г. Сотрудничесвто Республики Узбекистан в сфере охраны окружающей среды.:Международно-правовые аспекты. Т.: Изд.ТГЮИ, 2008.
26. Файзуллаева Г.Г., Файзуллева В.Г. Лесное право Республики Узбекистан.-Т.: Изд.ТГЮИ, 2011.
27. Холмўминов Ж.Т. Экология ва қонун. – Т.: «Адолат», 2000.
28. Холмўминов Ж. Т. Экология ҳуқуқи // Чизмалар альбоми. – Т.: ЎзР ИИВ Академияси, 2002.
29. Холмўминов Ж. Т. Экология ҳуқуқи // Дарслик – Т.: ИИВ Академияси, 2003.
30. Холмўминов Ж.Т. Табиий ресурслардан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг экологик-ҳуқуқий муаммолари. – Т.: «Фалсафа ва ҳуқуқ», 2009.
31. Холмўминов Ж.Т. Тадбиркорларнинг табиий ресурслардан фойдаланиш ҳуқуқи // Рисола.-Т.:ТДЮИ нашриёти, 2011.-60 б.
32. Хамроев С. С. Ер ости бойликларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилишни ҳуқуқий тартибга солиш муаммолари. – Т.: ТДЮИ, 2003.
33. Хайитбоев Ф. П. Ҳозирги замон асосий-ҳуқуқий тизимлари. Ўқув қўлланма.- Т.: ТДЮИ, 2006.

34. Экология. Юридический энциклопедический словарь. – М.: «Норма», 2001.
35. Экология ҳуқуқи (М. Б. Усмоновнинг умумий таҳрири остида). – Т.: Адабиёт жамғармаси, 2001.
36. Ўрмон ҳуқуқи. (Ж.Т. Холмўминов нинг умумий таҳрири остида) – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011.
37. Ғуломов М., Жўраев Й. Экология: жиноят ва жазо. – Т.: «Ўзбекистон», 1991.

III. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Бекназов Р. У., Новиков Ю. В. Охрана природы.- Т.: «Ўқитувчи», 1995.
2. Бринчук М.М. Экологическое право. Учебник. - М.: 2004.
3. Валуконис Г.Ю., Мурадов Ш.О. Основы экологии том I. Общая экология книга I. – Т.: «Меҳнат», 2001.
4. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish.- T., 2005.
5. *Нигматов А., Икромов Р.* Ўзбекистон да фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини такомиллаштириш. – Т.: ЎзМУ нашриёти, 2004.
6. *Нигматов А.* Экология.- Т.: «ИПТД им.Чулпана», 2008.
7. Популярная экологическая энциклопедия Республики Узбекистан.- Т.: «Chinor ENK», 2008-2009.
8. Ражабов Н.Ш. Экологик сертификатлаштиришни такомиллаштиришнинг айрим масалалари // Ж. Давлат ва ҳуқуқ, 2005. № 2.
9. Реймерс Н. Ф. Надежды на выживание человечества: Концептуальная экология. – М.: «Россия молодая», 1992.
10. *Sultonov R.S.* Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari.- T . «Musiqa», 2007.
11. *Табиий ресурсларга нисбатан мулк ҳуқуқи* // Илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: ТДЮИ, 2007.
12. Умаров Д.М. Полномочия государственных органов общей компетенции в области охраны государственных заповедников Республики Узбекистан.– Т.: ТДЮИ Ахборотномаси, 2009.
13. Усмонов М.Б. Атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш муаммолари. // Ж. Қонун ҳимоясида, 2004. № 7.
14. Файзиев Ш.Х. Экологическая политика государства: Концепция правового обеспечения. // Ж. Ҳуқуқ. Право. Law. 2003. № 3.

15. Экология қонунчилигини такомиллаштириш муаммолари // Илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент: ТДЮИ, 2004.

16. Экологик қонунчиликни қўллаш механизмини такомиллаштириш муаммолари // Илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент: ТДЮИ, 2007.

17. Эргашев А. Умумий экология.- Т.: «Ўзбекистон», 2003.

18. Эргашев А.Э., Шералиев А.Ш., Сувонов Х.А., Эргашев Т.А. Экология ва табиатни муҳофаза қилиш. Тошкент «Фан». 2009.

19. Ўзбекча-русча-инглизча экологик изоҳли луғат.-Т.: «Chinor ENK», 2004.

20. Ўзбекистон Республикаси «Қизил китоб»и / Красная книга Республики Узбекистан, 2 жилдли. – Т.: «Chinor ENK», 2009.

IV. Internet veb-saytlari

1. **www.lex.uz** – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
2. www.nature.uz – O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi.
3. www.eso.uz – O‘zbekiston ekologik harakati sayti.
4. www.climate.uz – «O‘zgidromet»ning maxsus iqlimga oid tarmog‘i.
5. www.un.org/esa/sustdev/ – Birlashgan millatlar tashkiloti(BMT) ning Barqaror rivojlanish komissiyasi.
6. www.unesco.org – BMTning Maorif, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti.
7. www.unep.org – BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi.
8. www.undp.org – BMTning Rivojlanish dasturi.
9. www.unfccc.int – BMTning Iqlim o‘zgarishiga oid Ramkali konvensiya sekretariati.
10. www.unfra.org – BMTning Aholishunoslik dasturi.
11. www.unese.org/env/esd/ – BMTning Iqtisodiyot komissiyasi.
12. www.sgp.org – Global ekologik jamg‘armaning kichik loyihalar dasturi.
13. www.worldresources.org – Jahon tabiiy resurslar dasturi.
14. www.who.org – Butunjahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti.
15. www.biodiv.org – Biologik xilma-xillik bo‘yicha sayt.
16. www.carec.kz – Markaziy Osiyo ekologik mintaqaviy markaz sayti.

17. www.eea.eu.dk – Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha Yevropa agentligi.
18. www.panda.org – Butunjahon yovvoyi tabiat jamg‘armasi.
19. www.nwl.net.ru – Ekologik tashkilotlarning eng yirik elektron tarmog‘i.
20. www.carboncredits.nl – Issiqxona gazlarini kamaytirish bo‘yicha kvotani sotib olishga doir Gollandiyaning «YERUPT» dasturi.
21. www.bp.com – «British Petroleum» kompaniyasining dasturi.

Bilimlar xazinaboni
kitobxon.uz

MUNDARIJA

Muqaddima .....

U M U M I Y Q I S M

I bob. DAVLAT, HUQUQ VA TABIAT. TABIATNI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH ZARURATI .....
1. Davlat, huquq va tabiat nima? .....
2. Jamiyatning tabiatga nisbatan munosabat shakllari .....
3. Davlat va va huquqni belgilovchi ekologik qarashlar .....
4. Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning ekologik prinsiplari. .....
5. O‘zbekistonning ekologik siyosati va ekologik ta’limning tashkiliy-huquqiy muammolari .....
6. Atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish zarurati .....

II bob. EKOLOGIYA HUQUQI TUSHUNCHASI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI, OBYEKTI VA PREDMETI .....
1. Ekologiya huquqi tushunchasi .....
2. Atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish tarixi .....
3. Ekologiya huquqi obyekti va predmeti .....
4. Ekologiya huquqining o‘ziga xos xususiyatlari va prinsiplari .....

III bob. EKOLOGIK-HUQUQIY MUNOSABAT VA EKOLOGIK-HUQUQIY MEXANIZM .....
1. Ekologik-huquqiy munosabat tushunchasi va normalari .....
2. Ekologik-huquqiy munosabat obyekti .....
3. Ekologik-huquqiy munosabat subyektlari .....
4. Ekologik-huquqiy munosabatlarnitartibga solish metodlari .....
5. Ekologik-huquqiy mexanizm .....
6. Ekologiya huquqining tizimi .....

IV bob. EKOLOGIYA HUQUQI MANBALARI .....
1. Ekologiya huquqi manbalari va ularning tasniflanishi .....
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – ekologiya huquqining asosiy manbayi .....
3. Qonunlar – ekologiya huquqining manbayi sifatida .....
4. Qonun osti normativ-huquqiy hujjatlarning ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati .....

V bob. TABIIY OBYEKTLARGA NISBATAN MULK HUQUQI .....
1. Ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan mulk huquqi .....
2. Ekologiya huquqi obyektlariga nisbatan mulk huquqining kelajak istiqbollari .....

VI bob. EKOLOGIK BOSHQARUV .....
1. Ekologik boshqaruv tushunchasi va tizimi .....
2. Davlatning ekologik boshqaruvi .....
3. O‘zini o‘zi boshqarish organlari (fuqarolar yig‘ini)ning ekologik funksiyalari .....
4. Nodavlat notijorat organlarining ekologik boshqaruvi .....

VII bob. EKOLOGIK KADASTR, NAZORAT VA EKSPERTIZA .....
1. Ekologik boshqaruvda ekologik kadastr, nazorat va ekspertizaning ahamiyati .....
2. Ekologik nazorat .....
3. Ekologik ekspertiza .....

VIII bob. EKOLOGIK JAVOBGARLIK .....
1. Ekologik javobgarlik tushunchasi va turlari .....
2. Ekologik-huquqiy javobgarlik .....
3. Ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarliklarni qo‘llash asoslari .....

A L O H I D A Q I S M

IX bob. YERLARNI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH .....
1. Yer muammolari va ularni yechish yo‘llari .....
2. Yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilishning umumiy qoidalari .....
3. Yer fondi toifalari bo‘yicha yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish .....
4. Yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilishning mazmuni va mohiyati .....
5. Yer nazorati va yuridik javobgarlik .....
6. O‘zbekistonda yerga oid munosabatlarni tartibga solishning ekologik-huquqiy masalalari .....

X bob. SUV VA SUVDAN FOYDALANISHNI EKOLOGIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....
1. Suv resurslari va ularni ekologik-huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati .....
2. Davlat suv fondi va uni boshqarish .....
3. Suvlardan oqilona foydalanishning ekologik-huquqiy asoslari .....
4. Suvlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish .....
5. Iqtisodiyotning ayrim sohalarida suvdan oqilona foydalanish qoidalari .....

XI bob. YER OSTI BOYLIKLARINI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH .....
1. Yer osti boyliklari tushunchasi va ularni huquqiy muhofaza qilish zarurati .....
2. Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofazalashning ekologik-huquqiy talablari .....
3. Yer osti qonchilik munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish .....
4. Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqi .....

XII bob. O‘SIMLIK DUNYOSINI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH .....
1. O‘simlik dunyosi va uni ekologik-huquqiy muhofaza qilish zarurati .....
2. O‘simlik dunyosini muhofazalashning huquqiy tartibi .....
3. O‘simlik dunyosini muhofaza qilish chora-tadbirlari .....
4. O‘simlik dunyosi obyektlarini nazorat qilish va javobgarlik .....
5. Aholi punktlarida daraxt va butalarni kesish qoidalari va javobgarligi .....

XIII bob. O‘RMONLARNI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH.....
1. O‘rmon – alohida Ekologiya huquqining obyekti sifatida .....
2. O‘rmonlarga oid munosabatlarni tartibga solishning umumiy jihatlari .....
3. O‘rmonlardan foydalanish huquqi .....
4. O‘rmonlarni huquqiy himoyalash .....

XIV bob. HAYVONOT DUNYOSINI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH .....
1. Hayvonot dunyosi, uni ekologik-huquqiy muhofaza qilishning maqsadi va vazifalari .....
2. Hayvonot dunyosi obyektlari va ularni muhofaza qilish talablari .....
3. Hayvonot dunyosidan foydalanish tartibi .....
4. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik .....

XV bob. ATMOSFERA HAVOSINI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH .....
1. Atmosfera havosi — Ekologiya huquqining obyekti sifatida .....
2. Atmosfera havosini muhofaza qilishning umumiy qoidalari .....
3. Atmosfera havosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish talablari .....
4. Atmosfera havosini muhofaza qilishning kafillik mexanizmi .....

XVI bob. MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING HUQUQIY HOLATI.....
1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tushunchasi va ularning tasniflanishi .....
2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining umumiy jihatlari .....
3. Muhofaza etiladigan ijtimoiy-ekologik vazifalarni bajaruvchi hududlarning huquqiy holati .....
4. Qo‘riqxona – ekologik vazifalarni bajaruvchi muhofaza etiladigan hududlar va obyektlarning huquqiy holati .....
5. Iqtisodiy-ekologik vazifalarni bajaruvchi alohida muhofaza etiladigan hududlarning huquqiy holati .....

XVII bob. ANTROPOGEN O‘ZGARGAN HUDUDLARNI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH .....
1. Antropogen o‘zgargan tabiiy muhitni ekologik- huquqiy muhofaza qilish tushunchasi, asosiy turlari va xususiyatlari .....
2. Shaharlarda atrof tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash .....
3. Agrar zonalarda atrof-muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash .....
4. Sanoat zonalarida atrof-muhitni ekologik-huquqiy muhofazalash .....

M A X S U S Q I S M

XVIII bob. ATROF-MUHITNI XALQARO-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH.....
1. Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish tushunchasi va rivojlanish tarixi .....
2. Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish prinsiplari va manbalari .....
3. Atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy obyekti .....
4. Xalqaro ekologik tashkilotlar, konferensiyalar va jamg‘armalar .....
5. Ayrim xorijiy mamlakatlarda ekologiya huquqi .....
6. Xalqaro ekologik javobgarlik .....

Ekologiya huquqiga oid O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va normativ hujjatlari.....

Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet veb saytlari.....

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение.....

О Б Щ А Я Ч А С Т Ь

I глава. ГОСУДАРСТВО, ПРАВО И ПРИРОДА. НЕОБХОДИМОСТЬ ПРАВОВОЙ ОХРАНЫ ПРИРОДЫ.....
1. Что такое государство, право и природа ? .....
2. Формы отношения общество к природе .....
3. Экологические взгляды, определяющие государство и право .....
4. Экологические принципы правового регулирования общественных отношений .....
5. Экологическая политика Узбекистана и организационно-правовые проблемы экообразования .....
6. Необходимость правовой охраны окружающей среды.....

II глава. ПОНЯТИЕ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ, ОБЪЕКТ И ПРЕДМЕТ ЭКОЛОГИЧЕКСКОГО ПРАВА.....
1. Понятие Экологического права.....
2. История охраны окружающей природной среды.....
3. Объект и предмет Экологического право.....
4. Особенности и принципы Экологического право .....

III глава. ЭКОЛОГО-ПРАВОВОЕ ОТНОШЕНИЕ И ЭКОЛОГО-ПРАВОВОЙ МЕХАНИЗМ.....
1. Понятие и нормы эколого-правовых отношений .....
2. Объекты эколого-правовых отношений .....
3. Субъекы эколого-правовых отношений .....
4. Методы регулирования эколого-правовых отношений .....
5. Эколого-правовой механизм.....
6. Система Экологического право.....

IV глава. ИСТОЧНИКИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ПРАВА.....
1. Источники Экологического право и их классификация.....
2. Конституция Республики Узбекистан – основной источник Экологического права.....
3. Законы – как источник Экологического права .....
4. Роль подзаконных нормативно-правовых актов в регулировании экологических отношений .....

V глава. ПРАВО СОБСТВЕННОСТИ НА ОБЪЕКТЫ ПРИРОДЫ.....
1. Право собственности на объектов Экологического право .....
2. Перспективы право собственности на объекты Экологического права.....

VI глава. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ
1. Понятие и система экологического управления .....
2. Экологическое управление государство.....
3. Экологическая функция органов самоуправления (схода граждан).....
4. Экологическое управление негосударственных некоммерческих организаций.....

VII глава. ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ КАДАСТР, КОНТРОЛЬ И ЭКСПЕРТИЗА .....
1. Роль экологического кадастра, контроля и экспертизы в экологическом управлении .....
2. Экологический контроль.....
3. Экологическая экспертиза .....

VIII глава. ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ .....
1. Понятие и виды экологической ответственности .....
2. Эколого-правовая ответственность.....
3. Основы применение юридической ответственности за экологическое правонарушение .....

О С О Б Е Н Н А Я Ч А С Т Ь

IX глава. ЭКОЛОГО-ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ .....
1. Земельные проблемы и пути их решения.....
2. Общие правила эколого-правовой охраны земель.....
3. Эколого-правовая охрана земель по земельным фондом .....
4. Содержание и сущность эколого-правовой охраны земель.....
5. Земельный контроль и юридическая ответственность .....
6. Эколого-правовые вопросы регулирования земельных отношений в Узбекистане.....

X глава. ЭКОЛОГО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ВОДЫ И ВОЛДОПОЛЬЗОВАНИЯ .....
1. Водные ресурсы и необходимость их эколого-правового регулирования. .....
2. Государственный водный фонд и его управление.....
3. Эколого-правовая основа рasионального использования вод .....
4. Эколого-правовая охрана вод.....
5. Правила рasионального использования вод в некоторых отраслях экономики.....

XI глава. ЭКОЛОГО-ПРАВОВАЯ ОХРАНА НЕДР .....
1. Понятие недры и необходимость их правовой охраны.....
2. Использование недр и эколого-правовые требования их охраны.....

3. Государственное регулирование отношений в области использования недр .....
4. Право использования достояний недр.....
XII глава. ЭКОЛОГО-ПРАВОВАЯ ОХРАНА РАСТИТЕЛЬНОГО МИРА .....
1. Растительный мир и необходимость их эколого-правовой охраны.....
2. Порядок правовой охраны растительного мира .....
3. Меры охраны растительного мира.....
4. Контроль объектов растительного мира и ответственность.....
5. Правила рубки деревьев и кустарников в населенных пунктах и ответственность .....
XIII глава. ЭКОЛОГО-ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЛЕСА .....
1. Лес – как самостоятельный объект Экологического права .....
2. Общие аспекты регулирования отношений к лесу.....
3. Право пользования лесом .....
4. Правовая охрана леса .....
XIV глава. ЭКОЛОГО-ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЖИВОТНОГО МИРА ....
1. Животный мир, цель и задачи их эколого-правовой охраны.....
2. Объекты животного мира и требования их охраны .....
3. Порядок использования животного мира .....
4. Ответственность за нарушения норм законодательства в области охраны и использования животного мира .....
XV глава. ЭКОЛОГО-ПРАВОВАЯ ОХРАНА АТМОСФЕРНОГО ВОЗДУХА.....
1. Атмосферный воздух – как объект Экологического права.....
2. Общие правила охраны атмосферного воздуха.....
3. Требования эколого-правовой охраны атмосферного воздуха.....
4. Механизм гаранта охраны атмосферного воздуха .....
XVI глава. ПРАВОВОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ОХРАНЯЕМЫХ ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЙ .....
1. Понятие охраняемые природные территории и их классификация .....
2. Общие аспекты правового положения охраняемых природных территорий.....
3. Правовое положение охраняемых природных территорий, выполняющие социально-экологические функции.....
4. Объекты и правовое положение охраняемых природных территорий, выполняющие заповедно-экологические функции.....

5. Правовое положение охраняемых природных территорий, выполняющие экономика-экологические функsии .....
XVII глава. ЭКОЛОГО-ПРАВОВАЯ ОХРАНА АНТРОПОГЕННО ИЗМЕНЕНЫХ ТЕРРИТОРИЙ.....
1. Понятие, основные виды и особенности эколого-правовой охраны антропогенно измененных территорий.....
2. Эколого-правовая охрана окружающей среды в городах .....
3. Эколого-правовая охрана окружающей среды в аграрных зонах.....
4. Эколого-правовая охрана окружающей среды в промышленных зонах.....

С П Е Ц И А Л Ь Н А Я Ч А С Т Ь

XVIII глава. МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ .....
1. Понятие и историческое развитие международно-правовой охраны окружающей среды .....
2. Принципы и источники международно-правовой охраны окружающей среды.....
3. Международно-правовые объекты охраны окружающей среды. .....
4. Международные экологические организация, конференции и фонды.....
5. Экологическое право в некоторых зарубежных странах .....
6. Международная экологическая ответственность.....

Законы и нормативные акты Экологического права Республики Узбекистан .....

Рекомендуемая литература и веб сайты Интернета .....

TABLE OF CONTENTS

Introduction .....

G E N E R A L P A R T

I chapter. NECESSITY OF LEGAL REGULATION OF WILDLIFE MANAGEMENT .....
1. Close coherence of the nature and a society ? .....
2. Ecological concepts (system of sights) .....
3. Ecological principles (directing rules) .....
4. Ecological principles of legal regulation of public .....
5. An ecological policy of Uzbekistan, organizational and legal problems of ecological education .....
6. Necessity of legal regulation of protection of the surrounding natural environment

II chapter. THE ECOLOGICAL LAW: CONCEPT, STAGES OF DEVELOPMENT, THE SUBJECT .....
1. Concept of the Ecological law .....
2. From a history of protection of the nature .....
3. A subject of the Ecological law .....
4. Features and principles of the Ecological law .....

III chapter. ECOLOGICAL-LEGAL ATTITUDE AND ECOLOGICAL-LEGAL MECHANISM .....
1. Concept and norms of ecological -legal relations .....
2. Objects of ecological -legal relations .....
3. Subjects of ecological -legal relations. .....
4. Methods of regulation of ecological -legal relations .....
5. Ecological-legal mechanism .....
6. System of the ecological law .....

IV chapter. SOURCES OF THE ECOLOGICAL LAW .....
1. Sources of the ecological law and its classification .....
2. The constitution Republic Uzbekistan - the basic source of the Ecological law .....
3. Laws - as a source of the Ecological law .....
4. The role of statutory acts in regulation of ecological attitudes .....

V chapter. THE PROPERTY RIGHT TO OBJECTS OF THE NATURE .....
1. The property right to objects of the nature .....
2. Objects of the property right and prospect its development .....

VI chapter. ECOLOGICAL MANAGEMENT .....
1. Concept and system of ecological management .....
2. The state ecological management. .....
3. Ecological functions of local self-management .....
4. Ecological management of nongovernmental not state bodies .....

VII chapter. THE ECOLOGICAL CADASTRE, THE CONTROL AND EXAMINATION .....
1. A role of an ecological cadastre, the control and examination in ecological management .....
2. The ecological control .....
3. Ecological examination .....

VIII chapter. THE ECOLOGICAL RESPONSIBILITY .....
1. Concept and kinds of the ecological responsibility .....
2. The Ecological – legal responsibility .....
3. Bases of attraction to the legal responsibility for ecological .....

S P E C I A L P A R T

IX chapter. ECOLOGICAL-LEGAL PROTECTION OF THE GROUNDS .....
1. Problems of the grounds and ways of their solution .....
2. The general rules of a ecological -right protection of the grounds .....
3. Ecological -legal ground fund .....
4. The maintenance and sense of a ecological -legal protection of the grounds .....
5. The control over protection and use of the grounds .....
6. Environmental-legal issues of regulation of land relations in Uzbekistan .....

X chapter. ECOLOGICAL-LEGAL REGULATION OF WATER AND WATER USE. .....
1. Water resources and necessity of ecological-legal regulation of water attitudes .....
2. The state water fund and its management. .....
3. Ecological -legal bases of rational use of water resources .....
4. Ecological -legal waters. .....
5. Rules of rational use of water in some spheres of economics .....

XI chapter. ECOLOGICAL-LEGAL PROTECTION OF BOWELS .....
1. Concepts a bowels and necessity of their ecological -legal protection .....
2. Requirements to a ecological -right protection of bowels and bowel usage .....
3. State regulation of relations in the field of mineral resources .....

4. The right of bowels use .....
XII chapter. ENVIRONMENTAL-LEGAL PROTECTION OF FLORA ....
1. Flora and necessity of its ecological -legal protection. .....
2. A legal regime of protection of flora .....
3. Legal measures of protection of flora .....
4. The control over protection of flora and the responsibility .....
5. Rules felling of trees and shrubs in the targeted areas and responsibilitiy..
XIII chapter. ECOLOGICAL-LEGAL PROTECTION OF WOODS .....
1. A wood - as independent object of the Ecological law.....
2. The general features of legal regulation of wood attitudes .....
3. The right of woods use .....
4. A legal protection of woods.....
XIV chapter. ECOLOGICAL-LEGAL PROTECTION OF FAUNA .....
1. The purposes and problems of a ecological -legal protection of fauna.....
2. Objects of fauna and the requirements to their legal protection .....
3. The right order of using fauna ….....
4. The responsibility for infringement of the legislation on fauna.....
XV chapter. ECOLOGICAL-LEGAL PROTECTION OF ATMOSPHERIC AIR.....
1. Atmospheric air - as a source of the Ecological law .....
2. The general rules of protection of atmospheric air .....
3. Requirements of a ecological -legal protection of atmospheric air. .....
4. The mechanism of a guarantee of a legal protection of atmospheric air.....
XVI chapter. THE LEGAL STATUS OF PROTECTED NATURAL TERRITORIES .....
1. Concept protection natural territories and their classification.....
2. The general features legal position protected natural territories .....
3. A legal status protected natural territories, carrying out social - ecological functions.....
4. A legal status protected natural territories, carrying out ecological -reserved functions .....
5. A legal status protected natural territories, carrying out economic - ecological functions. .....
XVII chapter. ECOLOGICAL-LEGAL PROTECTION OF ATROPOGENICALLY CHANGED TERRITORIES
1. Concept, the basic kinds and features of a ecological -legal protection anthropogenically changed territories .....
2. Ecological -legal protection of environment in cities .....
3. Ecological -legal protection of environment in an agrarian zone .....
4. Ecological –legal protection of environment in an industrial zone.....

SPECIAL PART

XVIII chapter. INTERNATIONAL LEGAL PRESERVATION OF THE ENVIRONMENT.....
1. Concept and a history of development of international legal preservation of the environment .....
2. Principles and sources of international legal preservation of the environment .....
3. International legal objects of preservation of the environment.....
4. The international ecological organization, conference and funds .....
5. Ecological the right in some foreign countries.....
6. The international ecological responsibility .....

Laws and statutory acts of Republic Uzbekistan by the Ecological law .....

The recommended literature and Internet web-sites.....

Bilimlar xazinaboni
bxon.uz

Nigmatov Asqar
Ekologiya huquqi. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi uchun darslik.— mas'ul muharrir Y.O.Jo'rayev — T.: ....nashriyoti, 2012. — 352 b.

ASQAR NIGMATOV

EKOLOGIYA HUQUQI

5630100- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish (tarmoqlar bo'yicha) bakalavr yo'nalishlari hamda 5A630102- Ekologiya (tarmoqlar bo'yicha) magistratura mutaxassisligidagi talabalar uchun

D A R S L I K

«NOSHIR» – Toshkent – 2012

Muharrir
Texnik muharrir *D.Mamadaliyeva*
Rassom *Sh.Odilov*
Musahhih *S.Safayeva*
Sahifalovchi *D.Jalilov*

Nashriyot litsenziyasi AI ¹ 200, 28.08.2011 y.
Berishga berildi 18.06.2012 y. Bosishga ruxsat etildi 04.10.2012 y.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Times» garniturasi. Ofset qog'ozi.
Ofset usulida chop etildi. Hajmi 26,5 b.t. Adadi nusxa.
Buyurtma raqami .

«NOSHIR» nashriyoti, Toshkent sh., Langar ko'chasi, 78.

«NOSHIR» O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi
bosmaxonasida chop etildi, Toshkent sh., Langar ko'chasi, 78.

Bilimlar xazinaboni
Kitobxon.uz